

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A.ABDUG`ANIEV, A.A.ABDUG`ANIEV

QISHLOQ XO`JALIGI IQTISODIYOTI

IKKINCHI NASHR

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi
Oliy o`quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan
oliy o`quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim
yo`nalishlari talabalari uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT - 2011

THE MINISTRY OF HIGER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

A.Abduganiev, A.A. Abduganiev

Agricultural economics

This book is recommended to students of higher education institutions by the council for coordination of activity of scientific methodological amalgaations established among higher education institutions under the ministry of higher and secondary special education.

TASHKENT – 2011

Abdug`aniev A., Abdug`aniev A. A. – Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti -
(darslik) - T.: TDIU, 2011 – 283 bet.

Darslikda qishloq xo`jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirishning nazariy, uslubiy hamda amaliy asoslari “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” talablari asosida yoritilgan; tarmoqda amalga oshirilayotgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyati Respublika Prezidenti asarlariga va amaliyotdagi huquqiy me'yoriy hujjatlarga asoslangan HAMDA jahon iqtisodiyotidagi holatlarni e'tiborga olgan holda bayon etilgan; iqtisodiyotning barcha bosqichlarida (turg'unlik, inqiroz, jonlanish) qishloq xo`jaligida mavjud bo`lgan moddiy-texnika va mehnat resurslaridan, investitsiyalardan, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holati, tadbirkorlik turlarining, tarmoqlarning rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda TIZIMLI tahlil qilinib, kelajakda ularning samaradorligini yuksalishini ta'minlovchi omillar, yo`llari imkon doirasida yoritilgan.

Mas'ul muharrir: O`z. RFA. Akad. G`ulomov S.S.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. T. Farmonov;
i.f.d., prof. B.T. Salimov;
i.f.d., prof. O. Murtozoyev.

KIRISH

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng o`z iqtisodiyotini erkin boshqariladigan, ijtimoiy ximoyaladigan erkin bozor iqtisodi qonunlari va tamoillari asosida shakllantirish hamda rivojlantirish yo`lini tanladi. Demak, mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida jumladan, qishloq xo`jaligida ham erkin bozor munosabatlari barcha qonunlar, kategoriyalar talablari asosida barpo etilib, rivojlantirilishi lozim. Bunday hol, hozirgi davrda qishloq xo`jaligida uning hususiyatlarini e`tiborga olib tarmoqda bozor iqtisodi munosabatlari tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish imkoniyatlarini, uslubiyotini ilmiy jihatdan asoslangan holda batafsil yoritib berish imkoniyatiga ega bo`lgan darslik bo`lishligini taqozo etmoqda. Shuningdek, uning mazmuni Respublikada qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash Milliy Davlat dasturi" talablariga to`liq javob berishi lozim. Yuqoridagi talablarni to`liq e`tiborga olgan holda ushbu darslikda rejali, markazdan boshqarilgan iqtisoddan erkin boshqariladigan, ijtimoiy ximoyalangan bozor iqtisodiga o`tishda qishloq xo`jaligida ilmiy asoslanib, amaliyotda sinalgan, barcha qonun va kategoriyalar talablariga to`liq javob beradigan iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllantirilishini, shu munosabatlardan oqilona foydalangan holda mulkchilikning turli shakllarini barpo etilishini, ularga asoslangan tadbirkorlik subyektlarini tashkil etilishini hamda rivojlantirilishini, ularga yer-suv berilishini, ilg`or fan - texnika yutuqlarini, zamonaviy texnikalarni sotib olish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo`llarini, tarmoqda jozibali investitsion muhitni barpo etish hamda, turli manbalardan investitsiyalarni jalb etish, mavjud yer, suv, mehnat, kapital, mablag` kabi resurslardan to`liq, samarali foydalanish imkoniyatlarini, doimiy hamda o`zgaruvchan harajatlarni kamaytirish yo`llarini, talabni qondiriladigan miqdorda, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni maqsadga muvofiq taqsimlash hamda asoslangan narhlarda sotish oqibatida tarmoqni, korxonani oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta`minlaydigan miqdorlarda yalpi va sof foyda olish imkoniyatlarini, uslubiyotini tizimli yoritib berishga harakat qildik.

Yuqoridagi masalalarni inqiroz sharoitida bozor iqtisodi qonun qoidalarini, barcha munosabatlar tizimining mazmun mohiyati, sabab va oqibatlarini, tushunchalarini, ularning qishloq xo`jaligida qay darajada, qanday shaklda amal qilayotganligini hamda kelajakda takomillashtirish, rivojlantirish imkoniyatlarini, yo`llarini yoritishga baholi qurdat intildik.

Xozirgi davrda mamlakat qishloq xo`jaligida davlat ustuvorligida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan barcha yo`nalishlardagi iqtisodiy islohatlarning ahamiyati, mazmunini yoritishda Respublika Oliy Majlisida qabul qilingan qonunlarga, respublika prezidenti asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va boshqa me`yoriy hujjatlarga asoslangan holda yoritdik.

Qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan asosiy iqtisodiy munosabatlarning mazmun va mohiyatini, amaldagi holatini Iqtisodiyot, Qishloq va Suv xo`jaligi Vazirliklari hamda Davlat statistika qo`mitasi va boshqa manbalardagi ma`lumotlardan foydalanib jadvallar, chizmalar, grafiklar yordamida yoritib berishga harakat qildik.

Darslikning ushbu nashrida qishloq xo`jaligida 2005-2009-yillar mobaynida amalga oshirilgan islohatlar, munosabatlar qo`shilgan. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyotining barcha masalalarining mazmuni va mohiyati yangi ya`ni 2005-2009-yillardagi ma`lumotlar yordamida yoritilgan.

Darslik “Kadrlar tayyorlash Milliy davlat Dasturi” va “Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti” fani bo`yicha biz ishlab chiqqan Respublika muvofiqlashtirish kamissiyasi tasdiqlab, tavsiya etgan namunaviy dastur asosida yozilgan. Unda o`qitishning yangi, zamonaviy tehnalogik usullari xususiyatlarini hisobga olib, har bir mavzuning qisqacha mazmuni bayon etilib, nazorat va muhokama uchun asosiy savollar hamda zarur bo`lgan adabiyotlar ro`yhati keltirilgan.

Mazkur darslik asosan univyerstitet va institutlarda iqtisodiy ta`lim yo`nalishi bo`yicha o`qiyotgan bakalavriat talabalari uchun mo`ljallangan. Undan uzluksiz ta`lim tizimining barcha bo`g`inlarida qishloq xo`jaligi iqtisodi masalalari bilan shug`ullanuvchi o`qituvchilar, talabalar, aspirantlar, tadbirkorlar ham foydalanishlari mumkin. Darslik qishloq xo`jaligi iqtisodiyotiga oid muammo va masalalarning mazmun hamda mohiyatini tushunishga, ularni tarmoq ishlab chiqarishiga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga ko`maklashadi degan umiddamiz.

Mualliflar ushbu darslikning tuzilishi, tarkibi muammalar mazmunining bayon etilish tartibi va uslubi bo`yicha bildirilgan barcha taklif – fikr va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qilib, ularni keyingi nashrlarda e`tiborga olishga harakat qiladilar, darslikni tayyorlash va chop etishga yordam berganlarning barchasiga sidqidildan samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

BIRINCHI BOB

QISHLOQ XO'JALIGINING RESPUBLIKA IQTISODIYOTIDAGI O'RNI, AHAMIYATI. «QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, TADQIQOT USULLARI

- 1.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
- 1.2. Agrar islohotlar, ularning ustuvor yo'nalishlari.
- 1.3. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanning predmeti hamda vazifalari, ularni tadqiq qilish, o'rganish usullari.
- 1.4. «Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

1.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar etarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali tempyatura 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo'lib, bir yilda birnecha marta hosil olish imkonini beradi. O'zbekistonning jami yer maydoni 44.4 mln. gektar (2011 y.) bo'lib, shundan 48,3 foizini turli xildagi qishloq xo'jalik korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo'jaliklari foydalanadilar: ularning yig'indisi mamlakat qishloq xo'jaligini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan mamlakat aholisining iste'mol tovarlariga, qayta ishlash sanoatini esa xomashyoga bo'lgan talablarini qondirishdir. Maqsadni hal etish uchun:

- aholi birdaniga ya'ni qayta ishlanmasdan iste'mol qiladigan sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini barcha talablarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish;
- qayta ishlash sanoati korxonalarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga, ya'ni xom-ashyoga bo'lgan talabini qondirishi lozim.

Hozirgi davrda, bu tarmoqda aholi iste'mol qilayotgan tovarlarning 95 foizidan ko'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iboratdir. 2008-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 19,4 foizi qishloq xo'jaligida yaratilgan. Shu yilda barcha sanoat tarmoqlarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 22,3 foizi, qurilishda esa 5,6 foizi yaratilgan. Raqamlar qishloq xo'jalik tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shu yilda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdagi tadbirkorlar tomonidan 7134,6 mlrd so'mlik yalpi mahsulot yaratilgan. U asosan 3400,7 ming tonna paxta xom-ashyosi 6621,6 ming tonna don, 5221,3 ming tonna sabzavot, 768,0 ming tonna meva, 996,3 ming tonna go'sht, sog'in vaznda 5426,3 ming tonna sut, 897,0 ming dona qorako'l teri, 2431,5 mlrd. dona tuxum va boshqa turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining qiymatidan tashkil topgan.

2008-yilning kuzida boshlangan Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramay Davlat rahnamonligida amalga oshirilgan izchil tadbirlar ta'sirida, 2009-yilda O'zbekistonning yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti 5,7 foizga, 2011-yilning birinchi yarmida esa 6,9foizga oshgan.

Barcha turdagi qishloq xo`jalik mahsulotlarni ishlab chiqarishda respublika iqtisodiyotida band bo`lgan mehnat resurslarining 28 foizga yaqini qatnashgan.

Lekin Respublika qishloqlarida jami aholining uchdan ikki qismi yashaydi. Ishlab chiqarilgan barcha turdagi mahsulotlar 17,2 mln. gektarga yaqin qishloq xo`jalik yerlaridan olingan, shundan 3609,7 ming gektari ekinzor.

Mamlakat dehqonchiligi sug`orishga asoslanganligi uchun katta miqdordagi suv resurslarini talab etadi. Lekin bu talab ichki suv resurslari bilan atigi 40 foizgagina qondirilmoqda. Bunday hol Amudaryo hamda Sirdaryo xavzalaridan katta miqdordagi suv resurslarini jalb etishni talab etadi. Hozirgi davrda qishloq xo`jaligida 42-46 mlrd m³ suv resurslaridan foydalanilmoqda. Tabiatda yer va suv resurslari cheklangan, ular takror ishlab chiqarilmaydigan resurslar hisoblanadi. Shuning uchun ularning har bir gektaridan, har bir m³ dan tadbirkorlik bilan fan-texnika yutuqlarini joriy etib, yil davomida to`liq va samarali foydalanish lozim.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko`plab qishloq xo`jalik texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg`i, yonilg`i, yog`lovchi materiallar va boshqa vositalardan foydalanilmoqda. Masalan, tarmoqda 2009 yilda 76,9 mingga yaqin turli xildagi traktorlar, 21,8 mingtadan ko`proq yuk tashish mashinalari, 4,4 mingtaga yaqin g`alla yig`ishtiradigan, bir mingtaga yaqin paxta tyeradigan kambayinlar, ko`plab boshqa texnikalardan foydalanilgan. Tarmoq miqyosida yerlarning unumdorligini, ekinlarning esa xosildorligini oshirish maqsadida 392,8 ming tonna mineral o`g`itlardan foydalanilgan. Qishloq xo`jaligida ishlab chiqilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarilishi natijasida O`zbekistonning mavqei oshib bormoqda. Hozirgi davrda A va E tipdagi paxta tolasini ishlab chiqarish bo`yicha jahonda Xitoy, AQSh, Hindiston va Pokiston davlatlaridan so`ng beshinchi o`rinni, ularni eksport qilish bo`yicha esa 2-o`rinni egallab kelmoqda. Shuning bilan birgalikda O`zbekiston jahon bozoriga nihoyatda sifatli bo`lgan qorako`l terisini, pillasini, sabzavot, poliz va bog`dorchilik mahsulotlarini olib chiqib sotmoqda. Lekin Respublikaning bu boradagi salohiyatidan to`liq foydalanilayotgani yo`q. Uni ijobiy hal etish uchun tarmoqda yyetishtirilayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlab, jahon bozoriga tayyor mahsulot sifatida chiqarish maqsadga muvofiqdir. Bu borada so`ngi yillarda chet el investitsiyalarini jalb etib katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni kelajakda jadal sur`atlar bilan rivojlantirish siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jio`atdan maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda mamlakat aholisining qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan ta`minlash darajasi yil sayin ortib bormoqda. 2009 yilda respublika aholisining jon boshiga 165 kg.ga yaqin un mahsulotlari, 121 kg paxta xom ashyosi, 159 kg sabzavot mahsulotlari, 49 kg dan ko`proq kartoshka, 38 kg. go`sht, 194 kg sut hamda 87 donaga yaqin tuxum ishlab chiqarilgan. Demak, mamlakatda aholining unga va un mahsulotlariga bo`lgan talabi qondirilgan. Bunga Davlatimiz G`alla mustaqilligi siyosati natijasida erishilgan. Kelajakda uning sifatini yaxshilashga alohida e`tibor berish talab etiladi. Lekin boshqa mahsulotlar bo`yicha xalqimizning meditsina me`yorlari bo`yicha talabi to`liq qondirilganicha yo`q. Bunday xol O`zbekistonda qishloq xo`jaligini yanada jadal sur`atlar bilan rivojlantirilishini taqozo etadi. So`ngi o`n yillarda bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakat qishloq xo`jaligida erkin bozor iqtisodi talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatini beradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy

islohotlar bosqichma-bosqich qat'iy ishonch bilan amalga oshirilishini ta'minlab beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, ular izchillik bilan hayotga joriy etilmoqda. Masalan, yer fuqarolarga umurbod meros qoldirish huquqi bilan bepul berilmoqda, fermer xo'jaliklariga esa 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga foydalanish uchun ijaraga berilmoqda. Qishloqda mulk islohoti natijasida hususiy mulkdorlar sinfi barqaror ravishda shakllanib, rivojlanmoqda. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan maxsulotlarning 99 foizi nodavlat korhonalari ishlab chiqarmoqdalar.

Paxta, g'alladan tashqari boshqa turdagi mahsulotlarni yetishtirib, ularni sotishda erkinlik berildi. Tadbirkorlarga ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun turli xildagi imtiyozli kreditlar berilgan. Lekin amalga oshirilayotgan tadbirlar o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan barcha turdagi islohotlarni erkinlashtirish, ularni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu kelajakda qishloq xo'jaligining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlab, uning ahamiyatini oshirib, respublika iqtisodiyotining yuksalishini ta'minlaydi.

1.2. Agrar islohot, ularning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin boshqarilayotgan ijtimoiy ximoyalangan bozor iqtisodi qonunlariga asoslanishi belgilab olindi. Buning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin bozor munosabatlarini shakllanishini ta'minlovchi islohatlarni amalga oshirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jaligida turli hildagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- Huquqiy va me'yoriy yo'nalishda;
- Tashkiliy va institutsional yo'nalishda;
- Tarkibiy islohatlar;
- Iqtisodiy islohatlar;
- Ijtimoiy va boshqa yo'nalishlardagi islohatlar.

Mustaqillik yillarida agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoq hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Bu haqda respublika Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasida quyidagi fikrlarini bildirganlar. "Avvalambor, iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi... Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi o'tgan yili 5,7 foizga oshdi... Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish tizimi tubdan o'zgarmoqda, fermerlik qishloqda xo'jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida etakchi o'rinni egallamoqda"¹, - deb yakun yasagan. Lekin, erishilgan natijalar hozirgi o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmaydi. Shuning uchun ham agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan "bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish"² asosiy ustuvor vazifa ekanligini Prezident tomonidan belgilangan. Eng asosiy ustuvor vazifa

¹ Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Xalq so'zi. 2010. 28-yanvar.

² Shu manbaa

mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berishdir.

Uni hal etish maqsadida qishloq xo'jaligini modernizatsiya etish natijasida tarmoqni yanada yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlash zarur. Buning uchun qishloq xo'jaligidagi xususiy tarmoqni ustuvor darajada o'sishini ta'minlashga erishish lozim. Shuning bilan birgalikda "... kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish"¹ agrar islohotining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Ularni ijobiy hal etilishini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ham belgilangan. Jumladan, avval ta'kidlangan Vazirlar Mahkamasining 607-sonli qarorida 2005-2007 yillarda "uch yil davomida rentabelligi past bo'lgan 1100 ta shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklarini to'g'ri tashkil etishga katta e'tibor berish zarur" deb ta'kidlangan. Buning uchun bo'lajak fermer xo'jaliklarining rahbarlarini to'g'ri tanlash hamda ular talab etgan yer uchastkalarini belgilangan muddatlarda ajratib berish masalalarini oshkoralikda, adolatli tarzda va qat'iy tanlov, tendyer asosida o'tkazilishini ta'minlashga erishish lozim. "Bunda mahalliychilik, urug'-aymoqchilik va poraxo'rlik hollariga keskin barham berish lozim"²- deb alohida ta'kidlagan Respublika Prezidenti I.A.Karimov. Fermerlikni ustuvor sur'atlarda rivojlantirish uchun quyidagi masalalarga:

-davlat tuzilmalarining qishloqda tadbirkorlik, kichik biznes sub'ekti hisoblangan fermerlik faoliyatiga aralashuvini yanada cheklash;

-fermerlarni tender asosida tanlovini o'tkazish, ularga yer ajratish ishlarini oshkoralikda, barcha qonunlar talabi asosida adolatli tarzda amalga oshirish, tendyer komissiyasining a'ziligiga etuk, tajribali, bilimdon, halol ma'naviyatli rahbar, mutaxassislarni jalb etish, uning faoliyatini to'liq kompyuterlashtirish;

-fermerlarga uzoq muddatga foydalanish uchun ajratib berilayotgan yerlarning sifatini yaxshilab, unumdorligini yuksalishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'z vaqtida sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan miqdorda mablag'larni davlat byudjetidan ajratish imkoniyatlarini yaratib berish;

-fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini samarali muqobil maydonlarini belgilash;

-ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilanayotgan davlat buyurtmasini rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan o'zaro manfaatli davlat dasturlari bilan almashtirish;

-fermerlik faoliyatini moliyalashtirish, kreditlashtirish ishlarini soddalashtirish, shartlarining yukini yumshatish, muddatlarini va stavkalarini o'zaro manfaatli bo'lishini ta'minlash;

-fermerlik faoliyatida zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini erkin sotib olish va o'z mahsulotlarini mustaqil sotish uchun bozorlarga chiqish (naqd pullarini o'z vaqtida olish) imkoniyatlarini kengaytirish;

-fermerlarga barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan sub'ektlarni tashkil etish bozor infratuzilmasini shakllantirishni, ularni moddiy resurslar va texnikalar, kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni jadallashtirish;

¹ Shu manba

² Karimov I. A. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish." T. O'zbekiston. 2005-y. 84.bet.

-fermer xo'jaliklari to'layotgan soliq va to'lovlar mazmunini, tartibini hamda stavkalarini qayta ko'rib chiqish;

-fermer xo'jaliklariga chet el investitsiyalarini jalb etish masalalariga ko'maklashish va boshqalar maqsadga muvoffio'dir.

“Biz bugun mamlakatimizni isloh qilish va yangilash maqsadida oldimizga qo'yayotgan va o'z tadbig'ini kutayotgan eng muhim ustuvor vazifalar asosan mana shulardan iboratdir”¹.

Iqtisodiyotning turli bosqichlarida tarmoqda qulay investitsion muhitni shakllantirish asosida, investitsiyalarni ko'proq jalb etish, tarmoqda yangi samarali innovatsion texnologiyalarni hamda texnologiyalarni izchillik bilan olib kirish, ulardan to'liq va samarali foydalanish ham ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

“Yana bir ustuvor yo'nalish – yerlarning meliorativ holatini yaxshilash”² hisoblanadi. Uni amaliyotga joriy etib 2009-yilda 840km. kallektor-drenaj tarmoqlari, 250ta drenaj quduqlari, 15ta melioratsiya nasos stansiyalari va inshootlari qurildi, hamda rekanstruksiya qilindi. O'tgan yili yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 130mlrd so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada 240ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi³.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uning samaradorligini yanada yuksaltirish hamda tarmoqda servis sharoitini barpo etish uchun infratuzilma tizimini tashkil etish va uni rivojlantirish ham hozirgi davrda ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Qishloq hududlarida ko'rkam, shinam uy-joylarni qurish, zamonaviy qishloqlarni barpo etish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi, tarmoqni davr talabi darajasida samarali rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirishdir.

1.3. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti hamda vazifalari, ularni tadqiq qilish, o'rganish usullari

Qishloq xo'jaligi o'zining asosiy maqsadiga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlarini yetishtiradi, ishlar va xizmatlarni bajaradi, ular yordamida talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Korxonalar, birlashmalar, tarmoqlar (tuman, viloyat, respublika) miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikada tub islohotlarni amalga oshirish zarur. Ular bozor iqtisodiyoti munosabatlarining huquqiy, me'yoriy, uslubiy hamda amaliy asoslarini yaratib berishlari lozim.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan, markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida davlat ustuvorligida qishloq xo'jaligida talabga javob beradigan, samarali huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilmoqda: mulkchilikning turli

¹ Karimov I. A. “Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish.” T. O'zbekiston. 2005-y. 91.bet.

² Karimov I.A “Asosiy vazifamiz- Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish”. Xalq so'zi. 30.01.2010.y

³ Shu manbaa.

shakllari barpo etilmoqda, natijada erkin mulkiy munosabat vujudga kelmoqda, tadbirkorlikning har xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo`lidan borilmoqda, yer-suv islohotlari amalga oshirilmoqda; tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (yer-suv, kapital, tadbirkorlik qobiliyati)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini xalqaro munosabatlar asosida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog`liq bo`lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda, rivojlantirilmoqda.

Tarmoqdagi barcha munosabatlar pul tovar munosabatlariga asoslanadi. Ular bozor subyektlarining, ya`ni tamonlarning o`zaro manfaatli kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Bu kelishuvlar yozma hamda og`zaki shaklda sodir bo`lishi mumkin. Yozma kelishuvlar tamonlar o`rtasida shartnomalar tuzish natijasida amalga oshiriladi.

Yuqorida ta`kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda xalqimiz hamda qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olgan holda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish talab etiladi. Yuqoridagilarga asoslanib, qishloq xo`jaligining barqaror iqtisodiy asosini, takror ishlab chiqarish jarayoni rivojlantirilishini ta`minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish va ularni hayotga joriy etish masalalarini, yo`llarini o`rgatish «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanining ham predmeti, ham maqsadi hisoblanadi. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti (maqsadi)ni hal etish uchun quyidagi asosiy vazifalar echimining nazariy, uslubiy asoslarini o`rgatish lozim:

- qishloq xo`jaligining bosqichma-bosqich rivojlanishini, uning respublika iqtisodiyotidagi o`rni, ahamiyati hamda o`zgarish qonuniyatlarini aniqlashni;
- qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashganligini;
- tarmoqqa davlat rahbarligini, amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlarning mazmuni va mohiyati holatini, ularni rivojlantirish, takomillashtirish yo`llarini, masalalarini ko`rsatib berishni;
- qishloq xo`jaligida faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlik turlari, ularning faoliyatiga baho berish va takomillashtirish yo`llarini belgilashni;
- tarmoqning cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, investitsiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanish darajasiga iqtisodiy baho berish tartibini o`rganish, ularni takomillashtirish va rivojlantirish yo`llarini asoslab berishni;
- tarmoqda mulkchilik shakllarini barpo etilishini va ularga asoslangan tadbirkorlik turlari va ularning faoliyatiga iqtisodiy baho berishni;
- tarmoqqa innovatsion texnika va texnologiyalarni, hamda investitsiyalarni jalb etishni, ulardan samarali foydalanish yo`llarini asoslangan holda ko`rsatib berishni;
- qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan doimiy va o`zgaruvchan, o`rtacha xarajatlarni, ularning tarkibi va kamaytirish yo`llarini, yyetishtirilgan

mahsulotning hajmini, sifatini, samarali taqsimlanishini hamda pul tushumi oqimlarini to'g'ri shakllanishini aniqlashni;

- tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholarning tizimini, tarkibini, mazmunini, daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo'llarini ko'rsatib berishni va boshqa masalalarini o'rgatish zarur.

Ularni hal etishda agrotehnologiya hamda boshqa iqtisodiy fanlarga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani o'zining maqsad va asosiy vazifalarini hal etishda barcha iqtisodiy munosabatlarni dialektik materializm ta'limotlariga asoslanib, empirik holda tadqiq etadi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy voqealarni induktiv hamda deduktiv usullarga asosan o'rganib, iqtisodiy mushohada qilish hamda «analiz», «sintez» usullaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Jumladan, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti bilan shug'ullanuvchi iqtisodchilar iqtisodiy muammolarni hal etilishini ta'minlaydigan siyosatning iqtisodiy prinsiplarini, mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslagan holda shakllantirib borishlari lozim. Buning uchun dastavval har bir muammoga taalluqli bo'lgan ilmiy, uslubiy, statistik ma'lumotlarni, misollarni to'plab, ularni turli usullar yordamida tahlil qilishlari, shu asosda har bir iqtisodiy prinsipga, mexanizmga ta'sir etuvchi omillarni real xo'jaliklar, tarmoqlar miqyosida aniqlashlari kerak.

Har qanday iqtisodiy prinsip va mexanizmning amal qilishini aniqlashda dastavval nazariy g'oyalarga, so'ngra ularning amal qilishiga asoslaniladi. Bu jarayon muammoni tadqiq etishning deduktiv usuli deb nomlangan. Yuqoridagi masalani tadqiq etishda, o'rganishda dastavval ma'lumotlar, voqealar, faktlar o'rganilib g'oyalar shakllanadi. Nazariy g'oyalarni yaratish jarayoni esa induktiv tadqiq etish usuli deb nomlangan. Demak, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan har qanday iqtisodiy muammoni avval uning nazariyasidan, ya'ni g'oyasidan amal qilishiga qarab o'rganish yoki bu muammoning amaliyotga joriy etilishidan, ya'ni amaliyotdagi holatiga asoslangan holda g'oya yoki nazariyasini yaratishga qarab tadqiqot olib borish mumkin. Ikkala holatda ham iqtisodiy printsiplarning, mexanizmlarning, muammolarning echimi samarali aniqlanishi kerak. Iqtisodchilar o'z g'oyalari, taxminlariga, ayrim voqealarga, ma'lumotlarga asoslangan holda yaratgan yoki shakllantirgan g'oyalarni, taxminlarini gipoteza, ya'ni asoslanmagan g'oya, deb atashadi. Ilmiy yoki amaliy gipotezalar induktiv va deduktiv tadqiqot usullari yordamida shakllantirilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan tadqiq qilish, o'rganish usullarini qo'llangan holda yaratilgan, shakllantirilgan printsiplar, mexanizmlardan foydalanib, u yoki bu muammoni hal etishning iqtisodiy, siyosati strategiyasi belgilanadi. Yaratilgan iqtisodiy siyosatni joriy etish mexanizmlari va ularni amalga oshirish usullarini iqtisodchilar mukammal o'rganishlari lozim. Masalan, respublika qishloq xo'jaligida mulkning turli shakllarini barpo etish g'oyasi bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi nazariy g'oyalarga va ularning amaliyotda hal etilishiga asoslangan. Muammoni tarmoqda hal etishda respublika qishloq xo'jaligi amaliyotidagi holatlar, misollar, ma'lumotlar asos qilib olinib, bu jarayon tobora rivojlantirilmoqda va chuqurlashtirilmoqda.

Demak, iqtisodchi mutaxassislar qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirish g'oyalarni yaratib, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini

mukammal bilishlari zarur. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining maqsad va vazifalarini tadqiq qilishda iqtisodiy- matematik usullar tizimidan, elektron-hisoblash mashinalaridan, kompyuter texnikalardan keng ko'lamda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Fanning maqsad va vazifalarini hal etish masalalari statistik, guruhlash, normativ hamda xo'jalik ma'lumotlariga asoslanib, yuqoridagi usullar yordamida tadqiq etiladi.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani tarmoqda amalga oshirilayotgan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar majmuasining nazariy asoslarini, yo'nalishlarini, samaradorligini mavjud tadqiqot usullari yordamida o'rgatish orqali talabalarda tarmoq iqtisodiyoti bo'yicha iqtisodiy mushohada qilish, uni rivojlantirishga oid muammolarni qo'yish, hal etish, samaradorligini oshirish, yo'nalishlarini belgilab berish qobiliyatini shakllantirib, bozor iqtisodi talablariga javob bera oladigan agrar-iqtisodchilar tayyorlashga ko'maklashadi.

1.4. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Fanning predmetini (maqsadini), vazifalarini o'rganishda «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makroiqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Dehqonchilik asoslari», «Chorvachilik asoslari», «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarish», «Mehnatni tashkil etish, normalashtirish», «Statistika nazariyasi», «Iqtisodiy kibernetika» kabi fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, makroiqtisod, ya'ni respublika iqtisodini o'rganmasdan, bilmasdan qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini, unda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, ularning ahamiyatini baholab bo'lmaydi. Iqtisodiy qonunlar, kategoriyalarning mazmunini, harakat qilishini o'zlashtirmasdan qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini to'g'ri va samarali amalga oshirish, mehnatni tejash va uning unumdorligi rivojlantirilishini belgilay olish gumon. «Mikroiqtisodiyot» fanidan talab va taklif qonunlarini o'rganmasdan qishloq xo'jaligida qayerlarda, qanday mahsulotlarni qancha miqdorda yetishtirish zarurligini to'g'ri belgilash haqida gap bo'lishi ham mumkin emas.

O'zgaruvchan, doimiy hamda o'rtacha xarajatlar mazmunini, miqdorini, tarkibini yaxshi bilgandagina qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni, mahsulot tannarxini va ularni tejash yo'llarini oson o'zlashtirib olish mumkin.

Ishlab chiqarish vositalarini qayerdan, qanday qilib sotib olish hamda yyetishtirilgan mahsulotlarni qachon, kimga, qanday tartibda sotish va bu jarayonlarni boshqarish masalalarini «Menejment va marketing» fanidan olgan bilimlar yordamida samarali echish mumkin. Demak, talabalar o'zaro uzviy bog'langan barcha fanlar mazmunini yaxshi o'rganishlari lozim ekan.

Tayanch iboralar:

O'zbekiston iqtisodiyoti, Respublika xalq xo'jaligi: mamlakat qshloq xo'jaligi, Respublika yalpi ichki mahsuloti, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti; erkin bozor iqtisodi, markazdan rejali boshqarilgan iqtisod, iqtisodiy islohot; yer, suv islohoti;

mulk islohoti; moliya, kredit, soliq, narx islohotlari, mamlakatni modrenizatsiyalash, islohotlarini chuqurlashtirish; shirkat, fermer xo`jaligi;

Qishloq xo`jaligi, mazmuni, mohiyati, xalq xo`jaligida tutgan o`rni, qishloq xo`jaligi resurslari, tarmoq tushunchasi.

Qisqacha xulosalar

Hozirgi davrda, O`zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining o`rni, hissasi ulkan. U aholini oziq-ovqat, qayta ishlash sanoati korxonalarini esa xom ashyo bilan ta'minlashdek muhim vazifani bajarmoqda. Kelajakda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish uchun qishloq xo`jaligini rivojlantirish ob'ektiv zarurit hisoblanadi. Bu muammoni samarali hal etish mexanizmlarini, yo`llarini aniqlab olish zarur. Ular esa «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanida batafsil yoritiladi. Chunki bu fan tarmoqning barqaror iqtisodiy negizini yaratish asosida uni rivojlantirishni ta'minlay olish qobiliyatiga ega bo`lgan iqtisodiy munosabatlar tizimini ilmiy asoslangan holda yaratish va ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich hayotga joriy etish usullarini, yo`llarini targ`ib etadi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimini mukammal o`zlashtirish uchun nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan tadqiqot usullaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo`jaligi rivojlanishini hamda samaradorligi yuksalishini ta'minlovchi iqtisodiy munosabatlar amaliyotga tatbiq etilishini hal qiluvchi mexanizmlar, usullar va yo`llarni chuqur o`zlashtirish uchun iqtisodiy, tashkiliy hamda ayrim texnologik fanlarni bilish lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O`zbekiston qanday hududda joylashgan?
2. Nima uchun respublikada qishloq xo`jaligini rivojlantirish mumkin?
3. Qishloq xo`jaligini O`zbekiston iqtisodiyotidagi o`rnini qaysi omillar bilan isbotlaysiz?
4. Qishloq xo`jaligi respublika iqtisodiyotida qanday o`rin tutadi?
5. Respublika aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari miqdori ma'lum muddatda qanchani tashkil etgan va ularni qanday aniqlash mumkin?
6. Nima uchun qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur edi?
7. Agrar iqtisodiy islohotlar tizimiga qaysi islohotlar kiradi?
8. Qishloq xo`jaligidagi yer islohotining mazmuni qanday?
9. Mulk islohoti qanday amalga oshirilmoqda?
10. Moliya, kredit, soliq va baho islohotlari qanday amalga oshirilgan?
11. Agrar iqtisodiy islohotlarning natijasi nimalarda namoyon b`lmoqda?
12. Qishloq xo`jaligi hamda «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti, maqsadi nimalardan iborat?
13. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanining maqsadini ifodalovchi asosiy vazifalar nimalardan iborat?
14. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanida qanday asosiy usullardan foydalaniladi?

15. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani agrotehnologik hamda boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini bayon eting.

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T.:1992.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-Vatanamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Xalq so'zi 2011-yil. 30-yanvar.
3. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish. – T.: «O'zbekiston», 1995.
4. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti–farovonlik manbai. Toshkent, «O'zbekiston», 1993.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishni yo'llari va choralari. T: O'zbekiston. 2009-yil
6. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
7. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 2004.

Internet saytlari:

1. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Univyersiteti. www.tsue.uz
2. www.uhh.hawaii.edu Univyersity of Hawaii at Hilo – Agroecology and Environmental Qulaity Program.
3. www.ecfak.timacad.ru Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya.
4. www.admin.ru Institut Agroekonomiki i Biznesa Priamurskiy.

IKKINCHI BOB

O'ZBEKISTON AGROSANOAT MAJMUASI VA UNING RIVOJLANISHI

- 2.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi.
- 2.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi munosabatlar
- 2.3. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi, ularni rivojlantirilishi.
- 2.4. Oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari majmuasi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi

2.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi

XXI asrning birinchi o'n yilligida jahonda fan-tehnika, texnologiya innovatsiyasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ularni amaliyotga joriy etish maqsadida davlatlararo siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlar ham rivojlanmoqda. Bunday jarayon o'z navbatida xalqaro miqiyosda mehnat taqsimotini yanada yuksalishini hamda takomillashishini talab etmoqda. Jahondagi aholi soni ham yil sayin oshib bormoqda.

Respublikamizning erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishi ta'minlanayotgan yillarda mamlakat aholisining o'rtacha soni bir yilda 340-360 ming nafarga yoki 1,2-1,4 foizga o'smoqda. Shu bilan birga sanoat korxonalarini soni va ishlab chiqarish quvvatlari ham yil sayin oshib bormoqda. Bunday holatlar respublikada xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni echish uchun eng avvalo tarmoqlararo mehnat taqsimotini rivojlantirgan holda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarini mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga erishish, so'ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda yog'lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuningdek, agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxoanalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni ta'mirlovchi, xo'jalik ob'ektlarini quruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyoviy, texnik va transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi esa tarmoqda yyetishtirilgan xomashyolardan aholining barcha talablarini to`liq va sifatli qondira oladigan oziq-ovqat, gazlama, kiyim-bosh, oyoq kiyim va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining syerqirrali faoliyatiga ham bog`liq.

Yuqoridagilardan ma'lum bo`lishicha, respublika fuqarolarining tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan talabining to`liq qondirilishi bu muammoni hal etilishini ta'minlashda qatnashuvchi barcha tarmoqlarga turli xildagi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqardagian sanoat tarmoqlari, qishloq xo`jaligi, unga xizmat ko`rsatuvchi, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga yetkazuvchi va ularni iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy bog`lanishini ob'ektiv holda taqozo etadi. Shuning uchun ular maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilib, ixtisoslashtirilib, xalq xo`jaligi miqyosida mehnat taqsimoti amalga oshirilishini ta'minlashlari zarur. Yuqorida ta'kidlangan tarmoqlar yagona maqsad yo`lida o`zaro bog`lanishi natijasida respublika agrosanoat majmuasi shakllanadi. Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi – aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu masala ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yuksaltiradi, ularni farovon yashashini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bu masalaga Respublika hukumati tomonidan alohida e'tirbor berilmoqda, ya'ni agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog`liq bo`lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasi o`z maqsadga erishishi uchun quyidagi asosiy vazifalarni yechilishini taqozo etadi:

- Respublika agrosanoat majmuasining maqsadini to`liq va samarali bajarilishini taminlay olish qobilyatiga ega bo`lgan tarkibning (ya'ni tarmoqlarni) maqsadga muvofiq holda tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o`zaro uzviy bog`lanishini ta'minlash;

- majmua tarkibidagi korxonalarini barcha omillarni e'tiborga olgan xolda maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish hamda ularning ixtisoslashtirilishi va integratsiyalashuvini ta'minlash;

- samarali faoliyat ko`rsatishini ta'minlash maqsadida barcha korxonalarini zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ularda ilg`or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish orqali doimiy va o`zgaruvchan xarajatlarni kamaytirib, ekologik talablarga javob beradigan mahsulotlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga yetkazib berib, ko`proq foyda olishni ta'minlash;

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o`rtasida ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini o`zaro samarali ayriboshlanishini ta'minlaydigan narxlarni maqsadga muvofiq miqdorini ma'lum muddatlarga belgilash;


- majmuada faoliyat ko`rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko`ra rag`batlantirilishini rivojlantirish va boshqalar.

Agrosanoat majmuasi maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqqan holda uning tarkibi quyidagi 4 ta bo`g`indan (sohadan) tashkil topishi mumkin: (2.1.1-chizma)

Respublika agrosanoat majmuasining 1-bo`g`iniga –agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari. Ular tarkiban qishloq xo`jalik mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; kimyo sanoati; neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya sanoati; oziq-ovqat mashinasozlik, stanoksozlik sanoati; qurilish materiallari sanoati va boshqalardan tashkil topadi. Ularning ko`lami, ayniqsa, mashinasozlik va stanoksozlik sanoati tarmoqlarining ko`lami respublikadagi barcha omillarni e'tiborga olgan holda hozircha cheklangan, lekin kelajakda rivojlanishi mumkin.

Shu bo`g`indagi tarmoqlarning asosiy maqsadi – agrosanoat majmuasi tarkibidagi, xususan, qishloq xo`jaligi va unga irrigatsiya-melioratsiya, texnika ta'minoti va ta'mirlash, kimyolashtirish, zooveterinariya, elektrlashtirish xizmatlarini ko`rsatuvchi hamda qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash sanoati, don mahsulotlari, meva, sabzavot, uzum sanoati, go`sht-sut sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini va nihoyat, tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda zarur bo`lgan ishlab chiqarish vositalari (mashina, traktor, stanok, kimyoviy vositalar, yoqilg`ilar, ozuqa moddalari) bilan ta'minlashdir. Demak, birinchi bo`g`in tarkibidagi tarmoqlar boshqa tarmoqlarni rivojlanishni ta'minlaydigan moddiy-texnika bazasini barpo etishga ulkan hissa qo`shadi. Ularning moddiy-texnika bazasi talab darajasida shakllantirilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, mexanizatsiyalashtirilib, elektrlashtirilib, jonli mehnat sarfi qisqartirilib, mehnat unumdorligining yuksalishi ta'minlanadi. Ular shu tarmoqlardagi mehnatni xarakterini, o`zgarishiga ta'sir etadi, ya'ni oddiy mehnat industrlashgan mehnatga aylanib borishini ta'minlaydi . Bu soha tarmoqlarida minglab korxonalar faoliyat ko`rsatib, jami ichki mahsulotning sezilarli qismi yaratilmoqda.

2 – bo`g`in –agrosanoat majmuasining asosiy tarmog`i hisoblangan qishloq xo`jaligidan tashkil topadi. U tarkiban o`simlikchilik, bog`dorchilik va chorvachilik tarmoqlaridan tashkil topadi. Uning barcha tarmoqlari–o`simlikchilik hamda chorvachilik tarmoqlarida qayta ishlash sanoat tarmoqlari uchun xomashyolar (paxta xomashyosi, boshqali donlar, kanop, zig`ir, qand lavlagi, jun, teri, kunjut, uzum, go`sht sut) aholi iste'moli uchun esa go`sht, sut, sabzavot, poliz, meva mahsulotlari yyetishtiriladi.



Respublika agrosanoat majmuasi va uning tarkibi.

Bu bog`inda 2011 yilning 1 yanvariga 107 ta shirkat, 803 mingga yaqin mustaqil fermer, 100 taga yaqin davlat xo`jaliklari, 4,5 mln. ga yaqin oilaviy-dehqon xo`jaligi hamda xo`jalik hisobidagi 18 ta korxonalar, 24 ta byudjet tashkiloti va investitsion mablag`lardan moliyalashtiriladigan 1 ta tashkilot faoliyat ko`rsatmoqda. Qishloq xo`jaligidagi barcha xo`jaliklar 2009 yili 7.3 mln.tonna don mahsulotlari yetishtirishga erishdilar. Shundan 72,3 foizi yirik tovar ishlab chiqaruvchi hisoblangan shirkat hamda davlat xo`jaliklari hissasiga, 78,9 foizi fermer xo`jaliklari va 12,8 foizi oilaviy-dehqon xo`jaliklari ulushiga to`g`ri keladi. Shu yil barcha xo`jaliklar 1568 ming tonna kartoshka, 5441,3ming tonna sabzovot mahsulotlari yetishtirganlar. Shu yili yetishtirilgan

qishloq xo`jaligi mahsulotlarining 38,4 foizi fermer, 52,4 foizi oilaviy-dehqon xo`jaliklari, qolgan qismi yirik tovar ishlab chiqaruvchilar zimmasiga to`g`ri keladi.

Paxta xomashyosini yetishtirish bilan asosan yirik tovar ishlab chiqaruvchi hisoblangan fermer va davlat xo`jaliklari shug`ullanmoqdalar. Chunki ular shu sohaga ixtisoslashgan.

Qishloq xo`jaligi agrosanoat majmuasining asosiy, ya'ni markaziy bo`g`ini hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi, qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatuvchi, yetishtirilgan qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi hamda iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlar faoliyatiga bog`liq. Chunonchi, ular qishloq xo`jalik korxonalarini talab etilgan barcha turdagi texnikalar, kimyoviy vositalar, yoqilg`i-yonilg`i, qurilish materiallari, stanoklar bilan o`z vaqtida ta'minlab, mavjud qishloq xo`jalik texnikalarini arzon va sifatli ta'mirlab, tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydigan xizmatlarni ko`rsatib, unda yetishtirilgan mahsulotlarni yig`ib-terib, qayta ishlab, iste'molchilarga sifatli holda yetkazib bersalar, qishloq xo`jaligining rivojlanishiga katta hissa qo`shgan bo`ladilar. Qishloq xo`jaligi rivojlanishi natijasida majmua tarkibidagi tarmoqlarning ham yuksalishi ta'minlanadi. Masalan, tarmoqning ko`lami kengaysa, ishlab chiqarish vositalariga bo`lgan talab ortadi. Bu talabni qondirish uchun sanoat tarmoqlari intensiv faoliyat ko`rsatish bilan hajman kengayishga ham erishishlari lozim. Tarmoqda qishloq xo`jalik mahsulotlari hajmining barqaror ravishda o`sishi ularni qayta ishlovchi tarmoqlar samarali faoliyat ko`rsatishini talab etadi. Demak, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar qishloq xo`jaligi bilan bevosita bog`liq. Shuning uchun respublika qishloq xo`jaligini maqsadga muvofiq tashkil etish va zamon talabi asosida boshqarishga alohida e'tibor berish lozim. Bu muammoni hal etishda tarmoqning maqsad va vazifalaridan kelib chiqish zarur. Tarmoqni tashkil etish va boshqarish bilan Respublika qishloq va suv xo`jaligi vazirligi shug`ullanmoqda.

Uning tarkibida:

- o qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi;
- o suv xo`jaligi tarmoqlari;
- o o`rmon xo`jaligi tarmoqlari mujassamlashgan.

Vazirlikning maqsadi va faoliyat ko`rsatish yo`nalishlari qilib O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan quyidagilar belgilangan:

¹ O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari.

- qishloq va suv xo`jaligi bo`yicha ilm-fanning barcha yo`nalishlarini jahon andozalariga moslashtirgan holda rivojlantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini e'tiborga olgan holda yagona fan-texnika siyosatini va monitoringini amalga oshirish;
- seleksiya, urug`chilik va naslchilik bilan shug`ullanadigan fanlarni tartibga solish hamda rivojlantirish;
- qishloq va suv xo`jaligida amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonini tartibga solish, uning monitoringini amalga oshirish
- dehqonchilik, chorvachilik tizimlarini takomillashtirish, rivojlantirish, ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydigan mashinalar tizimini, texnologiyalarni barpo etish;
- erkin bozor talabini e'tiborga olgan holda ekinlarni almashlab ekish siyosatini amalga oshirish, uni ta'minlaydigan darajada ekinlarni maqsadga muvofiq joylashtirishga erishish hamda monitoringini bajarish;
- naslchilikni, urug`chilikni tashkil etish;
- chorvachilik uchun barcha servis xizmatlarini tashkil etish, ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- davlat suv kadastrini yuritish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, suv xo`jaligi ob'ektlaridan to`liq foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- o`rmon xo`jaligini rivojlantirish, o`rmonlarni nazorat qilish va ulardan samarali foydalanish;

○ tarmoq talabini qondiradigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularni oqilona, samarali rag`batlantirish va boshqalar.

Bu sohada mamlakat yalpi ichki mahsulotining 19 foiziga yaqini yaratilmoqda.

Agrosanoat majmuaning 3-bo`g`inini qishloq xo`jaligini rivojlanishiga xizmat ko`rsatadigan tarmoqlar kiritiladi, jumladan, ekinlarni, chorva hayvonlarini suv bilan ta'minlaydigan, yerlarning meliorativ holati yaxshilanishini ta'min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo`jaligi tarmog`i; Qshloq xo`jalik sub'ektlariga yer haydash, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, yyetishtirilgan hosilni yig`ishtirib olish bilan bog`liq bo`lgan xizmatlarni ko`rsatuvchilar tarmoqda foydalanilayotgan barcha texnikalarga servisi sharoitini yaratuvchilar; tarmoqda yirik bino-inshootlarni quruvchi, mavjudlarini ta'mirlovchi tarmoq; tarmoqqa zooveterinariya xizmati, shuningdek, hasharotlarga, zararkurandalarga, begona o`tlarga qarshi kurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko`rsatadigan sohalarni o`z ichiga oladi. Qishloq xo`jaligini yoqilgi, yonilg`i va yog`lovchi materiallar hamda elektroenergiya bilan ta'minlaydigan tarmoqlar ham shu soha tarkibiga kiritiladi.

Yuqorida ta'kidlangan tarmoqlar qishloq xo`jaligiga barcha turdagi ishlarni, xizmatlarni o`z vaqtida, sifatli ko`rsatishlari natijasida turli xildagi qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishga ulkan hissa qo`shadilar. Jumladan, ular texnikalarni ta'mirlab, ekinlar ekiladigan maydonlarni agrotexnik muddatlarda sifatli haydab, ekishga tayyorlab, ekib, unib chiqqan o`simliklarga ishlov berib, yyetishtirilgan hosilni belgilangan muddatlarda sifatli yig`ib olish natijasida qishloq xo`jalik mahsulotlarining miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir ko`rsatadilar. Ularni oqilona hamda uddaburonlik bilan sotish natijasida esa qishloq xo`jalik korxonalarini foyda massasini ko`paytirishga erishishlari mumkin.

Bu tarmoqlar yuqori unumli texnikalar yordamida barcha turdagi ish va xizmatlarni mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini, elektrlashtirilishini hamda kimyolashtirilishini ta'minlashga ko'maklashib, jonli mehnat sarfi kamaytirilishi evaziga mehnat unumdorligi darajasini oshishiga muayyan hissa qo'shadilar. Respublika hukumati qishloq xo'jaligida servis sharoitini yaratish maqsadida infratuzilma tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlarni keng ko'lamda amalga oshirish natijasida qishloqda infratuzilma tizimini barpo etishga erishdi. 2011-yilning boshiga sohada 1757ta MMTP, 1712ta SFU, 1389ta YMM, 935ta mineral o'g'itlarni sotish shahobchalari, 1478ta minibanklar, 424ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, 2411 ta zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi, 300ta konsalting xizmatini ko'rsatuvchi, 78ta toza idishlar va qadoqlash bilan shug'illanuvchi shahobchalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu sohadagi tarmoqlarning asosiy maqsadi – qishloq xo'jalik korxonalariga barcha turdagi xizmatlarni, ishlarni muddatida, sifatli bajarishdir. Ular 2009-yilda milliardlab so'mlik xizmat ko'rsatib Respublika yalpi ichki mahsulotini rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Respublika ASMning 4-bo'g'ini Unga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, donni, kanopni, qand lavlagini, go'sht va sutni, tamakini, sabzavot va poliz mahsulotlarini, meva, uzumni qayta ishlash, saqlovchi yengil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini e'tiborga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda yetkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi.

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarni 1-chizmadan ko'rish mumkin. Bunday turkumlashtirish ma'lum darajada shartli ham hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibidagi subyektlarning umumiy miqdori 110 mingdan oshadi. Ular respublika YaIMning asosiy qismini yaratib bermoqda.

Respublika ASM yirik majmua hisoblanib, u birqancha hududiy ihtisoslashgan majmualardan tashkil topishi mumkin. Masalan:

- hududiy pahtachilik agrosanoat majmuasi;
- g'allachilik agrosanoat majmuasi;
- sabzavotchilik agrosanoat majmuasi;
- bog'dorchilik, mevachilik agrosanoat majmuasi;
- go'sht va sut agrosanoat majmuasi va boshqalar.

Respublika agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishda mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy hamda ijtimoiy infratuzilmalarning ham ahamiyati, ta'siri ulkan. Ular agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning rivojlanishini ta'minlash maqsadida bank, sug'urta, investitsiya, soliq, lizing, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, ma'naviy, madaniy, sanat, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun barcha majmualar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro manfaatli holda amalga oshirilgani ma'qul.

2.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi munosabatlar

Agrosanoat majmuasining maqsadidan kelib chiqqan holda uning ishlab chiqarish jarayonida o'zaro uzviy bog'langan quyidagi bosqichlar mavjud:

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish;
- qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- majmua takror ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish, texnikaviy va texnologik xizmatlarni amalga oshirish;
- qishloq xo`jalik mahsulotlaridan oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, saqlash;
- oziq-ovqat hamda xalq iste'moli tovarlarini iste'molchilarga yetkazib berish.

Ularni to`g`ri, sifatli va samarali hal etish uchun barcha bosqichlar o`rtasidagi munosabatlarni hamma turdagi qonunlar asosida samarali amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Bu munosabatlarni ularning mazmun hamda shaklini e'tiborga olgan holda quyidagicha guruhlash tirish mumkin: huquqiy, tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, dastavval, barcha turdagi erkin munosabatlarning huquqiy asosi yaratilishi zarur. Shuning uchun ham respublikamizda bu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga mamlakat Oliy Majlisi tomonidan qonunlar bosqichma-bosqich qabul etilayotganligi yaqqol dalil bo`ladi. Ularga agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha xo`jaliklar, albatta, rioya etishlari lozim. Majmua tarkibidagi barcha subyektlar o`rtasidagi munosabatlar qiymat qonuni talabi asosida pul-tovar munosabatlari yordamida amalga oshirilishi lozim. Shuning uchun ulardagi rahbar va mutaxassislar barcha qonunlarning mazmunini hamda ularni amalga oshirish yo`llarini yaxshi bilishlari kerak. Lekin hayotda doimo ham shunday emas. Chunonchi, bir korxonadan ikkinchisidan zarur bo`lgan mahsulotni shartnoma asosida sotib olib, uning haqini vaqtida to`lamaydi.

Bunday hol qonun talabi to`liq bajarilmayotganligidan dalolat beradi. Huquqiy davlatda qonun ustuvorligi ta'minlanishi kerak.

Qishloq xo`jalik korxonalarini o`z ishlab chiqarishlarini rivojlanishini va samaradorligi yuksalishini ta'minlash maqsadida ekologiyaga salbiy ta'sir ko`rsatmaydigan, kimyoviy vositalarni, yoqilg`i, yonilg`i materiallarini bevosita sanoat tarmoqlaridan sotib olish uchun shartnoma tuzadilar. Ular shuningdek, texnikalarini ta'mirlatish, yerlarini haydash, ekinlarni ekish, yetishtirilgan hosilni yig`ib-terib olish maqsadida ixtisoslashgan mashina-traktor parklari bilan, hasharotlarga hamda zararkunandalarga qarshi kurash maqsadida esa kimyoviy xizmatlarni amalga oshiradigan tashkilotlar bilan, ekinlarning suvga bo`lgan talabini qondirish uchun suv xo`jaligi tashkilotlari bilan shartnomalarni rasmiylashtiradilar. Shartnomalarning shartlari bajarilishini tomonlar, albatta, ta'minlashlari kerak. Shunda buyurtmachining ham, bajaruvchining ham faoliyati samarali bo`lib, yaxshi natijalarga erishiladi. Lekin amaliyotda buyurtmani bajaruvchilar shartnomada ko`rsatilgan muddatda texnikalarni, mineral o`g`itlarni, kimyoviy vositalarni, yoqilg`ini, ozuqa moddalarini iste'molchilarga o`z vaqtida yetkazib bermayaptilar, ularni suv bilan to`liq ta'minlamayaptilar. Bunday kamchiliklar aksariyat hollarda shu tadbirlar to`g`ri tashkil etilmaganligi oqibatida yuz bermoqda. Majmuadagi munosabatlar doimo ham maqsadga muvofiq tashkil etilmaganligi, yetishtirilayotgan mahsulot miqdoriga, uning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Chunonchi, talab etilgan suv ekinga vaqtida berilmasligi oqibatida avvalo, uning o`sishi susayib, hosil to`plashi kamayadi, talab etilgan texnika vaqtida borib, hosilni terib olmasa,

hosil salmog'i kamayib, sifati pasayadi. Shuning uchun shartnomada ko'rsatilgan shartlar muddatida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan barcha chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tomonlar juda intizomli, mas'uliyatli, bir-biriga hurmatda, madaniyatli bo'lishlari kerak. Bu bozor iqtisodi munosabatlarining eng muhim talabidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jaliklar faoliyatining rivojlanishi va samarali bo'lishi iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilishiga ham bevosita bog'liq. Masalan, majmua tarkibidagi tarmoqlar o'rtasida tovar ayirboshlash jarayonida pul-tovar munosabatlarini amalga oshirishda ekvivalentlikni, ya'ni mutanosiblikni saqlashga alohida e'tibor berish lozim. Gap bu yerda baho haqida bormoqda. Bunda talab va taklif qonunlarining talablari ham inkor etilmasligi shart.

Demak, baholar talab va taklifdan kelib chiqqan holda o'zaro mutanosib bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin agrosanoat majmuasida bunday mutanosiblik, afsuski, to'liq ta'minlangani yo'q. Ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari bilan qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan sanoat korxonalarini mahsulotlarining baholarini belgilash masalasi doimo sanoat tarmoqlari foydasiga hal etilmoqda. Jumladan, 1994-2009 yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi ularning turlari bo'yicha 80-90 marta oshgan bo'lsa, sanoat mahsulotlarining baholari esa 800-950 martaga o'sgan. Ular o'rtasidagi o'sish farqi 1 ga 10 ni tashkil etgan. Ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi 1 marta oshgan bo'lsa, shu tarmoqda foydalanilayotgan, sanoat mahsuloti hisoblangan ishlab chiqarish vositalarining baholari 10 martaga oshgan. Qishloq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlari mahsulotlarining baholari o'rtasidagi nomutanosiblikni yana quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin:

1991 yilda bir dona «TTZ-80» markali traktorni sotib olish uchun 3,7 tonna paxta xomashyosini sotishdan olingan pul etgan bo'lsa, 2008 yilda shu traktorni sotib olish uchun esa 92,8 tonna paxta xomashyosini sotish kerak bo'lgan. Bu boradagi mutanosiblik 1991 yilda 1:3,7 bo'lgan bo'lsa, 2002 yilda 1:89,7 bo'lgan, ya'ni farq 24,2 martani tashkil etgan.

Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bajarayotgan xizmatlar uchun narxlar asoslanmagan holda yuqori darajada ekanligiga ham alohida e'tibor berish zarur. Jumladan, 2009 yilda tumanlarda barpo etilgan mashina-traktor parklari 1 gektar g'oz maydonidagi pahta hosilni terib berish uchun 100 ming so'mdan haq olganlar. Respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan mashina-traktor parklari qishloq xo'jalik korxonalariga yerlarni haydash, g'alla, paxta hosilini yig'ib-terib berish uchun ham yuqori narxlar qo'yimoqdalar. Bunday hollar texnika-ta'mirlash xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatida ham mavjud.

Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor. Sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarilib, aksionerlik korxonalariga aylantirilishi natijasida to'liq iqtisodiy erkinlikka egadirlar. Shuning uchun ular talab va taklifni hamda o'zlarining bozordagi o'rnini e'tiborga olgan holda mahsulotlariga erkin baholarni belgilamoqdalar. Qishloq xo'jalik korxonalarini esa davlat mulki hisoblangan yerlarda mahsulot yetishtirmoqdalar, shuningdek, yetishtirilayotgan asosiy mahsulotlar (paxta, g'alla, sholi)ga davlat buyurtmasi mavjudligi tufayli bu mahsulotlarning xarid narxlari davlat tomonidan belgilanmoqda. Bu masalani kelajakda qishloq xo'jaligiga oid davlat dasturlari ishlab chiqilishi bilan almashtirishga bosqichma-bosqich o'tish natijasida hal etish imkoniyatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bu sohada ham iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonini chuqurlashtirishga oid tadbirlar ishlab chiqib, ularning amaliyotga joriy etilishini ta'minlashga harakat qilish zarur. Bundan tashqari qishloq xo'jalik korxonalari yetishtirayotgan mahsulotlarining sifatini yaxshilab, ularni ichki va tashqi erkin bozorga chiqarib, sotish yo'llarini qidirishlari kerak. Buning huquqiy asoslari yaratilgan. Ulardan foydalanish uchun mahsulot sotuvchilar savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy, iqtisodiy munosabatlarni yaxshi o'zlashtirib olishlari kerak.

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o'rtasida pul-tovar munosabatlarini amalga oshirish jarayonida ham uzilishlar yuz bermoqda. Jumladan, qishloq xo'jalik korxonalari sanoat korxonalaridan paxta terish mashinalarini, haydov va chopiq traktorlarini, minearl o'g'itlarni, kimyoviy vositalarni, yonilg'i, yoqilg'i materiallarini olib, ularning haqini belgilangan muddatda to'lay olmayotirlar. Xuddi shunday holat xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining bajargan ishlariga, xizmatlariga haq to'lash borasida ham sodir bo'lmoqda. Qayta ishlash sanoati korxonalari esa qishloq xo'jalik korxonalaridan paxta xomashyosini, don mahsulotlarini, sabzavot-poliz, bog'dorchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini shartnomlar asosida sotib olamoqdalar. Afsuski ularning haqini belgilangan muddatlarda to'lay olmayotirlar. Bunday hollar majmua tarkibidagi korxonalarining iqtisodiy beqarorligi shakllanishiga maълum darajada сабаб bo'lmoqda. Chunki ularning o'zaro qarzlari ortib bormoqda. Bunday holni quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin (2.2.1-jadval).

Jadvaldagi ma'lumotlarning dalolat berishicha, debitorlik va kreditorlik qarzlari barcha tarmoqlarda mavjud, lekin eng ko'p debitorlik va kreditorlik qarzlari 2005-yilgacha shirkat xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri kelgan bo'lsa 2011-yilning boshiga kelib fermer xo'jaliklari zimmaiga to'g'ri kelmoqda. Qishloq xo'jaligining debitorlik qarzlari 65630million so'mni tashkil etgan, shundan 35084 million so'm yoki 53,5 foizga yaqini faqatgina "O'zkiyosanoat" kompaniyasi zimmasiga to'g'ri kelgan, lekin kreditorlik qarzi esa 319385 million so'mni tashkil etmoqda. Bu debitorlik qarziga nisbatan salkam 9marta ko'proq ekanligidan dalolat bermoqda. Qishloq xo'jaligining debitorlik qarzlarini 18629 million so'm yoki 28,4foizi "O'zneftmahsulot" kompaniyasi zimmaiga to'g'ri kelgan, lekin qishloq xo'jaligining ularga kreditorlik qarzlari esa 234428 million so'mni tashkil etgan.

Qishloq xo'jalik korxonalari sotgan mahsulotlari uchun mablag'larini vaqtida olaolmaganliklari sababli ular ham «O'zqishloqxo'jalikta'minottuzatish» qo'mitasi, «O'zqishloqxo'jalikkimyoy», avtotransport, energetika va boshqa tarmoqlarning mahsulotlari, xizmatlari uchun to'lanadigan mablag'larni vaqtida bera olmayotirlar.

Shu davrni o'zida ya'ni 2011-yilning boshiga qishloq xo'jaligining kreditorlik qarzlari 653580million so'mga teng bo'lgan. Shunday miqdordagi qarzlarning mavjudligi tarmoqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buzilayotganligidan dalolat bermoqda. Natijada korxonalar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik muhiti rivojlanmoqda. Korxonalar qarz mablag'larini qonun yo'li bilan undirish uchun xo'jalik sujdlariga murojaat etmoqdalar, ular esa tushgan da'volarni ko'rib, tegishli qarorlar chiqarmoqdalar.

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi ayrim tarmoqlar korxonalari o`rtasidagi o`zaro qarzlarning o`zgarishi (mln.so`m)*

№		1998 yil		2001 yil		2002 yil		2009 yil	
		debi torlik	kredi torlik	debi torlik	kredi torlik	debi torlik	debitorlik	debi torlik	kredi torlik
1	«O`z paxtasanoat» uyushmasi	4759,2	4821,6	35594,3	2855.1	747,9	59,2		
2	«O`zdonmahsulot» korporatsiyasi	762,1	6145,63	535,3	9314.3	70,2	151,6		
3	«O`z yog`moy tamakisanoat»	254,8	985,7	1165,0	1919.0	457,2	194,7		
4	«O`z qishloq xo`jalik ta'minot -tuzatish» qo`mitasi	1456,8	7982,3	2033,3	23987.9	139,6	300,5	54395	11485
5	«O`z bekneftgaz»	181,6	1370,9	958,4	676.6	527,7	49,4	234428	18629
6	O`zbek Enyergo kompaniyasi	53,97	2498,1	605,7	2342.3	1122,3	93,8	45372	1063
7	«O`z oziqovqatsanoat»	73,5	303,8	232,2	653.2	315,9	215,0		
8	«O`z qishloq xo`jalik kimyo»	95,14	13640,6	1485,1	15924.5	1561,0	116,7	319385	35084
9	«O`z jamoqurilish»	133,6	924,9	298,65	1269.7	223,5	137,3		
10	Dehqon xo`jaliklari	1498,0	941,2	6779,4	2402.3	452,6	255,2	1372	768
11	Jamoa-shirkat xo`jaliklar	20954	101610,3	51029,9	189206.2	243,5	186,2		

* Respublika iqtisodiyot, Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuning natijasida vaqtdan yutqazib, mablag`larini olamayotganliklari oqibatida majmua tarkibidagi korxonalarining ishlab chiqarishi talab darajasida rivojlanmayapti.

Demak, kelajakda agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning pul-tovar munosabatlari asosida yo`lga qo`yilishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun barcha subyektlar shartnomaviy munosabatlarini o`z vaqtida bajarishlariga odatlanishlari shart.

2.3. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi, ularni rivojlantirilishi

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy o`zaro bog`lanishi, ya'ni integratsiyalashuvi natijasida mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Bu hol agrosanoat majmuasi ixtiyoridagi barcha resurslardan, shu jumladan, cheklanganlaridan ham samarali foydalanilishini ta'minlashga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga, avtomatlashtirishga, elektrlashtirishga, kompyuterlashtirishga hamda tarmoqlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Ular talab darajasida amalga oshirilishi natijasida

xaridorgir, raqobatbardosh oziq-ovqat hamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ular iste'molchilarga sifatli va qulay usullar bilan yetkazib borilishi natijasida aholining shu mahsulotlar bilan ta'minlanishi darajasi ortib, majmua tarkibidagi tarmoqlarning foydalari ko'payadi. Natijada agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi yuksaladi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorlik darajasini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin:

Jumladan, Respublika agrosanoat majmuasining yalpi mahsuloti. U majmua tarkibidagi tarmoqlar korxonalarining bir yil mobaynida ishlab chiqargan tayyor mahsulot va ko'rsatgan xizmatlar summasidan tashkil topadi. Yalpi mahsulotning miqdori har bir tarmoq bo'yicha absolyut, ya'ni natural ko'rsatkichlar yordamida hisoblanadi (tonna, dona, banka, litr, shisha idishda, tonna.km, et.gektar.). Bu ko'rsatkich yordamida agrosanoat majmuasidagi tarmoqlar yalpi mahsulotining miqdori alohida- alohida aniqlanib, avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslanib, tarmoqlarning qanday holatdaliq aniqlanadi. Masalan, qishloq xo'jalik mashinasozligi korxonalarini 1997 yilda 2852 dona traktor, 1049 dona paxta terish mashinalari ishlab chiqargan bo'lsa, 2000 yilda tegishlicha 954, 337 donadan ishlab chiqargan. 2009-yilga kelib bitta ham paxta terish mashinasi ishlab chiqarilmagan. Bu raqamlar shu muddatda tarmoq mahsulotlarining kamayib borayotganligini isbotlaydi. Bu jarayonlar so'ngi yillarda ham sodir bo'lmoqda, 2000-2009-yillarda qishloq xo'jaligida g'alla yetishtirish 3,9 mln. tonnadan 7.3 mln. tonnaga yetgani uning hajmi 1,8 martaga oshganligini ko'rsatadi. Natijada non va non mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi. Paxta xomashyosi yetishtirish hajmi 2000-2009 yillarda 4,1 mln. tonnadan 3,4 mln. tonnaga tushgan, ya'ni 19,1 foizga kamaygan. Shuning natijasida paxta tolasining miqdori ham 1,2 mln.tonnadan 1,17 mln. tonnaga tushgan yoki 2,5 foizga kamaygan. Bunday hol o'simlik yog'i, sovun ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelgan. Shu yillarda spirtli ichimliklar ishlab chiqarish nisbatan oshgan. So'ngi yillarda sabzovot mahsulotlarini go'sht va sut ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda.

Lekin bu natural ko'rsatkichlar agrosanoat majmuasining umumiy holatini to'liq ifodalay olmaydi. Buning uchun agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining qiymatini aniqlash lozim. Yalpi mahsulot qiymati majmua tarkibidagi barcha korxonalar bir yilda ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarning, ko'rsatgan xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidan iborat. Ayrim korxonalarda ishlab chiqarilgan ba'zi mahsulotlarning ma'lum bir qismidan korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun foydalaniladi, ma'lum miqdordagisi esa shu yilning o'zida sotilmay qoladi. Ularning qiymati belgilangan tartibda aniqlanadi.

Yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda mahsulotlarning bir necha marta hisobga olinishini bartaraf etish maqsadida, agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat summasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki qo'shilgan qiymat – bu, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati (amortizatsiya summasidan tashqari) chiqarib tashlanganidan so'ng qolgan qismining bozor baholaridagi qiymatidir.

Majmua yalpi mahsulotining haqiqiy baholardagi qiymatini respublika yalpi ichki mahsulot qiymati uni aniqlab, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va

o`zgarishini ham aniqlash mumkin. Agarda agrosanoat majmuasi yalpi ichki mahsulotining qiymati ino respublika yalpi ichki mahsulotidagi salmog`i o`sayotgan bo`lsa, yalpi ichki mahsulot oshgan holda majmuaning mamlakat iqtisodiyotidagi o`rni yuksalayotganligidan dalolat beradi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining haqiqiy baholarda foydalangan holda ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimini aniqlashda foydalanish mumkin. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining qator yillardagi o`zgarishini aniqlash uchun esa uning yalpi mahsuloti qiymatini o`zgarimas, ya'ni qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda qiyosiy baho sifatida 1996 yildagi o`rtacha baholar olinmoqda. Shu tartibda yalpi mahsulotning qiymati aniqlanib, uni avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslash orqali agrosanoat majmuasi yalpi mahsuloti qiymatining o`zgarishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, yalpi mahsulot qiymatiga va boshqa ko`rsatkichlar darajasiga baholar o`sishining ta'siri bartaraf etiladi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining 1996 yil baholaridagi qiymati majmuaning real yalpi mahsuloti ekanligidan dalolat beradi. Shu real yalpi mahsulot qiymati ko`rsatkichidan foydalangan holda agrosanoat majmuasida qator yillardagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, sig`imi kabi ko`rsatkichlar darajasini aniqlab, ularning o`zgarishini ham bilib olish, bu ko`rsatkichlarni majmua tarkibidagi tarmoqlar miqyosida aniqlab, ularning o`zgarishini tahlil qilish mumkin.

Agrosanoat majmuasining tarmoqlari bo`yicha mamlakat eksportidagi, ya'ni valyuta tushumidagi salmog`i, ya'ni ulushi. Uni aniqlash uchun agrosanoat majmuasi tarmoqlaridagi korxonalarining eksport qilgan mahsulotlariga, xizmatlariga olingan valyuta shaklidagi tushumlarining bir yillik yig`indisini aniqlash zarur. Uni yagona valyuta birligida ko`rsatish uchun AQSh dollariga davlat kursiga binoan aniqlash lozim, kelajakda o`z mavqesini oshirib borayotgan evroda ham hisoblash maqsadga muvofiqdir. Agrosanoat majmuasi barcha valyuta tushumining respublika jami valyuta tushumiga nisbati bilan majmuaning salmog`ini aniqlash mumkin. Hozirgi davrda bu ko`rsatkichning salmog`i 45 foizga yaqinlashib qolgan. Shundan 8-9 foizini paxta tolasini sotishdan olinayotgan valyuta tushumlari tashkil etmoqda.

Hozirgacha ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 71,3 foizi chetga eksport qilinmoqda. Shuning natijasida sezilarli miqdordagi valyuta respublikaga olib kelinmoqda. Agarda 1992 yilda ishlab chiqarilgan 1250,8 ming tonna paxta tolasidan 1066,9 ming tonnasi chetga eksport qilinib, 890,4 mln. AQSh dollari miqdoridagi chet el valyutasi olingan bo`lsa, 2001 yili ishlab chiqarilgan 1250,8 ming tonna paxta tolasining 829,4 ming tonnasi chetga sotilib, 912,4 mln. AQSh dollari miqdoridagi chet el valyutasi respublikaga tushgan. Har bir tonna paxta tolasini 1100 AQSh dollariga sotilgan. 2008-yilda 1174 ming tonna paxta tolasidan 936,3 ming tonnasi eksport qilinishi natijasida 1352 mln. Yevo valyuta olingan. Shu yili 1 tonna paxta tolasini o`rtacha 1444,24 yevrodan sotilgan. Shu bilan birga ma'lum miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari ham chetga sotilmoqda. Ularni sotish natijasida olingan valyuta 2000 yilda 76,2 mln., 2001 yili 58,2 mln. 2008-yilda 130,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan (2.3.2-jadval).

Respublika qishloq va suv xo`jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko`ra 2009-yilda qishloq xo`jalik mahsulotlarini hammasi bo`lib 5011.9 mln AQSh dolloriga

sotgan. Shundan asosiy qismini pahta tolasini sotishdan tushgan valyuta tashkil etmoqda.

Demak, mamlakat eksport salohiyatini belgilovchi muhim ko`rsatkich bo`yicha qishloq xo`jaligi bilan «O`z paxtasanoat» uyushmasining salmog`i katta. Bu yaxshi, lekin kelajakda paxta tolasini chetga sotishning maqsadga muvofiq miqdorini saqlagan holda uni qayta ishlab, iste'mol uchun tayyor hisoblangan xalq iste'moli tovarlari eksportga chiqarilishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2.3.2-jadval

Ayrim agrosanoat mahsulotlari eksporti natijalari

	O`lch. birl	Yillar			
		1995	1998	2000	2008
Ishlab chiqarilgan paxta tolasini	Ming tonna	1254,0	1147,1	1025,2	1174,0
Shundan: Eksport qilingani	Ming tonna	1025,3	908,6	778,3	936,3
Eksportdan tushgan valyuta	Mln. AQSh doll	1798,9	1361,0	897,1	1352,4 EVRO
Eksport qilingan agro oziq-ovqat mahsulotlari evaziga olingan valyuta	Mln. AQSh doll		33,3	76,2	136,7

*Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu bilan birga qishloq xo`jaligida sabzavot, poliz hamda bog`dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirib, olingan sifatli, ekologik jihatdan toza hisoblangan tayyor mahsulotlarni ham chet ellarga sotishni rivojlantirishga alohida e'tibor berish vaqti keldi.

Bu muammoni hal etish jarayonida respublikada qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi, yangi ish joylarining tashkil etilishi, savdo sohalarining taraqqiyoti ta'minlanadi. Natijada nafaqat iqtisodiy, balki aholini ish bilan ta'minlashdek ijtimoiy ahamiyatga molik bo`lgan muammo ham ma'lum darajada hal etiladi.

Aholining oziq - ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanganlik darajasi. Bu ko`rsatkichning mutlaq darajasini aniqlash uchun agrosanoat majmuasida ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotilgan mahsulotlar (turlari bo`yicha) miqdorini respublika aholisining umumiy soniga taqsimlash lozim. Shunda jon boshiga to`g`ri keladigan mahsulot miqdori aniqlanadi. Agarda uning miqdori yil sayin ortib, tibbiyot me'yorlariga yaqinlashsa, u holda bu aholining yashash sharoiti yuksalayotganligidan, xalqning farovon hayot kechirishi ta'minlanayotganidan dalolatdir.

Agrosanoat majmuasi, tarmoqlari va korxonalarida foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan xarajatlarning

samaradorligi. Bu ko`rsatkichlarni aniqlash uchun agrosanoat majmuasining yalpi mahsulotini, milliy mahsulotini hamda sof foyda summasini ishlab chiqarish fondlariga, xarajatlar summasiga taqsimlash zarur. Shunda 1 so`mlik ishlab chiqarish fondlari, xarajatlari evaziga olingan yalpi mahsulot, milliy mahsulot hamda sof foyda summasi aniqlanadi. Agarda bu ko`rsatkichlarning mutlaq (absolyut) miqdori oshib borsa, u holda bu fondlarning, xarajatlarning iqtisodiy samradorligi oshayotganligidan dalolat beradi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari, korxonalari faoliyatining rentabellik darajasi. Uni aniqlash uchun tarmoqlarning, korxonalarining sof foydasini jami xarajatlar summasiga taqsimlab, natijani 100 ga ko`paytirish lozim. Chunki bu ko`rsatkich foizda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligini aniqlashda bir qancha qo`shimcha ko`rsatkichlardan, jumladan, tarmoqlar bo`yicha bir kishining o`rtacha oyligi, kadrlarning bilimlilik salmog`i, aholi jon boshiga ko`rsatilayotgan xizmatlar miqdori va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

So`nggi yillarda respublika agrosanoat majmuasida ijobiy o`zgarishlarga erishilmoqda. Agarda 1993 yilda respublika qishloq xo`jaligida 2,2 mln.tonna don mahsulotlari yetishtirilgan bo`lsa, 2005 yilga kelib, bu miqdor 6,0 mln. 2009-yilda 6.8mln tonnani tashkil etdi. Natijada non va non mahsulotlari ishlab chiqarish 1993 yildagi 506 ming tonnadan 2005 yilga kelib 850 ming 2009-yilda esa 935ming tonnaga etdi yoki 85,0 foizga oshdi. Bu aholining non va non mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi yuksalishiga olib keldi.

Shu yillar ichida konditer mahsulotlari ishlab chiqarish 16,7 foizga, etil spirti (pishovoy) ishlab chiqarish 43.5foizga ko`paydi (2.3.3-jadval).

Eslatib o`tish kerakki, respublikada go`sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish o`tish bosqichining dastlabki yillarida anchaga qisqargan edi. Lekin 1999 yildan boshlab bu sohada ham ijobiy o`zgarishlar bo`lmoqda. Sababi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy ta`sirini susaytirish maqsadida Davlat tamonidan chorva hayvonlarini bosh sonlarini ko`paytirishga, ularni zotlarini yahshilashga va ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan real tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, agrosanoat majmuasining faoliyati asta - sekin rivojlanib bormoqda. Natijada ayrim sohalarining iqtisodiy samaradorligi yuksalmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasini rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida mamlakat miqyosida agrosanoat korxonalarini, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ular paxtachilik, don, un va un mahsulotlari, sabzavotchilik, bog`dorchilik, uzumchilik, go`sht va go`sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari hamda boshqa majmualar bo`yicha ixtisoslashgan bo`lishi mumkin. Masalan, aholining un va un mahsulotlariga bo`lgan iste'mol talabini qondirish maqsadida shu sohada ixtisoslashgan agrosanoat kombinatini shakllantirish mumkin. Uning tarkibiga:

- don mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qishloq xo`jalik sub'ektlari;
- don mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari;
- qishloq xo`jalik va sanoat korxonalariga xizmat ko`rsatuvchi sub'ektlar;
- ular uchun maxsus asosiy va aylanma vositalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- ayrim chorvachilik va parandachilik korxonalari;

- chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar;
- kombinat ishlab chiqaradigan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi savda tashkilotlari va boshqalar.

2.3.3-jadval

Respublika agrosanoat majmuasida ishlab chiqarilayotgan ayrim mahsulotlar miqdori*

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Yillar			
		1995	1998	2000	2009
Don mahsuloti	Ming tonna	3215,2	4147,7	3002	6839.0
Paxta tolasi	Ming tonna	1254,0	147,1	1025,2	1174
Non va non mahsulotlari	Ming tonna	571,3	717,2	749,4	934.7
Ozuqabop em	Ming tonna	533,8	726,3	665,2	694.7
Etil spirti (ozuqa)	Ming dal	1705	4049	3572	2446
Go'sht va go'sht mahsulotlari	Ming tonna	38,2	44,3	121,6	1287.9
Uzum vinosi	Ming dal	6,6	6,1	5,6	5.9
O'simlik yog'i	Ming tonna	230,7	189,3	2113	196

*Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shunga o'xshash majmua, kombinat, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, hududning imkoniyalari, xususiyatlari hamda talablarini e'tiborga olgan holda shakllantirilishi mumkin. Shuning natijasida:

- ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashishi hamda hududdagi mehnat taqsimoti;
- ish joylarni barpo etish, ishsizlikni kamaytirish;
- barcha resurslardan to'liq va samarali foydalanish;
- aholining daromadlarini oshirish, ularni shu mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish masalalarini hal etish imkoni ta'minlanadi.

Shu tadbirlar agrosanoat majmuasining samaradorligini yuksaltirishga ijobiy ta'sir etadi.

2.4. Oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari majmuasi. Davlatning

Respublika hukumatining eng muhim vazifalaridan biri aholining iste'mol tovarlariga nisbatan o'sib borayotgan talabini qondirishdir. Chunonchi, aholi oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Bu muammoni agrosanoat majmuasi hal etadi. Agrosanoat majmuasida barcha tarmoqlar o'zaro uyg'unlashishi (integratsiyalashuvi) hamda ixtisoslashishi natijasida aholining ikki xil ehtiyojini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilib, iste'molchilarga yetkazib berilishi zarur.

Ulardan birinchisi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish. U oziq-ovqat mahsulotlari majmuasiini tashkil etadi. Unga non va non mahsulotlari, qandolat, shakar, go'sht va go'sht mahsulotlari, choy, uzum vinosi, kon'yak, aroq, turli xildagi konsyervalar va boshqa mahsulotlar kiradi. Bu oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmi uchun zarur moddalarni berib, uning sog'lom o'sishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga agrosanoat majmuasi aholi uchun hayot kechirish jarayonida foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqaradi. U xalq iste'moli mollari majmuasini tashkil etadi. Unda oyoq kiyimi, kiyim-bosh, gazlamalar, sanoat spirti, texnika yog'lari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu majmua rivojlanishi bilan aholining yashash sharoiti o'zgaradi. Bu yerda aholining zarur bo'lgan boshqa buyumlar, vositalar, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlanishi, unga turli xidagi xizmatlar ko'rsatilishi va boshqalar ham e'tiborga olinishi kerak.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga ham bog'liq. Chunki mamlakat miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga bo'lgan mamlakat ehtiyojini tashqi omillarga (chet el davlatlari) bog'lanmagan holda ta'minlashi lozim. Shuning natijasida mamlakat miqyosida siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi sobiq SSSR tarkibida bo'lgan davrda uning un va un mahsulotlariga bo'lgan talabi asosan respublikaga chetdan keltiriladigan mahsulotlar evaziga qondirilardi. Bu holatni respublika mustaqilligi davrida saqlab qolish mutlaqo maqsadga muvofiq emas edi. Shuning uchun ham respublika hukumati o'tish davrining birinchi yillaridan boshlab g'alla mustaqilligi siyosatini izchillik bilan amalga oshirib kelmoqda. Bunga erishish uchun samarali hisoblangan paxta xomashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi. Natijada «ikkinchi non» hisoblangan kartoshka yetishtirish ham rivojlantirildi. Hozirgi davrda mahsulotning bu turi chet eldan sotib olinayotgani yo'q, chunonchi, bu borada ham davlat xavfsizligiga erishilmoqda, lekin hozirgi davrda respublika aholisining go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog' mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi tibbiyot normativiga nisbatan ancha past. Bu masalani hal etish maqsadida agrosanoat majmuasi markaziy bo'g'ini hisoblangan qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini intensiv rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda chorvachilik tarmoqlarini ustuvor sur'atlarda rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Jumladan, parrandachilikni sanoat negizida rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qoramolchilik, qo'ychilik bilan shug'ullanadigan nodavlat korxonalarini uchun har tomonlama iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda. Ularni moliyaviy mablag'lar bilan barqaror ravishda ta'minlash maqsadida imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilmoqda, soliq imtiyozlari berilmoqda, ularning ishlab chiqarishlari uchun zarur

boʻlgan, chet ellardan keltirilayotgan vositalar boʻjxona toʻlovlaridan ozod etilmoqda. Bularning hammasi xalq iste'moli mollari miqdorini koʻpaytirishga yoʻnaltirilgan tadbirlar hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanishini yuksaltirish uchun eng avvalo, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishini, fan-texnika yangiliklari hamda ilgʻor, samarali texnologiyalar ishlab chiqarishga izchil joriy etilishini oʻzaro bogʻliq holda ta'minlash zarur. Shu bilan birga majmua tarkibidagi qayta ishlash tarmoqlari koʻlamini kengaytirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini koʻpaytirib, ularning raqobatbardoshligini ta'minlab, sifatli saqlab, aholiga oʻz vaqtida yetkazib berilishiga erishish lozim.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni hozirgi zamon talabi darajasida hal etish uchun:

➤ agrosanoat majmuasi tarkibidagi mashinasozlik, neft, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari qishloq xoʻjaligini va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni arzonroq, sifatli, unumdor ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashlari;

➤ qishloq xoʻjalik tarmoqlari mavjud boʻlgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalangan holda talabni qondiradigan miqdorda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishlari;

➤ qishloq xoʻjaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlash maqsadida ularga turli xildagi xizmatlarni vaqtida, sifatli va arzon narxlarda amalga oshirish, jumladan, ekinlarni suv bilan, texnikalar, kimyoviy vositalar, oʻgʻitlar, ozuqa-em, yoqilgʻi, yonilgʻilar bilan, texnikalarni ta'mirlash va xizmatlar koʻrsatish;

➤ qishloq xoʻjaligida yyetishtirilgan mahsulotlarni nobud etmasdan vaqtida, sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor mahsulotlar iste'molchilarga yetkazib berilishini ta'minlash lozim. Bunda mahsulotlarni sotib olib, qayta ishlash korxonalari koʻlamini rivojlantirishga alohida e'tibor berish, respublika Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, qishloqqa sanoatni olib borish kerak. Shu bilan tarmoqdagi aholining ish bilan ta'minlanishi, real daromad olishi uchun katta imkoniyat yaratiladi;

➤ respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar oʻrtasidagi barcha oʻzaro munosabatlarni (baholar, soliqlar, toʻlovlar) takomillashtirishga va ularni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlarni hamma boʻgʻinlarda ishlab chiqib, ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlashga erishish kerak.

Bu tadbirlar tufayli aholining oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlari bilan tibbiyot me'yorlari darajasida ta'minlanishiga erishiladi. Bu hol davlatning oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Tayanch iboralar:

Davlat rahbarligi, davlat bosh islohotchi, mulkni davlat tassarufidan chiqarish, mulkni xususiylashtirish, respublika agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat xizmat koʻrsatish tarmogʻi, xalq iste'mol tovarlari, oziq-ovqat xavfsizligi.

Qisqacha xulosalar

Respublika iqtisodiyotini mustahkamlash, aholini iste'mol tovarlari bilan ta'minlashdek siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifani hal etishda mamlakat agrosanoat majmuasining ahamiyati katta. Shuni e'tiborga olgan holda agrosanoat majmuasini oqilona shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda majmua tarkibini to'g'ri shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim.

Agrosanoat majmuasining markaziy bo'g'ini qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Uni rivojlantirish uchun barcha turdagi vositalarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni, har xil xizmatlar bajaruvchi sohalarni hamda shu tarmoqda yyetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlovchi va ularni talabni qondirish maqsadida iste'molchilarga sifatli qilib yetkazib beruvchi tarmoqlarni o'zaro bog'liq holda maqsadga muvofiq tashkil etish, joylashtirish zarur.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligini aniqlash maqsadida tegishli ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Bunda ularning maqsad va vazifalarini e'tiborga olish kerak. Agrosanoat majmuasini rivojlantirish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga xalq iste'moli mollari hajmining ko'payishini, ularning sifati yaxshilanishini ta'minlaydi.

Kelajakda agrosanoat majmuasini rivojlantirish uchun qishloqlarda majmua bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, ular o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agrosanoat majmuasini shakllantirishning zarurligini isbotlang.
2. Agrosanoat majmuasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Agrosanoat majmuasi tarkibiga nimalar kiradi?
4. Agrosanoat majmuasining rivojlanishini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi, ular qanday aniqlanadi?
5. Agrosanoat majmuasining respublika iqtisodiyotidagi o'rnini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi va ular qanday aniqlanadi?
6. Agrosanoat majmuasining oziq-ovqat hamda xalq iste'moli mollari majmualarini shakllantirishdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Agrosanoat majmuasining davlat oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etishdagi ahamiyatini izohlab bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish. – T.: «O'zbekiston», 1995.
2. Abdug'aniev A. Qishloq xo'jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. «Iqtisod va hisobot» jurnali, 1997 yil 3-son.
3. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. kundius V.A. “Экономика АПК”. М. ИНФАМ.2011.
5. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 1998

Internet saytlari:

1. www.ecfak.timacad.ru Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya.
2. www.admin.ru Institut Agroekonomiki i Biznesa Priamurskiy.
3. Mardonova A.T., Ishoqova S.A. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni ro'yobga chiqarishning dolzarb uslublari. www.ski.ilm.uz
4. Saratovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.tstu.ru

UCHINCHI BOB
BOZOR IQTISODIGA O'TISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA DAVLAT
RAHBARLIGI VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN AGRAR-IQTISODIY
ISLOHOTLAR

- 3.1. O'tish davrida qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligi.
- 3.2. Respublika agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning yo`nalishlari.
- 3.3. Yer islohoti, uning amalga oshirilishi.
- 3.4. Qishloq xo'jaligida mulk islohatlari.
- 3.5. Moliya, kredit, soliq va baholar islohoti.

3.1. O'tish davrida qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligi

Qishloq xo'jaligi respublika xalq xo'jaligining eng muhim va yirik tarmog'idir. Shuning uchun ham bu tarmoqda o'tish davrida bozor iqtisodi talablariga javob beradigan munosabatlar tizimini barpo etish ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki ma'muriy-buyruqbozlik asosida markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyot sharoitidagi qishloq xo'jaligidagi davlat yakka hokimligi (qancha maydonga qanday ekinlar ekilishi, qanday mahsulotlarni, qancha miqdorda ishlab chiqarish zarurligi, ularni qat'iy belgilangan baholarda sotib olish, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, daromadni taqsimlash, mulkiy munosabatlarda va boshqalar) tarmoqda erkin bozor iqtisodi munosabatlarini talab darajasida shakllantirish imkoniyatini bermaydi. Darhaqiqat, bozor iqtisodi avvalgi iqtisoddan tubdan, shaklan va mazmunan farq qiladi. Bozor iqtisodiga o'tishda, shuningdek, bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligida ma'lum munosabatlarni qonunlar doirasida hal etishda davlatning rahbarligi bo'lishi lozim. Lekin u qishloq xo'jaligidagi korxonalarining to'liq erkinligi bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur. Qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligini asosan davlat bosh islohotchi sifatida muttasil amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

«Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biz qishloqning ustun darajada rivojlanishini ta'minlashni, qishloq xo'jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik.»¹ deb ta'kidlagan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Shunga asoslangan holda davlat qishloq xo'jaligida bozor iqtisodi munosabatlarini barpo etish maqsadida islohotlar majmuasini ishlab chiqdi va ularning huquqiy asoslarini ham yaratmoqda. Bunga respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan quyidagi qonunlar, Prezidentning farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari yaqqol misol bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasining:

- «Korxonalar to'g'risida»gi;
- «Mulk to'g'risida» gi;
- «Ijara to'g'risida» gi;
- «Tadbirkorlik to'g'risida» gi;
- «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» gi;
- «Investitsiyalar to'g'risida» gi;

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida." T.O'zbekiston. 1995-y. 59-60-betlar.

- «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi;
- «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» gi;
- «Yer kodeksi»;
- «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi;
- «Mehnat kodeksi»;
- «Qishloq xo'jalik korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida» gi;
- «Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar) to'g'risida» gi;
- «Fermer xo'jaligi to'g'risida» gi;
- «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» gi, va boshqa qonunlar

Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida» gi qarori, Respublika Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi va boshqa farmonlari shular jumlasidandir. Mamlakatimizda davlat rahbarligida qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, kreditlash hamda soliqlar tizimlari ishlab chiqilib, ular hayotga bosqichma-bosqich tatbiq qilinmoqda. Davlat, shuningdek, fan, texnika, ilg'or va samarali innovatsion texnologiyalar tizimlarini tarmoq miqyosida ishlab chiqishga ham, qishloq aholisini ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishga ham rahbarlikni amalga oshirmoqda.

Qishloq xo'jaligida davlatning bevosita rahbarligida agrar islohotlarning negizi hisoblangan yer va mulk islohotlari amalga oshirilmoqda, davlat va jamoa xo'jaliklari negizida shakllangan va mazmunan yangi jamoa, shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklari, agrofimlar, qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalariga davlatning rahbarlik ko'lamini davlat xo'jaliklarga nisbatan ko'proq. Shuning bilan birgalikda o'tish davrida davlat talabini e'tiborga olgan holda jamoa va shirkat, fermer xo'jaliklariga asosan paxta, g'alla va sholi mahsulotlari yetishtirish davlat buyurtmasi shaklida belgilab berilmoqda. Bu hol keyinchalik kamayib, uni erkin bozor qonunlari asosida shartnomalar bo'yicha amalga oshirish ta'minlanadi. Demak, kelajakda qishloq xo'jaligiga davlatning rahbarligi yanada takomillashtiriladi. Buning uchun davlatning uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlari ishlab chiqiladi. Ularda tomonlarning manfaatlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, ishlab chiqarishning ravnaqini faqat manfaat ta'minlaydi. U moddiy, ma'naviy va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat bu tarmoq bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni ham (xizmat ko'rsatuvchi, qayta ishlovchi, sotuvchi) isloh qilishga alohida e'tibor berdi. Natijada bu tarmoqlardagi davlat korxonalarini davlat aktsiyadorlik korxonalariga, tashkilotlariga aylantirildi. Masalan, paxta zavodlari, un, non, yog`-moy, go'sht kombinatlari, konsyerva zavodlari.

Natijada shu tarmoqlarda bozor munosabatlarini erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan turli shakldagi mustaqil korxonalar, birlashmalar, jamiyatlar, kompaniyalar, uyushmalar tashkil etildi. Ularning syerqirrali faoliyatlarini samarali boshqarishni ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan tarmoq tashkilotlari ham davlatning bevosita rahbarligida tashkil etilib, takomillashtirilmoqda. Chunonchi, Qishloq xo'jaligi vazirligi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi bilan uyg'unlashtirilib, yagona Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga aylantirildi. Unga 2001 yilda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi ham qo'shildi. 2003 yilda shu vazirlik tarkibiga

«O`zgo`shtsutsanoati», «O`zparrandasanoat» aksionerlik tarmoqlari ham qo`shib yuborildi. Natijada bu yirik vazirlikning maqsadi va vazifasi tubdan o`zgartirildi. U hozirgi davrda qishloq, suv hamda o`rmon xo`jaliklarida iqtisodiy islohotlarning samarali tizimlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bilan shug`ullanmoqda.

Shu bilan birgalikda «O`zpaxtasanoat» aksiyadorlik assotsiatsiyasi, «O`zdonmahsulot» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, «O`zqishloqxo`jalikta'minottuzatish» davlat kooperativ qo`mitasi, «O`zmevasabzavotuzumsanoat» xolding kompaniyasi, «O`zqishloqxo`jalikkimyo» davlat aksiyadorlik jamiyati, “Yer resurslari” Davlat qo`mitasi, «O`zagromashservis» uyushmasi, «O`zagrosug`urta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» aksionerlik kompaniyasi, O`zbekiston fermer xo`jaliklari uyushmasi tashkil etildi. Islohotlar faqat tarmoqlarda yangi vazirliklar, kontsyernlar, kompaniyalar tashkil etishgagina emas, balki qishloq xo`jaligi va u bilan bog`liq bo`lgan xo`jaliklar va tarmoqlarning boshqaruv tizimini bozor iqtisodi talablariga moslashtirishga qaratilmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoqqa ichki hamda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Bular pirovard natijada qishloq xo`jaligining yanada rivojlanishini, samaradorligi oshishini ta'minlaydi. Ular qishloq xo`jaligiga oid bo`lgan islohotlarni davlat rahbarligida bosqichma-bosqich amalga oshirmoqdalar.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloqning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, agrar sektor samaradorligini oshirish, qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlaydigan zamonaviy korhonalarni barpo etishni jadallashtirish, tarmoqda aholi bandligi o`shirishni ta'minlash, qishloq xo`jaligi aholisi daromadlarini va turmush darajasini uni sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning keng ko`lamda amalga oshirish maqsadida Davlat tamonidan:

- Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash;
- “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi ” yili Davlat dasturlarini tasdiqlandi. Ularni amalga oshirish maqsadida Respublika Moliya Vazirligi huzurida “Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash” jamg`armasi maxsus iqtisodlashgan “Qishloq qurilishloyiha” institute, “Qishloq qurilish” va “Agrobank”lar tashkil etildi.

Respublikadagi sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashga, qishloqlarning ustuvor sur`atlar bilan taraqqiy etishiga va aholi farovonligini yuksalishiga Davlat tamonidan 2225mlrd so`m sarflanishi belgilandi.

Bundan tashqari tarmoqdagi chorvachilikni rivojlanishini ta'minlash maqsadida XXRdan, RFdan, ukraina va Qozoqiston Respublikalaridan, Gollandiyadan va boshqa bir davlatlardan zotli qoramollarni olib kelib bermoqda.

Shu va boshqa tadbirlarni davlat rahbarligida amalga oshirilishi natijasida inqiroz yillarida ya`ni 2008-yilda qishloq xo`jaligining yalpi mahsuloti 4.5foizga, 2009-yilga 5.7foizga, 2011-yilning birinchi yarim yilida esa 6.9foizga oshgan. Natijada istemolchilarning qishloq xo`jalik mahsulotlariga bo`lgan talabini qondirilishi ham malum darajada yuksalgan. Bunday hol inqiroz sharoitida qishloq

xo`jaligini Davlat tamonidan qo`llab-quvvatlashning maqsadga muvofiq ekanligidan yaqqol dalolat beradi. Respublika hukumatining bu boradagi siyosatini jahon davlatlarining hamda Jahon va Osiya taraqqiyot banklarining rahbarlari, yitik biznesmenlar, olimlar ham ijobiy baholamoqdalar.

Shunday ekan kelajakda ham agrar sohaga erkin bozor munosabatlari talablarini e`tiborga olgan holda Davlat rahnamoligini amalga oshirib boorish maqsadga muvofiq ekan.

3.2. Respublika agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning yo`nalishlari.

Davlatning asosiy maqsadini hal etish niyatida qishloq xo`jaligida Davlat rahbarligida islohatlar quyidagi yo`nalishlarda amalga oshirilmoqda. (3.2.1-chizma)


Mustaqillik yillarida respublika qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan islohatlar. 3.2.1. chizmadan ko`rinib turibdiki mustaqillik yillarida mamlakat qishloq xo`jaligida islohatlar quyidagi yo`nalishlarda amalga oshirilgan:

- Tarmoqning huquqiy, me`yoriy va uslubiy asoslarini yaratish borasida;
- Agrar sohada mulkchilik shakllarini barpo etish va ularni rivojlantirish bo`yicha;
- Tarmoqning maqsadga muvofiq tarkibini tashkil etish, rivojlantirish borasida;
- Sohada tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, ularni rivojlantirish bo`yicha;
- Tarmoqda yer va suv resurslariga egalik qilish, ularga haq to`lash hamda to`liq samarali foydalanish borasida;
- Qishloq xo`jaligini moliyalashtirish, kreditlash tizimini hamda tarmoqdagi baholar tizimini rivojlantirish bo`yicha;
- Qishloqda ijtimoiy sohalarni tashkil etish va rivojlantirishga oid.

Mustaqillik yillarida tarmoqda shu sohadagi islohatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Islohatlar natijasida qishloq xo`jaligida quyidagi muhim natijalarga erishilindi:

- Tarmoqdagi subyektlar o`z faoliyatlarini bozor iqtisodi talablari darajasida amalga oshirilishini taminlash imkoniyatiga ega bo`lgan huquqiy, me`yoriy va uslubiy asoslar yaratilmoqda;
- Davlarning g`alla mustaqilligi siyosati natijasida respublikaning g`allaga bo`lgan talabi to`liq qondirildi;
- Tarmoqda mulkchilikning turli shakllari tashkil etilib ularni yanada rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Agrar sohada nodavlat mulkchilik shakllarini ayniqsa hususiy mulkchilikni rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda. Bunga oila-tamorqa, dehqon va fermer xo`jaliklarining samarali faoliyat ko`rsatayotganliklari yaqqol dalil bo`ladi.

Islahat yo`nalishlari



kelajakda ham rivojlantirish mumkin. Yerdan foydalanganlik uchun haq to`lanmoqda. U y...
 to`lanmoqda. U y...
 o`zlashtirish...
 amorga va...
 talik qilish va...
 rivojlantirish imkoniyatiga ega bo`ldilar;
 • Tarmoqda investitsion jarayon rivojlanib bormoqda;
 • Mamlakat qishloq xo`jaligi mahsuloti so`ngi yillarda rivojlanmoqda;
 ing oziq-ovqat xavfsizligi ta`min...
 Yer islohot...
 a oshir...
 Boshqalar

Respublikamiz qishloq xo`jaligini barqaror rivojlantirish resurslarining ahamiyati beqiyos. Chunki ular yordamida mamlakatimiz ichki yalpi mahsulotining

beshdan bir qismiga yaqini,, xalqimiz iste'mol qilayotgan mahsulotlarning 95 foizidan ko`prog`iyyetishtirilmoqda. Shunday ekan, ulardan kelajakda yanada to`liqroq, samaraliroq foydalanish dolzarb muammo hisoblanadi. Uni hal etish maqsadida respublika hukumati tomonidan siyosiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, Oliy Majlis yer, suv, mulk to`g`risidagi qonunlar, kodekslar qabul qildi. Ularda respublikamizda yerlarga, suvlarga egalik qilish, ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko`rsatilgan. Yer-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer suv umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»¹ deb alohida ta`kidlangan.

Respublikamiz jami yer maydoniga umummilliy boylik, davlat mulki sifatida egalik qilish huquqi O`zbekiston Oliy Kengashi zimmasiga yuklatilgan. Oliy Kengash o`z vakolatidagi yer munosabatlarining ayrim masalalarini xalq deputatlari qishloq, shahar, posyolka, tuman hamda viloyat kengashlari va ularning ijroiya qo`mitalari zimmasiga yuklagan. Yer islohati asosan “yer kodeksi” talablari negizida amalga oshiriladi. Ular yuqorida keltirilgan qonun talablaridan kelib chiqqan holda yerlarni ulardan oqilona, samarali foydalanish maqsadida foydalanuvchilarga ma'lum muddatga haq to`lash evaziga foydalanish uchun bermoqdalar. Yer islohati respublikada quyidagi yo`nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Cheklangan miqdordagi yer maydoni fuqorolarga meros qoldirish huquqi bilan umirbod foydalanishga berilmoqda;
- Mustaqil dehqon, fermer hamda shirkat xo`jaliklariga foydalanish uchun 30-yildan 50-yilgacha bo`lgan muddatga ijaraga berilmoqda. Kelajakda ijara muddati uzaytirilishi lozim;
- So`nggi yillarda, mahalliy byudjetni to`ldirish maqsadida cheklangan miqdordagi (6 sotix) yerni sotish huquqi tuman hokimlariga berilgan;
- Ma`lum miqdordagi yer maydoni belgilangan tartibda chet el elchihonalarini qurish uchun sotilmoqda.

Bozor munosabatlarini yanada rivojlanishi natijasida respublikada cheklangan miqdordagi yer maydonini erkin sotish rivojlanishi lozim. Demak, ular shu tartibda yer islohotini amalga oshirishga ma'suldirlar. Chunki ular yerlarni samarali foydalanish uchun haqiqiy egasiga berish bilan bog`liq bo`lgan masalalarni hal etadilar.

Islohat yillarda yerlar qonunda belgilangan tartibda qishloq xo`jalik korxonalariga turli muddatlarga foydalanish uchun haq to`lash evaziga (yer solig`i tarzida) ijaraga berilmoqda. Dastlabki yillarda qishloq xo`jalik yerlari tuman hokimlarining buyrug`i bilan shirkat xo`jaliklariga muddatsiz haq to`lash evaziga foydalanish uchun berilgan. XX asrning ohirgi yillarida shirkat xo`jaliklari tarmoqda asosiy yerdan foydalanuvchi subyektlar edi. Ularga foydalanish uchun jami qishloq xo`jalik yerlarining 70foizga yaqini berilgan. Keyingi o`rinda yerdan foydalanuvchi sifatida mustaqil fermer va dehqon xo`jaliklari turgan. XXI asrning boshida past rentabelli, zarar ko`rib faoliyat ko`rsatayotgan shirkat xo`jaliklari negizida fermer xo`jaliklarini tanlov asosida tashkil etish jarayonini jadal sur`atlar bilan amalga

¹ O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. O`zbekiston 1992-y. 19-bet.

oshirish oqibatida pahtachilik, g'allachilik, sabzovotchilik bilan shug'ullanuvchi shirkatlar to'liq tugatilib ularning hududlarida fermer xo'jaliklari hamda agrofimlar tashkil etildi, shuning natijasida fermer xo'jaliklari asosiy qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanuvchilar hisoblanadi. 2011-yilning 1-may holatiga respublikada 80628 nafar fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularga 50 yilgacha foydalanish uchun ijaraga 5169.4 ming gektar yer berilgan. Bu jami qishloq xo'jalik yerlarining 29.9 foizini tashkil etadi.

Shuning bilan birgalikda respublika fuqarolariga shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini, jamoa bog'dorchiligini, uzumchiligini yaratish hamda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va uni obodonlashtirish uchun meros qilib qoldirish sharti va umrbod egalik qilish huquqi bilan belgilangan miqdorda yer berilmoqda. Demak, shu qoidaga muvofiq yerni avloddan-avlodga meros qilib qoldirish ta'minlangan. Ya'ni shu yerlardan foydalanish huquqi fuqarolarga umrbod berilgan. Bu respublikamiz yer islohotidagi eng muhim yutuq hisoblanadi. Lekin fuqarolar qonunlarda ko'rsatilgan shartlarni buzsalar, ularning yerga merosxo'r sifatida egalik qilish huquqi yuqoridagi tashkilotlar tomonidan bekor etilishi ham ko'rsatilgan. Islohot natijasida respublika qishloq hududlarida yashayotgan fuqarolarga umrbod foydalanish uchun 1990-2009 yillar davomida 650 ming gektarga yaqin qishloq xo'jalik yerlari berildi. Bu maydon Andijon viloyatining qishloq xo'jalik yerlariga nisbatan 2,2 marta, Farg'ona viloyatinikiga nisbatan 1,8 barobar ko'pdir. Yerlarni berish natijasida 4,5 mln. dan ortiq oilaning yer bilan ta'minlanganlik darajasi hozirgi davrda qondirilgan. 2011-yilning boshiga kelib mamlakat oila tamorqa xo'jaliklari ixtiyorida 694,9 ming gektar yer mavjud. Aholika berilgan yerdan qonun doirasida to'liq va samarali foydalanish natijasida yurtdoshlarimizni qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashga ulkan hissa qo'shmoqda. 2009 yilda aholi ixtiyoridagi yerlardan respublikada yetishtirilgan jami don mahsulotlarining 19,8 foizi, kartoshkaning-83,4 foizi, sabzavotning-66,5 foizi, poliz mahsulotlarining-51 foizi olingan. Shuningdek, tomorqa xo'jaliklarida jami go'sht (so'in vaznda) mahsulotlarining-94,9 foizi, sutning-96,8 foizi yetishtirilgan. Ta'kidlash kerakki, yerlarni yuridik shaxslarga uzoq muddat foydalanish uchun ijaraga berish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar kelib chiqmoqda. Masalan, mustaqil faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari foydalanish uchun yer so'rab, o'zi joylashgan hududdagi tuman hokimligiga hamda xo'jalikning rahbariga yozma ravishda murojaat etmoqdal'ar. Lekin bu masala ayrim hollarda belgilangan 1 oy muddatda hal etilmayotir. Buning bir qancha sabablari mavjud. Darhol yer berish uchun tuman xalq deputatlari ijroiya qo'mitalarining ixtiyorida bo'sh yerlar yo'q. Demak, ular so'zsiz xo'jalik rahbarlariga murojaat etadilar. Xo'jalik rahbarlari esa o'z ixtiyorlaridagi yerlarni osonlikcha berishmaydi. Chunki ularning zimmasida davlat buyurtmalari bor, qolaversa, shu yerlardan ma'lum miqdorda foyda oladilar. Shunday ekan, xo'jaliklar ixtiyoridagi yerlarni mustaqil fermer, dehqon xo'jaliklariga olib berishda yuqorida ko'rsatilgan masalalarning hal etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Shu bilan birgalikda mustaqil fermer va dehqon xo'jaliklariga yerlarni qishloq xo'jalik yili boshlanmasdan hamda

¹ Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda davlatning agrar siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari. T;2010. 23-bet

kuzgi don ekinlari hosili yig'ishtirib olingandan so'ng berilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Yer islohotini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Yer Kodeksi» ga Oliy majlisning 2004 yilning 28-29 avgustida bo'lib o'tgan sessiyasida talaygina o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, qishloq xo'jalik kooperativlariga (shirkatlariga) hamda boshqa korxonalar tashkilotlariga qishloq xo'jalik ishlab chiqarish maqsadida yerlardan to'liq va samarali foydalanish uchun ijaraga yoki doimiy foydalanishga berishda qo'shimcha imkoniyati berilgan. Qishloq xo'jalik yerlarini qishloq xo'jalik shirkatlariga ma'lum muddatga ijaraga berish boshqa tashkilotlarga doimiy foydalanishga berish huquqiga tuman hokimligi qarorini viloyat hokimligi tasdiqlaydi. Bunday holatni shakllantirishi bizningcha, yer islohotini soddalashtirishga emas, balki murakkablashtirishga, noaniqlikka olib kelishi mumkin. Chunki endilikda shirkat xo'jaliklarining rahbarlari tuman hokimidan tashqari yana viloyat hokimining ham roziligini olishi zarur. Bu vaqt hamda mablag` sarfini oshishiga olib keladi. Shuning bilan birgalikda tuman hokimlarining rolini ham pasayishiga olib keladi. Bunday holni oldini olish uchun avvalgi tartibni saqlagan holda intizomiy javobgarlikni hamda ma'suliyatni kuchaytirish lozim.

2004 yilning sentyabr oyidan boshlab fermer xo'jaliklariga foydalanish uchun yerni ijaraga berish 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddat belgilanadi. Shu davrgacha esa eng kam 10 yil deb belgilangan edi. Endilikda shu davrgacha cho'zilgan ijara muddatlari avtomatik ravishda 30 yilga o'zgartirildi. Masalan, fermer yerni 10, 15, 25 yilga ijaraga olgan bo'lsa, 2004 yilning sentabr oyidan boshlab, ularning muddati 30 yil deb tan olinadi. Agarda 30, 40, 50 yilga ijaraga olingan bo'lsa, bu muddatlar saqlanib qolinadi.

O'zbekistonda yer munosabatlarini rivojlantirish maqsadida Prezident I.A. Karimov tomonidan 1994 yil may oyida «Yerlardan foydalanishni yaxshilash to'g'risida» maxsus farmon imzolangan. Shu farmonga ko'ra, ma'lum miqdordagi yer maydonlarini xususiy mulk sifatida «kim oshdi» savdolarida sotishga ruxsat etilgan. Ulkan siyosiy ahamiyatga molik tadbirdir. Shunday ekan, sotilishi belgilangan yer maydonining dastlabki bahosini belgilash bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish lozim. Unda qanday yerlar sotilayotganligi, ularning qanday joyda joylashganligi, kommunikatsiyalar tizimining rivojlanganligi, olinayotgan foyda miqdori, inflyatsiya koeffitsienti va boshqa masalalar e'tiborga olinishi lozim.

Yerlardan foydalanganlik uchun yagona yer solig`ining 1999 yil 1 yanvardan joriy etilishi munosabati bilan yangi muammo shakllanmoqda. Chunki avval yer solig`i to'liq mahalliy byudjetga o'tkazilar edi. Endilikda esa bu masala to'liq hal etilmagan. Chunki hozirgi yagona yer solig`ining tarkibi bir nechta soliqlardan tashkil topgan. Lekin ularning qanday taqsimlanishi to'liq ko'rsatilmagan. Oqibatda mahalliy byudjet evaziga yerlarning sifatini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan mablag`lar miqdori qisqarishi yerlarning iqtisodiy unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ta'kidlangan masalalarning ijobiy hal etilishi yer munosabatlari takomillashishini ta'minlaydi.

3.4. Qishloq xo'jaligida mulk islohatlari.

Markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyot yillarida qishloq xo'jaligida: a) davlat mulki; b) kolxoz-kooperativ mulki; v) shaxsiy mulk shakllari mavjud edi. 1992 yilgacha respublikamiz qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan mulkning 99,9 foizini davlat va kolxoz-kooperativ mulki tashkil etardi. Qishloq aholisining shaxsiy mulki esa juda ham kam edi. Bunday hol bozor iqtisodi talablariga javob bermaydi. Bozor iqtisodi sharoitida mulkchilikning turli shakllari va erkin mulk munosabatlari mavjud bo'lishi, bunda xususiy mulkchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Bu masalani hal etish uchun huquqiy asoslar yaratildi: «Mulki to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunlar va qarorlar, farmonlar qabul qilindi. Shularga asoslangan holda tarmoqda bosqichma-bosqich mulkchilikning quyidagi turlari tashkil etilmoqda: a) cheklangan miqdorda davlat mulki saqlanmoqda; b) jamoa mulki, uning turlari keng miqyosda tashkil etilmoqda; v) xususiy mulk ham rivojlantirilmoqda; g) aralash (qo'shma) mulkning tashkil etilishiga imkoniyat yaratilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan mulkchilik shakllarining hajmi qishloq xo'jaligida ham bosqichma-bosqich o'zgarib bormoqda. Davlat mulkining hajmi, salmog'i qisqarishi hisobiga jamoa, shaxsiy, qo'shma va xususiy mulk shakllarining miqdori hamda salmog'i oshmoqda. Masalan, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 1992 yili 224 ta davlat xo'jaligi (sovxozlar) iqtisodiy ahvoli nochor bo'lganligi uchun jamoa xo'jaliklariga, ularning mulki esa jamoa mulkiga aylantirildi. 1993 yildan boshlab jamoa hamda davlat mulkiga asoslangan xo'jaliklarning mulki shirkat mulkiga (paychilikka asoslangan) aylantirildi. 1998 yildan boshlab zararga (uch yil davomida) ishlayotgan jamoa va shirkat xo'jaliklari mustaqil fermer xo'jaliklariga tanlov asosida aylantirilmoqda. 2003 yilning boshiga kelib, barcha jamoa xo'jaliklari negizida 1866 ta shirkat xo'jaligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yilning 24 dekabrining 607-sonli, "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida uch yil mobaynida rentabellik darajasi past bo'lgan 1100 ta shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Demak, kelajakda qishloq xo'jaligida asosiy tovar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirib beruvchi sub'ektlari bo'lib fermer, shirkat xo'jaliklari va agrofimlar hisoblanadi. Lekin, shuning bilan birgalikda erkin raqobat asosida boshqa mulkchilikka asoslangan korxonalar ham faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga egadir.

Endilikda tumanlar miqyosida fermer xo'jaliklari uyushmalari tuzilgan. Tugatilayotgan, sanatsiya qilinayotgan korxonalarining mulki fermer xo'jaliklari o'rtasida belgilangan tartibda taqsimlanmoqda. Shuning natijasida shaxsiy va hususiy mulk barpo etilmoqda. Davlat mulki keyinchalik sotish sharti bilan ijaraga berilishi natijasida ijara mulkiga aylantirilmoqda; ishchi-xizmatchilarning xo'jaliklardan olayotgan daromadlari, o'z mablag'lari hisobiga davlat mulkining ma'lum qismini (aktsiyalarini) sotib olishlari natijasida hissadorlik jamiyatlari tashkil etilmoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalarini ixtiyoridagi mulkni aholiga sotib, ulardan o'zlari, shuningdek, yollangan mehnatdan foydalanish natijasida xususiy, shaxsiy mulk tashkil etilib, rivojlantirilmoqda. Xususiy mulkchilikni rivojlantirishda davlat iqtisodiy yordam bermoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalari ixtiyoridagi chorvachilik fermalarini sotib olishda davlat sotib oluvchilarga imtiyozli (foizsiz) kreditlar ham berdi. Natijada qishloqda mulkdorlar sinfi vujudga kelib, ularni davlat o'z himoyasiga olgan. Mulknı davlat tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni kelajakda ham rivojlantirilishi, takomillashtirilishi zarur.

Qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan mulkdorlarning uyg'unlashishlari (mulk tarmog'idagi salmog'i bo'yicha) natijasida qo'shma mulk barpo etilmoqda. Qo'shma mulkchilikni rivojlantirishda chet el yuridik hamda jismoniy shaxslari ham qatnashishlari mumkin. Lekin bu jarayon mamlakatimiz qishloq xo'jaligida juda sust rivojlanmoqda. Qishloq xo'jaligida mulknı davlat tasarrufdan chiqarish, xususiylashtirish natijasida nodavlat mulkning salmog'i ortib bormoqda. 2011 yilning boshiga kelib, qishloq xo'jaligida nodavlat mulkning salmog'i 99,1 foizni tashkil etgan. Nodavlat mulkchilikka asoslangan xo'jaliklarning faoliyati yuksalmoqda. Ularda ekilayotgan ekinlarning hosildorligi, chorva hayvonlarining mahsuldorligi oshishi hisobiga foyda ko'payib, rentabellik darajasi yuksalmoqda. Bu, albatta, mulk islohotining natijasidir. Yuqoridagilarnı e'tiborga olgan holda kelajakda qishloqlarda xususiy va shaxsiy mulkchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki haqiqiy mulk egasiga aylangan qishloq ahli undan oqilona hamda samarali foydalanishi tabiiy.

3.5. Moliya, kredit, soliq va baholar islohoti

Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirish maqsadida moliya, soliq, kredit hamda baholar tizimini isloh etish ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarining faoliyatini moliyalashtirish, ularga vaqtincha foydalanish uchun bo'sh bo'lgan mablag'larnı kredit shaklida berish, yetishtirilayotgan mahsulotlarning xarid qilish baholari davlat tomonidan markazdan rejali tarzda amalga oshiriladi. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida esa korxonalar ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan mablag'larnı eng avvalo o'zlari ishlab topishlari kerak. Mablag` etishmagan hollarda uni chetdan o'zaro manfaatli tarzda olishga, ishlab chiqargan mahsulotlarini esa bozor talablari asosida sotishga harakat qilishlari lozim. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich davlat rahbarligida o'tilayotgan davrda respublikamiz qishloq xo'jaligida moliya, kredit, soliq hamda baholar islohoti qay tarzda amalga oshirilmoqda.

Bu o'rında ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jalik yerlariga, yirik irrigatsiya-melioratsiya inshootlariga nisbatan davlat mulkchiligi saqlanib qolganligi tufayli yangi yerlarnı kompleks o'zlashtirish, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari, yirik irrigatsiya-melioratsiya inshootlarini qurish, ta'mirlash va ulardan foydalanish uchun davlat byudjetidan mablag` ajratilmoqda. Qishloq hududlarida ekologik muhitni sog'lomlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarga ham, qishloq xo'jaligidagi urug`chilik, selektsiya, naslchilik, veterinariya sohalariga ham mablag`lar byudjetdan berilmoqda. Bundan tashqari tarmoqdagi davlat tashkilotlarining faoliyatlari ham byudjetdan ajratilayotgan mablag`lar evaziga moliyalashtirimoqda. Shirkat, fermer, mustaqil dehqon xo'jaliklari esa ishlab chiqarishi uchun talab etilgan mablag`larning asosiy qismini o'z hisoblaridan sarflamoqdalar.

Ular ishlab chiqarish vositalarini o'z foydalari, amortizatsiya fondi hamda asosiy vositalarni tugatishdan olayotgan mablag'lari hisobidan xarid qilmoqdalar. Bunday mablag'lar etishmagan hollarda chetdan vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni manfaatli ravishda jalb etishga harakat qilmoqdalar.

Shuningdek, bu jarayonda homiylarning ajratmalari, turli xildagi kredit institutlarining vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'lari, barcha investorlarning sarmoyalari jalb etilmoqda. Bunda o'zaro manfaatlar e'tiborga olinmoqda. Qishloq xo'jalik korxonalarini aksionerlik-tijorat banklaridan asosiy vositalar uchun uzoq, aylanma vositalar uchun esa qisqa muddatli kreditlar oladilar. Ularni olishda kredit stavkalarining foiz darajasiga hamda qaytarib berish vaqtining boshlanishiga alohida e'tibor berishlari lozim. Lekin hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarini kam foyda olayotganligi, rentabelligi pastligi uchun kredit institutlari ularga juda ham oz miqdorda kredit mablag'lari bermoqdalar. Bu ularning talablarini mutlaqo qondira olmayapti. Shuning uchun qishloq xo'jalik korxonalarini banklardan kredit olish uchun yetishtirayotgan mahsulotlarini va oladigan daromadlarini ham garovga qo'yishlari kerak.

O'tish davrining hozirgi bosqichida davlat ehtiyojlari uchun talab etilmagan miqdordagi paxta, g'alla, sholi mahsulotlari yetishtirishni davlat byudjetidan maxsus fondlar orqali moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Lekin bu mablag' qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan yoqilg'i, yonilg'i, mineral o'g'itlar, ehtiyot qismlar sotib olish uchun sarflanmoqda. Qishloq xo'jalik korxonalarini bunday mablag'larning atigi 7 foizigina ish haqi sifatida sarflashi mumkin. 93 foizi yuqoridagi yo'nalishlar uchun sarflanadi. Bu borada xo'jaliklar uchun erkinlik berilmagan. 2004-2009-yillarda qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish maqsadida shirkat hamda fermer xo'jaliklaridan yetishtirilayotgan mahsulotlarni davlat buyurtmalariga binoan sotib olishda avval o'rnatilgan transhlar o'rniga eksperiment tariqasida bevosita imtiyozli bank kreditlarining summasi sotib olinadigan mahsulotni yetishtirish uchun texnologik kartalarga binoan qilinadigan xarajatar summasidan kam bo'lmasligi kerak. Lekin bevosita bank kreditlari bo'yicha beriladigan mablag' yana avvalgi transhdagidek mineral o'g'itlarni, yoqilg'i va yog'lash materiallarini hamda ehtiyot qismlar sotib olish maqsad qilib qo'yilgan. Bunday tartib qishloq xo'jalik korxonalariga olayotgan kredit mablag'larini o'zlarini hohishlari bo'yicha erkin, mustaqil sarflash imkoniyatini bermaydi. Shuning oqibatida olinayotgan kredit mablag'lari doim ham samara keltirmaydi. Chunki ko'pchilik hollarda qishloq xo'jalik korxonalarini ishlab chiqarish yilning dastlabki oylarida ko'proq mablag'ni yerni haydashga, uni ekishga tayyorlashga, ariiq - zovurlarning texnik holatini yaxshilashga sarflashi lozim. Lekin bevosita kreditdagi mablag' ularni ta'minlash qobiliyatiga ega emas. Ya'ni xarajatlar kredit mablag'lari bilan ta'minlanmagan. Shunday holat mineral o'g'itlarni sarflash jarayonida ham sodir bo'lmoqda. Shuning uchun bevosita berilayotgan kredit mablag'larini sarflash erkinligi korxonalariga berilishi maqsadga muvofiqdir. 2004 yilda ham davlat buyurtmalari bo'yicha sotib olingan paxta xom-ashyosining narxi bilan uning chigit urug'i qishloq xo'jalik texnikalarining erkin narxlari o'rtasida nomutanosiblik saqlanib qolgan. Masalan, paxta xom-ashyosining davlat xarid narxi 2008 yilda 12,4 foizga oshgan bo'lsa, g'ozga maydonga ishlov beradigan kultivatorning narxi 33,7 foizga, yer haydaydigan TTZ – 60.11 va TTZ – 100.11 rusumli traktorlarning erkin

narxi 22.1 – 26,3 foizga oshgan. Bunday hol qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelajakda bu jarayonni qisman bo'lsa ham takomillashtirish, ya'ni korxonalariga bunday mablag'larni sarflashda erkinlik berish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligiga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor berish lozim. Uning huquqiy asoslari yaratilgan. Chunonchi, «Investitsion faoliyat to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilingan. Demak, endilikda korxonalar hamkorlar qidirib topishga harakat qilishlari kerak. Shuningdek, davlat kanallari orqali kelayotgan investitsiyalarning bir qismini qishloq xo'jaligiga yo'naltirish ham foydadan xoli emas.

O'tish davrida qishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan soliqlar tizimi ham takomillashtirilmoqda. 1999 yilgacha ular daromad, yer, suv, mulk, aktsiz va boshqa turdagi soliqlarni, to'lovlarni to'lar edilar. 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab korxonalaridan yagona yer solig'i olinmoqda. Uning miqdori yer unumdorligiga (yerning klasslar bo'yicha ball bonitetiga) qarab belgilanadi. Lekin yagona yer solig'i miqdorini (stavkasini) aniqlash tartibini xo'jaliklar bilmaydilar. Ular tuman soliq inspeksiyalari tomonidan berilgan stavkalar bo'yicha soliq summasini aniqlab, belgilangan muddatlarda mahalliy byudjetga o'tkazadilar.

Yagona yer solig'ining joriy etilishi xo'jaliklar uchun ancha qulaylik tug'dirdi. Chunki 10 ta soliq turi bo'yicha hisob-kitob qilgandan ko'ra, yagona soliqni hisoblash ancha yengil. Yagona yer solig'ining joriy etilishi bilan xo'jaliklar tomonidan byudjetga to'lanayotgan summa qisqargani yo'q, balki anchaga oshdi. Bu hol xo'jaliklarni ancha o'ylantirmoqda. Ularda mablag' etishmasligi sezilmoqda. Shuning uchun uning stavkalarini ko'rib chiqish hozirgi vaqtda xo'jaliklar uchun eng muhim masala hisoblanadi. Chunki so'ngi yillarda tuproq unumdorligining pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Respublika miqyosida tuproqning ball boniteti 1995-2009 yillar mobaynida 10 ballga psaygan. 1992 yildan qishloq xo'jalik korxonalari yetishtirayotgan barcha mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatlariga ega bo'la boshladilar. Bu tarmoqda baholar islohoti amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda xo'jaliklar yetishtirayotgan mahsulotlarini bir qancha turdagi narxlarda sotmoqdalar. Jumladan:

➤ fermerlar davlat ehtiyojiga kerak bo'lgan paxta, bug'doy, sholining rejalashtirilgan hosilga nisbatan 50 foizini, davlat xarid narxlarida;

➤ yetishtirilgan hoslining davlat buyurmalaridan ortig'ini esa mahsulotlarni oluvchilar bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan kelishilgan baholarda (ularni shartnoma baholari ham deb atashadi);

➤ erkin sotiladigan mahsulotlarni erkin baholarda kelishilgan birja auksion narxlarida sotmoqdalar;

➤ xo'jalik ichida iste'mol qilinadigan yoki foydalaniladigan mahsulotlarni esa ularning tannarxlarida yoki erkin narxlarda sotmoqdalar.

Bular bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bermaydi. Shuning uchun uni kelajakda yanada takomillashtirish talab etiladi.

Tayanch iboralar:

Tadbirkorlik, iqtisodiy negizi, jamoa xo`jaliklari, jamoa mulki, shirkatlar, fermer xo`jaliklari, dehqon xo`jaliklari, qo`shma korxonalar, qo`shma mulk, xususiy korxonalar, xususiy mulk, soliq, moliya kredit islohotlari, mulkni xususiylashtirish, davlat tassarufidan chiqarish.

Qisqacha xulosalar

Respublikada erkin bozor iqtisodiyotini barpo etish va rivojlantirish uchun qishloq xo`jaligining barcha sohalarida bozor munosabatlarini shakllantirish ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Bu masalani yagona tizim shaklida davlat rahbarligida bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon inqiroz sharoitida o`zini oqladi.

Amalga oshirilishi zarur bo`lgan agroiqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Buni Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari isbotlaydi.

Huquqiy hamda me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda qishloq xo`jaligida:

➤ yer islohoti amalga oshirilmoqda. Bunda yerga nisbatan umummilliy boylik deb qaralmoqda, ya'ni davlat mulkchiligi saqlangan holda yuridik va jismoniy shaxslarga yerdan foydalanishga qilish huquqi berilmoqda;

➤ mulk islohotini amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Natijada tarmoqda nodavlat mulkchilik shakllaridan jamoa, xususiy, shaxsiy hamda aralash mulkchilik turlari bosqichma-bosqich barpo etilib, rivojlantirilmoqda;

➤ shaklan va mazmunan afzal tub moliya, kredit, soliq va baho hamda tashkiliy-tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakat qishloq xo`jaligining ma'lum darajada rivojlanishi ta'minlanmoqda. Lekin bu jarayon ham bozor iqtisodiyoti talablariga to`liq javob bera olmaydi. Shuning uchun ham kelajakda barcha yo`nalishlar bo`yicha iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish zarur. Asosiy e'tibor qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining rivojlanishini ta'minlaydigan shaxsiy va xususiy hamda aralash mulkchilik turlarini rivojlantirishga, soliq, moliya-kredit va baho islohotlarini takomillashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo`jaligiga davlat rahbarligi qanday amalga oshirilmoqda?
2. Agrar-iqtisodiy islohotlar qanday yo`nalishlarda amalga oshirilmoqda?
3. Yer islohoti qanday tartibda amalga oshirilmoqda?
4. Mulk islohati qanday amalga oshirilmoqda?
5. Moliya-kredit islohotlari qanday amalga oshirilmoqda?
6. Soliq va to'lovlar tizimining o'zgarishini tushuntirib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Yer Kodeksi». O`zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» va qishloq xo`jaligiga oid qonunlari, Toshkent, «Adolat», 1999.

2. O`zbekiston Respublikasining «Soliq Kodeksi», “Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to`plami”, T.: “Sharq”, 2002.
3. O`zbekiston Respublikasining «Mulk to`g`risida»gi Qonuni T.: «Adolat», 1996
4. O`zbekiston Respublikasi «Mulkni davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish to`g`risidagi» Qonuni, T.: «Adolat», 1995
5. O`zbekiston Respublikasining «Ijara to`g`risida»gi qonuni. Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to`plami. 1-qism., Toshkent, «Sharq», 1998.
6. Karimov I.A. Davlatimiz mulkini xususiylashtirish va ko`p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirish. – T.: «O`zbekiston», 1995
7. Karimov I.A. Qishloq xo`jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish. – T.: «O`zbekiston», 1995.
8. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz-Vatanamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish.” Xalq so`zi 2011-yil. 30-yanvar.
9. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.

Internet saytlari:

1. www.uhh.hawaii.edu Univyersity of Hawaii at Hilo – Agroecology and Environmental Qulaity Program.
2. www.ecfak.timacad.ru Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya.
3. www.admin.ru Institut Agroekonomiki i Biznesa Priamurskiy.
4. Mardonova A.T., Ishoqova S.A. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni ro`yobga chiqarishning dolzarb uslublari. www.ski.ilm.uz
5. Saratovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.tstu.ru
6. Rozvoj integrace a infrastruktura. www.deloitte.com

TO`RTINCHI BOB

QISHLOQ XO`JALIGIDA MULK VA TADBIRKORLIK SHAKLLARI

- 4.1. Mulk va tadbirkorlik haqida tushuncha, uning iqtisodiy negizi, shakllari.
- 4.2 Qishloq xo`jaligidagi davlat korxonalari, ularning rivojlanishi.
- 4.3 Jamoa va shirkat xo`jaliklari, ularning hozirgi holati.
- 4.4 Fermer xo`jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.
- 4.5 Fermer xo`jagining huquqiy, iqtisodiy asoslari, ularni tashkil etish tartibi.
- 4.6 Respublikada fermer xo`jaliklarining rivojlanishi.
- 4.7 Dehqon va oila tamorqa xo`jaliklari.
- 4.8 Qishloq xo`jaligidagi qo`shma korxonalar.

4.1. Mulk va tadbirkorlik haqida tushuncha, uning iqtisodiy negizi, shakllari

Qishloq xo`jaligi o`zining asosiy maqsadiga erishish uchun tarmoqda tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirilishini taqozo etadi. Tadbirkorlik -mulkchilik sub'ektlarining qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish hamda xizmatlar ko`rsatish natijasida foyda yoki daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan faoliyat ko`rsatishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qishloq xo`jaligida ham yuridik, ham jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ular O`zbekiston Respublikasining «Mulk to`g`risida»gi, «Korxonalar to`g`risida»gi hamda «Tadbirkorlik to`g`risida»gi va boshqa qonunlari talablariga qat'iy rioya etishlari zarur. Ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari uchun mustahkam iqtisodiy negizga ega bo`lishlari kerak. Ularning iqtisodiy negizini esa mulk tashkil etadi. Mulk O`zbekiston Respublikasida "Mulk to`g`risi"dagi qonunga binoan quyidagi shakllarda bo`lishi mumkin:

-Xususiy hamda shaxsiy mulk. Bu shakldagi mulk egasi o`z mol-mulkiga xususiy, shaxsiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlariga egadir. Xususiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida o`z mehnati va yollanma mehnatni qo`llashi orqali shakllanadi. Shaxsiy mulk uning egasining shaxsiy mehnat qilishi natijasida tashkil topadi. Ularga shaxsiy va oila mulki hisoblangan fermer, dehqon xo`jaliklarining mulki kiradi.

-Shirkat (jamo) mulki. Bu mulk tarkibiga qishloq xo`jaligida jamoa korxonalarining, shirkat xo`jaliklarining, ijara korxonalarining hamda birlashmalarning mulklari kiradi.

-Aralash mulk. Bu mulk turli xildagi mulkchilik shakllarining o`zaro manfaatli uyg`unlashishi natijasida shakllanadi. Jumladan, respublika qishloq xo`jaligidagi jamoa, shirkat va davlat mulkchiligiga asoslangan xo`jaliklarning chet ellardagi korxonalar bilan birikib faoliyat yuritish maqsadida tashkil etgan qo`shma korxonalarining mulki.

Davlat mulki. Qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi bilan shug`ullanadigan davlat korxonalarining mulkidir.

Boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar mulki. Mulkchilikning bu shakliga asoslangan holda chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan

shug`ullanadigan mustaqil korxonalarni yoki o`z bo`limlarini, vakolatxonalarini tashkil etishlari mumkin.

Demak hozirgi davrda qishloq xo`jaligida amaldagi qonunlar talablariga binoan mulkning quyidagi shakllari faoliyat ko`rsatmoqda:

- Davlat mulki;
- Jamoa mulki;
- Xususiy mulk;
- Aralash (qo`shma) mulk.

Qishloq xo`jaligidagi tadbirkorlarning mulkiy huquq ob'ektlari quyidagilar hisoblanadi:

- bino va inshootlar, uy-joylar;
- kuch va ishchi mashinalar, jihozlar;
- transport vositalari, asbob-uskunalar;
- hisoblash, kompyuter texnikalari;
- ishlab chiqarish va xo`jalik inventarlari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar;
- ko`p yillik daraxtlar (bog`lar, toklar, tutlar);
- yetishtirilgan barcha turdagi mahsulotlar;
- pul mablag`lari, qimmatli qog`ozlar;
- yonilg`i, yoqilg`i va yog`lovchi materiallar;
- mahalliy va mineral o`g`itlar, kimyoviy vositalar;
- yem-xashak, ozuqa, ko`chat, urug`liklar;
- ishchi-xizmatchilarning intellektual qobiliyatlari...

Tadbirkorlar o`z ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun chetdan o`zgalarning mablag`larini ham jalb etishlari mumkin. Tadbirkorlarning mulkka egalik qilish huquqi, uni tashkil etish hamda undan foydalanish masalalari O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Mulk to`g`risida» gi qonun va boshqa qonunlarda batafsil yoritilgan.

Mavjud bo`lgan huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda agrar-iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida respublika qishloq xo`jaligida turli mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning quyidagi shakllari faoliyat ko`rsatmoqda:

➤ davlat, jamoa va kooperativ (shirkat)larning mol-mulklariga egalik qilish, ulardan foydalanish asosida bir guruh fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan jamoa tadbirkorligi;


➤ fuqaro shaxsiy va xususiy mol-mulki asosida yollanma, shaxsiy mehnatga asoslangan holda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik, oila-tamorqa va dehqon fermer xo`jaligi tadbirkorligi.

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning (respublika hamda xorijiy davlatlarning) mol-mulklarini qonunlarda belgilangan tartibda jalb etish asosida amalga oshirilayotgan hamkorlikdagi tadbirkorlik (qo`shma korxonalar).

➤ Respublika qishloq xo`jaligida hozirgi davrda yuridik hamda jismoniy shaxs maqomiga ega bo`lgan tadbirkorlikning quyidagi sub'ektlari hamda shakllari faoliyat ko`rsatmoqda:(4.1.1-chizma)

4.1.1-chizma

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik sub'ektlari, hamda shakllari



Kelajakda qishloq xo'jalik, servis sub'yektlari, qayta ishlash korxonalar faoliyatini uyg'unlashtirish oqibatida agrosanoat korxonasi, kombinati, majmuasi ham barpo etilishi mumkin.

4.2. Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalari, ularning rivojlanishi.

Respublika qishloq xo'jaligida 1991 yildan boshlab siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tub agrar-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat bosh islohotchi bo'lgan bu jarayonda tarmoqdagi davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish negizida nodavlat mulkchilikni va shunga asoslangan nodavlat xo'jaliklarini tashkil etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda yerga umummilliy boyluk sifatidagi davlat umumxalq mulkchiligi saqlab qolinmoqda. Boshqa mulklar esa davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarilib, xususiylashtirilmoqda. 1990 yilda davlat mulkchiligiga asoslangan xo'jaliklar, ya'ni

sovxo'zlar 1038 ta edi. Ular O'zbekistonda XX asrning 30-yillarida tashkil etila boshlangan. Respublikaning Qarshi va Mirzacho'l, Surxon-Shyero'bod, Markaziy Farg'ona hududlarida yangi yerlarni o'zlashtirish natijasida keng miqyosda davlat xo'jaliklari tashkil etildi. Davlat xo'jaliklari – sovxozlar tashkil etilishida davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag` evaziga ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yuritish uchun zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat tomonidan o'rnatilgan ulgurji baholarda sotib olishardi. Ulardan foydalangan holda faoliyat yuritib, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarini davlat tomonidan belgilangan xarid narxlarda davlat tashkilotlariga sotar edi. Olingan yalpi mahsulot hamda foyda summalari davlat moliya-iqtisod organlari tomonidan o'rnatilgan tartibda taqsimlanardi. Bunda asosiy e'tibor davlat manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan, davlat xo'jaliklariga to'liq erkinlik, ya'ni mustaqillik berilmagan edi. Shuning uchun ular yuqori tashkilotlar tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga bo'ysungan holda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanar edilar. Ular asosan paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, respublikada yetishtirilayotgan mahsulotlarning sezilarli qismini ishlab chiqarardilar. Bu xo'jaliklar 1990 yilga kelib, respublikada yetishtirilgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 37,5 foizini yetishtirdilar. Lekin ular iqtisodiy negizi, faoliyat yuritish mazmuni bo'yicha erkin bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermasdi. Shuning uchun ham davlat mulkchiligiga asoslangan sovxozlar negizida tub tashkiliy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi zarur bo'ldi. Islohotlar jarayonida ularning negizida dastavval jamoa xo'jaliklari (kolxozlar), keyinchalik shirkatlar hamda mustaqil fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlandi.

Respublika hukumati qishloq xo'jaligi oldidagi muhim vazifalarni e'tiborga olgan holda bir qancha muammolarni o'z zimmasiga olgan. Bunda davlat bosh islohotchi ekanligini isbotlamoqda. Hozirgi davrda respublika hukumati agrar siyosatining strategik yo'nalishlarini hamda taktikasini belgilab, uni ta'minlash bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish choralari ko'rmoqda. Hukumatning asosiy e'tibori qishloq xo'jaligining barcha sohalari yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu nihoyatda muhim muammo hisoblanadi. Chunki faqat ilm-fan, yangi, samarali texnika hamda ilg'or texnologiya, innovatsiyalar barcha yutuqlarning asosiy negizidir. Bu muammoni hal etish maqsadida respublika hukumati qishloq xo'jaligida davlat xo'jaliklarini saqlab, ularning faoliyatlarini diversifikatsiya qilib rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida davlat ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining yangi markazi tashkil etilgan. Markaz tarkibida ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi hamda davlat xo'jaliklari mavjud. 2011 yilning boshiga markaz tarkibida 100 taga yaqin davlat xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular asosan davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag`lar evaziga qishloq xo'jaligining rivojlanishini ta'minlaydigan quyidagi ilmiy g'oyalarni yaratish, sinash asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanmoqdalar:

- urug`chilik, naslchilik, ko'chatchilik, yangi, sermahsul, tezpisar navlarni yaratish, ularni rivojlantirish g'oyalari, muammolari;
- irrigatsiya-melioratsiya ishlarini rivojlantirish muammolari;
- iqtisodiyotda erkin bozor iqtisodi munosabatlarini yaratish va ularni chuqurlashtirish muammolari;

➤ yangi texnika, ilg`or texnologiyalarni yaratish, agrotexnika tadbirlarini rivojlantirish hamda takomillashtirish muammolari va boshqalar.

Agrar iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan davrda shakllangan davlat mulki va ularga egalik qilish huquqi berilgan davlat korxonalarini davlat mulki asosida to'liq xo'jalik yuritish huquqiga ega. Korxonalar o'z mol-mulki bilan to'la xo'jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, mazkur mulkka nisbatan o'z xohishi bilan qonun doirasida faoliyat yuritadi.

Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan davlat xo'jaliklaridagi mehnat jamoasi a'zolarining ham mol-mulki mavjud. Bu mulk davlat korxonasi tugatiladigan bo'lsa, uning byudjet, banklar oldidagi va boshqa qarzlari to'langanidan so'ng korxonaning mehnat jamoasiga beriladi. Bu tartib ham ma'lum darajada islohotlarning natijasi hisoblanadi.

Ilmiy markaz tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida yaratilayotgan yangiliklar, innovatsiyalar eng avvalo davlat xo'jaliklari ishlab chiqarishida sinab, so'ngra amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilinmoqda. Lekin hozirgi davrda u xo'jaliklarga mahsulot yetishtirish borasida davlat buyurtmalari berilmoqda. Bu hol ularning asosiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun kelajakda ularni o'z vazifalarini bajarishga yo'naltirish zarur. Qishloq xo'jaligidagi davlat xo'jaliklari hozirgi davrda (2009 y.) tarmoqda ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 1 foizini bermoqda. Kelajakda ularni faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ularning moddiy-texnika asosini mustahkamlashga, malakali ilmiy kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish lozim.

4.3. Jamoa va shirkat xo'jaliklari, ularning rivojlanishi

Qishloq xo'jaligida o'tgan asrning 80-yillari oxiri 90-yillari boshida jamoa xo'jaliklari hisoblangan 887 ta kolxoz faoliyat ko'rsatib, respublikada yyetishtirilayotgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 35 foizini berardi. Ularning iqtisodiy negizini jamoa mulki tashkil etardi. Lekin mulkchilikning bu shakli uning haqiqiy mazmuni, mohiyatiga mos emasdi. Chunki amaliyotda ular davlat tasarrufida edi. Bunday hol bozor iqtisodi talablariga to'g'ri kelmasdi. Shu bois bozor iqtisodiga o'tish munosabati bilan tarmoqdagi davlat xo'jaliklari negizida shakllantirilgan jamoa xo'jaliklari bosqichma-bosqich qayta tashkil etila boshlandi.

Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, 1990 yillargacha ular qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ma'lum darajada o'z hissalarini qo'shganlar. Ular o'sha yillarda tarmoqda yyetishtirilayotgan paxtaning 41 foizini, g'allaning 37 foizini, sutning 36 foizini berardi. Lekin ularning faoliyatlari ham davlat xo'jaliklari kabi to'liq davlat tomonidan boshqarilardi. Ya'ni ularda mahsulotlar yetishtirish jarayoni davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirilib, yyetishtirilgan mahsulotlarni davlat o'z tashkilotlari yordamida hukumat tomonidan belgilangan xarid baholarida majburiy ravishda sotib olardi. Olingan yalpi va sof daromad esa hukumat tomonidan belgilangan tartibda taqsimlanardi. Bunda jamoaning erki, huquqi to'liq e'tiborga olinmas edi. Demak, u xo'jaliklarda amalga oshirilgan iqtisodiy munosabatlar bozor iqtisodi munosabatlari talablariga mos emas edi. Bunday hollarni bartaraf etish maqsadida, avvalo, jamoa mulkchiligiga asoslangan jamoa xo'jaliklarida haqiqiy bozor iqtisodi munosabatlarini barpo etishga alohida e'tibor berildi. Bunda

respublikada amalga oshirilayotgan yer islohotiga asoslangan holda mavjud jamoa xo'jaliklariga davlat mulki hisoblangan yer foydalanish uchun 10 yildan, 2004 yildan boshlab 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berilgan. Ular yerdan foydalanganlik uchun belgilangan muddatda ijara haqi to'laydigan bo'lishdi. Ijara haqi 1999 yildan boshlab yagona yer solig'i shaklida to'lanadigan bo'ldi. Shu bilan birga «Mulk to'g'risida»gi qonun talabiga muvofiq u xo'jaliklarda haqiqiy jamoa mulkchiligi tashkil etilmoqda. Mulchilikning bu shakli jamoa xo'jaliklari negizida shirkat xo'jaliklari tashkil etish orqali shakllantirilmoqda. Uning huquqiy asosi yaratilgan. Ya'ni Oliy Majlis tomonidan 1998 yilda qabul qilingan «Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar) to'g'risida»gi qonun, uning hayotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi 1998 yilning 15 iyulida 229-sonli qaror qabul qilgan.

Shirkat xo'jaligi deb, qishloq xo'jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish maqsadida fuqarolarning paychilikka asosan oilaviy pudrat asosida uyushib, erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yuritish sub'ektiga aytiladi. Ular o'tish davrida qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning asosiy, ya'ni yirik tovar ishlab chiqaruvchi shakli hisoblanadi. Ularning ixtiyoriga qishloq xo'jalik yerlarining asosiy qismi uzoq muddatga, ya'ni 30-50 yilga ijaraga foydalanishga berilgan. Ularning iqtisodiy negizini, ya'ni mulkini pay (ulush) asosida tashkil etilgan paychilarning jamoa mulki tashkil etgan. Shirkat xo'jaliklarining barcha mulki (yerlarning qiymatini qo'shib) a'zolariga xizmat muddatiga, oylik ish haqqi miqdoriga mutanosib holda pay shaklida bo'lib berilgan. Shuning natijasida shirkat a'zolari mulk egasi bo'lganlar. Bunday hol ularga barcha mulkka egalik qilish, bu mulkdan to'liq va samarali foydalanish imkoniyatini bergan, lekin pay egalari huquqiy mulkdor sifatida to'liq manfaatdor bo'lmagan.

Mulk va mulkiy munosabatlar nihoyatda murakkab hamda muhim masaladir. Uni talab darajasida hal etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Shirkat xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib turgan jamoa xo'jaliklari zaminida qayta tashkil etigan. Faoliyat ko'rsatib turgan jamoa xo'jaligini shirkat xo'jaligiga aylantirish xo'jalik a'zolarining umumiy majlisi qaroriga asosan amalga oshirilgan. Ushbu qaror o'zgartirilayotgan xo'jalikning kreditorlariga ham yozma ravishda yetkazilgan.

Shu qarorga asosan shirkat xo'jaligiga aylantirilayotgan xo'jalik rahbarlari, mutaxassislari va a'zolaridan iborat komissiya tuzilgan. Tuman hokimining qarori bilan komissiya ishida tuman hokimligi, moliya va soliq idoralari, banklar, kasaba uyushmasi vakillari ishtirok etadilar. Komissiya zimmasiga nihoyatda muhim masalalar yuklatilgan. Ulardan biri yangi tashkil etilayotgan shirkat xo'jaligining Ustav loyihasini tayyorlash. Unda quyidagi masalalar batafsil aks ettirilishi lozim:

Umumiy qoidalar. Bunda tashkil etilayotgan shirkat xo'jaligining nomi; qaysi jamoa xo'jaligi asosida tashkil etilganligi; xo'jalikning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi, ma'suliyati, burchi, manzili hamda faoliyat muddati qayd etilgan.

Shirkat xo'jaligi faoliyatining maqsadi va sohasi. Bunda xo'jalikning keng qirrali faoliyatining tub maqsadi ko'rsatigan. Maqsad nihoyatda tyeran, mazmunli, barcha imtiyozlar e'tiborga olingan holda bayon etilishi, u muvaffaqiyatli hal qilinishini ta'minlovchi sohalar aniq, batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Yer uchastkasi va undan foydalanish. Bu bo'limda xo'jalikka foydalanish uchun beriladigan yerning miqdori, muddati, davlat mulki ekanligi uchun sotilishi, garovga qo'yilishi, ayirboshlanishi mumkin emasligi; yerlar qanday yerlardan iboratligi hamda o'lchami, sifati, kamaytirilmasligi, ulardan to'liq hamda samarali foydalanish zarurligi, fuqarolarga, pudratchilarga berilish tartibi va boshqalar ko'rsatigan.

Shirkat xo'jaligi mol-mulkini shakllantirish tartibi. Bu bo'limda xo'jalikning umumiy mulki, uning tarkibi, ya'ni qanday mulklardan, manbalardan tashkil topishi, mulkni shakllantirishda qatnashish tartibi va nihoyat, xo'jalikning mulkka egalik qilishi qayd etigan. Foydalanish va tasarruf etish huquqlari amaldagi qonun talablari asosida belgilanishi zarur.

Ustav jamg'armasi va uni taqsimlash. Bu bo'limda Ustav jamg'armasi, uning miqdori, tarkibi, ya'ni qanday jamg'armalardan qanday miqdorda, foizda tashkil etilishi, pay jamg'armasining mulkiy paylarga taqsimlanishi, mulkiy payning boshlang'ich qiymati, tasdiqlanishi, Ustav jamg'armasini ko'paytirish tartibi, manbalari o'z aksini topishi lozim.

Shirkat xo'jaligining a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari. Bu bo'limda kimlar, qanday tartibda xo'jalik a'zosi bo'la olishi, ularning huquq va majburiyatlari, shirkat xo'jaligi tashkil bo'ladigan paytda a'zolar tarkibi, ularning boshlang'ich mulkiy paylari miqdori, ularni aks ettirish, mehnatga haq to'lash tizimi hamda rag'batlantirish, shirkat xo'jaligiga a'zolikning tugatilish tartiblari bayon etilishi kerak.

Shirkat xo'jaligi a'zolarining mulkiy paylari va ularning hisobi. Bu bo'limda shirkat xo'jaligi a'zolarining pay jamg'armasidagi mulkiy paylari miqdori, ularning shakllantirilishi, taqsimlanishi, ularga dividendlar to'lash tartibini belgilovchi me'yoriy hujjat, pay jamg'armasi, xo'jalik a'zolarining mulkiy paylarini o'zgartirish, mulkiy paylarini hujjatlashtirish tartiblari va boshqa masalalar aks ettirilgan.

Daromad (foyda) ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi. Bu bo'limda shirkat xo'jaligi foydasini taqsimlash butunlay xo'jalik tasarrufidaligi, zararni qoplash tartibi, xo'jalik daromadi (foydasini)ning taqsimlanishi, mulkiy paylar bo'yicha dividendlarini shakllantirish va to'lashni ta'minlaydigan me'yoriy hujjat va nihoyat, dividendlarning to'lanish tartibi yozigan.

Paylarni ajratib berish va meros qilib qoldirish bo'limida qanday hollarda mulkiy paylarni ajratib berish va ularni meros qilib qoldirish tartibi ko'rsatigan.

Shirkat xo'jaligining boshqaruv organlari va ularning vakolatlari. Bu bo'limda xo'jalikning umumiy majlisi hamda taftish komissiyasi boshqaruv organi ekanligi, ularning vazifalari, vakolatlari, boshqaruv organlari rahbarlarining saylanishi, vazifalari va boshqalar aks ettirilgan.

Hisob-kitob ishlari va hisobot berish, shirkat xo'jaligi faoliyatini tekshirish tartibi. Unda xo'jalikda hisob-kitob ishlarini amalga oshirish hamda buxgalteriya va statistika hisoblarini yuritish, iqtisodiy axborotlarni yig'ish, tahlil etish masalalari, xo'jalik faoliyati yoritigan.

Shirkat xo'jaligini qayta tashkil etish va tugatish tartibi. Bunda xo'jaliklarni qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish hamda tugatish shartlari, tartiblari ko'rsatigan.

Ustav bilan birgalikda komissiya shirkat xo'jaligining Ustav jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni ham tuzishi zarur.

Nizomning 1-bo'limi umumiy qoidalardan iborat bo'lib, unda shirkat xo'jaligi pay, bo'linmas shirkat hamda Ustav jamg'armalarining, yyetishtirilayotgan mahsulotlarning, mol-mulklarning egasi ekanligi, ulardan foydalanish va tasarruf qilish huquqiga egaligi aks ettirilgan.

2-bo'lim. Ustav jamg'armasini shakllantirish masalalari aks ettiriladigan bo'lim bo'lib, unda shirkat xo'jaligi Ustav jamg'armasining ahamiyati, uni shakllantirish manbalari, bu manbalardan foydalanish, jamg'arma miqdorini o'zgartirish tartibi, asosiy va aylanma vositalar, mablag'lar tarkibi batafsil yozigan.

3-bo'lim. Ustav jamg'armasini taqsimlash va undan foydalanish ko'zda tutilgan bu bo'limda xo'jalikning Ustav jamg'armasi pay jamg'armasi va bo'linmas jamg'armalardan tashkil topishi, pay jamg'armasi bosh qism sifatida shirkat xo'jaligi a'zolari o'rtasida taqsimlanishi, xo'jalik pay jamg'armasining umumiy summasi va a'zolar mulkiy paylarining miqdori xo'jalik a'zolarining umumiy majlisida begilanishi, dividendlarni taqsimlashda pay jamg'armasi tarkibiga yer uchastkalarining qiymatini qo'shish ko'rsatilgan. Qishloq xo'jalik yerlarining qiymati esa maxsus qo'llanma yordamida aniqlanadi. Bunda yerlarning turlari, miqdori, banitet ballari, ekinlarning salmog'i, ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi hamda yer uchastkalarining joylashganligi e'tiborga olingan. Yerlarning qiymati xo'jalik Ustav jamg'armasining umumiy miqdorini ko'paytirmasligi alohida ta'kidlanishi zarur. Chunki yer davlat mulki. U pay shaklida a'zolarga taqsimlanmaydi, balki uning qiymati taqsimlanadi. Mazkur bo'limda pay jamg'armasini o'zgartirish shartlari, tartiblari ham yoritilishi lozim.

4-bo'lim. Ustav jamg'armasining hisob-kitobi va uni ro'yxatga olish tartibi bayonini qamrab oladi. Bu bo'limda Ustav jamg'armasi buxgalteriyada qanday tartibda hisobga olinishi, xo'jalik a'zolarining maxsus raqamli muhrlangan reestr kitobi hamda shaxsiy hisob va raqamlarining yuritilish tartibi yoritilishi shart.

5-bo'lim. Shirkat xo'jaligi tugatilayotganda Ustav jamg'armasini taqsimlash tartibi qayd etiladigan bu bo'limda xo'jalikni tugatish uchun tuzilgan tugatish komissiyasi matbuotda xo'jalikning tugatilishi, yuridik va jismoniy shaxslarning da'volarini qabul qilish shartlari, muddatlari, ularni ko'rib chiqish vaqtida tuziladigan hujjatlar hamda bo'linmas jamg'armaning a'zolar o'rtasida mulkiy paylarga mos ravishda taqsimlanishi aks ettirilgan.

Komissiyada shirkat xo'jaligining bo'linmas jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom tuziladi. Uning umumiy qoidalardan iborat; 1-bo'limida xo'jalikning bo'linmas jamg'armasi xo'jalik tasarrufida bo'lishi hamda paychilar o'rtasida taqsimlanishi, uni qanday yo'nalishlarda ishlatish, nazorat etish tartibi yozilgan.

2-bo'lim bo'linmas jamg'armani tashkil etish va undan foydalanish masalalarini o'z ichiga olgan. Undan shirkat xo'jaligi tashkil etilayotganda bo'linmas jamg'arma umumiy majlis qaroriga ko'ra, Ustav jamg'armasining qirq foizidan kam bo'lmasligi, sof foyda bu jamg'armaning asosiy manbasi ekanligi, xo'jalik undan mustaqil ravishda foydalanishi yozilgan.

3-bo'lim bo'linmas jamg'armaning hisob-kitobi qaydidan iborat bo'ladi. Unda xo'jalikning bo'linmas jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish hisob-kitobi, uning ob'ektlari va manbalari bo'yicha ro'yxatga olinishi aks ettirilgan.

4-bo'lim shirkat xo'jaligini tugatishda bo'linmas jamg'armani tasarruf qilish masalalariga bag'ishlanadi. Bu bo'limda umumiy qoidalar bo'yicha xo'jalik tugatilayotganda bo'linmas jamg'armaning taqsimlanishi yoritilgan.

Pay jamg'armasini shakllantirish, mulkiy paylarni taqsimlash va ular bo'yicha dividendlar to'lash tartibi to'g'risidagi nizom tuziladi. Bu nizomning 1-bo'limi umumiy qoidalarga bag'ishlanib, unda pay jamg'armasining tashkil topishi, mulkiy paylarga bo'linishi ko'rsatilgan.

2-bo'limda mulkiy payni hisoblash tartibi bayon etilgan. Unda mulkiy payni hisoblash uchun shirkat xo'jaligida ishlagan va ishlayotgan a'zolarining faoliyat ko'rsatgan davri (staji) va oxirgi yildagi o'rtacha ish haqi aks ettirilgan. Uni hisob-kitob qilish uchun olinadigan davrni xo'jalik a'zolarining umumiy majlisi tasdiqlagan. Har bir a'zoning mehnat (staji) davri tasdiqlangan yildagi o'rtacha yillik ish haqiga ko'paytirilib, uning yil-so'mi jamlanib, jami ishlovchilarning yil-so'mlari chiqarilgan. So'ngra shirkat xo'jaligida ishlovchi a'zolar o'rtasida taqsimlanadigan pay jamg'armasi yuqorida aniqlangan jami yil-so'mlar miqdoriga taqsimlanib, bir yil-so'mga to'g'ri keladigan mulkiy payni aks ettiruvchi raqam aniqlanadi. Bu raqam har bir ishlovchining yil-so'miga ko'paytirilib, shirkat xo'jaligidagi har bir a'zoning mulkiy payi summasi belgilangan.

Nafaqaxo'rlarga taqsimlanadigan mulkiy pay summasi har bir xo'jalikning iqtisodiy ahvoriga qarab jami pay jamg'armasining o'n foizgacha bo'lgan qismi miqdorida bo'lishini umumiy majlis belgilab bergan. So'ngra har bir nafaqaxo'rning xo'jalikda ishlagan davri (staji) aniqlanadi va ularning umumiy yig'indisi hisoblab chiqilgan. Nafaqaxo'rlarga ajratilgan mulkiy pay summasi barcha nafaqaxo'rlarning umumiy mehnat davriga (stajiga) taqsimlanib, bir yillik stajga to'g'ri keladigan mulkiy pay qiymati aniqlangan. Bu qiymat har bir nafaqaxo'rning umumiy stajiga ko'paytirilib, uning mulkiy payi qiymati (summasi) hisoblangan.

3-bo'limda shirkat xo'jaligi paychi-a'zolari tarkibini va ularning mulkiy paylarini aniqlash tartibi bayon etilgan.

Paychilikka asoslangan yopiq turdagi shirkat xo'jaliklarida har bir xo'jalik a'zosiga tegishli mulkiy pay summasi a'zoning nomi yozilgan guvohnomada aks ettiriladi va unga berilgan. Ochiq turdagi paychilik xo'jaliklarida esa guvohnomada pay egasining nomi yozilmaydi, xo'jalikdagi har bir a'zoning mulkiy payi tarkibi ko'rsatilgan. Har bir a'zoning boshlang'ich mulkiy payi, qo'shimcha pay badali, mulkiy payning yillik ko'paygan summasi hamda to'langan dividendlar aniqlangan. Har bir ishchining mulkiy payini qo'shimcha ko'paytirish manbalari ham yozilgan.

4-bo'limda mulkiy payni ajratib chiqarish va meros qilib qoldirish tartiblari qayd etilgan. Bunda amaldagi qonunlarning talablariga tayanilgan.

5-bo'lim dividendlarni shakllantirish va to'lash tartiblarini o'z ichiga oladi. Unda dividend sifatida to'lanadigan sof foyda summasi yozilgan. Bu summa majlis qaroriga ko'ra belgilangan. Bir so'mlik mulkiy payga to'g'ri keladigan dividend summasi sof foydaning dividendlar to'lash uchun ajratilgan summasini pay jamg'armasi qiymatiga bo'lish orqali aniqlangan. Aniqlangan ko'rsatkich xo'jalikdagi har bir a'zoning mulkiy payi qiymatiga ko'paytirilib, har bir a'zoga beriladigan dividend summasi belgilanadi. Bu pay summasi buxgalteriyada belgilangan tartibda yiliga bir marta hisoblanib, umumiy majlis tomonidan tasdiqlangan. Dividentlarning qanday

hisoblanganini taftish komissiyasi nazorat qilgan. Bu jarayondagi kelishmovchiliklar belgilangan tartibda hal etilgan.

Komissiya tomonidan tuzilgan yuqoridagi hujjatlar xo'jalik boshqaruvi tomonidan ko'rib chiqilib, xo'jalik a'zolarining umumiy majlisi muhokamasiga qo'yilgan. Ushbu majlis xo'jalik Ustavi loyihasiga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritib, uni tasdiqlaydi, shuningdek, shirkat xo'jaligining boshqaruvini, uning raisini, taftish komissiyasini saylangan. Bu holda umumiy majlis ta'sis majlisi hisoblanadi. Muhokama etilayotgan hujjatlarda jiddiy kamchiliklar bo'lsa, ular taftish komissiyasiga qaytarilgan. Ta'sis majlisidan so'ng tegishli hujjatlarni topshirish dalolatnomasi tuzilgan. Ular komissiya raisi, shirkat xo'jaligining raisi hamda mas'ul rahbarlar tomonidan tasdiqlangan. Shirkat xo'jaligining raisi uch kun muddatda shirkat xo'jaligi joylashgan joydagi tuman hokimligiga ta'sis hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etgan. Xo'jalikni davlat ro'yxatidan o'tkazish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shirkat xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab jamoa xo'jaligi shirkat xo'jaligiga aylantirilgan hisoblanib, guvohnoma berilgan.

Divident – shirkat xo'jaligi ixtiyorida mavjud bo'lgan barcha turdagi mulklarni tadbirkorlik bilan samarali ishlatish natijasida olingan foydaning mulkdorlarga beriladigan qismidir. Qayta tashkil etilayotgan shirkat xo'jaliklarida dividend berish uchun umumiy mulkdagi ulushlariga da'vogarlik qilayotgan jismoniy shaxslarni aniqlash lozim. Ularga:

- a) qayta tashkil etilayotgan jamoa xo'jaligida mehnat qilayotgan a'zolar;
- b) shu xo'jalikda ishlab, nafaqaga chiqib, uning hududida yashayotgan fuqarolar;
- v) xo'jalikda ishlab, keyinchalik yuqori lavozimlarga saylanib, chetda mehnat qilayotganlar;
- g) xo'jalikda ishlab, harbiy xizmatga chaqirilganlar hamda yo'llanma bilan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga yuborilganlar kiradi.

Mulkka da'vogarlar safiga ijtimoiy sohalarning xo'jalik hududida joylashgan bo'g'inlarida ishlayotganlar, ayrim hollarda marhum nafaqaxo'rlar ham kiritilishi mumkin. Bu masala xo'jalik a'zolarining umumiy yig'ilishida hal etiladi. Mulkka da'vogarlik qiluvchilar aniqlanganidan so'ng ularning har biriga mulkiy xuquqlarini tasdiqlovchi, nomi yozilgan guvohnoma berilgan. Ularga shirkat moliya-hisob markazida shaxsiy hisob raqami ochilgan.

Mulkka da'vogarlik qiluvchilar aniqlanganidan so'ng qayta tashkil etilayotgan shirkat xo'jaligi ixtiyorida bo'lgan mulkning umumiy miqdori, qiymati, ya'ni Ustav jamg'armasi aniqlangan. Xo'jalikning Ustav jamg'armasi asosiy va aylanma fondlar hamda mablag'lar yig'indisidan tashkil topgan. Ularga mashina, traktorlar, binolar, inshootlar, jihozlar, ishchi-mahsuldor mollar, ko'p yillik daraxtlar, joriy va valyuta hisobidagi, kassadagi mablag'lar, kimyoviy vositalar, yoqilg'ilar va boshqalar kiritilgan.

Ustav jamg'armasining umumiy qiymatini aniqlash juda muhim masala. Uni aniqlashda turli xildagi baholardan foydalanish mumkin. Chunonchi:

- valyuta mablag'lari esa – Respublika Milliy bankining tijorat kursi bo'yicha;
- mahsuldor va ish hayvonlari, boquvdagi qo'y-buzoqlar, moliya mablag'lari balans baholari bo'yicha, ayrimlari bozor konyunkturasi bahosida;

- qishloq xo'jalik texnikalari, avtomashinalari, agregatlar, ko'p yillik ekinlar va boshqalar – amaldagi va bozor bahosida;
- ishlab turgan, to'la amortizatsiya qilingan asosiy vositalar – komissiya belgilagan bahoda;
- aylanma fondlar joriy narxlarda baholanadi va boshqalar.

Shirkat xo'jaligining shunday tartibda aniqlangan Ustav jamg'armasi bo'linmas va mulkiy pay jamg'armalariga taqsimlanadi. Pay jamg'armasi yuqorida ko'rsatilgan tartibda aniqlangan a'zolar (mulkka da'vogarlik qiluvchilar) o'rtasida qiymat (pul) shaklida taqsimlanadi. Mulk sifatida taqsimlanadigan pay jamg'armasining umumiy qiymati (summasi) Ustav jamg'armasining 60 foizini tashkil etishi lozim. Pay jamg'armasiga kiritilgan texnikalar, bino, inshoot, uskuna va jihozlar asl holatida (natura shaklida) paychilarga taqsimlanmaydi. Shirkat xo'jaligining pay jamg'armasiga xo'jalik ixtiyoridagi yer uchastkalarining qiymati ham qo'shiladi. Qishloq xo'jalik yerlarining qiymati esa «O'zdavyerloyiha» institutining «Yer kadastr» filiali tomonidan 1998 yilda ishlab chiqilgan yo'riqnomadan foydalangan holda aniqlanadi. Masalan, qayta tashkil etilgan shirkat xo'jaligining Ustav jamg'armasi 50 mln. so'mga teng, shundan 60 foizi mulkka da'vogarlik qiluvchilarga taqsimlanadigan pay jamg'armasiga ajratiladi. Uning summasi 30 mln. so'mni tashkil etadi. Xo'jalikdagi qishloq xo'jalik yerlarining qiymati 10 mln. so'mga baholangan. Taqsimlanadigan pay jamg'armasining umumiy qiymati 36 mln. so'mga teng. Shu pay jamg'armasining 10 foizi, ya'ni 4 mln. so'mi nafaqaxo'rlarga taqsimlash uchun ajratiladi.

Shirkat xo'jaligining pay jamg'armasi mulkka da'vogarlik qiluvchi ishchi-xizmatchilar o'rtasida ularning mehnat faoliyati davri (ish staji) hamda ish haqi miqdoriga qarab taqsimlanadi. Shirkat xo'jaligida ishlovchi a'zolarining mulkiy paylarini aniqlash uchun quyidagi masalalarni hal etish talab etiladi:

a) har bir ishlovchi a'zoning mehnat faoliyati davri (ish staji) va barcha a'zolarining jami mehnat staji aniqlanadi;

b) xo'jalik a'zolarining umumiy yig'ilishida tasdiqlangan 3 yoki 5 yil ichida inflyatsiya darajasini hisobga oluvchi koeffitsientlar yordamida o'rtacha ish haqi hisoblanishi lozim;

v) har bir ishlovchi a'zoning mehnat faoliyati davri (staji) uning belgilangan yillardagi (3-5 yildagi) o'rtacha ish haqiga ko'paytirilib, yil-so'mi aniqlanadi;

g) ishlovchi a'zolarining yil-so'mlari xo'jalik bo'yicha jamlanib, hosil bo'lgan yig'indiga har bir a'zoning yil-so'mi bo'linib, ularga taqsimlanadigan pay jamg'armasi hissasi, indeksi aniqlanadi;

d) har bir ishlovchi a'zoning indeksi ularga taqsimlanadigan mulkiy pay jamg'armasiga ko'paytirilib, unga tegishli mulk ulushi so'mda aniqlanadi.

Mulkiy pay asosida qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalariga moslashtirilgan. Paychilikka asoslangan shirkat xo'jaligi 2001 yildan 60 mln. so'm sof foyda olgan. Shundan 30 mln. so'mi umumiy majlis qaroriga muvofiq xo'jalikning ishchi-xizmatchilariga dividend sifatida berilishi belgilangan. Oylik, yillik dividend qilib beriladigan sof foyda xo'jalikning pay jamg'armasi summasiga (30 mln. so'm) taqsimlanib, har bir so'mlik mulkiy payga to'g'ri keladigan foyda (divident qilib beriladigan) aniqlanadi. Uni xo'jalikning har bir a'zosi mulkiy payi qiymatiga ko'paytirilib, ularning oladigan dividendlarini

aniqlash mumkin. Shu bilan birga nafaqaxo'rlarga ham mulkiy pay qiymati aniqlanadi. Bunda mulkiy pay ularning tugatilayotgan jamoa xo'jaligida ishlagan ish davri (staji)ga qarab belgilanadi. Shuning uchun dastlab har bir nafaqaxo'rning ish davri, so'ngra ular jamlanib, barchasining jami ish davri (staji) hisoblanadi. Nafaqaxo'rlar uchun mulkiy pay shaklida taqsimlanadigan pay jamg'armasining 10 foizi (bizni misolimizda 4,0 mln. so'm) ularning jami ish davriga taqsimlanib, 1 yilga to'g'ri keladigan o'rtacha mulkiy pay summasi aniqlangan. Aniqlangan raqam (so'mni) har bir nafaqaxo'rning ish davriga ko'paytirilib, uning mulkiy pay ulushi (so'mda) aniqlangan. Hisoblangan shu mablag' xo'jalik bo'yicha 1 so'mlik mulkiy payga to'g'ri kelgan dividend summasiga ko'paytirilib, har bir nafaqaxo'rga to'g'ri keladigan dividend summasi aniqlangan.

Olinadigan dividend summasini ko'paytirish uchun shirkat a'zolari yil davomida samarali mehnat qilishga harakat qiladilar. Bu hol shirkat xo'jaligining faoliyati rivojlanishiga ta'sir etadi. Darhaqiqat, 1999-2001 yillarda shirkat xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi yuksaldi. 1999 yilda respublikada 978 ta shirkat xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ulardan 512 tasi yoki 60,5 foizi ishlab chiqarishini foyda olish bilan yakunlaganlar. Ular olgan foyda 6,4 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2000 yilga kelib 850 ta shirkat xo'jaligi faoliyatini 17,3 mlrd. so'm foyda olish bilan yakunlagan, olingan foydadan shirkat a'zolariga dividend to'lash uchun 1999 yilda 1,1 mlrd. so'm, 2000 yilda esa 3,9 mlrd. so'm ajratilgan. Shu yillar ichida dividend shaklida ajratilayotgan mablag' 3,5 baravar oshgan. Bunday hol shirkat a'zolarining moddiy manfaatdorligini yuksaltirishga ta'sir etmoqda.

Yuqori manfaatga ega bo'lgan shirkat a'zolarining samarali mehnatlari ta'sirida shirkat xo'jaliklari faoliyati ham respublikada ma'lum darajada yuksalib, salmoqli o'ringa ega bo'lmoqda. 2003 yilning boshiga kelib respublika qishloq xo'jaligida barcha jamoa xo'jaliklari negizida 1866 ta shirkat xo'jaligi faoliyat ko'rsatib, ular 3114 ming tonna don mahsulotlari hamda 3 mln. tonnaga yaqin paxta xomashyosi yetishtirgan.

2004 yilda qishloq xo'jaligida Hukumat qarorlari asosida tashkiliy islohotlar jadal sur'atlarda davom ettirildi. Bunga 2004 yilning dastlabki 9 oyi ichida 323 ta shirkat xo'jaliklari surunkasiga zarar ko'rib ishlaganliklari uchun tugatilganligi yaqqol dalil bo'ladi. Shuning natijasida mamlakat qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan shirkat xo'jaliklarining umumiy ekin maydoni 2003 yilga nisbatan 23,8 foziga kamaydi. Buning oqibatida yalpi mahsulot ham kamaydi. Shu davrda faoliyat ko'rsatayotgan aksariyat shirkat xo'jaliklarida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish susayib, moddiy-tehnika resurslar bilan ta'minlash pasayishi oqibatida ularning sof foydasi kamayib rentabelligi tusha boshladi. Oqibatda ularda bankrotlik muhiti shakllana boshladi. Bunday salbiy holga yakun yasash maqsadida Respublika prezidenti 2003-yilning 21-martida "Qishloq xo'jaligi islohatlarini chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Unda qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllarini o'zgartirish va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish eng muhim yo'nalishlar etib belgilangan. Farmonda ko'rsatilgan tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida 2004-2006-yillarda zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish dasturi ishlab chiqildi. (4.3.1.jadval)

SHIRKAT XO'JALIGIDA ISHLOVCHI A'ZOLARNING MULKIY ULUSHLARINI VA
DIVIDENTLARINI HISOBLASH TARTIBI*

№	F.I.Sh.	Ish staji yil	A'zoning yillik ish haqi, so'm			Ish haqlarining yillar bo'yicha inflyatsiya darajasiga muvofiq aylantirilgan koeffitsientlari			1998-2001y. bo'yicha koeffitsientlar orqali aylantirilgan ish haqlari-ning jami so'm	1998-2001y. dagi o'rtacha ish haqi, so'm	A'zoning yil-so'mi, ming yil-so'mda	Xo'jalik bo'yicha 1 yil-so'mga to'g'ri keladigan mulkiy pay miqdori, so'm	A'zoning mulkiy payi, so'mda	1 so'm-lik mulkiy pay foydasi (dividendi), so'mda	A'zoning pay egasi sifatida oladigan dividendi,so'mda
			1996	1997	1998	1996	1997	1998							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Aliev A	20	25000	27500	29000	2,06	1,75	1,1	131525	43841,7	876,8	0,026	22797	0,75	17098
2	Botirov A	17	23000	24600	26000	2,06	1,75	1,1	119030	39676,7	674,5	0,026	17537	0,75	13153
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
1 0	Yaxshiev A	15	21000	22500	24500	2,06	1,75	1,1	109585	36528,3	547,9	0,026	14245	0,75	10684
	Jami	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1040000	0,026	36000000	0,75	30000000

* Mulkiy pay asosida qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalarga moslashtirilgan.

Zarar ko`rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat
xo`jaliklarini 2004-2007-yillarda fermer xo`jaliklariga aylantirish. *

Mintaqalar (viloyatlar)	Mavjud shirkat xo`jaliklari soni	2004-2007- yillarda fermer xo`jaliklariga aylantirilgan shirkatlar soni.	Shu jumladan			
			2004	2005	2006	2007
Qoraqolpog`iston respublikasi	122	122	35	30	40	17
Andijon	191	84	5	15	20	44
Buxoro	138	138	30	45	50	13
Jizzah	103	103	40	41	0	22
Qashqadaryo	162	121	31	34	34	22
Navoiy	76	60	10	15	16	19
Namangan	145	84	10	20	20	34
Samarqand	244	156	30	30	50	46
Surhondaryo	151	115	22	21	43	29
Sirdaryo	57	57	25	30	0	2
Toshkent	185	128	21	23	30	54
Farg`ona	162	87	10	20	22	35
Xorazm	104	15	30	57	2	
Jami	1840	1359	284	354	382	329

* Vazirlar Mahkamasining 476-sonli qarori asosida tuzilgan.

Dasturga asoslangan holda faqatgina zarar ko`rib ishlayotgan past rentabelli va istiqbolsiz deb hisoblangan shirkat xo`jaliklarigina tugatilmasdan, rentabelligi yuqori bo`lgan g`o`za urug`chiligi bilan shug`ullanadigan shirkat xo`jaliklari ham tugatildi. Natijada mayda fermer xo`jaliklarining soni asossiz ravishda ko`payishiga imkoniyat yaratilindi. Ma`lumki hajmi kichik bo`lgan subyektlarda ishlab chiqarish jarayonlarini mehanizatsiyalashtirish jarayoni past bo`lib jonli mehnatning unumdorlik darajasi ham past bo`ladi.

2008-yilda pahtachilik, g`allachilik sabzovotchilik bilan shug`illanayotgan barcha shirkat xo`jaliklari o`z faoliyatini to`xtatdi. Ularning negizida fermer xo`jaliklari tashkil etila boshlandi. Hozirgi davrda shirkat xo`jaliklari qishloq xo`jaligining chorvachilik sohasida ya`ni qorako`lchilikda faoliyat ko`rsatmoqda .

4.4. Fermer xo`jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.

Respublika qishloq xo`jaligida davlat rahbarligida, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mulkning xilma-xil turlari va ularga asoslangan korxonalar turlari shakllanmoqda. Jumladan, xususiy hamda shahsiy mulkga asoslangan fermer xo`jaliklari tashkil etilmoqda. Yangi taxrirdagi "Fermer xo`jaliklari to`g`risida"gi qonunning 3-moddasida, "Fermer" xo`jaligi ijaraga berilgan yer

uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir", deb tushuncha berilgan. Xozirgi davrda fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligida xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida kichik, tadbirkorlik vakili hisoblanadi. Chunki 2005 yilning 1-iyuliga bitta fermer xo'jaligida o'rtacha 6,5 ta yollanma ishchilar soni to'g'ri kelgan. Fermer xo'jaligining asosi quyidagilardan iborat. Ya'ni uzoq muddatga ijaraga olgan yerlardan, mavjud bo'lgan barcha resurslardan yil davomida oqilona, to'liq va samarali foydalanish natijasida ichki va tashqi bozor talablarini qondiradigan miqdorda, ekologik jihatdan sifatli bo'lgan qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, iste'molchilarga vaqtida sifatli holda yetkazish hamda turli xildagi xizmatlar ko'rsatish oqibatida ko'proq foyda olish. Bu fermer xo'jaligining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy maqsadidir. Uni to'liq hal etish uchun fermer xo'jaligi bir qancha muhim vazifalarni amalga oshirishni belgilab oladi:

- 30 yildan 50 yilgacha ijaraga olingan yer uchastkasida, shu haqdagi shartnomaga va ixtisoslashuvga muvofiq o'z ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

- xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni sifatli, o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydigan turli xildagi kontraktatsiya shartnomalarini to'g'ri va sifatli tuzish;

- ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning barcha qoidalariga rioya etishga erishish;

- ijaraga olingan yer uchastkalarini yil davomida oqilona, to'liq, samarali foydalanish maqsadida uning unumdorligining oshirilishini ta'minlaydigan almashlab ekish irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish hamda ularni vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

- xo'jalik faoliyatini samarali yuritish uchun talab etilgan mablag'larning miqdorini belgilash va ularning manbalarini oqilona aniqlash, xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha resurslardan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlarni aniq ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etilishiga erishish;

- xo'jalik ustavida ko'zda tutilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan tadbirkorlikni qo'llab, ularga kamroq mehnat, mablag` sarflash evaziga ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga sifatli holda yetkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish, mulkni mustaqil, o'z hohishiga ko'ra tasarruf etish;

- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari (paxta, don) uchun qishloq xo'jaligi maxsuloti nazarda tutilgan miqdorda, sifatda yetkazib berilishini ta'minlash;

- xo'jalik ehtiyoji uchun harid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchyers kontraktlari tuzish;

- marketing ishlarini amalga oshirib, sotadigan barcha turdagi davlat buyurtmasidan tashqari bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga erkin narx belgilash;

- o'z faoliyatining barcha sohalarida fan yutuqlarini, yangi texnika hamda samarali texnologiyalarni izchillik bilan hayotga tadbiq etish;

- barcha xodimlarining bilim va malakasini davr talabini e'tiborga olgan holda oshirish, ularni ma'naviyatli, ma'rifatli, halol, pok, muomalali yaxshi insonlar

bo'lishini ta'minlashi, ular mehnatining natijasiga qarab moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

- soliqlar, yig'malar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida to'liq to'lash;

- tadbirkorlik faoliyatini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yuritish, ko'proq pul daromadlarni olish, ularni mustaqil tasarruf etish, xajmi cheklanmagan miqdorda sof foyda olish, unga erkin egalik qilish va samarali foydalanish;

- aktsiyalar va turli xildagi qimmatli qog'ozlarni olish;

- kichik biznes korxonalarini uchun yaratilgan imtiyozlar va profyferentsiyalarning barcha turlaridan imkoniyat doirasida to'liq va samarali foydalanish;

- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun sudga murojaat etish, zarur bo'lgan hollarda fermer xo'jaligini davlat bosh islohotchi, qonun ustivorligi, erkinlik hamda mustaqillik va boshqa tomonlari asosida amalga oshirsa, samarali bo'ladi.

Respublikada fermerlikni rivojlantirishning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy nihoyatda ulkan shuning uchun uning mohiyati quyidagilarga qaratilgan bo'lishi lozim:

- qishloqda turli turdagi mulk shakllarini va ularga egalik qilish, foydalanuvchi korxonalarini tashkil etish, yuritish va rivojlantirish;

- tarmoqdagi barcha mulkiy munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish, modernizatsiyalashtirish hamda erkinlashtirish;

- turli mulkchilikka asoslangan sub'ektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy, me'yoriy, iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- qishloqdagi mulkdorlar sinfining mulkiy ongini barqaror yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligida yangi ish joylarini barpo etish, tarmoqdagi aholini ish bilan bandligini yuksaltirib, ishsizlar sonini kamaytirish;

- aholining va qayta ishlash sanoati korxonalarini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashni yuksaltirish;

- aholining daromadini ko'tarish, ularning turmush darajasini yuksaltirish va boshqalar.

Ularni ijobiy hal etilishi respublikada erkin bozor munosabatlarini barpo etilishini ta'minlashga hissa qo'shadi.

4.5. Fermer xo'jagining huquqiy, iqtisodiy asoslari, ularni tashkil etish tartibi

O'zbekiston respublikasining Prezidenti va Hukumati fermerlikga oid bo'lgan jahon tajribasi, mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda respublikada fermerlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonini amalga oshirmoqda.

Dastavval, O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy, me'yoriy xujjatlari yaratildi. Jumladan, - 1998 yilda "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF – 3342 – sonli farmoni;

- Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyardagi “2004-2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish Kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 476-sonli qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrda “2004-2007 yillarda fermer xo’jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 607-sonli qarori;

- qayta tashkil etilayotgan qishloq xo’jaligi korxonasi negizida fermer xo’jaligini tashkil etishda tanlov g’oliblarini aniqlash to’g’risidagi Nizom (2005 yil 4 yanvar) “Ekin maydonlarini optimallashtirish va oziq-ovqat mahsulotlarini ko’paytirish to’g’risida”gi UP4041-sonli farmoni va boshqalar. Shu hujjatlar talablariga qat’iy rioya etgan holda qishloq hududlarida fermer xo’jaliklari tashkil etila boshladi. Mustaqillik yillarining dastlabki davrida dehqon, fermer xo’jaliklari haqida aniq tushuncha bo’lmagan edi. Bu hol 1998 yilda “Fermer xo’jaligi to’g’risida”gi qonuni qabul qilishi bilan echildi. Shu qonunning 5-moddasida Fermer xo’jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo’lmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi. Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo’jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o’lchami paxtachilik va g’allachilik uchun 10 gektar, bog’dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa mahsulotlarni yetishtirish uchun esa 1 gektarni tashkil etadi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo’jaligi kamida 30 ta shartli bosh chorva moli bo’lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo’jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam miqdori bir shartli bosh chorva molga hisoblanganda Farg’ona vodiysi viloyatlariga, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi sug’oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, qolgan viloyatlarda. Qoraqalpog’iston Respublikasida esa 0,45 gektarni, sug’orilmaydigan yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etishi, Nizomda esa aniq yer uchastkalari (konturlar) berilishi ko’rsatilgan. Bular mamlakatda fermerlikni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

O’zbekistonda fermer xo’jaliklarini tashkil etish quyidagi ikki xil tartibda amalga oshirilmoqda:

- birinchisi, mehnat resurslari bo’lmagan yoki kam bo’lgan yerlarda va hududlarda:

- ikkinchisi, uch yil davomida rentabellik darajasi past bo’lgan shirkat xo’jaliklari negizida tashkil etildi. Ikkala usulda ham fermer xo’jaligini uni bo’lajak rahbari tashkil etadi. U o’zining mol-mulkini ko’rsatishi zarur. Fermer xo’jaligining iqtisodiy negizini uning mol-mulki tashkil etadi, unga quyidagilar kiritilishi mumkin: uy-joyi mavjud bo’lgan texnikalari, chorva hayvonlari mablag’i, mevali daraxtlari, intellektual qobiliyati va boshqalar;

Bo’lajak fermer xo’jalikning ustavini sifatli qilib tuzish lozim. U quyidagicha tartibda tuzilishi mumkin

➤ fermer xo’jaligining nomi;

➤ fermer xo’jaligi boshlijining familiyasi, o’zining va otasining ismi va yashash joyi;

➤ fermer xo’jaligining joylashgan joyi to’g’risidagi ma’lumotlar va pochta manzili;

➤ fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari, yo'nalishlari;

➤ uning ustav fondining miqdori va boshqalar.

Fermer xo'jaligining ustaviga asoslangan holda uning biznes-rejasi ishlab chiqiladi. So'ngra fermerning rahbari belgilangan tartibda talab etilgan yer uchastkasini olishga kirishadi. Birinchi usulda fermer rahbari yer olish uchun qanday xo'jalik hududida joylashishini e'tiborga olgan holda, uning shirkat rahbariga, tugatilayotgan shirkat xo'jaliklarida esa esa tender o'tkazuvchi komissiyasining raxbarining nomiga ariza bergan. Arizalar belgilangan tartibda, muddatda ko'rib chiqilgan. Unda fermer, xo'jaligining barcha imkoniyatlari; mutaxassisligi, ma'lumoti, tarmoqdagi ish staji, pul mablag'lari, mavjud bo'lgan yaroqli texnikalari hamda rahbarning bilimi, qobiliyati, dunyoqarashi, ma'naviyatli, mafkuralik va boshqa qobiliyatlari aks ettirilgan. Shunday xususiyatlarga va imkoniyatga ega bo'lgan fuqarolarga talab etilgan yerni 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qiligan. Bu qarorlar viloyat hokimi rahbarligidagi komissiya tomonidan belgilangan muddatda, tartibda ko'rib chiqilib qaror qabul qilinishi shart. Bu bir qancha muammolarni vujudga keltirilgan. Jumladan bo'lajak fermerlar masofaning uzoqligi munosabati bilan ortiqcha vaqt, mablag` sarflaganlar. Shundan so'ng fermer xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng tashkil etilgan deb hisoblangan. U to'liq yuridik shaxs maqomini olish uchun o'zi aloqa qiladigan banklarda turli xildagi xisob raqamlarini ochishi, tumanning soliq, statistika tashkilotlarida ro'yxatdan o'tib, o'z muhriga, blankalariga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Shundan so'ng fermer xo'jaligi to'liq faoliyat yuritadigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan.

4.6. Respublikada fermer xo'jaliklarining rivojlanishi hamda samaradorligi

O'zbekistonda fermer xo'jaliklari mavjud bo'lgan huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida rivojlantirilmoqda. 2008 yilda, fermer xo'jaliklarining umumiy soni 218.6 mingtani tashkil etib, ularga 5896.8 ming gektar yer uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga berilgan. Shu yerlarda 896.5 ming kishi faoliyat ko'rsatib qishloq xo'jaligida yyetishtirilgan yalpi mahsulotning 30.4 foizi (2008 y) yaratganlar.

Fermer xo'jaliklarining rivojlanishini shartli ravishda uch davrga bo'lish maqsadga muvoffiqdir.

I – davr – 1989-1998 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

II – davr – 1998 yildan 2001 yillardan tashkil topgan.

III – davr – 2002 yildan boshlangan hisoblanadi.

Birinchi va ikkinchi davrlarda fermer xo'jaliklari asosan jamoa hamda shirkat xo'jaliklarining hududida mehnat resurslari bo'lmagan yoki kam bo'lgan hududlarda tashkil etilgan. O'sha davrlarda qishloqlardagi fuqarolarning bilimi, tajribasi hamda iqtisodiy resurslari kam bo'lganligi munosabati bilan fermer xo'jaliklarining rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan. Lekin yuqoridagi masalalarni hal etishga davlat tomonidan e'tibor berilishi natijasida 2000-2001 yillarda fermer xo'jaliklarining bir oz rivojlanishini ta'minladi. Ya'ni ikkinchi davrda fermer xo'jaliklarining soni 140 foizga

ortib, 2001 yilda 55,4 mingtani tashkil etgan. Ularga berkitilgan yer shu yillar ichida 136.2 foizga ko'paygan. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik yalpi mahsulotidagi ulushi 3.5% dan 7,1 % ko'tarilgan. Raqamlarning dalolat berishicha, ikkinchi davrda fermer xo'jaliklarining sonini, ularga ijaraga berilgan yerlarini o'sishi darajasi yalpi mahsulot tarkibidagi ulushiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sgan. Bunday hol fermer xo'jaliklari asosan ekstensiv usulda rivojlantirilganligidan dalolat beradi. Bu usuldan intensiv usulga o'tish chora-tadbirlari respublika hukumati tomonidan ishlab chiqilib, ularni hayotga tadbiriq etishga alohida e'tibor berildi. Jumladan, kredit, soliq to'lovlar bo'yicha hamda mahsulotlarni erkin sotish imkoniyatlari berildi. Shuning bilan birgalikda fermer xo'jaliklarini iqtisodiy negizini mutahkamlash borasida tadbirlarni amalga oshirilishi ta'minlandi.

Asoslangan chora-tadbirlar natijasida uchinchi davrning dastlabki yillarida fermer xo'jaliklarining rivojlanishi hamda faoliyatining samaradorligi ma'lum darajada oshishi ta'minlandi. Chunonchi, 2008 yilda fermer xo'jaliklarining umumiy soni 2000 yilga nisbatan 5martaga ortib, yer maydonlari 6.6 martaga ko'paygan. Ularning qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi mahsulotidagi salmog'i ko'payib, 2008 yilda 32.5 foizini tashkil etgan. Shu yilda ularning paxta ishlab chiqarishdagi salmog'i – 99.1 %, g'alla ishlab chiqarishdagi salmog'i esa 78.9 % dan oshib ketdi.

Bizning hisob kitoblarimizga ko'ra, jami fermer xo'jaliklarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 9.2 foizi yaratilmoqda. Bu ma'lumotlar fermer xo'jaliklarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini va ahamiyatining ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun ham Respublika Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida "...fermerlik qishloqda xo'jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida etakchi o'rnini egallamoqda", deb nihoyatda istiqbolli hulosa qilgan.

4.6.1. jadvaldagi ma'lumotlar respublikada fermer xo'jaliklarini so'nggi yillarda barqaror rivojlanyotganligidan dalolat bermoqda. Bunday natijaga asosan ekstensiv usul yordamida erishilgan. Ya'ni 2005-yilda fermer xo'jaliklarini soni 2000-yildagiga ko'ra 4martaga o'sgan holda biriktirilgan yer maydoni 5.6marta ko'paygan, lekin ekin maydoni 3.8marta oshgan. Chorva hayvonlarini bosh sonlari ham ko'paygan. Shu davrda g'alla ishlab chiqarish 8.2marta, kartoshka – 6.4marta, sabzavot mahsulotlari – 12.3marta oshgan. Lekin chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bunday yuqori bo'lgani yo'q. Shu yillarda ekinlarning hosildorligi 39.5foizdan – 59.5foizgacha oshgan. 2008-yilgacha bo'lgan davrda ham fermer xo'jaliklarining soni ko'payib ularning yer maydonlari, chorva hayvonlarining bosh sonlari ortib borgan. Natijada o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlarining miqdori oshib borgan.

Fermer xo'jaliklarini rivojlanishi ularning faoliyatlarini samaradorligi bundan ham yuqori bo'lishi mumkin edi. Lekin mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish hajmlarini maqsadga muvofiq hajmlarga yetkazilmaganligi ularni rivojlanishiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan 2000-yilda 1 ta fermerga biriktirilgan yer maydoni o'rtacha 20.3 gektarni, ekin maydoni esa 14.4 gektarni tashkil etgan. 2005-yilda bu ko'rsatkichlar, o'z navbatida 30.0 : 17 gektarni, 2008-yilda esa 27;13.9gektarga teng bo'lgan. 1 ta fermerning o'rtacha ishlab chiqarilgan yalpi mahsuloti qiymati (haqiqiy narhlarda) 2000-yilda 1746ming so'mni, 2005-yilda 11563ming so'mni tashkil etdi.

4.6.1-jadval

Respublikada fermerlik ko`lamini kengayishi ishlab chiqarish hajmini ko`payishi. *

Ko`rsatgichlar		Yillar			2008-yil foizda	
		2000	2005	2008	2000y.ga nisbatan	2005y.ga nisbatan
Xo`jaliklar soni	Ming dona	43.8	125.7	218.6	5marta	173.9
Jami berilgan yer maydoni	Ming ga	889.7	3775.3	5896.8	6.6marta	156.2
1ta fermerning o`rtacha yer maydoni	Ga	20.3	30.0	27.0	133.0	97
Jami ekin maydoni	ming Ga	632.2	2140.7	3045.2	4.8marta	142.3
Ekin maydonlarining jami yer maydonidagi salmog`i	%	71.1	56.7	51.6	-19.5	-5.1
Qoramollar bosh soni	Ming bosh	198.1	332.3	480.8	2.4marta	144.7
Qo`y va echkilar	Ming bosh	195.8	501.1	1007.3	5.1marta	2marta
Yyetishtirilayotgan jami g`alla	Ming tonna	568.9	3550.5	5226.2	9.2marta	147.2
Katoshka	Ming tonna	30.8	45.9	226.5	7.4marta	4.9marta
Sabzavot mahsulotlari	Ming tonna	129.4	480.3	1718.5	13.3marta	3-6marta
Uzum	Ming tonna	29.6	89.3	408.6	13.8marta	4-6marta
Go`sht (so`yin vaznda)	Ming tonna	6.6	13.8	19.3	2.9marta	139.9
Sut	Ming tonna	54.1	94.8	151.6	2.8marta	159.9
G`alla hosildorligi	Sent/ga	25.2	38.6	40.2	159.5	104.1
Kartoshka	Sent/ga	112	132.5	162.6	145.2	122.7
Sabzavot	Sent/ga	156.6	2181.6	218.7	139.5	120.4
Qishloq xo`jalik yalpi mahsulotining qiymati (haqiqiy narhlarda)	Mlrd so`m	76.5	1453.5	3406.4	33299	19529

* -Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2008-yilda esa-15583 so`mni tashkil etgan. Albatta bunday hajmdagi fermer xo`jaliklari o`z faoliyatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni taminlay olmaydi. Sababi pul-tushumlari hamda sof foydalari kam. Shunday bo`lganligi uchun ular yangi samarali zamonaviy texnikalarni sotib olish imkoniyatlariga ega emaslar, bu birinchidan, ikkinchidan esa ularni qo`llash ko`lamlari ham cheklangan, chunki yer maydoni kam. Shu davrni o`zida 80-90 ga ekin maydoniga ega bo`lgan fermer xo`jaligi amaldagi ekin maydonlarini salmog`ini, ekinlarning o`rtacha hosildorligini, narhlari saqlanib qolgan holda 125-160mln. so`mlik yalpi maxsulot ishlab chiqarishga ega bo`lganlar. Bu o`rtacha fermer xo`jaliklariga nisbatan (2008-yildagi) 8-10.3 marta kattadir. Yirik hajmga ega bo`lgan fermer xo`jaliklari bozor iqtisodi talablariga javob bergan holda raqobatlashish qobiliyatiga ega bo`lgan subyekt xisoblanadi. Buni respublikamizdagi hamda AQSh, Germaniya, Angliya, Gollandiya fermer xo`jaliklari isbotlamoqda.

Yirik xo`jaliklarning har tamonlama samaradorligini hamda afzalligini e`tiborga olgan holda mamlakatimizda faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklarini hajmlarini yiriklashtirishga so`ngi yillarda katta e`tibor berilmoqda. Bunga 2008-yilning 20-oktabrida UP-4041 sonli "Ekin maydonlarini optimallashtirish va oziq-ovqat mahsulotlarini ko`paytirish tadbirlari to`g`risida"gi prezident farmonini qabul

qilinganligi yaqqol dalil bo`ladi. Unda g`o`za ekin maydonini 2009-yilda 75.8ming gektarga kamaytirish hisobiga sabzavot, bog`dorchilik hamda chorvachilik uchun ozuqa ekin maydonlarini ko`paytirish negizida fermer xo`jaliklarini ekin maydonlarini optimallashtirish belgilab berilgan. Ularni amaliyotga tadbiiq etish jarayonida 2011-yilning boshiga kelib pahta va g`allaga ihtisoslashgan 1ta fermer xo`jaliklarining o`rtacha yer maydoni 92 gektarga, sabzavot va polizchilikka ihtisoslashgan bitta fermer xo`jaligining o`rtacha yer maydoni 25gektarga, bog`dorchilik va uzumchilikda esa 6 gektarga yetkazildi. (4.6.2-jadval)

Fermer xo`jaliklarini tabiiy, iqtisodiy hamda ihtisoslashishlarini e`tiborga olgan holda optimallashtirish jarayoni davom etishi mumkin. Hozirgi o`tish davrida, ular faoliyatining samaradorligini yuksaltirish maqsadida ularning ihtiyoridagi barcha resurslaridan yil davomida to`liq va samarali foydalanishga erishish lozim.

Bu masala yer, suv resurslariga bevosita taalluqlidir. Chunki ular tabiatda cheklangan hisoblanib, takror ishlab chiqarilmaydi. 2008-yilda fermerlarga uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga 5896,8 ming gektar yer berilgan, shu yerning 52 foiziga yaqini ma`lum darajada sho`rlangan hisoblanadi. Bunday xolat so`zsiz ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hosildorligiga hamda ularning sifatiga salbiy ta`sir etib, ularga sarflanayotgan xarajatlarning 20-30 foiziga oshishiga olib keladi.

4.6.2-jadval
o`rtacha

Respublika fermer xo`jaliklarini ihtisoslashishi bo`yicha
hajmlari. *

Hududning nomi	Pahtachilikka va g`allachilikka ihtisoslashgan				Sabzovot va polizchilikka ihtisoslashgan			
	2008-yilning 1oktabriga		2011-yilning 1-iyuliga		2008-yilning 1oktabriga		2011-yilning 1-iyuliga	
	Soni mingta	1fermerni o`rtacha yer maydoni	Soni mingta	1fermerni o`rtacha yer maydoni	Soni mingta	1fermerni o`rtacha yer maydoni	Soni mingta	1fermerni o`rtacha yer maydoni
Qraqolpog`iston respublikasi	6.6	70	3.0	151	0.6	9	0.2	23
Andijon	6.5	31	3.4	60	1.0	4	0.4	8
Buxoro	7.9	45	3.6	148	1.1	3	0.2	4
Jizzah	12.5	34	5.4	83	0.2	19	0.1	24
Qashqadaryo	21.1	33	6.9	101	1.3	4	0.3	14
Navoiy	3.7	37	1.7	81	0.2	7	0.07	18
Namangan	5.8	39	3.1	75	0.9	6	0.2	8
Samarqand	9.9	39	4.6	84	3.5	13	1.8	24
Surhondaryo	6.5	34	3.1	71	0.03	7	0.03	7
Sirdaryo	7.2	44	3.2	99	0.12	6	0.07	9
Toshkent	5.4	41	2.8	85	4.5	16	1.6	46
Farg`ona	9.4	29	3.9	69	0.7	3	0.4	4
Xorazm	9.3	21	2.3	88	1.5	4	0.02	8
Jami	112.2	37	47.6	92	16.0	10	5.8	25

* Respublika qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma`lumotlari asosida tuzildi.

Bunday holatni bartaraf etish maqsadida fermer xo`jaliklari barcha yerlarni sifatli, tekis shudgorlab, mavjud bo`lgan kollektor – zovurlarni belgilangan

muddatlarda sifatli tozalab, ularning texnik xolatini yaxshilashga erishishlari kerak. Lekin 2006-2007 yillarda shu borada amal oshirilgan ishlar barcha talablarga to'liq javob bermaydi. Masalan, 2007 yilda mavjud bo'lgan ichki kollektorlarning atigi 21 %, xo'jaliklararo kollektorlarning esa 24% tozalangan. Texnik talablarga ko'ra, ular har 2-3 yilda to'liq tozalanishi lozim. Shu yili yopiq drenajlarning faqatgina 1,4 % yuvish yo'li bilan tozalangan, 21 % ga yaqin yerlar notekis haydalgan. Bunday xolat birinchidan, fermer xo'jaliklarida shu ishlarni to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlay oladigan miqdorda mablag'ning etishmasligi, ikkinchidan, esa ularda ekskavator, buldozyer va skrepyerlarning yo'qligi hamda shu ishlarni sifatli amalga oshiradigan malakali mutaxassislarning kamligi tufayli yuz bergan. 2005 yilning boshiga 103,9 mingga yaqin fermer, 410 shirkat xo'jaliklari, 937 ta muqobil MTP va boshqa qishloq xo'jalik tashkilotlarida 9,7 mingta xaydov, 16,7 mingtaga yaqin ishlov beradigan traktorlar, kam miqdorda ekskavatorlar, buldozyerlar bo'lgan. Kelajakda shunday holatni bartaraf etishda davlatning hamda boshqa korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy ko'magi juda zarur.

Dastavval davlatning turli xildagi iqtisodiy mexanizmlarni ishga solgan xolda fermer xo'jaliklariga ko'maklashishi maqsadida muvofiqdir. Chunki, ularga davlat mulki xisoblangan yer uzoq muddatga ijaraga beriladi. Shunday ekan ijaraga berilayotgan yer va shu yerlardagi barcha irrigatsiya va melioratsiya inshootlari sifatli, talabga javob beradigan xolatda fermer xo'jaliklariga berilishi lozim deb o'ylaymiz. Shuning bilan birgalikda turli xildagi korxonalar, tashkilotlar, mulkdorlar orasida tarjibot, tashviqot ishlarini keng ko'lamda amalga oshirib, ularni fermerlik harakatiga jalb etish lozim. Bunda ularga ko'rsatilayotgan xizmatlari uchun ma'lum darajada imtiyozlarni joriy etish mumkin. Jumladan, fermer xo'jaliklarida yyetishtirilayotgan mahsulotlar bilan, hamda soliq va bojxona to'lovlar borasida imtiyozlar berish zarur.

Hozirgi davrda aksariyat tumanlarda xokimliklar tomonidan fermer xo'jaliklarida ekinlarni samarali, ya'ni almashlab ekishni joriy etilishini ta'minlash maqsadida ekinlarni joylashtirishda hamda davlat buyurtmalarini belgilashda fermerlarga qonun doirasida erkinlik berilayotgani yo'q. Shuning oqibatida fermer xo'jaligiga ajratilayotgan barcha yerlarga paxta hamda donli ekinlar ekilmoqda. Bunday xol so'zsiz birinchidan, asoslangan almashlab ekish sxemasining joriy etilishini ta'minlash imkoniyatini bermaydi, ikkinchidan esa fermer a'zolari o'zlarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Shunday holatning oldini olish uchun fermer xo'jaliklariga ekinlarni joylashtirishda qonun doirasida erkinlik berish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birgalikda fermer xo'jaliklariga paxta xom ashyosi va g'alla bo'yicha berilayotgan davlat buyurtmalarini qisqartirish lozim.

Fermer xo'jaliklari yerlarining sifat xolatining yomonlashishiga hamda iqtisodiy salohiyatini pasayishiga 2003-2008 yillar mobaynida 24 ming gektar yer maydonda 3200 dan ortiq qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilganligi so'zsiz ta'sir etgan. Shundan 26 foizida berilgan yerlardan to'liq foydalanilmagan, 16,8 foizida yerlar hokimliklar tomonidan ijaraga to'liq berilmasdan oldin egallab olingan, 36,0 % da ekilgan ekinlar maydoni yashirilgan, qolgan 21.2 % da esa yerlardan xo'jasizlarcha foydalanishga yo'l qo'yilgan.

Xozirgi davrda suvdan foydalanishi havza usuliga o'tishiga qaramay fermer xo'jaliklari tomonidan foydalanilayotgan suv resurslari to'g'risida aniq ma'lumotlar

yo`q darajasida, chunki uning hisob-kitobi Respublika suv xo`jaliklari tomonidan to`liq va to`g`ri yo`lga qo`yilgani yo`q.

Shunday bo`lganligi munosabati bilan fermer xo`jaliklarida suvdan to`liq va samarali foydalanishiga doimo ham e`tibor berilayotgani yo`q. Bu sug`orishga asoslangan dehqonchilikda nihoyatda muhim masala. Uni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida xal etish uchun, eng avvalo, fermer xo`jaliklarining suv resurslariga bo`lgan talabini to`g`ri aniqlab, so`ngra ularni xo`jaliklarning talabini qondiradigan miqdorda hamda vaqtida yetkazib berishni yo`lga qo`yish lozim. Shuning bilan birgalikda suvdan foydalanganlik uchun haq to`lash mexanizmini asoslangan holda yo`lga qo`yish zarur. Bu masalalarni suvdan foydalanuvchilar uyushmasi bajarishi maqsadga muvofiqdir. 2011-yilning boshiga Respublikada 1712 ta SFU faoliyat ko`rsatmoqda. Lekin, ular tomonidan barcha fermer xo`jaliklariga to`liq xizmat ko`rsatilayotgani yo`q. Chunki ularning mablag`lari hamda moddiy-texnik resurslari etarli darajada emas. Shunday ekan, endilikda bu uyushmalarning faoliyatlarini to`g`ri tashkil etishga ham alohida e`tibor berish vaqti keldi.

Yuqorida ta`kidlanganlarning barchasi ham xal etilishi mumkin bo`lgan masalalardir. Sababi 2008 yilda faoliyat ko`rsatayotgan barcha fermer xo`jaliklari Respublika Prezidenti I.A.Karimov raxbarligida belgilab berilgan agrar-iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish natijasida 2006-yildagiga nisbatan yerdan foydalanish koeffitsientini 0,07 punktga suvdan foydalanish koeffetsientini esa 0,04 punktga, oshirishga, bir gektar ekin maydoniga sarflanayotgan yoqilg`ini 44, kgga mineral o`g`itlarning sarfi esa 42,7 kg.ga tejab, paxta xosildorligini 18,5 % ga, g`allachilikda 12,4 % ga oshirishga erishdilar. Bular fermer xo`jaliklarining rivojlanib, faoliyat samaradorligining yuksalayotganligidan dalolat beradi.

Bularga iqtisodi rivojlangan davlatlarning tajribalaridan foydalanish ham ma'lum darajada ta'sir etgan. Masalan, Olmoniyada, Farangistonda, Nidyerlandiyada, AQShda qishloq xo`jalik mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo`jaliklarida ishlab chiqariladi. Masalan, AQShda 2.5 mln. fermer xo`jaligi yiliga 300-350 mln. tonna g`alla ishlab chiqarmoqda. Ulardagi fermer xo`jaliklari asosan yirik, iqtisodi mutahkam. Ularga to`liq erkinlik berilgan. Lekin raqobat asosida rivojlanmoqda.

Hozirgi davrda Respublika qishloq xo`jaligida fermerlik xo`jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli ekanligini e`tiborga olgan holda kelajakda "... fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko`lamini kengaytirish muhim ustuvor vazifa" ekanligini Prezident I.A.Karimov alohida uqtirgan.

Fermerlikni rivojlantirishga ustuvorlikning berilishi asosan quyidagi holatlar bilan isbotlanadi;

- jahon tajribasida, respublikada fermer xo`jaligi qishloqda xo`jalik yuritishning asosiy shakli hisoblanganligi;

- fermer yerlarni uzoq muddatga ijaraga olib, yerdan foydalanish huquqiga barqaror ega bo`layotganligi;

- fermer mulk egasi bo`lib, unga egalik qilish hamda foydalanishni erkin, mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi;

- fuqarolar ongida fermerlik harakatiga ishonchning barqaror ravishda o`sb borayotganligi;

- fermer yuridik shaxs hisoblanib, barcha munosabatlarni shartnomalar asosida amalga oshirilayotganligi;

- davlat buyurtmasidan ortiqcha ishlab chiqargan barcha turdagi mahsulotlarni erkin sotish imkoniyatiga egaligi;

- fermer tadbirkorlik faoliyati natijasida olayotgan pul daromadlarini va sof foydasini mustaqil tasarruf etayotganligi va boshqalar.

Ustuvor yo'nalishning samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida "Fermerlarga xizmat ko'rsatish, ularni zarur moddiy resurslar va texnika bilan ta'minlash bo'yicha bozor infratuzilmasini shakllantirish jarayonini tezlashtirish zarur" deb Prezident I.A.Karimov o'zining yuqorida qayd etilgan ma'ruzasida alohida ta'kidlagan.

Bu muhim masalani hal etish maqsadida qishloqda bozor infratuzilmasini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Qishloq hududlarida 2003-2009 yillarda muqobil MTPlar, EMM, mineral o'g'itlarni va boshqa kimyoviy vositalarni sotish shaxobchalari, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, mini banklar va boshqalar shakllantirilib, rivojlantirilmoqda. Lekin tashkil etilgan bozor infratuzilma sub'ektlari o'zlarining oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq va samarali hal etishga erishganlaricha yo'q. Chunki ularda binolar, texnikalar bo'lgan holda mablag' va malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlanmagan.

Qishloqlarda barpo etilayotgan bozor va ijtimoiy infratuzilmasi sub'ektlarining aksariyat qismi tijorat korxonalari hisoblanadi. Ularda bino, inshootlarni, mashina, traktor va texnikalarni etarli miqdorda barpo etish uchun imtiyozli kreditlash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular shuningdek boshqa manbalardan mablag'larni jalb etishga alohida e'tibor berishlari zarur. Shuning bilan birgalikda ko'rsatayotgan xizmatlarini, sotayotgan mahsulotlarining narxlarini asoslangan holda o'rnatishlari lozim. Ularning ijobiy hal etilishi kelajakda barpo etiladigan bozor infratuzilmasi sub'ektlarini to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda ustuvorlik shartnoma majburiyatlarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha sub'ektlar uchun har qanday munosabatlarning (ayniqsa iqtisodiy) asosini to'g'ri tuzilgan shartnomaviy munosabatlar tashkil etadi. Shuning uchun shartnomalarni sifatli qilib tuzish lozim. Shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda xo'jalik sub'ektlari inqirozga uchrashimumkin. Faoliyat ko'rsatayotgan fermerlar shartnoma shartlarini bajarishga katta e'tibor bermoqdalar. Lekin shunga qaramasdan shartnoma shartlarining bajarilmaganlik holatlari ham mavjud. Masalan, fermerlar o'zlarining banklardagi hisob varaqasidagi mablag'larni zarur bo'lgan paytlarda ololmayotganligi, zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini kerak bo'lgan paytda ularni sotuvchi shahobchalaridan to'liq ololmayotganligi xollari mavjud. So'zsiz bu kamchiliklarga kelajakda barham berish kerak.

4.7. Dehqon va oila tamorqa xo'jaliklari.

Qishloq hududlarida o'z talablarini hamda erkin bozor talabini qondirish maqsadida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqdalar. Ular mustaqil dehqon xo'jaliklari hamda oila tamorqa xo'jaliklari shaklida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Dehqon va oila tamorqa

xo`jaliklari kichik tadbirkor hisoblanib oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig`iga (merosxo`rga) foydalanishga berkitilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiradi. ular mahsulotlarni dastavval o`z talablarini qondirish uchun ishlatib, ortiqchasini turli xildagi bozorlarda iste'molchilarga erkin sotadilar. Dehqon xo`jaligi o`z faoliyatini «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi qonun asosida amalga oshiradi. Dehqon xo`jaliklari tarkibiga tomorqa yerlariga ega bo`lgan oila xo`jaliklarini ham kiritish mumkin. Ularning asosiy maqsadi – shaxsiy mehnatlari, mol-mulklaridan foydalangan holda o`z talablarini hamda boshqalarning talablarni qondirish uchun qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirish. Oila tomorqa xo`jaliklari chorvachilik, sabzavot, poliz mahsulotlari bilan iste'mol bozorini to`ldirishda faol qatnashmoqdalar. Aholi iste'mol qilayotgan mahsulotlarning aksariyat qismini dehqon va oila tomorqa xo`jaliklari yetkazib bermoqda. 2011- yilning boshiga qishloq xo`jaligida 4,7mln dehqon va oila tomorqa xo`jaliklari faoliyat ko`rsatmoqdalar. Ulardan 44,2mingtasi dehqon xo`jaliklari hisoblanadi, shundan 16mingtaga yaqini yuridik shahs maqomiga egadir. Ularga hammasi bo`lib 694,9ming gektar yer umrbod foydalanish uchun berilgan, shundan 511,5ming gektari sug`oriladigan yer hisoblanadi.

Barcha dehqon va oila tomorqa xo`jaliklari 2008-yilda 1313,9ming tonna don, 1166,7 ming tonna kartoshka, 3467.3ming tonna sabzovot, 506ming tonnage yaqin poliz mahsulotlari, 732.3ming tonna meva hamda 367.3ming tonna uzum yetishtirganlar. Ular aholi I`stemol etayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirmoqdalar. Dehqon va oila tomorqa xo`jaliklari 2008-yil respublikada yetishtirilayotgan sutning-96.8 foizini, go`shtning-94.9 foizini, kartoshkaning - 83.4foizini, sabzavot mahsulotlarining - 66.5 foizini, poliz mahsulotlarining- 51.6 foizini ishlab chiqarmoqdalar.

Ular shunday miqdordagi qishloq xo`jalik mahsulotlarining yetishtirib berishlari natijasida ularning obro`si, qadri oshib bormoqda. Shuning uchun ham ular faoliyatini rivojlantirish uchun hukumat tamonidan katta e`tibor berilmoqda. Jumladan kam ta`minlangan oilalarni iqtisodiy ahvolini yahshilash maqsadida ularga bir boshdan sigir berildi. Ularning chorva hayvonlarini ozuqa moddalari bilan ta`minlash maqsadida ozuqa mahsulotlarini sotadigan shahobchalar tashkil etildi. Shu va boshqa tadbirlarni amalga oshirish oqibatida respublikada dehqon va oila tomorqa xo`jaliklari rivojlanib bormoqda. (4.7.1-jadval)

Dehqon va oila tomorqa xo`jaliklari asosan mustaqillik yillarida ko`payib rivojlana boshladi. Chunki respublikamiz mustaqillikka erishganidan so`ng prezidentimiz farmoniga ko`ra hududlardagi oila rahbarlariga uy-joy qurish hamda oila tomorqa xo`jaliklarini yuritish uchun cheklangan miqdordagi yerni ularga umrbod meros qoldirish uquqi bilan foydalanishga berila boshladi. Natijada oila xo`jaliklariga berilgan qishloq xo`jalik yerlari 2martadan oshib 2009-yilning boshiga 505ming gektarni tashkil etgan. Shundan 90-93 %ga ekinlar ekib turli hildagi qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirmoqdalar. Agarda ular 2000-yilda 759ming tonnage yaqin don mahsulotlarini ishlab chiqargan bo`lsa 2008-yilda 1308.4ming tonna yoki 72.5 %ga ko`p yetishtirganlar. Shu davrda kartoshka ishlab chiqarish 99.3%ga ko`paygan, sabzavot yetishtirish – 75%ga. Huddi shunday poliz mahsulotlarini, uzum, go`sht sut, tuhum va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish ham sezilarli darajada ko`paygan.

Respublikada dehqon va oila tamorqa xo`jaliklari holati.*

Ko`rsatgichlar	O`lchov birligi	2000.y	2005.y	2008.y
Xo`jaliklar soni	Mingta	3090.0	4544.7	4703.4
Ularga berilgan q/x yerlari	Ming ga	445.1	509.3	505.0
Jami ekin maydoni	Ming ga	401.5	441.9	466.7
Ishlab chiqarilgan g`alla	Ming tonna	758.6	1118.5	1308.4
I/ch kartoshka	Ming tonna	585.5	850.8	11668
Sabzavot mahsulotlari	Ming tonna	1982.7	2716.0	3470.0
Poliz mahsulotlari	Ming tonna	286.8	376.5	506.0
Meva mahsulotlari	Ming tonna	466.1	566.5	732.7
Uzum	Ming tonna	205.8	299.5	367.6
Go`sht (so`yin vaznda)	Ming tonna	458.4	598.0	728.9
Sut	Ming tonna	3401.9	4409.2	5250.2
Tuhum	Mln dona	751.8	1165.8	1500.8
G`alla hosildorligi	Sent/ga	39.9	52.2	54.8
Kartoshka hosildorligi	Sent/ga	133.3	175.2	201.1
Sabzavotlar hosildorligi	Sent/ga	196.2	230.7	262.7
Poliz mahsulotlari hosildorligi	Sent/ga	170.5	213.4	220.7
Qoramollar bosh soni	Ming bosh	4613.3	6061.3	7449.2
Qo`y va echkilar	Ming bosh	6021.3	8417.7	10433.6

* davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmiga, hududlarning (viloyatlarning) tabiiy-iqlim sharoitlari, iqtisodiy resurslari hamda dehqon va oila tamorqa xo`jaliklarining iqtisodlashuvi bevosita ta'sir etgan. Dehqon va oila tamorqa xo`jaliklarida, masalan kartoshka ishlab chiqarish Samarqand, Toshkent, Andijon va Farg`ona viloyatlarida, sabzavot mahsulotlarini yetishtirish esa Toshkent, Andijon, Samarqand va Farg`ona viloyatlarida, poliz mahsulotlarini ishlab chiqarish esa Surhandaryo, Jizzah, Sirdaryo va Buhoro viloyatlarida, meva mahsulotlari bo`lsa asosan Andijon, Samarqand, Buhoro, Namangan, Farg`ona va Toshkent viloyatlarida ishlab chiqarilgan. Sholi yetishtirish asosan Qoraqalpog`iston Respublikasida, Xorazm, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida rivojlangan. Go`sht va sut ishlab chiqarish Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Buhoro va Jizzah viloyatlarida rivojlangan.

Bunday hol albatta shunday hududlarning savdo shahobchalarini hamda aholini shu mahsulotlarga bo`lgan talablarini qondirilishiga ijobiy ta'sir etadi. Dehqonlar hamda oila tamorqa xo`jaliklari ishlab chiqargan ortiqcha mahsulotlarni esa ularga nisbatan talab bo`lgan hududlarga olib borib sotadilar. Kelajakda respublika aholisini bosh soni oshadi, bu esa oilani ko`payishini taqazo etadi. Shuning munosabati bilan respublikada ularni yer bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish lozim. Shuning bilan birgalikda ularga yetishtirgan mahsulotlarni sotishda qonun doirasida ko`proq erkinlik berish bilan birgalikda, turli hildagi imtiyozlar ko`lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ularga turli yo`nalishlarda hizmat ko`rsatish bo`yicha yordam berishni rivojlantirish lozim. Masalan, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sifatli va samarali sotish uchun idishlar bilan ta'minlashda, mahsulotlarni tashishda, qayta ishlab sotishda va boshqa tadbirlarga ko`maklashishi kerak. Shuning bilan birgalikda

kelajakda dehqon va oila tamorqa xo'jaliklari o'zlarining ihtiyoridagi barcha resurslaridan to'liq va samarali foydalanishga, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga doimo alohida e'tibor berishlari zarur.

4.8. Qishloq xo'jaligidagi qo'shma korxonalar

Respublika mustaqilligigacha qishloq xo'jalik tarmog'ida aralash (qo'shma) mulk va unga asoslangan qo'shma korxonalar bo'lmagan. Mustaqillik natijasida erkin bozor iqtisodi barpo etilishi mulkchilikning shu turini va unga asoslangan tadbirkorlik shaklini tashkil etish hamda u faoliyat yuritishi uchun huquqiy, iqtisodiy asoslar yaratib berdi. Jumladan, «Mulk to'g'risida»gi, «Investitsion faoliyat to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonun, Respublika Prezidentining Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ularda mulkning aralash (qo'shma) shakllari mulkdorlarning moddiy va pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan hosil etilishi ta'kidlangan. Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan shirkat, fermer xo'jaliklari qayta ishlash sanoati korxonalari bilan aralash (qo'shma) mulkchilikka asoslangan korxonalarni tashkil etishda ularning shakllantirilayotgan Ustav fondidagi ulushlarini kelishgan holda belgilashlari mumkin. Bu ulush masalan, 50:50 yoki ularning qo'shma korxonada faoliyatidagi ahamiyatiga ko'ra, 30:70 yoki 70:30 bo'lishi mumkin. Agarda shirkat yoki fermer xo'jaliklari chet el yuridik shaxslari (korxonalari) bilan qo'shma korxonada tashkil etadigan bo'lsalar, chet el korxonasining qo'shgan ulushi umumiy shakllantirilayotgan Ustav fondining 30 foizidan kam bo'lmasligi shart. Aralash (qo'shma) mulkka egalik qilish hissaviy ishtirok etish printsi asosida ham, shuningdek, o'z mablag'larini birlashtirgan mulkdorlar o'rtasida daromadlarni ularning qo'shgan mablag'ining ulushiga qarab taqsimlash usullarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shma korxonalarni tashkil etish natijasida ishlab chiqarishni yuksaltirish rivojlangan davlatlardagidek respublikamizda ham mustaqillik yillarida keng ravnaq topmoqda. Jumladan, mashinasozlik, to'qimachilik va yengil sanoat, oziq-ovqat, paxta tozalash, meva, uzum sanoati tarmoqlarida. Lekin mamlakat qishloq xo'jaligida qo'shma korxonalarni tashkil etish jarayoni talab darajasida amalga oshirilayotgani yo'q. Bu muammo hal etilishini ta'minlaydigan asosiy shartlar mavjud. Eng avvalo, chet el korxonalarining hamda fuqarolarining qonun doirasida erkin faoliyat yuritish va mulkiga egalik qilish kafolati ta'minlangan. Shuning bilan birgalikda ekologik jihatdan barcha talablarga javob beradigan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan barqaror ravishda ishlab chiqarilmoqda. Masalan, paxta xomashyosi, bug'doy, sholi, karam, pomidor, uzum, o'rik, olma, qovun, tarvuz, yer yong'oq, go'sht, sut, qorako'l terisi, jun, qimiz, qumron, turp, sabzi va inson organizmi uchun zarur moddalarga boy bo'lgan boshqa mahsulotlar.

Ularni qayta ishlashda o'zlarining mehnatlarini sarflaydigan oddiy, syerharakat, insofli, diyonatli, yangi texnika va texnologiyaga chanqoq bo'lgan fuqarolar ham mavjud.

Respublikada xalq iste'moli mollarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi chet el yuridik va jismoniy shaxslariga soliq hamda bojxona to'lovlariga oid ayrim imtiyozlar ham joriy etilgan. Kelajakda respublikada chet ellik investorlarga

yaratilgan barcha imkoniyatlarni yetkazib, ularni tushuntira oladigan hamda ularning ishonch va e'tiborlarini qozonish imkoniyatiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rahbarlariga, tadbirkorlariga ko'p narsa bog'liq. Ular tashqi bozorni o'rgangan holda manfaatdor hamkorlarni qidirib topishlari lozim. Buning uchun ancha bilim va mehnat sarflash talab etiladi. Ular tashqi bozorda o'zlarini va mahsulotlarini tanitish bilan birga o'z o'rinlarini egallashga intilishlari kerak. Shunday tadbirlar natijasida chet ellik hamkorlarni topish, ularning mablag'larini jalb etish orqali bu boradagi faoliyatni rivojlantirishga erishish mumkin.

Respublika qishloq xo'jaligida yyetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, ularni iste'mol uchun tayyor bo'lgan mahsulotlarga aylantirish uchun turli xildagi qo'shma korxonalarini tashkil etish mumkin. Bu jarayon mamlakat qishloq xo'jaligiga yangi texnikalar, ilg'or, samarali texnologiyalar kirib kelishini ta'minlaydigan chet el valyutalari oqimini ko'paytiradi. Natijada tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va maqsadga muvofiq joylashishi ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligida qo'shma korxonalarining tashkil etilishi xalqaro miqyosda mehnat taqsimotini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ular tufayli qo'shimcha ish joylari tashkil etilib, aholini ish bilan ta'minlash muammosi hal qilinishiga ma'lum darajada ulush qo'shiladi. Bu korxonalarda faoliyat ko'rsatayotganlarning moddiy sharoiti yaxshilanishini ta'minlaydi. Pirovard natijada aholining sifatli mahsulotlar bilan ta'minlanish darajasi yuksalib, turmush darajasi oshadi.

Tayanch iboralar:

Jamoa, davlat, xususiy, shaxsiy va qo'shma mulklar, davlat, shirkat xo'jaligi, fermer, dehqon, oila tamorqa xo'jaligi, fermerning maqsadi va vazifasi, fermerni tashkil etishning huquqiy asoslari, fermer xo'jaligining iqtisodiy negizi, fermerning mol-mulki, fermerni tashkil etishdagi xususiyatlar, fermer xajmi, fermerlikni tashkil etish tartiblari, yer ijarasi muddati, optimallashtirish, fermerlikning rivojlanishi (soni, yer maydoni, ishlar soni, yyetishtirilayotgan mahsulotlari) fermerlikni tashkil etish davri, uning samaradorligi, xarajat, yalpi pul daromad, sof foyda, bozor infratuzilmasi, oila tamorqa xo'jaliklari, qo'shma korxonalar.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan agrar-iqtisodiy islohotlar natijasida mulkchilikning jamoa, shaxsiy, xususiy va aralash mulkchilik shakllari bosqichma-bosqich barpo etilib, muttasil rivojlantirilmoqda. Ularga asoslangan tadbirkorlik turlari tashkil etilib, rivojlantirilmoqda.

Tarmoqda iqtisodiyotni turli bosqichlarida jamoa mulkchiligiga asoslangan jamoa, qishloq xo'jaligi kooperativlari, agrofimlar, shaxsiy va xususiy mulkchilik asosida fermer va dehqon xo'jaliklari va kichik korxonalar tashkil qilinib, taraqqiy ettirilmoqda.

Respublikada don mahsulotlari, pahta xom ashyosi asosan fermer xo'jaliklarida, kartoshka, sabzavot, poliz va chorvachilik mahsulotlari dehqon va oila tamorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilmoqda.

Aralash (qo`shma) mulkchilik negizida qo`shma korxonalar tashkil etilmoqda, lekin ularning rivojlanishi hozirgi davrda talabga to`liq javob bera olmaydi.

Kelajakda shaxsiy, xususiy hamda aralash mulkchilikka asoslangan korxonalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tarmoqda mulkchilik munosabatlarining huquqiy asoslari qaysi qonunlarda o`z aksini topgan?

2. Qishloq xo`jaligida mulkchilikning qanday shakllari mavjud?

3. Qishloq xo`jaligida qanday mulk sub'ektlari mavjud?

4. Nimalar korxonalarining mulk ob'ekti hisoblanadi?

5. Jamoa, shirkat xo`jaliklari haqida tushuncha bering.

6. Fermer va dehqon xo`jaliklari ta'rifini izohlab bering.

7. Fermer xo`jaliklari rivojlanishining samaradorligini isbotlab bering.

8. Qo`shma korxonalar haqida tushuncha bering.

9. Fermer xo`jalik to`g`risida sizning tushunchangiz qanday?

10. Fermer xo`jaligining maqsad va vazifasi nimadan iborat?

11. Fermer xo`jaligini tashkil etishning huquqiy asoslarini qanday xujjatlar tashkil etadi?

12. Fermer xo`jmaligini tashkil etishdagi xususiyatlar nimalardan iborat?

13. Fermer xo`jaligi qanday tartiblarda tashkil etilmoqda?

14. Fermer xo`jaliklarini respublika iqtisodiyotidagi o`rni va ahamiyatini qanday qilib isbotlaysiz?

15. Fermerlikni rivojlantirish bosqichlari qanday?

16. dehqon va oila tamorqa xo`jaliklarini holatini k`rsatib bering.

17. Nima uchun fermerlikni rivojlantirishga ustuvorlik berilgan?

18. Fermerlikni rivojlantirishdagi ustuvorlik yo`nalishlari nimalardan iborat va boshqalar.

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2004 yil 26 avgustdagi «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni, «Xalq so`zi» gazetasi, 2004 yil 15 oktyabr

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “ekin maydonlarini optimallashtirish va oziq ovqat maxsulotlarini ko`paytirish tadbirlari to`g`risida”gi qo`ro. 20.05.2008yil. UP-4041..

3. O`zbekiston Respublikasining «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi qonuni. «Xalq so`zi», 1998 yil, 6 iyun.

4. O`zbekiston Respublikasining «Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida»gi qonuni. «Xalq so`zi», 1998 yil, 6 iyun.

5. O`zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to`g`risida»gi qonuni. O`zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. Toshkent, «Adolat», №2, 1992.

6. O`zbekiston Respublikasining «Ijara to`g`risida»gi qonuni. Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to`plami. 1-qism., Toshkent, «Sharq», 1998.

7. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
8. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 2004.

Internet saytlari:

1. Www.ecfak.timacad.ru moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya.
2. Www.admin.ru institut agroekonomiki i biznesa priamurskiy.
3. Mardonova a.t., ishoqova s.a. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni ro'yobga chiqarishning dolzarb uslublari. Www.ski.ilm.uz
4. Saratovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. Www.tstu.ru
5. Lbr – selskoxozyaystvennaya texnika, kombayno`, kosilki, seyalki, zapchasti k selxoztexniki www.lbr.ru
6. Radio tashkent intyernational. Http:g`g`info.uzpak.uzg`uzbg`econom_uzbg`

BESHINCHI BOB

YER-SUV RESURSLARI, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

5.1. O`zbekistonning yer – suv fondi. Ularni foydalanuvchilar bo`yicha taqsimlanishi.

5.2. Yer-suv resurslarining qishloq xo`jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, ularning maydoni, tarkibi, foydalanuvchilar bo`yicha taqsimlanishi.

5.3. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

5.4. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligi, uni oshirish yo`llari.

5.5. Yer monitoringi va davlat yer kadastri.

5.1 O`zbekistonning yer – suv fondi. Ularni foydalanuvchilar bo`yicha taqsimlanishi.

Yer kurrasini umumiy maydoni ya`ni sathi 510mln kvadrat km. Yoki 51mlrd gektar. Shundan 134mln kvadrat km. yoki 13.4mlrd gektari yer fondidir.¹ U qit`alar bo`yicha quyidagicha taqsimlangan: jumladan Osiyo qit`asida 33.1 foiz, Yevropada – 8.0 foiz, Afrikada – 22.5foiz, Amerikada (shimoliy va janubiy)-30.1foiz va nihoyat Avstraliya hamda Okeaniyada – 6.3foiz. O`zbekistonning yer fondi 2009-yilning 1-yanvariga ko`ra 44410.3ming gektarni tashkil etadi. Jahonning hamda O`zbekiston respublikasining yer fondini amaliy jihatdan bir gektarga ham ko`paytirish imkoni yo`q. shuning uchun yer fondi iqtisodiyotda cheklangan resurslar tarkibiga kiritilgan. Lekin unga jahonda hamda O`zbekistonda talab yil sayin oshib bormoqda. Bunga eng asosiy sabab aholi sonining yil sayin oshib borishidir. Aholining oshishi natijasida uning barcha turdagi (uy-joy, korhonalarni) qurish uchun ma`lum miqdordagi yer ajratiladi. Oqibatda foydalaniladigan yer miqdori kamayib boradi. Bunday holat, qolgan yerlardan samarali va to`liq foydalanishni taqozo etadi. Bu ayrim hududlarda nihoyatda dolzarb muammoga aylanmoqda. Bu muammoni yanada dolzarb bo`lishiga quyidagi omillar ham ta`sir etadi. Jumladan, aholini joylashishi. Jahonda 2007-yilga 6469.8mlrd kishi istiqomat qilgan. Shulardan 60.55% Osiyo qit`asida, 11.15 % Yevropada, 13.73 % Afrikada, 13.76 % Amerika qit`asida va 0.81 % Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. (5.1.1-jadval) 2011-yilning iyuliga esa jahon aholisi 6.8milliardni tashkil etgan.²

5.1.1 jadvaldagi raqamlar jahonning yer fondini hamda aholisini bir hilda taqsimlanmaganligidan dalolat beradi. Masalan Osiyoda jahon yer fondining 33.1foizi joylashgan holda jahon aholisining 60.55foizi yashamoqda. Amerika qit`asida esa jahon yer fondining 30.1foizi joylashgan holda jahon aholisining 13.76foizi yashamoqda. Jahonning suv resurslari ham shunday nomutanosibda taqsimlangan. Yevropada esa yer fondi kam bo`lgan holda aholi zich joylashgan. Natijada bir kishiga to`g`ri keladigan yer maydoni, ya`ni aholini yer bilan taminlanganlik koefitsenti qit`alar bo`yicha sezilarli darajada farq qiladi.

¹ Ru.wikipedia.org/wiki.

² Darakchi. 19.08.2010. 8-bet

5.1-jadval

Jahon yer fondini hamda aholisini qit'alar bo'yicha joylashishi.*

Hududlar. (Qit'alar)	Jami yer fondi		Aholi bosh soni		Bir kishiga to'g'ri keladigan yer. ga
	Maydoni Mlrd.ga	Salmog'i %	Kishi mln.	Salmog'i %	
Osiyo	4.43	33.1	3917.5	60.55	1.13
Yevropa	1.07	8.0	721.6	11.15	1.48
Afrika	3.02	22.5	888.0	13.73	3.40
Amerika	4.03	30.1	890.5	13.76	4.53
Avstraliya va Okeaniya	0.85	6.3	52.2	0.81	16.28
Jahon bo'yicha	13.4	100.0	6469.8	100.0	2.07
O'zbekiston Respublikasi ×	44.4mln	100.0	28mln	100.0	1.59

× Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

* Ru.wikipedia.org/wiki.

O'zbekiston respublikasi hududlarida ham yer fondi, aholi hamda suv resurslari hududlar bo'yicha bir hilda taqsimlanmagan. Masalan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari hududida mamlakat aholisining 45foiziga yaqini yashayotgan bo'lsa, jami yer fondining 4.16foizi joylashgan. Qoraqolpog'iston, Buhoro, Navoiy viloyatlarida buning aksidir. Demak shu hududlarda aholini yer fondi bilan ta'minlanishi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu indikatorni kam bo'lishi, shu hududda yerdan foydalanish muammosini keskinligidan dalolat beradi.

Professor A.S Bulatovning ma'lumotlariga ko'ra, jahonning jami suv resurslari 1386mln km.kubni tashkil etadi. Undan 96.5foizi sho'r okean va dengiz suvlaridir. O'zbekiston respublikasining suv resurslari turlicha manbalarda ko'ra yiliga 18-20mlrd m.kubni tashkil etadi. Bu mamlakatning suv resurslariga bo'lgan talabning 40%iga yaqinini tashkil etadi. Shuning uchun sev resurslaridan to'liq va samarali foydalanishga doimo katta e'tibor berish kerak. Suv resurslari respublika hududlarida bir meyorda taqsimlanmagan. Farg'ona, Zarafshon vohasining yuqori hududlarida suv bilan taminlash yahshi bo'lsa, respublikaning g'arbiy va janubiy hududlarida suv tanqisligi mavjud.

Jahonda hamda O'zbekiston hududlarida yer –suv resurslari tabiatan ma'lum darajada talabga nisbatan nomutanosib joylashgan. Mavjud bo'lgan nomutanosiblikni e'tiborga olgan holda respublika hududlarida ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashtirishga doimo katta e'tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda mamlakat yer fondi quyidagicha taqsimlanadi. (5.1.2-jadval)

5.1.2-jadvaldagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki respublikada asosiy yerdan foydalanuvchilar bo'lib qishloq hamda o'rmon xo'jaliklari korhonalari hisoblanadi. 2009-yilning boshiga ularning ihtiyoridagi yer fondi 30.1mln. gektardan ortiqroq yoki 67.8foizni tashkil etgan.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini rivojlanishi natijasida ular foydalanayotgan yer maydonlari ham oshib borgan. Masalan sanoat, transport, aloqa va mudofaa subyektlarini rivojlanishi natijasida so'ngi o'n yil mobaynida ularning yer maydonlari salkam 83ming gektarga yoki 0.18foizga kengaygan.

O'zbekiston respublikasining yer fondi, uning foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi.*

№	Yerdan foydalanuvchilar	1999- yil		2009 – yil	
		Ming ga	Foiz	Ming ga	Foiz
Jami yer fondi		44405.0	100.0	44410.3	100.0
1	Qishloq xo'jalik korhonalari foydalanayotgan yerlar	25295.9	56.94	21453.2	48.31
2	O'rmon xo'jalik korhonalari foydalanayotgan yerlar	8696.5	19.58	8661.0	19.50
3	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa tashkilotlar yerlari	1883.0	4.24	1965.8	4.42
4	Aholi yashash joylar	230.4	0.52	236.0	0.53
5	Gidrotehnika va boshqa suv xo'jaligi tashkilotlari yerlari	799.3	1.80	813.6	1.83
6	Tabiatni muhofaza etish, sog'lomlashtirish mo'ljallangan yerlar	11.3	0.03	74.6	0.17
7	Davlat zahirasi yerlari	7488.6	16.86	11193.7	25.21
8	Boshqa subyektlar yerlari	12.2	0.04	12.4	0.03

* Davlat yer resurslari qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika aholisini yil sayin oshib borishi natijasida uy-joy bilan taminlash va ularga servis sharoitini shakllantirish maqsadida uy-joy, infratuzilma subyektlarini qurish uchun yer ajratilishi oqibatida ular ihtiyoridagi yer maydonlari ham ko'paygan. Respublikada suv tanqisligi muammoasini yamshatish maqsadida suv xo'jaliklari subyektlari va ularning maydonlari ham kengaytirilmoqda. So'ngi yillarda mamlakatda ekalogiya masalalariga katta e'tibor berilishi oqibatida ularni ham yer maydonlari ma'lum bir qismi zahira yerlar tarkibiga o'tkazilgan.

Kelajakda mamlakat iqtisodiyotini yuksalishi hamda aholi talabini qondirilishini to'liqroq ta'minlanishi, respublika yerlarini foydalanuvchilar bo'yicha o'rgatib turishni talab etadi. Bu obyektiv jarayon. Respublikaning ichki suv resurslari 18-20mlrd.m.kub bo'lgan holda yiliga o'rtacha 41-42mlrd. m. kub suvdan foydalaniladi. Suvdan foydalanuvchilar quyidagilardir:

- Qishloq va o'rmon xo'jalik korhonalari.
- Sanoat korhonalari.
- Energetika tashkilotlari.
- Kamunal xo'jalik tashkilotlari.
- Baliqchilik korhonalari va boshqalar.

Yerdan va suvdan foydalanuvchi subyektlarning asosiy maqsadi davlat tamonidan ajratilgan yer va suv resurslaridan doimo to'liq va samarali foydalanishdir.

5.2. Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, ularning maydoni tarkibi, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi

Yer va suvning jamiyatdagi, ayniqsa, qishloq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Aholi ulardan yashash uchun uy-joy, binolar qurish, iste'mol etish uchun

turli hildagi mahsulotlarni yetishtirish va boshqa maqsadlarda foydalanadilar. Shunday ekan yer va suvdaning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi ahamiyati juda ulkandir. Chunki tarmoqda ulardan foydalangan holda turli hildagi o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini, talabni qondiradigan darajada ishlab chiqarish mumkin. Shunday holni e'tiborga olgan holda ingliz iqtisodchi olimi Uiliyam Petti "yer boylikning onasidir" deb aytgan.

Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslangan. Shuning uchun suv ham yer kabi eng zarur vosita hisoblanadi. Qishloq xo'jaligidan olinayotgan mahsulotlar, masalan, paxta, sholi, tamaki, sabzavot, poliz, makkajo'xori, bug'doy, arpa, em-xashaklarning aksariyat qismi sug'oriladigan yerlarda yyetishtiriladi. Bu masala bo'yicha Respublika Prezidenti I A Karimov Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqida "...O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95foizdan ortig'i sug'oriladigan maydonlarda yyetishtiriladi" deb takidlagan.¹ Sanoatning qishloq xo'jalik xomashyolariga, aholining esa oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi qondirilishida yer va suvning ahamiyati juda katta. Yerlardan, suvlardan qanchalik oqilona, samarali foydalanilsa, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi shunchalik ko'payadi, natijada yuqorida ta'kidlangan talablarning qondirilish darajasi ortadi. Lekin yerdan asosiy vosita sifatida foydalanishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

a) yer maydonining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi. Ona zamin tabiatan cheklangan, uning maydonini inson kengaytira olmaydi. Chunki u tabiat mahsuli hisoblanadi. Boshqa asosiy vositalarni, masalan, traktorlarni, mashinalarni talabni qondirish maqsadida xohlaganicha ishlab chiqarish mumkin;

b) yerning tabiat mahsuli ekanligi. Yer va suv tabiat mahsulidir. Shuning uchun uning kelajakdagi taqdiri tabiatga bog'liq. Boshqa asosiy vositalar, ya'ni binolar, inshootlar, kombaynlar, traktorlar inson mehnatining mahsulidir. Zaruriyat tug'ilganda ular inson tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin. Yer va suvni esa inson ishlab chiqara olmaydi. Shuning uchun ular cheklangan resurslar deb ataladi;

v) yer - qishloq xo'jaligining abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Respublika hududida mavjud bo'lgan yerlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda bizdan oldingi avlodlar foydalangan, hozirgi davrda biz foydalanmoqdamiz, kelajakda esa avlodlarimiz foydalanadi;

g) yerni qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yurish imkoniyati cheklangan. Undan joylashgan makonida, ya'ni statsionar holatda oqilona foydalanish mumkin. Lekin mashina va traktorlarni talab etilgan joyga olib borib, turli xildagi ishlarni amalga oshirish, bino-inshootlarni ham talab etilgan joyga qurish mumkin;

d) yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligining mavjudligi, unga ilmiy asoslangan holda ishlov berish natijasida uning unumdorligi oshib boradi. Darhaqiqat, tuproqqa vaqtida ishlov berilsa, o'g'itlansa, uning unumdorligi oshib borishi mumkin. Lekin boshqa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi oqibatida jismoniy jihatdan eskirib ishdan chiqadi. Ular vaqt o'tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma'naviy jihatdan ham eskiradi.

¹ Karimov I A – Rivojlanish yo'lida hamkorlik. "Xalq so'zi". 4-may 2010-yil

Lekin yerga e'tibor berilsa, undan fan-texnika yutuqlarini joriy etgan holda oqilona, samarali foydalanilsa, unumdorligi oshib borishi mumkin. Ammo bu, uning unumdorligi cheklanmagan, degani emas. Shunday ekan, yerning unumdorligidan tadbirkorlik bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligi katta ahamiyat kasb etadi. Hayotda tuproq unumdorligining quyidagi turlari mavjud: tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorlik. Tuproqning tabiiy unumdorligi–tabiat mahsulidir. U tabiatning ta'siri natijasida uzoq yillar mobaynida shakllanadi. Uning holati quyosh nuri hamda yog'ingarchilik miqdoriga, shamol va suvlarning ta'siriga bog'liqdir. Ularning ijobiy ta'sirida tuproq tabiiy unumdorligi yaxshi bo'ladi. Sun'iy va iqtisodiy unumdorlik esa inson mehnati natijasida shakllantirilib, oshirilishi mumkin. Jumladan, mehnat, mablag` sarflab, yerlarning irrigatsion, meliorativ holatini yaxshilab, sifatli urug` ekib, ularni o'g'itlash, yaxshi sifatli ishlov berish orqali tuproqning suniy va iqtisodiy unumdorligini yuksaltirilishi mumkin. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning sifati ham barcha viloyatlarda bir xilda bo'lmay, bir-birlaridan farq qiladi.

Masalan, Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlarining aksariyat hududlarida ekinlarni sug`orishda foydalaniladigan suvlarning sifati yaxshi, ya'ni ularning tarkibida hosildorlikka salbiy ta'sir etuvchi turli xildagi minerallar kam, lekin Sirdaryo, Jizzah, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlarida foydalanilayotgan suvlarning tarkibida xlor va boshqa moddalar ko'p. Shuning uchun ham ularning sifati nihoyatda yomon. Bunday hol qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmiga, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda yerlarning unumdorligini oshirish, suvlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini samarali amalga oshirish orqali zarur qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini, miqdorini ko'paytirishga va sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Respublika jami yer fondining asosiy qismini qishloq xo'jalik korhonalari, tashkilotlari foydalanmoqdalar. Masalan bu tarmoqda 1995-yilda 67foizga yaqini foydalangan bo'lsa 2011-yilning 1-yanvariga kelib 48.3foizi foydalangan. Ular bu yerlardan turli hildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida foydalanadilar. Demak, qishloq xo'jaligining asosiy maqsadi aholi va chorva hayvonlari iste'mol qiladigan mahsulotlarni hamda qayta ishlovchi sanoat korhonalari uchun hom ashyo mahsulotlarni ishlab chiqarish. Qishloq xo'jaligining asosiy maqsaddidan kelib chiqqan holda yerdan quyidagi yo`nalishlarda foydalanilmoqda:

-urug` ekib va ko`chat o`tkazib hosil olinadigan yerlar. Ular ekinzor yerlar deb ataladi. Ularning maydoni 2011-yilning 1-yanvariga ko`ra 4054.5ming gektarni tashkil etgan.

-meva mahsulotlarini yetishtirish maqsadida ko`chatlar o`tkaziladigan yerlar. Ular ko`p yillik darahzor yerlar deb ataladi. Ularning maydoni 334.4ming gektar.

-chorva hayvonlari uchun mahsulotlar yetishtiriladigan yerlar. Ularni pichanzorlar va yaylovzorlar deb atash mumkin. Ular 11973.3ming gektarni tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlangan yerlar qishloq xo'jalik yerlari deb ataladi. Qishloq xo'jaligida bulardan tashqari fuqorolarga meros qoldirish huquqi bilan berilgan yerlar mavjud. Ular oila tamorqa yerlari deb yuritiladi. Bulardan tashqari o`rmonzor yerlar

ham mavjud. Bu yerlar suv bilan ta'minlaydigan sug'orish shahobchalarining mavjudligiga qarab sug'oriladigan hamda lalmi yerlardan tashkil topgan. O'zbekistonda 2009-yil 1-yanvar holatida sug'oriladigan yer maydoni 4305.8ming gektarni tashkil etgan. Bu jami yer maydonining 9.69foiziga tengdir. Shu maydondan mamlakat qishloq xo'jalik mahsulotining 95foizi olinmoqda. Bu sug'oriladigan yerning ahamiyatini nihoyatda ulkanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham respublikada bu yerlardan to'liq va samarali foydalanishga doimo katta e'tibor beriladi.

Mustaqillik yillarida islohatlar oqibatida, respublika iqtisodiyotining barcha sohalarini rivojlanishi qishloq xo'jaligida foydalanilyotgan yer maydonlarining o'zgarishiga ta'sir etmoqda. Masalan 1995-yilda qishloq xo'jaligida jami foydalanilgan yer maydoni 29736ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 25736ming gektarni, 2005-yilda 22371.3ming gektarni, 2011-yilning 1-yanvariga esa 21453.2ming gektarni tashkil etgan. Shu yillarda tarmoqda foydalanilgan yerlar 27.9foizga kamaygan. Lekin shu davrda tarmoqning sug'oriladigan yer maydoni atigi 2.5ming gektarga qisqarib, 2011-yilning boshiga 4217.7ming gektarni tashkil etdi. Demak 15yil mobaynida hukumat tarmoqda sug'oriladigan yerlarni kamaytirmaslik siyosatini amalga oshirgan. Bunday siyosatni respublika hukumatining mamlakat aholisini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan to'laroq taminlash siyosati taqozo etgan.

Tarmoqdagi umumiy yer maydoni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga berilishi natijasida yuz began.

Respublika qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning tarkibi ham o'zgarib borgan (5.2.1-jadval)

O'tgan 15 yilda qishloq xo'jaligidagi ekinzorlar maydoni atigi 19.5ming gektarga, ko'p yillik darahzorlar maydoni 26.9ming gektarga yaylovzorlar esa 7212.3ming gektarga qisqargan. Yaylovzorlar maydonining qisqarishiga asosiy sabab ularni qo'ychilik (qorako'lchilik) va echkichilikka ihtisoslashgan shirkat xo'jaliklariga ajratib berilganligidir. Qishloq xo'jalik yerlarining tarkibiga iqtisodiy jihatdan eng nafli ekinzor, sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Ular jami qishloq xo'jalik yerlarining 2011-yilning 1-yanvariga 24.7foizini tashkil etgan. Shundan 81.5% sug'oriladigan ekinzordir. Shu davrda hukumatning fuqorolarga cheklangan miqdordagi yerlarni berish siyosatining amalga oshirilishi natijasida fuqorolarning oila tamorqa xo'jaligidagi yerlari 16foizga ko'payib, 2011-yilning boshiga 619.2ming gektarni tashkil etgan, shundan 3dan 2qismidan ko'prog'i sug'oriladigan yerlardan iboratdir. Boshqa yerlar ham ma'lum darajada o'zgarib borgan. Fanda qishloq xo'jalik yerlarining bir turdan ikkinchi turga o'tishini yer transformatsiyasi deyiladi.

5.2.1-jadval

Respublika qishloq xo'jalik tarmog'ida foydalanilgan yerlar, ularning o'zgarishi.(ming. ga) *

Yillar	Jami yer maydoni ming.ga	Ekinzorlar	Ko'p yillik darahzorlar	Bo'z yerlar (lalmi)	Yaylovzorlar va pichanzorlar	Jami qishloq xo'jalik yerlari	Tamorqa bog' dorchilik	O'rmonzorlar	Meliorativ qurilish hoatidagi yerlar	Boshqa yerlar
1995 jami	29736	4074.0	361.3	68.4	19185.6	23689.3	533.6	443.9	74.6	4994.6
Sug'oriladigani	4220.2	3328.5	352.5	35.4	42.0	3758.4	425.6	27.6	-	8.6
2000 jami	25736.0	4035.9	333.8	81.9	15990.9	20442.5	584.8	366.7	81.5	4260.5
Sug'oriladigani	4188.6	3295.5	323.9	47.6	44.3	3711.3	376.0	32.2	-	69.1
2005 jami	22371.3	4034.1	321.7	82.1	12850.1	17288.0	623.4	321.5	74.3	4062.1
Sug'oriladigani	4200.6	3288.0	313.3	46.9	43.0	3691.2	477.8	31.6	-	-
2011 jami	21453.2	4054.5	334.4	80.5	11973.3	16443.1	619.2	310.7	71.9	4008.3
Sug'oriladigani	4217.7	3303.2	324.8	46.2	42.7	3716.9	469.8	31.0	-	-

* Respublika yer resurslari davlat qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Masalan, lalmi yerlar kompleks o'zlashtirilishi oqibatida sug'oriladigan ekinzorlarga aylanadi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yomonlashishi oqibatida, yomonlashib boshqa yerlarga aylanadi. tarmoqda ijobiy transformatsiyasini amalga oshirishga e'tibor berish lozim. Lekin so'nggi yillarda ayniqsa maoliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida yangi sug'oriladigan maydonlar kam o'zlashtirilmoqda. Bunga suv va mablag' resurslarining yetishmayotganligi asosiy sabab bo'lmoqda.

5.3. Yerdan, suvdan foydalanish darajasini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

Yer, suv qishloq xo'jaligining eng asosiy ishlab chiqarish vositalari ekan, ulardan qanday foydalanilganini bilish zarur. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) Umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsienti (foizda). Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga taqsimlash lozim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$EFK = \frac{FE}{FME}; \text{ yoki } \frac{F\dot{A}}{F\dot{I}\dot{A}} \times 100:$$

Bunda: EFK – umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsienti, (foizda);

FE – qishloq xo'jaligida foydalanilgan yer maydoni, ga;

FME – foydalanilishi mumkin bo'lgan yer maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich koeffitsientda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Uni aniqlash natijasida yerdan foydalanishning to'liqlik darajasi aniqlanadi. Uni haqiqiy darajasi, ya'ni koeffitsienti 1 dan yoki 100 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bu ko'rsatkichni aniqlash natijasida tarmoqda (xo'jalikda) qancha yerdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanilmaganligi bilinadi. Shundan so'ng bunday holning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

b) Suvdan foydalanish koeffitsienti. U haqiqatda sug'orilgan maydonni shu suv bilan sug'orilishi mumkin bo'lgan maydonga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$SFK = \frac{S\dot{I}}{S\dot{I}\dot{I}}; \text{ yoki } \frac{S\dot{I}}{S\dot{I}\dot{I}} \times 100;$$

Bunda: SFK – suvdan foydalanish koeffitsienti yoki foizi;

SM – haqiqatda sug'orilgan maydon, ga;

SMM-sug`orilishi mumkin bo`lgan maydoni, ga.

Buni aniqlash natijasida suvdan foydalanish darajasi belgilanadi. Bu ko`rsatkichni aniqlashda ekinlarga suv berish me'yoriga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki unga rioya qilinsa, albatta, suvdan foydalanish darajasi yuqori bo'ladi. Demak, uning darajasi, ya'ni koeffitsienti 1 dan yoki 100 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Agarda yuqori bo'lsa, unda ekin maydonlari sifatli sug`orilgan bo'lmaydi.

v) Foydalanish mumkin bo`lgan yerlardan bir yilda necha marta foydalanilganlik darajasi. Uni aniqlash uchun haqiqatda urug`, chigit ekilgan maydonni mavjud ekin ekilgan yer maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EFS = \frac{UEI}{FI}$$

Bunda: EFS- yerdan foydalanish soni, ya'ni 1 ga maydondan necha marta foydalanilganlik soni;

UEM- bir yil mobaynida urug`, chigit ekilgan maydon, ga;

FM- foydalanilgan yer maydoni, ga;

Bu ko`rsatkich yordamida bir maydonga necha marta ekin ekib, foydalanilganlik darajasi, ya'ni soni aniqlanadi. Demak, uning soni birdan ko'p bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mavjud bo`lgan yerlardan bir necha marta ekin ekib, hosil olishga intilish lozim.

g) Yer (ekin) maydonlarining mahsuldorligi, hosildorligi. Bu ko`rsatkich asosan ekin turlari hamda umumiy maydon bo'yicha, natural hamda qiymat ko'rinishlarida aniqlanadi, ya'ni ular 1 gektar foydalanilgan maydondan qanday mahsulotlarni qancha miqdorda (kg, sen, tonna) hamda necha so'mlik mahsulot yoki foyda olinganligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EX = \frac{Ya\hat{O}}{E\hat{I}};$$

Bunda: EX- 1 ga ekin maydonidan olingan hosil miqdori va qiymati (sent, so'm)

YaX- ekin ekilgan maydondan olingan yalpi hosil miqdori, yoki qiymati (tonna, ming so'm)

EM- ekin ekilgan haqiqiy maydon, ga.

Bu ko`rsatkich yordamida 1 gektar ekin ekilgan maydondan qancha miqdorda hosil olinganligi ekin turlari bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Uning miqdori qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Bu ko`rsatkich u yoki bu ekin ekilgan maydonning mahsuldorligini isbotlaydi. Jami ekin maydonlari mahsuldorligini aniqlash uchun ko`rsatkichni quyidagi qiymat ko`rsatkichlarida aniqlash, buning uchun har bir ekinning yalpi hosili qiymatini aniqlab olish lozim. So'ngra ularning yig`indisini aniqlash kerak.

$$EM = \frac{Ya\hat{E}}{E\hat{I}} : \frac{YaD\hat{E}}{E\hat{I}} : \frac{SF}{E\hat{I}}$$

Bunda: EM- foydalanilgan yerlarning mahsuldorligi. Ya'ni, bir gektar ekin ekilgan yoki yaylov, pichanzor maydondan necha so'mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad hamda sof foyda olinganligi aniqlanadi;

YaMK- olingan yalpi mahsulot qiymati, so'mda;

EM- ekinlar ekilgan maydon, ga;
 YaDK- olingan yalpi daromad summasi;
 SF- olingan sof foyda summasi.

Tuproqning banitet ballidan foydalanish samaradorligi. Bu ko'rsatkich tuproqning unumdorligini ifodalovchi banitet ballining qobilyatidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Uni bir gektar yerdan hosil miqdorini yoki hosil qiymatini shu gektarining banitet balliga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$BB_s = \frac{YaX : YaMR}{BB}$$

Bunda: BBs-tuproqning banitet ballining samaradorligi.

BB-o'sha gektarning banitet balli miqdori.

Shu tenglik yordamida 1 banitet ball evaziga qancha miqdorda yoki so'mda u yoki bu mahsulot yetishtirilganligini aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkichning miqdori yuqori bo'lgani maqul.

д) Suvdan foydalanish samaradorligi. Bu ko'rsatkich yordamida har bir metr kub suv evaziga olingan yalpi mahsulot miqdori, qiymat, daromad va sof foyda summasi quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$SFS = \frac{Ya\tilde{O}}{FS\tilde{I}} : \frac{Ya\hat{E}}{FS\hat{I}} : \frac{YaD\hat{E}}{FS\hat{I}} : \frac{SF}{FS\hat{I}}$$

Bunda: SFS-suvdan foydalanish samaradorligi;

FSM-foydalanilgan suv miqdori. Bu natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Bunda 1 m³ suvdan foydalanish natijasida qancha miqdorda paxta, g'alla va boshqa mahsulotlar yetishtirilganligi hamda necha so'mlik yalpi mahsulot va yalpi daromad, sof foyda olinganligi aniqlanadi.

e) Sug'orish sistemasi (tizimi)dan foydalanish koeffitsienti. Uning darajasini aniqlash uchun shu tizimning oxirida ekinlarni sug'orish maqsadida berilgan suv miqdorini shu tizim boshida olingan suv miqdoriga taqsimlash zarur. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$STFK = \frac{S\hat{O}\hat{I}EBS}{S\hat{O}B\hat{I}S\hat{I}}$$

Bunda: STFK – sug'orish sistemasi (tizim)dan foydalanish koeffitsienti;

STOEBS – sug'orish tizimining oxirida ekinlarga berilgan suv miqdori;

STBOSM – sug'orish tizimining boshida olingan suv miqdori.

Bu ko'rsatkich darajasi yoki koeffitsienti 1 ga intilishi kerak. Chunki sug'orish sistemasining boshida olingan suv ekin maydonlariga to'liq yetkazilishi lozim. Agar uning darajasi past bo'lsa, demak, suvning ma'lum miqdori tizim davomida yoki parlangan yoki tuproqqa sizib ketgan yoki oqib ketgan bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkich sistemaning holatini ham isbotlaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda tarmoqda yoki qishloq xo'jalik subyektlarida yerdan hamda suvdan foydalanish darajasini hamda samaradorligini aniqlash natijasida ularning faoliyatini to'liq tahlil qilish mumkin. Shundan so'ng yer va suv resurslaridan istiqbolda foydalanish chora-tadbirlarini asoslangan holda ishlab chiqish mumkin.

5.4. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligi, uni oshirish yo'llari

Yer-suv – umummilliy boylikdir. O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida ulardan oqilona hamda samarali foydalanish zarurligi «Yer kodeksi» da, «Suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunda alohida ta'kidlangan. Respublika hududidagi barcha korxonalar, fuqarolar bu qonuniy talabni bajarishlari shart. Shuning uchun ular tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga, suvni iflos qilmaslikka, shuning negizidan ulardan talab darajasida samarali foydalanishga katta e'tibor berishlari lozim. Shu ma'suliyatni his etgan holda qishloq xo'jalik korxonalari uni ijobiy hal etishga, foydalanish mumkin bo'lgan maydonlardan to'liq va samarali foydalanishga intilmoqdalar. Respublika qishloq xo'jaligida 2011 yilning boshiga 21453.2 ming. ga yerdan foydalanishga erishilgan. Shu yerlardan turli maqsadlarda foydalanilmoqda. Eng asosiy maqsad aholining oziq-ovqat, sanoatning esa xomashyo mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirib davlatning iqtisodiy havsizligini ta'minlash. Buning uchun 4054,5 ming gektar (2009 y) maydonga turli xildagi ekinlar ekib, ulardan yuqori hosil olishga harakat qilinmoqda (5.4.1-jadval).

5.4.1-jadval

Respublikadagi ekin maydonlarining miqdori (ming ga)*

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1993	1995	2000	2005	2009
Jami ekin maydoni	4229,7	4165,0	3774,9	3647,5	3609,7
Shundan:					
-g`alla maydoni	1280,3	1656,5	1611,9	1618,0	1610,7
-texnika ekinlari maydoni, undan:	1731,8	1532,6	1471,2	1517,8	1450,1
Paxta maydoni	1695,1	1492,2	1443,7	1448,2	14165
Kartoshka, sabzavot va poliz maydoni	249,8	238,2	233,8	221,4	270,4
Ozuqa ekinlarining maydoni	967,8	731,6	458,0	290,3	278,5

*Respublika Iqtisodiyot vazirligi hamda statistika davlat qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikada ekin ekilayotgan maydon yildan-yilga kamayib bormoqda. Bunday hol ekinzorlarni, aholiga turarjoylarni qurish, sanoat, sug`orish inshootlarini barpo etish uchun ajratilishi oqibatida yuz bermoqda. Bu ob'ektiv jarayon kelajakda ham yuz beradi. Shuning uchun ham mavjud yerlardan yil davomida oqilona, samarali foydalanish zarur. 1993-2009 yillarda respublikaning umumiy ekin maydoni 620.0 ming gektarga yoki 17,7 foizga qisqargan. Lekin shu davrda g`alla maydoni salkam 330,4 ming gektarga ko'paygan. Bu g`alla hosili ko'payishiga ijobiy ta'sir etdi. G`alla maydonining kengayishi asosan paxta hamda ozuqa ekinlari maydonlari kamayishi evaziga ta'minlangan. Shu davrda paxta ekiladigan maydon 278,6 ming gektarga, ozuqa ekinlari ekiladigan maydon esa 689,3 ming gektarga qisqargan. Shu maydonlardan ma'lum qismi yuqoridagi yo'nalishlarga berilgan. Bu o'zgarishlar Respublika rezidenti tamonidan ekin maydonlarining tarkibini o'zgartirishga

qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish natijasida amalga oshirilmoqda. Masalan, Respublika prezidentining 2008-yil 20-oktabrdagi PF-4041sonli farmoniga binoan paxta ekilgan maydon 2009-yilda 75.8ming gektarga kamaytrilib shu yerlarda qo`shimcha g`alla, sabzavot, kartoshka hamda moyli texnika ekinlarini ekish ko`rsatilgan. Paxta maydonining qisqartirilishi natijasida paxta yakkahokimligi bartaraf etildi. Lekin ozuqa ekinlari maydonlarining qisqartirilishi amalda almashlab ekish tartibining buzilishiga olib keldi hamda chorva hayvonlarining mustahkam em-xashak bazasini barpo etishga salbiy ta'sir ko`rsatmoqda. Shu bois kelajakda yerdan foydalanish samaradorligini yuksaltirish uchun almashlab ekishni joriy etishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida Respublika hukumati, qishloq xo`jalik korxonalarining barcha rahbarlari ekinlar ekilayotgan yerlardan to`liq va samarali foydalanishga barcha xo`jaliklar alohida e'tibor bermoqdalar. Bu harakat ijobiy natijalar bermoqda. Natijada XXI asrining birinchi o`n yilligi davomida qishloq xo`jaligida yyetishtirilayotgan mahsulotlarning miqdori yil sayin oshib brogan. (5.4.2-jadval).

5.4.2-jadvaldagi ma'lumotlari mamlakatimiz qishloq xo`jaligidagi 2000-2009-yillar mobaynida yyetishtirilgan asosiy mahsulotlarning o`rtacha yillik o`shishi 6.5%dan yuqori bo`lgan. Shu yillarda asosiy mahsulot hisoblangan bug`doyning miqdori 86.9% yoki 3.1 mln. tonnaga oshgan. Bunday o`shish Davlatning "G`alla mustaqilligi siyosati" natijasida erishilgan. Shuning oqibatida mamlakat aholisining bug`doydan olinadigan non va non mahsulotlariga bo`lgan talabi qondirilgan. Boshqa turdagi qishloq xo`jalik mahsulotlarini miqdorini o`shishi natijasida aholining shu mahsulotlarga bo`lgan talabi ham ma'lum darajada qondirilmoqda. Mahsulotlarning miqdorini barqaror ravishda oshishi asosan intensive usulda rivojlanish hisobiga ta'minlangan. Ya'ni ekinlarning hosildorligini hamda chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshishi evaziga ta'minlangan. Masalan agar 2000-yilda 1 ga bug`doy ekilgan maydondan 27.6.sent.hosil olingan bo`lsa, 2005-yilda 41.5sent, 2008-yil 44.4sent.olingan. Shu muddatda bu ko`rsatgich 60.8%o`sgan. Shu davrda kartoshkaning hosildorligi 129.3sent.dan 194.1sent yetkazilgan yoki 50.1%ga sabzavot mahsulotlariniki bo`lsa 34%ga oshgan.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlari. (ming tonna)

*

Mahsulot nomi	Yillar				2009-yil		2000-2009-yillardagi o`rtacha yillik o`sish %
	2000	2005	2008	2009	2009-yil nisbatan %	2005-yil nisbatan %	
Bug`doy	3532.0	5927.8	6039.7	6600	186.9	111.3	9.65
Kartoshka	731.1	924.2	1398.7	1523.5	208.4	164.8	12.04
Sabzavot	2644.7	3517.5	5221.3	5704.5	215.7	162.2	12.86
Po`liz	451.1	615.3	981.3	1100	243.8	178.8	15.92
G`o`sht	501.8	632.6	768.0	806.4	160.7	127.5	6.74
Sut	3632.5	4554.9	5426.3	5760.7	158.6	126.5	6.51
Tuhum mln.dona	1254.4	1966.7	2431.5	2715.8	216.5	138.1	12.94
Qishloq xo`jalik yalpi mahsuloti haqiqiy narh mlrd.so`m	1387.2	5978.3	10479.6	12642.6	9.1marta	2.1marta	-

*O'zbekiston Davlat statistikasi qo`mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bunday o`sish viloyatlar hisobiga ta'minlangan. Respublikada yyetishtirilayotgan g`allaning asosiy qismini Qashqadaryo(13.4%), Farg`ona (10.9%), Samarqand (10.9%), Buhoro (8.8%), Andijon (8.4%) va Toshkent (8.3%) viloyatlarida yyetishtirilgan. Shu viloyatlarda g`alla hosildorligi sezilarli darajada oshgan. Masalan Qashqadaryo viloyatida 2000-2008-yillarda g`alla hosildorligi 2.5marta, Farg`ona viloyatlarida esa 1.7marta Samarqand viloyatida 1.6marta oshgan. Respublikada kartoshka, sabzavot hamda meva daraxtlarining ham hosildorligi oshgan. Qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligining oshishi yerdan foydalanish samaradorligi yuksalishini ta'minlangan. Respublikada har gektar qishloq xo`jalik yeridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi 1998-2008 yillar mobaynida oshgan (5.4.3-

jadval). Haqiqatda esa shunday darajada bo`lmasligi mumkin. Chunki unga baholarning oshishi ham bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Yer va suvdan foydalanish samaradorligini ekinlarning hosildorligini hamda bir gektar qishloq xo`jalik yerlaridan olinayotgan yalpi mahsulot qiymati ifodalaydi. Shu yillar davomida mamlakatda pahta hosildorligi 10% ga, g`alla hosildorligi 82.6% ga oshgan. Bir gektar qishloq xo`jalik yerlaridan olingan yalpi mahsulot qiymati haqiqiy narhlarda salkam 7.4martaga oshgan. bu haqiqiy baholarda bo`lganligi uchun shunday o`sgan.

O'zbekistonda yer va suv resurslaridan foydalanishning samaradorligi darajasi dinamikasi*

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				
			1998	1999	2000	2005	2008
1	Paxta hosildorligi	ga/ts	21,0	23,7	21,7	24,7	25
2	Boshoqli don hosildorligi	ga/ts	23,0	23,3	26,8	39,8	42,0
3	1000 m ³ suv evaziga yetishtirilgan: -paxta xomashyosi miqdori -yalpi mahsulot qiymati	kg sum	101 10410	106 14700	113 31440	115,3 34780	117 36854
4	1 ga qishloq xo'jalik yeridan olingan yalpi mahsulot qiymati	sum	2496	5879	13114	15876	18463
5	1 ball evaziga yetishtirilgan paxta hosili	kg	38	43	39	41	42

Agarda qiyosiy baholarda bo'lganda bunday darajada bo'lmasligi muqarrar. Shuning uchun bu ko'rsatkichni qiyosiy narhlarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun qiyosiy narhlarning yangi tizimini belgilash zarur. Shu yillarda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ham yil sayin oshib bormoqda. Shu yillarda paxta hom-ashyosini yetishtirish uchun sarflangan bir m.kub suv evaziga olingan hosil miqdori 15.8foizga oshgan. olingan yalpi hosil qiymati esa 3.5marta oshgan. G'oz ekilgan maydonlardagi tuproqning unumdorligidan foydalanish darajasi 10.5foizga oshgan. Yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshishiga keyingi yillarda tarmoqda amalga oshirilayotgan tadbirlar bevosita ta'sir etgan. Masalan 2006-yilda xo'jaliklararo drenaj tarmoqlaridan 6909.5km., xo'jalik ichidagi ochiq zovurlaridan 16775.6km., yopiq yotiq drenajlardan 892.3km. tozalanish natijasida 61.4ming gektar yerning meliorativ holati tubdan yahshilandi. Irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshishi uchun davlat byudjetidan 2006-yilda 4859.7mln so'm sarflangan. 2007-yilda esa 7608.9km xo'jaliklararo drenajlar, xo'jalik ichidagi ochiq zovurlardan 15742.8km yopiq yotiq zovurlardan 536.1km tozalanigan. Natijada 115ming gektar yerning meliorativ holati yahshilangan.

Respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarining o'rni va ahamiyatini Vazirlar Mahkamasining 2008-yil fevral oyidagi majlisida Respublika prezidenti quyidagilarni ta'kidlagan: "bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish masalasi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yahshilash va unumdorligini oshirish bo'yicha o'ta muhim vazifani hal etish bilan bevosita bog'liq. Bu vazifa 2008-yil va undan keyingi

yillarda biz uchun asosiy ustuvor yo`nalish bo`lishi zarur.”¹ Respublika uchun o`ta muhim hisoblangan bu masalani amaliyotga tadbiriq etish maqsadida Prezidentning 2007-yil 29-oktabrda “yerlarning meliorativ holatlarini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari haqida”gi farmon qabul qilgan. Shnga asosan 2007-yil 31-oktabrida Moliya Vazirligi huzurida “sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo`yicha jamg`arma faoliyatini tashkil etish to`g`risida”gi qarorni qabul qildi. Shunga binoanirrigatsiya – melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishga 70mlrd so`m davlat byudjetidan sarflangan. Respublikada irrigatsiya melioratsiyani yanada rivojlantirish maqsadida, 2008-2009yillarda sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo`yicha davlat dasturi ishlab chiqildi. So`nggi yillarda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlar respublikada irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini rivojlantirishga o`z hissalarini qo`shmoqdalar. Dasturdagi tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 130mlrd so`m sarflash belgilangan. Shu boradagi tadbirlar 2009-2011yillarda ham amalga oshirilmoqda. “Yana bir ustuvor yo`nalish-yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash dasturini amalga oshirish doirasida 2009-yilda 840km kollektor – drenaj tarmoqlari, 250ta drenaj quduqlari, 15ta melioratsiya stansiyalari va inshoatlari qurildi, hamda rekanstruksiya qilindi. O`tgan yili yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga – 130mlrd so`m mablag` yo`naltirilgan. Natijada 240ming gektardan ortiq sug`oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligini fermer xo`jaliklarining daromadlarini oshirish imkonini berdi.”² deb Vazirlar Mahkamasining 29-yanvar kuni o`tkazilgan majlisidagi nutqida ta`kidlagan. Respublikada yer suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan boshqa tadbirlarning ham ta`siri bo`lgan. Lekin tarmoqda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi hozirgi davrda oshib borayotgan talabga to`liq javob beradi.

Bunday holning eng asosiy sababi bo`lib sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini talabga to`liq javob bermaydigan holatdaligi hisoblanadi. (5.4.4-jadval)

¹ Prezident Karimov I A 2007-yilning asosiy yakunlari va 2008-yil Ozbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi 2008-y 16fevral

• Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-Vatanamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Xalq so`zi 2010-yil. 30-yanvar.

2007-2009-yillarda Respublika viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarning
sho'rlanish darajasi.*

Hududlarning nomi	Yillar	Umumi y sug'oriladigan Maydon, ming ga.	Sho'rlanish darajasi			
			Umumiy sug'oriladigan maydon (%)	Kam sho'rlangan %	O'rtacha sho'rlangan %	Kuchli sho'rlangan %
Qoraqol poyiston respublikasi	007	504.0	78.8	30.7	36.3	11.8
	008	504.5	78.7	31.6	35.2	11.9
	009	502.8	77.6	32.5	34.6	10.5
Buhoro	007	274.9	89.5	57.3	27.5	4.6
	008	274.9	88.9	56.2	27.7	5.0
	009	274.9	87.4	56.1	26.7	4.6
Jizzah	007	299.5	82.2	51.0	28.9	2.3
	008	299.9	82.4	51.4	28.8	2.2
	009	300.0	82.5	53.3	27.0	2.2
Navoiy	007	127.3	88.7	66.6	16.3	5.7
	008	131.8	87.3	67.9	14.6	4.8
	009	131.7	87.3	68.0	15.0	4.3
Sirdaryo	007	292.2	97.2	75.5	19.4	2.4
	008	292.2	98.3	77.9	18.4	2.0
	009	292.8	98.2	77.3	19.3	1.7
Xorazm	007	276.5	10.0	52.7	33.2	14.1
	008	276.6	10.0	52.7	33.9	13.4
	009	267.5	10.0	51.8	35.1	13.1
Respublika bo'yicha	007	4281.9	50.3	30.9	15.7	3.7
	008	4290.1	50.2	31.5	15.2	3.5
	009	4301.5	49.6	31.3	15.0	3.3

*O'zbekiston respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

5.4.4-jadvaldagi raqamlardan ma'lum bo'lishicha 2011-yilning 1-yanvariga 4301.5ming ga sug'oriladigan yerlarning 2135.8ming gektar yoki 49.6% u yoki bu darajada sho'rlangan hisoblanadi. Shundan 884.8ming ga yoki 24.1% o'rtacha hamda

o`ta sho`rlangan yerlardir. Sho`rlangan yerlarning 670ming gektarga yaqini yoki 31.2% quyi amudaryo vohasida, 535ming gektari Mirza Cho`l hududida, 355.3ming gektari 16.6% Zarafshon vohasida joylashgan. Sug`oriladigan yerlarning sho`rlanganligi munosabati bilan tuproqning sifati ham past. (5.4.5-jadval)

Bu hududlarda aksariyat sug`oriladigan yerlarning sho`rlanganligi munosabati bilan ekinlarning hosildorligi ancha past. Masalan, 2008-yilda mamlakat bo`yicha 1gektar bug`doy ekilgan maydondan 44.4sent. hosil yyetishtirilgan bo`lsa, Qoraqolpog`iston Respublikasida 26.7sent. yoki Jizzah viloyatida 29.4sent. Sirdaryo viloyatida esa 38.4sent. olingan. Demak hududlarda asosiy ekinlarning hosildorligi Respublikadagiga nisbatan ancha past. Bizning hisob-kitobimizga ko`ra yerlarning sho`rlanganligi munosabati bilan ekin maydonlarining hozirgi tarkibiga ko`ra 705ming tonnaga yaqin g`alla, 423ming tonnacha pahta homashyosi kam yyetishtirilmoqda. Yerlarning irrigatsion-meliorativ holatini yomonlashganligi evaziga qishloq xo`jalik ekinlarining yalpi hosilini kamayishiga yo`l qo`ymaslik kerak. Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish lozim.

O'zbekiston respublikasida sug'oriladigan hududlardagi tuproqlarning sifati bahosi *

Hududlar nomi	Sifatini aniqlangan jami maydon ming ga	Uzlarning o'rtacha balli	Yomon va o'rtachadan past maydon	O'rtacha yerlar	Ahshi yerlar	ing yahshi yerlar
				Ming. ga		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	416.6	4.1	268.9	16.4	1.3	
Andijon	224.1	5.7	44.2	5.0	8.8	.0
Buhoro	232.7	5.0	74.9	7.4	0.3	.1
Jizzah	276.8	5.0	44.4	91.8	7.8	.8
Qashqadaryo	445.4	5.1	75.4	86.4	5.4	.2
Navoiy	228.7	5.9	59.5	3.8	6.0	9.4
Namangan	99.5	5.2	28.2	5.9	3.3	.1
Samarqand	306.4	5.7	31.6	62.1	5.5	7.4
Surhandaryo	272.1	5.6	55.0	39.1	1.1	.9
Sirdaryo	252.1	5.1	38.1	54.7	9.3	
Toshkent	328.9	5.9	40.2	54.4	19.7	4.6
Farg'ona	289.7	5.6	68.6	14.5	00.6	.0
Xorazm	234.0	5.3	55.8	17.0	1.1	.1

* Respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Dastavval qishloq xo'jalik yerlarini undan foydalanuvchilar ixtiyoriga uzoq muddatga foydalanish uchun berish masalasini to'liq hal etish zarur. Buning uchun qishloq xo'jalik yerlarini tanlov asosida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jalik yili boshlanishidan oldin, ya'ni yanvar, fevral, mart oylarida hamda kuzgi ekinlarni ekishdan oldin, ya'ni iyun, iyul,

avgust oylarida 50 yilgacha bo'lgan muddatga berishni yo'lga qo'yish lozim. Hozirgi davrda bu masala to'liq echilmagan.

Shirkat xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan yerlarni pudratchilarga bir yilga emas, balki kamida almashlab ekishni joriy etish muddatiga foydalanish uchun ijaraga berish maqsadga muvofiqdir. Bu yerdan foydalanuvchi ijara pudratida ishlaydigan fuqarolarda to'liq ishonchni shakllantiradi. So'zsiz, bu hol, yerdan foydalanishga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlaydi.

Shular bilan birgalikda iqtisodiy unumdorligini oshirish maqsadida yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish juda muhim muammo hisoblanadi. Bu muammoni echishda davlat bosh ijrochi bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda bu tadbirlar 27-30 ming ga da amalga oshirilmoqda. Bu, so'zsiz, kamdir. Agarda bu muhim tadbir qishloq xo'jalik korxonalariga to'liq yuklansa, bajarilmasligi muqarrar. Chunki ularning texnik, iqtisodiy quvvati etmaydi. Davlatning esa texnik, iqtisodiy imkoniyati ulkan. Xo'jaliklar yerlarining meliorativ holatini yaxshilashda irrigatsiya va melioratsiya davlat hissadorlik tashkilotlari xizmat qilib, ulardan o'z haqlarini olishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish lozim.

Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, chuqurlashtirish, ya'ni liberallashtirish masalalarini hal etishni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalaganlik uchun to'lanadigan haqlarni, soliqlar miqdorini realroq aniqlash lozim. Bunda bozor iqtisodi qonunlari talablariga asoslanish, shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi, holati, sifati, iste'molchilarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi, olinayotgan mahsulot, foyda summasi kabi indikatorlarni ham эътиборга олиш зарур.

Yerlardan, suvlardan to'liq va samarali foydalanish uchun:

- yer-suv islohotlarini qonunlar asosida yaxshi o'tkazish, ularni foydalanuvchilarga berish, sotish;
- zaxlanib, sho'rlangan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini vaqtida sifatli va tizimli amalga oshirish;
- yangi, samarali texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekishni tiklash;
- ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish;
- selektsiya, urug`chilikni, agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag`batlantirish bilan bog`liq bo'lgan masalalarni hal etish;
- yer va suv munosabatlarini takomillashtirish va erkinlashtirish lozim.
- Investitsiyalarni keng joriy etishga erishish lozim.

5.5. Yer monitoringi va davlat yer kadastri

Yangi asrda yosh, mustaqil, kelajagi porloq va buyuk respublikamiz tinchlikka, demokratiyaga asoslangan holda siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlatlardan biriga aylanishi muqarrar. Buning uchun esa u o'z hududidagi barcha boyliklardan oqilona, samarali foydalanishi lozim, shu jumladan, yer-suv resuslaridan ham.

2011 yilning boshida respublikamizning jami yer maydoni 44410.3 ming gektardan iborat. Yer mamlakatimizning umumiy boyligi ekanligi Respublika Konstitutsiyasida va «Yer kodeksi»da alohida ta'kidlangan. Yer -xalqimiz hayoti, faoliyati va farovonligining asosidir. Undan faqat bugunni emas, kelajak avlodlarning ham manfaatlarini ko'zlab, ilmiy asoslangan holda, oqilona, samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. O'ta muhim bu vazifa hal etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000 yilning 23 dekabrda «Yer monitoringi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqladi. Yer monitoringi respublika yer fondidagi barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida ilmiy asoslangan holda aniqlash, yerlarga to'liq baho berish (sifat hamda iqtisodiy jihatdan), ularga ta'sir etuvchi salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini izchil tugatish maqsadida yerning holatini kuzatib borish bilan bog'liq bo'lgan axborotlar tizimidan iboratdir. Respublikamizning barcha yerlari monitoring ob'ekti hisoblanadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, respublikadagi boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Nizomda vazirliklar va idoralar faoliyatini va yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirishdek muhim vazifa O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Demak, yuksak davlat ahamiyatiga molik bo'lgan vazifani muvaffaqiyatli hal etishda qo'mita tarkibidagi barcha idoralar, tashkilotlar faol qatnashishlari zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda «O'zdavyerloyiha» institutining Yer kadastr sho'ba korxonasi yer monitoringi amalga oshirilishini ta'minlashga quyidagi yirik masalalarni hal etish bilan hissa qo'shishni rejalashtirmoqda: qishloq xo'jalik yerlari tuproq monitoringini amalga oshirish uchun tuproqshunoslik tadqiqotlariga oid to'plangan barcha ma'lumotlarni umumlashtirib, monitoring tadqiqotlarini olib borish maqsadida respublika, viloyatlar hamda tumanlar hududida asosiy maydonlarni tashlash va ularni asoslash; vaqt o'tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o'zgarganligini isbotlovchi ma'lumotlarni tyeran va to'liq tahlil etish; tadqiqot olib boriladigan asosiy hamda ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko'rsatkichlar majmuasini asoslash, tashkil etish hamda yuritish; tuproqning holatini kuzatish, unga oid ma'lumotlarni sifatli to'plash hamda ularga o'zgartirishlar kiritish kerak. Buning uchun qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol yeroziyasi ta'siri oqibatida o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari sho'rlanganlik darajasining o'zgarish jarayoni monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari og'ir metallar bilan zaharlanganlik hamda zaharlanganlik darajasining o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining texnogen o'zgarishi monitoringi; neft mahsulotlari salbiy ta'siri natijasida tuproqlarning ifloslanishi monitoringi; barcha o'simliklarning og'ir metallar

bilan zaharlanish darajasi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining gyerbitsit va pestitsidlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; mineral o'g'itlardan foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblangan bu ishlarni o'z vaqtida, sifatli bajarish uchun malakali mutaxassislariga egamiz. Lekin, bu borada ko'zlangan maqsadga erishish katta mablag`ni talab etadi. Bu mablag` evaziga esa korxonaning moddiy-texnika ta'minoti barpo etilishi hamda rivojlantirilishi lozim.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat. Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadga va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o'lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastrini yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida barcha tashkilot, korxonalarda fuqarolarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan. Davlat yer kadastrini yerning qiymatini (bahosini) aniqlashni taqozo etib, o'z ichiga olgan bo'ladi. Davlat yer kadastrining ma'lumotlari yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda, yer uchastkalari berish (sotishda) va ularni olib qo'yishda, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini belgilashda, yer tuzish ishlarini o'tkazishda, xo'jalik faoliyatiga baho berishda hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda majburiy tartibda tatbiq etiladi. Davlat yer kadastrini butun respublika uchun yagona tizim asosida davlat byudjeti mablag`lari hisobidan davlat yer kadastrini va yer tuzish xizmati organlari (Davlat yer qo'mitasi) tomonidan yuritiladi.

Demak, yer kadastrini quyidagilardan tashkil topadi:

- yerdan foydalanuvchilar;
- yer maydoni, uning tarkibi, sifati;
- yerni iqtisodiy baholash.

Yerlarni iqtisodiy baholash bir qancha iqtisodiy muhim masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Eng avvalo, yer umumxalq, davlat mulki sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir. Shunda mamlakat milliy boyligining tarkibi-yerning qiymatini, ulushini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuning bilan birgalikda yerning asosiy vosita sifatida baholanishi ham hal etilishi lozim. Yuqoridagi muammolarning hal etilishi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan O'zbekistonda ham yer munosabatlarini takomillashtirishga muayyan hissa qo'shishi mumkin.

Respublikada qishloq xo'jalik yerlarining qiymatini baholash maqsadida 1998 yilda «Uslubiy qo'llanma» ishlab chiqilgan. Unda sug`oriladigan yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlash tartibi batafsil yoritilgan.

Sug`oriladigan yerlarning qiymatini aniqlash uchun:

- barcha sug`oriladigan maydonlarning tuproqlari turlari bo'yicha, ularning barcha xususiyatlarini, holatini e'tiborga olgan holda bonitirovka qilinib, bonitet balli ishlab chiqildi. Barcha xususiyatlari bo'yicha eng unumdor, yaxshi tuproq 100 ball qilib belgilangan. Ayrim xususiyatlarini (sho'rlanganlik, toshloq, yeroziya) e'tiborga olgan holda tuproqning banitet balli pasayib boradi; bu hol tuproqning tabiiy unumdorligini ifodalaydi;

- tabiiy unumdorlikka asoslangan holda iqtisodiy omillar (investitsiyalarni amalga oshirish natijasida mehnat mablag`, texnika) ta'sirida yyetishtirilishi mumkin bo'lgan mahsulotning me'yori aniqlangan. Barcha omillardan oqilona foydalanish natijasida 1 ball 40 kg. paxta xomashyosini yetishtirish qobiliyatiga ega ekanligi hisob-kitoblar asosida aniqlangan. Demak, mahsulot yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha omillar me'yor doirasida bo'lsa, u tuproqning 1 balli 40 kg. paxta yetishtirish imkoniyatiga ega ekan.

- qishloq xo'jaligining joylashishini, ixtisoslashishini e'tiborga olgan holda 1 ga-ga, 1 s-ga sarflanishi mumkin bo'lgan xarajatlar me'yori ishlab chiqilgan;

- tuproqning iqtisodiy unumdorligiga asoslangan holda ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarning miqdori, ularni sotish kanallari bo'yicha o'rtacha sotish baholarini e'tiborga olgan holda me'yoriy yalpi mahsulot qiymatini aniqlash tartibi ko'rsatilgan.

- yuqoridagilarga asoslangan holda har bir gektar sug`oriladigan maydondan olinishi mumkin bo'lgan sof foyda miqdorini aniqlash tartibi ham ko'rsatilgan. Shularga asoslangan holda 1 gektar sug`oriladigan yerning bahosini (qiymatini) ushbu formula yordamida aniqlash mumkin:

$$E_k = \frac{SFm\hat{E}}{SF}$$

Bunda: E_k - 1 ga yerning qiymati (so'mda);

SFm - olinadigan sof foyda me'yori (so'mda);

K - yerlarning holatlarini ifodalovchi koeffitsient;

SF - bank ssuda kapitalining yillik foizi (foizda).

Shu formuladan foydalangan holda xo'jalikning 80 ballga ega bo'lgan 1 gektar yeri bahosini aniqlash kerak bo'lsa, shu bir gektar yerdan olinishi mumkin bo'lgan yalpi mahsulot qiymatidan me'yoriy xarajatlar summasini ayirib, olinishi mumkin bo'lgan sof foyda summasi aniqlanadi. Bu maydon kam sho'rlangan, undan 25 sentner paxta hosili olish mumkin, deylik. Agarda har bir tonna paxta 2009 yil xarid baholarida 510.6 ming so'mga sotilsa, unda 1 gektar maydondan 276.5 ming so'mlik (2,5tx510,6) yalpi mahsulot olish mumkin. Har bir tonna paxta xomashyosini yetishtirish uchun 394,0 ming so'm xarajat qilinadigan bo'lsa, shu maydondan 291.5 ming so'mlik sof foyda olish mumkin. Bank ssuda kapitalining yillik foizi 14 foiz bo'lsa, 1 ga yerning qiymati:

$$E_k = \frac{291 \times 0,85}{14,0} \cdot 100 = 1769,8 \text{ ming so'mga teng bo'lar ekan.}$$

Agarda shu maydon har tomomlana yaxshi bo'lsa (Q-1.), unda uning qiymati 2082.1 ming so'mga teng bo'ladi. Yer maydoni kam sho'rlanganligi uchun uning qiymati 321.3(2082.1-1769.8)ming so'mga yuqori bo'lishi kerak.

Lekin yer resurslarining cheklanganligi va ularga nisbatan bozor talabi osha borishi natijasida ularning qiymati yanada yuqori bo'lishi mumkin. Shunday tartibdan foydalangan holda shirkat xo'jaliklarining sug'oriladigan yerlari qiymati aniqlanib, ular xo'jalikning «pay fondi» tarkibiga qo'shilmogda.

Lekin kelajakda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida yerlarning qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish lozim. Bunda yer rentasiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq. Chunki davlat mulkining egasi sifatida mutlaq yer rentasini olishi, differentsial rentalar esa yer egasi bilan undan foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi lozim. Shu bilan birgalikda bozor sharoitida yerga bo'lgan talabni ham e'tiborga olish zarur.

Davlat yer kadastrini yuritish topografiya – geodeziya, kartografiya, tuproq, agrokimyo, geobotanika jihatidan va boshqa yo'nalishda tekshirish va izlanishlar olib borish, yerlarni hisobga olish va ularga baho berish, yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning, ijarachilarning hamda mulkdorlarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini ro'yxatga olish bilan ta'minlanadi. Yer monitoringi va davlat yer kadastri «Yer kadastri» qonuni asosida amalga oshiriladi.

Davlat mulkini uni tasarrufidan chiqarish natijasida aksionerlik, paychilik mulklariga birgalikda egalik qilib, ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar tadbirkorlardir. Ular bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan, avval bizda mavjud bo'lmagan yangi masalalarni, munosabatlarni mukammal bilishlari lozim. Dastavval ular mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibini yaxshi bilishlari zarur. Shuning bilan birgalikda aktsiyalar, ularning turlarini, mazmunini qanday qilib aktsiyadorlarga berilishini, sotilishini hamda dividendlarini aniqlashni bilishlari lozim. Paylarni aniqlashni, ularni paychilariga yetkazishni shu bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lishlari zarur. Hozirgi davrda tashkil etilayotgan aktsiyadorlik, paychilik, mulkchilikka asoslangan xo'jaliklarning har bir mutaxassisi yuqoridagi masalalarni bajara olish imkoniyatlariga ega emaslar. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun shu tadbirkorlarning bilimlarini oshirish ishlarini tashkil etish lozim. Shu bilan birgalikda mulkchilik shakllarini tashkil etishni ta'minlaydigan qo'llanmalarni ishlab chiqib, ularni amaliyotda sinab, tadbirkorlarga yetkazish zarur.

Qishloq xo'jaligida sust sur'atlar bilan qo'shma mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik korxonalari tashkil etilmogda. Ulardagi rahbar tadbirkorlar tashqi iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilishining kontraktlarini, investitsiya siyosatini, tartibini, mahsulotlarning daromadlarini o'zaro taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bilishlari zarur. Ular ichki hamda tashqi bozorning holatini, ma'lumotlar, reklamalar hamda boshqarish san'atini ham egallashlari kerak. Bu toifadagi tadbirkorlar avvalgilariga nisbatan ancha malakali, bilimdon, uddaburon bo'lishlari lozim.

Yuqorida ta'kidlanganlardan ko'rinib turibdiki, respublikamiz qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning turli shakllari tashkil topmogda. Ular qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ijobiy hissa qo'shmoqdalar. Lekin, ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda anchagina qiyinchiliklarga uchramoqdalar. Masalan, tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etish borasida. Chunonchi, yerlarni olishda, tadbirkorlik shakllarini tashkil etishda, kredit olishda, mahsulotlarini sotishda, ular

uchun haq olishda mushkulliklarga duch kelmoqdalar. Shuning oqibatida ular ishchi-xizmatchilariga o'z vaqtida ish haqi bera olmaydilar. Bu masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat yordam qo'lini cho'zishi zarur. Shundagina qishloq xo'jaligida ham tadbirkorlar ko'payib, tadbirkorlik rivojlanishi ta'minlanadi.

Tayanch iboralar:

Yer fondi, qishloq xo'jalik yerlari, tuproqning sun'iy va iqtisodiy unumdorligi, samaradorligi, yerdan foydalanishni koefitsenti va iqtisodiy samaradorligi, yer monitoringi, kadastr, yerning qiymatini iqtisodiy baholash, suvdan foydalanish koefitsenti, sug'orish tizimi, ulardan foydalanish koefitsenti, yer monitoringi.

Qisqacha xulosalar

Yer va suvga nisbatan davlat mulkchiligi saqlangan holda ulardan yil davomida to'liq va samarali foydalanish huquqi jismoniy hamda yuridik shaxslarga uzoq muddatga hamda umrbod berilmoqda.

Ulardan to'liq va samarali foydalanganlik darajasini va samaradorligini ma'lum bir ko'rsatkichlar tizimi yordamida tahlil etish lozim.

Respublikada davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida yer va suvdan foydalanish darajasi hamda samaradorligi 2000-2009-yillarda ma'lum darajada oshgan, lekin keyingi yillarida yerlardan, suvlardan foydalanishning samaradorligi talab darajasida emas. Sababi – yerlarning irrigatsiya-melioratsiya holati yomonlashayotganligi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekish to'liq joriy etilmayotganligi, sug'orish inshootlarining ishga yaroqlilik holati pasayishi, yer va suvlardan samarali foydalanganlik uchun rag'batlantirishning sustligidir.

Kelajakda yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun tuproq unumdorligini, suvning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar (2008-2009-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi) o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlash zarur.

Mamlakat miqyosida yer-suv monitoringi va kadastrlari talab darajasida amalga oshirilishini ta'minlash kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yer va suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, yer va suv resurslari qishloq xo'jaligining asosiy vositasi ekanligi.
2. Yer va suvlarning tarkibi, ularni xususiyatlari nimalardan iborat?
3. yer va suvdan foydalanish darajasini hamda samaradorligini qaysi ko'rsatkichlar ifodalaydi?
4. Yer kadastr, uning tarkibi, amalga oshirilishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Yer monitoringi, uning mazmuni haqidachi?
6. Yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda samaradorligini oshirishning qanday yo'llari bor?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Yer Kodeksi», “Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami”, T.: “Sharq”, 2002.

2. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism, Toshkent, «Sharq», 1998.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

4. Karimov I.A. Iqtisodni erkinlashtirish va resurslardan samarali foydalanish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil yakunlariga bag'ishlangan majlisda so'zlagan nutqi. «Xalq so'zi», 2002, 21 fevral.

5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-Vatanamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Xalq so'zi 2011-yil. 30-yanvar.

6. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T.:O'zb.EUAJI, 2006

7. Abdug'aniev A. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yer-suv resurslaridan samarali foydalanishning ayrim masalalari. TIQXMII, 2001.

Internet saytlari:

1. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya

<http://www.ecfak.timacad.ru>

2. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru

3. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://www.textbook.ru/catalogue/book/33320.html>

OLTINCHI BOB

QISHLOQ XO'JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI, FAN- TEXNIKA TARAQQIYOTI, ILG'OR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

6.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi.

6.2. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo'nalishlari, samarali innovatsion texnologiyalar.

6.3. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

6.4. Bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini shakllantirish, ularning bozori, texnika taraqqiyotini joriy etish, ulardan samarali foydalanish.

6.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi

Davlatning, aholining hamda tashqi bozorning talablarini sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan qondirish uchun ularni yetishtirishni ko'paytirish ob'ektiv zaruriyat hisoblanmoqda. Buning uchun talab etilgan miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun turli xildagi resurslar mavjud bo'lishi kerak. Masalan, yer, suv, bino, inshootlar, mashinalar, traktorlar, o'rmon, bog'lar, chorva hayvonlari, tabiiy resurslar (yog'in miqdori, harorat) kimyoviy vositalar, mablag'lar, mehnat resurslari. Ularning bir qismi qishloq xo'jaligining moddiy-texnik resurslarini tashkil etadi. Tarmoqning moddiy-texnik resurslarini, yuqorida ta'kidlanganlardan mehnat va mablag' resurslardan tashqari, barcha resurslar tashkil etadi.. Shu resurslar yordamida qishloq xo'jaligida turli xildagi ishlar, xizmatlar bajarilib, mahsulotlar yetishtiriladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligining moddiy – texnik resurslariga nisbatan bir qancha talablar qo'yiladi. Masalan:

- Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan barcha turdagi moshinalar, traktorlar, kombayn va boshqa texnikalar yyengil, tez yurar, kam yoqilg'I sarflaydigan, boshqarish qulay bo'lgan, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda arzon bo'lishi;
- Chorva hayvonlari zotli, sermahsul hamda mahalliy sharoitga moslashish imkoniyatini yuqori bo'lishi;
- Bog'lar ya'ni mevali daraxtlar sharoitga moslashadigan, sermahsul kam suv talab qilib tez pishish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lishi;
- Bino va inshootlar arzon mahalliy materiallardan foydalangan uzoq muddat xizmat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ta'mirlash yoki modernizatsiyalash qulay va arzon bo'lishi lozim va boshqalar.

Shunday talablarga javob beradigan moddiy-texnika resurslarini yaratish va yanada mukammallashtirish maqsadida fan-texnika taraqqiyoti va revalutsiyasi amalga oshiriladi.

Fan texnika taraqqiyoti deganda biz, intellektual salohiyatga asoslangan holda sifatli, arzon, yyengil, sermahsul, tez pishar, kam suv va mehnat talab etadigan qulay mehanizmlarni shakllantirgan holda mavjud bo`lgan moddiy-texnikalarni takomillashtirilishini, yaratilishini nazarda tutishimiz lozim.

Fan-texnika taraqqiyotini amalga oshirilayotganligi tarmoqda bug`doy, chiqit va boshqa urug`larning yangi navlarini yaratilayotganligi, yangi traktor, kombayn va boshqa texnikalarni ishlab chiqarilayotganligi va boshqalar yaqqol misol bo`la oladi.

Fan-texnika revalutsiyasi deganda biz amalda foydalanilayotgan moddiy-texnik resurslarning o`rniga mutlaqo mavjud bo`lmagan yangi resurslarni ishlab chiqarilishi nazarda tutiladi. Lekin ular mavjudlaridan mazmunan, mohiyatan tubdan farq qilmasligi mumkin. Tarihda bunga traktor, kombaynlarni, kimyoviy vositalarni yaratilishi misol bo`lishi mumkin. Istiqbolda esa markazdan boshqariladigan texnikalarni yaratilishi va boshqalar. Shuning natijasida tarmoq uchun serhosil, tezpishar navlar, sermahsul chorva zotlari, har tomonlama qulay va samarali hisoblangan texnikalar, ilg`or texnologiyalar yaratildi.

Shunday moddiy-texnika resurslarning qishloq xo`jalik ishlab chiqarishidagi ahamiyati nihoyatda ulkan. Chunki barcha turdagi dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda yerdan foydalaniladi. Demak, yer bo`lmasa, yuqoridagi mahsulotlarning yyetishtirilishi ta'minlanmaydi. Mamlakatimiz dehqonchiligi sug`orishga asoslanganligi munosabati bilan suv resurslarining ahamiyati ham ulkan. Kam suv talab etadigan, tezpishar, sifatli va sermahsul urug`lar, navlar bo`lmasa mahsulotlar miqdorini ta'minlash imkoniyati cheklangan. Barcha talablarga javob beradigan texnikalar bo`lmasa ishlarni bajarish muddatlari cho`zilib jonli mehnat sarfi oshib ketadi.

Qishloq xo`jaligining moddiy-texnika resurslarini iqtisodiy mazmuni, mohiyati va barpo etilishi hamda foydalanilishi bo`yicha 6.1.1-chizmadagi tartibda turkumlashtirish mumkin. Ular;

I – barpo etilishi bo`yicha;


II – ishlab chiqarishga munosabati bo`yicha;

III – ishlab chiqarishda qatnashishiga ko`ra;

IV – takror ishlab chiqarilishi bo`yicha, guruhlashtirilgan

Demak, qishloq xo`jaligining moddiy-texnika resurslari respublika xalq xo`jaligi resurslarining muhim qismi hisoblanadi. Ular mulk sifatida tarmoqning, korxonalarining iqtisodiy negizini, asosini tashkil etadi. Korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo`lsa, ularni iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi. Qishloq xo`jaligining moddiy-texnika resurslari barpo etilishi bo`yicha tabiiy va iqtisodiy resurslardan iboratdir. Tabiiy resurslar yer, suv, o`rmon, ayrim chorva hayvonlari, issiqlik hamda yog`ingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida bo`lib, korxonalarga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi.

Moddiy-texnika resurslarining turkumlashtirishi



Iqtisodiy resurslar esa iqtisodiy potentsialning tarkibiy qismi bo'lib, moddiy, moliyaviy hamda mehnat resurslaridan tashkil topadi. Qishloq xo'jaligini:

-moddiy-texnika resurslariga ishlab chiqarishning moddiy vositalari: binolar, inshootlar, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, barcha turdagi kimyoviy vositalar, o'g'itlar, urug'liklar, yem-xashaklar, chorva hayvonlari, yoqilg'i, yog'lovchi, qurilish va boshqa materiallar kiradi.

-moliyaviy resurslariga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar, xo'jaliklarning joriy, valyuta schyotlaridagi, g'aznadagi pullari, amortizatsiya fondi, aksiyalardan olayotgan foydalari, bank kreditlari hamda ichki va tashqi investitsiyalarini amalga oshirish natijasida olinayotgan mablag'lar, ta'sislar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan mablag'lar kiradi.

Ularning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi o'рни va ahamiyati juda ulkan. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar ko'ngildagidek bajarilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog'liq. Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi sababli sug'oriladigan yerlar va suv resurslarining ta'siri juda katta. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining amalga oshirilishi asosan moliyaviy resurslar bilan bog'langan. Shunday ekan, kelajakda qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari talab darajasida barpo etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Uni davlat, tarmoq va xo'jaliklar miqyosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tarmoqda foydalaniladigan va foydalanilmaydiganlarga bo'linadi. Tarmoqda u yoki bu maqsadda foydalanilayotganlari – foydalanilayotgan resurslarni, tarmoqda mavjud bo'lib, ayrim ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, vaqtincha foydalanilmayotganlari esa

foydalanilmayotgan zahira resurslarni tashkil etadi. Foydalanilayotgan zahira resurslarga zahiradagi meliorativ yerlar, ayrim suv havzalaridagi suvlar, o'rmonzorlar kiradi.

Tarmoq korxonalarida foydalanilayotgan moddiy-texnika resurslari barcha resurslarning eng muhim qismi hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, quyidagicha guruhlarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishlatiladigan, ya'ni qatnashadigan resurslar;

- ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan resurslar.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan resurslar yordamida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar va xizmatlar bajariladi. Ularga ekin ekilgan yerlar, yaylov va pichanzorlar, ekinlarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer haydaydigan, ekinlarga ishlov beradigan traktorlar, hosilni yig'ishtirib oladigan barcha turdagi kombaynlar, mahsulotni ko'paytirish uchun sarflanayotgan kimyoviy vositalar, o'g'itlar, hayvonlarga berilayotgan yem-xashaklar, chorva hayvonlari, mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Shular yordamida ko'proq, yaxshiroq mahsulot yetishtirish ta'minlanadi.

Korxonalarining ombor, idora binolari, ayrim inshootlari, texnikalari, aloqa vositalari, kompyuterlari ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashadilar. Ularni mahsulot yetishtirishga bevosita aloqasi cheklangan.

Moddiy-texnika resurslarining mahsulot yetishtirishda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. Shuning uchun ularni yaratish, barpo etish, takror ishlab chiqarish zarur. Shu bilan birga ular mehnatning xarakterini o'zgartirib, unumdorligini yuksalishini ta'minlaydi. Masalan, xo'jalikning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam (u zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar) ta'minlangan bo'lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta'minlanadi. Mehnatning industrilashganligini ifodalovchi bunday sharoit natijasida qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar kamayadi. Bu mehnatning xarakteri o'zgarayotganligidan dalolat beradi, ayni paytda ishchi-xizmatchilarning bilimi, malakasi oshirilishi talab etadi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ayrim moddiy resurslar tabiat mahsuli hisoblanadi. Jumladan, yer, suv, harorat, yog'ingarchilik (ular haqida yer va suv resurslari masalalariga bag'ishlangan bobda batafsil to'xtalib o'tilgan). Ularning barpo etilishi hamda takror ishlab chiqarilishi ko'proq tabiatga bog'liq. Lekin qishloq xo'jaligida band bo'lgan fuqarolar o'zlarining bilimlarini, tajribalarini hamda tadbirkorligini ishga solgan, fan-texnika yutuqlaridan, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bu tabiiy omillardan samarali, o'rinli foydalanishga harakat qilib, aksariyat hollarda yaxshi natijalarga erishadilar. Shuning uchun ham tarmoq ishlab chiqarishi tabiatga ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tarkibiga chorva hayvonlari, o'simliklar, mevali daraxtlar qatnashishi tarmoqning muhim xususiyati ekanligiga alohida e'tibor berish, shuningdek, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, traktorlar, mashinalar, mexanizmlar, dastgohlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yonilg'i hamda yog'lovchi materiallar va boshqalarning ishtirokini ham e'tiborga olish lozim. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika

vositalari, ma'lumki, inson mehnati natijasida yaratiladi. Ulardan foydalanish samaradorligi tarmoq ishlab chiqarishining mavsumiyligiga ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratishda yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarni e'tiborga olish, shuningdek, ishlab chiqarishning joylashganligi hamda ixtisoslashganligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etilishini barcha texnologik jarayonlarda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish imkonini yaratish lozim.

Yuqoridagi talablarga javob beradigan moddiy-texnika resurslari asosan quyidagi manbalar hisobiga barpo etiladi:

- korxonaning mablag'lari evaziga;
- chetdan jalb etiladigan mablag'lar hisobidan.

Birinchisiga korxonalarining mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag', foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vositalarini sotishdan, ijaraga berilayotgan vositalardan foydalanish natijasida va boshqa manbalardan olingan mablag'lar kiradi. Bunda xo'jaliklarning aksiyalar chiqarib sotishdan olayotgan pul daromadlari ham muhim manba hisoblanadi. Lekin bu masala respublika qishloq xo'jaligida hozircha hal etilgani yo'q. Juda muhim bo'lgan bu masalani kelajakda, albatta, hal etish zarur.

Ikkinchisiga irrigatsiya-melioratsiyaga, ekologiyaga hamda ijtimoiy sohalarga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, tijorat institutlarining kredit mablag'lari, turli manbalardan jalb etilayotgan investitsiyalar, homiylarning, hamkorlarning mablag'lari va boshqa manbalardan jalb etiladigan mablag'lar kiradi. Bu mablag'lar hisobiga qishloq xo'jalik korxonalari moddiy-texnika vositalarini ularni ishlab chiqaruvchilarning bevosita o'zlaridan yoki birjalardan, ko'rgazmalardan, auktsionlardan shartnomalar asosida sotib olib, moddiy-texnika bazalarini mustahkamlashlari, ayrim hollarda foydalanish uchun ijaraga olishlari mumkin. Shunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslaridan xo'jaliklar yil mobaynida to'liq va samarali foydalanishsa, barcha turdagi tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.2. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo'nalishlari, samarali innovatsion texnologiyalar

Qishloq xo'jaligini ustuvor darajada rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Tarmoqning moddiy-texnika resurslari shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga va uning darajasiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutish lozim. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, fan rivojlanishi natijasida shu davrgacha bo'lmagan mutlaqo yangi fan – «Moddiy-texnika resurslari» ham yaratilishi mumkin. Bu jarayon fan-texnika inqilobidan dalolat beradi. Demak, fan-texnika taraqqiyoti inqilobi - intellektual ong

rivojlanishining mahsulidir. Buning uchun intellektuallarni tayyorlaydigan ta'lim, ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko'tarish taqazo etiladi. Ular qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishini, mavjudlari takomillashtirilishini, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari, ilg'or texnologiyalarni yaratadigan fanlarning, fan-texnika, texnologiya rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada moddiy-texnika resurslarining miqdori oshadi, sifati yaxshilanadi.

Bu jarayonni respublikamiz misolida ham ko'rish mumkin. Chunonchi, fan-texnikani taraqqiy ettirish yo'lidan borilayotgan O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uchun qishloq xo'jalik mashinasozlik sanoati korxonalarida yangi, sifatli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, paxta tyeradigan mashinalar, kimyo sanoatida polietilen quvurlar, plyonkalar ishlab chiqarilmoqda. Yomg'irlatib, tuproq ostidan, tomchilatib sug'orish uchun yangi samarali texnikalar barpo etilmoqda. Bu hol qishloq xo'jaligida samarali, ilg'or texnologiyalar joriy etilishini ta'minlaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida kechishi, bu jarayonda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi, tadbirkorligi ham uyg'unlashishi lozim.

➤ yangi yerlarni kompleks o'zlashtirish, zax va sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlanish tadbirlarini amalga oshiradigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish;

➤ tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatli va serhosil urug' navlarini, sermahsul chorva zotlarini yaratish;

➤ qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida amalga oshiriladigan barcha ish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiyalashtirishni ta'minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;

➤ qishloq xo'jaligi servisini tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zarur miqdorini qayta ishlab, sifatli saqlab, iste'molchilarga vaqtida, yaxshi holatda yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarini shakllantirish;

➤ qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini erkinlashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish va ularni hayotga izchillik bilan joriy etish;

➤ fan-texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o'z vaqtida joriy etish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotganlarini rag'batlantirilishini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexanizmlarni yaratish va boshqalar.

Fan-texnika taraqqiyotining shu yo'nalishlari bo'yicha tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratiladigan moddiy-texnika resurslari qishloq xo'jaligida yangi, samarali texnologiya vujudga kelishi, bu jarayon rivojlantirilishini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar ish jarayonlarining belgilangan muddatda, sifatli bajarilishiga, mehnat unumdorligi oshishiga va xarajatlar kamayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda paxtachilikda «Andijon texnologiyasi» yaratilib, respublikada keng ko'lamda joriy etilmoqda. Bu usulda chigit avvaldan olib qo'yilgan pushtalarga respublikada ishlab chiqarilayotgan (dastlabki yillarda u Xitoy respublikasidan valyutaga olib kelinar edi) plyonka ostiga ekilmoqda.

Natijada tuproq namligi va harorat saqlanib, chigitning tez unib chiqishiga erishilmoqda. Plyonkalardan foydalanish pushtada begona o'tlar paydo bo'lishini kechiktiradi. Bu hol birinchidan, g'o`za yaganasini hamda begona o'tlarni yo'qotish ishlarini kamaytirish, ikkinchidan, suv sarfini qisqartirish imkonini bermiqda.

Chigitni plyonka ostiga ekish natijasida paxta hosilining erta pishishi hamda uni qisqa muddatda yuqori navlarda terib olish ta'minlanmoqda. Shu tufayli Andijon viloyatida paxta hosildorligi 1999-2008 yillarda o'rtacha 34 sentnerni tashkil etdi. Bu, respublikada eng yuqori ko'rsatkichdir. Viloyatda 1 sent. paxta hosilini yetishtirish uchun 29,8 ming so'm sarflanmoqda. Bu respublikadagi bu boradagi o'rtacha ko'rsatkichdan 25,1 foizga kam. Natjalar ilg'or texnologiyaning afzalliklarini bot-bot isbotlamoqda.

Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, yangi texnologiyani qo'llash uchun shart-sharoit yaratish, uni amalga oshirish jarayonida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Masalan, chigit ekish seyalkalari texnologiya talablari darajasida takomillashtirilmagan. Pushtaga yopilgan plyonka vaqtida, to'liq yig'ishtirib olinmay, dalalarda qolib ketayotgani tufayli tuproqning holatiga hamda ayrim bajariladigan ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda ularni bartaraf etish borasida ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda va bu kabi kamchiliklar chigit plyonka ostiga ekiladigan dalalarni ekishga tayyorlash, ekish va undan keyingi amallarni bajarish jarayonida ham kuzatilmoqda. G'o`zalarni sug'orishda «Isroil texnologiyasi» ham joriy etilmoqda. Bu texnologiyaning asosiy maqsadi suvni tejashga qaratilgan. Shu usuldan foydalanish natijasida 1 ga paxta maydoniga 4-5 marta kam suv sarflash ta'minlanadi. Gollandiyada yyetishtirilgan kartoshka urug'i ularning texnikalari bilan ekilib, o'simliklarga ham golland texnikalarida ishlov berilib, ularning hosili ham shu texnologiyalar bilan yig'ishtirib olindi. Bu jarayonda mahalliy tajribalardan ham keng foydalanildi. Natijada respublikada kartoshkachilik rivojlandi. Hozirgi davrda aholi iste'moli uchun chetdan kartoshka sotib olishga barham berilgan. Chorvachilik tarmoqlarida ham ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda. Ular vaqtni, mehnatni, mablag`ni tejash imkoniyatini beradi. Natijada mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi oshishi va nihoyat, sof foyda summasi ko'payishi ta'minlamoqda. Shuning uchun samarali texnologiyalarni yaratishga, ularni hayotga tatbiq etishga doimo katta e'tibor berish lozim.

6.3. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlashga doimo katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu sarflanadigan mehnat hamda mablag` xarajatlari kamayishi, mehnat unumdorligi yuksalib, foyda summasi ko'payishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanish va bu vositalardan foydalanish jarayonini va bu boradagi o'zgarishlarni bilish talab etiladi. Buning uchun bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Eng avvalo, bu boradagi asosiy ko'rsatkich – jamoa, shirkat hamda qo'shma va davlat korxonalarining, hissadorlik jamiyatlarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash kerak. Ma'lumki, xo'jalik o'z faoliyatida amalga oshiradigan ishlarni tez va sifatli bajarishga intiladi, bu

jarayonda texnika vositalari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashga alohida e'tibor beradi. Sababi – traktorlar ko'p, ularga tirkaladigan mexanizmlar kam yoki aksi bo'lsa, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi. Chorva hayvonlari ko'p bo'lib, em-xashak kam bo'lishi ham foydasizdir. Demak, korxonalar samarali muvozanatdagi moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlangan bo'lishlari kerak. Uning darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$MTR_{TD} = \frac{(\hat{A} + (\hat{A}FK - \hat{A}S) + \hat{A}Fk + BG\hat{e})}{\hat{E}\hat{O}\hat{a}};$$

Bunda: MTR_{TD} – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

Ek - qishloq xo'jalik yerlarining qiymati (so'mda);

AFk - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (so'mda);

AS – asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish summasi (so'mda);

AFK – aylanma vositalarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);

BGk - bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik summasi (so'mda).

KXe - qishloq xo'jalik yerlarining maydoni.

Bu ko'rsatkich yordamida har bir xo'jalik ixtiyoridagi foydalanilayotgan 1 ga qishloq xo'jalik yeriga yoki ekin maydoniga qancha so'mlik moddiy-texnika resurslari to'g'ri kelayotganligi aniqlanadi. Uning miqdori talab, ya'ni me'yor darajasida bo'lishi kerak. Bu umumiy ko'rsatkich maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda boshqa aniq ko'rsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Jumladan, xo'jalikning ta'minlanganlik darajasini, masalan, asosiy va aylanma fondlar yoki haydov, chopiq traktorlari bilan ta'minlanganlik darajasini shu ko'rsatkich tarkibidagi boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham alohida-alohida aniqlash mumkin. Ular ushbu darslikning 7-bobida batafsil yoritilgan.

Masalan, korxonalarning energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi. Uning miqdori xo'jalikdagi jami energetik resurslar miqdorini (ot kuchi hisobida) foydalanilayotgan qishloq xo'jalik yerlari yoki ekin maydoniga taqsimlanib aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Erk = \frac{ER\hat{e}}{Em(\hat{E}\hat{O}\hat{a})}$$

Bunda: ERk - jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);

$Em (KXe)$ – jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik yerlari).

Uning miqdori ham me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi. U yuqorida ta'kidlangan jami energetik resurslar miqdorini (ot kuchida) mehnat qilgan kishilarning o'rtacha yillik miqdoriga (kishilar) taqsimlab aniqlanadi. Bunda ushbu tenglikdan foydalanish mumkin:

$$Erk = \frac{Erk}{xMr}$$

Bunda: Erk - mehnatni energetik resurslari bilan qurollanganlik darajasi (ot kuchi/kishi).

xMr – ishlagan mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko'rsatkichlar korxonada bajariladigan barcha ishlarning qay darajada mexanizatsiyalashayotganligini yoki avtomatlashayotganlik holatini o'rganishga yordam beradi. Lekin ularning miqdori, yuqorida qayd etganimizdek, belgilangan me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasini ham aniqlash lozim. Buning uchun traktor, mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon gektarda) miqdori korxonaga bo'yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga (etalon ga) taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Md = \frac{Mi}{Ji} * 100\%$$

Bunda:

Md - ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

Mi - mashina, traktorlar mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (et.ga tonnada);

Ji - jami bajarilgan ish miqdori (et.ga).

Bu ko'rsatkich jami hamda ayrim ish, ekin turlari bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Masalan, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, hosilini yig'ishtirib olish bo'yicha. Chorvachilikda esa sigirlarni sog'ish, chorva hayvonlarini sug'orish, ularga em berish va boshqa ish turlari bo'yicha. Sigirlarni sog'ish jarayonining mexanizatsiyalashtirilganlik darajasini aniqlash uchun mashina, agregatlar yordamida sog'ilgan sigirlar bosh sonini jami sog'ilgan sigirlar bosh soniga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish lozim. Bu ko'rsatkichlar 100 foizdan yuqori bo'lmasligi shart.

Yangi texnikalardan, texnologiyalardan foydalanish natijasida mehnat, mablag' xarajatlari tejalishi ta'minlanadi. Uning darajasini aniqlash uchun yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan xarajatlardan ular joriy etilganidan so'ng qilingan xarajatlar miqdori, summasi ayrilib, aniqlangan raqam dastlabki xarajatlarga taqsimlanadi va 100 foizga ko'paytiriladi. Ularni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$Xt = \frac{X_1 - X_2}{X_1} * 100\%$$

Bunda:

Xt – tejalgan xarajat;

X1 - yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so'm);

X2 - yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan so'ngi xarajatlar (so'm).

Yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlar bilan birgalikda xo'jaliklardagi mavjud moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ham aniqlanadi. Buning uchun avvalo, mashina-traktor hamda avtomashinalar parkidan foydalanish koeffitsienti aniqlanadi. Buni hisoblash uchun xo'jalikda foydalanilgan mashina-traktorlar miqdorini unda mavjud bo'lgan mashina-traktorlar miqdoriga taqsimlash lozim. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$MTPFk = \frac{Fs}{Ms}$$

Bunda:

MTPFk – mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsienti.

Fs - foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Ms - mavjud bo'lgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Mashina-traktorlar hamda kombaynlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlik darajasi ham aniqlanadi. Uni jami ishlagan mashina kunlari sonini ishlagan mashinalar soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\overline{M}_K = \frac{\sum M_K}{M_S}; \quad \overline{T}_K = \frac{\sum T_K}{T_S}; \quad \overline{K}_K = \frac{\sum K_K}{K_S}.$$

Bunda:

\overline{M}_K - bitta mashinaning 1 oyda, mavsumda, yilda ishlagan (qatnashgan) o'rtacha kuni;

$\sum M_K$ - jami ishlagan mashina kunlari;

$\sum T_K$ - jami ishlagan traktor kunlari;

$\sum K_K$ - kombaynlarning ishlagan jami kunlari;

M_s-ishlagan mashinalari soni;

T_s- ishlagan traktorlar;

K_s- ishlagan kombaynlar soni.

Bu ko'rsatkich yordamida xo'jalikda 1 traktor, kombayn yoki mashina yil davomida necha mashina-kun ishlaganligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning miqdori yuqoriga intilishi qonuniy hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda o'rtacha va alohida har bir mashina-traktordan, yuk mashinasidan, don kombayni, paxta teruvchi mashinadan foydalanish darajasi ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun mashinalar (tG`km), traktorlar (et.ga), kombaynlar (gektar, tonna) yordamida alohida-alohida jami bajarilgan ish hajmini shu ishlarni bajarishda qatnashgan, yuqorida ko'rsatilgan texnikalarning o'rtacha soniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$TMK_{\text{И}} = \frac{T_u}{T_c}; \frac{M_u}{M_c}; \frac{K_u}{K_c},$$

Бунда:

TMK_И – traktor, mashinalarning o'rtacha bajargan ishi (1 smenada, 1 kunda, mavsumda, 1 yilda etalon gektarda, tonna\km, tonnada, gektarda).

$\sum T_{\text{И}}, M_{\text{И}}, K_{\text{И}}$ –traktorlar, mashinalar, kombaynlar yordamida bajarilgan jami ish hajmi (etalon gektarda, tonna-kilometrda, tonnada);

$\sum T_c, M_c, K_c$ – shu ishlarni bajarishda qatnashgan traktorlar, mashinalar, kombaynlarning o'rtacha soni (dona).

Bu ko'rsatkichlar yordamida, masalan, 1 ta traktor ma'lum muddatda bajargan ish miqdori aniqlanadi. Uning miqdori yuqori bo'lgani yaxshi.

Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ham aniqlanadi. Masalan, 1 et. gektarning, 1 tonna km, 1 kilovat soatning tannarxi hisoblanadi. Ular quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$EF_{TH} = \frac{\sum Mx}{\sum ET_{\Sigma a}};$$

Bunda: EGtn-1 etalon ga. tannarxi (so'mda);

$\sum Mx$ – mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami xarajat (ming sum);

$\sum ET_{\Sigma a}$ – jami bajarilgan ish hajmi (etalon ga).

Yangi texnika-texnologiyalarga qilingan investitsiyalarning samaradorligi ham aniqlanadi. Buning uchun ularni joriy etish tufayli tejalgan xarajatlar natijasida qo'shimcha olingan sof daromad summasini ularga qilingan investitsiyalar summasiga taqsimlash lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar holatini aniqlab, moddiy-texnika resurslari holati, darajasi, samaradorligi aniqlanib, chuqur tahlil qilinadi. Natijada ularga ta'sir etgan omillar aniqlanib, kelajakda ularni yaxshilash chora-tadbirlari belgilanadi.

6.4. Bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini shakllantirish, ularning bozori, texnika taraqqiyotini joriy etish, ulardan samarali foydalanish


Turli hildagi mahsulotlarni talab darajasida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni agrotehnik muddatlarda, sifatli qilib bajarish uchun kerak bo'lgan turlardagi moddiy-texnika vositalari talab darajasida bo'lishi maqsadga muvofiq. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini talab darajasida shakllantirish lozim. Bu masalaga bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaning o'zi katta e'tibor berishi kerak. Chunki korxonalar mustaqil faoliyat yuritadilar.

Demak, barcha korxonalar o'zlariga kerak bo'lgan moddiy-texnika resurslarini sotib olishlari, ta'mirlab, butlashlari, yig'ishlari hamda qurishlari mumkin. Masalan, bino-inshootlarni o'zlari qurishlari yoki pudratchilarga berishlari, mashina, traktor, kombaynlarni o'zlarida yoki ixtisoslashgan korxonalarda yig'ib, ta'mirlab olishlari mumkin. Yangi qishloq xo'jalik texnikalarini kimyoviy vositalarni, yoqilg'ilarni sotib yoki ijaraga olishlari, ozuqalarni esa o'zlari ishlab chiqarishlari mumkin yoki, boshqa korxonalardan hamda birjalar, auktsionlar yordamida zavodlardan sotib olishlari mumkin/ qishloq xo'jaligining moddiy-texni resurslarini shakllantirilishini 6.4.1-chizmadan ko'rish mumkin.

Qishloq xo'jalik korhonalari moddiy-texnika resurslari bazasini mustahkamlashda samarali yo'llardan, usullardan foydalanishlari, kamroq xarajat qilib, ko'proq foyda olishga intilishlari kerak. Lekin bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda ayrim salbiy holatlar sodir bo'lmoqda. Ma'lumki, markazdan ma'muriy usulda rejali boshqarilgan iqtisodiyot sharoitida barcha moddiy-texnika resurslari sovxozlarga, kolxozlarga asosan markazlashtirilgan holda byutjetdan ajratilgan mablag' hisobidan berilgan.

6.4.1-chizma

Qishloq xo'jaligidagi ayrim moddiy-texnika resurslari bozori



Ularning qiymatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari: soliqlar, subsidiya, dotatsiya va boshqa mexanizmlar yordamida undirib olingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa bu masala asosan xo'jaliklarning hamda chetdan jalb etilgan mablag`lari evaziga amalga oshirilmoqda. Lekin xo'jaliklarning mablag`lari esa etmaydi. Sababi – bir tomondan, sanoat mahsulotlarining bahosi qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholaridan juda katta farq qilmoqda, ya'ni ular o`rtasidagi ekvivalentlikka rioya etilayotgani yo`q, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jalik korxonalarini sotayotgan mahsulotlarining haqini o`z vaqtida ololmayotirlar, uchinchi tomondan esa tarmoqqa etarli miqdorda investitsiya sarflanayotgani yo`q. Bunday holatga chek qo'yish uchun respublika hukumati tomonidan sezilarli yordam berilmoqda. Bu yordam, investitsiya, kredit shakllarida amalga oshirilib, ular hisobidan qishloq xo'jalik korxonalarining modiy-texnika resurslari shakllantirilmoqda.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda davlat statistika qo`mitasining ma'lumotlari bo'yicha, tarmoqda traktorlarning, kombaynlarning, yuk mashinalarining umumiy soni so`ngi yillarda kamayib bormoqda.

1996 yilda tarmoqdagi jami traktorlarning umumiy miqdori 152,2 mingta bo'lgan bo'lsa, 2000-yilda 113.4mingtani, 2005-yilda 92.2mingtani, 2008-yilda esa 66.3mingtanitashkil etgan. Demak ta'kidlangan yillarda jami traktorlar soni kamayib borgan. 1996-2008-yillarda ularning umumiy miqdori 88.9mingtaga kamaygan, lekin shu yillarda haydov traktorlari 9.3mingtaga kamaygan bo'lsa, ishlov beruvchi traktorlar soni salkam 21mingtaga kamaygan. Yoki ularning miqdori 2.3marta ko`proq qisqargan. Respublikada kam quvvatli haydov traktorlarining o`rniga baquvvat, tezyurar Magnum traktorlari soni shu yillarda 3.5marta ko`payib 2008-yilda 2124tani tashkil etgan. Magnum rusmli haydov traktorining yuqoridagi ijobiy hislatlari bilan birgalikda tuproqni yuqori qatlamini qotirish kabi salbiy hislati ham mavjud. Shu yillarda tarmoqda respublikada yaratilgan pahta terish mashinalari soni kamaygan holda AQShning "Keys" rusumli kombaynlari soni ko`paygan. Lekin ming afsuski pahta hom-ashyosini mashinalarcha terish imkoniyati nihoyatda pasayib bormoqda. 2008-2009-yillarda yetishtirilgan pahta hosilini 9-10%ga yaqini mashinalarda terilgan. Bunday hol tarmoqda mehnat unumdorligini pasayishiga, pahta hom-ashyosini tannarhini oashishiga olib kelmoqda, tarmoqda meliorativ texnikalarning soni esa 4.5marta kamaygan. Hozirgi davrda ko`pchilik fermer

xo`jaliklarida bunday tehnika yo`q. bunday hol so`zsiz yerlarning meliorativ holatiga salbiy ta'sir ko`rsatmoqda. So`nggi yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohatlar natijasida tarmoqda faoliyat yuritgan davlat, jamoa va shirkat xo`jaliklarini tugatilishi jarayonida ularning mulklari hisoblangan moddiy-tehnika resurslarining bir qismi ularning tasarruflaridan chiqarilib infratuzilma subyektlari ihtiyoriga o`tkazildi.

6.4.2-jadval

Respublika asosiy qishloq xo'jalik texnikalari sonining o'zgarishi.*
(dona)

Tehnikalar nomi	1996-yil	2000-yil	2005-yil	2008-yil
Jami traktorlar, shundan	149725	113405	92239	67887
Haydov traktorlari jumladan	22296	13029	13430	12996
Magnum	603	1953	2053	2124
Ishlov beradigan traktorlar	33846	34189	18692	12861
Pahta teradigan mashinalar shu jumladan	15571	2274	925	764
Keys kombayni	-	650	777	712
G'alla kombaynlari shu jumladan	10489	6952	4831	4089
Keys kombayni	650	1315	1762	1779
Meliorativ mashinalar	13046	9251	5492	2924
Yuk mashinalar	44396	34022	21156	10856

*Respublika davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Bir qismi esa kim oshdi savdosi orqali sotildi, ayrimlari esa o'sha xo'jaliklarda uzoq yillar davomida sermahsul mehnat qilganliklari uchun ularga imtiyozli ravishda sotildi va berildi. Shu yillarda ma'lum bir qismi jismoniy hamda ma'naviy eskirganligi uchun ishlab chiqarish jarayonidan chiqarildi. Shu davrda fermerlar faqat foyda beradigan texnikalarni sotib oldilar. Bu obyektiv jarayon.

Qishloq xo'jaligining texnik resurslaridan turli hildagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda, ularni tashishda eng kam foydalaniladigan texnikalardan mehimi traktorlar hisoblanadi. Ularning umumiy soni 1996-2008-yillarda barcha viloyatlarda sezilarli darajada kamaygan. Lekin bu jarayon barcha viloyatlarda bir hil darajada yuz bermagan. Masalan, Andijon, Buhoro, Navoiy viloyatlarida 2martaga kamaygan holda, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzah viloyatlarida 2.9-3.2martaga kamaygan. (6.4.3jadval)

6.4.3-jadval

Respublika viloyatlari bo'yicha jami traktorlar soni va ularning ishga yaroqliligi*

	1996 y.			2000 y.			2008 y.		
	ma vjud	tay yor	foi z	ma vjud	tay yor	foi z	Ma vjud	Ta yyor	foi z
Qora qalpo- g'iston Res.	5888	160	8	1329	119	4,0	287	869	3.1
Andi jon	0917	185	5	511	292	5,7	096	327	4.9
Buxo ro	1605	866	6	638	470	4,9	354	664	3.4
Jizza x	450	005	9	261	298	2,7	885	783	1.8
Qash qadaryo	9363	3826	1	3695	214	7,3	028	003	6.4
Navo iy	894	757	7	057	104	6,5	503	887	5.4
Nam angan	974	967	8	693	629	3,2	426	494	2.8
Sama rqand	6351	2039	4	1237	342	4,2	301	656	3.2
Surx ondaryo	2414	685	8	0938	164	4,6	914	353	3.6
Sirda ryo	693	542	9	931	391	8,8	905	972	7.9
Tosh kent	1388	378	5	3345	205	0,9	582	913	0.1
Farg` ona	3199	1113	4	0481	873	5,1	839	356	4.6
Xora zm	1019	038	2	964	086	7,9	967	654	6.8
Jami	52155	09561	2	13080	0187	0,9	7068	6931	0.5

* Respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bu traktorlar hozirgi davrda asosan quydagi tadbirkorlik subyektlari ihtiyorida:

- fermer xo'jaliklari;
- muqobil mashina-traktor parklari;
- agrofimalar;
- shahsiy va oila tamorqa xo'jaliklari;
- davlat va shirkat xo'jaliklari;

- boshqa tashkilotlar.

Mavjud bo`lgan traktorlarning umumiy soni kamayishi bilan birgalikda ularning ishlatishga tayyorligi ham shu yillar davomida pasayib brogan. Agarda barcha traktorlarning ishga tayyorlik darajasi 1996-yilda 72% bo`lgan bo`lsa, 2000-yilda 1.5foizga pasayib 70.9foizni , 2008-yilda esa 2.1foizga pasayib 70.5 foizni tashkil etgan. Demak mavjud bo`lgan barcha traktorlarning salkam 30%ishga yaroqsiz holda. Bunday hol so`zsiz yyetishtirilayotgan mahsulotlar tannarhini oshishiga, mehnat unumdorligini pasayishiga ta`sir etadi. Traktorlarning ishga tayyor emasligiga quyidagilar ta`sir ko`rsatmoqda:

1-dan ularga zarur bo`lgan ehtiyot qismlarining yetarli emasligi;

2-dan tehnikalarni tamirlovchi ustahonalarning kamligi hamda ularni to`liq jihozlanmaganligi;


3-dan traktorlarni tamirlovchi malakali tajribali mutahasislarning kamligi;

4-dan tamirlash uchun mablag`ni yetarli emasligi va boshqalar.

Lekin yuqoridagilarga asoslangan holda qishloq xo`jaligidagi mashina, traktorlar, mexanizmlarning soni faqatgina kamayishga yuz tutgan, deb xulosa chiqarish unchalik to`g`ri bulmaydi. Chunki xo`jaliklar bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni tanlash imkoniyatlariga ega. Shuning uchun so`ngi yillarda fan-texnika taraqqiyoti natijasida baquvvat, syerunum, samarali tehnikalarni ma`lum miqdorda sotib olmoqdalar. Chunonchi, «T-28x4», «Magnum» traktorlarini, «Keys» kombaynlarini va boshqa moddiy-tehnika resurslarini fermer va boshqa xo`jaliklar sotib olmoqdalar. Lekin yangi tehnikalarni sotib olish imkoniyatlari fermer va oila tamorqa xo`jaliklarida cheklangan. Bunga eng asosiy sabab deb, ularning sotish narhlarini yuqoriligidir. Masalan, fermer 1996-yilda bitta MTZ-80 rusumli traktorni 5.7tonna pahta xom-ashyosini sotishdan tushgan pulga sotib olgan bo`lsa, 2008-yilda esa shu rusumli traktorni sotib olish uchun 79tonna pahta xom ashyosini sotishi kerak. Ya`ni 13.6marta xom-ashyoni ko`p sotishi kerak. Huddi shu rusumli traktorni sotib olish uchun 1996-yil 38.3 tonna bug`doy sotishi kerak edi, 2008-yilda esa 188.1tonna sotishi zarur. Ya`ni 4.9marta ko`proq bug`doy sotishi kerak. Shunday hajmda pahta, bug`doy yetishtiradigan fermer xo`jaliklari soni ancha kam. Fermer xo`jaliklarida tehnikalarni sotib olishda davlat katta yordam ko`rsatmoqda. Masalan qishloq xo`jalik tehnikalarini banklarning lizing krediti hisobidan amalga oshirish keng joriy etilgan. Fermer xo`jaliklari chet el yangi tehnikalarini hamda tehnalogiyalarini ko`rgazmalarda tuzilgan shartnomalar asosida sotib olsalar, ular bojhona to`lovlaridan ozod etiladi.

6.4.2-chizma

Respublika qishloq xo`jaligidagi ayrim moddiy-texnika
resurslarining o`zgarishi



Respublika qishloq xo'jaligiga hizmat ko'rsatadigan traktorlarni, kombaynlarni sonini kamayishi natijasida ularga to'g'ri keladigan yuqoridagi o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jalik texnikalariga to'g'ri keladigan maydon, ya'ni bajariladigan ish hajmi oshdi. Agarda 1996 yilda 1 ta haydov traktoriga 157,5 ga haydaladigan yer to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008 yilga kelib, 314 gektarni tashkil etgan. Shu yillar ichida g'alla va paxta kombaynlariga to'g'ri keladigan maydon ham ko'paygan. Jumladan 1 ta g'alla kombayniga to'g'ri keladigan maydon 37,6 foizga oshgan. Ish hajmining shu tarzda ko'payishi mashina, traktor va kombaynlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasi oshishini ta'minladi. Respublika agrar sohasida bu ko'rsatkichlar iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagiga nisbatan ancha yuqori bo'lgan (6.4.3-jadval).

6.4.3-jadval

Ayrim davlatlarning texnika bilan ta'minlanganligi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	AQSH	Angliya	Gyermaniya	Ros-siya
Traktor parki	ming dona	4750	500	1530	1065
1 traktorga to'g'ri keladigan haydaladigan maydon	ga	28	13	8	122
G'alla yig'adigan g'ildirakli kombaynlar soni	ming dona	667	48	156	273
G'alla yig'adigan 1 ta kombaynga to'g'ri keladigan g'alla maydoni	ga	52	77	40	220

Izoh: ma'lumotlar Rossiya bo'yicha 1996 yil 1,06 ga qolgan davlatlarniki 1993 yildagi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida kimyoviy vositalarni, jumladan, mineral o'g'itlarni sotib olishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki ular tuproq unumdorligini oshirib, ekinlar hosildorligi yuksalishini, yovvoyi o'tlar hamda zararkunandalarni ozaytirib, mehnat va mablag' sarflari kamayishini, mahsulot sifati yaxshilanishini ta'minlaydi.

Kimyoviy vositalarni ahamiyatini e'tiborga olib Respublika hukumati fermer xo'jalilariga keng qulayliklar yaratgan. Kimyo sanoati huzurida qishloq xo'jalik korxonalariga kimyoviy vositalarni sotuvchi shahobchalar tashkil etgan. 2011-yilning boshiga 935shahobchalar mineral og'itlarni fermerlarning dalalarigacha olib borib bermoqdalar. Bu munosabat fermer xo'jaliklari bilan kimyoviy vositalarni sotuvchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda shartnomalarni tuzish hamda haq to'lash masalalariga alohida e'tibor

qaratish zarur. Shuning bilan birgalikda kimyoviy vositalarning ayniqsa mineral o'g'itlarning narhlarini yuqori ekanligiga ham alohida e'tibor berish lozim.

Mineral o'g'itlarning narhlarini yuqori bo'lganligi uchun qishloq xo'jalik subyektlari ularni tuproq kartalarining ma'lumotlariga asoslangan holda kerak bo'lgan miqdordagi o'g'itlarni sotib olishga harakat qilmoqdalar. (6.4.4-jadval)

6.4.4-jadval

1995-2008yillarda qishloq xo'jaligiga yetkazib berilgan mineral o'g'itlar*

Viloyatlar	Azotli					Fosforli				
	o'rt. ehti yoj.	Amalda				o'rt. ehti yoj.	Amalda			
		1995	2000	2004	2008		1995	2000	2004	2008
Qoraqalpo g'iston R.	73,5	43,3	47,8	11,5	12,7	49,1	5,4	5,5	2,1	2,2
Andijon	65,3	34,7	47	37,0	38,4	47,4	10,1	11,4	11,5	11,9
Buxoro	59	36,5	45,3	22,5	25,6	39,3	4,6	10,2	5,8	6,1
Jizzax	53	34,5	38,3	7,4	8,3	39,5	8,8	6,4	1,0	1,2
Qashqadaryo	75,4	38,6	54	20,9	23,2	56,4	10,3	10,9	5,2	5,7
Navoiy	21,5	14,8	15,4	8,8	9,4	16,7	8,6	4	2,4	2,4
Namangan	56,1	31,4	40,8	25,0	26,5	39,1	8,9	10,3	8,9	9,4
Samarqand	56,2	26,8	41,5	22,3	23,4	48,9	6,7	9,3	5,1	5,3
Sirdaryo	54,1	31,9	39	3,3	3,4	42,5	10,1	7,1	1,2	1,3
Toshkent	63,5	33,6	44	30,1	31,7	49,1	11,9	9,2	7,4	7,6
Fargona	72,4	41,7	48,3	26,1	27,8	50,6	11,1	12,6	8,2	8,5
Xorazm	55,8	54,3	43	19,3	20,9	36	14,5	6,6	5,9	6,2
Dehqon fermer x.										2,7
Jami	55			11,9					2,4	
	820	460,7	551	249,1	251,3	590	118,9	110,6	68,2	70,5

*Respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mineral o'g'itlarni sotib olinishini kamayishi bu, avvalo, bor talabdan kelib chiqadi. Chunki, mineral o'g'itlarning erkin narxlari ancha yuqori bo'lganligi uchun ularni ortiqcha sotib olishning zaruriyati yo'q. Shuning uchun xo'jaliklar kerak bo'lgan miqdordagi mineral o'g'itlarni sotib olishmoqdalar. So'ngi yillarda qishloq xo'jalik korxonalarini mineral o'g'itlar bilan birgalikda mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanishga katta e'tibor bermoqdalar. Hozirgi davrda bir gektar bug'doy va g'ozga ekilgan maydonga har ikki yilda bir marta 20-30tonnadandan mahalliy o'g'it sotishga harakat qilmoqdalar, lekin unga to'liq erishayotganlari yo'q. chunki har yili tayyorlangan mahalliy o'g'itlarning miqdori kam. Bu masalani ijobiy hal etish uchun chorva hayvonlarining zotlarini yaxshilagan holda ularning bosh sonlarini ham ko'paytirishga erishish lozim. Shuning bilan birgalikda qishloq xo'jalik sub'ektlari ularning har bir kilogrammidan vaqtida hamda sifatli foydalanishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Natijada Respublikada donli ekinlarning har bir gektariga solingan mineral o'g'itning har bir kilogrammi evaziga 45 kilogrammdan ortiqroq don mahsulotlarini yetishtirishga erishganlar. Lekin barcha viloyatlarda ham bunday yuz berayotgani yo'q. Shuning uchun kelajakda mineral o'g'itlardan foydalanishni samaradorligini yuksaltirishga alohida e'tibor berish lozim.

Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jalik korxonalarining mashina, traktor, mexanizmlarga bo'lgan talablari ham to'liq qondirilgani yo'q. Bu muammoni hal etish uchun mashina, traktor va mexanizmlarni qishloq xo'jalik korxonalarining talabini qondiradigan darajada sotib olish zarur. Buning uchun ularni qaysi manbalar

hisobidan, qayerlardan, qanday yo'llar bilan, qanday tartibda olish mumkinligini ham bilish kerak. Qishloq xo'jaligi korxonalarini o'z mablag'lari hamda chetdan jalb etilgan sarmoyalar hisobidan moddiy-texnika resurslarining ayrimlarini qurishlari, ta'mirlashlari, ba'zilarini sotib olishlari, ijaraga olishlari, ayrimlarini esa parvarish qilib, barpo etishlari mumkin. O'tish davrining hozirgi bosqichida korxonalar mablag'larining kamligi, ularning bir me'yorda shakllanmayotganligi hamda sanoatda yaratilayotgan moddiy-texnika resurslari baholarining yuqori sur'atlar bilan o'sishi tarmoqdagi moddiy-texnika resurslarini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada qishloq xo'jaligida qo'l mehnati xarajatlari oshib bormoqda. Bu masalalarni ijobiy hal qilish qishloq xo'jaligida lizing krediti rivojlantirilishi, bu esa qishloqda lizing bilan shug'ullanuvchi firma, kompaniyalar soni ko'paytirilishini, ularning faoliyatlari rivojlantirilishini talab etadi. Lizing bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'z mablag'lariga qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun zarur bo'lgan texnikalarni, bino-inshootlarni hamda boshqa asosiy vositalarni ijaraga beruvchilardan olib berishlari mumkin. Bunday xizmatlari uchun ular qishloq xo'jaligi korxonalaridan lizing foizlarini oladilar.

Lizing tashkilotlari lizing krediti foizlarini to'lash muddatlarini kechiktirishi hamda cho'zishi mumkin. Lizing kreditlarini, xizmatlarini amalga oshirishda uch tomon – asosiy vositalarni ijaraga beruvchi korxonalar, lizing tashkilotlari hamda ijaraga oluvchi qishloq xo'jalik korxonalarini qatnashadilar. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini shakllantirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy mexanizmlar, masalan, davlat, mahalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag'lar, imtiyozli kreditlash tizimini va boshqalarning ko'lamini kelajakda kengaytirish talab etiladi.

Mamlakat qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tarkibida chorva hayvonlarining ham salmog'i ulkan. Ularning turlari, bosh soni qishloq xo'jalik korxonalarining joylashishi hamda ixtisoslashidan kelib chiqqan holda farq qiladi. Ma'lumki, qishloq xo'jalik korxonalarini asosan paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashganligi uchun ayrimlari shaharlarga yaqin joylashgan. Shunday xo'jaliklarda asosan qoramolchilik mavjud. boshqa turdagi chorva hayvonlari esa xo'jaliklarda ichki talabni qondirish maqsadida saqlanadi. 2009-yilning boshiga qishloq xo'jalik hamda fermer xo'jaliklari ihtiyorida 577.1ming bosh qoramol bo'lgan. Bu respublikada mavjud bo'lgan qoramollar bosh sonining 7.2foizini tashkil etgan, qo'y va echkilar soni esa 3089.7ming bosh bo'lgan holda jami qo'y va echkilarning 22.8foizini tashkil etgan. Qishloq xo'jalik korxonalarini ihtiyoridagi 577.1bosh qora mollarning 96.3ming boshi yoki 16.7foizi qishloq xo'jalik korxonalarini (shirkat, agrofirma) zimmasiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jalik (shirkat, agrofirma, fermer) korxonalarini ihtiyoridagi qora mol bosh soni 2005-2008-yillarda biroz kamaygan. (6.4.5-jadval)

6.4.5-jadval.

Respublika viloyatlari qishloq xo'jalik korxonalarida qoramol bosh sonining o'zgarishi*

Viloyatlar	Qishloq xo'jalik korxonalarida (ming bosh)				
	1996	1998	2000	2005	2008
Qoraqalpog'iston R.	109,6	96,4	92	82.7	68.7

Andijon	95,1	80,2	70	53.3	40.1
Buxoro	76,4	56,5	45	32.6	38.7
Jizzax	51,8	28,5	23	15.0	17.7
Qashqadaryo	124	100,7	91	54.5	51.7
Navoiy	27	21,3	20	22.3	27.1
Namangan	84,9	62,9	55	28.1	25.1
Samarqand	95,2	71,1	60	46.9	55.1
Surxondaryo	77,2	61,4	55	47.8	56.7
Toshkent	106,6	81,4	82	75.1	67.3
Farg`ona	109,6	74,9	65	40.7	43.7
Xorazm	97,1	90,1	68	34.8	58.5
Jami	1095,6	845,7	743	510.1	577.1

*Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlarning dalolat berishicha, 1996-2008-yillarda Respublika qishloq xo'jalik sub'ektlaridagi qoramol bosh sonlari keskin qisqargan.

Agarda 1996 yilda qoramol 1095,6 ming boshni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda-22,8 foizga 1999 yilda-27,5 foizga, 2000 yilga kelib, 32,2 foizga, 2005 yilda esa 31.3 martaga kamaygan. Lekin 2008-yilda 2005-yilga nisbatan 13.1foizga kamaygan. Umuman olganda tarmoqdagi qora mol bosh soni kamaygan. Bu hol quyidagi sabablar ta'sirida sodir bo'ldi: chorvachilikda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida ayrim kamchiliklarning mavjudligi. Chunki Vazirlar Mahkamasining 1993 yilda e'lon qilingan «Chorva fermalarini xususiylashtirish to'g'risida» gi qaroriga binoan chorvachilik fermalarini xususiylashtirish tez sur'atlarda boshlandi. Uning samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berish ham yo'lga qo'yildi.

Lekin bu islohot ko'zlagan samarani bermadi. Chunki chorva xo'jaliklardagi mollarni xususiylashtirishda ularni em-xashak bilan ta'minlaydigan yer maydonlari ijaraga berilmadi. Natijada chorvachilikning em-xashak bazasi mustahkamlanmadi. Shu bilan birga xususiylashtirilayotgan chorva hayvonlarining bosh sonini saqlash masalasi ham to'liq xal etilmagan edi. Ozuqa bazasi talab darajasida bo'lmaganligi sababli chorva hayvonlarini xususiylashtirib olganlar zotli hayvonlarni sota boshlashdi. Bunday holni bartaraf etish maqsadida hozirgi davrda chorvachilikda iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirilmoqda. 2006 yildan boshlab Respublikada chorvachilikni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratish bilan birgalikda ulardan to'liq va samarali foydalanishga erishish lozim. Demak, tarmoq korxonalarida ulardan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun yuqorida 3 paragrafda ta'kidlangan ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Lekin o'tish davrining hozirgi bosqichida ulardan foydalanish talab darajasida emas. Chunki mashina, traktor, kombaynlarning ishga yaroqlilik holati yuqori darajada emas. Jami traktorlarning ishga yaroqlilik darajasi 1996-2009 yillar mobaynida 68-71 foizdan, paxta terish mashinalarining tayyorgarlik holati esa 25-36 foizdan, g'alla kombaynlariniki 60-73 foizdan oshgani yo'q. Bunday holat mashina, traktor hamda kombaynlarning ishga yaroqliligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan

butlovchi vositalar etishmasligi, ularni sotib olish uchun esa moliyaviy resurslar kamligi tufayli sodir bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan texnikalarning yuqoridagi holati ishlab chiqarish jarayonlari kompleks mexanizatsiyalashtirilishiga imkon bermayotir. Natijada paxta terish jarayoni 10 foiz atrofida, sigirlarni sog'ish 25 foiz atrofida mexanizatsiyalashtirilgan. Oqibatda tarmoqda ishlab chiqarilayotgan ko'pchilik mahsulotlarning tannarxi yuqori, mehnat unumdorligi past. Bunday holga chek qo'yish maqsadida respublika hukumati katta ishlarni amalga oshirmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida»gi farmoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Unda shu yillarda qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirish ko'zda tutilgan. Ularni tashkil etilishi hamda rivojlantirilishi darslikning keyingi boblarida batafsil yoritilgan.

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika resurslarinimustahkam barpo etish, ulardan to'liq va samarali foydalanish natijasida tarmoqni rivojlanishi ta'minlandi.

Tayanch iboralar:

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika potentsiali, moddiy-texnika resursi, muqobil MTP, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, Fan-texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, mablag'lar.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, uning samaradorligini yuksaltirishda moddiy-texnika resurslarining, fan-texnika taraqqiyotining hamda ilg'or innovatsion texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Ularsiz qishloq xo'jaligida ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida moddiy-texnika resurslarining yangi, unumli, chidamli, sifatli turlari yaratiladi. Ulardan oqilona foydalanish tufayli yangi, samarali texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etiladi. Ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini tegishli ko'rsatkichlar tizimi yordamda aniqlash lozim.

Tarmoqda moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning hozirgi darajasi, samaradorligi talabga to'liq javob bermaydi. Chunki ular o'rtasidagi mutanosiblikka hozircha erishilgani yo'q. Xo'jaliklarning ular bilan ta'minlanganlik darajasi pastroq, texnika resurslarining ishga yaroqliligi ham talab darajasida emas, bunday vositalarga erkin baholarining o'sish darajasi yuqori.

Ilg'or, samarali innovatsion texnologiyalar qishloq xo'jaligining hamma sohalarida barcha omillarni e'tiborga olgan holda joriy etilishi lozim. Moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan vositalar hamda ilg'or texnologiyalar bozorini rivojlantirish zarur.

Kelajakda tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun barcha chora-tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoqni rivojlantirishda moddiy-texnika resurslarining o'рни va ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarining tarkibi nimalardan iborat, ular o'ziga xos qanday xususiyatlarga ega?
4. Moddiy-texnika taraqqiyoti, yo'nalishlari, samarali texnologiya deganda nimalarni tushunasiz?
5. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ko'rsatkichlari deganda-chi?
6. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi nimalardan tashkil topadio' Uning o'zgarish sabablarini ko'rsating.
7. Tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan to'liq va samarali foydalanish uchun qanday masalalarni hal etish kerak?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002 yil 28 avgustdagi Farmoni, Xalq so'zi, 2002 yil 30 avgust
2. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism, Toshkent, «Sharq», 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Yer Kodeksi». O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari, Toshkent, «Adolat», 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. Toshkent, «Adolat», 1992.
5. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» darslik, T, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
6. Husanov R.X., Hamdamov D. «Muqobil mashina-traktor parklari», T.:2001
7. Dobrunin V.A. Aktualno'e problemo` ekonomiki agropromo`shlennogo kompleksa. M.: izd. TEXA. 2003

Internet saytlari:

1. Popov N.A. Ekonomika otrasley apk. Kurs lektsii, 2002, <http://g`g`family.taukita.rug`item22219310.htm>
2. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, m. «yurkniga». 2004 <http://g`g`shoppyer.h1.rug`books.shtml1o`topicq935&pageq1>
3. Korolev Yu.B. I dr. Menedjment v apk, 2002, uchebnik,
4. <Http://g`g`web.book.rug`cgi-bing`book.p1o`pageq4&bookq88899>

YETTINCHI BOB

QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY VA AYLANMA FONDLARI, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

7.1. Asosiy va aylanma fondlar (vositalar) haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi.

7.2. Asosiy fondlari (vositalar) va ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

7.3. Aylanma fondlar (vositalar), ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

7.4. Asosiy va aylanma vositalarning, fondlarning shakllantirilishi, barpo etilishi.

7.5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy va aylanma fondlar (vositalar) dan samarali foydalanish va ularning yuksalishini ta'minlash yo'llari.

7.1. Asosiy va aylanma fondlar (vositalar) haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi


Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun uning moddiy-tehnika bazasini mustahkam qilib barpo etish lozim. Chunki moddiy-tehnika resurslari yordamida barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ularga qishloq xo'jaligida, haydaladigan yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, bog'zor, uzumzorlar, traktorlar, mashinalar, binolar, inshootlar, barcha turdagi chorva hayvonlari, qishloq xo'jalik texnikalari, mineral hamda mahalliy o'g'itlar, yem-xashaklar, yoqilg'I va yonilg'I materiallari va boshqa vositalar kiradi. Ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda qatnashib, o'zlarining mazmun, mohiyatiga qarab asosiy va aylanma vositalarga ajratiladi. Asosiy vositalar deb qishloq xo'jaligida uzoq yillar davomida xizmat qilib o'z ko'rinishini o'zgartirmasdan, o'z qiymatini asta-sekinlik bilan (eskirishini) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, ish va hizmatlarga yilma-yil o'tkazib beradigan vositalarga aytiladi.

Aylanma vositalar deb tarmoq ishlab chiqarishidagi ish jarayonlarida bir marta qatnashib, o'zining shaklini to'liq o'zgartiradigan hamda o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, ish va hizmatlarga to'liq o'tkazadigan vositalarga aytiladi. Asosiy va aylanma vositalarning qiymat holidagi ko'rinishiga fondlar deyiladi. Ularni iqtisodiy mohiyati, shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish fondlariga bo'linadi. Ularni ayrim hollarda ishlab chiqarish jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadiganlarga ham bo'linadi. Masalan, yer, suv, o'g'it, urug'lik, em-xashak, yer haydaydigan, ishlov beradigan traktorlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda bevosita qatnashadi. Chunki ular mahsulot yetishtirish hajmiga, sifatiga bevosita ta'sir etadi. Xo'jaliklarning ma'muriy, madaniy va boshqa binolari, dala shiyponlari, omborxonalar, xizmat ko'rsatuvchi texnikalar, kompyuterlar va boshqa vositalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga, ularning sifatiga bilvosita ta'sir etadi. Lekin ularning mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi umumiy ahamiyatini inkor etish maqsadga muvofiq emas. Ular iqtisodiy mohiyatiga, ya'ni shakllantirilishi, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, asosiy hamda aylanma fondlarga bo'linadi. Ular

natural holdida ko'rinishi va qatnashishi bo'yicha asosiy va aylanma vositalar ham deb ataladi (7.1.1-chizma).

7.1.1-chizma

Qishloq xo'jalik fondlarini turkumlashtirilishi



Ular ishlab chiqarish jarayonidagi funksional faoliyatiga ko'ra, mehnat predmetlari hamda mehnat vositalariga bo'linadi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida yaratilib, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda inson mehnati yordamida ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o'z shakllarini to'liq o'zgartiradigan predmetlar, vositalar tarmoqning mehnat predmetlarini tashkil etadi. Ularning natura holdagisi aylanma vositalar, qiymat holdagisi esa aylanma fondlar deb ataladi. Ularga sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan yoqilg'i, yog'lovchi materiallar, kimyoviy vositalar, mahalliy o'g'it, yem - xashak ish haqi, arzon, tez to'zuvchi materiallar va boshqalar kiradi. Ular tarmoqning mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida bir marta qatnashib, o'z shakllarini to'liq o'zgartirib, qiymatini ham ularga o'tkazadigan predmetlardir. Tarmoqda band bo'lgan insonlarning ongli mehnati qaratilgan mehnat predmetlari yordamida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, xizmatlarni bajarish maqsadida bir necha yillar davomida foydalaniladigan narsalar, vositalar mehnat vositalari hisoblanadi. Ular tabiat tomonidan hamda sanoat, qishloq xo'jalik tarmoqlarida yaratilgan bo'lib, turli xildagi mahsulotlarni yetishtirishda, xizmatlarni, ishlarni bajarishda bir necha yillar davomida foydalanilib, o'z ko'rinishini, shakllarini o'zgartirmasdan, lekin qiymatining ma'lum bir qismini mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga o'tkazib boradigan vositalardir. Bunday vositalar hozirgi davrda respublikada 15 (Rossiya Federatsiyasida 50) minimal oylikdan yuqori qiymatga ega bo'lgan va 1 yildan ko'proq xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalaridir. Ularga qishloq xo'jalik texnikalari hisoblangan mashina-traktorlar, kombaynlar, seyalkalar, kultivatorlar sug'orish inshootlari, binolar, stanoklar va boshqalar kiradi. Yerlar, tabiiy o'rmonlar – tabiat mahsulidir. Ishchi va mahsuldor chorva hayvonlari, bog'zorlar, tokzorlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun bir necha yillar mobaynida foydalaniladi. Ular qishloq xo'jaligining asosiy vositalarini tashkil etadi. Asosiy vositalar yillar davomida

jismoniy hamda ma'naviy eskiradi. Fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jarayon natijasida yangi, zamonaviy texnikalarning yaratilishi tufayli ular ma'naviy jihatdan ham eskiradi.

Asosiy vositalarning eskirishini ularning amaldagi eskirish me'yorlari (normativlari) yordamida aniqlash mumkin. Ularning eskirish qiymati amortizatsiya summolari, deb ataladi. Asosiy vositalarning eskirish me'yori belgilab beruvchi amortizatsiya me'yori asosida ularning eskirish qiymati (summasi) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A_s = \frac{AB\hat{e}}{An} * 100 \text{ yoki } \frac{AB\hat{e}}{An};$$

Bunda: A_s - asosiy vositaning amortizatsiya summasi (so'm);

AB_k - asosiy vositaning balans qiymati (so'm);

A_n - asosiy vositaning eskirish me'yori (koeffitsientda, foizda, yilda).

Asosiy vositalarning amortizatsiya summolari yordamida ularning xizmat qilish muddatlarini ham aniqlash mumkin. Buning uchun asosiy vositaning boshlang'ich, balans qiymatini uning eskirish summasiga taqsimlash lozim.

Asosiy vositalarning eskirish me'yori (normativi) berilmaganda asosiy vositaning balans qiymatini uning xizmat muddatiga taqsimlash natijasida eskirish me'yori aniqlanadi. Xo'jalikda bir necha yillar davomida ishlatilgan vositalar kapital ta'mirlangan bo'lsa, ular balans qiymatiga qo'shiladi.

Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jarayon natijasida yaratilgan yangi, syerunum texnika vositalarini sotib olishga intiladi. Xo'jalikda uzoq yillar davomida ishlatilayotgan, ma'naviy jihatdan eskirgan vositalar esa ishlab chiqarishdan chiqariladi. Bunda asosiy vositalarning eskirish summasini aniqlashda tezkor amortizatsiya usulidan ham foydalaniladi. Uni aniqlashning belgilangan me'yori yo'q. Shuning uchun xo'jaliklar eskirish summasini o'z imkoniyatlarini, fan-texnika taraqqiyoti ta'sirini e'tiborga olgan holda hisoblaydilar. Agarda ishlatilayotgan mashinalar, traktorlar, kombaynlar ma'naviy jihatdan eskirgan bo'lsa, ularni normativ bo'yicha emas, qisqaroq davrda eskirishini hisoblab, ishlab chiqarishdan chiqarish mumkin. Lekin bu jarayon ular yordamida yyetishtiriladigan mahsulotlarning tannarxlariga bevosita ta'sir etadi. Chunki bunda mahsulot tannarxiga olib boriladigan amortizatsiya summasi ko'payadi. Shuning uchun bu usulni qo'llashdan avval ularning o'rindoshligini hamda sarf-xarajatlarini, daromadlarini va boshqa jihatlarini e'tiborga olish lozim.

Eskirish qiymatlari yyetishtiriladigan mahsulotlarga, xizmatlarga me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Asosiy va aylanma vositalar mahsulot ishlab chiqarib, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ularsiz talabni qondiradigan miqdorda sifatli mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. Masalan, yersiz, suvsiz, urug'siz turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyati nihoyatda cheklangan. Mashina, traktor, kombaynlar va mexanizmlarsiz mehnat va mablag` sarfi tejalishi ham cheklangan. Demak, ulardan oqilona foydalanish natijasida mehnat va mablag` xarajatlari tejaladi.

Demak, asosiy va aylanma vositalardan oqilona va samarali foydalanish tufayli qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti rivojlanadi. Natijada aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

yaxshilanadi. Shuning uchun bunday vositalarni yaratishga, qurishga, ta'mirlashga, ulardan yaxshi foydalanishga hukumatimiz alohida e'tibor berib kelmoqda.

7.2. Asosiy fondlari (vositalar) va ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish fondlari (vositalari)ning katta qismini asosiy fondlar tashkil etadi. Ularga qishloq xo'jaligida qatnashadigan barcha mehnat vositalari kiradi. Ular qishloq xo'jalik korxonalarining doimiy kapitalini tashkil etadi. Funktsional vazifasiga qarab, asosiy fondlar (vositalar) ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalariga bo'linadi. (7.2.1-chizma).

Ishlab chiqarish vositalariga bevosita moddiy ishlab chiqarish sohasida qatnashadigan fondlar (vositalar), noishlab chiqarish vositalariga esa, xo'jalikning klublari, madaniyat saroylari, maktablar, sog'likni saqlash idoralari, yasli, hammom, ombor va hokazolar kiradi. Ular mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishda katta rol o'ynaydi.

Asosiy fondlarning alohida turlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bir xilda ishtirok etishmaydi. Ulardan ba'zilari asosiy ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan va chorvachilik, o'simlikchilik mahsulotlarini ko'paytirishda asosiy omil hisoblanadi. Ularga traktorlar, kombaynlar, yuk mashinalari, qishloq xo'jaligi mashinalari, texnikalari va hokazolar kiradi. Boshqa asosiy fondlar qurilish, savdo va qishloq xo'jalik korxonalaridagi umumiy ovqatlanishga va boshqalarga yo'naltirilgan. Shuning uchun asosiy fondlar (vositalar) qishloq xo'jaligida bevosita qatnashuvchi va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishida bevosita qatnashmaydiganlarga bo'linadi.

Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarishda asosiy rol qishloq xo'jaligida qatnashuvchi fondlarga tegishlidir, chunki ular asosiy ishlab chiqarish fondining 80 foizini tashkil qiladi. Bu fondlarga quyidagilar kiradi:

- yer resurslari, ayniqsa qishloq xo'jalik yerlari;
- ishlab chiqarish sohasidagi binolar;
- inshootlar;
- mashina va texnikalar;
- transport vositalari;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari;
- sut beruvchi qoramollar;
- go'sht beruvchi qoramollar;
- ko'p yillik ekinlar;
- yerni yaxshilash uchun qilingan sarflar (inshootlardan tashqari).
- asboblardan va hokazolar.

Qishloq xo'jaligining asosiy vositalari, fondlari tarmoqda qatnashish xususiyati bo'yicha o'simlikchilik, chorvachilik va umumiy fondlarga bo'linadi. Ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanishida esa asosiy fondlar xususiy, ijaraga olingan va ijaraga berilgan, jamoa fondlardan tashkil topadi.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligida tor doirada faoliyat ko'rsatadigan asosiy fondlar borki, ulardan faqatgina bir mahsulotni ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Masalan, don kombaynlari, paxta teruvchi mashinalar, sigir sog`uvchi apparatlar va hokazo.

Asosiy vositalar, fondlar ishlab chiqarishning so`ngi natijalariga bir xilda ta'sir etmaydilar. Shuning uchun ular aktiv va passiv fondlarga ajratiladi. Aktiv fondlarga ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan traktorlar, kombaynlar, avtomobillar, qishloq xo'jaligi texnikalari, transport vositalari, mahsulotlarni realizatsiya qilishda ishtirok etadigan vositalar va boshqalar kiradi. Passiv fondlarga esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bevosita qatnashmaydigan binolar, inshootlar, melioratsiya ob'ektlari kiradi. Barcha asosiy vositalardan to'liq va samarali foydalanishga harakat qilish kerak. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligining asosiy vositalari (fondlar) ishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra quyidagicha turkumlantiriladi.(7.2.1-chizma). Ulardan qishloq xo'jaligida doimo to'liq va samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Asosiy fondlar (vositalar)dan foydalanish darajasi hamda samaradorligini aniqlashda bir qancha ko'rsatkichlardan, jumladan, asosiy vositalardan foydalanish darajasini isbotlovchi natural ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Chunonchi, bitta mashinaning bir yil mobaynida bajargan ishi, bitta kombaynning bir yilda ishlagan kuni, hosilini yiqqan maydoni hamda yig'ishtirgan hosili. Ularni quyidagi formulalardan foydalangan holda aniqlash mumkin:

$$XM = \frac{II}{OI}; \quad XT = \frac{OI}{OD}; \quad XK = \frac{EI}{OE}.$$

Bunda: XM, XT, XK - ishlagan mashinalarning, traktorlarning, kombaynlarning o'rtacha soni (dona);

MI, TI, Ki - mashinalar, traktorlar, kombaynlar bilan jami bajarilgan ish hajmi (tn.km; et; ga, tonna).

Bu ko'rsatkichlar yordamida har bir turdagi tehnikalarning o'rtacha bir donasi qancha ish bajarganligini ya'ni ularning har birini unumdorligini aniqlash mumkin bu ko'rsatkichlar darajasi meyoridagidan yuqori bo'lgani ma'qul. Asosiy fondlardan foydalanish darajasi xo'jalik, uning ishchi va xizmatchilari fondlar bilan ta'minlanganligiga hamda mehnatning qurollanganligiga bog'liq. Shunday ekan, xo'jalikda bu ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagi tartibda aniqlanadi: jumladan, xo'jalikning asosiy fondlar bilan ta'minlanganligini aniqlash uchun undagi asosiy fondlarning o'rtacha yillik summasini unda foydalanilgan yer maydoniga taqsimlash lozim.

Bu quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Aft = \frac{\bar{X} \Delta F e}{F a}$$

Bunda: Aft – asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi (so'm/ga);

$\bar{X} \Delta F e$ – asosiy fondlarning yillik o'rtacha sumasi (so`mda);

Fe – foydalanilayotgan yer maydoni (ga).

Mehnatning asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi esa, asosiy fondlarning yillik o'rtacha summasi, shuningdek, ularning quvvati ishlagan ishchi-xizmatchilar (mehnat resurslari) ning o'rtacha yillik soniga taqsimlanadi. Ularni ushbu formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$M_T = \frac{\bar{X} \dot{A} F \hat{e}}{\bar{X} \dot{I} \mathcal{D}}; \quad M_T = \frac{\bar{X} \dot{A} F \hat{e} \acute{o}}{\bar{X} \dot{I} \mathcal{D}}.$$

Bunda: M_t – mehnatning (1 kishiga) asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi (so'm/kishi);

$\bar{X} \dot{A} F_k$ – asosiy vositalarning o'rtacha yillik quvvati (ot kuchida);

$\bar{X} \dot{M}_p$ – mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko'rsatkichlar xo'jaliklarning ixtisoslashishiga, mashina-texnikalar bilan ta'minlanganligiga ko'ra, farq qilishi mumkin. Ayniqsa, oxirgi formula yordamida aniqlangan ko'rsatkich ishlab chiqarish mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini ta'minlab, jonli mehnat xarajatlarini tejab, mehnat unumdorligi yuksalishiga olib keladi.

Asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorligi esa bir qancha ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar natura va qiymat holda ishtirok etadilar.


Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining qiymat ko'rsatkichlari: fond qaytimi va fond sig'imidir. Fond qaytimini qishloq xo'jaligida ishlatilgan asosiy fondlarning o'rtacha yillik summasiga qishloq xo'jaligida bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qaytimini taqsimlash natijasida aniqlash mumkin.

$$A F_k = \frac{Y a \dot{e}}{\bar{X} \dot{A} F \hat{e}}$$

Bunda: $A f_k$ - fond qaytimi (so'm);

$Y a M_k$ - yalpi mahsulot qiymati (so'm);

$\bar{X} \dot{A} F_k$ - asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati (so'm).



7.2.1-chizma. Qishloq xo'jaligi asosiy fondlari (vositalari) ning

turkumlashtirilishi

Fondlar qaytimini bir so'mlik asosiy fond evaziga ma'lum muddatda olingan yalpi daromad va sof foyda ko'rsatkichlari yordamida ham aniqlash mumkin. Ular yalpi daromad, sof foyda summasini asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymatiga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$YaDFk = \frac{\sum YaD}{\sum \dot{A}F\dot{e}} : \frac{\sum SF}{\sum \dot{A}F\dot{e}}$$

Bunda: YaDFk-yalpi daromad bo'yicha fond qaytimi (so'm);

$\sum YaD$ - yillik yalpi daromad summasi (so'm);

SFFk – sof foyda bo'yicha fond qaytimi (so'm);

$\sum SF$ - yillik sof foyda summasi (so'm).

Bu ko'rsatkichlar yordamida 1 so'mlik asosiy fondlar evaziga necha so'mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad va sof foyda olinganligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar miqdori yuqori bo'lgani yaxshi.

Fondlar sig'imi. Uni aniqlash uchun asosiy fondlarning yillik o'rtacha summasini yyetishtirilgan yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlash zarur. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$Fs = \frac{XAFk}{YaMk}$$

Bunda: Fs-fond sig'imi (so'm).

Fond sig'imi esa, bir so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish uchun qancha asosiy fond qiymati to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish fondlarining (asosiy va aylanma) iqtisodiy samaradorligi rentabellik ko'rsatkichi bilan ham xarakterlanadi. Iqtisodiyotda bu ko'rsatkichni foyda normasi (me'yori) deyiladi. U quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Fn = \frac{Fs}{\dot{A}F\dot{e} + \dot{A}F\dot{e}} * 100\%$$

Bu yerda: Fn-foyda normasi, foiz;

Fs- foyda summasi, so'mda.

Foyda normasi bir birlik ishlab chiqarish fondlari qiymatiga qancha foyda olinganligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichning darajasi yuqoriga intilishi maqsadga muvofiqdir.

7.3. Aylanma fondlar (vositalar), ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

Qishloq xo'jaligi vosita va fondlarining muhim qismini aylanma fondlar tashkil etadi. Aylanma fondlar ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonining to'xtamay amalga oshishini ta'minlab turadi. Ularning natura holidayi ko'rinishi aylanma vositalar deyilsa, pul (qiymat) shaklidagi ko'rinishi aylanma fondlar, mablag'lar, deb ataladi.

Aylanma fondlarga (vositalarga) ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan, qatnashadigan mehnat vositalari va moddiy ne'matlarning ayrimlari kiradi. Aylanma vositalar, mablag'lar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, bir

shakldan ikkinchi shaklga aylanib turadi. Masalan, bug`doy urug`i ekilib, niholi unib chiqishi. So`ng u yana g`allaga aylanadi. Bu jarayon falsafa qonuniga ko`ra, inkorni-inkor etish, deb ataladi. Aylanma fondlar asosiy fondlardan farqli o`laroq, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o`z moddiy qiymatini va shaklini to`liq o`zgartiradi. Misol: ekilgan urug` o`simlikka, mineral o`g`itlar esa oziqa moddalarga aylanadi, yonilg`idan foydalanish natijasida mashina-traktorlar ish bajaradi, chorva hayvonlariga yem berilsa, ulardan go`sht sut yetishtiriladi va hokazolar.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy bo`lganligi uchun, aylanma fondlarning sarflanishi, tarkibi yil davomida o`zgarib turadi. Masalan, qishda aylanma fondlarning ko`p qismi urug` va oзуqada, yozda esa fondlarning aksariyat qismi neft mahsulotlari, mashina ehtiyot qismlari, tugallanmagan ishlab chiqarish bilan band bo`ladi.

Qishloq xo`jaligi korxonalarining aylanma vositalariga, fondlariga quyidagilar kiradi:

- xomashyo materiallar;
- o`g`itlar va boshqa kimyoviy vositalar;
- yoqilg`i, yog`lovchi moddalar;
- idish va idish materiallari;
- urug` va urug`lik materiallari;
- qurilish materiallari;
- ehtiyot qismlari;
- oзуqalar, em-xashaklar;
- boquvdagi hayvonlar;
- arzon baholi va tez eskiruvchi predmetlar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari:
 - a) o`simchilikda;
 - b) chorvachilikda;
 - v) sanoat va yordamchi ishlab chiqarishda;
- realizatsiyaga tayyor mahsulot;
- xaridorlar bilan hisob-kitob qilishdagi mablag`lar;
- material va xomashyolarni sotib olish uchun pul mablag`lari;
- hisob raqamidagi, g`aznadagi mablag`lar va boshqalar.

Ularning ishlab chiqarish jarayonida bajarayotgan vazifalarini e`tiborga olgan holda quyidagicha guruhlashtirish – ishlab chiqarish zahiralariga, tugallanmagan ishlab chiqarish hamda muomaladagi vosita va mablag`larga bo`lish mumkin (7.3.1-chizma).

Aylanma fondlarining aylanishi o`zida uch bosqichni mujassamlashtiradi: ta`minot, ishlab chiqarish va realizatsiya (sotish).

Aylanma fondlar (vositalar) qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo`jalik faoliyatining so`ngi natijalariga bir xil ta`sir etmaydi. Ta`sir etish darajasiga qarab aylanma fondlar:

-qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotining hajmini ko`payishiga to`g`ridan-to`g`ri ta`sir qiluvchi;

-ishlab chiqarish jarayoniga va samaradorligiga bilvosita ta'sir qiluvchi fondlarga vosita va bo'linadi.

Birinchi guruhga urug'lik, ko'chatlar, ozuqa, o'g'itlar, ximikatlar, boquvdagi hayvonlar kabilar, ikkinchi guruhga yoqilg'i materiallari, mashina ehtiyot qismlari va boshqalar kiradi.

Aylanma fondlarning tarkibi korxonaning ixtisosiga qarab o'zgarib turadi. Masalan, don mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalarda aylanma fondlarning asosiy tarkibini yoqilg'i, urug'lik, ehtiyot qismlar, texnikalar band etgan bo'lsa, chorvachilik korxonalarida bu tarkibni asosan ozuqa, boquvdagi hayvonlar band etadi. Mavjud bo'lgan aylanma vositalardan (fondlardan) to'g'ri, ya'ni maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish zarur.

Aylanma fondlar (vositalar)dan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

Aylanma fondlarning aylanish koeffitsienti. Uni aniqlash uchun sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, ko'rsatilgan xizmatlarning, bajarilgan ishlarining umumiy qiymatiga asosiy podaga o'tkazilgan yosh hayvonlarning qiymatini qo'shib, undan asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan mablag'ni ayirgandan so'ng qolgan qiymatni aylanma fondlarning yillik o'rtacha qoldiq summasiga taqsimlash lozim. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K = \frac{S\hat{e} + \hat{A}\hat{\sigma}_k - \hat{O}s}{\bar{X}\hat{A}F\hat{e}\hat{e}}$$

Bunda:

K - aylanma fondlarning aylanish koeffitsienti;


Sk - sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, bajarilgan ishlar, xizmatlarning qiymati (so'm);

Ex_k - asosiy podaga o'tkazilgan yosh hayvonlarning qiymati (so'm);

Xs - asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan tushum (so'm):

$\bar{X}\hat{A}F\hat{e}\hat{e}$ - aylanma fondlarning yillik o'rtacha qoldiq qiymati (so'm).

Bu ko'rsatkich xo'jaliklardagi aylanma fondlarning bir yil davomida aylanish tezligini ko'rsatadi. Uning miqdori imkoniyat doirasida birdan yuqori bo'lgani ma'qul. Shu ko'rsatkichga asoslangan holda aylanma fondlarning aylanish muddati ham aniqlanadi.



Uni yuqoridagi ko'rsatkichdan foydalanib, yil davri (vositalar) aylanishining o'rtacha davrini topamiz. Buning uchun bir yildagi kalendar kunlari umumiy sonini (365 yoki 366) aylanish koeffitsientiga taqsimlab, quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Ad = \frac{365}{K};$$

Bunda-Ad-aylanma fondlarning aylanish muddati, kun.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari qishloq xo'jalik korxonalarida aylanma vositalarning ayrimlaridan foydalanilganlik darajasini ham aniqlash mumkin. Jumladan, mineral o'g'itlardan, em-xashak va ozuqa moddalardan, yoqilg'ildan va boshqalardan. Ularni natura yoki qiymat holda aniqlash imkoniyati mavjud. Bunda mineral o'g'itlardan foydalanishning samaradorlik darajasini quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$MO's = \frac{YaXm(YaXk)}{MU_m(k)}$$

Bunda, MO' – sarflangan mineral o'g'itlarning sof holdagi miqdori samaradorligi; (1kg. yoki 1 so'milk o'g'it evaziga)

YaXm – olingan yalpi hosil miqdori (ekinlar bo'yicha), tonna;

YaXk – olingan yalpi hosil qiymati, so'm.

MUm (k) – sarflangan mineral o'g'itlar miqdori, qiymati, kg/so'm.

Bu ko'rsatkich yordamida sarflangan sof holdagi bir kilogramm (tsent) o'g'it miqdori qancha yalpi hosil yoki qancha miqdorda mahsulot olinganligini aniqlash mumkin. Uning miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligi shunchalik yuksalayotganligidan dalolat beradi.

Chorvachilikda esa sarflangan oziqa birligining samaradorlik darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$S_{os} = \frac{Ch\hat{i} (Ch\hat{e})}{S\hat{i}}$$

Bunda:

Sos – mahsulot yetishtirish uchun sarflangan ozuqa miqdorining samaradorlik darajasi;

ChMm – etishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining (go'sht, sut) miqdori, sen (kg);

ChMk – yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining (go'sht, sut) qiymati, so'm;

SOm – chorva mahsulotlarini yetishtirishga sarflangan ozuqa birligi.

Albatta, aylanma fondlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda fond qaytimi va fond sig'imi ko'rsatkichlaridan ham foydalanish mumkin.

7.4. Asosiy va aylanma vositalarning, fondlarning shakllantirilishi, barpo etilishi

Qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan asosiy va aylanma vositalar bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida turlicha yo'llar bilan shakllantirilib, barpo etilmoqda. Qishloq xo'jaligidagi korxonalar ayrim asosiy vositalarni (bino, inshootlarni) o'zlari qurmoqdalar, qishloq xo'jalik texnikalarini ta'mirlamoqdalar, chorva hayvonlarini parvarish qilib, yetishtirmoqdalar. Masalan, bog'zorlar, tokzorlarni barpo etmoqdalar. Ayrimlarini, ya'ni texnikalarni sotib olmoqdalar, ba'zi birlarini ijaraga olmoqdalar. Bunda o'z mablag'laridan hamda chetdan jalb etilgan mablag'lardan, asosiy vositalarni barpo etishda sof daromadlaridan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi, asosiy vositalarni sotishdan, tugatishdan tushayotgan mablag'lardan

foydalanmoqdalar. Ular etmagan hollarda aktsiyalar chiqarib, sotish natijasida ham mablag'larni barpo etish mumkin. Lekin bu munosabat qishloq xo'jaligi korxonalarida ayrim sabablarga ko'ra rivojlanayotgani yo'q.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida davlat mablag'lar bilan yordam bermoqda. Dastavval davlat byudjetidan qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish, foydalanilayotgan zax va sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlash ishlari hamda ekologiyani sog'lomlashtirish uchun mablag' ajratiladi. Buning uchun Respublika Moliya Vazirligi qoshida davlat buyurtmalari bo'yicha belgilangan miqdordagi mahsulotlarni sotib olish uchun maxsus fond tashkil etilgan. Shu fondan qishloq xo'jaligiga mablag'lar transh shaklida berilmoqda. Uning asosiy qismi yilning boshida xo'jaliklarga ajratilmoqda. Xo'jaliklar bu mablag'larning 93 foizidan ko'proq qismini o'g'itlar, yoqilg'i, yonilg'i, yog'lovchi materiallar hamda ehtiyot qismlar sotib olganliklari uchun maqsadga muvofiq sarflaydilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy va aylanma vositalarni ta'sisчилarning, homiylarning mablag'laridan foydalangan holda ham qurish, sotib olish mumkin. Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalari yerlarning unumdorligini oshirish maqsadida sug'orish, kollektor-drenaj tizimlarini hamda xo'jalik uchun zarur bo'lgan bino va inshootlarni qurishda, kapital ta'mirlashda ixtisoslashgan qurilish tashkilotlari xizmatlaridan ham foydalanmoqdalar.

Bu kabi ishlarni bajarishga xo'jaliklarning o'z mablag'lari etishmagan hollarda ular o'zgalarning vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'laridan kreditlar shaklida hamda lizing kreditlaridan ham foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan «Agromashlizing» kompaniyasining xizmatlaridan foydalanish mumkin. Chetdan jalb etilayotgan mablag'larga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, tijorat banklaridan, hamkorlardan, chet ellardan olinayotgan uzoq, qisqa muddatli qarzlar kiradi. Ular hisobidan asosiy va aylanma vositalar barpo etilmoqda. Asosiy va aylanma vositalar barpo etishning bir qancha yo'llari mavjud. Eng avvalo, qishloq xo'jalik korxonalari o'z ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqaruvchilarning o'zidan olgani ma'qul. Bunday munosabatda o'rtada vositachilar bo'lmasligi sababli tegishli vositalar arzonroqqa tushadi. Shuning uchun xo'jaliklar bu aloqaning doimiylikini ta'minlashga harakat qilishlari kerak.

Lekin hozirgi davrda qishloq xo'jaligi korxonalari aksariyat asosiy va aylanma vositalarni xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning tashkilotlaridan, bazalardan (yoqilg'i, kimyoviy vositalar), birjalardan, auktsionlardan hamda ko'rgazmalardan sotib olmoqdalar. Ulardan sotib olinayotgan ishlab chiqarish vositalarining bahosi vositachilik ustamasi evaziga ancha yuqori bo'lganligi sababli ko'plab mablag'lar ortiqcha sarflanmoqda.

Kelajakda qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish vositalarini barpo etish manbalari hamda shakllantirish yo'llarini rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni rivojlantirishga erishishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda ular hamkorlar bilan imkoniyat doirasida uzoqroq muddatga shartnomalar tuzishga intilishlari, shartnomalarning sifatli tuzilishini, to'liq bajarilishini ta'minlab, o'zaro ishonch muhitini yaratishlari kerak.

Shu bilan birga ichki va tashqi investitsiyalarni olib kirishga va ularning ko'lamini kengaytirishga katta e'tibor berish lozim. Buning uchun katta, kichik

hajmdagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Shu yo'llar bilan tarmoq va xo'jalik rahbarlari asosiy va aylanma vositalarga bo'lgan talabini qondirishga erishishlari mumkin.

7.5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy va aylanma fondlar (vositalar) dan samarali foydalanish va bu fondlarning yuksalishini ta'minlash yo'llari

Qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti shakllantirilayotgan yillarda tarmoqda mavjud bo'lgan asosiy vositalar hamda foydalanilayotgan aylanma vositalarning miqdori kamayganligi, tarmoq shu vositalar bilan etarli darajada ta'minlanmaganligi bizga oldingi bobdan ma'lum. Lekin, eslatib o'tish kerakki, shunday vaziyatda tarmoqdagi mavjud asosiy va aylanma vositalarning qiymati yildan-yilga oshib borayotganligini alohida ta'kidlash zarur. Bunday hol tarmoq fondlarining qymatini oshishiga ta'sir etmoqda. Masalan, tarmoqning asosiy fondlari 1997 yildagi o'rtacha qiymati 176 mlrd. so'mlikni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda, bizning hisobimizga ko'ra 1249.8 mlrd. so'mga yetgan. Shu yillar mobaynida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashgan aylanma vositalar qiymati 64marta ortib, 2008 yilda 787 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan sotib olinayotgan asosiy va aylanma vositalarning erkin baholari tez sur'atlarda oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Masalan, 1995 yilda 1 dona «TTZ-8011» markali traktorning bahosi 487 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2008 yilga kelib, 51,7 martaga oshib, 25164 mln. so'mni tashkil etgan (7.5.1-jadval).

Ayrim qishloq xo'jalik texnikalarining baholari juda yuqori sur'atlarda oshgan. Masalan, 2 yarusli yer haydaydigan plugning erkin bahosi 2008 yilda 1995 yildagiga nisbatan salkam 56,6 martaga, 2000 yildagiga nisbatan esa 8,1 martaga ko'tarilgan.

1995-2008-yillarda A-76 markali benzinning harid narhi 2008-yilda 1995-yildagiga nisbatan 59.3marta, 2000-yilga nisbatan 7.4marta, 2005-yildagiga nisbatan 2.5marta oshgan.

Tarmoq xo'jaliklari uchun muhim hisoblangan superfosfat rusumli mineral o'g'itning 1tonnasini sotish narhi 2008-yilda 1995-yildagiga nisbatan 48.4marta, 2000-yildagiga nisbatan 5.6marta, va 2005-yildagiga nisbatan 71.3foizga oshgan.

Qishloq xo'jaligi korxonalari sotib olayotgan ayrim asosiy va aylanma vositalari erkin baholarining o'zgarishi*

Ko'rsatki chlar	Yillar				2008 yil		
	995	000	005	008	95 y.ga nisbatan marta	00 y.ga nisbatan foizda	2005 y.ga nisbatan foizda
	Ming so'mda						
Benzin, A-76. lt.	5,6	25,6	68.3	25.0	3	4	251.2
Amofos, lt.	,4	5,3	78.0	54.0	4	2	163.0
Superfos fat, lt.	,7	3,5	6.3	30.7	4	6	171.3
«TTZ-80»11, 1 dona	87,0	500,0	7902.1	5164.0	7	0	140.4

*Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan asosiy va aylanma vositalarni sanoatdagi nodavlat mulkchiligidagi mustaqil hissadorlik jamiyatlari ishlab chiqarib sotmoqdalar. Bu jarayonda sanoat korhonalari yakkahokimlik mavqeiga egadirlar. Bunday imkoniyatga ega bo'lgan subyektlarning biri "O'zkimyosanoat" kompaniyasidir. U ma'lum darajada monopol huquqqa ega bo'lganligi munosabati bilan sotish narhlarini yuqori o'rnatish imkoniyatiga ega.

Ayrim sanoat korhonalari o'zlarining mahsulotlariga talabni yuqoriligini hamda, shu mahsulotlarning sotish narhlarini ko'proq belgilash imkoniyatini mavjudligini e'tiborga olib ishlab chiqarayotgan mahsulotlar miqdorini kamaytirishga harakat qilmoqdalar. Masalan, traktor zavodida, traktor ishlab chiqarish 2001-2007-yillarda 13.3foizga, pahta terish mashinalarini ishlab chiqarish esa keskin kamayib, 2007-yilda umuman ishlab chiqarilmagan.

Sanoat korhonalari qishloq xo'jaligi uchun zarur hisoblangan asosiy va aylanma vositalarning narhlarini, narhlar o'rtasidagi mutanosiblikka asoslangan holda davlat tamonidan tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy va aylanma vositalarning narhlarini oshishi hamda ularni yangilarini sotib olish natijasida tarmoq xo'jaliklarining fondlar bilan ta'minlanishi oshishiga olib keldi. Shu bilan birga asosiy vositalar tarkibida ham sifat o'zgarishlari yuz berdi. Xo'jaliklar mexanizatorlar uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lgan baquvvat, syerunum traktorlar, kombaynlarni turli yo'llar bilan ola boshladilar. Jumladan, «Magnum» «MTZ-80, «TTZ-80.11» rusumli traktorlarini, «Keys» kombaynlarini va boshqa texnikalarni. Ular qishloq xo'jaligida qo'l mehnati mashina va mexanizmlar yordamida bajarilishini ta'minlamoqda. Lekin hozirgi davrda asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi talab darajasida emas. Mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki yillarida (1991-1997 y.) tarmoqdagi har bir so'mlik foydalanilgan ishlab chiqarish fondlari evaziga foyda olinmagan

bo'lsa, 2000-2008 yillarda juda kam miqdorda bo'lsa ham foyda olinmoqda. Bunday o'zgarish respublika qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan asosiy va aylanma fondlarning iqtisodiy samaradorligi asta-sekin yuksalayotganligidan dalolat beradi.

Kelajakda bu o'sish sur'atini yanada oshirishga erishish lozim. Buning uchun tarmoqda mavjud bo'lgan barcha asosiy va aylanma fondlar (vositalar)dan yil mobaynida to'liq va maqsadga muvofiq samarali foydalanish zarur. Yangi, syerunum texnikalardan, samarali texnologiyalardan oqilona foydalanish natijasida dastavval mehnat hamda mablag` sarflari tejallishini ta'minlab, yetishtiriladigan mahsulotlarning bir birligi tannarxini pasaytirib, ekinlar hosildorligini, chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirish evaziga olinadigan pul daromadlari hamda sof foyda miqdorini ko'paytirishga erishish lozim.

Avvalo, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida band bo'lgan barcha rahbar, mutaxassis va ishchi-xizmatchilarning asosiy va aylanma vositalardan samarali foydalanish jarayonidagi munosabatlari to'g'ri shakllantirilishi, malakalari, ma'suliyatlari oshirilishi taqazo etiladi. Shuningdek, ularda mulkka egalik qilish hissini real shakllantirish va mulkdan samarali foydalanish manfaatdorlik yuksalishini ta'minlashiga amalda ishonch uyg'otish kerak. Bu ularning mehnatlari ongli va maqsadga muvofiq izga tushishiga olib keladi.

- Ayni paytda korxonalar ixtiyoridagi barcha asosiy va aylanma fondlar (vositalar)dan yil davomida, oqilona hamda samarali foydalanishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirish lozim. Shundagina korxonalarning joylashishi, ixtisoslashishi va ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganligiga, ular o'rtasidagi mutanosiblikka alohida e'tibor beriladi. Agarda xo'jaliklar barcha vositalar bilan talab darajasida yaxshi ta'minlanmagan bo'lsa, bu masalani hal etish imkonini beruvchi tadbirlarni, yo'llarni aniqlash zarur. Jumladan, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi masalalar vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlashga doimo e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini me'yoriga yetkazishga, ular o'rtasidagi mutanosiblikni, ya'ni bir dona qishloq xo'jalik mashinasiga bir nechta mexanizmlar bo'lishini ta'minlashga;

- mehnat vositalarining holatini, ya'ni ishga yaroqliligini yaxshilashga, ularning mustahkamligini ta'minlashga;

- MMTP ning texnik xizmat ko'rsatishini yaxshilash, tez va arzonroq qurish, rejadagi mavjud qurilish materiallaridan oqilona foydalanishga;

- sanoat korxonalari yetkazib beradigan qishloq xo'jalik mashinalari va texnikalarini arzonroq baholarda, qulayroq usullarda sotib olishga;

- qishloq xo'jaligiga yangi, samarali texnologiyalarni joriy qilish va hokozolar;

- mexanizator kadrlarning malakasini oshirish, ularni rag'batlantirishni rivojlantirishga.

- Aylanma fondlar (vositalar) dan samarali foydalanishda quyidagilarga e'tibor berilishi zarur: qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini o'sishiga, hayvonlar mahsuldorligining oshishiga, mahsulot sifatini yuksalishiga, mineral o'g'itlar, ozuqalar, urug'lar. Yoqilg'I mahsulotlarining tejimli sarflanishiga.

Aylanma fondlar (vositalar) dan samarali foydalanishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish kerak:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan mehnat predmetlarini tadbirkorlik bilan arzonroq baholarda sotib olish, o'zlarida ishlab chiqariladiganlari tannarxini tushirish va sifatini yaxshilashga;

- mehnat va mablag' sarflarini tejash, buning uchun yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar kengroq va tezroq joriy etilishini ta'minlashga;

- aylanma vositalarning optimal (maqbul) tarkibini ta'minlashga;

- aylanma fondlarning aylanish davrini qisqartirishga;

- ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini qishloq xo'jaligiga joriy qilishga;

- mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish va uni rag'batlantirishni rivojlantirishga.

- Infratuzilma subyektlari faoliyatlarini rivojlantirish va ularning hizmat haqlarini arzonlashtirish lozim.

Bu kabilarning hal etilishi kelajakda qishloq xo'jaligidagi asosiy aylanma vositalardan, fondlardan, mablag'lardan yil davomida samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar:

Asosiy vositalar, fondlar, aylanma vositalar, mablag'lar, fondlar, asosiy va aylanma fondlarning iqtisodiy samaradorligi, aylanma vositalarni aylanish koefitsenti, asosiy vositalarning eskirishi, amortizatsiyasi, asosiy va aylanma fondlarning shakllantirish manbalari, asosiy vositalarning balans bahosi, tiklash bahosi, fond qaytimi, sig'imi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etishda, jonli mehnat sarflari tejalishida, ekinlar hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligi oshishida, mahsulotlar sifati yaxshilanishida asosiy va aylanma vositalarning ahamiyati ulkan.

Ularning ishlab chiqarishda qatnashishini e'tiborga olib, ilmiy va amaliy jihatdan turkumlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy va aylanma vositalardan foydalanish darajasini va ularning iqtisodiy samaradorligi holatini aniqlashda tegishli ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish kerak. Hozirgi davrda asosiy va aylanma vositalardan foydalanish darajasi, samaradorligi talabga to'liq javob bermaydi. Chunki asosiy vositalarning ishga yaroqlilik darajasi past bo'lgan xo'jaliklar ular bilan to'liq ta'minlanmagan, ulardan foydalanishning rag'batlantirilishi sust. Ulardan foydalanish darajasini va samaradorligini oshirish uchun xo'jaliklarni bunday vositalar bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlash, asosiy vositalarning ishga yaroqliligini oshirish, ulardan yil davomida oqilona foydalanishga erishish, shunga ko'ra, moddiy rag'batlantirishni takomillashtirish, ularning bozorini rivojlantirishga erishish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy, aylanma fondlar, mablag'lar, vositalar deganda nimani tushunasiz?

2. Asosiy va aylanma vositalarning, mablag`larning, fondlarning qishloq xo`jaligidagi ahamiyati qanday ?
3. Asosiy va aylanma vositalarni barpo etishning qanday manbalarini bilasiz?
4. Ishlab chiqarish vositalari bozori deganda nimani tushunasiz?
5. Asosiy va aylanma fondlardan, vositalardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar, ularni aniqlash tartibini tushuntirib bering.
6. Asosiy vositalarning eskirish qiymati qanday tartibda aniqlanadi?
7. Asosiy va aylanma fondlardan, vositalardan, mablag`lardan to`liq va samarali foydalanish uchun qanday masalalarga e`tibor berish kerak?

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2002 yil 28 avgustdagi Farmoni, Xalq so`zi, 2002 yil 30 avgust
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo`nalishlari to`g`risida»gi Farmoni. «Xalq so`zi», 2003 yil 25 mart.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 4 noyabrdagi «2005-2007 yillarda fermer xo`jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo`yicha maxsus komissiya tuzish to`g`risida»gi Farmoni, «Xalq so`zi», 2004 yil 5 noyabr
4. Karimov I A “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” T.O`zbekiston 2009
5. Mirovitskaya I.V., «Ro`nki selskoxozyaystvennogo so`rya i prodovolstviya», Minsk, BGEU, 2001
6. Lehenko M.I., «Osnovo` lizinga: Uchebnoe posobie», - M.: Finansi i statistika, 2004

Internet saytlari:

1. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.ecfak.timacad.ru
2. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru
3. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://G`G`textbook.ruG`catalogueG`bookG`33320.html>
4. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, M. «Yurkniga». 2004 <http://G`G`shoppyer.h1.ruG`books.shtmllo`topicq935&pageq1>

SAKKIZINCHI BOB

MEHNAT RESURSLARI, BOZORI, ULARDAN FOYDALANISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI

- 8.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
- 8.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
- 8.3. Qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslari, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi.
- 8.4. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori va uni rivojlantirish masalalari.
- 8.5. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

8.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati

Mamlakatimizning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan barcha talablarini qondirishda jonli va buyumlashgan mehnatning ahamiyati ulkan. Chunki u qiymatni yaratadi, qolaversa, mehnat insonning ongli–maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. U bilan mehnat predmetlari hamda vositalari uyg'unlashgan holda ish jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonning mahsuli qiymat hisoblanadi. Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish, xizmatlarni bajarish insonning jonli faoliyati (mehnati) bilan mehnat predmetlari va vositalarining maqsadga muvofiq bog'lanishiga bog'liq. Ya'ni, inson mehnati yer traktor chigit (urug`) va yoqilg'ilarning ijobiy bog'lanishi natijasida paxta yoki bug`doy va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Ularning miqdori, sifati bevosita yuqoridagi omillarga bog'liq. Lekin inson va uning ongli faoliyati bo'lmasa hech qanday mahsulot yaratilmaydi, ish yoki xizmat bajarilmaydi. Shunday ekan, faqat inson o'zining ongli faoliyati bilan mahsulotlarni yaratadi, ishlarni, xizmatlarni bajaradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy sharoitning (harorat, yog`in va issiq kunlar miqdori) ahamiyati katta. Ishlab chiqarish inson mehnati hamda mehnat predmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda samrali uyg'unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma'lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon bir qancha mehnat jarayonlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, ekinlar ekiladigan yerlarni haydash, ekishga tayyorlash, ekish, suv berish, ishlov berish, hosilni terib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, insonning ongiga, bilimiga, malakasiga, munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bog'liq. Demak, inson o'z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samrali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiati ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligida mehnat tarmoqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xususiyatlarga ega:

- mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog`liqligi;
- mehnatdan foydalanishga ishlab chiqarish mavsumiyligining ta'sir qilishi;
- qishloq xo'jaligidagi mehnatning o'simliklar hamda tirik mavjudotlar (hayvonlar, o'simliklar) bilan uzviy bog`langanligi;
- qishloqdagi mehnat saviyasi va bilim darajasining nisbatan pastligi;
- o'simchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilganlik va mexanizatsiyalashtirilganlik hamda elektrlashtirilganlik darajasi pastligi;
- tarmoqda tor doiradagi ixtisoslashishning kamligi;
- qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mehnat tarkibida ayollar va yoshlar mehnati salmog`i (hissasi) ning ko'pligi;
- qishloq xo'jaligida mehnatga to'lanayotgan haq va uning ijtimoiy himoyalaniishi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan pastligi va boshqalar.

Ta'kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta'sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har xil darajada ixtisoslashgan xo'jaliklarda bir xil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har xil miqdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham bir-biridan farq qiladi. Kech kuz, qish va erta bahorda mehnat sarfi keskin kamayib, hosilni yig`ib olishda unga bo'lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. O'simchilik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko'pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab etmaydi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat tarkibida ayollar mehnatining salmog`i hozirgi davrda ancha yuqori. Shuning uchun ham tarmoqda mehnatga to'lanayotgan haq kamroq. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug`orish, chikanka qilish, hosilni yig`ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, sog`ish) to'liq mexanizatsiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat xarajatlari ortadi. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolarni mehnat resurslari deb ataladi. Ularning huquqiy asoslari tarkibi hamda faoliyati Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Mehnat kodeksi»da (04.1996y), «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (05.1998y) qonunda batafsil ko'rsatilgan. Mehnat resurslari 16 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan yerkaklar, 54 yoshgacha bo'lgan ayollar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar ham mehnat resursi sanaladi. Ularning tarkibida iqtisodiy faol mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar alohida ahamiyat kab etadi. Ularni 16-54 yoshgacha bo'lgan ayollar, 59 yoshgacha bo'lgan yerkaklar tashkil etadi. Ular mehnat resurslarining asosini tashkil etadi. Ular Respublikada 2009 yilning boshiga mavjud aholining 41.6%, jami mehnat resurslarining esa 70.1 foizini tashkil etgan.

O'zbekiston Resublikasi iqtisodiyotida 2009 yilning boshiga 10980 ming kishi band bo'lgan. Bu jami aholining 39.9 foizini tashkil etgan. Mavjud mehnat resurslarining 27.2 foizga yaqini qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. Ular o'zlarining ongli, maqsadli mehnatlari bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, uning

samardorligini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shishi lozim. Demak, ularning mehnatlari unumli bo'lishi kerak. Shu bilan «mehnat unumdorligi» tushunchasi paydo bo'lmoqda. Mehnat unumdorligi deganda, foydalanilayotgan texnikalar, texnologiyalar yordamida bir birlikdagi mahsulotni yetishtirish, ishni bajarish uchun sarflanadigan vaqtning miqdorini nazarda tutish lozim. Bu «Mehnatni tejash» iqtisodiy qonunining amal qilishidan dalolat beradi. Mehnat unumdorligining amaliyotdagi tushunchasi ham mavjud. Ya'ni sarflanayotgan bir birlikdagi vaqt ichida yaratilgan qiymat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish mehnatning unumdorlik darajasini ifodalaydi. Mehnat unumdorligi to'g'risidagi bu tushunchalar bir-birini inkor etmaydi, aksincha to'ldiradi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat ongli, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Bu esa tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydi.

8.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

Mehnat resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslarining eng faol omili sifatida katta ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonida ongli ravishda qatnashib, ko'proq, sifatliroq mahsulotlarni talabni qondiradigan miqdorda yetishtirishga, ish va xizmatlarni tez va samarali bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan, ulardan yil davomida to'liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

a). Mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti. Uni aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qatnashgan mehnat resurslari miqdorini (kishi) xo'jalikda shartnoma (buyruq) bo'yicha mavjud bo'lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MK = \frac{\sum IIMp}{\sum MMp}$$

Bunda: Mk – mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti;

$\sum IIMp$ – haqiqatda ishlagan jami mehnat resurslari, kishi;

$\sum MMp$ – mavjud bo'lgan jami mehnat resurslari, kishi.

Bu ko'rsatkichning darajasi birga yaqin bo'lgani yaxshi. Shunda u mavjud mehnat resurslaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

b). Mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi (1 oyda, 1 yilda). Uning miqdorini xo'jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtni sarflangan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin.:

$$MrXqk = \frac{\sum Mpc\epsilon}{\sum IIMp}$$

Bunda: $MrXqk$ – mehnat resurslarining ma'lum bir muddatda o'rtacha ishlagan ish vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$\sum M_{pc\delta}$ – mehnat resurslarining jami sarflagan ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu ko'rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo'lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo'yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta'til (otpuska) kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikada yillik ish vaqti fondi 276-286 kun yoki 2208-2288soat miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O'smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zarur ishlarni bajaruvchilar uchun ham o'rnatilgan.

c). Belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsienti ham aniqlanadi. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soatini) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo'lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$IVfk = \frac{IrIv}{IrIn}.$$

Bunda: IVfk – ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsienti %;

MrIv – mehnat resurslari hisoblangan bir kishining bir yilda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

MrIn – bir kishi uchun qonunda belgilangan, ishlashi lozim bo'lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu koeffitsientning miqdori birdan oshmasligi kerak. Agar u qanchalik kam bo'lsa, bu mehnat resursi foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi.

d). Mehnatning mavsumiylik koeffitsienti. Uning miqdorini bir yil, bir oy mobaynida eng ko'p ish kunini shu davrdagi eng kam ish kuni miqdoriga taqsimlash natijasida hisoblash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$Mm = \frac{IoEI\hat{e}}{IoEIv}.$$

Bunda: Mm –mehnatning mavsumiylik koeffitsienti;

IoEI \hat{e} – bir yildagi yoki oydagi eng ko'p ish kuni;

IoEIv – bir yilda yoki oydagi eng kam ish kuni.

Uning miqdori ham 1-1,2 atrofida bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda uning miqdori 2-2,3 ga teng bo'lmoqda. Bu mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida bir me'yorda qatnashmayotganligidan dalolat beradi. Bu holni yumshatish zarur. Buning uchun kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxonada o'zi ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin. Masalan, ko'proq issiqhonalarni tashkil etish, mahsulot yetishtirishda politelen plenklaridan foydalanish va hokazo.

e). Mehnatning unumdorligi darajasi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami ish vaqti miqdorini shu davrda ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga, qiymatiga hamda bajarilgan ish hajmiga taqsimlash zarur. Bu mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabi.

Amaliyotda esa u haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash natijasida aniqlanmoqda. Bunday usulda ular bir-birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Ularni aniqlash uchun ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$My = \frac{Sv}{Em} \text{ yoki } \frac{Em}{Sv}$$

Bunda: Mu —mehnatning unumdorlik darajasi, kishi-kuni, soati, so'm;

Sv —mahsulot yetishtirish, xizmat ko'rsatish uchun sarflangan ish vaqti, kishi-kuni, soatda;

Em —sarflangan vaqt ichida yetishtirilgan mahsulot, so'm.

Bu ko'rsatkich yetishtirilayotgan bir birlikdagi (tsen, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha vaqt sarflanganligini yoki sarflangan bir birlikdagi vaqt evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Mahsulot birligiga sarflangan jonli mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat evaziga yetishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida ayrim ish, mahsulot turlari, davrlari hamda xo'jalik miqyosida natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Shunga asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va sarflanishi zarur bo'lgan mehnatning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

Bulardan tashqari qishloq xo'jaligida tarmoq sifatida band bo'lgan mehnat resurslari salmog'i ham aniqlanadi. Uning darajasi tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslari miqdorini makroiqtisod darajasida, ya'ni respublika miqyosida band bo'lgan mehnat resurslari soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Aniqlangan raqam 100 ga ko'paytiriladi. Chunki u foizda ifodalanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$TBMs = - \frac{\dot{O}B\grave{m}}{\grave{I}B\grave{m}} * 100$$

Bunda: $TBMs$ —tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i, foiz;

$TBMm$ —tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslarining miqdori, mln. ishchi;

$MBMm$ —makroiqtisod miqyosida band bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdori, mln. kishi.

Bu ko'rsatkichni qishloq xo'jaligi tarkibidagi tarmoqlar (o'simchilik, chorvachilik, paxtachilik) doirasida ham aniqlash mumkin. Bunda qishloq xo'jaligi asos qilib olinadi. Ichki tarmoqlarning shunga nisbatan salmog'i aniqlanadi. Tarmoq miqyosida mamlakat qishloq hududlarida yashayotgan aholining qanday salmoqqa egaligi, qishloq xo'jaligida bandligi ham aniqlanishi mumkin. Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini qishloq hududlarida yashayotgan umumiy aholi miqdoriga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish kerak. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi.

Shu ko'rsatkichlar yordamida makroiqtisod doirasida qishloq xo'jalik tarmog'ida band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i, ular mehnatining unumdorlik darajasi aniqlanib, tahlil qilinishi mumkin. Shuning natijasida tarmoqda mehnat resurslarining bandligiga oid chora-tadbirlar mikro va makroiqtisod doirasida ishlab chiqilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslari, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi

Respublika aholisining umumiy miqdori 2009 yilning boshiga 27527 ming kishini tashkil etgan. 2005-2008- yillarda aholi sonining o'rtacha o'sishi 1,53 foizga teng bo'lgan. Jami aholining 62 foizga yaqini qishloq hududlarida yashamoqdalar. Ularni ish bilan ta'minlash va mehnatlari unumdorligini yuksaltirish juda katta ahamiyatga ega.

Respublikada 2009 yilning boshiga 11094 ming kishi iqtisodiyotda band bo'lgan. Ularning aksariyat qismi qishloq hududlarida yashab, mehnat qiladilar. Demak, jami aholining 60,0 foizi mehnat resurslari hisoblanadi. Ulardan 11451 ming nafari yoki 67,2 foizi iqtisodiy faol, 96,9 foizi yoki 11094 ming nafari respublika iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslaridir. Makroiqtisod doirasida band bo'lgan mehnat resurslarining 27,2 foizi qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar (8.3.1-jadval).

Mamlakat qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining miqdori 1995-2008 yillar mobaynida 413,0 ming kishiga qisqargan. Natijada tarmoqda band bo'lgan ishchi-xizmatchilarning salmog'i 40,9 foizdan 27,2 foizga tushgan yoki 10,3 foizga kamaygan. Bu, albatta, ijobiy hol. Bu jarayon qishloqda mehnatni ma'lum darajada industrilashayotganligidan dalolat beradi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda, ya'ni AQSh, Olmoniya, Frantsiya, Ispaniya, Gollandiyada qishloq xo'jaligida jami aholisining 3 foizdan 10 foizgacha bo'lgan qismi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular mehnatining unumdorlik darajasi nihoyatda yuqori. Ularda faoliyat ko'rsatayotgan har bir kishi 120 nafargacha kishini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlamoqda.

Respublikamiz miqyosida bu ko'rsatkich darajasi hozirgi davrda ancha past. Demak, uni yuksaltirishga alohida e'tibor berish lozim.

Tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslari miqdori va salmog'ining pasayishi respublikada amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy siyosatning ma'lum darajadagi natijasidir. Mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, ularning mehnati unumdorligini oshirish maqsadida respublika Prezidenti I. Karimov sanoatni qishloqqa olib borish zarurligini asoslagan holda isbotlamoqdalar.

Respublika qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda ish bilan band bo'lgan mehnat resurslarining soni va salmog'i*

№	Tarmoqlar	I. Yillar							
		1995		2000		2005		2008	
		ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%
1	Qishloq xo'jaligi	3458	40.9	3369	37.5	2967	29.1	3045	27.2
2	Sanoat	1087	12.9	1176	13.1	1348	13.2	1484	13.4
3	Qurilish	528	6.2	595	6.6	849	8.3	945	8.6
4	Boshqa tarmoqlar	3376	40.0	3843	42.8	4004	49.4	5620	50.8
	Jami	8449	100.0	8983	100.0	9136	100.0	11094	100.0

* Yillik statistik to'plam. T.2009-y. 44, 61, 65betlar va Respublika Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu maqsadda uzoqqa mo'ljallangan turli xildagi chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2009-yilda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida respublikaning qishloq hududlarida 500mingga yaqin yangi ish joylari tashkil etildi.¹ "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturidagi tadbirlarni amalga oshirilishi oqibatida ko'plab yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyati ortdi. Bu siyosatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatligini quyidagilar isbotlamoqda: dastavval aholi juda zich joylashgan Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq hududida «O'zbekiston - Koreya» avtomobilsozlik qo'shma korxonasi qurilib, samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Huddi shunday respublikaning Navoiy viloyatida erkin sanoat hududini tashkil etilayotganligi ham shu hududda ma'lum miqdordagi yangi ish joylarini tashkil etishga imkoniyat yaratishi ham mumkin. Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona, Navoiy viloyatlari qishloqlarida neft, gaz, to'qimachilik sanoatining yirik qo'shma korxonalari yaxshi faoliyat ko'rsatmoqda. Shu kabi sanoat korxonalarining ishga tushirilishi natijasida qishloqlarda yashayotgan mehnat resurslarining sezilarli qismi ish bilan ta'minlandi. Bu ularning oilalari real daromadlar bilan ta'minlanishini yuksaltirmoqda. Ular respublikada avtomobilsozlik, yoqilg'i, to'qimachilik sanoatining barpo etilishini hamda rivojlanishini ta'minlamoqda.

Yuqoridagi ijobiy natijalarga asoslangan holda mamlakatning qishloq hududlarida sanoat korxonalari va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar barpo etish ishlari izchillik bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon qishloq hududlarida ishlab chiqarish kuchlari oqilona joylashishini ta'minlashga ham ijobiy hissa qo'shadi. Natijada mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsientining oshishi ham ta'minlanadi. 1999 yilda respublikada mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti 0,995 yoki iqtisodiy faol mehnat resurslarining 99,5 foizi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 2000 yilda uning darajasi 99,6 , 2005, 2008-yillarda esa

¹Karimov I A "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" Xalq so'zi. 30.01.2010yil.

99.7foizni tashkil etgan. Lekin bu ko'rsatkichni mamlakat qishloq xo'jaligi korxonalarini miqyosida ma'lumotlar etarli bo'lmaganligi munosabati bilan aniqlay olmadik. Ammo uni ayrim xo'jaliklar miqyosida aniqlash mumkin. Buning uchun qishloq xo'jalik korxonasida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga xo'jalikda ishlagan kishilar sonini taqsimlash lozim. Keyingi yillarda Respublikada dehqon (tomorqa) xo'jaligida, farzandlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash bilan shug'ullanadigan fuqarolarning mehnatlarini e'tiborga olgan holda ularni mehnat bilan band bo'lganlar tarkibiga qo'shish lozimligi to'g'risida huquqiy va me'yoriy xarajatlar yaratilmoqda. Uning hal etilishi, albatta, mehnat resurslarini, ularning bandligini hisobga olish masalalari echilishiga ko'maklashadi.

Mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanmagan qismi ishsizlar hisoblanadi. Qonuniy jixatdan ishsiz hisoblanishi uchun ular tumanlardagi Mehnat birjasiga murojat etishi zarur. Mehnat birjalari murojaat etgan ishsizlarni belgilangan tartibda ro'yxatga olib, ularga ishsizlar maqomini beradi. «Ishsiz» maqomini olgan fuqaro esa ijtimoiy jihatdan himoyalaniishi uchun unga minimal ish haqi miqdoridagi mablag` har oyda berib turiladi.

Mehnat birjalari ish bilan ta'minlanmaganlarni tumandagi imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda malakasini oshirish yoki kasblarini o'zgartirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi. Shular natijasida ularning ish bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Bu esa mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti yuksalishini ta'minlaydi.

Qishloq hududlarida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirilishi tarmoqdagi mehnat resurslarining ma'lum bir qismi sanoat va boshqa tashkilotlarga o'tishiga ta'sir etmoqda. Shu tufayli qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslarining tarmoq ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasi, ya'ni ularning yil davomida ish bilan to'liq ta'minlanishi oshmoqda. Natijada Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi jamoa, shirkat korxonalarida bir yil mobaynida ishlagan ish kunlari 1998-2001 yillarda 17,5 foizga ortib, 671,4 mln. kishi-kunni tashkil etmoqda. Ulardan o'simchilik tarmoqlarida mehnat kilayotganlari 421,7 mln. kishi-kunni ishlagan bo'lsa, chorvachilik tarmoqlaridagisi esa 242,7 mln. kishi-kun ishlaganlar. Bunday hol 2007-2009-yillarda ham davom etmoqda.

Tarmoqda mavjud bo'lgan mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalb etish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirishda moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning, ya'ni ularni mehnatlariga haq to'lash, yaxshi ishlaganlarini esa rag'batlantirishning ahamiyati ulkan. Hozirgi davrda davlat, hususiy hamda jamoa mulkchiligiga asoslangan xo'jaliklarda shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan ishchi-xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan miqdorda mehnat haqi to'lanmoqda. Qishloq xo'jalik korxonalarida vaqtbay usulda ish haqi belgilanganlar mehnatlariga 22 razryad asosida haq to'lanmoqda. Ishbay usuldagilarga esa ta'rif razryadlariga asoslangan holda tarif stavkalari belgilangan. Tarif razryadi, stavkasiga asoslangan holda ularni mehnatlariga haq to'lanmoqda. Hozirgi davrda minimal ish haqi miqdori ham belgilangan. Lekin erkin bozor iqtisodi sharoitida mehnatga to'lanadigan ish haqining eng kam miqdori belgilanadi. Yuqori darajasi esa xo'jaliklarning iqtisodiy imkoniyatlaridan hamda ishchi-xizmatchilarning qobiliyatlariga, imkoniyatlariga

asoslangan holda belgilanadi. Bunday tartib xususi korxonalarda, fermer xo'jaliklarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilashga doimo e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Barcha chora tadbirlarni amalga oshirish oqibatida qishloq xo'jaligida mehnatning unumdorlik darajasi so'ngi yillarda yuksalmoqda. Agarda tarmoqda faoliyat yuritgan bir kishi 1999 yilda 408,1 ming so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2005 yilga kelib, bir ishchi-xizmatchi 2014.7 ming so'mlik, 2008-yilda esa 3459 ming so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqargan. Bu raqamlar, shu yillar mobaynida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshganligidan dalolat beradi. Uning oshishiga tarmoqda ekiladigan ekinlarning asosiy qismini hosildorligini hamda ularning narxlarini oshganligi ta'sir etgan. Respublikada boshqoli don ekinlarining hosildorligi 1996-2008-yillarda 2.2marta oshib, 42,0 sentnerni tashkil etgan.

Shu yillarda sabzavot ekinlarining hosildorligi 41,2 foizga, poliz ekinlariniki – 84,3 foizga, kartoshkaniki – 74,1 foizga oshgan.

Mehnat unumdorligi darajasiga qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarining oshishi ham ta'sir etmoqda. 1999-2008 yillarda 1 tonna paxta xomashyosining xarid bahosi 82 ming so'mdan 430,0 ming so'mga etdi. Demak, shu yillar ichida paxta xom-ashyosining xarid narxi 5.2 marta oshgan. Shuningdek, g'allaning bahosi ham oshib bormoqda. Lekin baholar oshishiga nisbatan mehnat unumdorligining oshish sur'ati yuqori. Bu, albatta, ijobiy hol. Chunki qishloq xo'jalik xodimlarining mehnatga bo'lgan munosabatlari o'zgarimoqda.

8.4. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori va uni rivojlantirish masalalari

Qishloq hududlarida mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bu muammo muvaffaqiyatli hal etilishi uchun quyidagi masalalar aniqlanib, ularning echimini ta'minlashga qaratilishi lozim:

- qishloq hududlarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini, istiqbolda ularning o'zgarish (ko'payish, kamayishi) darajasini aniqlash;
- qishloq hududlaridagi barcha tadbirkorlik shakllarida qisqa va uzoq muddatga bo'sh bo'lgan ish joylari miqdorini mutaxassislik turlari bo'yicha belgilash;
- qisqa va uzoq muddatga bo'sh bo'lgan ish joylarini ishlovchilar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni asoslangan holda ishlab chiqish (kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash ...);
- amalga oshirilishi lozim bo'lgan hamma tadbirlarni, barcha resurslar bilan ta'minlovchi ishlarni amalga oshirish;
- ish bilan ta'minlanmaganlarning umumiy miqdorini aniqlash, ularni iqtisodiy, ijtimoiy himoyalash bo'yicha me'yoriy tadbirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalar.

Ta'kidlangan muammolarning samarali hal etilishi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar bilan mehnat jarayonini tashkil etuvchi sub'ektlar hamda iqtisodiy, ijtimoiy himoyalashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu masalalarni hal etish, mehnat bozori zimmasiga

yuklanmoqda. Mehnat bozori, mehnat birjasining huquqiy asoslari yaratilmoqda. Ular o'z faoliyatlarini «Mehnat kodeksi», «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi hamda «Birjalar to'g'risida»gi qonunlar asosida yuritmoqdalar.

Qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo'jaligidagi) fuqarolarning mehnat qilish imkoniyatini, ya'ni taklifini, ularni ishga yollash (sotib olish), ya'ni ish bilan ta'minlovchilar hamda ijtimoiy-iqtisodiy himoya qiluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qonun talablari darajasida amalga oshiradigan maskan (hudud) yoki sub'ekt mehnat birjasi ekanligidan dalolat beradi.

Erkin bozor iqtisodi sharoitida o'z mehnatini taklif etayotgan fuqaro mehnat bozoriga chiqadi. U yerda mavjud bo'lgan takliflarni o'rganib, o'zining intellektual qobiliyatini, mehnatini taklif etadi. Ular bir-biriga mos kelganda shartnomalar tuzilib, ishga yollanadi. O'zbekiston Respublikasida ham shunday tartib joriy etilmoqda. Bu vazifani qishloq hududlarida tuman hokimiyati tarkibidagi Mehnat birjasi yoki aholini ish bilan ta'minlash bo'limi amalga oshirmoqda.

Demak, mehnat bozorida o'zlarining mehnat qilish qobiliyatini (intelektini) taklif etuvchilar bir tomondan, ularning shu imkoniyatlarini iste'mol etuvchi, ya'ni ishga yollovchi sub'ektlar ikkinchi tomondan uchrashib, mehnat almashuv (mehnat oldi-sotdisi) jarayonini amalga oshiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslari shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit, ingliz iqtisodchisi D.Rikardo, Nobel mukofoti lauriyati, amerikalik iqtisodchi Paul A.Samuelson va boshqa olimlar tomonidan etarli darajada asoslangan. Yaratilgan nazariyani hayotga tatbiq etish yo'llari ham hal etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shu bozorda erkin sotilishi lozim. Shundagina u qiymatga ega bo'ladi, ya'ni tovar shaklida ayirboshlanadi.

Demak, mehnat bozori erkin raqobat asosida amalga oshirilishi zarur. Bu bozorda mehnat munosabatlariyu, iqtisodiy, ijtimoiy qonunlar talab va taklif iqtisodiy qonunlari talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Mehnat bozorida inson o'zini emas, balki mehnat qilish (jismoniy, aqliy) qobiliyatini taklif etadi. Iste'molchi, ya'ni mehnatni oluvchi shu qobiliyatni sotib oladi. Demak, oldi-sotdi jarayonidagi iqtisodiy munosabat predmeti insonning mehnat qilish qobiliyati hisoblanadi. Insonning mehnat qilish qobiliyatiga to'lanayotgan ish haqi shu mehnatning qiymati, ya'ni bahosi ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida erkin bozor iqtisodi bosqichma-bosqich shakllanishi munosabati bilan mehnat va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar ham asta-sekin hal etilmoqda. Dastavval tumanlarda mavjud bo'lgan Mehnat resurslari bo'limi negizida hokimiyat tarkibida Mehnat birjasi tashkil etildi. Mehnat birjalariga qishloq xo'jaligidagi mehnat bozorini tashkil etish, uni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Ular faoliyatini «Birjalar to'g'risida»gi qonun, o'z Ustavi hamda yuqori tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari asosida yuritmoqdalar.

Qishloq hududlaridagi mehnat bozorini samarali shakllantirishda quyidagi holatlarni e'tiborga olish zarur:

- respublika aholisining 62,0 foizi (2008y) qishloq hududlarida yashayotganligi munosabati bilan jami mehnat resurslarininng 60 foizdan ortig'i qishloq hududlari zimmasiga to'g'ri kelishi;

- aholining ish bilan band bo'lmagan qismining 60 foizdan ortig'i qishloq hududlariga to'g'ri kelishini, ular tarkibida ayollar salmog'i ko'pligini;

- qishloq hududlarida aholi sonining o'sish darajasi shaharlardagiga nisbatan yuqori ekanligini, bu hol kelajakda mehnat resurslarining yuqori sur'atlarda o'sishiga ta'sir etishini;

- qishloq hududlarida sanoat korxonalari talab darajasida rivojlanmaganligini va barcha resurslarni e'tiborga olgan holda joylashtirilmaganligini;

- hozirgi davrda qishloq hududlarida ish bilan ta'minlanmagan, iqtisodiy faol mehnat resurslari hisoblangan yerkaklarning yirik shaharlarga ish qidirib kelayotganini;

- qishloq hududlarida shaxsiy va xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik shakllari talab darajasida rivojlanmaganligini, shuningdek, infratuzilma sub'ektlari (madaniy, maishiy, kommunal va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi) ko'lamining torligini.

Mehnat bozorlari yuqorida ta'kidlangan barcha xususiyatlarni e'tiborga olgan holda erkin shakllanishi uchun:

- qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo'jalik korxonalaridagi) mehnat resurslarining umumiy miqdorini, tarkibini aniqlash;

- mehnat resurslarining taklifini va hududdagi barcha tadbirkorlik sub'ektlarining ularga bo'lgan talabini tarkibi bo'yicha aniqlash;

- erkin mehnat bozorini shakllantirish hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish;

- qishloqda mehnat resurslarining maqsadga muvofiq bandligini ta'minlashga hissa qo'shish;

- mehnat bilan band bo'lmagan fuqarolar miqdorini aniqlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoya qilishga ko'maklashish;

- erkin mehnat bozori amalga oshirilishini ta'minlovchi turli ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ularning samarali o'tkazilishiga erishish;

- mehnat bozorining rivojlanishini ta'minlovchi barcha resurslarni topib, samarali sarflash kabi vazifalarni bozor talablari darajasida amalga oshirish lozim.

Qishloqlarda mehnat bozorini oqilona tashkil etib, samarali boshqarish uchun hududiy usullardan foydalanish kerak.

Respublikamizning mehnat resurslari ortiqcha hududlari, avvalo, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali usullari, ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshishi va uning taklifi kamayishini hisobga olish zarur.

Mazkur usullar nimalarda ifodalanilishini batafsil ko'rib chiqaylik.

a) Ishchi kuchiga talabni oshirish usuli.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkni xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish, zararga ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni

joriy etish hisobiga asosan ishlab chiqarishdan bo'shatilayotgan xodimlar – mehnatkashlar soni tez ko'paymoqda.

Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga hamda mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va xarid qilish hamda agroservis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektordagi ishdan vaqtincha bo'shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarini kengaytirish va qayta ta'mirlash hamda yangi ish joylarini yaratish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – sarmoyalar qo'llanishining asosiy yunalishlaridir.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta'mirlash va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish orqali tartibga solish mumkin. Dotatsiyalar, subsidiyalar va kreditlarni agrosanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli pensionerlar, nogironlar, o'smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurslarini yuqorida aytib o'tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy malaka tarkibiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilik turli shakllarini rivojlantirish aholi bandligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri. U korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, byudjet to'lovi va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug'urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yengillatish, bandlikning noan'anaviy shakllarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni to'lash kabi chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

b) Ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli.

Ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirishga, shuningdek, ularning mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va boshqa joyga ketishini rag'batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta'sir etish mumkin. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» asosida umumta'lim dasturlarini kengaytirish va o'qish muddatini uzaytirish bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o'quv yurtlarida kunduzgi o'quvdagi talaba o'rinlarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlarga stipendiyalarni oshirish, ayollarga bola parvarishi uchun to'lanadagin nafaqalar va beriladigan ta'til muddatini ko'paytirish, mehnat stajini hisoblashda ularga imtiyoz berish; nafaqaxo'rlar, nogironlar hamda ularni parvarishlaydigan shaxslarning nafaqalarini oshirish mehnat bozoriga ishchi kuchlarining oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va

vaqtinchalik shakllariga o'tishini rag'batlantirishga ularga ham ish bilan to'la band shaxslarga mo'ljallangan ijtimoiy muhofaza turlarini, ta'tillar va boshqa ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o'rnatish, kafolatlangan eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta'minlash, har yili beriladigan ta'tillarni o'z vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning mehnat resurslari etishmaydigan mintaqalari (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi) da ishchi kuchlariga talabni kamaytirish hamda ular taklifini ko'paytirish mehnat bozorini tartibga solishning maqsadga muvofiq usullaridir.

Ushbu usullarning mohiyati quyidagilardan iborat:

a) Ishchi kuchlariga talabni kamaytirish usuli.

Mazkur guruhga hududiy hokimiyatlarning u yoki bu mintaqalarida va tarmoqlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va yangi ish joylarini vujudga keltirishni sekinlashtirishga oid quyidagi chora-tadbirlar: ortiqcha ish kuchlaridan foydalanganlik uchun qo'shimcha soliqlarni belgilash: izchil kredit siyosatini o'tkazish, korxonaga xodimni ishga olganligi uchun bir martalik to'lovni joriy etish, ortiqcha ishchi va xizmatchilarni qisqartirishni rag'batlantirish va hokazolar kiradi. Bundan tashqari, ishchi kuchlariga talabni kamaytirishda mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlikka erishish muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish raqobat, foydani taqsimlash mexanizmi, soliq siyosati kabi iqtisodiy mexanizmlar va dastaklar yordamida ta'minlanishi lozim. Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishni rag'batlantirishning umumxo'jalik mexanizmlari yaxshi takomillashtirilmaganligini hisobga olib, mehnat resurslari uchun ilgari joriy qilingan to'lovlarni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Ular mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va shtatdan tashqari xodimlar sonini kamaytirishga ko'maklashgan. Bu xil to'lovlar korxonalar va tashkilot tomonidan shtatdan tashqari xodimlarni saqlash uchun qat'iy stavka shaklida o'rnatiladi. Shu bilan birga, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar o'rnini qoplash uchun ijtimoiy sug'urta solinadigan soliq va ishsizlikdan muhofaza qilish jamg'armasiga solinadigan maxsus soliqdan (ikkalasi ham mehnatga haq to'lash fondidan, foizlarda) foydalanish mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlarning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bunday tizimi jonli mehnatdan foydalanishning intensiv shakllarini ifodalaydi hamda mehnat bozoridagi xodimning ijtimoiy jihatdan muhofazalanishi uchun zarur kafolatlar yaratadi.

b) Ishchi kuchlari taklifini ko'paytirish usuli.

Hozirgi sharoitlarda mehnat bozoriga ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish imkoniyati cheklangan. Chunki ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish, qayta ishlash sanoati va xizmat kursatish tarmoqlari, shaxobchalari hamda shaxsiy mehnat faoliyati sohalarining rivojiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka strukturasi bo'yicha hudud iqtisodiyoti noqishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o'sish sur'atiga javob bermaydi. Shu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirish hamda uning mehnat

bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlik davlat xizmati tizimidagi va boshqa o'quv yurtlaridagi xodimlarning malakalarini oshirishni tashkil etish, korxonalarining o'zidagi maxsus kurslarda kasb-korga o'rgatishni yaxshilash va ularga soliq to'lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.

Ishchi kuchlari taklifini rag'batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo'llash orqali ham amalga oshiriladi. Bu usullar tashkiliy tusda bo'lib, bo'sh ish joylari va ishga joylashish hamda qayta o'qitishga muhtoj fuqarolarning soni haqidagi ma'lumotlar bankini tashkil etishni, aholining ishga joylashish imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan ta'minlanishni, ishsizlarni ro'yxatga va hisobga olishni, kasbga yo'naltirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlashning ancha samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur uslublar hududlar moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy shart-sharoitlari hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajalarini yaxshilash kabi tadbirlarni o'tkazib, ularni tartibga solish asosida tatbiq etiladi.

8.5. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari

Respublika qishloq xo'jaligidagi mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish natijasida ularning mehnatlari unumdorligini kelajakda yuksaltirish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etish keng miqyosda tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Dastavval qishloq hududlarida, jumladan, qishloq xo'jalik korxonalarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash lozim. Shu bilan birga aholining mutlaq (absolyut) o'sishini e'tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko'payish yoki kamayish jarayonini aniqlash kerak. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholining harakatini ham hisobga olish zarur.

Shundan so'ng qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga alohida e'tibor berish kerak.

Shularga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajas, shu orqali qishloq hududlarida (korxonalarda, tarmoqlarda) mavjud bo'lgan mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi birga yaqin bo'lsa yaxshi, Aks holda mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlari asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik ichida yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyatlarini rejalashtiradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, qurilishni, ta'mirlashni, mahsulotlarni qayta ishlashni (o'simchilik, chorvachilik), xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni belgilab, ularning hal etilishini ta'minlashga harakat qilinadi. Bu masalalar respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilishini ham e'tiborga olish lozim.

Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e'tibor berish zarur.

Korxonalarda mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga hozirgi davrda alohida e'tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta'sirchan omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim yaxshi, sifatli ishlasa, ko'p haq oladi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham yaxshi, samarali mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchi mehnatiga yarasha ko'proq haq olishi lozim. Shunda u rag'batlantirilgan hisoblanadi. Shu bilan birga mehnatkashlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishni amalga oshirishni ta'minlash kerak. Eng avvalo, mehnatlari natijalarini e'tiborga olgan holda mukofotlash, turli xildagi unvonlarni berish lozim. Bu unvonlar ham ma'lum darajada fuqarolarni mablag'lar bilan ta'minlaydi. Jumladan, Respublikada xizmat ko'rsatgan iktisodchi, agronom, irrigator unvolarini olganlarning asosiy ish haqlariga eng kam oylikning 60 foizi miqdorida ustama beriladi. Demak, ma'naviy rag'batlantirish ham ayrim hollarda moddiylashadi.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xo'jaliklar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida to'liq foydalanishga erishish tadbirlarini shakllantirish lozim. Eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xo'jaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Buning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralari aniqlab, ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

- Demak, qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- tarmoqning rivojlanishini e'tiborga olgan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;

- tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;

- qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;

- qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;

- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;

- kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy, ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi tarmoqdagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni, Respublika Vazirlar Mahkamasining «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish to'g'risida» gi

qarorlarini bajarish maqsadida Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan «Biznes maktablari»da faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining bilimini oshirish bo'yicha yangidan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklarining rahbarlarini tayyorlash uchun 2004 yildan boshlab maxsus o'quv kurslari tashkil etildi. Bu kurslarda yirik olimlar, tajribali mutaxassislar qatnashib, fermerlarni tayyorlashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Shu kurslarda fermerchilik faoliyatidagi barcha masalalar o'rgatilmoqda. Bu hol albatta, fermerlarni bilimlarini, malakalarini yuksalishini ta'minlaydi. Lekin ayrim hollarda o'qishda qatnashayotgan fermerlarda loqaydlik, e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik hollari yuz bermoqda. Shuning uchun bo'lajak fermerlarni tanlashda shu masalalarga katta e'tibor berish zarur deb hisoblaymiz.

Tayanch iboralar:

Mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, ishsizlar, mehnat bozori, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish, mehnat balansini.

Qisqacha xulosalar

Respublika fuqarolarining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi mehnat resurslari hisoblanadi. Mehnat resurslari tarkibiga kiruvchi fuqoroning ongli maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini mehnat deb tushunamiz. Ularning ongli ravishda, aniq maqsadni ko'zlab sarflagan mehnatlari natijasida yangi qiymat yaratiladi, ya'ni ishlar bajariladi, mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Respublika qishloq xo'jaligida jami mehnat resurslarining 27.2 foizga yaqini faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning mehnat unumdorligi sanoat, qurilish va boshqa tarmoqlardagiga nisbatan past.

Mehnat resurslaridan foydalanish, ularning mehnat unumdorligi darajasini ko'rsatkichlar tizimi asosida aniqlash lozim.

Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi hozirgi davr talabiga to'liq javob bermaydi. Sababi – ular ish joylari bilan to'liq ta'minlanmagan, boz ustiga iqtisodiy rag'batlantirish ham takomillashtirilmagan.

Kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida yangi ish joylarini barpo etish, takror ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish lozim. Qishloq xo'jaligida mehnat bozorini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mehnat va mehnat resurslari haqida tushuncha.
2. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha.
3. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
4. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar-chi?

5. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasining holati qanday aniqlanadi?

6. Mehnat bozori nima? Uning maqsadi, vazifasi nimalardan iborat? U qanday tashkil etiladi va rivojlantiriladi?

7. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning qanday yo'llari bor?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi». «Aholini ish bilan tam'inlash to'g'risida» gi Qonun. Toshkent, «Sharq», 1998.

2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – t.: «O'zbekiston», 1995.

3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T. O'zbekiston: 1999.

4. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.

5. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti". T.:Fan 2004

6. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturi. 2009-yil

7. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. Ekmes, 2004.

Internet saytlari:

1. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.ecfak.timacad.ru

2. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru

3. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>

4. Popov N.A. «Osnovo` ro`nochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M.: Tandem, 2002, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>

TO`QQIZINCHI BOB

INVESTITSİYALAR (KAPITAL QO`YILMALAR), ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

- 9.1. Investitsiyalar (kapital qo`yilmalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati.
- 9.2. Qishloq xo`jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo`yilmalar)ning manbalari, ularning sarflanish yo`nalishlari.
- 9.3. Investitsiyalar (kapital qo`yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
- 9.4. Investitsiya (kapital qo`yilma) lar darajasi, dinamikasi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi.
- 9.5. Investitsiya (kapital qo`yilma) lar ko`lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo`llari.

9.1. Investitsiyalar (kapital qo`yilmalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati

Investitsiyalar har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda amalga oshiriladi. Chunki ular davlatni, tarmoq, korxonalar, va nihoyat, aholining iqtisodiy negizini mustahkamlashga sarflanadi. Erkin bozor iqtisodi bosqichma-bosqich shakllantirilayotgan O`zbekiston Respublikasi qishloq xo`jaligini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar sarflanishi ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki tarmoqni ustuvor tarzda rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkam ravishda barpo etish zarur. Buning uchun uni zamonaviy bino-inshootlar, barcha turdagi zarur, samarali texnikalar, qishloq xo`jalik mexanizmlari, ichki irrigatsiya va melioratsiya inshootlari, syerunum, tezpishar navlar, zotli, mahsuldor hayvonlar hamda aylanma vositalar, innovatsion texnologiyalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash lozim.

Hozirgi davrda investitsion mablag`lar yangi, samarali texnologiyaga hamda intellektual mulkni barpo etishga ham sarflanishi maqsadga muvofiqdir. Barcha muammolarni to`g`ri, samarali hal etilishi ma'lum miqdordagi investitsiyalar sarflanishini ob'ektiv ravishda talab etadi. Demak, investitsiya mablag`lari tarmoqda doimiy va o`zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish va ularni rivojlantirish hamda yuksaltirish uchun sarflanadi. U uzoq hamda qisqa muddatlarga mo`ljallab sarflanishi mumkin. Agarda qishloq xo`jaligining asosiy vositalarini sotib olishga, qurishga hamda ularni kapital ta'mirlashga sarflansa, unda bu sarflar uzoq muddatga mo`ljallangandir. Ularni asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar deb atashadi. Shu bilan birgalikda investitsiyalar qishloq xo`jaligining aylanma vositalariga ham sarflanadi. Ular qisqa muddatga sarflangan hisoblanadi. Demak, investitsiyalar natijasida qishloq xo`jaligining ishlab chiqarish vositalari barpo etilib, ularning ishga yaroqliligi tubdan yaxshilanadi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag`lar investitsiyalar deb ataladi. Ular qishloq xo`jaligi (korxonalar)ning moddiy-texnika

bazasini mustahkamlab, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalashtirish natijasida xarajatlarni kamaytirib, yyetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko`payishi va sifati yaxshilanishini, olinadigan daromad (foйда) summasi oshirishni ta'minlaydi. Bu investitsiyalarni amalga oshirishning tub maqsadidir.

Shularni e'tiborga olgan holda respublikada barqaror investitsion siyosat ishlab chiqilgan. U mamlakatda «Investitsiya faoliyati to`g`risida»gi, «Chet el investitsiyalari to`g`risida»gi (1998y) qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Investitsiyalar maqsad hamda vazifalariga ko`ra, quyidagi turlarga bo`linadi:

- kapital investitsiyalar;
- innovatsion investitsiyalar;
- ijtimoiy investitsiyalar.

Asosiy fondlarni barpo etishga va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalar kapital investitsiyalar, deb ataladi.

Texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratish va o`zlashtirishga sarflangan investitsiyalar innovatsiya investitsiyalardir.

Inson salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag`lar ijtimoiy investitsiyalar, deb ataladi.

Ular real hamda moliyaviy investitsiyalarga ham bo`linadi. Moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga sarflangan mablag`lar real investitsiyalarni tashkil etadi.

Qimmatli qog`ozlarni (aktsiya, obligatsiya, veksel, syertifikat) shakllantirishga sarflangan mablag`lar esa moliyaviy investitsiyalar hisoblanadi. Real investitsiyalarni kapital qo`yilmalar, deb ham atash mumkin. Kapital qo`yilmalar yalpi va sof kapital qo`yilmalariga bo`linadi. Real investitsiyalarning umumiy summasi yalpi kapital qo`yilmalarini tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo`yilmalardir. Sof kapital qo`yilma yalpi kapital qo`yilma sumasiga teng yoki kam bo`lishi mumkin. Qishloq xo`jaligi, jumladan, korxonalar miqyosida yalpi kapital qo`yilmani sof kapital qo`yilmaga aylantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya'ni ishga tushirilishini ta'minlash zarur.

Milliy hisoblar tizimida asosiy kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositlariga sarflangan mablag`lar real investitsiyalar deb hisobga olinadi.

Lekin, respublika qishloq xo`jaligida erkin bozor munosabatlari sust sur'atlar bilan rivojlantirilayotganligi moliyaviy investitsiyalar ko`lami kengayishini talab darajasida ta'minlamayapti. Jumladan, jamoa, shirkat, fermer xo`jaliklarida qimmatli qog`ozlar (aktsiya, obligatsiya, syertifikat, veksellar...) chiqarilib, sotilayotgani yo`q. Kelajakda bu muhim masalani hal etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Davlatning iqtisodiy siyosatida qishloq xo`jalik korxonalarida ham qimmatli qog`ozlar bozorini tashkil etish tadbirlari ishlab chiqilishi va ular amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

Bozor iqtisodi sharoitida investitsion siyosatni shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- tendyer asosida raqobatbardosh loyihalarni tanlashga. Bu qishloq xo'jaligida investitsion loyihalar bozori barpo etilishini ta'minlaydi;

- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligiga. Qishloq xo'jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarining xususiyatlari real hisobga olingan holda iqtisodiy-ijtimoiy natijalari aniqlangan bo'lishi zarur. Chunki, aksariyat hollarda loyihada belgilangan mablag'lar ko'zda tutilgan tadbirlarni bajarish uchun etmaydi, oqibatda ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Bu hol investitsion loyihalar uzoq muddatga cho'zilishiga olib keladi;

- chet el investorlarini va ularning investitsiyalarini qishloq xo'jaligiga jalb etishga. Buning uchun qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlarga bo'lgan shaxsiy va xususiy mulkchilikni rivojlantirish lozim va boshqalar.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat tamonidan barcha sohalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan qulay investitsion siyosat yuritilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu inqirozni salbiy ta'sirini susaytirishga qaratilgan tadbirlarda o'z aksini topgan.

Barcha omillarni e'tiborga olgan holda sarflanadigan investitsiyalar qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etadi. Qishloq xo'jaligi zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, bino-inshootlar bilan ta'minlanadi. Unda bog'zor, uzumzorlar barpo etiladi. Zotli, sermahsul chorva hayvonlari yaratiladi.

Ular yangi ish joylari barpo etilishini ta'minlaydi, qishloq xo'jaligida band bo'lgan tadbirkorlarning bilimlarini, malakalarini yuksaltiradi, bozor munosabatlarini shakllantiradi. Ularning uyg'unlashishi natijasida tarmoqda yyetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'paytirilib, raqobatbardoshligi oshadi. Bu, o'z navbatida, aholini, qayta ishlash tarmoqlarini va nihoyat, davlatning talabi qondirilishini ta'minlaydi, fuqarolarning turmush darajasini yuksaltiradi. Bularning hammasi investitsiyalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Kapital qo'yilmalarning xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati ulkan. Birinchidan, kapital qo'yilmalar jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Kapital qo'yilmalardagi o'zgarishlar jami talabga etarlicha ta'sir ko'rsatadi, shuningdek aholining bandligi va yalpi milliy daromad (YaMD) hajmining ham o'zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kapital qo'yilmalar korxonaning asosiy fondlari jamg'arilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqarish kuchlarini kengaytirishga sarf qilingan pul mablag'lari boshlang'ich bosqichda korxonada faoliyati natijalariga ta'sir etmasligi mumkin, lekin kelajakda iqtisodiy o'sish uchun zarur bazani yaratadi.

Uchinchidan, kapital qo'yilmalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o'sishiga olib keladi, natijada YaMD qisqaradi. Misol uchun, tugatilmagan qurilishning ko'payishi, moddiy resurslarning oshishi, to'lanadigan ish haqining ko'payishi hamda ishlab chiqarishning qisqarishi shular jumlasidandir. Xuddi shunday tarzda noritmik holda yetkazib berilgan vositalar me'yordan yuqori

bo`lib, korxonalar zahiralari ham ta'sir ko`rsatadi. Ular sarflanayotgan kapital qo`yilmalarning qiymati o`shishiga hamda samaradorligiga ta'sir etadi.

Kapital qo`yilmalarning miqdori, dinamikasi va samaradorligi quyidagi omillarga bog`liq:

- kapital qo`yilma amalga oshirilayotgan loyihaga;
- mamlakatdagi, tarmoqdagi va korxonalar faoliyatidagi iqtisodiy o`zgarishga;
- davlatning soliq siyosati va banklarning foiz stavkasiga;
- tashqi savdodagi iqtisodiy holatga;
- milliy valyutaning ichki va tashqi kursiga;
- mamlakatning siyosiy hayotidagi barqarorlikka.

Investitsiyalar (kapital qo`yilmalar) qishloq xo`jaligining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Chunki ular evaziga tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi. Ulardan to`liq va samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ko`payib, sifati yaxshilanadi. Bu hol qishloq xo`jalik mahsulotlariga bo`lgan talab yanada yaxshiroq qondirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda sof foyda summasi ko`payadi. Natijada qishloq xo`jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati tug`iladi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yanada yuksaladi. Bular investitsiyalar, kapital qo`yilmalarning ijtimoiy hamdaiqtisodiy samaradorligi mavjudligidan dalolat beradi.

9.2. Qishloq xo`jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo`yilmalar)ning manbalari, ularning sarflanish yo`nalishlari

Qishloq xo`jaligining barqaror rivojlanishi tarmoqda mavjud bo`lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, qayta ta'mirlash, qurish, innovatsion hamda ijtimoiy munosabatlar yig`indisidan tashkil topadi.


Investitsiyalarni maqsadi, vazifalari, manbalari hamda yo`nalishlarini e'tiborga olgan holda quyidagicha turkumlashtirish mumkin. (9.2.1-chizma)

Barcha investitsiyalar (kapital qo`yilmalar) quyidagi yirik ikkita manbadan shakllantirilib, amalga oshiriladi:

1. korxonaning o`z mablag`laridan;
2. chetdan jalb qilingan mablag`lardan.

Korxonaning o`z mablag`lariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning sof foydasidan ajratilayotgan mablag`lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag`lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag`lar;
- ularni ijaraga berishdan tushgan mablag`lar;
- qishloq xo`jalik korxonalari qimmatli qog`ozlar chiqarib sotish, boshqalarnikini sotib olish natijasida olinayotgan dividendlardan ajratilayotgan mablag`lar va boshqalar.



9.2.1-chizma

Investitsiyalarning maqsadi, vazifasi, manbalari va yo`nalishlari bo`yicha turkumlashirilishi

Yuqoridagilardan tashqari, qishloq xo`jaligi korxonalar uchun kapital qo`yilmalar manbai chorva hayvonlarini sotishdan tushgan mablag`lar, Ustav fondini ko`paytirish uchun qilingan ajratmalar ham hisoblanadi.

Chetdan jalb qilingan mablag`lar esa:

- qishloq xo`jaligi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag`lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag`lar;
- turli xil qarzlilar, shu jumladan, tijorat banklaridan olinadigan barcha turdagi kreditlar;
- xo`jalik a'zolarining bo`sh yotgan mablag`larini jalb etish;
- xorijiy davlatlar, tashkilotlar, korxonalar hamda shaxsiy korxonalar va fuqarolarning mablag`lari;
- xayriya fondlaridan, homiyilar ajratayotgan mablag`lari va boshqalar.

Chetdan jalb qilingan investitsion mablag`lar orasida bank kreditlari alohida o`rin tutadi. Ular ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan qat'i nazar, alohida korxonalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda kapital qo`yilmalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bank kreditlari korxonalar o`z mablag`larining kapital qo`yilma uchun kerakli

miqdorini yig`masdan turib investitsiya jarayonini tezlashtiradi. Kreditlar kapital qo`yilma manbai sifatida nafaqat kapital qurilishda, balki yangi texnikani joriy qilishda ham ishlatiladi. Kapital qo`yilmalarning asosiy vazifasi – tarmoq mahsulotini ko`paytirish va ishlab chiqarish samaradorligining o`shirish sur'atlari tezlashtirilishini ta'minlashdir.

Kapital – korxonada moliyaviy natijalarining bir qismi bo`lib, aylanma fondlarga qo`yilib, daromad keltiradi. Kapitalning aylanma fondlarga qo`yilishi to`g`ri portfelli investitsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, investitsiya qilishda korxonada o`z mablag`laridan imkoni boricha foydalanishi ikkita ustunlikka olib keladi: birinchisi korxonada tashqi to`lovlar mavjud bo`lmaydi (olingan kreditlar bo`yicha foiz, aksiyalar bo`yicha dividendlar, ijara haqi va hokazo), shuningdek, ikkinchisi esa korxonani boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Ayni paytda xo`jaliklarga chetdan jalb qilinadigan mablag`larning manbalaridan biri xo`jalik a'zolarining vaqtincha bo`sh yotgan mablag`larini jalb etish hisoblanadi. Bunday investitsiyani amalga oshirish uchun korxonada o`z ichida qisqa muddatli obligatsiyalarni, veksellarni chiqarib, ularni a'zolariga ishonchli tarzda tarqatishi (sotishi) yoki huquqiy kuchga ega bo`lgan ishonchli dalolatnomalarni ham berishi mumkin. Xo`jalik a'zolari esa muomalaga berilgan mablag`larini ma'lum muddat o`tgandan so`ng belgilangan foizi bilan qaytarib olish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bu turdagi kapital qo`yish qishloq xo`jaligi korxonalarini uchun hozirgi davrda yaxshi samara bermaydi. Chunki xo`jaliklarda hozircha qimmatli qog`ozlarni chiqarish imkoniyatlari cheklangan, kelajakda shu masalalarga alohida e'tibor berish kerak.

Chetdan jalb etilayotgan investitsiyalar chet davlatlarning, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

- Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo`shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad respublika hududida chet el investitsiyalari hisoblanadi. Ular O`zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo`llar bilan amalga oshiriladi:

- respublika qishloq xo`jaligidagi yuridik hamda jismoniy shaxslarning Ustav jamg`armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo`shib qatnashish;

- tarmoqda chet ellik investorgarga to`liq qarashli bo`lgan xo`jalik jamiyatlari va shirkatlari, bank, sug`urta va boshqa korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;

- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog`ozlarni, shu jumladan, O`zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz mablag`larini sotib olish;

- intellektual mulkka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, firma nomlari va nou-xaularga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish va boshqalar.

Ularni chet davlatlar yoki bu davlatlarning quyidagi hududiy vakolatli tashkilotlari amalga oshiradilar:

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, shirkatlar, uyushma va tashkilotlar;
- chet el fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar va boshqalar.

Hozirgi davrda mamlakat qishloq xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarishini rivojlantirishga Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot bankining respublikadagi bo'limlari hamda AQSh, Germaniya, Xitoy XR Isroil, Gollandiya, Fransiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash orqali muayyan darajada hissa qo'shish ishlari bilan shug'ullanmoqda. Lekin ularning investitsiyalari tarmoqdagi talabni qondiradigan darajada emas. Shuning uchun bu masalaga, ya'ni chet el investitsiyalarini jalb etish muammosiga kelajakda alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Chet el investorlari investitsiyalari O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998 y) qonuni talablari asosida amalga oshiriladi.

Hamon qishloq xo'jaligiga investitsiyalar kam sarflanishiga qaramay, ularning salmog'i tabora kamayib bormoqda. Masalan, 2005-yilda qishloq xo'jaligiga sarflangan investitsiya summasi mamlakat miqyosidagi jami investitsiyalarning 4,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilning huddi shu davrida sarflangan investitsiya atigi 2.7 foizini tashkil etgan. O'tgan yillar mobaynida qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiya 0,7 foizga qisqargan. Lekin, 2005-2008-yillarda tarmoqqa kiritilgan investitsion mablag' summasi, 137.9mlrd so'mdan 260.7so'mga oshgan. Bu o'z navbatida tarmoqda ko'proq miqdorda yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini rivojlantirish, yangi texnika hamda texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday holni oldini olish uchun tarmoqdagi mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishni, ayniqsa, xususiy mulkchilikni hamda investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish talab etiladi.

9.3. Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni sarflashdan maqsad—qo'shimcha foyda olish va fuqarolarning yashash sharoitini yaxshilashdir. Ularning darajasini loyihalar tuzishda hamda bu loyihalarni amalga oshirishda aniqlash mumkin. Buning uchun investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Iqtisodiy samaradorlik xarajatlar bilan foyda summalari taqqoslanishi natijasida aniqlanadi. U:

- makroiqtisod, ya'ni mamlakat miqyosida;
- mezoiktisod, ya'ni tarmoqlar (qishloq xo'jaligi) miqyosida;
- mikroiktisod, ya'ni qishloq xo'jalik korxonalarini, tashkilotlari doirasida;

- ayrim yo`nalishlar, ob'ektlar bo`yicha ham aniqlanadi.

Makro hamda mezo-iqtisod miqyosida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi ularning mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorligi koeffitsienti ko`rsatkichi yordamida ifodalanadi. Uning darajasi sarflangan investitsiyalar natijasida yalpi ichki mahsulotning o`sgan summasini shu o`shishni ta'minlagan investitsiya summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Is(\hat{Es}) = \frac{Ya\hat{I}\hat{O}}{\sum IS(\hat{E}\hat{e})} = \frac{YaD\hat{O}}{\sum Is(\hat{E}\hat{e})}$$

Bunda: $Is(Ks)$ – investitsiya (kapital qo`yilma)larning mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti;

$YaIM$ – makro, mezo-iqtisod(tarmoq) miqyosida ma'lum bir davr ichida yalpi ichki mahsulotning o`sgan summasi, so`mda. Bunda qishloq xo`jaligida yalpi daromadning o`sgan summasi ham olinishi mumkin;

$\Sigma Ic (Kk)$ – investitsiya yoki sarflangan kapital qo`yilma summasi. Bu ko`rsatkich sarflangan 1 so`mlik investitsion mablag` evaziga necha so`mlik yoki tiyinlik yalpi ichki mahsulot yoxud yalpi daromad olinganligini ifodalaydi. Uning mutlaq (absolyut) miqdori imkoni boricha yuqori bo`lgani yaxshi. Shunda investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo`ladi. Kam bo`lsa, u iqtisodiy samaradorlik darajasi past bo`lganligidan dalolat beradi. Bunday holda investitsiyalarni sarflash maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Investitsiyalar – aksariyat hollarda uzoq muddatga mo`ljallangan xarajatlardir. Shuning uchun ularning bir necha yillar davomidagi iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Bunda inflyatsiya darajasi hisobga olinadi. Hozirgi davrda qishloq xo`jaligida qiyosiy baho sifatida 1996 yilgi o`rtacha baholar asos qilib olinmoqda. Kelajakda bu baholar o`zgarishi mumkin.

Shunday hollarda investitsiyalar (kapital qo`yilmalar) ning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- loyihaning o`zini-o`zi qoplash usulini aniqlash;
- kompaunding (murakkab foizlar) usuli;
- diskontlash usuli.

O`zini-o`zi qoplash muddati – amalga oshirilayotgan loyihaning foydasi hisobidan dastlabki investitsiya miqdorini qoplash davri. Uni hisoblashda sof foyda moliyaviy xarajatlar, foizlar va amortizatsiya ajratmalari e'tiborga olinadi.

Kompaunding usulining mohiyati shundan iboratki, bunda dastlabki summa har yilgi daromad foizi hisobiga oshib boradi. Bunda quyidagi formulaga amal qilinadi:

$$O`Q = B\hat{E}(1+i)^n$$

Bu yerda: $O`Q$ - dastlabki investitsiya summasining o`sgan qiymati, so`mda;

BQ - dastlabki investitsiyaning boshlang`ich qiymati, so`mda;

I – foiz stavkasining o`zgarishini ko`rsatuvchi birlik;

n – davr, ya'ni muddat, yilda.

Investitsiyaning o`sgan qiymati foiz stavkasi bilan davr muddatiga bog`liq. Foiz stavkasi investorning muqobil qarorini hisobga oladi, ya'ni pulni biron loyihaga qo`ygan samaralimi yoki depozitga qo`ygan afzalmio`

Diskontlash – hisoblash printsipti kompaundingga nisbatan teskari. Ya'ni diskontlash – kelajakda bo`lishi mumkin bo`lgan daromadni joriy baholarda hisoblash. Mazkur hisobning amaliy mazmuni shundan iboratki, bunda tushumlarning minimal darajasi aniqlanadiki, u shu daromaddan kam bo`lgan holatda investitsiya qilish maqsadga muvofiq emas.

Diskontlashgan qiymat foiz stavkalariga bog`liq.

Yillik daromad bir xil bo`lganda diskontlashgan qiymat (D_k) quyidagi formula yordamida aniqlanishi mumkin:

$$D_k = \frac{K}{(1 + F)^x}$$

Bunda: D_k – diskontlangan qiymat, so`mda;

K – banklarning foiz stavkalari asosida olinishi mumkin bo`lgan qiymat, so`m;

x – yillik daromad olinishi mumkin bo`lgan yillar soni, yil;

F – banklarning foiz stavkalari, foiz;

Bankning yillik foiz stavkasi 5 foiz, xo`jalik ikki yildan so`ng 10 mln. so`mlik daromad olishni mo`ljalangan bo`lsa, unda diskontlangan qiymat 9,07 mln. so`mga teng bo`ladi.

$$D_k = \frac{10000000}{(1 + 0,05) + (1 + 0,05)} = 9070000 \text{ so`m}$$

Diskontlash natijasida qanday davr bo`lishidan qat'i nazar daromadlarning real qiymati aniqlanadi.

Korxonada miqyosida sarflanishi lozim bo`lgan yoki sarflangan investitsiya (kapital qo`yilma) mutlaq (absolyut) investitsiya(kapital qo`yilma)larni sarflash natijasida olinayotgan sof foydaning o`sgan summasini shu o`shishni ta'minlagan investitsiya (kapital qo`yilma) summasiga taqsimlash bilan hisoblanadi. Unda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$I_s(\hat{E}) = \frac{S_f}{I_s(\hat{E})}$$

Bunda: S_f – kapital qo`yilmani amalga oshirish natijasida olingan sof foyda yoki sof foydaning o`sgan summasi, so`mda.

Bu ko`rsatkich yordamida sarflangan bir so`mlik investitsiya (kapital qo`yilma) qancha so`mlik yoki tiyinlik foyda keltirilganligi aniqlanadi. Shuning uchun bu ko`rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori yuqori bo`lgani maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda ayrim me'yoriy hujjatlarda investitsiyalar (kapital qo`yilmalar) mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorlik darajasi koeffitsientining me'yoriy miqdori (E_m)-0,07 darajasida belgilangan. Shunga binoan sarflanayotgan investitsiyalarning har bir so`mi evaziga 7 tiyin foyda olinsa, bunday investitsiyalar iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Undan kam bo`lganda esa investitsiyalar samarali

hisoblanmaydi. Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligida irrigatsiya - melioratsiya inshootlariga sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorlik koeffitsientining miqdori ularning uzoq yillar davomida faoliyat ko'rsatishini e'tiborga olgan holda 0,05 darajasida belgilangan. Bu koeffitsientlar sobiq SSSR davrida ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan holda ishlab chiqilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ham ulardan foydalanilmoqda. Lekin ularni respublika sharoitiga moslashtirilgan holda ko'rib chiqish vaqti ham keldi.

Qishloq xo'jaligida sarflangan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) doimo ham foyda summasi oshishini ta'minlamaydi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yoki mahsulot yetishtirish uchun qilingan o'rtacha xarajalar (mahsulot tannarxi) kamayishiga ham olib keladi. Shunday hollarda ularning iqtisodiy samaradorlik darajasi tejalgan mablag' qiymatini sarflangan kapital qo'yilma summasiga taqsimlab ham aniqlanadi. U quyidagi tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$I(Ks) = \frac{T_1 - T_2}{Is(K\kappa)}$$

Bunda: T_1 – investitsiya (kapital qo'yilma) sarflanganidan oldingi tannarx summasi, so'mda;

T_2 – investitsiya (kapital qo'yilma) sarflanganidan so'nggi tannarx summasi, so'mda.

Bu ko'rsatkichning ham mutlaq (absolyut) darajasi yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya (kapital qo'yilmalar) ning qoplash muddati.

Uning darajasi sarflangan investitsiya (kapital qo'yilma) summasini olingan yalpi ichki mahsulotning, sof foydaning o'sgan summasiga taqsimlash orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$Im(Km) = \frac{Is(Km)}{YaIM}; \quad Is(\hat{E}\hat{e}) = \frac{Is(\hat{E}\hat{e})}{Sf}$$

Investitsiyalarning (kapital qo'yilma) qoplash muddati qisqa bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birgalikda investitsiya (kapital qo'yilmalar)ning qiyosiy samaradorligi ham aniqlanadi.

Mavjud adabiyotlarda investitsiya (kapital qo'yilma) larning qiyosiy samaradorlik koeffitsienti 0,12 darajasida belgilangan. Unga 1 ni taqsimlash natijasida investitsiyalarning necha yilda qoplanishi mumkinligi aniqlanadi, ya'ni (1:0,12) 8,3 yilda qoplansa, investitsiyalar qiyosiy jihatdan samarali hisoblanadi.

9.4 Investitsiya (kapital qo'yilma) lar darajasi, dinamikasi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ichki va tashqi bozorning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish eng dolzarb muammodir. Uni hal etish uchun investitsiya (kapital qo'yilma) larni sarflash zarur. Buning uchun esa siyosiy, mintaqaviy, iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash darkor.

Respublikada bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida yuqorida ta'kidlangan sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi davrda Respublikadagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlik qishloq xo'jaligiga investitsiyalar jalb etilishiga imkoniyat berilmoqda. Uning rivojlanishini ta'minlash maqsadida investitsion siyosatning huquqiy asoslari ham barpo etilgan. Ularning mavjudligi so'nggi yillarda tarmoqqa ma'lum miqdorda investitsiya (kapital qo'yilma)lar sarflanishini ta'minlamoqda (9.4.1-jadval).

9.4.1-jadvaldagi raqamlarning dalolat berishicha, iqtisodiyotning asosiy kapitalining salmog'ida qishloq xo'jaligiga sarflangan investitsiya salmog'i 1996-2008-yillarda 5.2foizdan 2.7foizga tushgan. Demak shu yillarda sarflangan investitsiya salmog'i nisbiy birligida 49.1foizga pasaygan. Aslida esa tarmoqqa shu davrda sarflangan investitsiyalar summasi haqiqiy narhlarda 18.4mlrd. so'ndan 260.7mlrd so'mga yetkazilgan, yoki 14martadan kamroq investitsiya kiritilgan. Tarmoqqa investitsiya kiritish XXI asrning dastlabki yillarida tez sur'atlar bilan oshgan. Bu davlat siyosatining qishloq xo'jaligiga nisbatan keskin o'zgarganligidan dalolat beradi

9.4.1-jadval

Respublikada sarflangan investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, foizda

Tarmoq nomi	Yillar			
	1996	2000	2005	2008
Sanoat tarmoqlari	4.8	6.5	32.6	34.4
Qishloq xo'jaligi	5.2	2.8	4.4	2.7
Qurilish	0.4	0.9	0.9	2.0
Transport, aloqa	1.7	1.9	24.1	25.1
Uy-joy xo'jaligi	1.2	1.3	14.1	10.5
Boshqa tarmoqlar	3.7	2.9	23.9	25.3

*Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Shuning bilan birgalikda tarmoqda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay investitsion muhit shakllantirilmoqda. Uning huquqiy asoslari rivojlantirilmoqda. Natijada tarmoqqa kiritilayotgan investitsiya summasi so'ngi yillarda oshgan. Masalan, 1996-yilda 3.8mlrd (haqiqiy narhlarda) so'mga yaqin chet el investitsiyasi sarflangan bo'lsa, 2005-yilda 7.9mlrd so'mlik va 2008-yilda esa 72.1mlrd so'mda ko'proq mablag' sarflangan. Shu yillarda chet el investitsiyalarini jalb etish 18.9marta oshgan. (9.4.2-jadval)

Qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan investitsiyalar asosan:

- bino va inshootlarni qurish va capital ta'mirlashga;
- barcha turdagi texnikalarni sotib olishga;

- irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishga;
- chorvachilikni rivojlantirishga;
- yangi texnologiyalarni olib kirishga;

O`zbekiston qishloq xo`jaligiga sarflangan investitsiyalar.*
(mlrd so`m haqiqiy narhlarda.)

	Yillar			
	1996	2000	2005	2008
Asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar	18.1	42.6	138.2	260.7
Chet el investitsiyalari	3.8	7.9	20.8	77.1

*yillik statistik to`plam.2008-y. T:2009y.281, 290betlar.

Сельское хозяйства Узбекистана. T:2009y. 10-bet


- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga;
- yilqichilik, naslchilik va navchilikni rivojlantirishga;
- intellektual salohiyatni rivojlantirishga va boshqalarga.

Masalan Osiyo taraqqiyot banki 2003-yilda donli ekinlar hosildorligini oshirish tadbirlariga 21mln AQSh dollarida investitsiya sarflagan.

O`zbekiston respublikasining 2008-yili “Investitsiya dasturi to`g`risida”gi PK-704 sonli qarori asosida 77.75mln AQSh dollari miqdorida investitsiya sarflangan.

“2009-yilda yirik investitsiya loihalarini amalga oshirish... qishloq xo`jaligi hamda meliorativ qurilishni rivojlantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko`tarish masalalari ham e`tiborimiz markazida. Ushbu masalalar uchun 2009-yilda jami 2.5mlrd dollar miqdorida kapital mablag`lar yo`naltirildi”¹ deb ta`kidladi prezident Karimov.

Sarflanadigan investitsiya (kapital qo`yilma) lar natijasida yerlarning meliorativ holati yaxshilanib, suv bilan ta`minlanganlik darajasi yuksalmoqda, ishlab chiqarish mexanizatsiyalashtirilishi, kimyolashtirilishi tufayli ekinlar hosildorligi oshmoqda (9.4.1-chizma).



9.4.1-chizma

Respublikada qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligining o`zgarishi

¹ Karimov I A “Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” Xalq so`zi. 30.01.2010yil.

1996-2008 yillarda boshqali don ekinlari hosildorligi 18,9 sentnerdan 42.0 sentnerga, sholining hosildorligi esa 23,5 s.dan 33.5 s.ga etdi. Shu yillarda sabzavot ekinlarining o`rtacha hosildorligi 41.4 foizga oshib, 246.4 sentnerni, kartoshka hosildorligi 74.1 foizga ortib, 194.1 sentnerni tashkil etdi. Natijada ekinlarning yalpi hosili ham ko`paydi. Bu hol qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti miqdori hamda qiymati oshishini ta'minladi. Bularning hammasi qishloq xo`jaligiga sarflanayotgan investitsiya (kapital qo`yilma)larning iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlamoqda.

Masalan Toshkent viloyati, o`rta Chirchiq tumani hududida joylashgan fermerlar uyushmasining umumiy ekin maydoni 2008-yilda 2218ga bo`lib, shundan 2060gektariga g`o`za, bug`doy va sholi ekilgan. Shu maydonda tizimli irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari amalga oshirilgan. Buning uchun 80mln so`m investitsiya sarflandi. Natijada ekin maydonlarining suv bilan ta'minlanishi hamda meliorativ holati yaxshilangan. Shuning oqibatida shu yilning o`zida ekinlarning hosildorligi oshgan, harajatlar ham tejalgan. Ta`kidlash joizki, ekilgan ekinlarni yetishtirishda barcha agrotehnik tadbirlar avvalgi yillardagidek, vaqtida hamda sifatli amalga oshirilgan. Uyushmada sarflangan investitsiya samara bergan. (9.4.3-jadval)

Uyushmadagi fermerlar irrigatsiya-melioratsiya tadbirlariga sarflangan 1so`mlari evaziga bir yilning o`zida 0.618 yoki 62tiyin sof foyda olishga erishganlar. Shu tadbir uchun sarflangan investitsiyalar 1.619yilda qoplanishi mumkin. Bu raqamlar investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini yuqori ekanligidan dalolat beradi. Odatda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik darajasi 0.12dan yuqori bo`lsa ular samarali investitsiyalar hisoblanadi.

Amalda qishloq xo`jaligiga sarflanayotgan investitsiyalar samara bermoqda. Kelajakda qishloq xo`jaligini yanada rivojlantirish uchun investitsiyalarni sarflash maqsadga muvofiqdir.

9.4.3-jadval

Toshkent viloyati, o`rta Chirchiq tumanidagi Ohunboboyev nomli fermerlar uyushmasida irrigatsiya-melioratsiyaga sarflangan investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi.*

	Ko`rsatkichlar	O`lcho v birligi	2 008-yil
	Irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari amalga oshirilishi		
	-g`o`za ekin maydoni	Ga	9 80
	-sholi ekin maydoni	Ga	1 80
	-bug`doy ekilgan maydon	ga	9 00
	Sarflangan investitsiya summasi	mln.so` m	8 0.0
	Investitsiya natijasida irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish oqibatida qo`shimcha olingan:		
	-pahta xom-ashyosi	sent	6 450
	-bug`doy hosili	sent	1 270
	-sholi hosili	sent	2 50
	Qo`shimcha olingan hosilni sotishdan olingan pul tushumi:	Mln.so` m	3 42.0
	-Pahta xom-ashyosi	-	2 77.4
	-Bug`doy	-	4 3.1
	-Sholini	-	2 1.5
	Qo`shimcha hosilni yetishtirish uchun qilingan jami harajat:	Mln.so` m	2 92.6
	-Pahta xom-ashyosiga	-	2 40.6
	-bug`doyga	-	3 5.2
	-sholiga	-	1 6.8
	Qo`shimcha hosil evaziga olinga foyda	Mln.so` m	4 9.4
	-pahta xom-ashyosi	-	3 6.4

	-bug`doy hosili	-	7. 9
	-sholi hosili	-	4. 7
	Sarflangan investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi	So`m	0. 618
	Investitsiyaning qoplash muddati	yil	1. 619
	O`simlikchilik tarmog`ining rentabelligi	%	1 9.2

* Uyushmadagi fermer xo`jaliklari ma'lumotlari asosida hisoblangan.

9.5. Investitsiya (kapital qo`yilma) lar ko`lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo`llari

Kelajakda qishloq xo`jaligining moddiy-texnika bazasini talab darajasida barpo etish, mehnat resurslarining bilimlarini, malakalarini, tajribalarini oshirish uchun investitsiya (kapital qo`yilma) lar sarflashni davom ettirish kerak. Qishloq xo`jaligini rivojlantirish uchun, avvalo, davlat hamda mahalliy byudjetlardan ajratilayotgan investitsion mablag`larni o`z vaqtida olishga erishish kerak. Shu bilan birga tarmoq, korxonalar iqtisodiyotini yuksaltirish natijasida ularning faoliyatini kelajakda investitsiyalash uchun ko`proq mablag` ajratilishini ta'minlashga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bunda korxonalar ixtiyoridagi fondlarning mablag`larini ham oqilona sarflashga harakat qilish kerak. Chunki ular investitsiyalar ko`lamini kengaytirishning real manbalari hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligiga talabni qondiradigan darajada investitsiya (kapital qo`yilma) lar sarflanishini kelajakda ishonchli ta'minlash uchun investitsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik hamda jismoniy shaxslar ko`lamini kengaytirish talab etiladi. Bunday shaxslar respublika yoki chet davlatlardan bo`lishi mumkin. Bunda, hozirgi davrda qishloq xo`jaligidagi investitsion jarayonni shakllantirishda sust qatnashayotgan investorlarni intensivroq jalb etishga alohida e'tibor berish lozim.

Hozirgi davrdagi banklarning ko`lamini kengaytirishga erishish lozim. Buning uchun ularga huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berish zarur. Shuning bilan birga qishloq xo`jaligiga ko`maklashayotgan moliya-kredit institutlarini, jumladan, qishloq kredit uyushmalari yoki kooperativlarini tashkil etish, ularning faoliyatini rivojlantirish kerak. Bunday kredit institutlarining huquqiy asosi yaratilgan: Respublika Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida (2002 yil, avgust) «Kredit uyushmalari to`g`risida»gi qonun qabul qilingan. Shunga asoslangan holda, Qishloq kredit uyushmalari yoki kooperativlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish orqali qishloq xo`jaligiga investitsiya oqimini ko`paytirishga erishish mumkin. Ular nodavlat, notijorat kredit instituti bo`lgani ma`qul. Shuning uchun ularga davlatning imtiyozli iqtisodiy yordami zarur. Bu yordamni davlatning qishloq xo`jaligini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi dasturlari asosida amalga oshirish mumkin:

- «Oziq-ovqat muammosini hal etish»;
- «Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini rivojlantirish»;
- «Qishloq faunasini, florasini hamda ekologiyasini yaxshilash»;
- «Yangi ish joylarini tashkil etishni rivojlantirish, ishsizlikni yumshatish»;
- «Qishloqda malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida «Bilimi-malaka» dasturini tuzish»;
- «Qishloqda ijtimoiy sohani rivojlantirish»;
- Qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirish va boshqalar.

Bundan tashqari yangi tashkil etilgan qishloq kredit kooperativlarida ayrim fondlar bo`yicha davlat subsidiyalari va kafolatlari tizimini joriy etish lozim. Tashkil etilayotgan qishloq kredit kooperativlari boshlang`ich kapitalining 35-45 foizi davlatning imtiyozli hamda foizsiz kreditlari hisobidan shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq kredit kooperativlarini tashkil etish jarayonida davlatning roli quyidagilar bilan chegaralanishi maqsadga muvofiqdir:

- respublikadagi qonun yaratuvchi idoralar bu kooperativlar uchun mamlakat miqyosida hamda xorijiy davlatlarda to`liq faoliyat yuritishning huquqiy asoslarini yaratib berishi;

- ushbu kooperativlarning ilmiy, uslubiy muammolari bo`yicha tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qulay muhit yaratilishi;

- ularni tashkil etish bo`yicha chet el ekspertyalarini jalb etish va mahalliy mutaxassislar tomonidan xorijning ilg`or tajribalarini o`rganishga izchillik bilan yordam berish;

- davlat idoralarining rahbar va mutaxassislari yangidan tashkil etilayotgan Qishloq kredit kooperativlarining afzalliklarini barcha axborot vositalari yordamida targ`ib etishga, tushuntirishga qaratilgan faol siyosat olib borishlari, ularni amalda tashkil etishga ko`maklashishlari zarur.

- Kredit kooperativlarini qishloq hududlarida tashkil etish uchun quyidagi shartlar bajarilib, ijobiy muhit shakllantirilgan bo`lishi zarur:

- qishloq xo`jalik korxonalarining rahbar, mutaxassislari, shuningdek, mehnatga qobiliyatli aholining ushbu moliya-kredit institutiga ishonishi va uni hurmat qilish holatining mavjudligi;

- shu moliya-kredit instituti faoliyatida faol ishtirok etish uchun aholi moliyaviy farovonlik darajasining yuqoriligi bu aholining bo`sh mablag`lari mavjudligidan dalolat beradi;

- barcha bo`g`indagi davlat hokimiyati idoralari va boshqa tashkilotlarda qishloq xo`jaligi korxonalarini, ayniqsa, fermer va dehqon xo`jaliklarini, kichik korxonalarini kreditlashtirish rivojlantirilishini ta'minlaydigan ushbu g`oyani moddiy jihatdan qo`llab-quvvatlab, unga hayrixohlik munosabatlari mavjudligi. Chunki qishloq kredit kooperativlarining tashkil etilishi qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini kreditlashtirish bilan shug`ullanadigan moliyaviy bozorda erkin raqobatchilik rivojlanishini ta'minlaydi;

- qishloq joylarida xodimlar, mutaxassislar kredit kooperativlarining malakali xodimlarga bo`lgan talabini qondira oladigan darajada mavjudligi;

- qishloq hududlarida yangi kredit kooperativlarini tashkil etish bo`yicha ijtimoiy, iqtisodiy muhitning talab darajasida shakllanganligi va boshqalar.

Demak, qishloq hududlarida kredit kooperativlarini tashkil etish masalasining ijobiy hal etilishini jadalalashtirish uchun yuqorida ta'kidlangan shart-sharoitlarni tezroq shakllantirishga eng avvalo tarmoqdagi tadbirkorlar, qolaversa, davlat va nodavlat idoralari alohida e'tibor berishlari zarur.

Yangitdan tashkil etilayotgan "Qishloq kredit kooperativlar" nodavlat, notijorat moliya tashkiloti sifatida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi lozim. Ularning asosiy maqsadi foydalanish uchun berilayotgan kapital evaziga foyda olish emas, balki qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar faoliyati rivojlanishiga imkon beradigan kredit olish sharoitlari yaxshilanishini ta'minlashdir. Bunday kooperativlar berayotgan kreditlari uchun o'z a'zolari majburiyatlari yuzasidan, ya'ni jamoatchilik asosida kafolat beradi, berilgan qarzlarni o'z vaqtida sug'urtalaydi, a'zolaridan pay badallarini yig'adi va boshqa iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiradi. Chunki kooperativning har bir a'zosi jamg'arma fondiga qo'shgan hissasidan qat'i nazar bir ovozga ega.

Tashkil etish taklif qilinayotganda Qishloq kredit kooperativlari notijorat moliya-kredit tashkiloti sifatida tijorat banklaridan muayyan jihatlari bilan ajralib turadi (9.4.2-chizma).

Qishloq kredit kooperativlarining aksionerlik-tijorat banklaridan farqi

.r.	Farq qilish mezonlari	Qishloq kredit kooperativi (QKK)	Aksionerlik-tijorat banki
.	Faoliyat maqsadi	A'zolarining kredit resurslariga bo'lgan talabini vaqtida qondirish	Foyda olish
.	Tashkiliy-huquqiy shakli	Jamoa kooperativi	Aksionerlik jamiyati
.	O'z kapitalining manbalari	A'zolarining pay badallari, davlatning maqsadli, imtiyozli kreditlari, aholining bo'sh mablag'lari	Aksionerlarning Ustav kapitaliga qo'shayotgan mablag'lari, foydadan ajratmalar
.	Ko'rsatayotgan xizmat turlari	Kooperativ a'zolariga kredit xizmatlarini bajarish, ularning mablag'larini saqlash, aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish	Talabgorlarga turli xildagi kredit xizmatlarini ko'rsatish, yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlarini yuritish, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish
.	Foydanitaqsimlash	Zahira fondga o'tkazish	Aksionerlarga dividend shaklida berish
.	Xizmat doirasi	Kooperativ a'zolariga	Barcha xohlovchilarga

Qishloq kredit kooperativlari faoliyatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- iste'molchiga yaqin bo'lishi, buning uchun u fermerlar, shirkatlar uyushmasi hududida tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bu unga fermerlar, dehqonlar, pudratchilar, boshqa korxonalar hamda aholi a'zo bo'lishini ta'minlaydi;
- kredit kooperativi majburiyatlari yuzasidan uning a'zolari cheklanmagan miqyosdagi jamoatchilik asosida javobgarlikka ega bo'lishi;
- kooperativga kirish badali hamda paylari summasi juda katta bo'lmasligi, olingan foyda kooperativning bo'linmas va zahira fondlarini rivojlantirishga sarflanishi;
- kooperativning iqtisodiy negizi hisoblangan bo'linmas mulkni barpo etish, bu mulkning minimal miqdorini belgilash;
- olingan kreditlardan faqat Nizomda ko'rsatilgan maqsadlar uchun foydalanish;
- boshqarish organlarining mavjudligi va ularning jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatishi.

Qishloq kredit kooperativining Nizomi shu tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Nizomda kooperativ faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlaydigan barcha masalalar to'liq aks ettiriladi. U kuchli, huquqiy hujjat hisoblanadi. Bu o'rinda

Nizom mazmuniga to'liq to'xtalmasdan unga faqat qishloq xo'jaligini kreditlashtirishni takomillashtirish nuqtai nazardan yondashamiz.

Qishloq kredit kooperativiga kirayotgan har bir a'zo majburiy tartibda kirish badali to'lashi kerak. Uni to'lagan yuridik va jismoniy shaxs kooperativ a'zosi bo'ladi.

Qishloq kredit kooperativi faoliyati natijasida olingan daromad uning bo'linmas hamda zahira fondini tashkil etish uchun ishlatiladi. Bunday zahira fondni shakllantirishdan maqsad, eng avvalo, kooperativ faoliyati natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun mablag' yig'ish, ya'ni birgalikdagi mas'uliyat xavfini kamaytirishdir. Bundan tashqari, mazkur fond iqtisodiy tanglik va tanazzullar davrida ishonchli zahira bo'lib xizmat qiladi, qishloq kredit kooperativlarining kelajakda barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Kredit olishni rasmiylashtirish muddati 1 kun bo'lishi kerak.

Kredit berish shaxsan ishonish yoki kimningdir kafilligi ostida amalga oshirilishi lozim.

Kooperativ a'zolari garovsiz kredit olishlari mumkin.

Kredit kooperativlari dastlabki 5 yil davomida soliqqa imtiyozli ravishda tortilishi, ularning foydasidan soliq olinmasligi kredit stavkalari mos bank stavkalaridan ancha past bo'lishi va kreditni tovar bilan qaytarib olish imkoniyati ko'zda tutilishi lozim.

Kreditlarning qisqa muddat ichida rasmiylashtirilishi mablag'larning tez aylanishiga yordam beradi.

Kooperativning o'z mablag'lari, qarz mablag'lari, shuningdek, mol-mulki bo'lishi mumkin. Kooperativning o'z mablag'lari a'zolarining pay badallari, faoliyati natijasida olingan foyda, shuningdek, o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlar hamda pul shaklida banklarga joylashtirish hisobiga tashkil topadi. A'zolar tomonidan pay badali sifatida berilgan, shu bilan birgalikda ushbu kooperativ faoliyati davomida sotib olingan mol-mulklar uning huquqiy shaxs sifatidagi mulki hisoblanadi.

Kredit kooperativi faqat o'z a'zolari omonatlarini saqlash va ularga qarz berish maqsadida tuzilganligini hisobga olib, bitta a'zoga kredit berish hajmi majburiy pay badali hajmi bilan belgilanadi.

Qishloq kredit kooperativi o'z faoliyatining dastlabki bosqichlarida pul mablag'larining etishmasligi va a'zolariga kerakli miqdorda qarz bera olmaslik kabi muammolarga duch kelishi mumkin. Shu bois dastlabki davrda unga a'zolarining qarz olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'lar kerak. Bu muammoni davlat yordami bilan hal etish mumkin. Bu borada davlat byudjetidan qishloq xo'jalik moliyaviy infratuzilmasining shakllanishiga, qishloq kredit kooperatsiyasi tizimi rivojlanishiga alohida ahamiyat bergan holda mablag' ajratilishi, bu mablag' qaytarib berilmaydigan yoki qaytarib beriladigan ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bunga bog'liq bo'lmagan ravishda kredit kooperativlarini tashkil etish bosqichida ishlab chiqiladigan texnik-iqtisodiy asoslashda davlatdan olingan qarzlarni o'z muddatida (qaytarilayotgan summa miqdori va davriyligi) qaytarish imkoniyatlari hisob-kitob qilinishi kerak.

Kredit kooperativi faoliyatining dastlabki va keyingi davrlarida mablag' etishmasligi muammosini hal etishning boshqa usullari ham mavjud. Bu, avvalo, bankdan imtiyozli kredit olishdir. Bu holatda qarzga olingan mablag'dan

foydalanganlik uchun to'lov (bank foizi) xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kooperativ xarajatlarining bir qismini tashkil etadi va u kooperativ a'zolariga berilgan qarz uchun olingan foiz orqali qoplanishi lozim. Bunda kooperativdagi berilgan qarz uchun foizlar bank kreditidan foydalanganlik uchun to'lanadigan foizlarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi, chunki kooperativ bu turdagi xizmatni amalga oshirishi uchun o'zi tomonidan qilingan xarajatlarni qoplashi kerak.

Qishloq kredit kooperativining asosiy faoliyati kooperativ a'zolariga kredit berish va pul mablag'larini jang'arish kabi xizmatlarni ko'rsatishdan iborat. Shunga mos holda ushbu xizmatni amalga oshirish uchun kooperativning kredit siyosati ishlab chiqiladi va nizomda belgilab qo'yiladi. Ular quyidagilardir:

- kimga qarz beriladi;
- qanday maqsadlar uchun qarz beriladi;
- kooperativning bir a'zosi uchun beriladigan qarzning maksimal miqdori;
- qarz berish muddati, qarzdan foydalanganlik uchun to'lov miqdori (foiz stavkasi);
- qarzni qaytarish kafolati;
- kelishmovchilik va nizolarni hal etish.

Qarz faqat kooperativ a'zolariga beriladi. Yana bir muhim jihati shundaki, qarz nizomda ko'rsatilgan maqsadlar uchungina beriladi. Qarzni ishlatish maqsadini aniqlash kreditor bo'lganligi sababli kooperativning o'z manfaatlarini himoya qilishi lozimligi bilan izohlanadi.

Kredit kooperativi faoliyatining dastlabki davrida, ya'ni kredit resurslari fondi endi shakllanayotgan vaqtda berilayotgan qarz miqdorini aniqlash zarur. Chegaralovchi holatlar berilayotgan qarzning qaytarilish kafolatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bitta a'zoga berilayotgan qarzlar miqdori har xil bo'lishi mumkin va u kredit fondining holatiga qarab belgilanadi. Beriladigan qarzning eng katta miqdorini kooperativning pay fondi hajmi darajasida chegaralash maqsadga muvofiqdir. Bu kooperativ a'zosinining o'ziga bog'liq bo'lmagan u yoki bu sabab bilan qarz bo'lib qolish holatlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash kafolatini beradi.

Kooperativ a'zolariga qarz berish muddatini belgilash katta ahamiyatga ega, chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanish pul mablag'lari kelib tushishi va unga bo'lgan ehtiyojning davriyligini keltirib chiqaradi. Qishloq kredit kooperativi uchun qarz muddati 6 oy va undan ko'pga belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

- Kredit kooperativi faoliyatining muhim jihati qarzdan foydalanganlik uchun to'lov miqdori hisoblanadi. Agar kooperativning kredit fondi faqat omonat uchun qo'yilgan xususiy mablag'lar hisobiga shakllansa, qarzlar kichik foiz bilan berilishi mumkin. To'lov stavkalarini asoslash va belgilashda kredit fondi shakllanishida yuzaga keladigan xarajatlarni hisobga olish kerak. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida jalb qilinayotgan mablag'lar qiymati o'zgarishini hisobga olib, nizomda kredit uchun to'lovning aniq miqdorini belgilash shart emas, balki uning quyi va yuqori chegaralarini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Nizomda ko'rsatilgan vaziyatning eng maqbul varianti kooperativ boshqaruviga kuzatuv kengashi bilan birgalikda

iqtisodiy vaziyatning o'zgarishini hisobga olib, qarzdan foydalanganlik uchun to'lov stavkalarini imkon qadar past belgilash huquqini berish kerak.

- Foiz stavkalarining o'zgartirilishini quyidagicha ifodalash mumkin:
- uning ko'payishi – faqat qarzdan foydalanish uchun foizning o'zgarishi vaqtida tuzilgan shartnoma asosida hisobga olinadi;
- uning kamayishi–barcha shartnomalar, jumladan, oldin tuzilgan shartnomalar asosida hisobga olinadi. Kelishilgan vaqtda tuzilgan shartnomada qarzdan foydalanish uchun foiz ko'rsatiladi va keyinchalik u amal qilayotgan vaqtda barcha o'zgartirishlar kiritiladi.

Berilayotgan qarzning kafolatli ta'minoti kredit siyosatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Qarzni qaytarishning kafolatli ta'minoti usullari quyidagilar bo'lishi mumkin: qarz miqdoriga loyiq garov berish (garov shartnomasi imzolanadi) yoki qarz olayotgan shaxs bilan uni o'z vaqtida to'lash majburiyatini barobar bo'yniga olgan kooperativga ko'pchilik a'zolarining ishonch bildirishlari.

■ Kooperativ a'zolariga qarz berish tartibi va uning miqdori kooperativ nizomiga mos holda umumiy yig'ilish tomonidan belgilanadi. Boshqaruv kengashi qarz berish bo'yicha qarorlarni maqsadga muvofiq holda mustaqil qabul qilishi kerak.

■ Nizomda qarz berishning taxminan quyidagicha tartibi belgilanishi lozim:

■ qarzning umumiy summasi, qarz olishning aniq maqsadi, muddati va qaytarish kafolati ko'rsatilgan belgilangan shakldagi ariza;

■ kooperativ boshqaruvining ariza beruvchining kreditni qaytarish qobiliyatiga bergan bahosi;

■ kooperativ a'zolariga qarz berish uchun umumiy yig'ilish tomonidan qaror qabul qilinishi.

Umumiy yig'ilish qarori asosida kooperativ bilan uning a'zosi o'rtasida qarz shartnomasi imzolanadi. Unda kredit kooperativi nizomida belgilangan qonuniy holatlar, o'zaro munosabatlar va asosiy vaziyatlar o'z aksini topshii kerak. Qarz shartnomasida tomonlar roziligi bilan qarzni uzish tartibi hamda qarz beruvchilarning olingan qarzdan foydalanishi ustidan nazorat qilish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kredit kooperatsiyasi faoliyatining asosiy yo'nalishi kooperativ a'zolari shaxsiy jamg'armalarini jalb qilish bo'lishi mumkin. Qishloq aholisi jamg'armasini to'plab, jamg'arma omonatlariga yaxshi sharoit yaratish bilan kredit kooperativining rivojlanishi uchun mustahkam moliyaviy asos yaratish mumkin. Kooperativ va uning a'zolari o'rtasidagi jamg'armalarni saqlash tartibi va sharti bo'yicha o'zaro munosabatlarda shartnoma tuzilib, umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Qishloq kredit kooperativi buxgalteriya hisoboti andozalariga mos holda hisobotlarni amalga oshiradiki, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: umumiy qoidalar–me'yoriy hujjatlar, tamoyillar, buxgalteriya hisobi masalasi, buxgalteriya hisobi va hisobotiga javobgarlik; hisob texnikasi– nizom jamg'armasidagi operatsiyalarni badallarni ko'rsatgan holda aks ettirish; fondning tashkil topishi, undan foydalanish tartibi va erkin xususiy mablag'larning qolgan qismi. Kredit kooperativi umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan foyda va xarajatlar smetasi har yili chorak (kvartal) larga ajratilgan holda tuziladi.

Shunday qilib, qishloq kredit kooperativlari tijorat bankidan o'z faoliyatining maqsadi, tashkiliy-huquqiy shakli, foydani taqsimlash usuli, xususiy mablag'ining

manbai va xizmat ko`rsatishi bilan tubdan farq qiladigan alohida turdagi moliyaviy institut hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq kredit kooperativlari tizimi murakkab tashkiliy tuzilmaga ega. Kooperativlarning asosiy kooperativ banklari uch darajali tizimga ega bo`lib, asosiy vazifasi qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini kreditlash hisoblanadi. Ular tarkibiy tuzilishi bo`yicha quyidagicha ko`rinishga ega:

- mahalliy kredit kooperativlari;
- hududiy kooperativ banklar;
- hududlararo markaziy kooperativ bank.

Mamlakatda qishloq kredit kooperativlarini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak, chunki, avvalo, fermer va dehqon, shuningdek, boshqa turdagi qishloq xo`jalik korxonalari bunday tuzilmalarni barpo qilish zarurligini va ahamiyatini tushunib etishlari lozim. Shundagina kooperativ banklar tuman va viloyat kooperativlarini birlashtiruvchi ko`p darajali qishloq kredit kooperatsiya tizimini shakllantirishi mumkin. Bu tizimning vazifalari qat'iy taqsimlangan birlamchi kredit bo`g`inlaridan to hududiy va markaziy kooperativ banklar ittifoqi ko`rinishidagi tashkiliy tuzilma sifatida tuzilishi mumkin. Quyi bo`g`indagi qishloq kredit kooperativlari, yuqorida ta'kidlanganidek, ixtiyoriy ravishda dehqon, fermer va boshqa turdagi qishloq xo`jalik korxonalarining pul mablag`larini jamlash yo`li bilan tashkil etiladi. Ular o`z a'zolarining mablag`laridan samarali foydalanishlari ustidan nazorat yuritadilar.

Bundan tashqari, qishloq xo`jaligini investitsiyalash jarayoniga turli xildagi banklarning, investitsiya, lizing va sug`urta kompaniyalarining, ishlab chiqarish kontsyernlarining, savdo va boshqa korxonalar hamda tashkilotlarning mablag`larini jalb etish lozim. Buning uchun ularga davlat hamda qishloq xo`jaligi tomonidan ma'lum darajada iqtisodiy imtiyozlar yaratilishi zarur. Shundagina ular o`z mablag`larini qishloq xo`jaligiga solishi mumkin. Barcha manbalardan shakllanayotgan investitsiya mablag`larini qishloq xo`jaligida quyidagilarga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- foydalanilayotgan yerlarning unumdorligi yuksalishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasini bajarishga;
- yangi yerlarni kompleks o`zlashtirishga;
- tarmoqda fan va samarali texnologiyalarni rivojlantirishga;
- irrigatsiya, melioratsiya shaxobchalarini qurishga, mavjudlarining ishga yaroqliligini ta'minlash maqsadida ta'mirlashga;
- yangi, samarali traktorlarni, mashinalarni, kombaynlarni sotib olish va mavjudlarini ta'mirlashga;
- ishlab chiqarish bino-inshootlarini qurishga, mavjudlarini ta'mirlashga;
- ko`p yillik daraxtzorlar, bog`zor, tokzorlar yaratishga;
- sermahsul chorva hayvonlarini talab darajasida ko`paytirishga;
- tarmoqni barcha ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashga;
- mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish, intellektual mulkni rivojlantirishga;
- ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga va boshqalarga.

Shuning bilan birgalikda qishloq xo`jaligini rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish maqsadida "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili"

davlat dasturi ishlab chiqildi. U tarmoqda quyidagi muhim masalalarni hal etishga qaratilgan:

1. Qishloq aholisining manfaatlarini yana ham to'liqroq ta'minlash maqsadida qonunchilik bazasi va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlashga;
2. qishloq qiyofasini sifat jihatdan yaxshilash, rivojlanish va arhitektura-reja asosida qurilish bosh shemalariga muvofiq qishloq aholi punktlari qurilishi, qishloqdagi turaru joy va ijtimoiy soha obyektlari namunaviy loyihalari bo'yicha barpo etilishini nazarda tutuvchi qishloq aholi punktlarining arhitekturaviy rejalashtirilishini tashkil etish va qishloq qurilishini loyihalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish;
3. ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish asosida qishloqdagi turmush sifatini oshirish, qishloq aholi punktlarini transport komunikatsiyalari, toza ichmlik suvi bilan ta'minlash, ayniqsa boorish qiyin bo'lgan oils qishloq aholi punktlari telekamunikatsiya tarmoqlari va pochta aloqasi bilan qamrab olinishini oshirishga;
4. mamlakatning o'zida qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, yig'ma konstruksiyalar va mahalliy materiallaridan foydalangan holda qishloqda obyektlar qurishning industrial yig'ma texnologiyalarini joriy etish;
5. qishloqni mavjud energiya va gaz ta'minoti obyektlarini rekonstruksiya qilish va shunday yangi obyektlar qurish hisobiga zarur energetika resurslari bilan uzluksiz va kafolatli ta'minlash bo'yicha shart-sharoitlar yaratish;
6. qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni izchil chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini yanada qo'llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloqda shakllanayotgan yangi mulkiy munosabatlar, o'rta sinf mulkdorlar, tadbirkorlar, ishbilarmonlar manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga;
7. 2008-2012-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni bajarish asosida tuproq unumdorligini tubdan oshirishga;
8. qishloqda sonaot ishlab chiqarishi va qurilishini yanada jadal rivojlantirish, meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ihsam korxonalarining keng tarmo'gini tashkil etish, servis sohasini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, shu asosda qishloq aholisi, eng avvalo yoshlar ishga joylashtirilishini, insonlarning daromadlari va farovonligini oshirilishini ta'minlashga;
9. insonlar salomatligi muhofaza qilinishini yaxshilash, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini yuksaltirish, qishloqda umumiy va kasb hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va uning darajasi hamda sifatini oshirish, qishloq maktablari va kasb hunar kollejlarning moddiy bazasini mustahkamlash va boshqalar.

Ushbu davlat dasturi yuqorida ta'kidlangan masalalarni hal etilishiga qaratilgan chora tadbirlar mantiqan bog'langan holda tizimli avishda belgilanib, ularni bajaruvchilar hamda sarflanishi zarur bo'lgan mablag' hamda ularning manbalari aniq ko'rsatilgan. Barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 1055mlrd. so'mdan ko'proq mablag', 900mlrd. so'mdan ko'proq bank kreditlari, korxonalarining

o`zlarining mablag`laridan 155mlrd. so`mdan ko`proq mablag` sarflash ko`zda tutilgan. Bundan tashqari Osiyo taraqqiyot banki 18mln. AQSh dolloridan ortiq, Jahon banki esa 6000ming AQSh dollari miqdorida mablag` ajratishni rejalashtirgan. Shuning bilan birgalikda 300mlrd. so`mdan ortiqroq mablag` boshqa manbalardan sarflanishi ko`zda tutilgan. Bundan tashqari respublikada "Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini 2008-2011-yillarda yaxshilash bo`yicha chora tadbirlar." Dasturi ham ishlab chiqilgan. Dasturda meliorativ tizimlarni rivojlantirish va takomillashtirish hamda yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga yo`naltirilgan quyidagi ish turlarini birinchi navbatda amalga oshirish mo`ljallangan:

1. Magistral va xo`jaliklararo zovurlar, meliorativ tik quduqlarni, meliorativ nasos stansiyalarini qurish va qayta tiklash, yopiq-yotiq drenajlarni tiklash;
2. xo`jaliklararo zovurlar tizimlaridagi meliorativ obyektlarni tizimli ravishda ta'mirlash va tiklash loyihalari asosida nasos stansiyalarini gidrotehnika va suv o`tkazuvchi inshootlarni va boshqa meliorativ obyektlarini ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish;
3. sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bilan shug`illanuvchi suv xo`jaligi qurilishi va suvdan foydalanish tashkilotlari, shuningdek suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va fermer xo`jaliklarining moddiy-tehnika bazasini oshirish maqsadida meliorativ texnikasi va asbob-uskunalarini harid qilinishi belgilangan.

Sug`oriladigan yerlarni meliorativholatini yaxshilash bo`yicha ishlar uchun 2008-2012-yillarda 604.2mlrd.so`m mablag` yo`naltirilishi ko`zda tutilgan. Shu mablag`larni sarflash yo`nalishlari ham belgilab berilgan.

Barcha yo`nalishlar bo`yicha qishloq xo`jaligiga sarflanayotgan investitsiya (kapital qo`yilma) larning maqsadga muvofiq yo`naltirilishi ta'minlanishi kerak. Shunda yalpi investitsiya (kapital qo`yilma) lar sof investitsiya (kapital qo`yilma) ga aylanadi. Ya'ni foydalanish mumkin bo`lgan ishlab chiqarish resurslari ko`payadi. Ulardan oqilona, samarali foydalanish natijasida qishloq xo`jaligining yalpi mahsuloti, yalpi va sof daromadi ortadi. Bu investitsiya (kapital qo`yilma) larning iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar:

Investitsiya, kapital qo`yilma, yalpi va sof kapital qo`yilma, kapital qo`yilmalarni sarflash yo`nalishlari, kapital qo`yilma manbalari, kapital qo`yilmalarni absolyut iqtisodiy samaradorligi, kapital qo`yilmalarning ijtimoiy samaradorligi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo`jaligini ishlab chiqarish resurslari bilan talab darajasida ta'minlash, ularni takror ishlab chiqarish uchun investitsiyalar jalb etilmoqda.

Investitsiyalar tufayli tarmoqda fan-texnika taraqqiyoti jadallashmoqda, uning yutuqlaridan foydalanish jarayoni rivojlantirilib, ilg`or texnologiyalar joriy etilmoqda. Investitsiyalar korxonalarining o`z mablag`lari hamda chetdan jalb etilayotgan mablag`lar evaziga amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida qishloq xo`jaligiga jalb etilayotgan mablag`lar summasi ortib bormoqda.

Investitsiyalardan foydalanishning mutlaq (absolyut) hamda qiyosiy (nisbiy) samaradorligini tarmoq, korxonalar va yoʻnalishlar boʻyicha aniqlash maqsadida muayyan koʻrsatkichlar tizimidan foydalanish lozim.

Qishloq xoʻjaligiga jalb etilayotgan investitsiyalar miqdori, iqtisodiy samaradorligi talab darajasida emas. Sababi—xoʻjaliklar sof foydasi kamligi sababli maqsad uchun etarli miqdorda mablagʻ ajrata olmayotirlar, oʻzgalarning mablagʻlari, chet el investitsiyalari, bank kreditlari ham talabni qondiradigan darajada jalb etilayotgani yoʻq.

Kelajakda investitsiyalarni talab darajasida jalb etish va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun:

- investitsiyalar manbalarini kengaytirishga erishish;
- investitsiyalar jalb etishda garov hamda sugʻurta masalalarini rivojlantirish;
- investitsiyalarni maqsadga muvofiq, samarali yoʻnalishlarga sarflash;
- investitsiyalardan toʻliq va samarali foydalanishni taʼminlashga alohida eʼtibor berish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsiya (kapital qoʻyilma) deganda nimani tushunasiz?
2. Investitsiyaning kapital qoʻyilmadan qanday farqi bor?
3. Yalpi va sof kapital qoʻyilma nima? Ular bir-biridan qaysi jihatlariga koʻra farqlanadi?
4. Investitsiyalar qanday turkumlashtiriladi?
5. Investitsiya (kapital qoʻyilma) larning qanday manbalari mavjud?
6. Investitsiya (kapital qoʻyilma)lar qanday maqsadlarga sarflanadi?
7. Investitsiya (kapital qoʻyilma) larning tarmoq va xoʻjalik miqyosidagi mutlaq iqtisodiy samaradorligi qanday koʻrsatkichlar yordamida aniqlanadi?
8. Investitsiya (kapital qoʻyilma) larning qiyosiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
9. Qishloq xoʻjaligi hamda korxonalar miqyosidagi investitsion holatni qanday izohlaysiz?
10. Investitsiya (kapital qoʻyilma) larni qanday maqsadlarga yoʻnaltirish mumkin?
11. Investitsion institutlarning qaysilarini rivojlantirish mumkin?

Asosiy adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati toʻgʻrisida»gi qonuni. Toshkent, «Iqtisod va huquq dunyosi», № 1, 1999.
2. Oʻzbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari toʻgʻrisida»gi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi tadbirkorlik toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisod va huquq dunyosi», №1, 1999.
3. Oʻzbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralari toʻgʻrisida»gi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi

tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisod va huquq dunyosi», №1, 1999.

4. Karimov I A “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” T.O'zbekiston 2009

5. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

6. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 1998.

7. Kayumov F.K. Effektivnost APK v usloviyax pyerexoda k ro`nku. Moskva, IPO «Poigron», 1992.

8. Uilyam F. i dr. «Investitsii». M.: 1997 g. gl.21. «F'yuchyerno`e kontrakto`».

9. Metodicheskie rekomendatsii po otsenke effektivnosti investitsionno`x proektov i ix otboru dlya finansirovaniya. M. 1994.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, akademiya, 2003. [Http:g`g`textbook.rug`catalogue`bookg`33320.html](http://textbook.rug/catalogue/bookg/33320.html)

2. Popov N.A. «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M.: Tandem, 2002, [http:g`g`rbip.bookchamber.rug`description7897.htm](http://rbip.bookchamber.rug/description7897.htm)

3. Popov N.A. Ekonomka otrasley apk. Kurs lektsii, 2002, [http:g`g`family.taukita.rug`item22219310.htm](http://family.taukita.rug/item22219310.htm)

4. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, m. «Yurkniga». 2004 [http:g`g`shoppyer.h1.rug`books.shtml1o'topicq935&pageq1](http://shoppyer.h1.rug/books.shtml1o'topicq935&pageq1)

O`NINCHI BOB

QISHLOQ XO`JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, UNING TAQSIMLANISHI VA KO`PAYTIRISH YO`LLARI

- 10.1. Qishloq xo`jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati.
- 10.2. Qishloq xo`jaligining yalpi mahsuloti tarkibi dinamikasi (o`zgarishi).
- 10.3. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini taqsimlash va sotish.
- 10.4. Sub'ektlar o`rtasidagi munosabatlarning xududiy asosi, turlari, mazmun va mohiyati.
- 10.5. Qishloq xo`jalik sub'ektlaridagi ichki shartnomaviy munosabatlar.
- 10.6. Yalpi mahsulotni ko`paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo`llari.
- 10.7. Shartnomalar bajarilish monitoringi.

- 10.1. Qishloq xo`jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati.

Qishloq xo`jaligidagi barcha korxonalar, tashkilotlar zimmalaridagi asosiy vazifasini bajarish uchun ishlab chiqarish jarayonida turli ishlarni, xizmatlarni amalga oshiradilar, xilma-xil mahsulotlarni yetishtiradilar. Jumladan, paxta xom ashyosi, bug`doy, sholi, makkajo`xori, kartoshka, karam, pomidor, sabzi, sut, go`sht va boshqa mahsulotlarni yetishtiradilar. Yyetishtirilgan bu kabi mahsulotlar ularning yalpi mahsuloti natural miqdorini ifodalaydi. Lekin, bu natural ko`rsatkichlar xo`jaliklarning yillik faoliyatini to`liq ifodalay olmaydi, chunki ularni natura holda bir-biriga qo`shib bo`lmaydi. Shuning uchun yalpi mahsulot qiymat shaklida aniqlanishi lozim. Buning uchun yyetishtirilgan barcha mahsulotlarning qiymati qo`shilgan holda aniqlanadi. Qishloq xo`jaligi korxonalarining bir yillik hamda bir necha yillik faoliyatini tahlil etish maqsadida yalpi mahsulotning qiymati har yilgi haqiqiy hamda qiyosiy baholarda hisoblanadi. Hozirgi davrda qiyosiy baholar sifatida 1996 yildagi haqiqiy baholarning o`rtacha yillik miqdori olingan. Ma'lum yillardan so`ng boshqa yilning o`rtacha baholari olinishi mumkin.

Demak, qishloq xo`jaligida natura holda yyetishtirilgan turli xildagi mahsulotlar tarmoqning natura holdagi yalpi mahsuloti deyiladi. Tarmoqda natura holda yyetishtirilgan mahsulotlarning qiymat holdagi umumiy yig`indisi esa qishloq xo`jaligining qiymat holdagi yalpi mahsuloti deb ataladi. Tarmoqda yyetishtirilayotgan yalpi mahsulot qiymati alohida mahsulot turlari, tarmoqlar va xo`jalik bo`yicha aniqlanadi. Yalpi mahsulot tarmoqning, korxonaning bir yillik faoliyatini ifodalovchi umumiy ko`rsatkichdir. Qiymat shaklida hisoblangan yalpi mahsulotning tarkibi quyidagicha bo`ladi:

1. Tayyor mahsulot;
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida bir yil davomida yyetishtirilib, yig'ishtirilib, hisobga olingan, taqsimlashga va sotishga tayyor bo'lgan mahsulot qishloq xo'jaligining tayyor mahsuloti hisoblanadi.

Kelgusi yillarda mahsulotlar yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Jumladan, kelgusi yilda paxta, bug'doy, sabzavot va boshqa mahsulotlar yetishtirish uchun joriy yilda yerlarni haydash, tekislash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kelgusi yilda go'sht yetishtirish uchun joriy yilda xarajatlar qilinadi. Bunday xarajatlar bog'dorchilikda ham mavjud.

Natura holdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari turlari bo'yicha alohida-alohida, o'simlikchilik mahsulotlari hamda chorvachilik mahsulotlari yalpi hajmi ham qiymat holida hisoblanadi. Bu mahsulotlar bir yillik hajmining qiymati shu yilgi haqiqiy baholarda quyidagicha aniqlanadi:

Sotilgan mahsulotlar sotish baholarida hisobga olinsa xo'jalik ichki ehtiyoji uchun berilganlari ularning tannarxlari bo'yicha hisobga olinadi.

Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida bu usul xo'jalik ehtiyojlarini, ishlab chiqarish bilan shug'ullanganlarning moddiy manfaatdorligi oshishini etarli darajada ta'minlay olmaydi. Mahsulotlar tannarxda belgilanganligi uchun foyda ololmaydilar. Foyda bo'lmagach, ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish natijasiga ko'ra, rag'batlantirib bo'lmaydi. Shuning uchun ichki ehtiyojlarga berilgan mahsulotlarning qiymatini ham o'rtacha sotish baholarida aniqlash yoki ichki baholarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining turlari, tarmoqlar miqyosida qiymati haqiqiy baholarda aniqlanishi natijasida ulardan har birining jami yalpi mahsulot qiymatidagi salmog'ini aniqlab, tahlil qilish, bu ko'rsatkichlar asosida qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiyotini taqqoslab, umumiy xulosalar chiqarish mumkin. Lekin bunda tarmoqning, xo'jaliklarning bir necha yillik faoliyatini chuqur tahlil qilib bo'lmaydi. Chunki haqiqiy baholar har yili o'zgarib turadi. Masalan, 1 tonna paxta xomashyosining davlat xarid narxi 2000 yilda o'rtacha 52 ming so'm darajasida belgilangan bo'lsa, 2009 yilda 510,0 ming so'mga yaqin bo'lgan. Shu yillar ichida uning mutlaq miqdori 9.8 marta, boshoqli donlarning davlat xarid bahosi esa 6.5 marta oshgan. Yalpi mahsulotning umumiy qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi bunday hollarning oldini olish uchun yalpi mahsulot qiymatini qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ular yordamida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining, tarmoqdagi mehnat unumdorligi darajasining, fondlar qaytimi ko'rsatkichlarining bir necha yillar davomidagi o'zgarishini to'g'ri hal qilish mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi tayyor mahsulotlar ichki va tashqi bozor talabini e'tiborga olgan holda sotiladi, ya'ni qishloq xo'jaligida ham pul-tovar (P-T) munosabatlari amalga oshiriladi. Mahsulotlarning pul-tovar munosabatlari asosida sotilgan miqdori tovar mahsuloti deb ataladi. Shunga asoslangan holda mahsulotlarning tovarlilik darajasi ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun sotilgan mahsulot miqdorini jami yyetishtirilgan mahsulotning natura holdagi ulushiga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish lozim. Chunki u foizda hisoblanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$T_d = (S_m \div O_m) * 100 \text{ yoki } = \frac{S_m}{O_m}$$

Bunda: T_d – mahsulotning tovarlilik darajasi, foizda;

Sm – sotilgan mahsulot miqdori, tonna, sentner, kilogramm;

Om – yyetishtirilgan jami mahsulot (paxta, bug`doy), tonna, sentner

Mahsulotlarning tovarlilik darajasi tayyor mahsulot hamda talabdan kelib chiqqan holda turlicha bo`lishi mumkin. Unga ayrim paytlarda davlatning siyosati ham ta'sir ko`rsatadi. Jumladan, hozirgi davrda paxta xom ashyosiga nisbatan davlat buyurtmasi va talabning mavjudligi sababli uning tovarlilik darajasi 100 foizga teng. Ayrim texnika mahsulotlari ham xo`jaliklarda faqat sotish maqsadida yyetishtirilmogda. Shuning uchun ham ularning tovarlilik darajasi 100 foizga teng bo`ladi. Masalan, kanop. Ayrim mahsulotlar esa faqat ichki talablarni qondirish maqsadida yyetishtirilishi mumkin. Bunday hollarda ularning tovarlilik darajasi aniqlanmaydi. Jumladan, ozuqa uchun yyetishtirilgan em-xashak, sabzi, turp, sholg`om, pomidor va boshqalar. Ular sotilgan holdagina tovarlilik darajasi aniqlanadi.

Yalpi va tovar mahsulotlarning mamlakat, tarmoqlar hamda korxonalar iqtisodiyotidagi ahamiyati katta. Jumladan, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi, qiymati o`shishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining ham o`shishi ta'minlanadi. 2000-2009 yillarda xalq xo`jaligi yalpi mahsulotining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog`i 26,8-19 foizni tashkil etmogda. Shuning uchun ham qishloq xo`jalik mahsulotlarini eksport qilish tufayli barpo etilayotgan valyuta tushumi tarkibida ularning salmog`i sezilarli bo`lmoqda.

Natijada xalq xo`jaligi barcha sohalarining rivojlantirilishi ta'minlanadi.

Yalpi mahsulotning natural miqdori ko`payib, ular iste'molchilarga turli usullar yordamida yetkazilishi qayta ishlash tarmoqlari rivojlanishini hamda aholining qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini yuksaltiradi. Bu aholining ish bilan ta'minlanishi yuksalib, real daromadi ortishiga, yashash sharoiti yaxshilanashiga olib keladi.

Korxonalar yalpi va tovar mahsulotining ko`payishi ularning ham iqtisodiyoti yuksalishini ta'minlaydi. Xo`jalik yalpi mahsulotining, natura holdagi miqdori ko`payishi tayyor mahsulot miqdori oshishiga sabab bo`lib, ichki va tashqi talab to`liqroq qondirilishiga imkoniyat yaratadi. Natijada sotiladigan mahsulot miqdori ortadi. Uni sotish evaziga korxonalarining pul daromadlari ko`payadi. Bu qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining kengaytirilgan holda rivojlanishini, ishchi-xizmatchilarning esa moddiy rag`batlantirilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham respublika hukumati qishloq xo`jalik mahsulotlari miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilab, raqobatbardoshligini yuksaltirishga katta e'tibor bermogda. Chunki qishloq xo`jalik mahsulotlarini chet davlatlarga sotish natijasida mamlakatning valyuta tushumi ortib bormogda. Chet el valyutalari ko`payishi natijasida qishloq xo`jaligi uchun zarur bo`lgan ishlab chiqarish vositalari, yangi texnikalar, ilg`or texnologiyalar sotib olinmogda.

10.2. Qishloq xo`jaligining yalpi mahsuloti tarkibi dinamikasi (o`zgarishi)

Iqtisodiyotning turlicha bosqichlarida, jumladan inqiroz sharoitida ham respublikada qishloq xo`jaligini rivojlantirish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmogda. Masalan, 2011-yilda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini 105foizga oshirish

ko`zda tutilgan.¹ Buning uchun tarmoqda ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida agrar iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich olib borilmoqda. Natijada barqaror ravishda mulkchilikning turli shakllari barpo etilib, ularning erkin faoliyat ko`rsatishlari uchun siyosiy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilmoqda. Qishloq xo`jaligiga investitsiyalarni jalb etish natijasida yangi texnikalar, samarali texnologiyalar kiritilib, uning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanmoqda. Tarmoqdagi ishchi-xizmatchilarning bilimlari, malakalari, tadbirkorlik qobiliyatlari yuksaltirilmoqda. Natijada jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy tasiriga qaramasdan so`nggi yillarda qishloq xo`jaligining yalpi mahsuloti yil sayin ortib bormoqda.

Mustaqillik yillari jamiyat tabiat, iqtisodiy va ijtimoiy qonun talablariga asoslangan holda respublika iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan qishloq xo`jaligida qattiyatlilik bilan, bosqichma-bosqich huquqiy, tashkiliy, tarkibiy, hamda iqtisodiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Ularni amalga oshirish uchun ulkan mehnat, katta mablag` sarflanmoqda. Ular so`nggi yillarda ijobiy natijalar bermoqda. Masalan, mamlakat qishloq xo`jaligining haqiqiy narhlardagi yalpi mahsuloti 1997-2008-yillarda 26.2marta oshgan. lekin shu yillarda fermer xo`jaliklarining yalpi mahsuloti 227.4marta oshgan. bunday o`shish fermerchilikni ustuvor sur`atlarda rivojlanishi bilan bog`liq. Davlat va jamoa mulkchiligiga asoslangan qishloq xo`jalik korxonalarining yalpi mahsuloti shu davrda 10.2 martaga oshgan. bu hol hususiy mulkchilikni samarali ekanligidan dalolat beradi. Respublika qishloq xo`jaligida dehqon va oila tamorqa xo`jaliklarining o`rni shu davrda katta bo`lib ularni yalpi mahsulotdagi salmog`i 61%dan yuqori bo`lgan. Shuning uchun ham hukumat, mamlakat qishloq xo`jaligini rivojlanishida unga katta e`tibor qaratadi. Respublikada qishloq xo`jaligini barqaror rivojlanishiga 2005-yildan so`ng erishildi. Agarda jami yalpi mahsulot qimati 2005-yilda 2000-yildagiga nisbatan 4.3marta oshgan bo`lsa, 2008-yilda 2005-yildagiga nisbatan 75.3%ga oshgan.

Mamlakat yalpi mahsulotining tarkibida o`simlikchilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Uning salmog`i 49.4%ni tashkil etgan bo`lsa, (1997y.), 53.5% (2008y) ga yetgan. Chorvachilik tarmog`ining salmog`i shu davrda 50.6:46.5 foizga teng bo`lgan. Lekin so`ngi yillarda chorvachilikka berilayotgan e`tibor natijasida uning salmog`i 44.4%dan (2005.y), 46.5%ga (2008y.) yetkazildi. Ya`ni uning salmog`i o`sib bormoqda. Fermer xo`jaliklari bilan qishloq xo`jalik korxonalari yalpi mahsulotining tarkibida o`simlikchilikning salmog`i ulkan. Jumladan, fermer xo`jaliklarida uning salmog`i 91.3foizga, qishloq xo`jalik korxonalarida esa 81.8foizga(2008y.) teng bo`lgan. Bu ma`lumotlar ularning o`simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashganligidan dalolat beradi. Dehqon va oila tamorqa xo`jaliklarida esa chorvachilikning salmog`i ko`proq (67.8%,2008-y.). 10.2.2-jadval. Qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti o`zgarishining haqiqiy holatini uning qiyosiy baholarda aniqlanishi realroq isbotlaydi. Chunki, bunda har yilgi haqiqiy baholar o`zarishining ta`siri bartaraf etiladi. Yalpi mahsulot qiymatining qiyosiy baholardagi darajasi yil sayin o`sib borgan. Lekin uning miqdori shu yillar ichida 2,3-

¹ Karimov I A "Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" Xalq so`zi. 30.01.2010yil

4,5 foiz darajasida bo'lgan. Agar respublikamizda 1992-1994 yillardagi beqarorlik sodir bo'lmaganida uning darajasi bundan ham yuqori bo'lishi mumkin edi.

10.2.1-jadvaldagi ma'lumotlar ko'rsatib turibdiki, respublikada qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti qiymatining haqiqiy baholardagi o'sishi ancha yuqori bo'lgan. Chunonchi, bu boradagi ko'rsatkich 1995-2008 yillarda 84,2 martaga ko'payib, 2005 yilda 5978.3 mlrd. so'mni, 2004 yilda esa 3261 mlrd. so'mni tashkil etgan.

10.2.2-jadval.

Respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini subyektlar va tarmoqlardagi holati.*

	Yillar				2008-yil		
	1997	2000	2005	2008	1997	2000	2008
	(haqiqiy narhlarda, mlrd.so'm)				Yilga nisbatan marta,% da		
Barcha toifadagi xo'jaliklar							
Jami	399.9	1387.2	5978.3	10479.6	26.2marta	7.6marta	175.3
O'simlikchilik	197.7	696.8	3323.1	5605.5	28.4marta	8.0 marta	168.7
Chorvachilik	202.2	690.4	2655.2	4874.1	24.1marta	7.0 marta	183.6
Fermer xo'jaliklari							
Jami	11.2	76.4	1453.6	2546.5	227.4 marta	33.3marta	175.2
O'simlikchilik	8.6	67.3	1382.3	2326.0	270.5 marta	34.6 marta	168.3
Chorvachilik	2.6	9.1	71.2	220.5	84.8 marta	24.2 marta	3.3 marta
Dehqon oila tamorqa xo'jaliklari							
Jami	245.0	925.5	3689.4	6467.0	26.4 marta	7 marta	175.3
O'simlikchilik	64.6	306.2	1231.3	2080.0	32.2 marta	6.8 marta	169.0
Chorvachilik	180.4	619.3	2458.1	4387.0	24.3 marta	7.1 marta	178.5
Qishloq xo'jalik korhonalari							
Jami	143.7	385.3	835.4	1466.1	10.2 marta	3.8 marta	175.5
O'simlikchilik	124.5	323.3	709.5	1200.0	9.6 marta	3.7 marta	169.1
Chorvachilik	19.2	62.0	125.9	266.1	13.9 marta	4.3 marta	2.1 marta

* yillik statistik to'plam. T.2009y. 247-bet. Va selskoye xozyaystvo Uzb. T.2009y.16bet.

Bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'sishi quyidagi omillar hisobidan ta'minlangan:

- yangi yerlarni o'zlashtirish evaziga ekin maydonlarini kengayganligi;
- serhosil ekin turlarini ekish, ya'ni ekin turlarini diversifikatsiyalash hisobiga;
- chorva hayvonlari bosh sonini ko'payishi hisobiga;
- chorva hayvonlarini mahsuldorligini oshishi hisobiga;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarining o'sishi hisobiga;
- yetishitirilayotgan mahsulotlar tarkibining o'zgarishi, ularning ustuvor sur'atlarda rivojlanishi, ya'ni divyersifikatsiya hisobiga ta'minlanga. (10.2.2-jadval).

Respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'zgarishi*

	Yillar			
	1995	2000	2005	2008
Yalpi mahsulot qiymati - haqiqiy baholarda, mlrd. so'm - 1995 y.dagiga nisbatan o'zgarishi, foizda	124,4	972,5	5978.3	10479.6
	100,0	7,8 m.	48.1	84.2
- qiyosiy baholarda, avvalgi yildagiga nisbatan, foizda	102,3	104,5	105.1	104.5

*Сельское хозяйства Узб. Т.2009 168 bet

Jadvalda ko'rsatilgan mahsulotlar 1995 yilda 4229.7 ming gektar ekin maydonidan olingan bo'lsa, 2004 yilda esa 3609,7 ming gektardan olingan. Shu maydonlarning 43.2 foiziga don ekinlari, 41,8 foizga yaqiniga texnika ekinlari ekilgan, 7,3 foizida kartoshka, sabzavot hamda poliz va nihoyat, 7,7 foizida em-xashak uyetichtirilgan.

Respublikada uyetichtirilayotgan asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari, ming tonna*

	Yillar			
	1995	2000	2005	2008
Jami don jumladan:	3215,3	3915,7	6401.8	6621.6
Bug'doy	2346,9	3510,6	5927.8	6039.7
Paxta xom ashyosi	3934,1	3001,8	3728.4	3400.6
Kartoshka	439,8	729,8	924.2	1398.7
Sabzavot	2712,6	2637,3	3517.8	5221.3
Poliz	471,9	457,2	615.3	981.3
Go'sht (so'yin vaznda)	453,6	841,5	632.6	761.4
Sut	3665,4	3656,5	4554.5	5250.2

*Jadval Respublika Iqtisodiyot hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari ma'lumotlari hamda Сельское хозяйства Узб. Т.2009 16,28bet asosida tuzilgan.

Respublikada don mahsulotlari yetishtirish miqdori shu yillar ichida 105.9 foizga ko'paygan. Agarda 2008 yildagi natija e'tiborga olinadigan bo'lsa, u holda don yetishtirish 2,1 martaga ortgan. Chunki 2008 yilda jami 6.4 mln. tonna don mahsulotlari uyetichtirilgan. 2009-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 2009-yili 7.3mln. tonna don mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Don mahsulotlari tarkibida bug'doy ustuvor sur'atlarda ortgan. 1995-2008 yillar mobaynida bug'doy yetishtirish 6,9 marotaba ko'paygan. Bu respublikada don mahsulotlari etishitirsh jarayoniga bug'doy yetishtirishni divyersifikatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi. Bu don mahsulotlariga bo'lgan respublika ichki talabini qondirish borasidagi davlat siyosatining ijobiy natijasidir. Don mahsulotlari etishitirishni asosan paxta yakkahokimligini kamaytirish hisobiga oshirish nazarda tutilgan. Natijada paxta xomashyosini yetishtirish 1995-2008 yillar mobaynida qariyb 13.8 foizga kamaygan.

Kartoshka yetishtirish shu yillarda 3.2 martaga ortgan. Chunki unga nisbatan aholining talabi ortib bormoqda. U hozirgi davrda ikkinchi non mahsuloti o`rmini bosmoqda. Endilikda aholi iste'moli uchun chetdan kartoshka sotib olinayotgani yo`q. sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi shu yillarda 11.1marta ortgan.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish sur'atlari keskin oshayotgani yo`q. Bunga asosiy sabab tarmoqda iqtisodiy islohotlar bozor iqtisodi talabi darajasida amalga oshirilmayotganligidir. 1993 yildan boshlab chorva mollari xususiylashtirildi, lekin xususiylashtirilayotgan fermalar ozuqa yetishtirish uchun yer bilan to`liq ta'minlanmadi. Oqibatda sermahsul chorva hayvonlari sotildi, mavjudlarining esa mahsuldorligi pasaydi. Bunday xolning oldini olish maqsadida respublika hukumati 2005-yildan boshlab chorvachilikni rivojlantirish bo`yicha chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda. Bu, albatta, chorvachilik mahsulotlari ko`payishini ma`lum darajada ta'minladi. Lekin respublika viloyatlarida qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish bir xil sur'atlarda o`smadi rivojlanmagan. (10.2.4-jadval)

Masalan 2000-yilda go`sht yetishtirish, 1995-yildagiga nisbatan 10.6foizga oshgan bo`lsa, 2008-yilda 2005-yildagiga nisbatan go`sht yetishtirish miqdori 20.4foizga oshgan. Demak go`sht yetishtirish sur'ati so`ngi yillarda yuqori bo`lgan. Bu so`zsiz amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasidir

10.2.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko`rinib turibdiki, asosiy qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish, dondan tashqari respublika miqyosida ham, viloyatlarda ham unchalik bir meyorda rivojlanmagan. Masalan, Qoraqalpog`iston Respublikasida jadvalda ko`rsatilgan barcha mahsulotlar bo`yicha ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshmagan. Xorazm viloyatida esa paxta xomashyosi yetishtirish 1996–2008 yillar ichida 31,4 foizga qisqargan. Bunday hol Qashqadaryo, Surxondaryo hamda Samarqand viloyatlarida ham sodir bo`lgan. Buning eng asosiy sababi – shu viloyatlarda foydalanilayotgan yerlarning meliorativ holati yomonlashganligidir. Oqibatda mavjud sug`oriladigan yerlarning sho`rlanish darajasi ortib, unumdorligi pasaymoqda.

Respublika viloyatlarida yyetishtirilgan asosiy qishloq xo`jalik mahsulotlari, ming tonna*

Viloyatlar	Paxta		Boshqoli don			Go`sht			Sut		
	1996y	2000y	1996y	2000y	2008y	1996y	2000y	2008y	1996y	2000y	2008y
Qoraqalpog`iston Respublikasi	203,9	125,4	10	164	203,9	37,6	38,9	30,5	117	126,1	158,8
Andijon	315,9	337,4	389,7	512,8	554,5	49,1	55,3	47,0	274,2	331,6	478,0
Buxoro	360,6	351,1	126,7	213,5	583,7	64,1	69,4	70,6	260,6	267,5	465,5
Jizzax	139,4	155,5	175,4	316,9	466,9	57,3	60,1	65,6	197,2	194,5	290,0
Qashqadaryo	375,7	265,1	321,3	263,9	889,4	91,5	94,4	85,3	334,1	345,8	575,1
Navoiy	101,3	103,6	55,5	92,6	230,4	46	45,5	51,2	118,7	124,2	238,5
Namangan	239,8	243,5	251,3	258,2	451,6	51	53,6	39,8	258,9	266	336,2
Samarqand	216,8	167,7	231,2	278,1	714,4	97	85,8	104,4	347,2	425,1	681,8
Surxondaryo	360,1	259,5	271,3	203,1	594,5	67,7	74,6	59,4	294,4	326,1	454,6
Sirdaryo	186,5	174,6	153,1	185,6	383,5	26	25,6	21,4	119,9	119,6	173,4
Toshkent	258,8	256,4	283,1	336	549,0	99	102,8	91,1	337	346,7	498,0
Farg`ona	301,3	362,6	295,7	325,1	719,1	58,9	63,7	51,0	389,9	377,4	509,3
Xorazm	290	199	52	76,7	280,7	48,6	52,3	51,0	340,9	382,6	567,1

* Jadval Respublika Iqtisodiyot hamda Qishloq va suv xo`jaligi vazirliklari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikada qishloq xo`jalik mahsulotlari asosan ikkita yirik tarmoqda – o`simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida yyetishtiriladi. So`nggi yillarda mamlakat qishloq xo`jaligi bo`yicha yyetishtirilayotgan yalpi mahsulotning (qiymat holida) 53-55 foizi o`simlikchilikda, 44-46 foizi chorvachilik, bir foizga yaqini baliqchilik, ya'ni suv xo`jaligi hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Bozor talabini qondirish uchun qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini tabiiy hamda iqtisodiy omillarni e'tiborga olgan holda maqsadga muvofiq joylashtirish talab etiladi. Bunda qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini barcha turdagi zarur ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlash hamda ulardan uddaburonlik bilan samarali foydalanishga erishish kerak.

Respublika qishloq xo`jaligida yyetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 98,7 foizi (2001 yil) nodavlat sektor zimmasiga to`g`ri kelgan bo`lsa, 2008-yilga kelib 99.9foizi to`g`ri kelgan. Bu, albatta, ijobiy hol. Lekin tarmoqda ma'lum miqdorda davlat sektori bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Ular asosan qishloq xo`jaligida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish bilan band bo`lishi mumkin. Jumladan, fan yutuqlariga asoslangan holda qishloq xo`jalik ekinlarining sifatli, syerunum navlarini, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlarini, yangi, syerunum texnikalarni, samarali texnologiyalarni yaratish, ularni o`z ishlab chiqarishimizda sinashimiz va hayotga keng tatbiq etishimiz lozim.

Qishloq xo`jaligining nodavlat sektorida jamoa, shirkat, fermer, dehqon xo`jaliklari, kichik korxonalar mahsulot yetishtirish bilan band. Jamoa, shirkat hamda fermer xo`jaliklari asosan tovar mahsulotlar yetishtirib, bozor talabini qondirish bilan shug`ullanmoqdalar. Dehqon xo`jaliklari esa o`z ichki talablarini qondirish maqsadida mahsulot yetishtirib, ehtiyojdan ortgan qismini bozorga chiqaradilar. Hozirgi davrda respublikada yyetishtirilayotgan paxtaning 100 foizini, donning 86 foizga yaqinini jamoa, shirkat, fermer xo`jaliklari yetishtirmoqdalar. Sabzavot mahsulotlarining 67 foizga yaqini, kartoshkaning 83.4 foizi, go`shtning 94.9 foizi, sutning esa 96,8 foizi dehqon xo`jaliklari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Bu respublika qishloq xo`jaligida ko`p ukladli iqtisodiyot shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Xo`jalik yuritishning bu shakllarini yanada rivojlantirish uchun davlatning istiqbolga mo`ljallangan samarali dasturlari ishlab chiqilishi hamda ishlab chiqarishga joriy etilishi zarur. Shundagina ko`zlangan natijaga erishish mumkin.

Qishloq xo`jaligida davlat rahbarligida tashkiliy agrar iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida 2011 yilning 6 oyida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati 2008 yilning huddi davriga nisbatan 6.9 foizga oshgan. Bu o`shish asosan o`simlikchilik tarmoqlarini o`sishi hisobidan ta'minlangan. Bu tarmoqdagi o`shish ko`rsatilgan davrda 21 foizga teng bo`lgan, chorvachilik tarmoqlaridagi o`shish esa 7.2 foizni tashkil etgan. 2011 yilda Respublika hukumati tomonidan katta tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirilishi, bozor mexanizmlarini joriy etilishi hamda mavjud bo`lgan barcha resurslardan to`liq va samarali foydalanish hamda tabiiy sharoitlarni shu yili juda qula kelishi natijasida 6.7 mln. tonnaga yaqin don mahsulotini, yetishtirishga

erishildi. Huddi shunday kartoshka, sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ham o`sgan. Bu o`sh asosan intensivlashtirish evaziga ta'minlangan.

10.3. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini taqsimlash va sotish.


Qishloq xo`jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birgalikda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir

Bu talablar qishloq xo`jaligi uchun davlatning paxta va g`allaga bo`lgan eng muhim buyurtmalarini bajarishga asoslanadi. Bu mahsulotlarga davlat buyurtmalarining miqdori ularni yetishtirish bo`yicha rejalashtirilgan hajmga nisbatan shirkat va fermer xo`jaliklarida 50 foiz darajasida belgilangan. Bu o`rinda eslatib o`tish kerakki, qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarmoqda etshirilgan mahsulotlarning, chunonchi, urug`lik, em-xashak, ozuqa kabilarning ma'lum bir qismi ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta'minlanmaydi.

Qishloq xo`jalik korxonalarini ishlab chiqarishining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash uchun yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismi bu boradagi talablarini qondirish maqsadida ishchi-xizmatchilarga ish haqi o`rniga natura holda beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi. Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularga ma'lum miqdordagi mahsulotlar tekinga beriladi.

Hozirgi davrda qishloq xo`jalik korxonalarida yetishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanallar bo`yicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda, (10.3.1-chizma). Chizmadan ko`rinib turibdiki, qishloq xo`jalik korxonalarini, avvalo, yetishtirgan paxta, don mahsulotlarining davlat buyurtmasida ko`rsatilgan miqdorini «O`zpaxtasanoat» uyushmasi hamda «O`zdonmahsulot» kompaniyasining joylardagi korxonalarini bilan tuzilgan shartnomalar asosida sotadilar. Bu turdagi mahsulotlarning davlat buyurtmalaridan ortiqcha qismi erkin savdoda shartnomalar asosida qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalariga sotiladi. Shu o`rinda ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodi sharoitida korxonalariga yetishtirgan mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatlari to`liq borilishi zarur. Shuning uchun davlat buyurtmalari o`rniga iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik davlatlardagidek mahsulotlarni erkin sotib olish bo`yicha davlat dasturini ishlab chiqish lozim.

O`zbekiston Respublikasida yetishtirilayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlarining taqsimlanishi va sotilishi



Shu orqali davlatning iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati amalga oshirilishi uchun to`liq imkoniyat yaratiladi. Bunda korxonalar o`z ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun zarur mahsulotlarni ichki talablarni qondiradigan miqdorda ajratishlari lozim. Buning uchun ham ichki shartnomalar tuzish kerak. Ularda xo`jalik ichidagi munosabatlarni amalga oshirish tartibi to`liq ko`rsatilishi zarur.

Shundan so`ng ular qolgan mahsulotlarini shartnomalar asosida erkin bozorlarda, jumladan, birjalarda, ko`rgazmalar yordamida, auksionlar hamda chakana savdolar orqali sotishlari mumkin.

Erkin bozor sharoitida mahsulotlarni sotish bilan bog`liq bo`lgan barcha munosabatlar hamma talablarga javob bera oladigan darajadagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Shartnomalar har ikki tomonning erkin kelishuvi asosida tuzilishi shart. Shartnomalarni tuzishdan oldin tomonlar bozorni (marketing masalalarini) mukammal o`rganishlari, xo`jalik rahbarlari, bosh mutaxassislar, menejyerlar zarur vositalarni qayerdan, qachon, qanday baholarda, qancha va qanday usullarda olish mumkinligini, shuningdek, o`z mahsulotlarini foydasi bilan sotish yo`llarini, xo`jalik rahbarlari, shuningdek, amaliyotdagi qonun va qoidalarni ham mukammal bilishlari, ular asosida ish yuritishlari kerak.

Shartnomalar uzoq, qisqa muddatga va bir marta amalga oshiriladigan munosabatlar bo`yicha tuzilishi mumkin. Masalan, qishloq xo`jalik korxonalari mahsulotlarini sotish uchun har yili shu mahsulotlarni (paxta, g`alla, chorvachilik mahsulotlari va boshq.) sotib oluvchilar bilan shartnomalar tuzadilar.

Shartnomalar har bir hamkor bilan mahsulotlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar bo`yicha alohida-alohida tuzilishi lozim. Ularni tuzishni osonlashtirish maqsadida O`zbekistonda namunaviy shartnomalarning bir necha turi mutasaddi tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan. Chunonchi, Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi viloyatlardagi, tumanlardagi boshqarmalariga, tumanlarga hamda davlat xo`jaliklariga, fermer xo`jaliklariga o`z ish faoliyatlarini yuritish uchun yerni uzoq muddatga ijaraga berish; bog` va tokzorlarni ular joylashgan yer uchastkalari bilan ijaraga berish bo`yicha namunaviy shartnomalarni davlat tilida taqdim etgan.

Namunaviy shartnomalarning aksariyati rus tilidagi sababli tadbirkorlar ko`p hollarda ularni tushunishga qiynalmoqdalar, xatoliklarga yo`l qo`ymoqdalar. Qolaversa, ular eskirgan tizim qolipida bo`lganligi bois talablarga to`la javob bermayotir. Shuning uchun tavsiya etilgan barcha namunaviy shartnomalar davlat tiliga qayta, zamon talablariga javob bera oladigan darajada o`girilishi shart. Namunaviy shartnomalarda tomonlarning vazifalari, burchlari, majburiyatlari, barcha shartlar aniq, to`g`ri, ravon yozilishi talab etiladi. Masalan, davlat talabini qondirish uchun qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotib olish bo`yicha tuziladigan shartnomada quyidagi masalalar aniq ko`rsatilishi lozim: shartnoma tuzuvchilarning yuridik nomlari, rahbarning ismi-sharifi; sotuvchining qanday mahsulotlarni, qaysi muddatlarda, qancha miqdorda tayyorlab berishi, oluvchining sotib olgan mahsulotlar uchun belgilangan vaqtda haq to`lashi lozimligi; sotilgan mahsulotlarning assortimenti davlat andozalari bo`yicha; mahsulot ishlab chiqaruvchining ularni sotib oluvchi tashkilot tomonidan moliyalashtirish tartibi aniq yozilgan bo`lishi; tomonlarning yuridik jihatdan kafolatlanganligi hamda bu kafolatning muhlati; sotuvchining sotiladigan mahsulotlarni oluvchiga yetkazib berish tartiblari va muddati; sotilgan mahsulotlarning baholari to`liq ko`rsatilishi; sotib olingan mahsulotlarga haq to`lash tartibi, ularni yetkazib berish shartlari; tomonlarning majburiyatlari; idishlar va mahsulotlarni joylashtirish ishlari, ularga belgi, tamg`a bosish tartibi; tuzilayotgan shartnomaning harakat muddati, tomonlarning javobgarligi; munosabatlar jarayonida vujudga kelishi mumkin bo`lgan muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish tartibi; shartnomalarga o`zgartirish kiritish shartlari; tomonlarning o`zaro aloqalarni o`rnatish tartibi; forsmajor yoki tomonlarning maxsus, tasodifiy (yong`in, suv toshqini, urush, zilzila) holatlaridagi vazifalari, burchlari; tomonlarning yuridik maskani; mahsulot sotuvchi va sotib oluvchi haqidagi to`liq ma`lumotlar; tomonlarning muhri,

rahbarlarning ismi-sharifi to`liq keltirilgan bo`lishi shart. Bu shartnoma qishloq xo`jaligi korxonalarini bilan paxta zavodlari, don kombinatlari o`rtasida tuziladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, shartnomalarni tuzishda hozir ham yakkahokimlik alomatlari mavjud. Chunki erkin bozorda qayta ishlovchi ularning raqobatchilari bo`lmaganligi, bo`lganda ham juda kamligi sababli yakkahokimlik ular tomonida bo`ladi. Oqibatda qishloq xo`jaligi korxonalarini tomonidan sotilayotgan paxtaning, g`allaning bahosi erkin, kelishilgan holda o`rnatilayotgani yo`q. Bu muammolarni to`g`ri hal etish uchun mulkchilikning turli shakllariga asoslangan qayta ishlash sanoati korxonalarini tashkil etishga alohida ahamiyat berish zarur.


Lekin, hozirgi davrda erkin savdo sub'ektlari cheklanganligi sababli qishloq xo`jalik korxonalarining mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatlari juda tor, ya'ni erkin raqobatli bozor to`liq shakllangani yo`q. Masalan, korxonalar mahsulotlarining davlat buyurtmalaridan ortiqcha qismini erkin raqobat asosida sotib oladigan paxta tozalash zavodlari, don kombinatlari juda kam. Shuningdek, tumanlarda sabzavot, bog`dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini sotib oluvchi korxonalar ham cheklangan. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini chetga olib chiqib sotish uchun talaygina muammolar hal etilishi talab qilinadi. Ularni hal etish uchun barcha xo`jalik rahbarlarining imkoniyatlari yo`q. Shuning uchun kelajakda qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini yaratish zarur. Bunda dastavval nodavlat mulkchiligiga asoslangan turli xildagi kichik, o`rta korxonalarini barpo etishga alohida e`tibor berish lozim. Shu orqali qishloq hududlarida qo`shimcha ish joylari tashkil etilib, mahsulotlarni sotishda erkin bozorni shakllantirish ta'minlanadi. Shuningdek, qishloq xo`jalik korxonalarining o`z mahsulotlarini (raqobatbardosh bo`lsa) erkin sotish imkoniyatlarini kengaytirish, bu jarayonni soddalashtirish kerak.

Qishloq xo`jalik korxonalarini yetishtirgan mahsulotlarni sotishga Respublika Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining, Dehqon va fermer xo`jaliklari uyushmasining joylardagi bo`limlari hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar amaliy yordam berishlari zarur. Shu bilan birga, qishloq xo`jalik korxonalarida bozorni o`rganib, savdo-sotiq ishlarini rivojlantiradigan marketing bo`limlari tashkil etib, ularni rivojlantirishga alohida e`tibor berish lozim.

Qishloq xo`jalik korxonalarini ishlab chiqarishi samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida yetishtirgan mahsulotlarining ma'lum qismini o`z takror ishlab chiqarishi uchun urug`likka, ko`chat yetishtirishga, emga, ozuqaga sarflaydi, ishchi-xizmatchilarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ish haqi evaziga, umumiy ovqatlanishga beradi. Bularning hammasi hozircha tannarxda beriladi. Hozirgi davrda xo`jaliklar aholini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida iqtisodiy nochor oilalarga, keksalarga, bolalar uylariga hayriya shaklida ham o`z mahsulotlarini bermoqdalar. Bunday munosabatlarda xo`jaliklar daromad olmaydilar.

Qishloq xo`jalik korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlar sotilishi natijasida ularning tovarlilik darajasi oshib bormoqda (10.3.2-chizma).

Respublikada ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari tovarlilik darajasining o'zgarishi, foizda



Bu paxtadan tashqari mahsulotlarga taalluqlidir. Chunki paxtaga nisbatan davlat monopoliyasi mavjudligi sababli uning hammasi davlatga sotilmoqda. Don mahsulotlarining tovarlilik darajasi 1993 yilda 51,8 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 1996 yilda 65,1 foizni, 2001 yilga kelib, salkam 70 foizni, 2005-yilda 74,5%, 2008-yilda 79foizni tashkil etgan, kartoshkaning tovarlilik darajasi shu yillar ichida 56,1 foizdan 68 foizga, sabzavot mahsulotlariniki esa 60,4 foizdan 71,9 - foizga, go'sht mahsulotlariniki 30,8 foizdan 74 foizga, sutning tovarlilik darajasi 22,3 foizdan 50,4 foizga etgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda, sotishda tabiiy sharoitlarni hamda xalqimizning o'ziga xos milliy xususiyatlarini, albatta, e'tiborga olish zarur. Chunki ayrim mahsulotlarni yetishtirishga tabiiy sharoitlar, ayrimlarini yetishtirishga milliy odatlarimiz yo'l bermaydi. Jumladan, cho'chqachilikni rivojlantirishga. Lekin bu soha samarali hisoblanadi. Yyetishtirilayotgan mahsulotlarni erkin sotishda aholining milliy ehtiyojini e'tiborga olish lozim. Chunki musulmon diniga mansub bo'lgan aholi cho'chqa go'shtini, cho'chqa go'shtidan tayyorlangan mahsulotlarni sotib olmaydi, chunki ularni iste'mol qilmaydi. Lekin unni, non mahsulotlarini, sholini ko'proq sotib oladi. Chunki ular har kuni uch mahal non esalar ham ko'ngillariga tegmaydi. Demak, mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotishda, taqsimlashda yuqoridagi masalalarga e'tibor berish lozim.

Qishloq xo'jaligida o'simlikchilik tarmoqlarini tez sur'atlarda rivojlanishi yyetishtirilgan mahsulotlarni sotish xajmini oshishini ta'minlagan. Eng asosan un mahsulotlarini hamda paxta tolasini sotish xajmi 2008 yilda 2001 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

10.4. Sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning xududiy asosi, turlari, mazmun va mohiyati.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha turdagi tadbirkorlik sub'ektlari o'z maqsadlariga o'zaro turli xildagi munosabatlarni amalga oshirish natijasida erishadilar. Chunki bu erkin, raqobatli bozor iqtisodining asosiy shartlaridan biridir.

- Bu munosabatlar ko'lamiga ko'ra:
- davlatlararo;
- davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar o'rtasida;
- korxonalar, tashkilotlararo;
- korxonalar, tashkilotlar bilan ishchilar o'rtasida va nihoyat, fuqarolar o'rtasida amalga oshiriladi.

Demak, bu munosabatlar ikki yoki bir necha tomonlar o'rtasida amalga oshiriladi. Odatda bu munosabatlar og'zaki yoki yozma shakldagi kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati beqiyos. Jumladan, tomonlar og'zaki kelishuvlarga asoslangan holda turli xildagi masalalarni tezkorlik bilan hal etilishini ta'minlab beradilar. Bu so'zsiz iqtisodiyotga ta'sir etadi. Lekin og'zaki kelishuvlar yuridik kuchga, huquqqa ega emas. Shuning uchun bozor sub'ektlari barcha munosabatlarni yozma ravishda, hujjatlashtirilgan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tomonlar kelishilgan holda shartnomalar tuzadilar.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarini davlat buyurtmalarini (paxta xom ashyosiga hamda g'allaga nisbatan) bajarish maqsadida davlat tomonidan belgilangan tashkilotlar bilan kontraktatsiya shartnomalarini belgilangan muddatlarda tuzadilar. Davlat buyurtmalaridan ortiqcha bo'lgan hamda sabzavot, poliz, kartoshka, bog'dorchilik va chorvachilik va boshqa mahsulotlarni erkin bozorda sotish uchun ularni oluvchilar bilan fyuchyers shartnomalarini tuzishlari mumkin.

- Shirkat, fermer xo'jaliklari mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mineral o'g'itlarni, boshqa kimyoviy vositalarni, yoqilg'i-moylash materiallarini, barcha turdagi texnikalarni, ehtiyot qismlarini sotib olish hamda barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi sub'ektlar bilan fyuchyers shartnomasini tuzmoqdalar. Shu tuzilayotgan barcha turdagi shartnomalarning xususiy asosini quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;
- "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xususiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularni bajarilish monitoringini olib borish to'g'risidagi Nizom.

Kontraktatsiya shartnomalari, shuningdek, moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuziladigan shartnomalar xo'jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan holatlardan kelib

chiqqan holda, agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan 1 oy oldin, lekin kalendar yil boshlanishdan kechikmay tuziladi. Shartnomalarni tuzishga xo'jalik, tashkilot rahbarlari mutaxassislari bilan birgalikda, ijodkorlikda barcha ijobiy hislatlariga asoslangan holda, burch va mas'uliyatlarini tushunganlari holda yondashishlari lozim. Shundagina ularning sifatli va o'z vaqtida tuzilishi ta'minlanadi. Barcha turdagi shartnomalar respublikada ishlab chiqilgan namunaviy shakllarga amal qilingan holda manfaatdor sub'ektlar tomonidan mustaqil holda tuzilishi lozim. Shartnomalar uzoq, qisqa muddatli va bir marta amalga oshiriladigan munosabatlar bo'yicha tuzilishi mumkin.

- Tuziladigan shartnomalarda tomonlarning yuridik nomi, ularni rahbarlarining familiyasi, ismi, otasining ismi, shartnoma mavzusi, ya'ni shartnoma nima maqsadda tuzilayotganligi, agar mahsulot sotish bo'yicha bo'lsa, uning nomi, turi, assortimenti, sifati, uning miqdori, davrlar bo'yicha narxi, assortiment bo'yicha bozor talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shuning bilan birgalikda mahsulot sotuvchi korxonaga qanday idishlarga, qanday qilib solib, qadoqlab yuborishi ham ko'rsatiladi. Xullas, shartnomada sotuvchi o'z mahsulotlarini iste'molchiga sifatli holda, o'z vaqtida yetkazib berishini aniq, ravon ko'rsatib berishi kerak. Bular mahsulot sotuvchi tomon sub'ektining majburiyati, burchi hisoblanadi. Shartnomaga muvofiq mahsulotni sotib oluvchi tashkilot (sub'ekt) sotuvchi tomonidan shartnoma shartlariga oid yuboriladigan mahsulotni o'z vaqtida tushirib olish va unga belgilangan tartibda haq to'lash tartibini aks ettiradi. Bu mahsulot sotib oluvchining burchi, majburiyati hisoblanadi. Ushbu shartnomada mahsulotni tashish va tushurish bo'yicha barcha xarajatlar tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari zimmasiga yuklanishi hamda mahsulot uni sotuvchi xo'jalik transportida yetkazib berilsa, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jalikka mahsulotni tashish harakatlarini haqiqiy brutto vazni bo'yicha qoplashini ko'rsatadi. Ularning summasi qonun hujjatlarga muvofiq tasdiqlangan normalar va tariflar bo'yicha belgilanadi. Yuqoridagilar bilan birgalikda shartnomada tomonlarning shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi aniq respublika Fuqarolik kodeksining 324-329 moddalaridagi talablari negizida belgilanadi. Masalan:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirilishidan asossiz bo'yin tovlagan xo'jalik tayyorlovchiga topshirilmagan mahsulot qiymatining 25%i miqdorida jarima to'laydi. Jarima miqdori o'tgan davr (oy, chorak, yil)da mahsulotning shakllangan o'rtacha narxidan kelib chiqib, xarid narxlariga belgilangan ustamalar to'plashni hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, zararning mahsulot yetkazib berilmaganligi tufayli yuzaga kelgan jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanishi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment, turlar va muddatlarda qabul qilib olish, rad etilgan har bir holat uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan shakllangan o'rtacha narxdan kelib chiqib, qabul qilinmagan mahsulot qiymatining 25%i miqdorida jarima to'laydi, tez buziluvchi mahsulot bo'yicha esa – uning

to'liq qiymatini to'laydi. Bundan tashqari, mahsulotni qabul qilish rad etilganligi tufayli xo'jalik ko'rgan zararining jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi;

- kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq topshirilgan (yuklab jo'natilgan) qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun haq to'lashdan asossiz bosh tortilganda (xo'jalikka tegishli summalarni, belgilangan ustamalarni ham qo'shib, o'z vaqtida hisoblab o'tkazmaganlik, hisob-kitoblarning aktsept shaklida esa to'lov topshirig'i aktseptini asossiz to'liq yoki qisman rad etganda) tayyorlov tashkiloti xo'jalikka to'lanmagan summani o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 %i miqdoridagi jarimani to'laydi. Tayyorlov tashkiloti jarimadan tashqari, xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0.4 %i miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan summalarning 50 %idan ortiq bo'lmagan penya to'laydi;

- tovar-transport hujjatini rasmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga tovar-transport hujjatini rasmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligining har bir holati uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida jarima to'laydi;

- yuklab jo'natilgan tovarlarga to'lov yoki tovar-transport hujjatining nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki tovarlar yuklab jo'natilganligi to'g'risida boshqa axborot taqdim etilmaganligi uchun aybdor tomon har bir holat uchun tovar qiymatining 1 %i miqdorida jarima to'laydi;

- xo'jalikni standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishning tartibga soluvchi yo'riqnomalar va qoidalarda yoki kontraktatsiya shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatlarda idish va o'rash materiallari bilan ta'minlanmaganligi uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka yetkazib berilmagan idish, o'rash materiallarni yetkazib berish vaqtida amalda bo'lgan qiymatining ikki barobari miqdorida jarima to'laydi. Tayyorlovchining xo'jalikni idish bilan ta'minlamaganligi mahsulot sifatining pasayishiga yoki tez buziluvchi mahsulotning buzilishiga olib kelgan bo'lsa, tayyorlov tashkiloti xo'jalikka ko'rilgan zararining jarima bilan qoplanmagan qismini ham to'laydi. Bunda xo'jalik sifatsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi;

- tomonlar o'rtasida kelishilgan jadvalga muvofiq kelgan transportning belgilangan muddatdan ortiqcha bekor turib qolganligi uchun aybdor tomon bekor turib qolish bilan bog'liq harajatlarni to'laydi. Bekor turib qolish vaqti, tomonlar o'rtasida imzolangan dalolatnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi;

- tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilot tomonidan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, miqdori noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar sifatini, shuningdek, ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladilar hamda ushbu hisoblangan summadan tashqari, xo'jalikka noto'g'ri hisoblangna summaning 20 %i miqdorida jarima to'laydilar;

- mahsulot uchun hisob-kitob qilishda tayyorlovchi tomonidan ortiqcha olingan pul summalari qaytarib berilmagan taqdirda (ayni bir mahsulotning o'ziga takroran haq to'langanda, mahsulot narxi noto'g'ri qo'llanilganda, tovarsiz to'lov

talabnomasiga haq to'langanda va boshqalarda) tayyorlovchi ushbu summani qaytaradi va boshqa tomonga ushbu pul mablag'laridan foydalanilgan butun vaqt uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorida ortiqcha olingan summa uchun jarima to'laydi;

- agar yuklab jo'natilgan mahsulot (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar)ning sifati, assortimenti, sorti standart talablarga, texnik shartlarga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon sifati zarur darajada bo'lmagan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatining 20 %i miqdorida jarima to'laydi;

- moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka belgilangan ustamalardan tashqari, yetkazib berilmagan moddiy-texnika resurslari yoki ko'rsatilish kerak bo'lgan xizmatlar qiymatining 25 %i miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka moddiy-texnika resurslari yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi natijasida ekazilgan zararni to'laydi;

- yetkazib berish muddati kechiktirilgan, tovarlar yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan taqdirda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 %i miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 %idan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va yetkazib berish kechiktirilganligi, tovarlar to'liq yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod qilmaydi;

- tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomada shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikning amaldagi qonun hujjatlarga zid bo'lmagan boshqa choralari ham nazarda tutilishi mumkin;

- zil-zila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar natijasida oldindan ko'rish va bartaraf etish mumkin bo'lmagan (fors major) holatlar munosabati bilan ularning irodasi va xo'ishiga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha o'z zimmlariga olgan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bir tomon boshqa tomon oldida javob bermaydi;

- xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun ularni javobgarlikka tortishda, shuningdek, hatti-harakatlari (harakatsizligi) natijasida kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha shartnoma majburiyatlari xo'jaliklar tomonidan bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi) uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining aybi bilan xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi)

natijasida yetkazilgan zarar ushbu tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda qoplanishi ko'rsatiladi.

Ushbu shartnomada shakllangan nizolarni, fors-major holatlarini hal etish tartibi, hisob-kitoblar tartibi, shakli, muddatlari, tomonlarning to'lov va boshqa rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joyi ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishlarni, xizmatlarni bajarish bilan hamda xo'jaliklarga zarur bo'lgan mineral o'g'it hamda barcha turdagi kimyoviy vositalarning, yoqilg'i-moylash materiallarini, texnika vositalarini yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar bo'yicha tuziladigan shartnomalarda ham yuqorida ko'rsatilgan barcha masalalar o'z aksini to'liq topishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan mazmunda tuzilgan shartnoma loyihasi tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan 7 kun davomida ko'rib chiqilib, protokolga asosan tuzuvchiga qo'l qo'yish (ijobiy bo'lsa) uchun qaytariladi. Nizo bo'lsa, u bir hafta ichida ko'rib chiqib, echiladi. Barcha talablarga to'liq javob beradigan shartnomalar tomonlarning har biri va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxada tuziladi. Uning barcha nusxalari bir xil kuchga egadir.

Shartnoma tomonlarning rahbarlari imzolab, muhrlarini qo'ygan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'lib, tuzilgan holda tasdiqlangan hisoblanadi.

Shunday shartnomalar 3 kun mobaynida tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etiladi.

- Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shartnomalarni ko'rib chiqish tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

- Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda qo'shimcha hujjatlar yoki to'lov talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

- Shartnoma:

- uning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

- unda ushbu nizomning 10 – bandida ko'rsatilgan muhim shartlar mavjudligi;

- xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan narx bo'yicha tartibga solinishi kerak bo'lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining oshirib yuborilishi yuzasidan tekshiriladi.

- Shartnoma qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi. Shartnomaning barcha nusxalariga ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risida belgi qo'yiladi, tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi xodimi tomonidan imzolanadi, imzo muhr bilan tasdiqlanadi.

- Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish daftarlari yuritiladi. Ularda quyidagi malumotlar mavjud bo'ladi:

- shartnomani ruyxatdan o'tkazish tartib raqami;

- shartnoma tuzilgan sana;

- shartnoma ruyxatdan o'tkazilgan sana;

- shartnomaning tomonlari;

- yetkazib beriladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar turlari va miqdori;

- shartnoma summasi;

- ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomani olgan shaxsning imzosi va sana.

Shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab ikki kun muddatda xo'jaliklarga shartnomaning bir nusxasini jo'natishlari shart.

Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar shartnoma bilan bo'lgan tatribda rasmiylashtiriladi va ular tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

Barcha talablarga to'liq javob beradigan darjada tuzilgan shartnomalar sifatli tuzilgan shartnomalar hisoblanadi.

Ular respublika qishloq xo'jaligidagi subektlar o'rtasidagi agrar-iqtisodiy munosabatlarni vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlab, iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlashimizga xizmat qiladi. Lekin amaliyotda doimo ham shartnoma shartlari to'liq bajarilayotgani yo'q. Bunday kamchiliklarga barcha korxonalar, tashkilotlar tomonidan yo'l qo'yilmoqda. Masalan, shirkat va fermerlar shartnomada belgilangan miqdordagi mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib bermayotganlik, yoqilg'i-moylash materiallarini, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni, ozuqalarni shirkat, fermer xo'jaliklariga o'z vaqtida yetkazib bermaslik hollari, davlat tijorat banklari esa ularga o'zlarining mablag'larini talab etgan vaqtida bermayotganlik hollari uchramoqda. Bu borada Prezident I.A.Karimovning Oliy majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasida eng muhim - barcha tomonlarning shartnomalarni bajarishi yuzasidan qat'iy intizom o'rnatilishi darkor degan so'zlarini keltirish o'rinlidir. Bunday hollarni bartaraf etish maqsadida respublika hukumati 2005 yilning o'zida bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Jumladan, banklar zimmasiga shu xo'jaliklar tomonidan talab etilgan miqdordagi o'z mablag'ini tezkorlik bilan yetkazib berish vazifasi yuklatilgan. Bular albatta, shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishini ta'minlaydi.

10.5. Qishloq xo'jalik sub'ektlaridagi ichki shartnomaviy munosabatlar.

- Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar, tashkilot faoliyatining samarali bo'lishi uning tarkibidagi bo'linma va bo'linmalardagi munosabatlarni sifatli bajarilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu munosabat bilan ichki munosabatlar va ularni bajarilishiga aloqida e'tibor berish zarur. Bu munosabatlar asosan:

- korxonalar, tashkilot rahbarlari bilan ishchi xizmatchilarni ishga jalb etish jarayonida;

- xo'jalik rahbari bilan uning a'zolari o'rtasidagi yer munosabatlari jarayonida;

- xo'jalikning mulkini ijaraga berish va boshqa hollarda yuzaga keladi.

Darhaqiqat, qishloq xo'jaligi korxonalarining samaradorligi ko'p jihatdan uning rahbari hamda ishchi, xodimlarning faoliyatlari bilan bog'liqdir. Qayerda yaxshi, intizomli odamlar to'g'ri, to'liq mehnat qilsalar yutuq ham shu yerda bo'ladi. Shuning uchun xo'jalik rahbari fuqarolarni ishga jalb etishda ularning

bilimlariga, tajribalariga, odamiyligiga va boshqa yaxshi hislatlariga aloqida e'tibor qaratadilar. Ularni ishga olish albatta, mehnat shartnomasi asosida amalga oshirilishi zarur. U barcha xususiy-me'yoriy hujjatlar asosida tuzilishi lozim. Unda ishga yollanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, qanday muddatga, qaysi lavozimga, oylik maoshining miqdori, uni berish tartibi, ish joyi, ijtimoiy himoyalanganligi, tomonlarning burchi va majburiyatlari hamda ularning bajarilishi to'liq, aniq aks ettirilishi kerak.

Qishloq xo'jalik korxonalarini aholini ishga jalb etishni "Mehnat birjasi" hamda "Bandlik fondi" orqali amalga oshirish ishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki bunda ayrim imtiyozlarga ega bo'ladi. Hozirgi davrda shirkat xo'jaliklari ixtiyoridagi bog'zor, tokzor yerlar shirkat a'zolariga ijaraga berilmoqda. Shunda shirkat rahbari bilan ijarachi o'rtasida bog' va tokzorlarni ijaraga olish bo'yicha shartnoma tuzadilar. Bu shartnoma kim tomonidan tuzilayotganligi, ya'ni familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi, shartnoma predmeti bog'zor va tokzor maydon miqdori, sifati va daraxtlarning soni, sifat holatiga, ularning balans qiymati, ijara muddati, ijara haqi summasi, uni to'lash tartibi, mahsulot (turlar bo'yicha) yetishtirish miqdori, assortimenti, sifati, yerlarni yetishtirib berish muddati, narxi, ijarachining hamda shirkatning burchi, majburiyati, mulkiy javobgarligi, shartnoma tuzilgan sana, imzolar va boshqa rekvizitlar aks ettirilishi lozim. Uni tomonlar imzolagandan so'ng u kuchga kiradi. Bu shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil kuchga egadir. Bir nusxasi shirkat xo'jaligida, ikkinchisi esa ijarachida saqlanadi.

Fermer xo'jaliklari ixtiyoridagi bog'zor, tokzorlarni ijaraga berish shu to'g'ridagi qonunda ta'qiqlangan. Fermer xo'jaliklari yerlarini uzoq muddatga davlatdan ijaraga olganliklari munosabati bilan ularda yerga nisbatan ikkilamchi ijara ta'qiqlangan.

Lekin, shirkat xo'jaliklarida ijara munosabatlarini rivojlantirilishi natijasida bog'zor va tokzorlarga foydalanish borasida ijarachilarda egalik qilish hissiyoti barqaror holda yuksalmoqda. Shuning oqibatida, ularda olayotgan mahsulotlariga egalik qilish hissiyoti shakllanmoqda. Bunday hol ularga bog'zor va tokzorlardan to'liq va oqilona foydalanish tuyg'usini oshirib, ko'proq hosil olishga intilmoqda. Ijarachilar ijara shartlaridan ortiqcha yetishtirgan mahsulotlariga mustaqil erkin holda egalik qiladilar. Ya'ni shartnomadan ortiqcha yetishtirgan mahsulotlarni qonunda belgilangan tartibda rioya qilgan holda xohlagan muddatlarda joylarda erkin sotish imkoniyatlariga egadirlar. Shuning natijasida olgan pul daromadlarini, hisob foydalarini o'zlarining xoxishlariga ko'ra foydalanadilar. Natijada xo'jalikning ham, ijarachining ham oilasining iqtisodiy holati yaxshilanadi.

Shirkat hamda yirik fermer xo'jaliklarida paxta xom ashyosini, g'alla, kartoshka, sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirishda ijara pudrati asosida yuritilmoqda. Bunday hollarda ham ichki ijara shartnomalari xo'jalik rahbari va pudratchi tomonidan tuziladi.

Unda kimdan, kim qancha yerni, qancha muddatga ijara pudratchiga olgani, qaysi mahsulot, qancha ishlab chiqarish muddati, miqdori, assortimenti, sifati, qanchasini topshirilishi, qanday rag'batlantirilishi, mulkiy javobgarligi hamda xo'jalikning burchi, vazifalari ko'rsatilib, tomonlar imzolaydi. Shuning oqibatida u

kuchga kiradi. U ham ikki nusxada tuzilib tomonlarda saqlanadi. Shunday tartibda tuzilgan shartnomalar tomonlarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

10.6. Yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari

Respublika aholisining aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoji ham to'liq qondirilmayapti. Ularning ayrimlarini chetdan olib kelib, sotish orqali ham bu muammo to'liq echilganicha yo'q. Bu asosan don, qand, shakar mahsulotlariga, katoshka va chorvachilik mahsulotlariga, ayniqsa, go'sht va sut mahsulotlariga tegishli. Shuning uchun barcha turdagi korxonalarda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish eng dolzarb muammodir. U siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu muhim muammoni hal etishning asosan ikki yo'li mavjud:

- ◆ Ekstensiv yo'l. Ya'ni, ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish. Bu usulni adabiyotlarda, Amerika usuli, deb ham atashadi. Lekin uning rivojlantirilishi ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi sababli to'liq ta'minlanmaydi.

Bu usulda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini ko'paytirish uchun moddiy mablag` hamda mehnat sarflari asosan yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi muomalasiga kiritishga hamda chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirishga qaratiladi. Natijada o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdori ko'paytiriladi. Shu bilan birga bu jarayonda yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni, zooveterinariya ishlarini ham amalga oshirish talab qilinadi. Demak, bu usul yordamida yalpi mahsulot hajmi ko'payishi, sifati yaxshilanishi ta'minlanadi.

- ◆ Intensiv yo'l. Ya'ni, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda zotexnologiya, veterinariya ishlarini rivojlantirish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish. Bu usulni adabiyotlarda, Prussiya yo'li, deb ham ataladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash asosan moddiy, mablag` va mehnat sarflarini, fan yutuqlarini, yangi texnikalarni hamda ilg'or texnologiyalarni, hayvonlarning nasl va zotlarini, o'simlik navlarini yaxshilashga qaratish orqali, binobarin, qo'shimcha investitsiyalarni amalga oshirish hisobiga ta'minlanadi.

Respublikada ekstensiv yo'l bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish Farg'ona vodiysining aksariyat xo'jaliklarida, Xorazm viloyatida hamda eskidan don sug'oriladigan hududlarda ancha cheklangan. Lekin intensiv usuldan barcha viloyatlarda foydalanish imkoniyati mavjud. Buning uchun, avvalo, butun aholida vatanparvarlik ruhi rivojlanishiga erishish, o'z hayotimizning yuksalishini o'zimiz ta'minlashimiz kerak, degan tushuncha barchada mustahkam shakllanishi kerak. Vatanparvarlik, albatta, iqtisodiy tadbirkorlik bilan mustahkam, real bog'lanishi, chunonchi, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun mablag`lar bo'lishi lozim. Ularni

asosan ishlab topish zarur, etishmagan qismini esa davlat va mahalliy byudjetlardan, qarzar va boshqa manbalar hisobiga qoplash mumkin. Bu mablag`larni qishloq xo`jalik mahsulotlarini ko`paytirish, ularning sifatini ta'minlovchi quyidagi tadbirlarga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o`zlashtirishga;
- zotli, sermahsul chorva hayvonlarini yaratish, sotib olishga;
- yangi bog`lar, tokzorlar, ko`p yillik daraxtzorlarni barpo etishga;
- yangi irrigatsiya-melioratsiya tizimini barpo etish, mavjudlarining ishga yaroqliligini ta'minlash maqsadida ta'mirlashga;
- sermahsul o`simlik navlarini, chorva zotlarini yaratish maqsadida fan-texnikani rivojlantirishga;
- yangi texnikalarni, ilg`or texnologiyalarni ishlab chiqarishga izchil joriy etishga;
- ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirishni hamda elektrlashtirishni ta'minlashga;
- mavjud asosiy vositalarning ishga yaroqliligini ta'minlashga;
- o`simlikchilikning, chorvachilikning ishlab chiqarish vositalariga bo`lgan talabini imkoniyat darajasida ta'minlashga;
- ishchi-xizmatchilarning bilimini, malakasini yuksaltirish va moddiy hamda ma'naviy rag`batlantirishni real, ta'sirchan usullar orqali rivojlantirishga;
- ishlab chiqarishni liberallashtirish, erkinlashtirishga, islohotlarni chuqurlashtirishga;
- ishlab chiqarish, davr xarajatlarini, moliyaviy xarajatlarni imkoniyat doirasida kamaytirishga;
- soliqlar tizimini takomillashtirishga;
- ayrim qishloq xo`jalik mahsulotlarining baholarini erkinlashtirish va boshqalarga.

Ta'kidlangan tadbirlar o`z vaqtida, sifatli amalga oshirilishi natijasida o`simlikchilik, chorvachilik mahsulotlari miqdorining ko`payishi va qiymatining oshishi ta'minlanadi. Qishloq xo`jalik mahsulotlari hajmining o`shishi ular ichki va tashqi talabni qondirish maqsadida ko`proq sotilishini ta'minlaydi. Natijada o`simchilik, chorvachilik mahsulotlarining tovarlilik darajasi oshiriladi.

Hozirgi davrda qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotishda erkin, raqobatli bozor talab darajasida shakllanmagan. Shu sababli, jamoa, shirkat hamda fermer xo`jaliklari sotgan mahsulotlarining haqini vaqtida ola olmayaptilar, oqibatda debitorlik qarzlari ortib bormoqda. Chunonchi, respublikadagi jamoa, shirkat xo`jaliklarining debitorlik qarzlari 2000 yilda 64,2 mlrd.so`mni tashkil etgan bo`lsa, 2009 yilga kelib, 84.8 mlrd.so`mga yetgan. Bunday hol qishloq xo`jaligini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko`rsatmoqda.

Qishloq xo`jalik mahsulotlari sotish tizimini erkin bozor talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish lozim. Buning uchun avvalo, qishloq xo`jalik korxonalarining o`zida marketing masalalari bilan muntazam shug`ullanadigan guruhlar yoki bo`limlarni tashkil etish, ularni erkin bozor ma'lumotlari bilan muntazam ta'minlash zarur.

Shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlarning, korxonalarining faoliyatini rivojlantirish, ularning bo'limlarini ishlab chiqarishga yaqinlashtirish kerak. Shundagina ortiqcha xarajatlarga, nobudgarchilikka yo'l qo'yilmaydi: qishloq xo'jalik korxonalari tez ayniydigan mahsulotlarni 70-100 km. masofadagi zavodlarga tashib, vaqtdan yutkazmaydi, ortiqcha xarajatlar qilmaydi va mahsulot sifati yomonlashmaydi, mahsulotlarning ko'proq, tezroq, arzonroq sotilishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari korxonalarining o'zlari ham yetishtirgan mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi uyushmalar tashkil etishlari mumkin. Uyushmaga kiruvchilar uchun erkin, qulay sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday uyushmalar mahsulotlarni sotishda erkin raqobatli bozor vujudga kelishida muhim o'rin tutadi.

Natijada qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlarining haqini kelishilgan muddatlarda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar, ularni xo'jaliklar ishlab chiqarishga sarflashi natijasida yalpi va tovar mahsulotlarini ko'paytirishga erishadilar.

10.7. Shartnomalar bajarilish monitoringi.

Barcha talablarga javob beradigan qilib tuzilgan kontraktatsiya, fyuchyers shartnomalarini bajarilishi monitoringini amalga oshirish talab etiladi. Shu munosabat bilan barcha tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'zaro munosabatda bo'lgan har bir xo'jalik bo'yicha shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularni o'z vaqtida to'liq bajarilishini monitoring qilish daftarini yuritadilar. Ushbu daftarda shartnoma predmeti hamda tomonlarning vazifalar, majburiyatlarini ifodalovchi asosiy indikatorlar aks ettiriladi. Jumladan, shirkat xo'jaligi tayyorlov tashkilotiga qancha paxta sotishi, uning assortimenti, miqdori, narxi, davri va boshqalar aks ettiriladi. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bo'yicha esa, ular ko'rsatilgan xizmatlarning turi, hajmi, davri, sifati, qiymati va boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Shartnomada ko'rsatilgan shartlari bajarilishi monitoringi o'tkaziladi. Masalan, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari hisobot davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi rahbariyatini belgilangan tartibda paxta, boshqali ekinlar doni va sholi bo'yicha xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar shartlarini bajarilishini to'g'risida xabardor qiladi. Shuningdek, paxta, boshqali ekinlar doni va sholi yetishtirish uchun xo'jaliklar bilan moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha shartnomalar shartini bajarilishining borishi bo'yicha ham ma'lumotlar beradi. Tumanlar miqiyosida shu to'plangan ma'lumotlar 5 kun muddatda viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga yuboriladi. Viloyatning bu tashkiloti viloyatdagi barcha tumanlar bo'yicha shartnomalar bajarilishining borishini 5 kun muddatda yig'ma axborotini tayyorlaydilar. Shu yig'ma axborot O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga hamda xududiy adliya organlariga yuboriladi. Bu tashkilotlar barcha axborotlarni chuqur tahlil etib, tegishli xulosalar chiqarib, ularni bajarilishi monitoringini olib boradilar.

Shartnomalar bajarilishi monitoringini amalga oshirilishi tuzilgan barcha shartnoma shartlarini to'liq ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun uni sifatli yuritilishini ta'minlashga aloqida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch iboralar:

Iqtisodiy munosabatlar, shartnomaviy munosabatlar, kontraktatsiya shartnomasi, fyuchyers shartnomasi, mahsulot sotuvchilar, ish va xizmat ko'rsatuvchilar, mahsulot sotib oluvchilar, davlat buyurtmasi, erkin sotish, tomonlarning vazifasi, majburiyati, mulkiy javobgarlik, xo'jalik bo'yicha shartnoma, ichki xo'jalik shartnomasi monitoringi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligida aholi va qayta ishlash tarmoqlarining talablarini qondirish maqsadida turli xil mahsulotlar yetishtirilmoqda. Ular mamlakat yalpi ichki mahsulotining 26-19 foizini tashkil etmoqda. Yalpi mahsulot–tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari yig'indisidir.

Tayyor mahsulotlarni sotish natijasida respublika valyuta tushumining aksariyat qismi shakllantirilmoqda. Yalpi mahsulot tarkibida tayyor va tovar mahsulotlar salmog'ini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash va sotish yo'llarini, ularning bozorini rivojlantirishga erishish lozim.

Qishloq xo'jaligida davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan islohatlar, tadbirlar natijasida tarmoqning yalpi mahsulotini oshishi ta'minlangan. Kelajakda, yalpi mahsulot miqdorini talab darajasida ko'paytirish, sifatlarini yaxshilash maqsadida ekstensiv hamda intensiv usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Nima uchun shartnomaviy munosabatlar amalga oshirilmoqda?
2. Shartnoma deganda nimani tushunasiz?
3. Shartnomaning qanday turlari mavjud?
4. Shartnomaning mazmuni deganda nimani tushunasiz?
5. Tomonlarning vazifasi, majburiyatlari qanday bo'lishi mumkin?
6. Mulkiy javobgarlik qanday bo'ladi?
7. Ichki ijaraning mazmuni qanday?
8. Monitoring qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Yalpi mahsulot deganda nimani tushunasiz?
10. Yalpi mahsulotlar qanday turlarda hisobga olinadi?
11. Yalpi mahsulotning tarkibi qanday ?
12. Tayyor mahsulot deganda nimani tushunasiz?
13. Qanday mahsulot tovar mahsuloti deb ataladi?
14. Mahsulotlarning tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
15. Yalpi va tovar mahsulotlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati qanday?
16. Yalpi mahsulotni ko'paytirishning qanday yo'llari bor?
17. Ekstensiv hamda intensiv usul haqida qanday tushunchaga egasiz?
18. Mahsulotlar sotishni rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I A “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” T.O`zbekiston 2009
2. Karimov I A “Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” Xalq so`zi. 30.01.2011yil
3. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
4. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 2004.
6. Kembell R., Makkonoll, Stenli L.Bryu. «Ekonomiks», M.: Respublika, 1992. Kniga – 1, 2

Internet saytlari:

1. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, M. «Yurkniga». 2004
<http://G`G`shopper.h1.ruG`books.shtml1o`topicq935&pageq1>
2. Korolev Yu.B. i dr. Menedjment v APK, 2002, uchebnik,
3. <http://G`G`web.book.ruG`cgi-binG`book.p1o`pageq4&bookq88899>

O'N BIRINCHI BOB

QISHLOQ XO'JALIGIDA SERVIS TIZIMI, UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.

11.1. Qishloq xo'jaligida servis tizimi, uning mohiyati, zarurligi va ahamiyati.

11.2. Qishloq xo'jaligida servisni ta'minlaydigan infratuzilma tizimi va uning tarkibi.

11.3. Tarmoqdagi infratuzilmani rivojlanishini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash tartibi.

11.4. Infratuzilma subyektlari ularning faoliyatini hozirgi holati.

11.5. Qishloq xo'jaligida infratuzilma subyektlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari.

11.6. Chet el davlatlarida agroservis subyektlarini tashkil etilishi va faoliyati.

11.1. Qishloq xo'jaligida servis tizimi, uning mohiyati, zarurligi va ahamiyati

Respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlarini barcha talablarni to'liq qondiraoladigan darajada ularni sifatli qilib ishlab chiqarish, ularni istemolchilarga sifatli holda yetkazib berish uchun tarmoqda bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera oladigan servisni barpo etish talab etiladi. Tarmoqda servisni ta'minlash uchun servis sub'ektlarini tashkil etish zarur. Bu subyektlar qishloq xo'jalik korxonalariga talab etilgan davrda barcha turdagi ishlarni va xizmatlarni sifatli qilib vaqtida bajarishi lozim. Masalan, paxta xomashyosini yoki don yetishtirish uchun talab etilgan urug'likni, yoqilg'i, yonilg'i va yog'lovchi materiallarni o'z vaqtida yetkazib berishlari, ekin maydonlarini ekishga tayyorlashga, ekishda ekinlarga ishlov berishga, zararkunandalarga qarshi kurashishga, hosilni yetishtirib olishga, tashishga, ma'lum bir miqdordagisini qayta ishlab, saqlashga va nihoyat sotishga xizmat ko'rsatishlari zarur.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham turli hildagi xizmatlarni ko'rsatishlari zarur.

Demak, servis subyektlari ya'ni xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmoqdagi korxonalariga o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ularni istemolchilarga sifatli holda yetkazib berish jarayonida quyidagi yo'nalishlarda xizmatlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ya'ni kimyoviy o'g'itlarni, yoqilg'i, yonilg'i, yog'lovchi materiallarni, chigitni, bug'doy urug'ini, qishloq xo'jalik texnikalarini, maxanzimlarini, biologik vositalarni, kunjara va boshqa materiallarini tashish, saqlash va sotish borasida;

- qishloq xo'jalik ekinlarini ekish va ularga agrotexnik muddatda sifatli qilib ishlov berishda, yetishtirilgan mahsulotlarni yig'ishtirib olish, tashish borasida;

- qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishiga, ekinlarning hosildorligiga salbiy ta'sir etuvchi xashoratlarga, o'simliklarga hamda chorvachilikdagi mavjud bo'lgan zararkunandalarga, kasalliklarga qarshi tadbirlarni amalga oshirish;

- tarmoq korxonlarini tez pishar, kam suv talab qiladigan, sifatli, hosili yuqori bo'lgan navlar bilan ta'minlash, zotli mollarni sotish, zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatish;
- audit va konsalting xizmatlarini amalga oshirish;
- moliya, kredit, sug'urta, bojxona va boshqa iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish;
- irrigatsiya, melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish;
- yyetishtirilgan hosilni, mahsulotni qiyta ishlash, ularni saqlash va istemolchilarga yetkazib berish borasida;
- qishloq xo'jalik korxonalarini yetarli informatsiyalar bilan ta'minlash borasidagi xizmatlar;
- tarmoqda bilimli, malakali, insoniy hislatlarga ega bo'lgan yosh iqtidorli mutaxasislarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va mutaxasislarni bilimlarini oshirish borasida va boshqa yo'nalishlarda;
- qishloqda yashovchi aholida barcha turdagi xizmatlarni vaqtida va sifatli amalga oshirish borasida va boshqa yo'nalishlarda.

Qishloq xo'jalik korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha yuqorida ta'kidlangan xizmatlar quyidagi vazifalarni ijobiy hal etilishini ta'minlashga qaratilgandir:

- jonli mehnat sarflarini tejash, uning natijasida mehnat unumdorligini yuksalishini ta'minlashga;
- jonli mehnatni industrlashgan mehnatga aylantirishni ta'minlashga;
- ishlab chiqarish hamda boshqarish xarajatlarini tejalishini ta'minlab mahsulot tannaxini pasayishini ta'minlaydi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining xosildorligini va chorva mollarining mahsuldorligini oshirishga, yyetishtirilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilanishiga shuning oqibatida maxsulotlarning raqobatbardoshliligini yuksalishini ta'minlaydi;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarish madaniyatni yuksalishini ta'minlaydi;
- tarmoqda barcha turdagi munosabatlar tizimini yashilaydi va barcha muhim tashkiliy iqtisodiy hamda ijtimoiy masalalarni hal etishni taminlashi mumkin.

Natijada qishloq xo'jaligini rivojlanishini, uni samaradorligini yuksalishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi nihoyatda muhim hisoblangan vazifalarni sifatli hamda vaqtida bajarilishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan infratuzilma tizimini shakllantirish zarurligi va uning ahamiyati to'g'risida Respublika Prezidenti I. Karimov o'z fikrini "Qishloqni yangilash va qayta qurish chora tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. Bu hozirgi agrar siyosatning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir" deb ta'kidlagan.

Shuni e'tiborga olgan holda Respublika qishloq xo'jalik korxonalariga barcha turdagi xizmatlarni bajarilishini ta'minlash maqsadida infratuzilma subyektlarini tashkil etishga va ularning faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida Respublika Prezidentinig Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining quyidagi qarorlari qabul qilingan:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-255-sonli qarori;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 7 apreldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini modernizatsiyalash va rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-sonli qarori;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2011 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi 325-sonli qarori;

4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 14 noyabrdagi "2009 yilda qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish va sotishning asosiy parametrlari to'g'risida"gi 247-sonli qarori va boshqalar.

Shuning bilan birgalikda infratuzilma subyektlarining nizomlari ham ishlab chiqilgan.

Qabul qilingan huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda qishloq xo'jaligida servisni tashkil etish hamda rivojlantirish maqsadida servis subyektlarini tuzish talab etiladi. Infratuzilma subyektlarini zarurligini Respublikasi Prezidenti I. Karimov "Keng tomir yoygan, yaxshi xizmat ko'rsatuvchi infrastruktura-agrofimlar, mashina-traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar va shu kabilar mavjud bo'lishi kerakligi eng muhim qoida bo'ladi"¹ deb asoslagan.

11.2. Qishloq xo'jaligida servisni ta'minlaydigan infratuzilma tizimi va uning tarkibi

Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uning samaradorligini yuksaltirishda infratuzilmaning ahamiyati nihoyatda ulkan. Shunday ekan tarmoqda shunday infratuzilmani barpo etish kerakki, u tarmoqda amalga oshiriladigan barcha munosabatlarni qonun doirasida sifatli bajarilishini taminlashi lozim. "Bu juda muhim jarayon. Infrastrukturaning birdaniga yaratib bo'lmaydi. Bu- ancha uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, boshqa talablar bilan bir qatorda yuksak kasbiy, maxoratga ega kadrlar bo'lishini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar ham, aholi ham xo'jalik faoliyatining yangi sharoitlariga ruhan moslashishini talab qiladi."² Bundan tashqari infratuzilma tizimini tizimli ya'ni zanjirsimon bo'lishligi muhim ahamiyatga ega. Agarda bir bo'g'ini bo'lmasa, uning samarasi kutilgan natijani bermaydi. Shunday infratuzilmani barpo etish katta miqdordagi mablag'ni ham talab etadi. Demak, tarmoqda bozor iqtisodiyoti talablariga har tomonlama javob beradigan infratuzilmani barpo etish maqsadga muvofiqdir. Barpo etiladigan infratuzilma tizimi tarmoq iqtisodiyotining yuqoridan

¹ I. Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.

T. "O'zbekiston"-1995. 73 b.

² I. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.

T. "O'zbekiston"-1995. 98 b.

quyidagicha bo'lgan barcha bo'g'inlari hamda barcha sohalarning ya'ni bo'g'inlarning yo'nalishlariga (ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, ...) servis sharoitini yaratib berishi kerak. Shunday talablarga javob berish imkoniyatiga ega bo'lgan infratuzilma tizimi quyidagicha bo'lishi mumkin.(11.2.1-chizma.)

Bu 11.2.1 chizmada qishloq xo'jaligidagi o'simlikchilik, chorvachilik hamda bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, yig'ishtirib olish va tashish, qayta ishlash, saqlash hamda taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi munosabatlar tizimlashtirilgan. Unda:

Birinchidan, tarmoqdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlarni moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, texnika vositalarini ta'mirlash, ulardan foydalanish yo'nalishlari va boshqa xizmat turlari o'z aksini topgan;

Ikkinchidan, tarmoq subyektlariga uzoq muddatga umrbod meros qoldirish huquqi bilan yerni berish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar, irrigatsiya-melioratsiya tizimini qurish mavjudlarini ta'mirlash, ulardan foydalanish yerlarni o'zlashtirish, kapital tekislash, yer eroziyasiga qarshi va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatilgan;

Uchinchidan, tarmoq subyektlariga suv yetkazib berish ekinlarni sug'orish, suv sarfi limitlari bilan bog'liq bo'lgan hamda suv ekologiyasiga oid xizmatlar o'z aksini topgan;

To'rtinchidan, tarmoq uchun tezpishar, kam suv talab etadigan, yuqori va sifatli hosil beradigan ekin navlarini, chorvachilikda esa yangi sermahsul zotlarni yaratish, ularni amaliyotga tadbiiq etish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ko'rsatilgan;

Beshinchidan, ekinlarga agrotexnik muddatda sifatli qilib ko'rsatiladigan xizmatlar tizimi ham aks ettirilgan;

Oltinchidan, tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish, ularni yig'ishtirish, tashish, qayta ishlash, saqlash hamda sotish bilan bog'liq xizmatlar o'z aksini topgan;


Yettinchidan, tarmoqdagi subyektlarni samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan xizmatlar tizimi kiritilgan;


Nihoyat sakkizinchidan, tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslariga hamda ularning oila a'zolari uchun ko'rsatiladigan xizmatlar tizimi o'z aksini topgan.

Tarmoqda kelajakda iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion taraqqiyot oqibatida yangi xizmat turlari ham paydo bo'lishi mumkin.

11.2.1 chizmada ko'rsatilgan xizmat turlari shu xizmatlarni ko'rsatuvchi hamda shu xizmatlarni qabul etuvchi tarmoq subyektlari o'rtasidagi shartnomalar asosida amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunday infratuzilma tizimini shakllanib, faoliyat ko'rsatishi natijasida qishloq xo'jaligiga innovatsion fan-texnika yangiliklari, investitsiyalar kirib kelib tarvoqdagi barcha ishlab-chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirib, avtomatlashtirilib, yangi ish joylari tashkil etilib mehnatning xarakteri o'rganilib, mehnat unumdorligi yuksalib, harajatlarni tejalishi ta'minlashi oqibatida mahsulot tannarxini pasayishiga erishiladi. Ishlab chiqariladigan raqobatbardosh mahsulot miqdori oshib, ularning sifati yaxshilanadi. Ularni istamolchilarga qulay usullarda sotish oqibatida tushumi ko'payadi. Shuning natijasida foyda summasi ko'payadi. Bu o'z navbatida davlatning, korxonaning manfaati qondirilishini ta'minlab, uning hodimlarini rag'batlantirilishini ta'minlaydi.





11.3. Tarmoqdagi infratuzilma subyektlarini hamda faoliyatini rivojlanishini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatgichlar tizimi, ularni aniqlash tartibi.


Qishloq xo'jaligining barcha sohalarida mahsulot ishlab-chiqarish, ularni yig'ishtirib olish, qayta ishlash, saqlash hamda sotish jarayonlarida turli xildagi xizmatlarni amalgam oshirish maqsadida turli xildagi subyektlar ya'ni korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tashkil etilishi lozim. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligiga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarning quyidagi turlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir (11.3.1 chizma).

11.3.1-chizmada aks ettirilgan tarmoqda servis sharoitini ta'minlaydigan subyektlar qishloq xo'jaligini unda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni rivojlanishiga ularning faoliyatini samaradorligiga turlicha ta'sir etadi. Masalan, mineral o'g'itlarni yetkazib berish, ularni ekin maydonlariga solish, sifatli urug'larni ekishga oid xizmatlarni ko'rsatish natijasida ekinlarning hosildorligi oshishi ta'minlansa, ishlab-chiqarish jarayonlarida mashina texnikalaridan to'g'ri foydalanish jonli mehnat xarajatlarini tejab mehnat unumdorligini yuksalishini ta'minlaydi. Ijtimoiy infratuzilma xizmatlarini amalgam oshirish ishchi, xizmatchilarni bilimini, malakasini oshiradi, ularning sog'lig'ini yaxshilab, umrini uzaytiradi, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksalishini ta'minlaydi. Naslli chorva xayvonlarini to'yimli ozuqalar bilan ta'minlashga oid xizmatlarni ko'rsatish natijasida chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshishi ta'minlanadi. Demak,

infratuzilma xizmatlarini amalgam oshirilishi oqibatida yuqorida ta'kidlanganidek, tarmoqda ma'lum bir natijalarga erishiladi.

11.3.1-chizma

Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar tizimi.



Ya'ni infratuzilma tizimi subyektlarini tashkil etilishi yangi ish o'rinlarini barpo etilishini, shu joylarda odamlarni ishlashi natijasida aholini ish bilan ta'minlash darajasioshib, ishsizlik koefsiienti pasayadi. Ularni samarali faoliyat ko'rsatishi oqibatida mahsulot ishlab-chiqarish hajmi ko'payadi, moddiy, mexnat hamda mablag' xarajatlari kamayadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati yaxshilanadi ya'ni raqobatbardoshligi oshadi, ularni saqlab sotish natijasida korxonalarining pul tushumi ortadi. Yuqoridagilar yalpi va sof foydani ko'payishini ta'minlaydi. Yuqoridagi holatlarga batafsil, to'liq baho berish uchun ko'rsatgichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday hol infratuzilmalar xizmatlari qishloq xo'jaligiga qanday ta'sir etayotganligini ifodalovchi ko'rsatgich tizimini ishlab chiqarilishini talab etadi.

Infratuzilma xizmatlarini har birini samarasini uning maqsadi hamda vazifasini e'tiborga olgan holda aniqlash zarur. Masalan, fermer xo'jaliklariga mineral o'g'itlarni vaqtida yetkazib berish, ularni ekin maydonlariga talab etilgan miqdorda agrotexnik muddatda solish natijasida fermerlarning vaqtini tejash bilan ekinlarning hosildorligini oshishini ta'minlab, ulardan foydalanish samaradorligini

oshishini ta'minlaydi. Ularni quyidagicha tartibda aniqlash mumkin. O'g'itlarni yetkazib berish oqibatida tejalgan vaqtni aniqlash maqsadida fermerlar barcha o'g'itlarni o'zlari tashigandagi sarflangan kishi kunlarini (vaqtni) hamda sarflagan mablag'ini so'ngra kimyoviy vositalarni tashib va ekin maydonlariga solib beruvchilar sarflagan kishi kunlarini va pul sarflarini aniqlash lozim. Aniqlangan raqamlardan bir-birini ayirish yo'li bilan ular o'rtasidagi farq aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish lozim.

$$T_v(T_s) = F_{XX} - KV_{TSX}$$

Bunda:

$T_v(T_s)$ -tejalgan vaqt k/k, mablag' ming so'm;

F_{XX} -fermer xo'jaliklarining o'g'itlarni tashish va solish uchun sarflagan vaqti (k/k), xarajati (ming so'mda);

KV_{TSX} -kimyoviy vositalarni etkazib beruvchi tashkilotlarning shu tadbirga mehmata (k/k) va mablag' (ming so'm) sarfi.

Irrigatsiya-melioratsiya xizmatlarini ko'rsatish natijasida sug'oriladigan yerlarning suv bilan taminlanishi, er osti suvlarining sathi pasayadi, erning sho'rlanishi yaxshilanadi, shu erlardagi ekinlarning hosildorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, mahsulot tannarxi pasayadi, shu tadbirga sarflangan investitsiyaning samaradorligi oshadi. Yerlarni sho'rlanganligini yaxshilanishini o'ta sho'rlangan yerlar o'rtacha sho'rlanganda, o'rtacha sho'rlangan yerlar kam sho'rlanganda, kam sho'rlangan yerlar sho'rlanmagan yerga aylanadi. Masalan, shu xizmatlar 1000 ga maydonda o'tkazilgan, shu yerning 50 % sho'rlangan, shundan 3000 ga ya'ni 60 % kam sho'rlangan, 1500 ga yoki 30 % o'rtacha 500 ga yoki 10 % o'ta sho'rlangan. Melioratsiya tadbirlarini tizimli va sifatli ko'rsatilishi oqibatida sho'rlangan yer maydoni 30 % ni yoki 3000 ga ni tashkil etgan ya'ni avvalgi kam sho'rlangan yerning 2000 gasini sho'rlanishi bartaraf etilgan. 1000 ga o'rtacha sho'rlangan yer kam sho'rlangan yerga aylangan, o'ta sho'rlangan yer qolmagan. Natijada o'ta sho'rlangan yer yo'q, o'rtacha sho'rlangan ter 2000 ga ni, kam sho'rlangan yer 1000 ga ni tashkil etgan. Sho'rlanmagan yer 7000 ga ni yoki 70 % tashkil etgan.

Irrigatsiya-melioratsiya xizmatlarini ko'rsatish natijasida ekinlarni hosildorligini oshganligi quyidagicha aniqlanadi. Shu xizmat natijasida olingan hosildorlikdan tadbir o'kazilmagan davrdagi hosildorlik ayriladi. Masalan, xizmat ko'rsatish natijasida har 1 ga ekin maydonidan 28 sentner hosil olingan, tadbir o'tkazilmagan davrda esa 20 sentner olingan. Tadbir natijasida ekin hosildorligi 8 sentner (28-20) oshgan. Natijada xizmat ko'rsatish ekinning hosildorligini 40 % oshishini ta'minlagan.

Irrigatsiya-melioratsiya xizmatlariga sarflangan investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini quyidagi tartibda aniqlash lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$IM_{is} = \frac{(K_x * X_{sn}) - K_{xx}}{IM_{si}} \text{ yoki } \frac{K_{xsf}}{IM_{si}}$$

Bunda:

IM_{is} -irrigatsiya-melioratsiyaga sarflangan investitsiya summasi (mln sumda);

K_x - natijasida olingan qo'shimcha xosil (tonnada);

X_{SN} -mahsulotni o'rtacha sotish narxi (so'mda);

K_{XX} -qo'shimcha olingan xosilga sarflangan barcha xarajat so'mmasi (mln so'mda);

K_{XSF} -qo'shimcha xosil evaziga olingan sof foyda (mln so'm);

IM_{SI} -irrigatsiya-melioratsiya xizmatlariga sarflangan investitsiya summasi (mln so'm).

Irrigatsiya-melioratsiyaga sarflangan investitsiyaning qoplash muddatini aniqlash uchun shu xizmatlar uchun sarflangan investitsiya summasini shular natijasida olingan sof foyda summasiga taqsimlash lozim. Buni quyidagi formuladan foydalangan holda aniqlash lozim:

$$IM_{qm} = \frac{IM_{SI}}{K_{XSF}}$$

Bunda

IM_{qm} -irrigatsiya-melioratsiya xizmatlariga sarflangan investitsiyaning qoplash muddati.

Yuqoridagi formula yordamida irrigatsiya-melioratsiya xizmatlarini ko'rsatish natijasida sarflangan 1 so'm evaziga qancha sof foyda olinganligi aniqlansa, 2 chi formula yordamida shu xizmatlar oqibatida sarflangan investitsiya qancha muddatga to'liq qoplanishi aniqlanadi. Bir so'mlik investitsiya summasiga olingan sof foyda qancha ko'p bo'lsa hamda investitsiyani qoplash muddati kam bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori hisoblanadi.

Chorvachilikda naslchilikni rivojlantirish, sifatli ozuqa (yem) bilan ta'minlashga oid xizmatlarning samaradorligini aniqlash uchun xizmat ko'rsatilgan davrgacha hamda xizmat ko'rsatilgandan so'ng yyetishtirilgan go'sht, sut, jun, tuxum va boshqa mahsulotlarni yillik miqdorini xizmat ko'rsatilgancha bo'lgan miqdorda taqsimlanadi. Chorva hayvonlarning mahsuldorligi oshganligini aniqlash uchun yyetishtirilgan chorvachilik mahsulotini (sutni...) sog'in sigirlarning o'rtacha yillik bosh soniga taqsimlash lozim.

Xizmat ko'rsatilgandan so'ng chorva hayvonlarining mahsuldorligi oshgan bo'lsa xizmatlar samarali bo'ladi, aks holda samarasizdir. Xuddi shunday tartibda har bir infratuzilma xizmatlarining samaradorligini aniqlash mumkin (11.3.2-chizma).

Qishloq xo'jaligiga ko'rsatilayotgan infratuzilma xizmatlarini boshqa turlarini samaradorligini ko'rsatgichlarini ya'ni qaysi ko'rsatgichlarga ta'sirini 10.3.2-chizmada turkumlashtirilgan holda ko'rsatigan.

11.3.2-chizmada tarmoqda ko'rsatilgan xizmatlar qaysi ko'rsatgichlarga ta'sir etishi ko'rsatilgan. Shunga asoslangan holda har bir xizmat turini u yoki bu samaradorligini aniqlash lozim, lekin qishloq xo'jaligiga ko'rsatilgan barcha turdagi xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini ham aniqlash talab etiladi. Buning uchun dastavval infratuzilma subyektlarining barcha resurslarini qiymatini aniqlab ularni keltirilgan xarajatlarga (belgilangan usulda) keltirish lozim, so'ngra unga barcha xizmatlarni amalgam oshirish jarayonida sarflangan xarajatlar qo'shiladi.

11.3.2-chizma

Infratuzilma xizmatlarini qishloq xo'jaligini rivojlanishiga hamda samaradorligiga ta'sirini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Infratuzilma xizmatlari turlari	Mehnat harajatlari tejaydi mehnat unumdorligini oshiradi	Mablag` harajati tejaydi	Ekinlar ni hosildorligini oshishi ni ta'minlaydi	Chorva hayvonlarni mahsuldorligini oshiradi	Mahsulot sifatini yaxshilashni ta'minlaydi	Yerdan, suvdan foydalanishda rejani samaradorligini oshiradi	Fermer dehqon xo'jaligini fond bilan taminlashini oshiradi	Iqtisodiy samaradorlikni Isomlik xarajatga so'f foydani oshishini taminlaydi	Inson salomatligini, yaxshilanishini ta'minlaydi, bilimini, malakasini oshishini ta'minlaydi	Mahsulotni tovarlik darajasini yuksaltirishni ta'minlaydi
Yerni xaydash, tekislash	+	+	+							
Sifatli ekish	+	+	+							
Ishlov berish	+	+	+							
Ekin maydoniga o'g'it solish	+	+	+							
Tomirlatib, yomg'irlatib tuproq ostidan sug'orish	+		+							
Yovvoyi o'tlarga, hashorotlarga qarshi dorilash	+	+								
Hosilni mashinada yig'ib olish	+	+								
Mahsulotni tashish	+	+								+
Mahsulotni qayta ishlash	+	+					+	+		+
Mahsulotni saqlash							+	+		+
Zotli molar bilan ta'minlash				+	+		+	+		
Kredit xizmatlari								+		
Ozuqalar bilan ta'minlash				+	+		+			
Zooveterionariya xizmatlari				+	+			+		
Suv bilan to'liq ta'minlash			+		+	+	+	+	+	
Texnikalar bilan ta'minlash	+				+		+	+	+	
Mahsulotlarni sotish								+		+
Yer, suv ekologiyasiga oid xizmatlar									+	
Irrigatsiya-melioratsiya xizmatlari		+	+		+	+		+		
Ta'lim tarbiyaga oid xizmatlar									+	
Bilim, malakani oshirishga oid xizmatlar										
Sog'liqni saqlash, sportga oid xizmatlar									+	
Komunal xizmatlar									+	

Shu summaga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish natijasida olingan sof foyda summsi taqsimlanishi kerak. Bu ko'rsatgichni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$ITX_{IS} = \frac{ITX_{yq1} - ITX_{yq2}}{ITX_{jx}} = \frac{ITX_{sf}}{ITX_{jx}}$$

Bunda

ITX_{IS} -infratuzilma xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi;

ITX_{YQ1} -infratuzilma xizmatlari ko'rsatilgan davrgacha olingan yalpi mahsulot qiymati (so'm);

ITX_{YQ2} -infratuzilma xizmatlari ko'rsatilishi natijasida olingan yalpi mahsulot qiymati (so'm);

ITX_{jx} -infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish uchun sarflangan jami xarajat (so'm);

ITX_{SF} -infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish natijasida olingan sof foyda.

Shu ko'rsatgich yordamida infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish jarayonida sarflangan 1 so'm evaziga olingan sof foyda summasi aniqlanadi. Bu

ko'rsatgichning absolyut miqdori qancha ko'p bo'lsa shuncha samarasi yuqori bo'ladi, lekin uning ham me'yori mavjud.

11.4. Infratuzilma subyektlari, ularning faoliyatini hozirgi holati va qishloq xo'jaligining rivojlanishi

Iste'molchilarning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabi yil sayin oshib bormoqda. Bunday hol qishloq xo'jaligi barqaror rivojlanishini taqozo etmoqda... Xayotimizni yaxshilash, aholini turmush darajasini ko'tarish, iqtisodiyotimizning samaradorligini oshirish xalqimizni boqish, istiqbolimizni rejalash-xullas, qanday muammo, qanday masalani ko'rmaylik ularning aksariyati birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga borib taqaladi. Mana shuning uchun ham modomiki, faravon hayot ko'rmoqchi ekanmiz, oldimizga xalq turmushini yaxshilash maqsadini qo'ygan ekanmiz, qishloq xo'jaligini rivojlantirishimiz zarur".¹

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun servisni rivojlantirish zarur. Shuni e'tiborga olgan holda, so'ngi yillarda servis subyektlarini rivojlantirishga va ularning faoliyatlarini yuksaltirishga e'tibor berilmoqda. Bunga Respublika Xukumati hamda Prezidentining quyidagi tadbirlari yaqqol dalil bo'ladi. Masalan, Respublika Prezidentining 2006-yil 17 apreldagi III-325 sonli Qarori. Unda 2006-2011 yillarda Respublika qishloq xo'jaligida servisni rivojlanishini ta'minlash maqsadida servis subyektlarini tashkil etish belgilangan. Shu Qarorga asosan Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan fermer va dehqon xo'jaliklariga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. Unda barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi subyektlarni tuzish belgilangan (11.4.1-chizma).

Demak, 2011 yilga kelib, jadvalda ko'rsatilgan miqdorda servis subyektlari yangitdan tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Shunga binoan, Respublika qishloqlarida

¹ I. Karimov. Dehqonchilik taraqqiyoti – faravonlik manbai. T.-, "O'zbekiston" 1994. 3 bet.

Programma po uskorennomu razvitiyu sferi uslug i servisa v Ministerstva S/V zozyaystva na 2006-2010 godi.

infratuzilma subyektlarini tashkil etishning huquqiy va meyoriy asoslari yaratilmoqda. Masalan, suvdan to'liq va samarali foydalanish maqsadida „Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi”ni mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalgam oshiriladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish maqsadida „Muqobil masina-traktor park”larini, tuproqning unumdorligini hamda ekinlarning hosildorligini oshirish maqsadida „mineral o'g'itlarni sotish shahobchala”ni; mashina traktorlardan to'liq va samarali foydalanish maqsadida „yoqilg'i moylash materiallarini sotish shahobchalari”ni; fermer dehdon xo'jaliklarini zotli molar bilan ta'minlash maqsadida „naslli mollarni sotish punktlari”ni; chorva hayvonlariga zooveterinariya xizmatlarini sifatli ko'rsatish maqsadida „zooveterinariya punktlari”ni; ishlab chiqilgan mahsulotlarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi punktlar”ni va boshqa infratuzilmalarini tashkil etish uslubiylati ma'lum darajada ishlab chiqilgan.

11.4.1-jadval

Respublika viloyatlarida ba'zi infratuzilma subyektlarini tashkil etish prognozi*dona

Respublika va viloyatlarning nomi	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi tashk	Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi	Zooveterinariya punktlari	Naslchilik xo'jaliklari
	2006-2011 y	2006-2011 y	2006-2011 y	2006-2011 y
O'zbekiston Respublikasi	425	1617	585	161
Shundan: qoraqalpog'iston Respublikasi	7	140	80	15
Andijon	35	178	61	19
Buxoro	56	131	65	11
Jizzax	23	91	25	12
Qashqadaryo	44	163	40	7
Navoi	7	57	48	16
Namangan	39	134	62	7
Samarqand	67	56	26	13
Surxondaryo	19	137	26	5
Sirdaryo	10	88	25	19
Toshkent	50	173	36	16
Farg'ona	48	157	36	12
Xorazm	20	112	55	8

Jumladan, “suvdan foydalanuvchilar uyushmasi”ni belgilangan xududdagi mavjud bo'lgan suvdan foydalanuvchilar erkin xolda tashkil etadilar .U nodavlat, notijorat korxonasi hisoblanib, yuridik shaxs maqomiga ega .U xududdagi sug'orish tizimlari yordamida o'zining ta'sislarini suv bilan ta'minlash va suvdan to'liq samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munasabatlarni amalga oshiradi . U o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga ta'sis shartnomasi va ustaviga muvofiq, o'z a'zolarining pul va moddiy badallari hisobiga amalga oshiradilar . Shuning bilan birgalikda boshqa manbalardan jalb etilayotgan mablag'lardan ham foydalanadilar .

Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari o'zlarining xududlaridagi sug'orish tizimlarini doimo ishga layoqatli bo'lishligini va ulardan samarali foydalangan xolda suvdan foydalanuvchilarni limit doirasida o'z muddatlarida suv bilan ta'minlash asosida ekinlarning hosildorligini oshirishga xizmat etadi. U tashkilot

foйда ham olmaydi, zarar ham ko'rmaydi. Chunki barcha xarajatlari suvdan foydalanuvchilar hisobidan amalga oshiladi .

Muqobil mashina, traktor parklari (MMTP) ni tashkil etish Respublika Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8 sonli qaroriga asosan tashkil etilishi belgilangan. Yangitdan tashkil etilayotgan MMTP ustav fondi tugatilayotgan shirkat xo'jaligining qaytadan baxolangan mashina; traktor, qishloq xo'jalik texnikalari, jixozlari, uskunalari negizida barpo etiladi. Faoliyat davomida u fond qonun doirasida boshqa mablag'lar hisobida ham ko'paytirilishi mumkin. Bunda yangitdan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklarining ball gektarlari ham e'tiborga olinadi, chunki ular MMTP larning ta'sischisi hisoblanadi. MMTP ham yuridik shaxs sifatida o'z ta'sischilariga va boshqalarga xizmat ko'rsatish orqali faoliyat ko'rsatadi. Faoliyati davomida fermer, dehqon va boshqa subyektlarga ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga xizmat etadi. Natijada jonli mexnatni tejab, mexnat unumdorligini oshishiga ijobiy ta'sir etadi. Bundan tashqari, qishloqdagi oddiy mexnatni industirlashgan mexnatga aylanishini ta'minlaydi. Ya'ni mexnat qilish uchun ekologik jihatdan qulay sharoitlar yaratadi.

MMTP lar faoliyatlari natijasida ko'rgan zararlari hamda foydalari, ta'sischilar o'rtasida ularning qo'shgan xissalariga mutanosil ravishda taqsimlanadi. Demak, ularning samarali faoliyatlaridan tomonlar ham manfaatdordirlar.

Fermer va dehqon xo'jaliklariga infratuzilma xizmatlarini yanada yuqori bosqichga chiqarish maqsadida sabzavot hamda bog'dorchilikka ixtisoslashgan agrofimlar tashkil etilgan. Ularga fermer, dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid etib olib, ularni qayta ishlab, saqlab sotish xizmatlarini amalgam oshirish yuklatilgan. Bundan tashqari, ayrim boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari belgilangan. Ular belgilangan infratuzilma xizmatlari ko'rsatishga intilmoqdalar. Lekin mablag'larni yetishmasligi munosabati bilan o'zlariga yuklatilgan barcha xizmatlarni to'liq bajarish imkoniyatiga ega emaslar.

Qishloq xo'jaligiga turli xizmatlarni sifatli ko'rsatuvchi barcha turdagi subyektlar ham Respublika qonunlari va meyoriy hujjatlar asosida tashkil etilib, o'zlarining faoliyatlarini amalgam oshiradilar.

Qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan turli xildagi mahsulotlarni yetishtirish uchun servis sharoitini barpo etish maqsadida qishloqlarda servis subyektlari muntazam ravishda tashkil etilib, ular rivojlantirilmoqda. Bu xulosani 11.4.2 jadvalda keltirilgan raqamlar yaqqol isbotlamoqda.

11.4.2 jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Birinchi dan qishloq xo'jalik korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma subyektlarini tashkil etilishi mamlakatimizda uch bosqichda amalga oshirilgan:

I-bosqich 1999-2002 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi;

II-bosqich esa 2002-2005 yilarni;

III-bosqich 2006 yildan so'ngi davrni.

I-bosqichda qishloq xo'jaligida yirik jamoa xo'jaliklari keng qirrali faoliyat yuritganliklari munosabatlari bilan barcha turdagi infratuzilma xizmatlariga katta ehtiyoj yo'q edi.

II-bosqichga kelib davlat buyurtmalarini bajaraolmayotgan, past rentabelli shirkat xo'jaliklari negizida kichikroq xajmlarga ega bo'lgan fermer xo'jaliklarini tashkil etilishi munosabati bilan infratuzilma xizmatlariga bo'lgan talab oshib bordi.

III-bosqichda esa fermerlashtirish jarayoni o'z navbatida infratuzilma xizmatlarini rivojlantirishni ob'ektiv holda taraqqiy etishini talab etmoqda.

Ikinchidan ayrim turdagi infratuzilma subyektlari rivojlanish darajasi talabga nisbatan ancha past.

11.4.2 jadvaldagi raqamlar 2005-2009 yillarda Respublika qishloq xo'jaligiga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatuvchi infratuzilma subyektlarini tashkil etish jarayoni uzliksiz ravishda davom etirilgan. Agar qishloq hududlaridagi mini banklar 2005 yilgacha 628 tani tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga kelib 1478 taga yetkazilgan. Ya'ni shu davrda yoki so'ngi 5 yil ichida 850 ta mini bank yangitdan tashkil etilgan. Shuning munosabati bilan birgalikda mablag' oluvchilar ortiqcha mablag' sarflamayotirlar.

Shu davr mobaynida muqobil MTP lar soni 785 taga yoki 80.8 foizga, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari soni 845 taga yoki 97.5 foizga, yoqilg'i moylash materiallarini (YOMM) sotuvchi shaxobchalarning soni 593 taga yoki 74.5 foizga ko'paygan. Lekin ayrim infratuzilma subyektlari tez sur'atlarda rivojlantirilmagan. Masalan, axborot bilan ta'minlovchi konsalting va marketing, transport xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda mahsulotlarni tashish uchun idishlar va qadoqlash materiallari bilan ta'minlashga oid xizmatlarni ko'rsatuvchi subyektlar soni fermer va dehqon xo'jaliklarining hozirgi davrdagi talablarini to'liq qondirish imkoniyatiga ega emaslar. Bunday hol ma'lum darajada qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni vaqtida, sifatli holda iste'molchilarga yetkazib berishga salbiy ta'sir etmoqda.

Fermer va dehqon xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlarining qaysi turiga, qaysi hududlarda, qanday talabni mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarga to'liq ega bo'lmayotirlar, shuning bilan birgalikda o'z mahsulotlarini iste'molchilarga sifatli qilib olib kelishni ta'minlaydigan idishlar, transportlar, qadoqlash materiallariga ham to'liq ega emaslar. Shunday holni to'liq bartaraf etish uchun yuqorida nomlari ta'kidlangan servis subyektlari sonini yanada ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Tashkil etilib faoliyat ko'rsatayotgan ayrim infratuzilma subyektlarining soni Respublika Prezidentining 2006 yildagi III-325 sonli qarorini to'liq amaliyotga tadbiiq etilganidan dalolat bermoqda.

Respublika hududlarida tashkil etilib faoliyat ko'rsatayotgan infratuzilma subyektlari qishloq xo'jalik korxonalariga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatmoqdalar (10.4.3 jadval).

Masalan, 2005-yilda faoliyat ko'rsatgan muqobil MTPlar Respublika qishloq xo'jalik korxonalarida 112,6 mlrd so'mlik xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 2008-2009 yillarda o'rtacha 117,6 mlrd so'mlik yoki 2005 yilga nisbatan 5 mlrd so'mga ya'ni 4,4 % ko'p xizmat ko'rsatgan. Respublikada faoliyat ko'rsatgan muqobil MTP lar 2005 yilda 1 gektar ekin maydoniga 30 ming so'mlik xizmat ko'rsagan bo'lsa, 2009 yilga kelib 32,6 ming so'mlik xizmat ko'rsatgan. Muqobil MTP larning aksariyat qismida kuchli ya'ni baquvvat yer haydaydigan, ekinlarga ishlov

beradigan traktorlarni markazlashtirilganligi munosabati bilan bir nechta agrotexnik tadbirlarni (ishlarni) bir paytda o'tkazilishi natijasida ayrim iqtisodiy ko'rsatgichlar ijobiy tomonga o'zgaragan.

Masalan, Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanida 2009 yilda 2006 yildagiga nisbatan jonli mehnat sarfi jami 114 % tejalgan, paxta xosildorligi 21,4 %, bug'doyniki esa 27,4 % oshgan, natijada shu mahsulotlarning tannarxлари o'z navbatida 10,6 % va 13,7 % pasaygan. Lekin bu ko'rsatgan xizmatlar o'simlikchilik mahsulotlarini etishtirish jarayonida amalgam oshiradigan barcha tadbirlarni to'liq mexanizatsiyalashtirilishini ta'minlay olmaydi. Chunki ayrim o'simlikchilik mahsulotlarini etishtirish jarayonidagi ishlar to'liq mexanizatsiyalashtirilmagan. Masalan paxtachilikda g'o'zani chilpish (chekanka qilish), paxtani terib olish, sabzavotchilikda hosilni yig'ishtirib olish va boshqalar. Lekin shu ko'rsatgan xizmatlari 11,1 % kam bo'lgan. 2008-2009 yillarda suvdan foydalanuvchilar uyushmalari ham o'z faoliyatlarini rivojlantirib 34,7 mlrd so'mlik xizmat ko'rsatgan.

11.4.2 jadval

Respublika qishloq xo'jaligiga servis sharoitini shakllantirayotgan infratuzilma subyektlari*dona

Infratuzilma subyektlari	1999-2002	2005	2006	2007	2008	2009	2009 yil 2005 yilga nisbatan.%
Mini bank	87	628	895	1207	1276	1478	235.4
Muqobil MTP	95	972	1562	1779	1777	1757	180.8
Mineral o'g'itlar sotish shaxobchasi	87	821	1051	891	928	935	113.9
Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi	94	867	1271	1676	1676	1712	197.5
YOMM sotish shaxobchasi	90	796	1110	1340	1373	1389	174.5
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish shaxobchalari	3	300	581	443	424	424	141.3
Zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmatlari punkt		252	381	2180	2278	2411	9.6 marta
Axborot ta'minoti, konsalting va marketing xizmati ko'rsatish shaxobchalari	2	202	317	295	300	300	148.5
Transport xizmati ko'rsatish shaxobchasi	-	-	77	82	82	82	106.8
Tara idish va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shaxobchalari	-	-	73	78	78	78	106.8
Agrofirmalar	-	-	195	203	193	193	99

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi asosida tuzilgan

Mineral o'g'itlarni yetkazib beruvchi shaxobchalar esa shu yillarda 411,1 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatgan, yoqilg'i yog'lovchi materiallarni yetkazib beruvchilar 428,2 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatganlar.

Yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarish infratuzilma subyektlari mamlakat qishloq xo'jalik korxonalariga talabga javob beradigan darajada xizmatlarni ko'rsatmoqdalar.

Lekin ayrim yo'nalishlarga ixtisoslashgan infratuzilma subyektlari yetarli sur'atlarda rivojlanayotgani yo'q. Jumladan son jihatidan hamda bajarayotgan xizmat hajmlari bo'yicha ham yetarli darajada rivojlanmagan. Masalan 2009 yilning 1 yanvariga 424 tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi shaxobchalar yil davomida atiga 4895,3 mln so'mlik xizmat ko'rsatgan. Zotli mollarni sotuvchi va zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxobchalar esa 5406,3 mln so'mlik, transport xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxobchalar atiga 658,4 mln so'mlik xizmatlar ko'rsatgan. Bu raqamlar talabga nisbatan sezilarli darajada kam.

11.4.3
jadval

Respublika qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatgan ayrim infratuzilma subyektlarining faoliyatlariga oid ma'lumotlar* (2007-2009 yillardagi o'rtacha summa mln so'm).

Viloyatlar nomi	Muqobil MTPLar		Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari		Mineral o'g'itlarni sotuvchi shaxobchalar		Yoqilg'I moylash materiallarini sotuvchi shaxobchalar	
	Shartnoma summasi	Haqiqatdagi summa	Shartnoma summasi	Haqiqatdagi summa	Shartnoma summasi	Haqiqatdagi summa	Shartnoma summasi	Haqiqatdagi summa
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9489,5	9029,8	1547,7	636	21042	18746	21575	28618
Andijon	14841	12926,1	3015	2638	35205	36671	24792	25451
Buxoro	12209,8	12346	4032,1	3182	33725	36076	39274	31097
Jizzax	112,5	98,6	998,7	816,7	38686	31196	27472	35869
Qashqadaryo	24069	15099	3704,3	2746,4	39531	67274	57278	81592
Navoiy	2598	2081	728,9	636,4	9141	14121	14219	17048
Namangan	5547	5329	1321,8	8065	20475	36721	25520	47993
Samarqand	10864,8	10134,5	2837,7	1875,4	29789	27286	33455	24292
Surxondaryo	6221,6	6164,8	1698,4	1698,4	36344	38871	24322	39687
Sirdaryo	335,6	321,4	1297,3	938,2	25181	31541	26467	29392
Toshkent	9985,7	9019,1	2384,1	1822,4	34400	28176	34331	27946
Farg'ona	7739,4	6779,8	2437,2	2351,4	10642	27294	24692	18962
Xorazm	28281	28280	2433,1	1569,4	6497	17142	29724	20257

*O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Qishloq xo'jalik korxonalariga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatayotganligi ma'lum darajada qishloq xo'jaligini rivojlanishi va uni samaradorligini yuksalishini ta'minlashga o'z xissalarini qo'shgan. Bu holatni tarmoq iqtisodiyotini so'ngi yillarda rivojlanayotganligini isbotlaydi (11.4.4-jadval).

11.4.4-jadvaldagi raqamlar respublikaning agrar sohasida XXI asrning birinchi o'n yillari mobaynida asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarilgan miqdorini barqaror ravishda ortib borayotganligidan dalolat bermoqda.

O'simlikchilik mahsulotlar hajmini ko'payishida so'zsiz yangi tezpishar, xosildorligi yuqori bo'lgan navlarni ekilayotganligi, mahsulotlarni yetishtirish

jarayonida barcha agrotexnik tadbirlarni muddatida, sifatli amalga oshirilganligi bilan boshqa omillar ta'sir etgan.

Chorvachilik mahsulotlarni miqdorini o'sishida esa yangi sermaxsul chorva hayvonlarini sonini oshishi, ularni ozuqa moddalari bilan nisbatan yaxshiroq ta'minlanishi va boshqa omillar ta'sir etgan.

Qishloq xo'jaligida infratuzilma xizmatlarini rivojlanishi natijasida ekinlarning hosildorligini chorva hayvonlarining esa mahsuldorligini oshishi ta'minlangan. Masalan, bug'doyning xosildorligi 2000 yilda Respublikada 27 sent/ga bo'lgan bo'lsa, 2005 yilda 41,5 sent/ga ni, 2008 yilda esa 44,4 sent/ga ni tashkil etgan. Shu yillarda bug'doy xosildorligi 64,4 % oshgan. Kartoshka ekinining xosildorligi shu yillarda 50,1 % oshib 194,1 sent/ga ni tashkil etgan. Sabzavot ekinlarining xosildorligi shu davrda 34,1 % oshib 246,4 sent/ga ni tashkil etgan. Boshqa ekinlarning ham xosildorligi sezilarli darajada oshgan. Ko'rsatilgan xizmatlar tufayli chorva hayvonlarining ham mahsuldorligi ma'lum darajada oshgan. Demak, infratuzilma subyektlarining faoliyatlarini rivojlanishi qishloq xo'jaligini yuksalishiga ijobiy ta'sir etadi.

11.4.4-jadval

Respublikada yetishtirilgan asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari.ming tonna*

Mahsulot nomi	Barcha xo'jaliklarda				shundan : fermer xo'jaliklarida			dehqon xo'jaliklarida		
	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2009 yil	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2000 yil	2005 yil	2008 yil
Bug'doy	3532	5927,8	60397	6600	568,9	3550,5	5226,2	758,6	1118,5	1308,4
kartoshka	731,1	924,2	1398,7	1523,3	30,8	45,9	226,5	585,5	850,8	1166,8
sabzavot	2644,7	3517,5	5221,3	5704,5	129,4	480,3	1718,5	1982,7	2716,0	3470,0
poliz	4511	615,3	481,3	1100	50,5	205,7	461,9	286,8	3765	506,0
go'sht (so'yin vaznda)	501,8	632	768,0	1367,3	6,6	13,8	19,3	458,4	548,0	728,9
sut	3632,5	4554,9	5426,3	5760,7	54,1	94,7	151,6	3401,9	4409,2	5250,2
tuxum (mln dona)	1254,4	1966,4	2431,5	2715,8	12,0	71,6	157,3	751,8	1165,8	1500,8

*Respublika davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Lekin hozirgi davrda yuqorida ta'kidlanganidek, servis subyektlarining rivojlanishi ularning faoliyatlarini yuksalishi, shuning asosida qishloq xo'jaligining ham yuksalishi talab darajasiga nisbatan pastroq. Bunga quyidagilar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- Infratuzilma subyektlari yetarli darajada bilimli, malakali, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlanmagan, faoliyat ko'rastayotgan rahbar va mutaxasislarning malakasini oshirish ham talabga to'liq javob bera olmaydi;

- Mavjud servis subyektlari o'z faoliyatlarini samarali yuritish uchun bino, inshootlar, ishlab chiqarish vositalari hamda mablag' bilan to'liq ta'minlanmagan;

- Infratuzilma subyektlari bilan fermer xo'jaliklari o'rtasidagi shartnomalar barcha talablarga to'liq javob beradigan darajada sifatli tuzilmayotganligi natijasida tomonlar o'rtasida o'z majburiyatlarini bajarilishiga mas'uliyatsizlik bilan qarash hollari shakllanmoqda;

- Servis subyektlari ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar bo'yicha aniq va tizimli hisob-kitobni yuritilmayotganligi oqibatida debitorlik va kreditorlik qarzlari sodir bo'lmoqda., ularni kamaytirish borasida (inkassaga qo'yish, olingan pul o'tkazishni ta'minlash) aniq tadbirlar yetarli darajada amalgam oshirilayotgani yo'q

- Qishloq hududlarida infratuzilma xizmatiga muhtoj bo'lgan subyektlarning talablarini e'tiborga olingan holda servis subyektlarining maqsadga muvofiq hajmlarini aniqlash masalasi ilmiy xatdan asoslangan holda yondashilayotgani yo'q va boshqalar.

Kelajakda servis subyektlarini rivojlantirish, ularning faoliyatlarini samaradorligini oshirilishini ta'minlash maqsadida ta'kidlangan kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik lozim.

11.5. Qishloq xo'jaligida infratuzilma subyektlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish masalalari.

Kelajakda qishloq xo'jaligida ekilayotgan ekinlarning xosildorligi, chorva xayvonlarining maxsuldorligi yanada oshishi zarur. Buning uchun amalga oshiriladigan barcha agrotexnik va zootexnik tadbirlarni vaqtida sifatli qilib amalga oshirish lozim. Shuning bilan birgalikda, yetishtirilgan mahsulotlarni vaqtida, sifatli qilib yig'ishtirib olib, tashish, imkoniyat darajasida qayta ishlab, saqlash, iste'molchilarga yetkazib berish talab etiladi. Ularni talab darajasida ijobiy hal etish uchun infratuzilma subyektlarini sonini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, barcha resurslar bilan ta'minlab faoliyatlarini rivojlantirish xamda samaradorligini yuksaltirish obyektiv holda talab etiladi. Buning uchun tabiiy va iqtisodiy omillarni hamda talabni e'tiborga olgan qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq joylashtirishni va ixtisoslashtirishni yanada teranlashtirish zarur. Shunda ustuvorlik sabzavotchilik, bog'dorchilik, xo'jaliklarini sifatli ko'chatlar bilan ta'minlovchi, chorva hayvonlariga sifatli zooveterinariya xizmatlarni ko'rsatuvchi, yetishtirilgan bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa mahsulotlarini yaxshi joylashtirish uchun tara-idishlarini qadoqlash materiallarini ishlab chiqaruvchi, axborot informatsiyalari bilan ta'minlovchi, konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi infratuzilma subyektlarini tashkil etishga berilishi maqsadga muvofiqdir. Infratuzilma subyektlarini tashkil etishda ular o'rtasidagi raqobatchilikni ta'minlash maqsadida nodavlat, notijorat hamda xususiy tashkilotlarni tashkil etishga ham keng imkoniyat yaratib berish zarur. Ular irrigatsiya-melioratsiya inshootlarini qurish, ekspluatatsiya qilish, tamirlash, texnika, agrotexnik va zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatish mahsulotlarni sotish, qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi subyektlar bo'lishi mumkin. Ularni talabni e'tiborga olgan holda bosqichma –bosqich tashkil etishga aloxida e'tibor berish lozim. Ularni samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash uchun mablag'lar bilan yetarli darajada ta'minlash maqsadida ularni kreditlashtirish tizimini yanada soddalashtirish talab etiladi.

Infratuzilma subyektlariga ichki va tashqi investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish uchun qulay investision muhitni hamda xuquqiy, iqtisodiy sharoitlatni yaratib berishga ham katta e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Barcha yo'nalishdagi infratuzilma subyektlarini faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri tashkil etish hamda samarali bajarish uchun bilimdon, malakali kadrlarni barcha turdagi bilim yurtlariga tizimli tayorlashga ham alohida e'tibor berish zarur. Shuning bilan birgalikda servis subyektlarida faoliyat ko'rsatayotgan raxbar va mutaxassislarining bilim va malakalarini bozor iqtisodiyoti talablariga yetarli darajada javob beraoladigan darajada qayta o'qitish va malakalarini oshirish masalalariga ham katta e'tibor berish zarur. Xozirgi davrda qishliq hududlarida joylashgan infratuzilma subyektlari bilimli va malakalali mutoxassislar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Bunday holning sodir bo'lishiga asosiy sabab ularning ham moddiy ham ma'naviy jihatdan rag'batlantirish tizimining yetarli darajada takomillashtirilmaganligidir. Xozirgi davrda infratuzilma subyektlarining xodimlari faqatgina o'zlarining faoliyatlarini yakunlariga ko'ra moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladilar. Bunday hol ma'lum darajada bozor iqtisodi talablariga to'liq javob bermaydi. Chunki infratuzilma subyektlarining xizmat ko'rsatishlari oqibatida ekinlarning hosildorligi, chorva hayvonlarining mahsuldorligi ortadi, turli xildagi xarajatlar tejaladi, sifatli tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga sotish natijasida qishloq xo'jalik subyektlarining olayotgan sof foydasi kamayadi. Lekin bundan infratuzilma subyektlarining xodimlari rag'batlantirilmaydi. Shunday ekan infra tuzilma subyektlari xodimlarini ham rag'batlantirishda albatta qishloq xo'jaligining natijalarini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Shunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining xodimlari ham qishloq xo'jaligini rivojlanishidan manfaatdor bo'ladi. Shunda ular barcha turdagi xizmatlarni belgilangan muddatlarda hamda sifatli qilib bajarishga intiladilar. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95 % ko'prog'i sug'oriladigan yerlarda yyetishtirilishini hamda suv resurslarining cheklanganligini e'tiborga olgan holda ekinlarni sug'orish ishlarini bajarishda yangi sug'orish texnikalarini hamda texnologiyalarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan turli xildagi subyektlarni tashkil etib, ularni faoliyat ko'rsatishga qulay imkoniyatlarni yaratish lozim.

Qishloq xo'jaligida raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasini yuksaltirish maqsadida tarmoqda vertikal hamda gorizantal integratsiyalashtirish jarayonini yanada teranlashtirish lozim. Shuning oqibatida qishloq xo'jaligi sanoat bilan uyg'unlashib, ularning rivojlanishi ta'minlanadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni shu sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan turli yoshdagi insonlar amalga oshiradilar. Shunday bo'lganligi munosabati bilan ularning shu sohadagi ongini shakllantirishga doimo katta e'tibor berish lozim.

Shakllangan infratuzilma subyektlari qishloq xo'jalik korxonalariga turlicha xizmatlarni ko'rsatishlari tufayli ijobiy natijalarni berish mumkin. Masalan, chigit ekishni o'z muddatida ekib, g'o'zani o'z vaqtida unib chiqishi, uni hosildorligini gektaridan 2,5-3,4 sentnerga, shorlangan maydonni sho'rini sifatli yuvish, ekin hosildorligini 9 sentnergacha, chigit ekilgan maydonni chizillab, molalab, tekislab ekish oqibatida g'o'zaning hosildorligi 4,5-5 sentnerga, g'o'zani barcha turdagi

o'g'itlarni 1 yilgacha solish hosildorlikni 9-10,3 sentnergacha oshirish mumkinligini olimlar va amaliyotchilar asoslab berganlar.¹

Ta'kidlangan masalalarni talab darajasida hal etilishi kelajakda infratuzilma subyektlarini rivojlanishini ularning faoliyatlarini yuksalishini ta'minlab, qishloq xo'jaligini ham rivojlanishini ta'minlaydi.

11.6. Chet el davlatlarida agroservis subyektlarini tashkil etilishi va faoliyati.

Yer kurrasidagi davlatlar 2006-2007 qishloq xo'jalik yilida 9,6 mlrdga yaqin yerlardan foydalangan holda 1569,3 mln tonna don, 21,6 mln tonna paxta tolasi, 269,2 mln tonna go'sht, 674,6 mln tonna sut va turli miqdordagi boshqa mahsulotlarni yetishtirganlar. Shu mahsulotlarni ishlab chiqarish, yig'ishtirib olish, qayta ishlash, saqlash hamda ularni sifatli holda iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarida turlicha xizmatlarni bajaruvchi subyektlar tashkil etilgan va ular samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar. Jumladan, Avstriya, Angliya, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Polsha, Portugalya va boshqa davlatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab-chiqarishda "Texnikalardan o'rtoqlikda (hamkorlikda) foydalanish" yoki "Mashiniye ringi" (nemis tilida—"maschinen ringe") deb nomlangan o'rtoqlik tashkilotlar tashkil etilgan. Bu subyektlarni fermerlar o'z ixtiyorlaridagi texnikalaridan birgalikda samarali foydalanish maqsadida o'zaro kelishgan holda tashkil etganlar. Bitta fermer bir nechta o'rtoqlikka a'zo bo'lishi mumkin. Shu tashkilotga a'zo bo'layotgan har bir fermer o'z ixtiyoridagi har bir texnikadan qachon foydalanmasligini aniq belgilab berishi kerak. Sababi texnika egasi hisoblangan bo'sh bo'lgan texnikalari bilan boshqa fermerlarga xizmat ko'rsatib, qilgan xizmatlari uchun haq oladilar. Angliyada 1 ga yerni xaydab berganligi uchun 21-30 funt sterling, 1 ga maydondagi hosilni yig'ishtirib berganligi uchun esa 30-50 funt sterling, 1 ga ekin maydoniga o'g'it solganligi uchun 5-8 funt sterling haq olgan. Texnika egasi hisoblangan fermer boshqa fermerlarga xizmatlarni bajarish jarayonida texnika nosoz holga tushib qolsa, uni tuzatishni texnika egasi o'z mablag'i hisobidan bajaradi. Texnikalardan o'rtoqlikda (hamkorlikda) foydalanish subyekti ixtisoslashgan texnikalardan to'liq va samarali foydalanish maqsadida tuzilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ixtisoslashgan texnikalardan to'liq va samarali foydalanish uchun ma'lum miqdorda yer maydoni mavjud bo'lishi shart. Bunday maydonga barcha fermerlar ham ega bo'lmaydi. Bunday fermer maydoni kam bo'lganligi munosabati bilan ixtisoslashgan texnikani sotib olmaydi. Chunki unga texnikaning narxi qimmatlik qiladi, bu birinchidan, ikkinchidan esa bu fermerlar foydalanayotgan yer maydonining ko'lami kam. Bunday maydon bilan ixtisoslashgan texnikani ish bilan to'liq ta'minlash imkoniyati yo'q.

"Mashiniye ringi" ga a'zo bo'lgan fermerlar o'zaro tuzilgan shartnomalar asosida bir-birlari bilan munosabatlarni amalgam oshirmoqdalar. Xuddi shunday mashiniye ringlarni respublika agrar sohasida ham tashkil etish mumkin. Chunki mavjud bo'lgan fermer xo'jaliklarining 71,4 foizi ma'lum miqdordagi texnikalarga

¹ Ro'ziyev Z.Sh. Salumov A.X. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari va tarmoqni rivojlantirish T.2010.17,18 bet

ega. Shu texnikalardan doimo ham to'liq foydalanayotgani yo'q. Mashiniye ringlar shakllantirilsa, yuqoridagi masalani hal etilishiga ma'lum xissa qo'shishi mumkin.

Chet el davlatlarining agrar sohasida yana texnikalarga egalik qilish va ulardan foydalanish uyushmalari (kooperativ) tashkil etilgan. Ular Fransiyada, AQSHda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bu kooperativlarni asosan turli xildagi texnikalari mavjud bo'lgan fermer xo'jaliklari tashkil etgan. Ular turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishlarni mashinalar yordamida bajarib, yetishtirilgan mahsulotlarning ma'lum bir qismini qayta ishlab, saqlab, iste'molchilarga sifatli qilib yetkazib berishda faol qatnashadilar. 2007 yilning boshida Fransiyada 3 mingta fermer xo'jaliklari, 12,8 mingta uyushma (kooperativ) tashkil etgan. Bu uyushmalarning quvvati hamda ishchi xizmatchilari unchalik yiriklashmagan. Masalan, 12,8 mingta uyushmaning 36,4 foizga ishlaydigan xodimlar soni 10 kishigacha, 32,8 foizga 10-24 kishigacha, 28,4 foizga 25-49 kishigacha, 2,4 foizdagina 100 dan ko'proq kishi faoliyat ko'rsatadi.

Bu uyushmalar fermerlarga ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladilar. Ular olayotgan foydalari hisobidan yangi, serunum texnikalarni sotib olib, o'zlarining moddiy-texnika bazalarini mustahkamlaydilar. AQSH hamda Fransiyadagi bunday kooperativlarda yer haydaydigan traktorlardan hamda g'alla o'radigan kombaynlardan fermer xo'jaliklariga nisbatan samarali yani unumli foydalanmoqdalar. Masalan, fermer xo'jaliklarida g'alla o'radigan kombaynlardan yiliga o'rtacha 300-350 soat foydalanilgan bo'lsa, kooperativlarda (yani uyushmalarda) yiliga o'rtacha 1500-1600 soat foydalanilgan yoki 4,6 marta ko'p foydalanilgan. Shu kombaynlar yordamida 700 gektardan 2500 gektargacha bo'lgan maydondagi g'allani o'rib bergan.

AQSH, Kanada, Daniya, Ispanyada qishloq xo'jaligida tor doiradagi ishlarni bajarishga ixtisoslashgan texnikadan foydalanish uyushmalari fermerlar tomonidan tashkil etilgan. Ular asosan ekin maydonlarini xaydash, ekin maydonlarini o'g'itlash hamda yetishtirilgan hosilni yig'ishtirib olish ishlarini bajaradigan uyushmalardir. Ular shu bajargan ishlari uchun haq oladilar.

Yevropa davlatlarida jumladan, Daniyada qishloq xo'jalik subyektlariga ayniqsa fermer xo'jaliklariga keng qamrovli maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxsiy korxonalar samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Qishloq xo'jaligining muhim sohasi hisoblangan chorvachilikda barcha turdagi xizmatlarni bajaruvchi uyushmalar, korxonalar mavjud. Masalan, qoramol go'shtini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklariga boquvga qo'yiladigan yosh buzoqlarni yetishtirib olib kelib beradigan tashkilotlar mavjud. Bundan tashqari maxsus zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatadigan ixtisoslashgan tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Germaniya, Daniya, Fransiya, Gollandiya davlatlariga fermer xo'jaliklariga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlarni ko'rsatuvchi xususiy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu xususiy korxonalar egalari turli xildagi texnikalar yordamida fermer xo'jaliklariga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlarni ko'rsatib, shu xizmatlari uchun kelishilgan haqni oladilar. Shu mablag' hisobidan yangi texnikalarni olib, mavjudlarini ta'mirlab ular yordamida xizmatlar ko'rsatadilar.

Xususiy korxonani boshqaradigan kishi uning egasi hisoblanadi. Bunday xususiy korxonalarining hajmi yirik bo'lmay unda doimiy ravishda ishlaydigan ishchilar soni 25-30 kishidan oshmaydi. Bunday xususiy korxonaning egasi mulkidan samarali foydalanish maqsadida tarmoqdagi mexanizatsiyalashtirilgan ishlar bozorini yaxshi o'rganish bilan, har bir xizmat turlarini narxlarini belgilash bilan ularning bozorini o'rganish hamda o'zining xizmatlarini reklamasi bilan shug'ullanadi. Bunday xususiy korxonalarining faoliyat ko'rsatishi qishloq xo'jaligiga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlar bozorini mavjudligidan dalolat beradi. Kelajakda Respublikamiz qishloq xo'jaligida ham fermer va dehqon xo'jaliklariga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlarni ko'rsatadigan xususiy korxonalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ijobiy hal etishga ham e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan davlatlarning ko'pchiligida fermer xo'jaliklariga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlarni ko'rsatadigan tashkilotlar qishloq xo'jalik texnikalarini ijaraga, vaqtincha foydalanishga (prokatga) hamda lizing krediti evaziga oladilar. Qishloq xo'jalik texnikalarini lizinga olishda AQSH juda rivojlangan. Bu davlatda umumiy kapital qo'yilma summasining 30 foizi lizinga to'g'ri kelmoqda. Masalan, AQSHda qishloq xo'jalik texnikalarini ko'p ishlab chiqaruvchi Massey Ferguson kompanyasi ikkita sotgan traktorning bittasini lizinga bergan.

Demak, rivojlangan chet el davlatlarida qishloq xo'jaligiga servis sharoitini yaratish bilan shug'ullanadigan servis subyektlarining ko'lami keng bo'lib, ular samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Kelajakda Respublika qishloq xo'jaligida ham qishloq xo'jaligiga servis sharoitini shakllantirishga katta hissa qo'shaoladigan servis subyektlarini barpo etib, ularni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch iboralar

Servis, infratuzilma tizimi, infratuzilma subyektlari, infratuzilma yo'nalishlari, infratuzilma xizmatlari, infratuzilma xizmatlarining maqsadi, infratuzilma subyektlarining rivojlanishi, ular faoliyatlarining samaradorligi, infratuzilma xizmatlarini ekinlarning hosildorligiga, chorva hayvonlarining mahsuldorligiga, mehnatning unumdorligiga ta'siri, servis natijasida qishloq xo'jaligining rivojlanishi, tarmoq faoliyatining samaradorligini yuksalishi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini kam xarajatlar sarflab, sifatli qilib ishlab chiqarish, vaqtida yig'ishtirib olish, qayta ishlab sotishda infratuzilma xizmatlarining (servisning) o'rni hamda ahamiyati katta. Shuning uchun ham tarmoqda servisni (infratuzilma xizmatlarini) tashkil etib, rivojlantirish ob'yektiv zaruriyat hisoblanadi. Shuning uchun ham tarmoqda infratuzilma subyektlarini tashkil etib, ularni samarali rivojlantirishga Respublika Hukumati alohida e'tibor bermoqda. Infratuzilma subyektlarining asosiy maqsadi turli xildagi xizmatlarni ko'rsatish evaziga qishloq xo'jaligini har tomonlama rivojlanishiga sezilarli

xissasini qo'shishdir. Shunday bo'lganligi munosabati bilan infratuzilma xizmatlari bir qancha yo'nalishlarda amalgam oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Servis subyektlarining tashkil etilishini rivojlanayotganligini va ularning faoliyatlarini samaradorligini aniqlash uchun ko'rsatgichlar tizimidan foydalanish zarur. Ulardan foydalanishda ularning maqsadiga alohida e'tibor berish lozim. Shunda har bir xizmat turning rivojlanishiga va samaradorligiga aniq hamda to'g'ri baho berish mumkin.

Respublika Hukumati rahbarligida amalgam oshirilayotgan tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligida infratuzilma subyektlarining soni hamda ularning faoliyatlari yetarli darajada rivojlanmoqda. Bunday hol qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ma'lum darajada ijobiy ta'sir etgan. Lekin barcha yo'nalishlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar yetarli darajada rivojlanayotgani yo'q. Bunday hol xuquqiy, tashkiliy hamda iqtisodiy masalalarni to'liq amalga oshirilmayotganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Infratuzilma subyektlarini tashkil etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib, ularni kelajakdarojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Shuning oqibatida mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlanishini va samaradorligini yuksalishini ta'minlash imkoniyati shakllanadi.

Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligida servis yoki infratuzilma xizmatlari deganda nimani tushunasiz ?
2. Qishloq xo'jaligida servis (infratuzilma xizmatlarining) ahamiyatini tushuntirib bering?
3. Tarmoqda servisni qanday yo'nalishlarda amalgam oshirilihi mumkin?
4. Infratuzilma subyektlari tarmoqda qanday natijalarni ta'minlashi mumkin?
5. Infratuzilma subyektlarini rivojlanishini, hamda samaradorligini ifodalovchi qanday ko'rsatgichlardan foydalanish mumkin?
6. Respublika viloyatlarida infratuzilma subyektlarini rivojlanishini dalillar bilan isbotlang?
7. Tarmoqda infratuzilma subyektlarini rivojlanishiga qanday omillar ta'sir etayotganligini ko'rsatib bering?
8. Qishloq xo'jaligida infratuzilma subyektlarini qaysi turlarini rivojlantirish zarur?
9. Infratuzilma subyektlarini rivojlantirish uchun qanday masalalarni hal etish lozim?
10. Chet el davlatlariga qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan infratuzilma subyektlarini faoliyatlari qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 6 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2011 yillarga xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi 325 sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 14 noyabrdagi "2009 yilda qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqarish va sotishning asosiy parametrlari to'g'risida" gi 247 sonli qarori.

3.Karimov I.A. “Jamiyatda tadbirkorlik ruxini qaror toptirish taraqqiyot garovi”. Saylanma asarlar. 9 tom 2001.

4.Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir” O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil yakunlariga bag`ishlangan so`zlagan nutqi. “Xalq so`zi” 30.01.2011

5.Davlatning agrar siyosati. Akademiya.T.2006.107-117 bet.

6.Oripov M.A. “O`zbekiston dexqonchiligida infrtuzilma xizmatlari ko`rsatishni rivojlantirish ”.T. Fan nashriyoti 2007 yil.192 bet.

7.Xusanov R.X, Xamdamov A.N “qishloq xo`jalishida servis xizmati.MMTP rivojlantirish muammolari”. T.yangi asr avlodi 2001 yil.124 bet.

Internet saytlari

1. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve,2003, [http:// psbatishev.narod.ru/library/03762.htm](http://psbatishev.narod.ru/library/03762.htm)

2. Priamurskiy Institut Agroekonomika i Biznesa www.admin.ru

3. Popov N.A. “osnovi rinochnoy agroekonomika i selskogo predprinimatelstva”. M.: Tandem ,2002, [http:g`g`rbit.bookchamber.rug`description7897. htm](http://g`g`rbit.bookchamber.rug`description7897.htm)

4. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya.www.ecfak.timacad.ru

5. [www.Agro Dir.ru](http://www.AgroDir.ru)

O`N IKKINCHI BOB

QISHLOQ XO`JALIGIDAGI (JORIY VA O`RTACHA) XARAJATLAR, ULARNI KAMAYTIRISH YO`LLARI

12.1. Qishloq xo`jaligidagi xarajatlar, ularning ahamiyati

12.2. Xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi

12.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o`rtacha xarajatlar), uning turlari va aniqlanish tartibi

12.4. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining tannarx darajasi, dinamikasi va xarajatlarni qisqartirish, mahsulotlar tannarxlarini pasaytirish yo`llari

12.1. Qishloq xo`jaligidagi xarajatlar, ularning ahamiyati

Qishloq xo`jaligi mamlakatimiz xalq xo`jaligining eng muhim tarmog`i, uning serqirra faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun ma'lum miqdorda moddiy, pul hamda mehnat sarf-xarajatlari amalga oshiriladi. Ularning mamlakat miqyosidagi miqdori jami ijtimoiy xarajatlar deb ataladi. Ijtimoiy xarajatlar ijtimoiy mahsulot qiymati bilan tengdir. Ularning tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1.Ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan xarajatlar. Ular o`tgan davr xarajatlari bo`lib, S harfi bilan belgilanadi.

2. Jonli mehnat xarajatlari. Ular o'zi uchun yangi qiymatni yaratadi, V harfi bilan belgilanadi.

3. Buyumlashgan va jonli mehnat uyg'unlashishi natijasida jamiyat uchun qo'shimcha qiymat yaratiladi. U m harfi bilan belgilangan.

Ijtimoiy xarajatlar, ya'ni yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatining umumiy ko'rinishi quyidagicha: Mamlakatning jami ijtimoiy xarajatlari—davlat hamda tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar miqyosidagi barcha xarajatlarning yig'indisidir.


Tarmoqning ijtimoiy xarajatlari—individual korxonalarining, tashkilotlarning xarajatlari yig'indisidir. Shunday tarmoqlardan eng muhimi, qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jalik korxonalari turli xildagi talablarni qondirish maqsadida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlarni bajarish uchun moddiy, pul va mehnat xarajatlarini amalga oshiradilar. Yuqorida qayd etganimizdek, korxonalar miqyosidagi moddiy va buyumlashgan xarajatlar S harfi bilan, mehnat xarajatlari, ish haqi shaklida bo'lib, V harfi bilan belgilanadi. Korxonalar xarajatlarning umumiy ko'rinishi quyidagicha: $S+V$. Bu umumiy xarajat hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari turli xildagi mahsulotlarni etishtirish, xizmat va ishlarni bajarish uchun moddiy va buyumlashgan quyidagi xarajatlarni amalga oshiradilar: urug'lik, ko'chat, mineral, mahalliy o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallar, ozuqa va em-xashaklar, asosiy vositalarning eskirish qiymati, ishchi xizmatchilarning mehnatlariga to'langan haqlar, soliqlar, kreditlar uchun to'lovlar, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kam qiymatli, tez eskiruvchan materiallar va boshqalar.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqda amalga oshiriladigan xarajatlarning yangi tartibi 1995 yil 1 yanvardan boshlab joriy etilgan. U «Mahsulot ishlab chiqarish (ish, xizmat) va sotish tannarxlariga qo'shiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom»da (Toshkent, 1999 y.) o'z ifojasini topgan. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan xarajatlar o'zgaruvchan hamda doimiy xarajatlardan tashkil topadi. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi, ish miqdorining o'zgarishi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi bilan bog'liq emas (12.1.1 chizma). Mahsulot hajmi ko'payishi yoki kamayishi bilan doimiy xarajatlar qiymati o'zgarmaydi. Masalan, er uchun ayrim asosiy vositalarga to'lanadigan ijara haqi, ayrim asosiy vositalarning eskirish summasi (amortizatsiya summasi) to'lovlari va boshqalar doimiy xarajatlar tarkibiga kiradi. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorining ko'payishi o'zgaruvchan xarajatlar ko'proq sarflanishini taqozo etadi. Ularga urug'liklar, ko'chatlar, mineral va mahalliy o'g'itlar, ozuqalar, em-xashak, mehnatga to'lanadigan ish haqi, elektroenergiya xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.

12.1.1 chizma

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning harakati



Mahsulot miqdori hajmi, tonna



Mahsulot miqdori hajmi, tonna, km

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni joriy etish, sermahsul chorva hayvonlarini yaratish, shakllantirish hamda ilg'or tajribalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq.

Qishloq xo'jaligida moddiy mablag' va mehnat sarflarini amalga oshirishda ularning o'rindoshligini hamda har bir sarflanayotgan qo'shimcha xarajatni tejash, qolaversa, ortiqcha sarf-xarajatlar qilmaslikni talab etadi. Xo'jaliklarda amalga oshirilayotgan xarajatlar ma'lum maqsadni hal etishga qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda ular quyidagicha guruhlashtirilgan:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari (ish haqi);
- v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

- a) mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- b) korxonani boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyati bo'yicha hisobga olinadigan xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar, daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi. Bu borada mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan. Inqirozga qarshi choralar dasturida O'zbekistonda qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va vahsuljt tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan

korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish. Shu maqsadda yaqinda xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushurishga ko'rsatilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqarish zarurligini Respublika Prezidenti I. Karimov alohida ta'kidlagan.¹

Inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligida sarflanayotgan xarajatlarni imkoniyat doirasida tejashga harakat qilish zarur. Buning uchun fan, texnika yutuqlarini, innovatsion texnologiyalarni, ilg'or tajribalarni imkoniyat doirasida ishlab chiqarishga tatbiq etish lozim. Xarajatlarning tejalishi boshqa ishlar bajarilishini hamda olinadigan foyda summasi oshishini ta'minlaydi. Natijada xo'jalikning rentabellik darajasi ortadi. Foyda summasining oshishi xo'jalikni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham bu masalaga respublikamiz hukumati, xo'jaliklarning barcha xodimlari doimokatta e'tibor bermoqdalar.

12.2. Xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi

Qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qilinayotgan barcha xarajatlar iqtisodiy mazmunga, maqsadga, hisobot ob'ektiga hamda shakllanish manbalariga ko'ra, quyidagi elementlarga va moddalarga guruhlashtirilgan (12.2.1-chizma):

- mahsulot etishtirish, ishlarni, xizmatlarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar;
- davr xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- favqulodda qilinadigan xarajatlar (foйда, zararlar).

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, bir xil xarajatlar xarajat elementlarini, bir nechta xarajat elementlari xarajat moddalarini tashkil etadi. Demak, xarajat moddalari xarajat elementlariga nisbatan kengroqdir.

12.2.1-chizma

Qishloq xo'jaligidagi xarajatlarning iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlashtirilishi

Amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlashtirish natijasida mehnat xarajatlari uchun berilgan ish xaqini va uning tarkibini, sarflangan moddiy (material) xarajat, turli maqsadlarga sarflangan pul xarajatlari (ob'ektlari bo'yicha) summasini aniqlab, ularni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.


Sarflanayotgan xarajatlarni tahlil etish jarayonida ularning qanchasi mahsulot etishtirishga oid texnologik jarayonlar bo'yicha sarflanganligiga ham alohida e'tibor beriladi. Bundan maqsad – fan-texnika, texnologiya yangiliklarini ishlab chiqarishning u yoki bu jarayoniga tatbiq etish natijasida xarajatlarni tejash imkoniyatini aniqlashdir.

¹ Karimov.I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish davr talabi. Xalq so'zi. 2009 yil 14 fevral

Shuning uchun ham xarajatlarni mahsulot etishtirish texnologik jarayonlari bo`yicha ham turkumlashtirish mumkin (12.2.2-chizma).

Xarajatlarning bunday tartibda turkumlashtirilishi ularning o`simlikchilik mahsulotlari etishtirish davrlari bo`yicha qilinadigan miqdorini, qiymatini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shunga asoslangan holda ularning samarali amalga oshirishlashini ta'minlash mablag`lar bilan ta'minlanish masalalari ham hal etilishini taqozo qiladi.

Qishloq xo`jaligida xarajatlarni sarflashdan yana bir maqsad– yetishtirilayotgan bir birlikdagi mahsulot, bajarilayotgan ishlar, xizmatlar uchun o`rtacha qancha xarajat qilinganligini ham aniqlashdir, ya'ni ularning tannarxlarini bilishdir.



12.2.2-chizma


Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi darajasi ularning foydali yoki zararliligi bo`yicha aniqlanadi. Shuning uchun xarajatlarni har bir tannarx ob'ekti bo`yicha to`g`ri olib borilishini ta'minlash lozim. Buning uchun sarflanayotgan xarajatlarni

mahsulot ishlab chiqarish davrlariga qarab qo`shilishi bo`yicha turkumlashtiriladi (12.2.3-chizma).

Qishloq xo`jaligida xarajat mahsulot etishtirish jarayonida bevosita hamda bilvosita sarflanadigan xarajatlarga ham turkumlashtiriladi. Bevosita (to`g`ri) xarajatlarni mahsulotlarni etishtirishda bevosita qatnashadi va ular mahsulot hajmiga, sifatiga to`g`ri ta'sir ko`rsatmaydi.

12.2.3-chizma

Xarajatlarning mahsulot etishtirish muddatlari bo`yicha turkumlashtirilishi



Qishloq xo`jalik mahsulotlarini etishtirishda (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko`rsatishda) bevosita qatnashadigan xarajatlarga quyidagilar kiritilmoqda:

1. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi.

- Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar, ular iqtisodiy mazmuniga ko`ra, quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urta ajratmalari;

- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan boshqa xarajatlar.

- ◆ 1. Ishlab chiqarish bilan bog`liq moddiy xarajatlar

- ◆ Ishlab chiqarish bilan bog`liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli:

- ◆ ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlarni ko`rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar;

- ◆ normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o`rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o`tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarini tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim-bosh va arzonbaholi boshqa ashyolarninigi eskirishi;

- ◆ sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo`jalik yurituvchi sub'ektlarida montaj qilindigan yoki qo`shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

- ◆ tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo`jalik yurituvchi sub'ektning ichki tarkibiy bo`linmalari tomonidan bajariladigan, faoliyatning asosiy turiga tegishli bo`lmagan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan ishlar va xizmatlar.

- ◆ Ishlab chiqarish harakteriga ega bo`lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo`yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o`tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo`ladi. Xo`jalik yurituvchi sub'ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tovarlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan quyi bo`g`inlarga, ya'ni sexga va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan xizmatlarga tegishli:

- ◆ tabiiy xomashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan erni rekultivatsiya qilish ishlariga

haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun yog'och, taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanish huquqlarining amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari;

- ◆ texnologik maqsadlarga energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transporti tomonidan bajariladigan, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya (xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyaga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi);

- ◆ ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qotish me'yorlari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar);

- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moddiy resurslarni etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi;

- ◆ mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o'rash-joylash materiallari qiymati. Ular amaldagi sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi;

- ◆ «moddiy xarajatlar» elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'imlardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari.

- Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalariga va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;
- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar;
 - texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;
 - kun, smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;
 - hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararlik, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar.
 - aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan, qaytishgacha to'lanadigan, yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;
 - qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;
 - doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;
 - mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar;
 - xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to'lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda);
 - ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash;
 - ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
 - amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yili) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yili) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;

- donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalarda qatnashganlik uchun) mehnat haqi to'lash;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi;

- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

- ◆ Ijtimoiy sug'urta ajratmalariga quyidagilar kiradi:

- ◆ qonun xujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tUSDagi majburiy ajratmalar;

- ◆ nodavlat pensiya jamg'arlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar;

- ◆ asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

- Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish). lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar, qonun xujjatlarida amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi, foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish me'yori besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

4. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

1. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalari – bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1. Yuqoridagilardan tashqari qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar.

3. Tabiatni mahofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog`liq joriy xarajatlar, shu jumladan, ifloslantiruvchi moddalarni yo`l qo`yiladigan me`yorlar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to`lovlar.

4. Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog`liq bo`lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari.

5. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog`liq bo`lgan sog`liqni saqlash tadbirlari.

6. Tekin ko`rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga beriladigan oziq-ovqatlar qiymati, xo`jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to`lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

7. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar yoki ular pasaytirilgan narxlar bo`yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi).

8. Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo`lgan boshqaruvning texnik vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko`rsatish xarajatlari.

9. Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo`lgan xodimlarni tibbiy ko`rikdan o`tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to`lash.

10. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo`lgan xizmat safarlariga yuborish bo`yicha me`yorlar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar.

11. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug`urta qilish xarajatlari.

12. Brak tufayli kelib chiqadigan yo`qotishlar.

13. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko`ra, bekor turishlar tufayli yo`qotishlar.

14. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko`rsatish xarajatlari.

15. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatlash xarajatlari.

16. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo`qolishi bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to`lanadigan nafaqalar.

17. Umumiy foydalaniladigan yo`lovchilar transporti xizmat ko`rsatmaydigan yo`nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog`liq xarajatlar.

- 1. Qishloq xo`jaligida davr xarajatlari ham amalga oshiriladi. Ular mahsulotlarni bevosita ishlab chiqarish jarayoniga bog`liq bo`lmay, balki xo`jalikning sohalari bo`yicha tashkil etish va ularni boshqarish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlardan iboratdir.

- Bu xarajatlar ham maqsad vazifalariga ko`ra, quyidagicha turkumlashtiriladi:

- yetishtirilgan mahsulotlarni sotish, xizmatlarni ko`rsatish uchun qilinadigan quyidagi xarajatlar: mahsulotlarni sotish bilan bog`liq bo`lgan barcha xarajatlar;

- ma'muriy xarajatlar, ularga tarmoqni, korxonani boshqarish bilan bog`liq bo`lgan barcha xarajatlar, jumladan, boshqaruv tizimlarining faoliyati, boshqaruv sohasidagi vositalar bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar;

- boshqa operatsion xarajatlar, jumladan, kadrlar tayyorlash, loyihalarni tuzish, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog`liq xarajatlar;

- hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar.

2. Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar. Ularga barcha turdagi kreditlar bo`yicha, mol-mulkning ijara haqi to`lovlari hamda qimmatli qog`ozlarni chiqarish, sotish, tarqatish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiradi.

3. Favqulodda yuz beradigan hodisa, voqealarni qoplash bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar. Ularga korxonalarining odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro`y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar kiradi. Masalan, er qimirlashi, tinchlikka xavf soluvchi harakatlarni ma'lum miqdorda qoplash xarajati. Chunki ular asosan davlat va mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi.

12.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o`rtacha xarajatlar), uning turlari va aniqlanish tartibi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar miqyosida umumiy qiymat ko`rsatkichlari bilan birgalikda o`rtacha xarajatlar, ya'ni tannarx ko`rsatkichi ham faoliyat ko`rsatishi taqozo etiladi. Tannarx bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning yordamida qishloq xo`jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan ishlar va ko`rsatilayotgan xizmatlarning bir birligi xo`jaliklar uchun qancha so`mga tushganligi aniqlanadi. Ularning darajasi qiymatni ifodalovchi baholar darajasi bilan taqqoslanishi natijasida olinadigan foyda yoki ko`riladigan zararlar darajasi aniqlanadi. Bu ko`rsatkich xo`jaliklarning ichki boshqaruvchilari uchun juda muhimdir.

Hozirgi davrda mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tannarx deganda bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan moddiy, mehnat, pul xarajatlari nazarda tutiladi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun barcha bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi shu xarajatlar yordamida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga taqsimlanadi. Qishloq xo`jaligida 1 s. mahsulotning narxi; 1 etalon gektarning; 1 tonna-km ning; 1 kvk/soat elektroenergiyaning tannarxi aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$T_n = \frac{\sum I_x}{\sum M_m(I_m, X_m)} ;$$

Bunda: T_n – mahsulot, ish, xizmat tannarxi, so`mda;

ΣX – ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi, so`mda;

$\Sigma Mm (Im, Xm)$ – yalpi yetishtirilgan mahsulot, jami bajarilgan ish, xizmatlar miqdori sen., tonnada, etalon gektarda, tonna km va boshqalar.

Yetishtirilayotgan mahsulotlarning:

- ishlab chiqarish tannarxi;
- to`liq tannarxi, tijorat tannarxi ham aniqlanadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash usuli yuqorida keltirilgan. Uning to`liq yoki tijorat tannarxi jami xarajatlarni (jumladan, sotish xarajatlari bilan) yetishtirilgan yalpi mahsulot miqdoriga yoki sotiladigan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

Qishloq xo`jalik mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) ning haqiqiy hamda reja tannarxlari aniqlanadi. Haqiqiy tannarx darajasi yil yakunidagi ma'lumotlar yordamida hisoblanadi. Reja tannarxi esa normativlar, erishilgan ma'lumotlar asosida aniqlanib, «Biznes reja»da aks ettiriladi.

Qishloq xo`jaligida barcha xarajatlarni amalga oshirish natijasida turli xildagi asosiy, qo`shimcha hamda yordamchi mahsulotlar olinadi. Jumladan, paxtachilikda paxta xomashyosi asosiy mahsulot hisoblansa, g`o`zapoyasi qo`shimcha mahsulot sanaladi. Donchilikda don asosiy, somoni (poyasi) qo`shimcha mahsulotdir. Qoramolchilikda go`sht, sut asosiy, buzoq qo`shimcha, go`ng esa yordamchi mahsulot hisoblanadi. Lekin tarmoqdagi barcha xarajatlar asosiy mahsulotni etishtirishga qaratilgan bo`ladi. Shundan kelib chiqqan holda 12.3.1-chizmada aks ettirilgan ob'ektlar tannarx ob'ektlari hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligida yetishtiriladigan asosiy, qo`shimcha hamda yordamchi mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxlari quyidagi usullarda hisoblanadi:

Masalan, donchilikda qo`shimcha mahsulotlar belgilangan koeffitsientlar yordamida asosiy mahsulotlarga aylantiriladi. Ularni asosiy mahsulotlarning miqdoriga qo`shib, jami yalpi don mahsulotining shartli miqdori aniqlanadi. Shartli mahsulot tarkibidagi asosiy hamda yordamchi mahsulotlarning shartli miqdori salmog`i aniqlanadi. Shundan so`ng jami ishlab chiqarish xarajatlaridan shartli mahsulot salmog`iga mutanosib ravishdagi salmog`i hisoblanib, ularning umumiy summasi aniqlanadi. Shu aniqlangan summa asosiy mahsulot miqdoriga taqsimlanib, asosiy mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Shartli yordamchi mahsulot hissasiga to`g`ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlarini yordamchi mahsulotning haqiqiy miqdoriga taqsimlab, yordamchi mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashning jahondagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida o`zini oqlagan «Direkt-kosting» tizimini Respublikamiz qishloq xo`jaligida ham joriy etish yo`li tanlangan.

«Direkt-kosting» tizimining mohiyati shundan iboratki, bunda jami xarajatlar doimiy va o`zgaruvchan qismlarga ajratiladi va marjinal daromad miqdori aniqlanadi. Ushbu tizimda mahsulotlar tannarxi faqatgina to`g`ri (o`zgaruvchan) xarajatlar chegarasida aniqlanadi. Mahsulotlarni sotishdan kelgan pul tushumi bilan ularning xarajatlar bo`yicha tannarxini taqqoslash natijasida xo`jalikning marjinal daromadini aniqlash mumkin. Marjinal daromaddan doimiy xarajatlarni

ayirish orqali xo`jalik mahsulot sotish natijasida olgan sof foyda aniqlanadi. Ushbu uslubning mohiyati 12.3.2 chizmalarda ifodalangan.


Marjinal-kosting uslubini respublikamiz qishloq xo`jaligiga joriy etish natijasida yetishtirilayotgan mahsulotlarning real, aniq ishlab chiqarish tannarxini hisoblash imkoni paydo bo`ldi. Bu moliyaviy hisob uchun juda zarurdir. Lekin boshqaruv hisobi uchun bu uslubning ma'lumotlari etarli emas. Chunki boshqaruv hisobi uchun faqatgina ishlab chiqarish tannarxi emas, balki to`liq tanarx ko`rsatkichi ham zarur. Shu munosabat bilan qishloq xo`jaligida xarajatlarni yanada chuqurroq tadqiq etish uchun ularning boshqarish samaradorligini oshirishda abzorbshn-kosting uslubini qo`llash maqsadga muvofiqdi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, unda barcha xarajatlar mahsulotning to`liq tannarxini shakllantiradi. Uning mazmuni 12.3.3-4 chizmalarda ifodalangan. Mahsulot xarajatlari va tannarxini o`rganish boshqaruv hisobining muhim bo`limlaridan biridir.

Mehnat va moddiy ko`rinishidagi to`g`ri xarajatlar bevosita aniq bir mahsulot yoki xizmat turiga oid bo`lishi, umumishlabchiqarish xarajatlari mahsulot turiga qarab faqat maxsus usullar yordamida taqsimlanishi mumkin.

Xarajatlarni taqsimlash - qilingan xarajatlarning aniq bir xarajat ob'ektiga borish jarayonidir.

Xarajatlar ob'ekti – tashkiliy bo`linma, shartnoma yoki boshqa hisob birligi bo`lib, u bo`yicha xarajatlar haqidagi ma'lumotlar yig`iladi va jarayonlar, mahsulot, shu kapitalni qo`yish loyihasi va hokazolar qiymati o`lchanadi.

12.3.1-chizma




Qishloq xo`jaligida mahsulot tannarxi ob'ektlari

12.3.2-chizma




Xarajatlarni taqsimlash uslublari



12.3.3-chizma


Xarajatlarni taqsimlashning marjinal-kosting uslubi



12.3.4-chizma

Abzorbshn-kosting uslubi

Mahsulotlar tannarxlarini hisoblashda ta'kidlangan marjinal-kosting va abzorbshn-kosting uslublari asosida turli xildagi usullar qo`llanishi mumkin. Ushbu usullar 12.3.5-chizmada ifodalangan.



12.3.5-chizma

Mahsulot tannarxini hisoblash usullari

Ushbu usullarning ijobiy tomonlarini boshqaruv hisobi tizimida mahsulotlar tannarxlarini hisoblash jarayonida tatbiq etish zarur.

Xarajatlarni taqsimlashning muhim kategoriyasi bo`lib, xarajatlar markazi hisoblanishini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz.

Xarajatlar markazi – tashkiliy birlik yoki faoliyat sohali bo`lib, u erda aktivlar xaridi uchun qilingan chiqimlar va xarajatlar haqida axborot to`plash maqsadga muvofiqdir.

- Barcha xarajat guruhlari boshqaruv echimlarini qabul qilishga mo`ljallangan. Boshqaruv hisobida xarajatlar ikki asosiy ob'ekt guruhlari

bo`linmalar va mahsulotlar bo`yicha taqsimlanishi kerak. Ushbu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlar javobgarlik markazlari bo`yicha to`planadi;
- xarajatlar muayyan brigadada etishtirayotgan aniq mahsulot tannarxiga taqsimlanadi.

Tayyor mahsulot tannarxini hisoblashda quyidagi usullarga murojaat qilishadi: hamma xarajatlarni hisobga olgan holda xarajatlarni kalkulyatsiya qilish yoki ularning bir qismi bo`lgan o`zgaruvchan xarajatlarnigina hisobga olib, kalkulyatsiya qilish mumkin.

12.4. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining tannarx darajasi, dinamikasi va xarajatlarni qisqartirish, mahsulotlar tannarxlarini pasaytirish yo`llari

Respublika Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Respublika Fermerlar Uyushmasi tizimidagi qishloq xo`jalik korxonalari turli xildagi qishloq xo`jalik mahsulotlarini etishtirish, ishlar va xizmatlarni bajarish jarayonida material, pul va mehnat sarflamoqdalar. Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida bu xarajatlar yil sayin oshib bormoqda. Agarda 1997 yilda jami ishlab siqarish xarajatlar summasi 104,2 mlrd.so`mni tashkil etgan bo`lsa, 2000 yilga kelib 265,7 mlrd.so`m, 2001 yilda esa 469,2 mlrd.so`mga to`g`ri kelgan.Xarajatlar qiymati (summasi)ni oshishi so`nggi yillarda ham sodir bo`lgan.

1997-2001 yillarda xarajatlarning o`shish darajasi yil sayin oshib borgan. 1998 yilda xarajatlar 1997 yildagiga nisbatan 23,4 foizga o`sgan, 1999 yilda 1998 yildagiga nisbatan o`shish 52,9, 2000 yilda 1999 yildagiga nisbatan 35,1 foizga teng bo`lgan, 2001 yilda esa 2000 yildagiga nisbatan o`shish 76,5 foizni tashkil etgan. Shu yillar ichida ishlab chiqarish ko`rsatkichlarining umumiy summasi 2,5 martaga ko`paygan (12.4.1-jadval).2005-2009 yillarda ham xarajatlar tez suratlar bilan oshgan.

Tarmoqda xarajatlar summasini oshganligini alohida ekin turlari bo`yicha ham ko`rish mumkin. Masalan 2006 yilda boshqoli don mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun mamlakat bo`yicha 484.8 mlrd so`m mablag` sarflangan bo`lsa,2009 yilda 1074.6 mlrd so`m yoki 2.2 marta ko`p mablag` sarflangan (12.4.1-jadval).

12.4.1-jadvaldagi ma`lumotlarning dalolat berishicha boshqoli don ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar barcha viloyatlarda oshib borgan. Uni darajasi ayniqsa Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent, Farg`ona viloyatlarida yuqori bo`lgan, ya`ni 2.5-2.7 marta oshgan. Buxoro, Samarqand va Jizzax viloyatlarida esa biroz pastroq bo`lgan. Boshqoli don ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarni oshishiga quyidagilar ta`sir etgan:

-boshqoli don ayniqsa bug`doy ekinlarining ekin maydonlarini ko`payishi;

-boshqoli don mahsulotlarini etishtirish uchun zarur bo`lgan ishlab chiqarish vositalarining ya`ni yoqilg`ilarning, mineral o`g`itlarning , mehnat haqining yuqori suratlarda oshishi va boshqalar.

Respublikada boshqoli don ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat summasini
o'zgarishi *

Viloyatlar nomi	Yillar (million so'm)				2009 yil	
	2006	2007	2008	2009	2006	2007
					yilga nisbatan foizda	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16.8	28.3	29.69	16.6	98.8	58.7
Andijon	35.8	50.7	81.0	93.7	271.7	184.8
Buxoro	34.0	42.1	59.0	57.7	169.7	137.1
Jizzax	49.7	63.6	69.2	92.1	185.3	144.8
Qashqadaryo	64.0	90.2	145.7	158.7	248.0	175.9
Navoi	14.1	17.6	30.9	37.3	264.5	211.9
Namangan	31.2	46.1	71.3	85.5	274.0	185.5
Samarqand	61.0	84.3	112.2	111.3	182.5	132.0
Surxondaryo	40.1	55.9	79.6	86.2	215.0	154.2
Sirdaryo	27.6	32.6	63.0	60.6	219.6	185.9
Toshkent	45.9	66.8	81.2	115.9	252.5	173.5
Farg'ona	47.9	73.2	110.7	122.0	254.7	166.7
Xorazm	16.7	22.9	29.2	37	221.6	161.6
Jami	484.8	674.3	962.6	1074.6	221.7	159.4

*Jadval Iqtisodiyot Vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan .

Respublikada paxta xom-ashyosini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar ham shu yillarda 21.2 foizga oshib, 2009 yilda 1418.5 milliard so'mni tashkil etgan.

Respublikada boshqoli don mahsulotlarini etishtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi xarajatlar tarkibiga mehnatga to'langan haq ajratmalari bilan 2007-2009 yillarda 14.4 foizdan 15.6 foizga oshgan, urug'lik xarajatlari esa 12.6 foizdan 14.8 foizga, sarflangan barcha kimyoviy vositalar xarajati esa oshmagan holda 24 foizni tashkil etgan. Muqobil mashina traktor parklari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar salmog'i 17.2 foizdan 18.7 foizga oshgan, yoqilg'i moylash materiallari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar salmog'i 15.9 foizga to'g'ri kelgan.

Demak mamlakat qishloq xo'jaligida boshqoli don etishtirish uchun qilinayotgan barcha xarajatlarning tarkibida asosiy qismini ya'ni 87 foizini (2009 yil) yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar tashkil etgan (12.4.1-chizma).


2009 yilda boshqoli don mahsulotlarini etishtirishda sarflanayotgan ishlab chiqarish xarajatlari elementlar bo'yicha viloyatlar miqyosida ma'lum darajada farq qilgan. Masalan, mehnatga to'langan ish haqining salmog'i ajratmalari bilan Navoiy viloyatida 11.7 foizni tashkil etgan bo'lsa, Namangan, Toshkent viloyatlarida 18-19 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida qariyb 25 foizga teng bo'lgan.

Kimyoviy vositalar bilan bo'g'liq bo'lgan xarajatlar salmog'i Toshkent, Namangan viloyatlarida jami xarajatlarning 13-15 foizini tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlarida 27-29 foizni tashkil etgan. Yoqilg'i yog'lash materiallariga qilingan xarajatlar salmog'i ham Buxoro, Xorazm viloyatlarida jami xarajatlar tarkibida 10.4 foizga teng bo'lsa, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 19

foizga, Namangan viloyatida esa 21 foizga teng bo'lgan. Muqobil MTPlar ko'rsatgan xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ham viloyatlar bo'yicha sezilarli darajada farq qilgan.

12.4.1-chizma.

Respublikada boshqoli don yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari elementlarining salmog'i.



Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida u tashkilotlarning ko'rsatgan xizmatlari evaziga qilingan xarajatlar jami xarajatlar tarkibiga 9.4-14.2 foizga teng bo'lgan holda Namangan viloyatida 22.3 foizga, Qashqadaryo viloyatida 27.3 foizga teng bo'lgan.

Mamlakatda boshqoli don mahsulotlari ishlab chiqarishda sarflanayotgan xarajatlarni viloyatlar bo'yicha farq qilishiga asosan quyidagi omillar ta'sir etgan:

- sug'oriladigan ekin maydonlarining salmog'i va ularning meliorativ holati;
- mahsulot etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining ixtisoslashganligi, ekin maydonlarining optimallashtirilganligi;
- fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganligi va ularning narxlarini darajasi va boshqalar.

Respublikada paxta xom ashyosini etishtirishda sarflanayotgan xarajat elementlari tarkibida 32.4 foizni mehnat haqi xarajatlari ajratmalari bilan tashkil etgan (2009 yil), kimyoviy vositalarga qilingan xarajatlar salmog'i 24.2 foizni, yoqilg'i moylash materiallari xarajati esa 19.4 foizni tashkil etgan. Bu sohada faqatgina shu uchta xarajat elementlari jami xarajatlarning 76 foizini tashkil etgan.

Paxtachilikda muqobil MTP xarajatlari 8.6 foizni tashkil etgan. Buning asosiy sababi ko'pchilik fermer xo'jaliklari shu sohaga ixtisoslashganligi munosabati bilan zarur bo'lgan texnika vositalariga ega ekanligi.

Respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlar summasini oshishi oqibatida bir gektar ekin maydoniga sarflanayotgan xarajatlar ham yil sayin oshib borgan. Agar 2007 yilda bir gektar

boshqoli don mahsulotlari yetishtirilgan ekin maydoniga respublika bo'yicha 471 ming so'm sarflangan bo'lsa, 2009 yilda 810.2 ming so'm yoki 72 foizga ko'p sarflangan. Masalan Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida bir gektar boshqoli don yetishtirilgan maydonga 513-662 ming so'm sarflangan bo'lsa, Xorazm va Andijon viloyatlarida 1100-1150 ming so'm sarflangan.

Shu davrda bir gektar paxta xom ashyosi yetishtirilgan ekin maydoniga qilingan xarajatlar summasi respublikaga 31,1 foizga oshib 2009 yilda 1059 ming so'mni tashkil etgan. Bir gektar paxta xom ashyosi yetishtirilgan ekin maydoniga Qoraqalpog'iston respublikasida 661 ming so'm, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida 851, 882 ming so'm sarflangan holda Xorazm va Andijon viloyatlarida 1321, 1290 ming so'm sarflangan. Xarajatlarning oshishi o'simlikchilikning boshqa tarmoqlarida ham sodir bo'lgan. 2006-2009 yillar davomida kartoshkachilikda xarajatlar 69.3 foizga, sabzavodchilikda esa 68.4 foizga oshgan.

Mamlakat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 46.47 foizini (2009 yil) yaratayotgan tarmoq hisoblangan choqvachilikda ham 2006-2009 yillarda yalpi xarajatlar summasi yil sayin oshib borgan. Tarmoqda jami xarajatlar tarkibida yem-xashak yani ozuqa materiallari xarajatlari shu davrda salkam 5 foizga oshib 79.8 foizni tashkil etgan.

Lekin eng asosiy xarajatlar yem-xashak va ish haqi bilan ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot sarflariga to'g'ri kelgan. Bu sohada ham yuqorida ko'rsatilgan elementlar bo'yicha xarajatlar ortgan.

So'ngi yillarda qishloq xo'jaligida mahsulotlar yetishtirish, ishlar, xizmatlar bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning ortishi natijasida yetishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxлари (o'rtacha xarajatlari) ham ortgan. Qishloq xo'jaligida sarflangan xarajatlar o'sishi bilan yetishtirilgan mahsulotlar tannarxlarining o'sishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Agar jami ishlab chiqarish xarajatlari 1997-2009 yillarda 9,7 martaga oshgan bo'lsa, don mahsulotlari, paxta xomashyosi, sabzavot, poliz mahsulotlarining tannarxлари 17-17,1 marta ortgan.

12.4.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi xo'jaliklarda ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarining tannarxi darajasi, dinamikasi, sen/so'mda*

Ko'rsatgichlar	Yillar			
	1997	2000	2007	2009
Boshqoli don	1043	3075	10714	17770
Shu jumladan:				
Bug'doy	913	2986	10750	17235
Kartoshka	1279	2686		
Paxta xomashyosi	2440	6770	31800	41700
Sabzavot	335	1094		
Poliz	230	621		
Meva	717	1352		
Uzum	846	1399		
Sut	2047	6347		
Go'sht(tirik vaznda)	7186	97666		

Jun	3466	14365		
Asal	9018	46245		
Pilla	10363	38388		

*Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda "Fermerlar uyushmasi" ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bu mahsulotlar qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining asosiy qismini tashkil qiladi. Lekin ayrim chorvachilik mahsulotlari bo'yicha tannarx yuqori sur'atlar bilan o'sgan. Jumladan, 1 sen. sutning tannarxi 18,4 marta, tirik vaznidagi shuncha go'shtniki 19,6 martaga, junniki esa 19,5 martaga oshgan. Bu qilingan qo'shimcha xarajatlar doim ham samarali bo'lmaganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir so'mni oqilona, maqsadga muvofiq sarflashga harakat qilish, ya'ni material, pul hamda mehnat xarajatlarini tejashga, shu orqali yetishtiriladigan mahsulotlarning, bajariladigan ish va xizmatlarning tannarxlarini pasaytirishga erishish lozim. Buning uchun:

- dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan yil davomida tadbirkorlik bilan oqilona, samarali foydalanib, barcha ishlarning vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlashga;
- ekinlarning tezpishar, kam suv talab qiladigan, yuqori hosilli, samarali navlarini, urug'chilikni, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlarini hayotga iloji boricha ko'proq tatbiq etishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligida ishlatiladigan sanoat korxonalarining narxlarini bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish;
- xarajatlarni tejaydigan yangi texnika, innovatsion samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashtirilganlik, avtomatlashtirilganlik darajasini oshirib, jonli mehnat sarfini qisqartirish;
- irrigatsiya, melioratsiya va ximizatsiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarning sifatli va samarali bo'lishini ta'minlash;
- mehnatni tashkil etishning samarali shakllarini va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;
- ekinlar hosildorligini, chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshirish erishish lozim. Shu tadbirlarni amalga oshirish natijasida xarajatlar summasini nisbatan qisqartirib, mahsulotlar miqdorini oshirib ularning bir birligini tannarxini kamaytirishga erishish mumkin.

Tayanch iboralar:

Jami xarajatlar, xarajat elementlari, moddalari, xarajatlarni turkumlashtirilishi, mahsulot tannarxi, (o'rtacha xarajatlar)doimiy xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar, mahsulot tannarxi turlari.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligini oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish negizida rivojlantirish hamda samaradorligini yuksaltirish uchun ma'lum miqdorda moddiy, mablag` va mehnat sarflar talab etiladi. Ular yordamida ishlar, xizmatlar bajarilib,

turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi. Bunday sarflar doimiy va o`zgaruvchan xarajatlardan iborat bo`ladi. Xarajatlar iqtisodiy elementlar, mahsulot etishtirish texnologik jarayonlari, muddatlari va boshqa maqsadlarga ko`ra turkumlashtiriladi. Ular yalpi va o`rtacha xarajatlardan tashkil topadi. So`nggi yillarda yalpi va o`rtacha xarajatlar summasi (miqdori) yil sayin oshib bormoqda. Ular tarkibida, ayniqsa, moddiy-texnika resurslariga, ozuqa materiallariga yo`naltirilayotgan xarajatlarning salmog`i ulkan.

Yalpi xarajatlarning oshishi natijasida mahsulotlar birligining tannarxlari ham muttasil ortib bormoqda. Kelajakda yalpi va o`rtacha xarajatlar miqdorini kamaytirish maqsadida tarmoqdagi barcha jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida ekinlar hosildorligini, chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirib, mahsulotlar sifatini yaxshilashga erishish lozim.

Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Qanday xarajatlar ijtimoiy va individual xarajatlar deb ataladi?
2. Jami va ishlab chiqarish xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday xarajatlarni doimiy va o`zgaruvchan xarajatlar deb atash mumkin?
4. Xarajatlar elementlari va moddalari haqida qanday tushunchaga egasiz?
5. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
6. Mahsulot tannarxi darajasini, dinamikasini qanday tushunasiz?
7. Mahsulot tannarxi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
8. Xarajatlarni kamaytirish, tannarxni pasaytirishga qanday chora-tadbirlar yordamida erishish mumkin?

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi Nizom (qo`shimchalar va o`zgartirishlar bilan birga).

2. Karimov. I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi”. Xalq so`zi 2009 yil 14-fevral.

3. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» darslik, T,O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.

4. Abdug`aniev A.A. «Boshqarish hisobini tashkil etish va yuritishning nazariy, uslubiy, amaliy asoslari», T.: TMI, 2004.

5. G`ulomov S.S., Alimov R.X., Salimov B.T. va bosh. «Mikroiqtisodiyot», T.: Sharq, 2001.

6. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 2004.

Internet saytlari:

1. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.ecfak.timacad.ru
2. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru
3. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
4. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, 2003, <http://psbatishev.narod.ru/library/03762.htm>

O'N UCHINCHI BOB

QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINING BAHOLARI, ULARNING TAKOMILLASHTIRILISHI

- 13.1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funktsiyalari
- 13.2. Qishloq xo`jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi
- 13.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari

13.1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funktsiyalari


Bozor iqtisodi erkin pul-tovar munosabatlariga asoslangan. Bu munosabatlar esa baholar yordamida amalga oshiriladi. Baho tovar qiymatining pulda ifodalanganligini isbotlovchi vosita, ya'ni mexanizmdir. Uning absolyut miqdori bozor iqtisodi sharoitida samarali, cheklangan xarajatlarga asoslanadi, ya'ni ular bahoning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Har qanday xarajatlar ham samarali hisoblanmaydi. Shuning uchun ma'lum bir miqdorgacha bo`lgan, ya'ni maqsadga muvofiq sarflangan xarajatlarga e'tiborga olinadi. Bozor iqtisodi sharoitida yuqoridagi holatlar bilan birgalikda talab va taklif asosida iqtisodiy jihatdan asoslangan real muvozanatli baho o`rnatiladi. Raqobatli bozorda talab va taklifning o`zgarishi baholar darajasi o`zgarishiga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun korxonalar bozor talabini hamda taklifini chuqur o`rgangan holda qishloq xo`jalik mahsulotlari etishtirishlari lozim. Bunda ular imkoniyat doirasida ishlab chiqarish xarajatlarini tejashga alohida e'tibor berishlari kerak. Buning uchun mahsulot etishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga, ilg`or texnologiyalarni joriy etishga hamda mavjud bo`lgan barcha tabiiy va iqtisodiy resurslardan yil davomida oqilona va samarali foydalanishga alohida e'tibor berishlari lozim.

Demak, qishloq xo`jalik korxonalari bozor iqtisodiyotiga xos bo`lgan hollarni, ya'ni kimga, qanday mahsulotlarni qancha miqdorda, qanday qilib etishtirishni bilishlari zarur.

Qishloq xo`jalik mahsulotlariga bo`lgan talab esa hozirgi davrda quyidagi omillarga bog`liq: iste'molchilarning daromadi, didi, o`rindosh tovarlarning narxi, xaridorlar miqdoriga va boshqalarga.

Mahsulotlarga bo`lgan talabni o`rganishda xalqimizning milliy urf-odatlarini, albatta, e'tiborga olish kerak. Jumladan, xalqimizning nonni, un mahsulotlarini, guruchni, qo`y va mol go`shtini ko`proq iste'mol etishga moyilligini. Qishloq xo`jalik korxonalari o`z mahsulotlarini talabni e'tiborga olgan holda taklif etishlari mumkin. Bunda ular quyidagi omillarga asoslanishlari lozim: yetishtiriladigan mahsulotlarning bahosiga, ishlatiladigan resurslar bahosiga, qo`llanilayotgan texnologiyalar darajasiga, samarasiga, soliq stavkasiga, dotatsiya miqdoriga, ishlab chiqaruvchilarning soniga va boshqalarga.

Yuqoridagi holatlarga asoslangan holda qishloq xo`jaligi tarmog`ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning, ish va xizmatlarning baholarini 13.1.1-chizmadagi tartibda shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Shakllantiriladigan baholar esa bir qancha vazifalarni bajarilishini ta'minlashi zarur.




Qishloq xo`jalik korxonalarida bahoning shakllanishi hamda vazifalari

Demak, talab va taklif omillari hamda korxonalarining maqsadlarini e'tiborga olgan holdagina muvozanatlashgan baho shakllanadi. Muvozanatli baho esa iqtisodiy jihatdan asoslangan hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli baho 13.1.2-chizmada qayd etilgan funktsiyalarni, vazifalarni bajarishi lozim.

Mahsulotga bo`lgan bozor talabini hamda bahoning shakllanishini e'tiborga olgan holda belgilangan muvozanatli baholar xo`jalik nuqtai nazaridan quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- xo`jaliklarning maqsadga muvofiq, samarli ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini qoplash;
- korxonaning davr va molyaviy xarajatlarini qoplash;
- xo`jalikka kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan optimal miqdorda foyda keltirish.

Muvozanatli baholar iste'molchilar hamda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini, daromadlarini, foydalarini to`g`ri taqsimlab, ularning iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga samarali ta'sir ko`rsatishi mumkin. Lekin mahsulot ishlab chiqaruvchilar monopolist, sotib oluvchilar oligopolist bo`lgan holda mahsulot baholarining mutlaq darajasi keskin o`zgarishi, bu iste'molchilar hamda ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotiga turlicha ta'sir ko`rsatishi mumkin. 2001 yili suv tanqisligi oqibatida sholi hosili keskin kamaydi, bu hol 2005 yilning dastlabki oylarida bozorlarda guruchning bahosini 2-3 martaga oshib ketishiga olib keldi. Natijada ishlab chiqaruvchilarning daromadlari ortadi, iste'molchilarning daromadlari esa aksincha kamayadi. Bunday hol ularning turmush darajasi nisbatan pasayishiga olib keldi.



13.1.2-chizma

Bozor sharoitida bahoning funktsiyalari, vazifalari


Paxta xomashyosini etishtirishda esa xarajatlar viloyatlar, tumanlar doirasida bir-biridan ancha farq qiladi. Sababi – erlarning meliorativ holati yomonroq bo'lgan Xorazm vohasida, Mirzacho'lda ko'proq xarajat talab etiladi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ularni olib borish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ham uzoq hududlarda joylashgan xo'jaliklarda ko'proq bo'ladi. Sababi – masofa sarf- xarajatlarning ortishiga ta'sir etadi. Lekin davlat paxta xomashyosini sotib olish bo'yicha o'rnatgan xarid baholarining mutlaq miqdori respublika hududlarida bir xil. Bunday hol yuqoridagi holatlar mavjud bo'lgan xo'jaliklarning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki so'nggi yillarda yetishtirilgan paxta xomashyosi to'liq davlatga davlat buyurtmalari hamda shartnomalar asosida sotilgan.

Shunday ekan, iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli baholarni shakllantirishda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni e'tiborga olish lozim. Bunda davlatning ham roli bo'lishi kerak. Shuning uchun davlat qishloq xo'jaligiga dotatsiya, subsidiya mexanizmlari orqali iqtisodiy

ko'maklashmoqda. 2008-2009 yillarda tarmoqda manbalari taminlanmagan qarzlarning 180 milliard so'mga yaqini davlat tomonidan kechib yuborilgan.

13.2. Qishloq xo'jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi

Qishloq xo'jaliigda barchav talablarni qondirish maqsadida turli xildagi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtiriladi, ishlar hamda xizmatlar bajariladi. Ularni iste'molchilarga etkazib berishda, sotishda turli xildagi baholardan foydalaniladi. Baholar mahsulot (ish, xizmat) larni ayriboshlash maskaniga, maqsadiga, vazifasiga ko'ra, bir qancha turlardan tashkil topadi. (13.2.1-chizma)



13.2.1-chizma

Qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilayotgan paxta xomashyosi va bug'doyning 50 foizi «O'zpaxtasanoatsotish» uyushmasi va «O'zdonmahsulot» korporatsiyasi korxonalariga shartnomalar asosida davlat buyurtmalarini bajarish maqsadida davlat harid baholarida sotilmoqda. Ularning mutlaq miqdori talab va taklif e'tiborga olingan holda o'zgarib bormoqda (13.2.1-jadval).

Davlatning xarid baholari 2000-2009 yillarda paxta xomashyosi bo'yicha 9.7 marta, boshoqli don mahsulotlariniki esa 9.4 marta oshgan. Paxta xomashyosi xarid narxlarining uning sanoat navlari, sinflari hamda tolasining tiplari bo'yicha ham belgilanadi. Jumladan, o'rta tolali paxta navi ham ashyosining 1-navi 2 sinfga taalluqli bo'lib, tolasining tipi IV bo'lganda xarid narxi VII tipdagiga nisbatan 23,5 foizga yuqori.

Davlatning xarid narxlari (tsent/so`m)

	Yillar			2009 yilda o'tgan yillarga nisbatan	
	2000	2005	2009	2000	2005
Paxta xomashyosi	5200	25500	50255	9.7 marta	197.1%
Boshoqli don	2181	8200	20600	9.4 marta	2.5 marta


Paxta tolasining IV tipi I sanoat navlarining xarid bahosi IV tipga nisbatan 2,1 marta yuqori o`rnatilgan. Demak, sifatni e'tiborga olgan holda baholarning mutlaq miqdori bir-biridan anchaga farq qiladi.

Paxta xomashyosining davlat xarid narxlari 2001-2002 yillarda 2000 yildagiga nisbatan pastroq suratlarda oshgan. 2004-2009 yillarda yuqori suratlarda o'sgan. Masalan 2002 yilda 2000 yildagiga nisbatan 2 marta oshgan bo'lsa, 2004 yilda 2002 yildagiga nisbatan 2.6 martaga oshgan. 2007,2008,2009 yillardagi o'sish darajasi ancha yuqori bo'lgan.

Boshoqli don mahsulotlarining davlat xarid narxi 2002 yillarda o'rtacha 55.6 foizga oshgan bo'lsa 2007-2008 yillarda 44.2 foizga va nihoyat 2009 yilda 21.9 foizga oshgan. Ya'ni so'ngi yillarda davlat xarid narxini o'sish surati pasayib borgan. 13.2.2-diagramma.

13.2.2-diagramma.

Davlat xarid narxlarining o'zgarishi. (sentener/so'mda).



Boshoqli donlarning ham xarid narxlari ularning sifatlariga qarab o`rnatilgan. Ya'ni mahsulot sifati yuqori bo'lsa, xarid baholari ham yuqori. Baholar rag`batlantiruvchi vazifani bajarishi lozim. Respublika hukumati bu masalaga alohida e'tibor bermoqda. Bu yaxshi natijalar bermoqda. Jumladan, davlatning xo`jaliklarni rag`batlantirish maqsadida o`z buyurtmasi uchun bug`doyning xarid

narxlarini yil sayin oshirishi uning yalpi hosili oshishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Bu hol, baho va yalpi hosil o'rtasida o'zaro bog'liqlik, ya'ni elastiklik mavjud ekanligidan dalolat beradi (13.2.3-diagramma)


Davlat o'z buyurtmasi bo'yicha sotib olayotgan har tonna bug'doy xarid narxlarini so'nggi yillarda nisbatan yuqori sur'atlar bilan oshirishi uning yalpi hosili oshishiga olib keldi. Bunga xarid narxlar shunday sur'atlarda oshishidan ishlab chiqaruvchilar manfaatdor bo'lganligi tufayli erishildi.

Hozirgacha respublikada bug'doyning bahosi bilan uning yalpi hosili o'sishi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $R=0,9321$ ga teng. Bu davlatning don mahsulotlari baholari borasida olib borayotgan iqtisodiy siyosati to'g'riligidan dalolat beradi.

Korxonalar davlat buyurmasidan tashqari barcha mahsulotlarini erkin va boshqa turdagi baholarda sotmoqdalar. Erkin baho bozorda mahsulot sotuvchi va uni sotib oluvchilar o'rtasida, ularning iqtisodiy manfaatlari hamda bozor talabi va taklifi asosida shakllanadi, ya'ni belgilanadi. U tarmoqlarning mahsulot oldi-sotdi munosabati bo'yicha tuzilgan shartnomalarida o'z aksini topadi. Shuning uchun erkin baholarni shartnoma baholari deb ham atashadi. Uning absolyut miqdori mahsulot sotish davriga, unga bo'lgan talabga hamda mahsulot sifatiga bog'liq.

13.2.3-diagramma

Bug'doyning bahosi bilan uning yalpi hosili o'rtasidagi bog'liqlik



Tarmoqdagi erkin (shartnoma) baholarning mutlaq (absolyut) miqdori qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalari baholarining o'sishi, mahsulotlarga nisbatan talabning oshishi natijasida so'nggi yillarda o'zgarib bormoqda (13.2.2-jadval)

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'rtacha erkin baholari*

Mahsulot turlari	1 s. sotish bahosi, so'm/sentener			
	1997y	2000y	2001y	2009y
Boshqli don	1123	2983	4608	34600
Shu jumladan, bug`doy	1018	2845	4482	36500
Kartoshka	1463	4086	6263	52800
Sabzavot	451	1591	2250	52100
Poliz	265	887	1242	32100
Meva	647	2175	3337	156000
Uzum	936	2598	3519	209800
Sut	1419	4801	7629	57600
Go`sht (tirik vaznda)	6409	24988	38092	62700

* Respublika Qishloq va suv xo'jaligi va Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabni muntazam oshishi oqibatida ularning erkin bozor narxlari xam oshib borgan.

Davlat xarid hamda erkin (shartnoma) baholarida mahsulotlar iste'molchilarga ulgurji holda, ya'ni ko'p miqdorda, katta partiyalarda ham sotiladi. Shuning uchun ularni ulgurji baholarga ham tenglashtirish mumkin.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari jahon baholarida ham sotilmoqda. Uning mutlaq (absolyut) miqdori jahondagi ixtisoslashgan yirik birjalarda belgilanib, mahsulot eksporti va importi shartnomalarida aks ettiriladi. Qishloq xo'jalik mahsulotari darajasiga jahondagi yirik tovar ishlab chiqaruvchilar hamda ularni sotib oluvchilar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga ularning barqarorligiga dunyo miqyosidagi tinchlik, iqtisodiy barqarorlik ham ta'sir etadi. Jumladan, 2001 yil sentyabr oyidagi voqealar va keyingi holatlar ta'sirida jahon miqyosida neftning bahosi o'zgarib turgan holda, paxta tolasining bahosi pasayib bormoqda, guruch va bug`doyning baholari esa o'zgarib turibdi (13.2.3-jadval). Lekin jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ayrim davlatlarda qurg'oqchilik natijasida mahsulot ishlab chiqarish miqdori kamayishi, ularga bo'lgan talabning mavjudligida narxining ortishiga olib keldi.

Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarining jahon bozoridagi bahosi o'zgarishi dinamikasi.

Tovarlar	Yillar					
	1998 1ton/doll	2000 1ton/doll	2005 1ton/yevr	2007 1ton/yevr	2008 1ton/yevr	2009 1ton/yevr
Paxta tolasi	1387	1232	1646.2	1348.4	14444	1288.9
Bug`doy	121.1	114.9	462.5	643.4	802.7	537.8
Guruch	291.9	244.9	286.0	326.4	650.2	569.7

* Global Commodity Markets. A Comprehensive Review and Price Forecast. January 2000. Number 1-Washington, D.C. The World Bank, 2001 p.98

Paxta tolasining o'rtacha jahon bahosi asosan Nyu-York hamda Liverpool xomashyo tovar birjalaridagi savdoda belgilanadi. 13.2.3-jadvaldagi ma'lumotlar 1998-2009 yillarda jahon bozorida paxta tolasining baholari dollarda ham (1998-2000-yillarda), yevroda ham (2005-2009 yillarda) yil sayin pasayib borgan.

Bunga jahon bozoridagi taklif bilan talab bevosita ta'sir etgan. Shuning bilan birgalikda paxta tolasini o'rnini boshqa materiallar ham bosa olishi ham ma'lum

darajada ta'sir etgan. Bundan tashqari 2008-yilning kuzidan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham bevosita ta'sir etgan. Agar 2008 yilda bir tonna paxta tolasi 1444.4 yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 1288.9 ni tashkil etgan. Yani 10.8 foizga pasaygan.

Bug'doy bilan guruch oziq-ovqat mahsulotlari bo'lganligi munosabati bilan aholining ularga bo'lgan talabi to'liq qondorilayotgani yo'q. ularga bo'lgan talab esa yil sayin oshib bormoqda. Tez takrorlanayotgan qurg'oqchiliklar, tabiiy ofatlar natijasida ularning ishlab chiqarilayotgan miqdori tez suratlarda oshib borayotgani yo'q. ularning ta'siri natijasida bug'doy va sholi mahsulotlarining o'rtacha narxlari dollarda ham, yevroda ham ma'lim darajada ortgan. 2011 yilda ham bunday hol kuzatilishi mumkin. Chunki Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston respublikasida 2011 yilda ham sezilarli qurg'oqchilik sodir bo'ldi.

Qishloq xo'jalik korxonalari o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida yetishtirilgan mahsulotlarining ma'lum bir qismini qayta ishlaydilar (urug'lik, em, ovqatlanishga). Bu jarayonda qatnashadigan mahsulotlar ichki munosabatlarni hisobga olgan holda tannarxlari bo'yicha beriladi. Shuning uchun bunday baholar tannarx baholari ham deyiladi.

Xo'jaliklar ma'lum miqdordagi ortiqcha mahsulotlarini fuqarolarga chakana baholarda sotishlari mumkin. Har bir fuqaro o'zi xohlagan miqdordagi mahsulotlarni erkin bozorlardan, do'konlardan sotib olishi mumkin. Bu jarayonda foydalanilgan baholar chakana baholar hisoblanadi.

Chakana baholar – savdo jarayonida sotilatgan tovarlarning bahosidir. Chakana baholar orasida ulgurji hamda chakan savdo korxonasi sotib olgan tovarlar bahosi yotadi. Savdo korxonalari ulgurji baholarga savdo ustamasini qo'yadilar, shuning hisobidan qilingan xarajatlar qoplanadi va foyda olinadi. Savdo ustamasi miqdorini savdo korxonalari o'zlari belgilaydilar, lekin ma'lum chegaradan o'tmaydilar. Shuningdek, savdo ustamasiga qo'shimcha qiymat solig'i va maxsus soliq ham qo'shiladi.

Korxonalar iqtisodiyotining bir necha yilligini o'rganish maqsadida, ya'ni mahsulotini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimi o'zgarishini tahlil etishda qiyosiy baholardan foydalaniladi. Qiyosiy baholar asosida mamlakat miqyosidagi ma'lum bir yilning haqiqiy o'rtacha bahosi yotadi. Hozirgi davrda qiyosiy(taqqoslama) baho sifatida 1996 yildagi haqiqiy baholar olingan. Kelajakda qiyosiy baho uchun inflyatsiya va boshqa asosiy iqtisodiy masalalarni e'tiborga olgan holda boshqa yilning haqiqiy bahosi asos qilib olinishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ayriboshlash jarayonida pul o'tkazish operatsiyalari ma'lum darajada buzilishi tufayli mahsulotlarni natura holidagi (barter) ayriboshlash amalga oshirilmoqda. Mahsulot ayriboshlash jarayonida ekvivalentlik holatini ta'minlash uchun shu mahsulotning baholari e'tiborga olinmoqda. Barter jarayonida korxonalar o'z maqsadlarini hal etsalar, davlat ma'lum miqdorda daromad ololmay qoladi. Chunki barterda mahsulotning qiymati pulda hisoblanmaydi. Oqibatda davlat byudjetiga foydadan olinadigan soliq to'lanmaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan qurilish, transport xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatiladi. Bu xizmatlarning qiymati smeta hamda tarif baholarida hisob-kitob qilinadi.

Transfert baholar – bir birlashma yoki korporatsiya ichidagi o`zaro hisob-kitobda qo`llaniladigan baholardir.

Ularning mutlaq (absolyut) miqdori bozor iqtisodiga o`tish davrida talab va taklifdan, fan-texnika taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda o`zgarib bolarmoqda. Buni paxta xomashyosi uchun o`rnatiladigan davlat xarid baholari ham isbotlashi mumkin.

13.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari

Fan texnika taraqqiyoti sharoitida talab va taklif o`zgarishini e'tiborga olgan holda baholarning mutlaq (absolyut) miqdorini o`zgartirish, takomillashtirish, ya'ni liberallashtirish lozim. Bu nihoyatda murakkab masala. Uning ijobiy hal etilishi juda ko`p tomonlarga, holatlarga bog`liq. Respublika miqyosida bu masalani hal etishda o`tish davrining hozirgi bosqichida davlatning roli ancha ulkan. Shuning uchun bu jarayonda agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qo`llanilayotgan narx va moliya-kredit siyosati quyidagi vazifalarni echishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak:

- davlatning iste'mol mollari bilan o`zini-o`zi ta'minlashini tezlashtirish;
- qishloq xo`jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o`rtasidagi ekvivalentlik munosabatlarini ta'minlashga erishish;
- qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan darajada rag`batlantirish;
- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilishda ko`mak berish;
- davlat ichida yagona iqtisodiy rejani tashkil qilish, yaqin hamda uzoq xoriyga chiqish va boshqalar.

Bozor iqtisodiyotida baho munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- erkin baholarni davlat tomonidan boshqariladigan baholar bilan uyg`unlashtirish;
- taklif qilinayotgan mahsulotlarning baholarini hisoblashda normativ usullardan foydalanish;
- tovar ishlab chiqaruvchilarning daromad olishlarini ta'minlash;
- ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va samaradorlikni oshirish;
- narx va moliya-kredit munosabatlarining o`zaro aloqasini optimallashtirish;
- talab va taklif ta'siri natijasida muvozanatli baholarni shakllantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini, ilg`or texnologiyalarni rag`batlantirish va boshqalar.

Ular barcha tamoyillar, dalillar yodamida isbotlanishi lozim.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarining baholarini belgilashda monopoliya, oligopoliyaning mavjudligi, erkin raqobatning nisbatan kamligi, inflyatsiyaning mavjudligini, qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotib olishdagi monopoliya ma'lum darajada yuz berayotganligini ham e'tiborga olish zarur.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilgan paxta xomashyosining asosiy qismini «O'zpaxtasanoat» uyushmasi sotib olmoqda. Bu hol ma'lum darajada erkin bozor, ya'ni erkin raqobat mavjud emasligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jalik korxonalari o'zlarining mahsulotlariga dastbalki baholarni belgilashda quyidagilarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- ◆ mahsulotlarni etishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarining baholari, ularning darajasiga. Hozirgi davrda ular erkin bozor baholarida sotilmoqda. Lekin ularni belgilashda respublika sharoitida monopol holat mavjud. Masalan, respublikamizda traktorsozlik, mashinaasozlik zavodlari yakkahokim. Demak, shu masalani hal etishda davlatning roli bo'lishi maqsadga muvofiqdir;

- ◆ mahsulotlarni etishtirish hamda sotish jarayonlaridagi munosabatlar natijasiga;

- ◆ qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish jarayonlaridagi munosabatlarning oqibatlariga va boshqalarga.

Hozirgi davrda tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxлари tarkibida o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallarning, eektroenergiya hamda asosiy vositalar amortizatsiyasining salmog'i 45-55 foizni tashkil etmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholarini belgilashda quyidagi uslublardan foydalanilmoqda:

- ◆ baholarni belgilashda o'rtacha xarajatlar (tannarx) hamda foydaning (optimal miqdorda) ta'minlanishini;

- ◆ baholarni belgilashda mahsulotning real qiymatiga asoslanish;

- ◆ baholarni belgilashda real o'rtacha baholarga asoslanish. Bunda talab va taklif muammolari ham ma'lum darajada o'z aksini topadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari dastavval talab va taklifni e'tiborga olishi lozim. Buning uchun mahsulotlar sifatli bo'lishi zarur. Shu bilan birga xo'jaliklarning barcha xarajatlarini qoplab, optimal miqdorda foyda bilan ta'minlanishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ular fan-texnika yutuqlarini, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishlari, ishchi va xizmatchilarning bilim va malakalarini hamda tadbirkorlik faoliyatlarini yuksaltirishga erishishlari lozim.

Bunday tartibda belgilangan baholar iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lib, ular vazifalarini to'liq bajarishlari mumkin. Shunday baholargina tomonlarning manfaatlarini samarali ravishda qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Baholar turlari, bahoni belgilash tartibi, xarid baholari, shartnoma baholari, baholar o'rtasidagi nomutanosiblik (disparitet).

Qisqacha xulosalar

Baho qishloq xo'jalik iqtisodiyotining eng muhim kategoriyasi, ya'ni mexanizmi hisoblanadi. Uning mutlaq (absolyut) miqdori iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Baholar zarur bo'lgan barcha xarajatlarni qoplab, korxonaga o'zining rivojlanishini ta'minlaydigan miqdorda foyda keltirishi lozim.

Iqtisodiy jihatdan aosslangan baholar o`z oldilariga qo`yilgan bir qancha funktsiyalar, vazifalar bajarilishini ta'minlashi zarur.

XX asrning oxirgi yillarida boshqoqli don mahsulotlarining narxi nisbatan yuqori suratlarda o`sgan bo`lsa, XXI asrning dastlabki yillarida biroz pasayish hususiyatiga ega bo`lgan. Bunday hol uning yalpi hosilini oshoshini ta'minladi. Paxta xomashyosining narxi boshqoqli don mahsulotlariga nisbatanaksi bo`lgan.

Hozirgi davrda qishloq xo`jaligida baholar tizimi shakllangan. Lekin ularning mutlaq (absolyut) miqdori va o`sishi bir-biridan katta farq qiladi.

Baholar doimo ham qishloq xo`jaligini rivojlantirish va uning samaradorligi oshishini ta'minlayvermaydi. Shunda u boshqa iqtisodiy vazifalarni hal etishga hizmat qiladi. Kelajakda qishloq xo`jaligidagi baholarning turlarini va mutlaq (absolyut) miqdorini bozor iqtisodiyoti talablari asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qiymat, baho deganda nimani tushunasiz?
2. Baho qanday shakllanadi?
3. Bahoning qanday vazifalari mavjud?
4. Bahoning qanday funktsiyalarini bilasiz?
5. Qanday baholarni bilasiz?
6. Xarid baholari qanday baholar?
7. Jahon bahosi deganda nimani tushunasiz?
8. Qiyosiy baho deganda nimani tushunasiz?
9. Baholarni liberallashtirishning qanday yo`llari mavjud?

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi nizom (qo`shimchalar va o`zgartirishlar bilan birga).

2. O`zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining paxta xomashyosi va g`allaning xarid narxlarini belgilash to`g`risidagi qarorlari, 2000-2009.

3. Karimov i.a. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. – t.: «o`zbekiston», 1995.

4. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» darslik, t,o`zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.

5. Kovalenko ya.n. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. Ekmes, 2004.

6. Dobro`nin v.a. Aktualno`e problemo` ekonomiki agropromo`shlennogo kompleksa. M.: izd. Texa. 2003

Internet saytlari:

1. Popov N.A. Ekonomika otrasley APK. Kurs lektsii, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.htm>
2. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, M. «Yurkniga». 2004 <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
3. Korolev Yu.B. i dr. Menedjment v APK, 2002, uchebnik,
4. <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
5. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, 2003, <http://psbatishev.narod.ru/library/03762.htm>
6. <http://www.bookler.ru/bookisbn/5-7695-1158-3.shtml>

O'N TO'RTINCHI BOB
KORXONALARNING DAROMADLARI, FOYDALARI, ULARNING
TAQSIMLANISHI. ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIGI

14.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining daromad va foydalari, iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati

14.2. Daromadni, foydani, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash tartibi

14.3. Qishloq xo'jaligi daromadlari, yalpi va sof foydasining o'zgarishi

14.4. Qishloq xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko'paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari

14.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining daromad va foydalari, iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati

Tarmoqda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida har xil qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiriladi, xizmatlarni bajaradilar. Ular dastavval natura shaklida hisobga olinadi. Ular har xil talablarni qondirish maqsadida sotiladi, ayirboshlanadi, qayta ishlovsiz hamda qayta ishlanib iste'mol uchun ishlatiladi. Bu jarayonda yetishtirilgan mahsulot, xizmatlarning qiymati pul-tovar munosabatlari yordamida aniqlanadi.

Ma'lumki, yalpi mahsulotning qiymati buyumlashgan (S) hamda jonli mehnat (V) xarajatlaridan, shuningdek, qo'shimcha qiymatidan (m) tashkil topadi. Yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan moddiy vositalarning qiymati hamda eskirish summasi (S) ayirilishi natijasida tarmoqning, korxonaning yalpi daromadi yoki yangitdan yaratilgan qiymat aniqlanadi (VM). U tarmoq miqyosida yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromad deb ataladi. Mahsulotlarni sotish, xizmatlar ko'rsatish natijasida xo'jalikning banklardagi joriy va valyuta schetlariga kassasiga kelib tushadigan mablag'lar uning pul tushumlari (daromadlari) ni tashkil etadi. Shu pul tushumlaridan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlarini ayirish natijasida korxonaning yalpi foydasi aniqlanadi. Yalpi foyda summasidan davr xarajatlari, soliqlar, to'lovlar, jarima va peniya summalari ayirilishi natijada sof foyda aniqlanadi.

Xo'jaliklar yalpi mahsulot miqdorini sifatini ta'minlagan holda ko'paytirishga erishsalar, yalpi daromad, yalpi va sof foyda summalari ko'payishi mumkin. Bu hol, o'z navbatida, korxonalar ishchi-xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularning ish haqlarini oshirish hamda mukofotlash uchun ham, mahalliy va davlat byudjetiga ham va nihoyat, korxonalar ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun ham ko'proq mablag' ajratiladi. Natijada ishlab chiqarishga yangi texnikalar, samarali texnologiyalarni joriy etish ta'minlanadi. Bu hol mehnat harakterini o'zgartirib, unumdorligi oshirishini ta'minlaydi.

Demak, yuqoridagi iqtisodiy kategoriyalar salmog'i va qiymatining o'sishi korxonaning, tarmoqning hamda, davlatning iqtisodiyoti rivojlanib, samaradorligini yuksalishini negizidir. Shuning uchun bu masalaga

respublikamizda alohida e'tibor berilmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid baholari imkoniyat doirasida oshirilmoqda, tijorat banklaridan olinayotgan kreditlarning to'lash muddatlari ayrim vaqtlarda biroz kechiktirilmoqda, qishloq xo'jaligi korxonalariga kredit olishda, soliqlar to'lashda imtiyozlar yaratilmoqda, chet el investitsiyalarini jalb etishda yordam ko'rsatilmoqda. Bularning hammasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlaydi. Buning uchun korxonalar o'z faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlarni vaqtida, sifatli o'tkazishlari zarur.

Iqtisod fanlarida «samaradorlik» va «iqtisodiy samaradorlik» tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxonalar, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin. «Iqtisodiy samaradorlik» tushunchasi «samaradorlik» tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma'lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evazigav olingan sof foyda summasi qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samaradorlikni esa u yoki bu tadbirlarni, ishlarni mahsulotlarni etishtirish natijasida erishilgan yutuqlar ifodalaydi. Masalan, mahalliy va mineral o'g'itlardan, yem-xashaklardan foydalanish natijasida ekinlar hosildorligi oshishi va chorva hayvonlarining mahsuldorligining ortishi mumkin. Demak, sarflangan bir sentner mineral o'g'it yoki bir ozuqa birligi evaziga qancha mahsulot olinganligi aniqlanadi. Yoki bir kishi bir kunda qancha paxta xomashyosini terganligi, yoki bir paxta xom ashyosini teradigan kombayn qancha tergan. Bu ko'rsatkichlar ularning samaradorligini ifodalaydi.

Korxonalarining yetishtirgan mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini ularning rentabellik (foydalilik) darajasi ifodalaydi. Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorlik darajasini esa bir birlikdagi (bir so'm) barcha resurslar (yer, suv, mehnat, asosiy va aylanma vositalar) evaziga olingan sof foyda ifodalaydi. Umuman olganda «samaradorlik» hamda «iqtisodiy samaradorlik» kategoriyalari bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularni yuksaltirish, oshirish uchun korxonalar barcha masalalarni ijobiy hal etishlari lozim. Korxonalar faoliyatining samaradorligi oshsa, mamlakatimizning iqtisodiyoti, xalqimizning turmush darajasi yuksaladi.

14.2. Daromadni, foydani, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash tartibi

Qishloq xo'jalik korxonalarining pul va yalpi daromadlari, yalpi hamda sof foyda summalarini, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rentabelligini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shu ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyati moliyaviy tahlil qilinadi. Ular bilan mamlakat hamda korxonalar iqtisodi bevosita bog'liq. Ularni aniqlashda bir qancha ma'lumotlardan foydalaniladi. Korxonaning ma'lum bir davrdagi pul daromadi (tushumlari) jami sotilgan mahsulotlar, xizmatlar miqdorini ularning haqiqiy baholariga ko'paytirish natijasida aniqlanadi. Unda ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$Pd = Sm \times Mb$$

Bunda:

Pd – pul tushumi daromadi (so`mda);

Sm – sotilgan mahsulotlar, xizmatlar miqdori (tonna, sent, litr.);

Mb – sotilgan mahsulotlarning, qilingan xizmatlarning baholari, tariflari (so`mda).

Korxonaning yalpi daromadi yoki yangitdan yaratilgan qiymat summasini yalpi mahsulot qiymatidan ishlatilgan asosiy vositalarning eskirgan qiymatini, ya'ni amortizatsiya summasini (S) ayirish natijasida aniqlash mumkin. Uning formulasi quyidagicha:

$$(C + V + m) - C = V + m$$

Demak, $V+m$ bu korxonaning yalpi daromadi hisoblanadi.

Bunda:

S – asosiy vositalarning amortizatsiyasi summasi, so`mda;

V – ish haqi fondi, so`mda;

m - qo`shimcha qiymat, sumda.

Korxonaning yalpi foydasi mahsulot sotish(xizmat ko`rsatish)dan tushgan pul tushumlaridan, daromadlaridan shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni ayirish natijasida aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Yaf = Sd - St$$

Bunda:

Yaf – yalpi foyda, so`mda;

Sd – mahsulot sotishdan, ish, xizmat ko`rsatishdan tushgan pul, so`mda;

St – sotilgan mahsulot uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari, so`mda.

Korxonaning sof foydasi yalpi foyda summasidan davr xarajatlari, ko`zda tutilmagan xarajatlar, moliyaviy xarajatlar summasini ayirish natijasida aniqlanadi. Buni ushbu tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$Sf = Yaf - (Dx + Mx + Kx)$$

Bunda: Sf – sof foyda summasi;

Dx – davr xarajatlari, so`mda;

Mx – moliyaviy xarajatlar summasi, so`mda;

Kx – ko`zda tutilmagan tasodifiy xarajatlar, so`mda.

Korxonaning ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkich rentabellik hisoblanadi. Uning darajasini aniqlash uchun sof foyda summasini tannarx yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga taqsimlab, 100% ga ko`paytiriladi. Uning tengligi quyidagicha:

$$Rd = \frac{Sf}{St} \times 100\%$$

Bunda: Rd – rentabellik darajasi, foizda.

Bu ko`rsatkich yordamida korxonaning tarmoq miqyosida alohida mahsulotlarni etishtirish uchun qilingan ishlab chiqarish xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Shu usul yordamida 1 so`mlik ishlab chiqarish xarajatlari evaziga olingan sof foyda summasi aniqlanadi. Buning uchun olingan sof foyda

summasi ishlab chiqarish xarajatlariga taqsimlanishi lozim. Bu ko'rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bu iqtisodiy samaradorlik darajasi ham yuqori, ya'ni yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Shuning bilan birgalikda korxonada, mahsulot yetishtirishda sarflangan barcha xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini ham aniqlash maqsadga muvofiq. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$J_x = \frac{Sf}{j_x};$$

Bunda:

J_x - korxonaning bir yildagi jami xarajati (so'mda);

Bu ko'rsatkich yordamida korxonada sarflangan barcha xarajatlarning bir so'miga olingan qancha sof foyda olganligi aniqlanadi. Demak bu ko'rsatkich sarflangan jami xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi. Uning absolyut miqdori imkoniyat darajasida yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Lekin bu ko'rsatkich korxonada faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlay olmaydi.

Korxonada faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligini ham aniqlanishi lozim. Buning uchun chiqarishda qatnashadigan erlarning ham, asosiy vositalarning to'la qiymatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Yerning qiymati esa qishloq xo'jalik erlari qiymatini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma yordamida aniqlanadi. Bunda rentabellik me'yori ushbu tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$Rn = \frac{Sf}{Aif + (Asf \cdot Ek) + Ek} \times 100\%,$$

Bunda: Rn – rentabellik me'yori, foizda;

Aif – aylanma fondlarning o'rtacha yillik qiymati, so'mda;

Asf – asosiy fondarning o'rtacha yillik qiymati, so'mda;

Ek – asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti (0,12);

E - yerning qiymati, so'mda

Bu ko'rsatkich yordamida korxonada ixtiyoridagi barcha ishlab chiqarish resurslaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanganlik darajasi aniqlanadi. Yani korxonada ixtiyoridagi yerlarning, asosiy va aylanma vositalarning bir so'mlik qiymati evaziga qancha sof foyda olinganligi aniqlanadi. Demak shu ko'rsatkichlarning miqdori imkon doirasida yuqori bo'lishi kerak, lekin uning me'yoridan oshmasligi lozim. Yani optimallik darajasidan oshmasligi lozim. Bu ko'rsatkichni aniqlashni yanada takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun bitta mehnat resursining to'liq qiymatini aniqlash zarur. Buning nazariy va amaliy imkoniyatlari mavjud. Bu ko'rsatkich aniqlanganidan so'ng u yuqoridagi formulani maxraji tarkibiga kiritilishi lozim. So'ngra Aif yani aylanma fondlarning yillik o'rtacha qiymatidan mehnatga to'langan ish haqi ajratmalari bilan ayrilishi lozim. Shunday qo'shimchalar bilan aniqlangan ko'rsatkich korxonada foydalangan barcha resurslarning qiymatini bir so'mi evaziga qancha sof foyda olganligini aniqlashi mumkin. Agar u ko'rsatkichning absolyut miqdori oshsa unda korxonada o'z

ixtiyorida**gi** barcha resurslaridan to'liq va samarali foydalangan degan xulosa qilish mumkin.

14.3. Qishloq xo'jaligi daromadlari, yalpi va sof foydasining o'zgarishi

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bozor iqtisodi munosabatlari bosqichma-bosqich davlat rahbarligida shakllantirilmoqda. Unga tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar dalil bo'ladi. Masalan, baholar, soliqlar, kreditlar tizimidagi islohotlar.

Masalan ishlab chiqarish vositalarini sotib olishda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda pul-tovar munosabatlari erkin amalga oshirilmoqda. Shuningdek turli hildagi kreditlarni, investitsiyalarni jalb etishda erkin iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilmoqda. Ular qishloq xo'jaligini rivojlanishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Natijada so'nggi yillarda qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti, barcha xarajatlari, shuningdek, pul daromadlari ham ortib bormoqda. Lekin qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholariga nisbatan sanoat mahsulotlari baholarining o'sish darajasi yuqori bo'lganligi uchun tarmoqda olinayotgan sof foyda summasi doimo ham ortayotgani yo'q. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 1991-1998 yillarda o'rtacha sotish bahosi 15150,9 martaga oshgan bo'lsa, sanoat mahsulotlarining o'rtacha sotish baholari 134431 martaga oshgan. Ular o'rtasidagi mutanosibat 1:8,9 ga teng. 2000-2009 yillarda ham qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi bilan sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Lekin bu nomutanosiblik so'ngi yillarda ma'lum darajada qisqargan. Bunga hozirgi davrdagi iqtisodiy inqiroz ma'lum darajada ta'sir etgan. Narxlar o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi qishloq xo'jaligida foydaning kamayishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi korxonalarida barcha ishlab chiqarish resurslaridan etarli darajada yaxshi foydalanmagan. Shularning oqibatida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi tarmoq korxonalarida xo'jalik faoliyatini 1996 yilda 11153,5 mln.so'm, 1997 yilda esa 16111,3 mln.so'm zarar bilan yakunlagan. Shu yillar ichida faqatgina Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi xo'jaliklarning umumiy faoliyati foyda bilan yakunlangan.

Qishloq xo'jaligida so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar ijobiy natija bermoqda. Jumladan, ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanish natijasida tarmoqning yalpi mahsuloti hajmi keskin oshdi. Shu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari ham anchaga ko'tarildi. Lekin xarajatlar summasi ko'p oshmadi. Natijada tarmoqning sof foydasi ortib, 2001 yili 112,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2008 yilga kelib qishloq xo'jaligining sof foydasi 21.1 mlrd so'mni tashkil etgan. Demak 2001-2008 yillarda tarmoqning sof foydasi yil sayin oshib bormoqda. Bu o'z navbatida tarmoqning rentabelligini yuksalishini ta'minlamoqda. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi korxonalarining rentabelligi 6,9% ga etdi. 2008 yilda bu ko'rsakich 12.7% ni tashkil etgan.

Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik darajasiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Tarmoqning foyda summasini hamda rentabelligini ortishiga asosiy mahsulotlarning ishlab chiqarib sotish natijasida erishilgan yutuqlar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan boshqoli don mahsulotlarini yalpi mahsulotni oshishi oqibatida pul tushumlari hamda sof foyda summasi oshib bormoqda. Agar 2007 yilda boshqoli don mahsulotlarini sotish natijasida pul daromadi (tushumi) 809.6

mlrd. so'mni tashkil etgan holda sof foyda 135.3 mlrd so'm bo'lgan. Oqibatda g'allachilikning rentabelligi 20.1 foizni tashkil etgan. 2009 yilda pul daromadi ko'payib 1409.4 mlrd so'mga, foyda summasi esa 334.8 mlrd so'mga teng bo'lgan holda rentabellik 31.2 foizni tashkil etgan. Paxtachilikda esa 2007-2009 yillarda jami olingan pul daromad summasi 1350.8; 1562.1 mlrd so'mni, sof foyda esa 180.1; 143.7 mlrd so'mni tashkil etdi. Shu davrda paxta yetishtirish rentabelligi 15.4%; 10.1% ga teng. Lekin g'allachilik bilan paxtachilik samaradorligi barcha viloyatlarda ham bir meyorda yuksalayotgani yo'q. Masalan g'allachilikning iqtisodiy samaradorligi yani rentabelligi 2007-2009 yillarda Qashqadaryo viloyatida 36.8 foizdan 45.7 foizgacha oshgan, Farg'ona viloyatida 16.7 foizdan 46.4 foizga yetgan, Surxondaryo viloyatida 21.2 foizdan 41.3 foizga yetgan. Lekin shu davrda sohaning rentabelligi Qoraqalpog'iston Respublikasida hamda Jizzax viloyatida 5.4; 6.7 foizni tashkil etgan. Paxtachilikda esa Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida rentabellik darajasi 15.3-20.7 foizga teng bo'lgan. Jizzax, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Namangan, Sirdaryo viloyatlarida esa 1-4 foizdan oshmagan. (14.3.1-jadval).

Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar:

- qishloq xo'jaligi erlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;
- xo'jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;
- mehnat resurslari, ulardan foydalanish hamda rag'batlantirilishi;
- ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;
- chorva hayvonlari, ularning mahsuldorligi;
- baholar, soliqlar, to'lovlar darajasi;
- suv resurslari, ulardan foydalanish darajasi;
- davlat, mahalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag` va boshqalar.

Tarmoqda ishlab chiqarilgan o'simlikchilik mahsulotlarini (ayniqsa bug'doy, paxta xom-ashyosi) sotish xajmining oshishi hamda ularning narxlarining oshishi natijasida shirkat va fermer xo'jaliklarining pul tushumlari oshib borgan.

Lekin shu sotib olingan mahsulotlar uchun mablag`ning o'z vaqtida etkazib berilmayotganligi uchun xo'jaliklarning pul tushumlari tez sur'lar bilan oshayotgani yo'q. Demak, kelajakda tovar pul munosabatlarini, ya'ni to'lov tizimini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berish lozim. Endilikda, paxta tozalash don mahsulotlari uchun mablag`ni kontraktatsiya shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda to'lashlari zarur. 2004-2008 yillarda shu masala bo'yicha qishloq xo'jalik sub'ektlaridan 689 tasi xo'jalik sudlariga murojaat qilganlar. Bu hol erkin bozor munosabatlarini ham bajarilmayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun kelajakda barcha erkin bozor munosabatlarini o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Hisob-kitoblarga ko'ra, qishloq xo'jaliklari korxonalarini o'simlikchilik mahsulotlari xajmini 2004-2009 yillarda oshirishga erishganlari munosabati bilan o'zlarining yalpi va sof foyda summasini ko'payishini kutmoqdalar.

14.3.1-jadval

Respublikada boshqoli don mahsulotlarining hamda paxta xom ashyosining
iqtisodiy samaradorligi va ularning o'zgarishi*

Viloyatlar nomi	Boshqoli don mahsulotlari						Paxta xom ashyosi					
	2007 yil			2009 yil			2007 yil			2009 yil		
	jami pul daromad	jami sof foyda	rentabellik %	jami pul daromad	jami sof foyda	rentabellik %	jami pul daromad	jami sof foyda	rentabellik %	jami pul daromad	jami sof foyda	rentabellik %
	milliard so'm			milliard so'm			milliard so'm			milliard so'm		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32.7	4.4	15.4	17.5	0.9	5.4	69.7	6.8	10.7	67.7	1.7	2.6
Andijon	67.1	16.3	32.2	126.7	33.0	35.2	115.5	15.1	15.0	147.1	14.6	11.0
Buxoro	54.9	12.7	30.3	79.5	21.8	37.7	149.3	31.5	26.7	145.0	19.8	15.7
Jizzax	64.8	1.3	2.0	98.3	6.2	6.7	86.5	2.0	2.4	87.9	1.1	1.0
Qashqadaryo	123.4	33.2	36.8	231.3	72.5	45.7	177.7	46.2	35.1	217.1	30.8	16.5
Navoiy	22.6	5.0	28.4	46.6	9.3	25.0	41.9	7.7	22.6	41.1	4.5	12.4
Namangan	57.4	11.3	24.5	102.0	16.5	19.2	96.4	4.8	5.3	102.1	3.9	3.9
Samarqand	97.4	13.1	15.6	138.3	27.0	24.3	99.8	14.1	16.5	122.8	8.2	7.1
Surxondaryo	67.7	11.8	21.2	121.8	35.6	41.3	129.2	22.5	21.1	161.0	27.6	20.7
Sirdaryo	36.4	3.8	11.7	81.2	20.6	34.1	86.2	14.1	19.5	101.6	3.9	4.0
Toshkent	74.8	8.0	12.0	144.3	28.4	24.5	97.6	7.3	8.1	103.8	5.9	6.1
Farg'ona	85.3	12.2	16.7	178.7	56.6	46.4	104.0	1.5	1.5	132.1	17.5	15.3
Xorazm	25.1	2.2	9.4	43.3	6.4	17.2	97.0	6.5	7.2	132.8	4.2	3.2
Jami	809.6	135.1	20.1	1409.4	334.8	31.2	1350.8	180.1	15.4	1562.1	143.7	10.1

* davlat statistika q'omitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Ayniqsa, sof foyda summasininig ko'payishi korxonalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash bilan birgalikda ularning mehnat resurslarini rag'batlantirish ham ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu hol o'z navbatida aholini turmush darajasini yuksalishini ta'minlaydi.

14.4. Qishloq xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko'paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari

Qishloq xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko'paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodi talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o'z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini ob'ektiv ravishda taqozo etadi. Shuning uchun

ham bu masalaga iqtisodiy inqiroz sharoitida ham Respublika hukumati katta e'tibor bermoqda. Ular darslikda batafsil yoritilgan.

Kelajakda qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

Qishloq xo'jaligida yalpi hosilni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sermahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishni tezlashtirish;

- erlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlarni suv bilan ta'minlash tadbirlarini rivojlantirish;

- chorva hayvonlarini sifatli ozuqa bilan ta'minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;

- ekologiyani e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy, madaniy o'g'itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;

- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

Qishloq xo'jaligida modiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta'minlovchi tadbirlar:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil etishni jadallashtirish;

- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijisida ish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish;

- ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish;

- davr hamda moliyaviy xarajatlarni imkoniyat darajasida kamaytirish va boshqalar.

Bozor iqtisodi munosabatlarini qishloq xo'jaligiga joriy etishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:

- sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni, sotishni erkinlashtirish, ular o'rtasidagi ekvivalentlikni ta'minlovchi tadbirlar joriy etilishini jadallashtirish;

- nodavlat mulkchilik shakllari barpo etilishiga asoslangan tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;

- investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

- birjalarning turlarini rivojlantirish;

- sug'urta ishlarini rivojlantirish va boshqalar.

Bu tadbirlar, avvalo, yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin. Ekin maydonlarini ko'paytirish uchun yangi erlarni o'zlashtirish talab etiladi. Lekin bu tadbir cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpishar navlarini yaratish, irrigatsiya, melioratsiya,

agrotexnik, kimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy xarajatlar hajmini qisqartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun korxonalarining, mehnatning oqilona shakllarini tashkil etish talab etiladi.

Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida jonli mehnat xarajatlari kamayishini isbotlash lozim. Bu jarayonning ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini isbotlash zarur. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim. Buning uchun naslchilik ishlarini yo'lga solish zarur. Chorva hayvonlarini to'yimli em-xashak bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Yalpi foydaning ko'payishi mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kamayishini taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar, tashkilotlar sonini qisqartirib, bevosita aloqalarga o'tishni ta'minlash lozim. Hozirgi davrdagi mavjud bo'lgan yagona er solig'ini, to'lovlar, kredit stavkalarini tartibga solish natijasida sof foyda summasi ko'payadi. Yuqorida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriyalarning ko'payishi, rivojlantirilishi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar:

Yalpi daromad, pul daromadi, tushumlari, yalpi foyda, sof foyda, rentabellik, iqtisodiy samaradorlik.

Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligidagi barcha korxonalarining asosiy maqsadi – mavjud resurslardan oqilona, samarali foydalanish natijasida talabni qondiradigan miqdorda sof foyda olishdir. Sof foyda massasining ko'payishi korxonaning kelajakda rivojlanishini, ishchi-xizmatchilarning moddiy manfaatdorligi oshishini ta'minlaydi.

Korxonalarining yalpi va pul daromadlari hamda yalpi va sof foydasini to'g'ri aniqlab, ularni maqsadga muvofiq taqsimlashga alohida e'tibor berish lozim. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi darajasini tegishli ko'rsatkichlar tizimi yordamida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan chora tadbirlar natijasida tarmoqning, korxonalarining pul daromadlari, yalpi va sof foydalari oshib bormoqda. Natijada ularning faoliyatlarini iqtisodiy samaradorligi yuksalib bormoqda. Lekin ular o'sib borayotgan talabni to'la qondirish imkoniyatiga ega emas.

Kelajakda xo`jaliklarning daromadlarini, foydalarini ko`paytirish uchun barcha turdagi tadbirlarni amalga oshirib, doimiy va o`zgaruvchan xarajatlarni kamaytirib, talabni qondiradigan darajada sifatli mahsulotlar etishtirish lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yalpi daromad deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi daromad summasi qanday aniqlanad?
3. Yalpi foyda nima va u qanday aniqlanadi?
4. Sof foyda nima va u qanday aniqlanadi?
5. Iqtisodiy samaradorlik deganda nimani tushunasiz?
6. Iqtisodiy samaradorlik darajasini qanday ko`rsatkichlar ifodalaydi?
7. Rentabellik darajasi nima va u qanday aniqlanadi?
8. Foyda normasi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
9. Qanday tadbirlar qishloq xo`jalik mahsulotlari miqdorini oshirib, sifatini yaxshilaydi?
10. Qanday tadbirlar moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejallishini ta'minlaydi?

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi nizom (qo`shimchalar va o`zgartirishlar bilan birga).

2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. – t.: «o`zbekiston», 1995.

3. Karimov. I. A. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari” T. O`zbekiston. 2009. 56-b.

4. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» darslik, t,o`zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.

5. G`ulomov s.s., alimov r.x., salimov b.t. Va bosh. «mikroiqtisodiyot», t.:sharq, 2001

6. Kovalenko ya.n. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. Ekmes, 2004.

7. Kembell r., makkonoll, stenli l.bryu. «ekonomiks», M.: respublika, 1992. kniga – 1, 2

Internet saytlari:

1. Popov N.A. Ekonomka otrasley APK. Kurs lektsii, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.htm>

2. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, M. «Yurkniga». 2004 <http://shopper.h1.ru/books.shtml?o`topic=935&page=1>

3. Korolev Yu.B. i dr. Menedjment v APK, 2002, uchebnik,

4. <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>

O'N BESHINCHI BOB O`SIMLIKCHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI

15.1. O`simlikchilik tarmoqlarining ahamiyati

15.2. O`simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotining hozirgi holati

15.3. O`simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari

15.1. O`simlikchilik tarmoqlarining ahamiyati

Respublika qishloq xo`jaligi tarkibida quyidagi yirik tarmoqlar mavjud:

- o`simlikchilik;
- chorvachilik;
- bog`dorchilik.

O`simlikchilik mamlakat qishloq xo`jaligining eng asosiy tarmog`i hisoblanadi. Uning qishloq xo`jaligida ishlab chiqarilgan jami yalpi mahsulotdagi salmog`i 1998-2008 yillarda 80-54 foizni, tovar mahsuloti tarkibidagi salmog`i esa 80-85 foizni tashkil etgan. Qishloq xo`jaligining o`simlikchilik tarmog`iga:

- don-g`allachilik (bug`doychilik, sholichilik);
- texnika ekinlari (paxtachilik, kanopchilik, tamakichilik, lavlagichilik);
- kartoshkachilik;
- sabzavotchilik (karamchilik, pamidorchilik);
- polizchilik (qovunchilik, tarvuzchilik);
- yem ozuqa ishlab chiqarish.

va boshqa tarmoqlar kiradi.

Bu tarmoqlarda bug`doy, arpa, sholi, makka doni, mosh, paxta xomashyosi, tamaki bargi, kanop, qand lavlagi, er yong`oq, kartoshka, pamidor, bodring, karom, sabzi, qovun, tarvuz, uzim, olma, o`rik, yong`oq, anor va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Ular qayta ishlash sanoati tarmoqlari uchun xomashyo, aholi iste`moli uchun esa oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

O`simlikchilik tarmoqlari ichida paxtachilik bilan g`allachilik davlat miqyosida strategik ahamiyatga egadir. Bu tarmoqlar respublikadagi yirik va muhim hisoblangan «O`zdonmahsulot», paxta tozalash sanoati, to`qimachilik va engil hamda non mahsulotlari korxonalarini xomashyo bilan ta`minlaydi. Natijada millionlab ishchi-xizmatchilar ish hamda daromad bilan ta`minlanadi.

Paxta tolasini sotish natijasida mamlakat valyuta tushumga katta hissa qo`shmoqda.

G`allachilik asosan respublika aholisining don mahsulotlariga bo`lgan talabini qondirishga xizmat etadi. 2004 yilda 5,9 mln. tonna g`alla yetishtirilgan bo`lsa, 2009 yilda 7.3 mlnga yetgan, aholi jon boshiga 260,0 kg. don to`g`ri keldi, unga aylantirilganda 182 kg ni tashkil etmoqda. Tibbiyot normativlari bo`yicha bir kishi-kuniga 124 kg. non va non mahsulotlarini iste`mol qilishi lozim. G`allachilikda erishilgan natija respublikamiz bu boradagi talabni qondirish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu Respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan amalga oshirilayotgan “G`alla mustaqilligi siyosati”ning

natijasidir. G`allachilikning rivojlanishi chorvachilik va sanoat tarmoqlari yuksalishiga ham ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi yillarida mamlakatimiz ayrim donchilik mahsulotlarini eksport qilishga erishdi. Bu valyuta tushumini oshishiga ijobiy ta'sir etmoqda.

2004-2008 yillarda g`allachilik bilan paxtachilik tarmoqlarining umumiy ekin maydoni respublika jami ekin maydonining 96,2 foizga yaqinini tashkil etmoqda. Ayrim qishloq xo`jalik korxonalarida esa jami ekin maydoninig 92 foizga yaqini paxta hamda g`alla bilan band bo`lmoqda. Shuning uchun ham ularning yalpi mahsulotdagi salmog`i yuqori. Respublika fermer xo`jaliklarida esa 2008 yilda 91 foizni tashkil etgan.

Respublika o`simlikchilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun kerak bo`lgan turli xil mahsulotlar yetishtiriladi. Jumladan, ikkinchi non hisoblangan kartoshka, sabzavot, poliz va bog`dorchilik mahsulotlari va boshqalar. Keyingi yillarda tarmoqda dorivor mahsulotlar etishtirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Bu tarmoq qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni xomashyo bilan ta'minlab, ularning rivojlanishiga kata hissa qo`shmoqda. O`simlikchilik tarmoqlarida mahsulotlarning ko`proq yetishtirilishini talab darajasida yo`lga qo`yish mamlakat axolisining bu boradagi talabini qondirish bilan birga tashqi bozorda ko`proq sotilishini ham ta'minlaydi. Bu esa valyuta tushumining oshishiga olib keladi. Shuning oqibatida tarmoqni rivojlanishini ta'minlaydi.

15.2. O`simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotining hozirgi holati

Qishloq xo`jaligining o`simlikchilik tarmoqlarida ichki va tashqi bozor talabini qondira oladigan turli xildagi mahsulotlar davlat siyosatini e'tiborga olgan holda yetishtirilmoqda. Natijada tarmoqning samaradorligi so`ngi yillarda o`smoqda.

O`simlikchilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning samaradorligi bir qancha ko`rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Ular miqdor (natural) va qiymat shaklida namoyon bo`ladi. Jumladan, ekin turlari bo`yicha 1 gektar maydondan olingan hosil, ya'ni ekinlarning hosildorligi, oziqa ekinlari bo`yicha qo`shimcha har gektardan olingan oziqa birligi miqdori aniqlanadi. Uni aniqlash uchun jami yetishtirilgan hosilni shu hosil olingan ekin maydoniga taqsimlash lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Ex = \frac{Yax}{Xm}; \quad Ob = \frac{\sum Ob}{Ob_m}$$

Bunda: Ex – ekin turlarining hosildorligi, sent/ga;

Ob – bir gektardan olingan oziqa birligi, sent/ga;

Yax – yalpi olingan hosil, tonna yoki sen;

$\sum Ob$ – jami olingan oziqa birligi, tonna yoki sen;

Xm, Obm – hosil, oziqa birligi maydon, ga.

Bir gektar ekin maydoniga, olingan bir sentner hosil uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari (mehnat, mablag`), ularning jami sarflangan mehnat va mablag` xarajatlarini hosil olingan maydon yoki jami hosil miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin. Buning uchun ushbu formuladan foydalanish lozim:

$$X_{ga} = \frac{\sum IChx}{X_m}; \text{ yoki } = \frac{\sum Mx}{X_m}$$

Bunda: X_{ga} – 1 gektarga sarflangan ishlab chiqarish, mehnat xarajatlari, so`m/ga, k_k/ga ;

$\sum ICh_x$ – ekin turlari bo`yicha ishlab chiqarish xarajatlari, mln. so`m;

$\sum M_x$ – ekin turlari bo`yicha sarflangan mehnat sarfi, ming kishi-kuni.

Ekinlarning turlari bo`yicha ishlab chiqarish tannarxi. Uni jami ishlab chiqarish xarajatlar summasining olingan mahsulot miqdoriga nisbati bilan, ya'ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\dot{I}tn = \frac{\sum ICH\dot{o}}{Ya\dot{o}}$$

Bunda: Mtn – mahsulot turini etishtirish tannarxi, so`mG`tsen. Bu ko`rsatkich yetishtirilgan har bir mahsulotning bir sentnari necha so`mga tushganligini ko`rsatadi. Ular mahsulotlarni sotish baholari bilan taqqoslanishi natijasida har bir sentner mahsulotni etishtirish evaziga erishilgan natijalarni hisoblash, ya'ni shu mahsulotni etishtirishdan xo`jalik foyda oldimi yoki zarar qilganligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Natijada har bir mahsulot turining rentabellik darajasi aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$R = \frac{SF}{IChx} \times 100$$

Bunda: R – har bir mahsulot turining, o`simlikchilikning rentabellik darajasi, foizda;

SF – olingan foyda.

O`simlikchilik tarmoqlarida ham bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish maqsadida erlarni fermer, dehqon xo`jaliklariga uzoq 50 yil muddatga, fuqarolarga esa umrbod foydalanishga berish natijasida jamoa, shirkat va davlat xo`jaliklari ixtiyorida erlar kamayib bormoqda. Chunonchi, o`simlikchilik tarmoqlarida ekinlarning jami maydoni 1995-2008 yillarda 555,3 ming gektarga yoki 13,3 foizga kamayib, 3609,7 ming gektarni tashkil etgan. Qisqarish asosan paxta hamda em-xashak ekinlarining maydonlari kamayishi hisobiga yuz bergan.

Hozirgi davrda qishloq xo`jalik ekinlarini joylashtirishda tabiiy-iqtisodiy sharoit, davlat siyosati hamda bozor talabi e'tiborga olinmoqda. Respublika aholisining donga bo`lgan talbini qondirish maqsadida Prezident I. Karimov rahbarligida g`alla mustaqilligi siyosati amalga oshirilmogda. Shuning oqibatida bug`doy ekilayotgan maydon 1995-2008 yillar mobaynida 208 ming gektar yoki 17.9 fozga ko`paygan. Shuning oqibatida bug`doy ishlab chiqarish ko`paydi. Natijada aholining mahsulotga bo`lgan talabi qisqarildi. Bunday holat paxta yakkahokimligini asta-sekin pasaytirmogda. Bunga paxta ekin maydonining 67.2

ming gektarga yoki 4.5 foizga qisqargani dalil bo`ladi (15.2.1-jadval). Uning maydoni paxtachilik uchun tabiiy-iqtisodiy sharoiti noqulay hisoblangan respublikaning shimoliy xududlarida sezilarli miqdorda qisqartirildi. Ayniqsa, Qoraqalpog`iston Respublikasida shu yillar ichida 54,0 ming gektarga yoki 35.9 foizga, Xorazm viloyatida 15.1 ming gektarga yoki 14.1 foizga, Qashqadaryo viloyatida esa 25.6 ming gektarga yoki 14,5 foizga kamaytirilgan. Nu jarayon 2009-2011 yillarda ham davom ettirildi. Respublika Prezidentining farmoniga binoan 2011yilda g`o`za ekin maydonini 75 ming gektarga kamaytirish va shu erlarni bug`doy, kartoshka, sabzavot hamda ozuqa ekinlarini ekishga ajratilishi belgilangan. Bunday hol g`o`za ekin maydonlarini yanada qisqarishini ta`minlaydi. Suv resurslari etishmasligi sababli sholi maydoni O`zbekiston bo`yicha 26 ming gektarga yoki 14 foizga qisqartirib, 2008 yilda 33.8 ming gektarni tashkil etgan. Bu jarayon asosan Qoraqalpog`iston Respublikasida hamda Xorazm viloyatida sodir bo`lgan.

15.2.1-jadval

Respublikada qishloq xo`jalik ekinlarining maydoni (ming.ga)*

Ekinlarning nomi	Y illar			
	1995	2000	2004	2008
Donli ekinlar shundan:	1656,5	1611.6	1616.1	1559.0
- bug`doy	1164,4	1354.8	1439.7	1373.0
Texnika ekinlari shundan:	1532,6	1471.2	1518.4	1507.2
-paxta	1492,2	1443.7	1472.3	1425.1
Kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari	244,3	263.8	222.7	264.8
Em-xashak ekinlari	731,6	428	280.3	278.5
<i>J a m i</i>	4165	3774.9	3647.5	3609.7

*Respublika Iqtisodiyot vazirligi hamda davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida tuzilgan.

Lekin shu yillar mobaynida etarli darajada asoslanmagan holda em-xashak ekinlarining maydoni 453.1 ming gektarga yoki 1.6 marta qisqartirilgan. Qisqartirilgan maydonlarga asosan bug`doy, kartoshka hamda sabzavot, poliz ekinlari ekilgan. Shu davrda bug`doy ekilgan maydon respublika bo`yicha 1164,4 ming gektardan (1995 y.) 1373.0 ming gektarga (2008 y.) etkazilgan va 208.6 ming gektarga yoki 17.9 foizga ko`paygan. Ekin maydonlarining qisqartirilishi chorvachilikning ozuqa bazasini shakllantirishga ma`lum darajada salbiy ta`sir ko`rsatdi.

Ekin maydonlari tarkibini o`zgarishi tufayli umumiy ekin maydonidagi ekinlar salmog`i ham o`zgarmoqda. 1995 yilda donli ekinlarning salmog`i 39,8 foiz bo`lgan bo`lsa, 2000 yilga kelib, 42,7 foizni, 2008 yilda esa 43.2 foizni tashkil etgan yoki 1995 yilga nisbatan 3.4 foizga oshgan, texnika ekinlarining salmog`i shu davrda 3.7 foizga kamayib, 2008 yilda 39.5 foizni tashkil qilgan. Aholi uchun

eng zarur oziq-ovqat hisoblangan kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari maydonining salmog'i 8.4 foizga oshgan. Lekin em-xashak ekinlarining maydoni keskin qisqarib bormoqda.

Qishloq xo'jalik ekin maydonlarini tartibga solish jarayonida g'alla hamda kartoshka, sabzavot hamda poliz ekinlarining maydonlarining oshishi ta'minlandi. Shuning natijasida aholi bevosita is'temol qiladigan o'simlikchilik mahsulotlarining miqdorini oshirish imkoniyatlari shakllantirildi. Oqibatda xalqimizni shu soxaning mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasining oshishi ta'minlandi.

Lekin yem-xashak ekinlarining maydonlarini qisqarishi chorvachilikning ozuqa moddalari bilan ta'minlashiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chorvachilik tarmoqlarini rivojlanishiga salbiy ta'sir etgan. Agar 1995 yilda jami ekin maydoni tarkibida em-xashak ekinlari maydoni 17.6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilga kelib atigi 7.5 foizga teng bo'lgan yoki 1.6 marta kamaygan. Ozuqa ekinlarining maydonini kamayishi oqibatida yetishtirilgan yalpi hosil ham kamaygan. Bunday holatdan chiqish uchun ekin maydonlari tarkibida ozuqabop ekinlarni maydonlarini ko'paytirishga aloxida etibor berish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birgalikda ayrim ekin maydonlaridan bir necha marta foydalanishni rivojlantirish lozim.

Kelajakda barcha tadbirlar ilmiy asoslangan, amaliyotda sinalgan hozircha to'liq e'tibor berilmayotgan almashlab ekishni tiklashga qaratilgan bo'lishi lozim.

2000-2011 yillarda o'simlikchilik tarmoqlarida davlat raxbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar tizimi nodavlat mulkchiligini va shunga asoslangan tadbirkorlik turlarini rivojlantirishga qaratilgan. Natijada 2011 yilning boshiga kelib fermer, dehqon, oila tomarqa xo'jaliklari ixtiyorida jami ekin maydonlarining 97.9 foizi jamlangan.

Demak kelajakda o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan asosan fermer, dehqon hamda oila tomarqa xo'jaliklarining shug'ullanishi maqsadga muvofiqdir.

Respublika xukumati qishloq xo'jalik ekinlarining maydonlarini diversifikatsiyalash bilan birgalikda ularning unumdorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni maqsadga muvofiq ravishda tizimli qilib amalga oshirishga ham juda katta e'tibor qaratdi. Jumladan: tezpishar, kam suv talab etadigan, kasalga chidamli sezhosil navlarini joriy etishga:

-irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish;

-barcha turdagi tadbirkorlikni mineral o'g'itlar, yonilg'ilar bilan to'liq ta'minlash;

-yangi, samarali texnikalar hamda innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash;

-davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'larni ko'paytirish tijorat banklarining mablag'larini ko'roq ajratish va jet-el investitsiyalarining ko'lamini kengaytirish;

-tarmoq xodimlarini moddiy va manaviy rag'batlantirish va boshqalar. Bular ucun katta mehnat va mablag' sarflangan.

Qishloq xo'jaligining o'simlikchilik tarmoqlarida amalga oshirilgan tadbirlar va ularga sarflangan mablag'lar natijasida tarmoqda yetishtirilayotgan turli xildagi

mahsulotlarning oshirilishi ta'minlandi.2000-2009 yillarda bug'doy ishlab chiqarish 71.9 foizga, sholi etishtirish 36.3 foizga, makkajo'xori ishlab chiqarish 29.1 foizga, paxta xom-ashyosini ishlab chiqarish 13.2 foizga oshgan.

Kartoshka, sabzavot, poliz va meva mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 95-137 foizga oshgan (15.2.2-jadval).

O'simlikchilik tarmoqlarini rivojlanishiga tabiiy sharoitlar juda katta ta'sir etadi. Shuning uchun ham iqlim, yer va suv sharoitlari noqulay hisoblangan respublikaning quyi amudaryo hududida g'allachilik bilan paxtachilik rivojlanishi hamda samaradorligi nisbatan past hisoblanadi.

15.2.2-jadval

Respublika o'simlikchilik tarmoqlarida yetishtirilgan mahsulotlar miqdori, (ming tonna)*

Ko'rsatgichlar	2000 y	2005 y	2007 y	2008 y	2009 y	2009 y 2000 yilga nisbatan % da
Jami don	3929.4	6401.8	6643.1	6621.6	7710.5	175.7
bug'doy	3532.0	5927.8	6076.9	6335.6	6872.8	194.5
arpa	85.8	109.5	97.2	99.7	103.9	121.1
Makkajo'xori doni	130	164.3	207.4	138.8	167.8	129.1
sholi	159.6	165.8	186.3	122.7	217.6	136.3
Paxta xom ashyosi	3002.4	3728.4	3683.4	3400.5	3399.6	113.2
kartoshka	731.1	924.2	1189.0	1398.7	1523.0	208.3
sabzavot	2644.7	3517.5	4626.5	5126.6	5704.7	215.7
poliz	451.1	615.3	840.9	981.2	1071.0	237.4
meva	790.9	949.3	1269.3	1402.1	1542.9	195.1
uzum	624.2	641.6	878.9	792.5	899.6	144.1
Makkajo'xori silosi	2882.5	2721.4	3037.5	2986.7	3067.4	106.4
pichan	1263	1176.6	1220.7	1275.9	1298.7	102.8

* Respublika iqtisodiyot vazirligi hamda statistika davlat qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Lekin mamlakatning boshqa hududlarida g'allachilik yuqori suratlarda bilan rivojlanmoqda. Masalan, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Surxondaryo, Farg'ona va boshqa viloyatlarida g'allachilik yaxshi suratlarda bilan rivojlanmoqda.

Agarda 1996 yilda respublikaning zarafshon va surxon vohasida jami g'allaning 38 foizga yaqini yetishtirilgan bo'lsa, 2009 yilga kelib 46 foizi yetishtirilgan. Faqatgina Qashqadaryo viloyatida 1023 ming tonna g'alla yetishtirilgan. Bu viloyatda g'alla yetishtirish 1996-2009 yillarda 3.9 marta ko'paygan. Samarqand viloyatida esa 3.8 marta oshgan, Surxondaryo viloyatida esa 2.2 marta oshgan (15.2.3-jadval).

Shuning bilan birgalikda g'allachilik Farg'ona vodiysida ham rivojlanmoqda. Agarda vodiy bo'yicha 1996 yilda jami 943.5 ming tonna g'alla ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2009 yilda 1499.4 ming tonna yoki 1996 yildagiga

nisbatan 555.9 ming tonna yoki 58.9 foiz ko'p yetishtirishga erishgan. G'allachilik Toshkent va Mirzacho'l hududida ham rivojlangan.

Respublika viloyatlarining o'simlikchilik tarmoqlarida yyetishtirilgan asosiy mahsulotlar miqdori (ming tonna)*

Viloyatlarning nomi	G'alla			Paxta xom ashyosi		
	1996	2000	2009	1996	2000	2009
Qoraqalpog'iston Respublikasi	125.4	64	77.2	203.9	110	182
Andijon	337.4	512.8	507.3	315.9	389.7	305.7
Buxoro	351.1	213.5	361.1	360.6	326.7	314.7
Jizzax	155.5	316.9	490.8	139.4	175.4	224
Qashqadaryo	265.1	263.9	1023.0	375.7	321.3	400.7
Navoiy	103.6	92.6	191.6	101.3	55.5	95.5
Namangan	243.5	258.2	398.8	239.8	251.3	240.7
Samarqand	259.5	278.1	637.2	216.8	231.2	238
Surxondaryo	259.5	203.1	557.9	360.1	271.3	349.8
Sirdaryo	174.6	185.6	405.7	186.5	153.1	238.7
Toshkent	256.4	336	677.6	258.8	283.1	258.8
Farg'ona	362.6	325.1	593.3	301.3	295.7	292.8
Xorazm	199.0	76.7	151.2	290.0	252	258.0

* Respublika Iqtisodiyot Vazirligi hamda statistika davlat qo'mitasi malumotlari asosida tuzilgan.

Lekin paxtachilik respublikaning barcha hududlarida ham barqaror ravishda rivojlanayotgani yo'q. Faqatgina Jizzax, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida rivojlanishga erishgan. Boshqa viloyatlarda esa bu soxa talab darajasida rivojlangani yo'q. Bunday hol asosan yerlarning meliorativ holatini yomonlashganligi, samarali hisoblangan almashlab ekishni buzilganligi hamda navlarning kamligi bilan isbotlanadi.

Xozirgi davrda davlat tomonidan shu masalalarni bartaraf etishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bunga «sug'riladigan yerlarning meliorativ holatini 2009-2012 yillarda yaxshilash» davlat dasturi ishlab chiqarilib uni amaliyotga tadbiiq etilayotganligi yaqqol dalil bo'ladi.

Kelajakda shu va boshqa masalalarni hal etishga aloxida e'tibor berilishi lozim.

O'simlikchilik mahsulotlarini miqdorini oshishiga ekin maydonlarini ko'payishi bilan birgalikda, ekinlarning hosildorligi oshishiga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida nisbatan samarali hisoblangan ekinlarning maydonlarini kengaytirishga yani diversifikatsiyalashga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Shuni e'tiborga olgan holda respublikada g'alla hamda kartoshka, sabzavot, poliz ekinlarining maydonlarini ko'paytirishga so'nggi yillarda e'tibor berilmoqda. Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirish:

- hududlarning tabiiy sharoitlariga to'liq moslashgan, kamsuv talab etadigan, tez pishar, kasalliklarga chidamli, serhosil navlarni ekilishini;
- yerlarning irrigatsiya-meliorativ holatini yaxshi bo'lishini;
- barcha ishlab chiqarish vositalari hamda mablag' bilan talab darajasida qondirilishi;

- barcha agrotexnik tadbirlarni belgilangan agrotexnik muddatlarda o'tkazilishini ta'minlash;
- ishchi xizmatchilarni moddiy va manaviy rag'batlantirilishini talab etadi.

Respublika hukumati barcha ta'kidlangan tadbirlarni amalga oshirish natijasida qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirishga erishilmoqda (15.2.1-diagramma).

Respublikada boshqoli don ekinlarining hosildorligi 1997-2009 yillarda 21.4 sentnerdan 42.6 sentnerga yetkazilgan. Bug'doyning hosildorligi esa 21.2 sentnerdan 44.4 sentnerga yetgan. Demak ularning hosildorliklari shu davrda 2 martadan oshiqroqqa oshgan. Shu davrda g'o'za ekinining hosildorligi 24.1-25.4 sentner atrofida bo'lgan. Bu ekinning hosildorligi atigi 1.3 sentnerga oshgan. Shu davrda kartoshka ekinining hosildorligi 111.5 sentnerdan 195.4 sentnerga, sabzavot ekinlarining hosildorligi 174.5 sentnerdan 248.4 sentnerga yetkazilgan.

Lekin qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi hozircha dehqon hamda oila tomarqa xo'jaliklarida yuqori hisoblanadi. Qishloq xo'jalik korxonalarida hamda fermer xo'jaliklarida nisbatan pastroq. 2008-2009 yillarda shu xo'jaliklarda boshqoli donning hosildorligi 26.8 va 40.2 sentnerni tashkil etdi.

Aksariyat ekinlar hosildorligining pasayishiga ekin maydonlari unumdorligi pasayganligi sabab bo'lmoqda. Hozirgi davrda respublika miqyosida jami sug'oriladigan erlarning 50 foiziga yaqini u yoki bu darajada sho'rlangan. Bunday holat shu erlarning meliorativ holati yomonlashishi oqibatida yuz bermoqda.


So'nggi yillarda kimyoviy vositalar baholarining keskin oshganligi sababli ularni talab etilgan miqdorda sotib olish va ekin maydonlariga zarur darajada solish imkoni bo'lmayapti. Bu ekinlarning hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Respublika viloyatlarida ekinlarning serhosil, samarali navlarini to'g'ri joylashtirishga erishilmaganligi ham hosildorlik oshishi yo'lidagi to'siqlardan biridir.

Qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan sanoat mahsulotlari baholarining tez sur'atlarda oshishi, ekinlarning hosildorligi esa tez o'smayotganligi natijasida tarmoqlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxi sezilarli darajada oshib bormoqda. Faqatgina 1997-2009 yillarda boshqoli donning 1 sentnerini tannarxi 17 marta, shu jumladan, bug'doyniki 17 marta oshgan. Paxta xomashyosining tannarxi esa 17.1 marta oshib, 2009 yilda 41700 so'mni tashkil etgan (15.2.4-jadval).

Jadval ma'lumotlari barcha o'simlikchilik mahsulotlarining tannarxi oshganligidan dalolat bermoqda. Shu yillar ichida 1 sentner kartoshkaning tannarxi 1,4 marta, sabzavot mahsulotlarining o'rtacha tannarxi 3,5 marta, poliz mahsulotlariniki esa 3 marta oshgan. O'simlikchilik mahsulotlari tannaxlarining oshishi shu mahsulotlar samaradorligiga ham ta'sir etgan. Ya'ni mahsulotlarni sotish natijasida olinishi mumkin bo'lgan foyda summasi unchalik ko'paymagan. Lekin, so'nggi yillarda qishloq xo'jalik korxonalarida ekinlarning serhosil, kam suv talab etadigan, qisqaroq muddatlarda pishib etiladigan navlarini ekish, yangi texnikalardan, samarali texnologiyalardan va mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllaridan foydalanib, ularning hosildorligini oshirish va hosilini sifatiga putur etkazmagan holda tezroq yig'ishtirib olishga harakat qilmoqdalar. Shuningdek,

davlat tomonidan sotib olinayotgan dehqochilik mahsulotlarining xarid baholari ham yil sayin oshirilmoqda.

Asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik darajasi



Chunonchi, 2000-2002 yillarda paxta xomashyosining xarid bahosi o'rtacha 1,3 foizga, bashoqli don mahsulotlariniki esa 42,8 foizga oshirilgan. 2003-2009 yillarda paxta xom ashyosining o'rtacha sotish bahosi 25,4 foizga, bashoqli don mahsulotlariniki esa 3,5 marta oshib, 2009 yilda 1 tonnasi 232 ming so'm bo'lgan. Bu xo'jaliklar muayyan darajada foyda olishini ta'minlamoqda. Darvoqe, 1995-1999 yillarda paxta xomashyosini etishtirish zarar keltirgan bo'lsa, 2000 yildan boshlab ma'lum miqdorda foyda bermoqda. 2001 yilda 1 sentner paxta xomashyosini sotish natijasida 86 so'm, 2007 yilda esa 4900, 2009 yilda 4300 don mahsulotlarini sotishdan esa 657 so'm 2007 yilda 500 so'm, 2009 yilda 550 so'm foyda olingan. 15.2.4-jadval ma'lumotlarining dalolat berishicha, respublika dehqonchiligining asosiy tarmoqlari foyda keltirib, rentabelli tarmoqqa aylangan, biroq barcha tarmoqlarning rentabelligi bozor iqtisodi talablariga to'liq javob bermaydi.

Respublika qishloq xo`jaligida yetishtirilayotgan o`simlikchilik
mahsulotlarining tannarxi va rentabellik darajasi*

Mahsulot turlari	1997 yil		2001 yil		2007 yil		2009 yil	
	1 s tannarxi so`mda	rentab. dar; %	1 s tannarxi so`mda	rentab. dar; %	1 s tannarxi so`mda	rentab. dar; %	1 s tannarxi so`mda	rentab. dar; %
Boshqoli don	1043	7,6	4638.3	14.2	10700	20.1	17700	31.2
Sh.j. bug`doy	913	11,5	4495.7	17.8				
Kartoshka	1279	14,3	3106.7	44.7				
Paxta	2440	-18,6	10380	0.8	36700	15.4	41700	10.1
Sabzavot	335	34,6	1517.6	61.3				
Poliz	230	15,2	926.2	48.1				
Meva	717	-9,7	1117.4	39.2				
Uzum	846	10,6	2458.9	47.6				

*Respublika Iqtisodiyot hamda qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aniqrog`i, muayyan sohalar (paxtachilik, g`allachilik, em-xashak etishtirish) dan olinayotgan foyda xo`jaliklar faoliyatini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirishni ta'minlay olmaydi. Shunday ekan, kelajakda o`simlikchilikning barcha sohalarini rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish lozim.

15.3. O`simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari

O`simlikchilik tarmoqlarining respublika hamda qishloq xo`jalik korxonalarini iqtisodiyotidagi o`rnini, ahamiyatini e'tiborga olgan holda kelajakda ularni rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish eng asosiy vazifalardan biridir. Bu muammoni ijobiy hal etish uchun, avvalo, erkin bozor talablarini e'tiborga olgan holda qanday turdagi dehqonchilik mahsulotlarini va qancha miqdorda etishtirish zarurligini aniqlab olish lozim. Bunda davlatning qanday mahsulotlarga va qancha miqdorda ehtiyojmand ekanligini aniqlashga alohida e'tibor berish lozim. Chunki davlat o`z ehtiyojini qondiradigan tovar ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozlar yaratmoqda.

Xo`jaliklar boshqa iste'molchilarning qisqa va uzoq muddatli talablarini ham chuqur o`rganishlari, o`z ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari hamda boshqa talablarini aniqlab olishlari lozim. Qaysi mahsulotni va qancha miqdorda etishtirish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda ularning samaradorligini, albatta, e'tiborga olish zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo`jalik o`z talabini qondiradigan miqdorda foyda keltiradigan mahsulotlarni etishtirish bilan shug`ullanishi lozim. Yuqorida ta'kidlangan masalalarni hal etishda ekinlarni almashlab ekishning nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan tizimi joriy etilishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Chunki bu tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlaydi.

O`simlikchilik mahsulotlarini belgilangan miqdorda etishtirish uchun zarur bo`lgan ishlab chiqarish vositalarini: ularning turlarini, miqdorini hamda holatini aniqlab olish alohida ahamiyatga egaligini unutmaslik zarur. Chunki shular

yordamida mahsulot etishtirish jarayonlari belgilangan muddatlarda, sifatli bajarilishi ta'minlanadi. Natijada ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlari ma'lum miqdorda tejalishi mumkin.

Barcha vositalardan yil davomida to'g'ri, to'liq hamda samarali foydalanish orqali talabni qondiradigan miqdorda sifatli o'simlikchilik mahsulotlari etishtirish, ularning samaradorligini yuksaltirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

O'simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish va ularning samaradorligini yuksaltirish yo'llari

Ekstensiv va intensiv yo'llar:

a) O'simlikchilik mahsulotlari yalpi hosilini ko'paytirish uchun:

- ekin maydonlarini kengaytirish;
- ekinlarning hosildorligini oshirish zarur.

b) Hosildorlikni oshirish uchun:

- ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash;
- ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash;
- urug'larni sermahsul, tezpishar navlarini ekish;
- mineral va organik o'g'itlardan meyorda oqilona foydalanish;
- boshqa kimyoviy vositalardan samarali foydalanish;
- agrotexnik tadbirlarni muddatida va sifatli bajarish;
- almashlab ekishni joriy etish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- ishlab chiqarish vositalaridan to'liq va samarali foydalanish lozim.

c) Mahsulot etishtirishda xarajatlarni tejash uchun:

- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- mahsulot etishtirish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish;
- mehnatning yangi shakllarini tashkil etish kerak.

d) Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va ekinlarni maqsadga muvofiq joylashtirish zarur.

e) Yetishtirilgan hosilni tashish va saqlash jarayonlarini samarali tashkil etish lozim.

f) Mahsulotlarni bozor talablari asosida sotishni amalga oshirish kerak.

O'simlikchilik mahsulotlari etishtirishni, rivojlantirishning ikki yo'li – ekstensiv va intensiv yo'li mavjud.

Ekstensiv yo'lda mahsulot miqdori asosan ekinlar maydonini ko'paytirish hisobiga, intensiv yo'lda esa ekinlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlanadi. Mahsulot miqdorini intensiv yo'l orqali ko'paytirish uchun tuproq unumdorligi oshishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, masalan, irrigatsiya-melioratsiya tizimini qurish, ta'mirlash, erlarni tekislash, sho'rini yuvish, o'g'itlardan samarali foydalanish, almashlab ekishni joriy etish kerak.

Yetishtirilayotgan mahsulotlar samaradorligini yuksaltirish uchun esa ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlari tejalishini ta'minlaydigan ishlarni, tadbirlarni oqilona amalga oshirish zarur. Buning uchun mehnatni tashkil etishning pudrat, ijara kabi maqsadga muvofiq shakllarini tatbiq qilish, ishlab chiqarish, hosilni yig'ishtirib olish, saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish

vositalaridan to'liq va samarali foydalanish, yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishchi-xizmatchilar moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishini izchillik bilan amalga oshirish kerak.

Dehqonchilik mahsulotlari etishtirishni rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida xo'jaliklarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha a'zolarining ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlarini bozor talablari asosida tubdan o'zgartirish lozim. Ya'ni, ular mahsulot etishtirish, yig'ishtirib olish, saqlash va sotish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni vaqtida, oqilona amalga oshirishga alohida e'tibor berishlari kerak.

Yuqorida ta'kidlangan barcha tadbirlar vaqtida, sifatli amalga oshirilishi natijasida o'simlikchilik mahsulotlari miqdori ko'payib, ularning samaradorligi yuksalishi ta'minlanadi.

Tayanch iboralar:

O'simlikchilik, kartoshkachilik, kanopchilik, g'allachilik, ekstensiv yo'l, intensiv yo'l, sabzavotchilik (karamchilik, pamidorchilik); polizchilik (qovunchilik, tarvuzchilik); bog'dorchilik (uzumchilik, o'rikchilik, olmachilik)

Qisqacha xulosalar

O'simlikchilik mamlakat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'idir. Unda yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 54 foizi yetishtirilmoqda. O'simlikchilikning iqtisodiy samaradorligini aniqlash zarur. Bunda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan tashkiliy, tarkibiy, iqtisodiy islohotlar natijasida o'simlikchilik tarmog'i ma'lum darajada rivojlandi. Ayniqsa g'allachilik yuqori suratlar bilan rivojlandi. G'allachilik 1995-1996 yillarda foyda keltirmagan bo'lsa, 2009 yilga kelib uning rentabellik darajasi 31.2 foizga teng bo'lgan. G'allachilikda 1 so'mlik sarflangan mablag' evaziga 31 tiyin sof foyda keltirmoqda. Bu g'allachilikning iqtisodiy jihatdan samarali ekanligidan dalolat beradi. Lekin paxtachilikning rivojlanish darajasi, iqtisodiy samaradorligi muttasil oshib borayotgan talabni qondira oladigan darajada emas. O'simlikchilikning boshqa tarmoqlari ham rivojlanmoqda, ularning iqtisodiy samaradorligi yuksalmoqda. Kelajakda o'simlikchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish zarur.

Mamlakatda o'simlikchilik tarmoqlarini rivojlantirish, ularning samaradorligini yuksaltirish uchun huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimini oqilona amalga oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiqdir..

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'simlikchilik tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini, ahamiyatini tushuntirib bering.
2. O'simlikchilik mahsulotlarining inson hayotidagi ahamiyatini izohlab bering.
3. O'simlikchilik tarmoqlari deganda nimani tushunasiz?
4. O'simlikchilik mahsulotlari miqdorining o'zgarishini ko'rsating.

5. O`simlikchilik mahsulotlari samaradorligini qanday ko`rsatkichlar ifodalaydi?

6. O`simlikchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini tushuntirib bering.

7. Mahsulotlar etishtirishni rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirishning qanday yo`llari mavjud?

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A.«Qishloq xo`jaligi taraqqiyoti to`kis hayot manbai - T.: 1998.
2. Karimov I.A. Iqtisodni erkinlashtirish–farovonlik manbai, Saylanma asarlar. T.: - O`zbekiston, I Tom 2001.
3. Karimov I.A. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi tadbirlari. Saylanma asarlar, 9-tom. T.: 2001.
4. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A, «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti», T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi», 2006
5. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 2004.

Internet saytlari:

1. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.ecfak.timacad.ru
2. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru
3. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
4. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, 2003, <http://psbatishev.narod.ru/library/03762.htm>
5. <http://www.bookler.ru/bookisbn/5-7695-1158-3.shtml>

O'N OLTINCHI BOB
CHORVACHILIK (QORAMOLCHILIK, QO'YCHILIK, ECHKICHILIK)
TARMOQLARI IQTISODIYOTI

16.1. Chorvachilik tarmoqlari mahsulotlarining ahamiyati

16.2. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtiriladigan mahsulotlar darajasi va samaradorligi

16.3. Chorvachilik tarmoqlarini, ularda mahsulot etishtirishni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari

16.1. Chorvachilik tarmoqlari mahsulotlarining ahamiyati

Chorvachilik – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ikkinchi o'rindagi tarmog'i hisoblanadi. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilgan yalpi mahsulot (haqiqiy narxlarda) qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibida 44-47 foizni tashkil etgan (2005-2009 yillarda). Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, qorako'lchilik, balliqchilik, asalarichilik, yilqichilik andatrachilik tarmoqlari joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalari uchun go'sht, sut, jun, teri, ichak, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi. Chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi. 2000-2009 yillarda respublikada aholi jon boshiga o'rtacha 42.8 kg. go'sht (tirik vaznda), 185 kg. sut yetishtirilgan. Bu inson organizmi uchun zarur miqdor yoki tibbiyot normativlaridagiga nisbatan ancha kam. Shuning uchun respublika hukumati mamlakatning barcha sohalarida chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbik etish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan 2005, 2008 yillarda yilda chorvachilikni rivojlantirishning maxsus dasturi ishlab chiqarilgan.

Bundan tashqari chorvachilikda o'simlikchilik va chorvachilikning ayrim sohaları rivojlanishini ta'minlaydigan mahsulotlar ham yetishtirilmoqda. Masalan, chorva chiqindisi – go'ngi tuproq unumdorligini oshiradi, o'simliklar uchun organik o'g'it hisoblanadi. Chorvachilik mahsuloti sut esa aholi tomonidan iste'mol qilinishidan tashqari yangi tug'ilgan yosh hayvonlarga ham beriladi.

Respublikada chorvachilikning tarkibida quyidagi asosiy sohaları yoki tarmoqlari mavjud:

- qoramolchilik;
- qo'y va echkichilik (qorako'lchilik);
- Parrandachilik;
- Cho'chqachilik;

- Baliqchilik;
- Yilqichilik, tuyachilik va boshqalar.

Chorvachilik tarmoqlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 45 foizga yaqini yoki 5707.1 milliard so'mlik mahsulot (2009 yil) yetishtirilmoqda. Mamlakatda yetishtirilayotgan chorvachilik yalpi mahsulotning 4 foizga yaqini fermer, 93 foizga yaqini dehqon va oila tomarqa xo'jaliklarida, qolgani boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarilmoqda. (2008-2009 y). Demak, uning 93 foizga yaqinini oila tomarqa xo'jaliklari etkazib bermoqda. Qolgan qismi jamoa mulkchiligiga asoslangan ixtisoslashgan xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi respublika aholisi talablarini qondirish maqsadida ichki bozorlarda, cheklangan miqdori esa tashqi bozorlarda sotilmoqda. Ularni eksport qilish natijasida 2000-2009 yillarda o'rtacha 0,5 mln. AQSh dollari miqdorida valyuta tushgan. Bu talabga to'liq javob bermaydi.

Kelajakda bu muammoni ijobiy hal etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ob'ektiv imkoniyatlar mavjud. Respublika chorvachiligida ekologik jihatdan barcha talablarga javob beradigan go'sht, sut mahsulotlarini, asal, teri, ayniqsa, qorako'l terisini, jun etishtirishni rivojlantirib, ularni tashqi bozorda sotish mumkin. Bunda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi ham yuksaltiriladi. Natijada tarmoqning mamlakat xalq xo'jaligidagi o'rni, ahamiyati ortadi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda Respublika hukumati tarmoqni rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda.

16.2. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtiriladigan mahsulotlar darajasi va samaradorligi

Mamlakat chorvachilik tarmoqlarining holatiga doimo baho berish lozim, shuning uchun uni rivojlanish hamda samaradorligini yuksalish darajasini aniqlash talab etiladi.

Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishini, ishlab chiqarish faoliyati samaradorlik darajasini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

- chorva hayvonlari bosh sonining o'zgarish darajasi. Uni aniqlash uchun haqiqiy muddatga bo'lgan chorva hayvonlarining bosh sonini qiyoslanayotgan vaqtdagi bosh soniga taqsimlab, 100ga ko'paytirish.

Bu usuldan foydalangan holda yetishtirilayotgan chorvachilik mahsulotlari miqdorini, tarmoq mahsuldorligining yillar bo'yicha o'zgarishini aniqlash, bu boradagi ko'rsatkichlar koeffitsientda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Bu ko'rsatkichni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$ChXb = \frac{CHMx}{CHMb} * 100$$

Unda:

CHXb-chorva hayvonlarini bosh sonini o'zgaririshi (koef %);

CHX_x-chorva hayvonlarining haqiqiy davrdagi bosh soni;
CHM_x-chorvachilik mahsulotining haqiqiy davrdagi miqdori
(qiymati)litr,sent,tonna,so'm;

CHX_b-chorva hayvonlarining bazis davrdagi bosh soni;
CHM_b-chorvachilik mahsulotining bazis davrdagi miqdori
(qiymati)sent,tonna,litr,so'm.

- chorva hayvonlarining mahsuldorligi. Bu ko'rsatkich haqiqatda yetishtirilgan mahsulot miqdorining (turlari bo'yicha) shu mahsulotni bergan hayvonlar bosh soniga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\text{ChX}_m = \frac{M_m(\text{Go'sht, ssu})}{B_s}$$

Bunda: ChX_m—chorva hayvonlarining mahsuldorligi (kg);

M_m—yetishtirilgan go'sht, sut, jun, tuxum miqdori (tsentner, ming dona,litr);

B_s- chorva hayvonlarining bosh soni.

-chorva hayvonlarining sutkalik o'rtacha o'sish (semirish) vazni. U chorva hayvonlarining ma'lum muddatdagi o'sgan vaznini shu o'sishni ta'minlagan muddatga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\text{Su} = \frac{X_y}{M}$$

Bunda: Su—chorva hayvonlarining sutkalik o'sishi (grammda);

X_y—hayvonlarning ma'lum muddatdagi o'sgan miqdori (kg);

M—mahsulot o'sishini ta'minlagan muddat (sutka);

-chorvachilik mahsulotlarining 1 sentnerini etishtirish uchun sarflangan ozuqa birligi. Uni aniqlash uchun sarflangan ozuqa birligi miqdorini shu ozuqa evaziga yetishtirilgan mahsulot miqdoriga (turlari bo'yicha) taqsimlash lozim yoki uning aksidan ham foydalanish mumkin;

Uning absalyut miqdorini quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$\text{OZBs} = \frac{\text{SOB}}{\text{YCHM}} \text{ yoki } \frac{\text{YCHM}}{\text{SOB}};$$

Bunda:

OZBs-bir birlikdagi chorvachilik mahsulotini yetishtirish uchun sarflangan ozuqa birligi;

SOB-sarflangan ozuqa birligi;

YCH_m-shu ozuqa birligi evaziga yetishtirilgan chorvachilik mahsuloti (sent,litr);

Chorvachilik tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi (kgG`kk; kkG`kg; sumG`kk...). U mahsulot etishtirish uchun sarflangan vaqt miqdorining shu vaqtda yetishtirilgan mahsulotga nisbati bilan yoki aksincha aniqlanadi;

-chorvachilik tarmoqlarining, mahsulotlarining tannarxi (turlari bo'yicha) rentabellik (foydalilik) darajasi. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash tartibi ushbu darslikning XIII-XIV boblarida keltirilgan.

Respublikada bozor munosabatlarini shakllantirish chorvachilik tarmoqlarida ham davlat rahbarligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, dastavval davlat va jamoa mulki hisoblangan chorvachilik tarmoqlari Respublika

Vazirlar Maxkamasining 1993 yil yanvardagi qaroriga binoan xususiylashtirila boshlandi. Bunda sotib oluvchilarning mablag`lari etishmagan hollarda kreditlar ham berildi. Natijada bu sohada ham mulkdorlar shakllana boshladi. Ammo ulkan siyosiy ahamiyatga molik bo`lgan bu tadbir kutilgan natijalarni bermadi. Chunki chorva moliga ega bo`lgan mulkdorlar ularni em-xashak, ya'ni ozuqa bilan ta'minlay olmaganliklari sababli ko`p o`tmay zotli, sermahsul hayvonlarni sota boshladilar. Bunday holning shakllanishiga chorvachilikni xususiylashtirish jarayonida mollarni ozuqa bilan ta'minlaydigan miqdordagi ekin maydonlari uzoq muddatga ijaraga berilmaganligi sabab bo`ldi. Natijada Respublika viloyatlarining barcha jamoa, shirkat xo`jaliklaridagi chorva hayvonlarining miqdori 1996-2004 yillarda keskin kamaydi. Chunonchi, qoramol bosh sonlari 1095,6 ming boshdan 4,5 martaga qisqarib, 232,7 ming boshni tashkil etgan. Shu yillarda sigirlarning bosh soni 310,2 mingtadan 76,2 mingtaga tushib, 4,1 martaga kamaygan. Qoramollar bosh soni ayrim viloyatlarda keskin qisqargan. Masalan, Buxoro viloyatida 10 martaga, Namangan viloyatida 6,4 martaga, Sirdaryo viloyatida 7,9 martaga, Jizzax viloyati xo`jaliklarida 8,1 martaga, Farg`ona viloyati xo`jaliklarida 5,6 martaga, Samarakand va Surxondaryo viloyatlaridagi jamoa va shirkat xo`jaliklarida 6,8 – 6,5 martaga qisqargan. (16.2.1-jadval).

16.2.1-jadval

Respublika viloyatlarining jamoa va shirkat xo`jaliklarida qoramol va sigirlar bosh sonining o`zgarishi (ming bosh)*

Viloyatlar	Qoramollar				Sigirlar			
	1996	1998	2000	2004	1996	1998	2000	2004
Qorakalpo- g`iston R.	109,6	96,4	92	43,7	33,2	26,2	25	11,4
Andijon	95,1	80,2	70	33,8	27,2	22,8	21	11,3
Buxoro	76,4	56,5	45	7,6	20,5	16,2	15	2,5
Jizzax	51,8	28,5	23	6,4	12,4	8,7	8	2,0
Qashqadaryo	124	100,7	91	26,2	37,3	32,7	31	9,9
Navoiy	27	21,3	20	4,7	8,6	7	7	1,7
Namangan	84,9	62,9	55	13,3	23,7	19,5	18	5,4
Samarqand	95,2	71,1	60	14,1	21,2	21,5	20	5,3
Surxondaryo	77,2	61,4	55	11,8	27,6	22,9	22	5,0
Sirdaryo	41,1	20,3	17	5,2	11,3	6,3	5	1,6
Toshkent	106,6	81,4	82	36,3	30,3	26,4	26	11,2
Farg`ona	109,6	74,9	65	19,5	26,7	18,7	16	5,7
Xorazm	97,1	90,1	68	10,1	30,2	26,1	22	3,2
Jami	1095,6	845,7	743	232,7	310,2	255	236	76,2

*Respublika Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qoramolchilik asosan sug`oriladigan hududlarda faoliyat ko`rsatayotgan jamoa va shirkat xo`jaliklarida mujassamlashgan edi. Bu xo`jaliklarda em-xashak yetishtirilib, qoramolchilikning rivojlantirilishi uchun zamin yaratiladi. Qoramolchilik esa, o`z navbatida, xo`jaliklarning boshqa sohalarini rivojlantirishga hissa qo`shadi. Demak, xo`jalik tarmoqlari o`zaro bog`liq holda rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir. Lekin, hozirgi davrda bu holat ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekish talablariga to`liq rioya etilmayotganligi sababli buzilmoqda. Chunonchi, ekin maydonlari tarkibida em-xashak ekinlarining salmog`i me'yorga nisbatan anchaga qisqargan. Masalan, 2000-2001 yillarda ekin

maydonlarida em-xashak ekinlari salmog`i atigi 5,3 foizni tashkil etgan. Shundan 3,7 foizi ko`p yillik ekinlar hissasiga to`g`ri keladi. Ayniqsa, Mirzacho`l, Surxon, Sherobod va Qarshi cho`llarida joylashgan shirkat xo`jaliklarida u sezilarli darajadadir. Oqibatda birinchidan, qoramolchilik uchun to`yimli hisoblangan em-xashak etarli darajada yetishtirilmayotir. Ikkinchidan esa, erlarning meliorativ holati yomonlashib, tuproq unumdorligi pasaymoqda. Almashlab ekish shu tarzda davom ettirilsa, unda talaygina maydonlar unumdorligi pasayib, qishloq xo`jaligida foydalanishga yaroqsiz holga kelishi mumkin.

1996-2004 yillarda qoramollar kabi qo`y va echkilar 8,4 foizga kamayib, 2,5 mln. boshni tashkil etgan. Ularning asosiy qismi qorako`l qo`ylaridir (16.2.2-jadval).

16.2.2-jadval

Respublika viloyatlaridagi qishloq xo`jalik korxonalarida qo`y va echkilar bosh sonining o`zgarishi *(ming bosh)

Viloyatlar	• Yillar				
	1996	1998	1999	2000	2004
Qoraqalpog`iston Respublikasi	176,7	154,4	155	151	156,5
Andijon	86,8	75,2	75	69	42,5
Buxoro	287,1	297,5	295	302	239,9
Jizzax	338,6	296,7	297	281	193,1
Qashqadaryo	546,3	556,3	556	505	400,4
Navoiy	748,2	810,5	810	790	860,2
Namangan	48,3	73,3	73	71	33,8
Samarqand	232,1	257	254	240	185,8
Surxondaryo	272,5	311,1	312	302	227,5
Sirdaryo	23,5	5,6	6	5	0,7
Toshkent	138,4	125,7	125	123	92,9
Farg`ona	82,2	64,2	64	58	162
Xorazm	29,5	21,9	23	15	2,9
Jami	3010,2	3049,4	3045	2912	2451,7

*Respublika Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qo`y va echkilar asosan respublikaning yaylov va cho`l hududlarida joylashgan xo`jaliklarda parvarish qilinadi. Binobarin, mamlakat miqyosidagi 1914 ming bosh qo`y va echkinning 78,1 foizi Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog`iston Respublikasi xo`jaliklarida. Eslatib o`tish kerakki, qo`y va echkilarning 27 foizga yaqini sug`oriladigan dehqonchilikka asoslangan hududlardagi xo`jaliklar ixtiyorida. Ammo, ularda qo`ychilikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud emas. Eng muhimi, yaylovlar, pichanzorlar etishmaydi. Respublika qishloq xo`jalik korxonalarining aksariyat qismida chorvachilikning em-xashak bazasi talab darajasida emasligi, ular etarli darajada ixtisoslashmaganligi nafaqat chorva hayvonlari bosh sonlari kamayishiga, balki ularning mahsuldorligiga, oqibat-

natijada esa tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmi qisqarishiga ham ta'sir etmoqda. Masalan, respublika qishloq xo'jalik korxonalarida bir bosh sigirdan o'rtacha sog'ib olingan yillik sut miqdori 1996-2000 yillarda 1117 kg. dan 967 kg. ga tushib qoldi. Shu yillarda bir bosh sigirning mahsuldorligi 13,4 foizga kamaydi. Ayrim viloyatlarda esa, sigirlarning mahsuldorligi juda past bo'ldi. Jumladan, Jizzax viloyati xo'jaliklarida bu ko'rsatkich 612 kg. dan 435 kg. ga tushgan, Surxondaryo viloyatlari xo'jaliklarida esa 750 kg. dan 619 kg. ga pasaydi. Bunday holat Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari xo'jaliklarida ham yuz berdi. Hozirgi davrda mamlakat qishloq xo'jalik korxonalarida har bosh sigirdan bir sutkada o'rtacha 3-3,5 kg. sut sog'ib olinmoqda. Bu juda kam. Toshkent va Namangan viloyatlari xo'jaliklarida bu ko'rsatkich 28-78,9 foiz yuqori bo'lib, o'rtacha 4,1-5,6 kg. ni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi holatlar ta'sirida qishloq xo'jaligi korxonalarida sut etishtirish 355,7 ming tonnadan (1996 y.) 64,1 ming tonnaga (2007 y) tushib qolgan. Demak, sakkiz yilda yetishtirilayotgan sut hajmi 5,5 martaga kamaygan. Go'sht etishtirish so'yin vaznda shu yillarda 4,3 martaga qisqarib, 21,9 ming tonnani tashkil etgan (2007 y.) (16.2.3-jadval).

16.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha viloyatlarning qishloq xo'jalik korxonalarida sut va go'sht etishtirish hajmi keskin qisqargan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm viloyatlari xo'jaliklarida sut etishtirish 13-24 martaga, go'sht etishtirish Namangan viloyati xo'jaliklarida 3,1 martaga, Sirdaryo viloyatida esa 6,7 martaga, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida 4-6 martaga kamaygan.

Respublika qishloq xo'jaligi korxonalarida chorvachilikning bu holati uning iqtisodiy samaradorligiga ham ta'sir etgan. Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilayotgan aksariyat chorvachilik mahsulotlarining tannarxlari yil sayin oshib bormoqda. Jumladan, sutning 1 sentneri tannarxi 1997 yilda 2047 so'm bo'lgan bo'lsa, 1998 yilda qariyb 40 foizga, 1999 yilda esa 85,3 foizga ortib, 3794 so'mni tashkil etgan. Yetishtirilayotgan tirik vazndagi 1 sentneri go'shtning tannarxi shu yillarda 7186 so'mdan 15441 so'mga etgan yoki 114,9 foizga ortgan, 1 sentner junning tannarxi esa 51,5 foizga ortib, 5252 so'mni tashkil etgan (16.2.4-jadval).

Respublika viloyatlaridagi qishloq xo'jalik korxonalarida sut va go'sht
etishtirish hajmining o'zgarishi*(ming tonna)

Viloyatlar	1996 yil		1998 yil		1999 yil		2000 yil		2007	
	sut	go'sht	sut	go'sht	sut	go'sht	sut	go'sht	sut	Go'sht so'yin vaznda
Qoraqalpog'iston R.	27,5	8,6	19,1	3,8	19,1	3,8	17,9	3,5	2,5	1,1
Andijon	32,9	6,7	23,9	5,4	23,9	5,4	22,9	4,9	12	1,1
Buxoro	25,7	7,6	16,5	4,9	16,5	5,1	15,3	4,5	1,5	0,9
Jizzax	6,5	5,7	3,5	3,3	3,5	3,4	2,8	3,2	0,5	0,7
Qashqadaryo	36,8	14,1	33,3	10,1	33,3	1,1	25,5	10,6	7,5	2,7
Navoiy	9,3	9	7	8,2	7	8,2	6,9	8,7	3,2	4,7
Namangan	30,3	7,4	23,8	4,6	23,8	4,5	24,2	3,5	3,6	0,9
Samarqand	29,4	9,8	25,2	7,2	25,2	7	19,3	6,3	3,0	3,2
Surxondaryo	21,6	10	14,7	6,4	14,7	6,5	13,4	6,2	2,0	1,3
Sirdaryo	9,7	3	4,3	1,1	4,3	1,1	4,7	0,8	1,7	0,2
Toshkent	53,1	11,2	40,8	8,1	40,8	8,1	40,8	9,4	19,2	4,0
Farg'ona	34,8	11,4	24,1	8,5	24,1	8,5	19,8	7,6	5,8	1,1
Xorazm	38,1	7,1	24,2	5	24,2	5	19,5	5,1	1,6	0,4
Jami	355,7	111,6	260,4	76,6	260,4	76,7	233	74,3	64,1	21,9

*Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida yetishtirilgan
chorvachilik mahsulotlarining turlari bo'yicha samaradorlik darajasi

Mahsulot turlari	1997 yil			1998 yil			1999 yil		
	1ts.tanarxi	foyda zarar	renG`dajaja.	1ts.tanarxi	foyda , zarar	renG`dajaja.	1ts.tanarxi	Foyda, zarar	renG`darajaja.
Sut	2047	-628	-30,6	2865	-981	-34,2	3794	-1103	-29
Go'sht (tirik vaznda)	7186	-777	-10,8	11015	-755	-6,8	15441	-59	-0,4
Tuxum (ming dona)	7607	3619	47,6	8935	4481	50,1	13378	5671	42,4
Jun	3466	-1246	-35,9	3526	-984	-27,9	5252	-659	-12,5
Pilla	10363	-3246	-31,3	18252	-3543	-11,4	10765	-2008	-18,6

*Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxining oshishiga yuqorida ko'rsatilganlardan boshqa omillar ham ta'sir etgan. Masalan, qoramolchilik fermalarining, qo'ychilik otarlarining moddiy-texnika bazasi talabga nisbatan zaifligi. Bu hol qo'l mehnati sarfi ko'payishiga olib keladi. Qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqariladigan ozuqa, mahsulotlar baholarining tez sur'atlar bilan oshib borishi va boshqalar.

Xo'jaliklar aksariyat chorvachilik mahsulotlari etishtirishdan zarar ko'rmoqdalar. Jumladan ular 1997 yilda 1 sentner sut etishtirib, sotish natijasida 628 so'm zarar ko'rgan bo'lsa, 1998 yilda 981 so'm, 1999 yilda esa 1103 so'm

zarar ko`rgan. Har sentner sut etishtirishdan ko`rilayotgan zarar miqdori yil sayin ortib borgan. Bunday hol sutning sotish baholari o`shishi natijasida tannarxi yuqori sur'atlarda oshishi sababli yuzaga kelgan.

Xo`jaliklar go`sht va jun etishtirishdan ham zarar ko`rmoqdalar. Lekin kurilayotgan zararlar miqdori yil sayin kamayib bormoqda. Chunki 1 sentner go`shtning (tirik vaznda) sotish bahosi shu yillarda 140 foizga, tannarxi esa 114,9 foizga oshgan. Demak, go`shtning sotish bahosi uning tannarxiga nisbatan yuqori darajada o`sgan. Bu fikr junning sotish bahosi va tannarxiga ham tegishli.

Xo`jaliklarda yetishtirilayotgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bozori hali unchalik rivojlanmagan. Chunki xo`jaliklar etishtirayotgan mahsulotlarini tumanlarda yagona hisoblangan go`sht kombinatlariga, sut zavodlariga ular belgilagan baholarda sotmoqdalar.

Hozirgi davrda qishloq xo`jalik korxonalarida yetishtirilayotgan aksariyat chorvachilik mahsulotlarining samarasi yo`q. Ular sut etishtirishdan 29 foiz, go`sht etishtirishdan 0,4 foiz, jun etishtirishdan esa 12,5 foiz zarar ko`rmoqdalar.

16.2.5-jadval

Respublikada chorva hayvonlarining bosh sonlarini o`zgarishi*

Chorva hayvonlarining nomi	2005y	2006y	2007y	2008y	2008 yil		
	ming bosh				2005	2006	2007 nisbatan %
Jami yirik shoxli qoramol	242.7	571.4	044.6	457.9	19.5	13.5	05.9
Shu jumladan dexqon va oila tomarqa xo`jalikda	698.1	061.3	538.6	944.6	21.9	14.6	06.2
Jami sigirlar	704.0	821.3	982.5	124.9	15.6	10.8	04.8
Shunda n dexqon va oila tomarqa xo`jaliklarida	530.8	656.2	818.2	959.5	16.9	11.4	05.0
Jami qo`y va echkilar	0579.9	1351.9	2016.2	2635.6	19.4	11.3	05.2
Shunda n dexqon va oila tomarqa xo`jaliklarida	708.7	417.7	053.0	603.9	24.6	14.1	06.1
Jami paranda	8833.7	0540.4	4188.4	6118.9	38.7	27.2	08.0

Shundan dehqon va oila tomarqa xo'jaliklarida	1	1	1	1	1	1	1
	2841.0	4578.8	6609.2	7886.2	39.3	22.7	07.7

*Yillik statistic to'plam/2008 y.T.262,263 b

Fermer, dehqon xo'jaliklarida esa buning aksi: chorvachilik yuqoriroq sur'atlarda rivojlanmoqda. Ularda chorva hayvonlarining bosh soni 1999-2000 yillarda 13,5 foizga ko'paygan. Har bosh sigirdan 370 kg. dan sut sog'ib olingan. Fermer va dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarish asosan shaxsiy mulkka asoslanganligi uchun ular xarajatlarni imkoniyat darajasida tejashga, sifatli mahsulot etishtirib, yuqori baholarda sotishga intilmoqdalar. Shuning uchun ham bu xo'jaliklarda chorvachilik tarmoqlarining rentabellik darajasi tobora oshmoqda.

Yuqoridagi holatni bartaraf etish maqsadida so'nggi yillarda Respublika hukumati qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Respublika Prezidenti 2006 yil 23 martda "shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 308 sonli qarorini qabul qilganligi dalil bo'ladi. Qarorni bajarilishini ta'minlash uchun turli manbalardan yetarlicha mablag' ajratildi. Natijada mamlakatda 2006-2009 yillarda chorva hayvonlarining bosh sonlarini o'sishi ta'minlandi(16.2.5-jadval).

16.2.5-jadvaldagi ma'lumotlarning dalolat berishicha 2005-2008 yillarda mamlakat miqyosida qoramollar bosh soni 19.5 foizga oshgan holda sigirlar bosh soni 21.9 foizga ya'ni ularning bosh sonining o'sishi biroz yuqori suratlarda oshgan. Bunday o'sishni taminlashdan maqsad go'sht va sut ishlab chiqarishni rivojlantirishdir. Shu davrda parranda bosh soni tezroq suratlarda oshgan. Barcha chorva hayvonlari asosan dehqon va oila tomarqa xo'jaliklarida mujassamlashgan. Masalan, 2008 yilda barcha qoramollarning 93.1 foizi hamda sigirlarning 94.7 foizi shu xo'jaliklar ixtiyorida bo'lgan. Shu xo'jaliklarda bu turdagi hayvonlarning salmog'i ham 2008 yilda 2005 yildagiga nisbatan o'sib brogan. Bu go'sht va sut ishlab chiqarish asosan dehqon va oila tomarqa xo'jaliklarida mujassamlashganligidan dalolat beradi. 2008-2009 yillarda ishlab chiqarilgan go'shtning (so'yin vazni) 94.9 foizi dehqon va oila tomarqa xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri keladi. Sutning esa 96.8 foizini ishlab chiqarmoqdalar.

Respublikadagi fermer xo'jaliklari asosan g'alla va paxtachilikka ixtisoslashganligi munosabati bilan ularda qoramollarning 5.6 foizi, sigirlarning esa 4.4 foizi mujassamlashgan. Bunday hol g'alla va g'o'za ekin maydonlarini organik o'g'itlarga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Shuning uchun bu masalaga kelajakda alohida e'tibor berish zarur.

Songgi yillarda tarmoqda qo'ychilik ayniqsa qorako'lchilik ham rivojlanmoqda. ularning bosh sonlari 2005-2008 yillarda 19.4 foizga ko'paygan. Ularning 76 foizi yana dehqon va oila tomarqa xo'jaliklarida joylashgan. Qo'y va echkilarning 17.1 foizi qishloq xo'jalik korxonalarini ixtiyorida bo'lgan. So'nggi yillarda qo'ychilikka ixtisoslashgan yani naslchilik bilan shug'ullanadigan shirkat xo'jaliklari tashkil etilib ularni rivojlantirishga alohida etibor berilmoqda. Respublikada chorva hayvonlarni naslini rivojlantirishga katta

etibor berilmoqda. Naslli chorva hayvonlarini barpo etish uzoq muddatni talab etishini etiborga olib, naslli hayvonlarni chetdan olib kelinmoqda. 2006-2009 yillarda chet davlatlardan 16628 bosh naslli qoramollar keltirilgan. Ularning:

- 2838 boshi Germaniyadan;
- 4817 boshi Ukrainadan;
- 1734 boshi Polshadan;
- 2998 boshi Qozog'istondan;
- 1458 boshi Gollandiyadan;
- 1447 boshi Xitoydan;
- 794 boshi Belorusiyadan;
- 350 boshi Shveysariyadan;
- 192 boshi Avstriyadan olib kelingan.

Respublikada naslchilikni rivojlantirish maqsadida chetdan olib kelinayotgan qoramollar naslli urug'lantirilgan (qochirilgan) holda keltirilgan. Buning uchun davlat byudjetidan 200 million AQSH dollari investitsiyalangan. Chorvachilikni rivojlantirish maqsadida ixtisoslashgan chorvachilik majmualarini ham qurishga etibor berilmoqda. Ularni kelajakda yanada rivojlantirishga katta e'tibor berish lozim. Chorvachilikni rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda ularni ozuqa bazasini mustaxkamlash maqsadida qo'shimcha yerlar ajratilmoqda, shu yerlarga qo'shimcha yem-xashak ekinlarini ekishib ozuqa moddalarini miqdorini ko'paytirishmoqda. So'nggi yillarda chorvachilikda infratuzilma subyektlarini soni ham rivojlantirilmoqda. Masalan, 2009 yilda chorvachilikka turli xildagi xizmatlarni ko'rsatuvchi zooveterinariya punktlari, 424 ta ozuqa materiallarini sotuvchi shaxobchalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Lekin ularning faoliyati yetarli darajada samarali bo'layotgani yo'q. Chunki ko'rsatayotgan xizmat haqlari ancha yuqori darajada bo'lmoqda.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar chorvachilik mahsulotlarini miqdorini oshishini ta'minlamoqda. 2009 yilda go'sht ishlab chiqarish 2005 yildagiga nisbatan 24.2 foizga, sut ishlab chiqarish 21.2 foizga oshgan. Shuning oqibatida chorvachilik tarmoqlari ham ma'lum miqdorda foyda keltirmoqda. Lekin chorvachilikning rivojlanishini hamda samaradorligini hozirgi holati talabga to'liq javob bermaydi. Chunki respublika aholisi hozircha talab darajasida sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan to'liq ta'minlangani yo'q. Shuning uchun kelajakda chorvachilikni rivojlantirish hamda uni samaradorligini yuksaltirishga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiqdir.

16.3. Chorvachilik tarmoqlarini, ularda mahsulot etishtirishni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari

Jamiyatning ekologik jihatdan toza hisoblangan chorvachilik mahsulotlarga bo'lgan talabi o'sib bormoqda. Ammo bu boradagi talab hozirgi davrda to'liq qondirilgani yo'q. Muammoni hal etish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish kerak. Bu jarayonni bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish mumkin. Masalan, respublika hududlarining, xo'jaliklarning

yunalishlarini e'tiborga olgan holda chorvachilik tarmoqlarini maqsadga muvofiq joylashtirib, ularni ixtisoslashtirish jarayonlarini rivojlantirishga e'tibor berish lozim. Chorva hayvonlarini ijara pudratchilariga, chorvachilik fermalarini esa ijaraga berish, ijarachilarga talabini qondiradigan hajmdagi ekin maydonlarini ham uzoq muddatga ijaraga ajratish zarur. Bu jarayonda samaradorlikka erishish uchun ijarachilar moliyaviy mablag`lar bilan etarli miqdorda ta'minlanishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Bu tadbir ochiq tanlov asosida shu soha bo'yicha tajribali, bilimdon, qonun ustuvorligini tan oladigan, insofli, ma'naviyati yuqori bo'lgan fuqarolar zimmasiga yuklanishi maqsadga muvofiqdir.

Ixtisoslashgan shirkat xo'jaliklari mahsulot etishtirish maqsadida chorva hayvonlarini a'zolariga ijara pudrati asosida berishini ham rivojlantirish mumkin. Bunda pudratchilar chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirish, zotlarini yaxshilash, mahsuldorligini oshirib, tobora ko'proq mahsulot etishtirish uchun qilgan xizmatlari va etishtirgan mahsulotlari miqdoriga ko'ra, rag'batlantirilishlari lozim.

Xo'jaliklarda bu masalalarni hal etishda erlar unumdorligi oshishini ta'minlaydigan tadbirlarga ham alohida e'tibor qaratishlari zarur. Bu borada ijara munosabatlarini erkin bozor talablariga moslashtirish kerak.

Chorvachilik fermalarining zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga alohida e'tibor berish vaqti keldi. Chorvachilik bino-inshootlari fan-texnika yutuqlarini e'tiborga olgan holda moslashtirilishiga, tegishli vositalar bilan ta'minlanishga, chorva hayvonlari yaxshi parvarishlanib, sifatli mahsulot etishtirishda yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etilishiga erishish lozim. Shudagina tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilib, mehnat unumdorligining oshishi ta'minlanadi. Naslchilik ishlarini rivojlantirib, sermahsul chorva zotlarini yaratib, ular ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etilishini ta'minlash, bunda zotli, sermahsul chorva hayvonlarini sotib olish variantidan foydalanishni ham esdan chiqarmaslik kutilgan natijaga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun em-xashak yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda em-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarning suv ta'minotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda organik va mineral o'g'itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Bu masalani hal etish uchun qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan to'yimli ozuqa moddalari talab darajasida olinishini, chorva mollariga shakllangan ozuqa ratsion asosida vaqtida berilishini ham tashkil etish zarur. Bu masalaning dolzarbligini e'tiborga olib, respublika hukumati xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan ko'maklashish yo'llarini, mexanizmlarini ishlab chiqqan. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, shu maqsadda chetdan moddiy-texnika resurslari keltirilsa, ular bojxona to'lovlaridan ozod etilishi va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Bu jarayonda chet el investitsiyalari jalb etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Chunki hozirgi davrda bu masala juda sust echilmoqda.

Yuqoridagilar bilan birga chorvachilik mahsulotlarining shartnomaviy baholari inflyatsiya darajasini e'tiborga olgan holda oshirilishiga ham davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu mahsulotlarni asosan davlat aktsiyadorlik korxonalarini sotib olmoqdalar.

Ta'kidlangan barcha masalalarning ijobiy hal etilishi tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarning munosabatlariga, bilimiga, tajribasiga, e'tiqodiga, onggiga hamda rag'batlantirilishiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, bu masalalarni hal etish mexanizmlarini, yo'llarini yanada rivojlantirish zarur. Ishchi-xizmatchilarning ish haqlarini vaqtida berish hamda ularni etishtirgan mahsulotlari miqdori va sifatini e'tiborga olgan holda mukofotlashning real usulini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Chorvachilik tarmoqlari hisoblangan parrandachilik, pillachilik, yilqichilik, asalarichilik, baliqchilik iqtisodiyoti haqida ham shu mazmundagi fikrlarni aytish mumkin. Lekin bu tarmoqlarning iqtisodiyotini o'rganishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, parrandachilikni sanoat negizida hamda g'allachilik xo'jaliklarida tashkil etib, rivojlantirish va boshqalarni e'tiborga olish lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan masalalarning hal etilishi natijasida chorvachilik tarmoqlari rivojlanib, samaradorligi yuksalishi ta'minlanadi.

Tayanch iboralar:

Chorvachilik, chorvachilik mahsulotlarining 1 sentnerini etishtirish uchun sarflangan ozuqa birligi. chorva hayvonlarining sutkalik o'rtacha o'sish vazni. chorvachilik tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi chorvachilik mahsulotlarining (turlari bo'yicha) etishtirish tannarxлари; chorvachilik tarmoqlarining, mahsulotlarining (turlari bo'yicha) rentabellik (foydalilik) darajasi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida chorvachilik tarmoqlarining o'rni va ahamiyati katta. Unda inson salomatligi va qayta ishlash korxonalarini uchun zarur bo'lgan turli xildagi mahsulotlar yetishtirilmoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida tarmoqda nodavlat mulkchiligi shakllantirildi.

Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish va samaradorlik darajasini aniqlashda tegishli ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan maqul.

So'nggi yillarda tarmoqda amalga oshirilgan chora-tadbirlar chorva hayvonlarining bosh sonini oshishini ta'minlagan. Naslchilik ham bosqichma-bosqich izga tushmoqda. Chorvachilikning ozuqa bazasi ham mustahkamlanmoqda. Natijada chorvachilik mahsulotlarining miqdori ma'lum darajada oshmoqda. U dehqon, oila tomarqa xo'jaliklarida samara bermoqda. Chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish darajasi talabni to'liq qondira olmaydi. Sababi hozircha xalqimiz sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan mayor darajasida ta'minlangani yo'q. Ishlab chiqarilayotgan chorvachilik mahsulotlarining tannarxi yuqori va boshqalar. Shuning uchun chorvachilikni rivojlantirishga ustuvorlik berilishi lozim. Bu muammoni hal etish maqsadida tarmoqda huquqiy,

tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Chorvachilik tarmog`i mamlakat xalq xo`jaligida qanday o`rin tutadi? Uning ahamiyatli ekanligi nimalarda namoyon bo`ladi?
2. Chorvachilik tarmoqlari rivojlanishini, ularning samaradorligini qanday ko`rsatkichlar ifodalaydi? Bu ko`rsatkichlar qanday aniqlanadi?
3. Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishini aniq misollar yordamida isbotlang.
4. Chorvachilikning samaradorlik darajasini raqamlar yordamida tushuntirib bering.
5. Chorvachilik tarmoqlarida islohotlarni qanday qilib yanada chuqurlashtirish mumkin?
6. Chorvachilikni rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida chorva mollari ko`paytirishni rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi 308 sonli qarori
2. Karimov I.A «Qishloq xo`jaligi taraqqiyoti to`kis hayot manbai - T.: 1998.
3. Karimov I.A. Iqtisodni erkinlashtirish–farovonlik manbai, Saylanma asarlar. T.: - O`zbekiston, I Tom 2001.
4. Karimov I.A. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi tadbirlari. Saylanma asarlar, 9-tom. T.: 2001.
5. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – taraqqiyot garovi. Saylanma asarlar. 9-tom. T-2001.
6. A. Abdug`aniev, A.A. Abdug`aniev, «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti», T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi», 2004
7. Kovalenko Ya.N. Ekonomika selskogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 2004.

Internet saytlari:

1. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.ecfak.timacad.ru
2. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru
3. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>

GLOSSARIY

Agrosanoat majmuasini iste'molchilarning talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida iqtisodiyotning ayrim ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash hamda sotish bilan shug'ullanuvchi sohalarning iqtisodiy uyg'unlashuvi tashkil etadi.

Aylanma vositalar (o'zgaruvchi vosita) – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlarini bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida bir marta qatnashib, o'z qiymatini ularga to'liq o'tkazadigan vositalardir.

Asosiy vositalar (doimiy kapital) – qishloq xo'jalik sub'ekti faoliyatida uzoq yillar mobaynida foydalanib, o'z qiymatini ishlab chiqariladigan mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga asta - sekin o'tkazib beradigan vositalardir.

Asosiy kapitalga investitsiya (kapital qo'yilma) – asosiy vositalarni barpo etish va takror ishlab chiqarishga sarflangan mablag'.

Davlat buyurtmasi – davlat ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot miqdori.

Davlat yer kadastri – yerning tarkibi, xo'jalik, huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati (bahosi), yer uchastkalarining manzili va o'lchamlari, ularning yer egaligi, undan foydalanuvchilarga, ijarachilarga, to'g'ri taqsimlash to'g'risida zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar yig'indisi.

Davr xarajati – qishloq xo'jalik sub'ektini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisi.

Devident – shirkat xo'jaligi ixtiyorida mavjud bo'lgan barcha turdagi mulklarni tadbirkorlik bilan samarali ishlatish natijasida olingan foydaning mulkdorlarga, ya'ni paychilarga beriladigan summasi.

Dehqon xo'jaligi - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirib realizatsiya qiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoxud ega bo'lmagan oilaviy mayda tovar xo'jaligidir.

Diversifikatsiya – ishlab chiqarishning samaradorligini yuksaltirish, mahsulot va hizmatlarni ko'rsatish, bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoqa, korxonalar faoliyat sohaslarini qisman o'zgartirish, kengaytirish hamda hizmatlar turlarini ko'paytirish usuli.

Yer uchastka ijarasi – davlat mulki hisoblangan yer uchastkalarini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yerdan foydalanuvchilarga haq to'lash evaziga ma'lum muddatga hamda umrbod meros qoldirish huquqi bilan berish.

Yerdan foydalanish koeffitsienti - qishloq xo'jalik korxonasida yil mobaynida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga nisbatidir.

Yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini barcha omillaridan tadbirkorlik bilan foydalanish natijasida har bir gektar yerdan olingan sof foyda summasi ifodalaydi.

Yer monitoringi – yer fondi, undan foydalanuvchilar, ularning tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarning sifati, qiymatini baholash, barcha salbiy jarayonlarni oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish, yer fondidan foydalanish darajasini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmui.

Joylashtirish – tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jalik sub'ektlarida u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Ijtimoiy investitsiya – inson salohiyatini, malakasini, tajribasini oshirishga hamda nomoddiy ne'matlarni rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lar.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy jarayonlarning mazmun, mohiyatini hamda turli tomonlarini aks ettiruvchi, muhim, inson ta'sirisiz doimo takrorlanadigan, uzviy iqtisodiy zaruriyatni taqoza etuvchi munosabatlar.

Investitsiya – qishloq xo'jalik sub'ektini barcha omillarini rivojlanishiga sarflanadigan mablag'.

Investitsion muhit – investitsiyalar jozibadorligi va samaradorligi hamda siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy havf-hatar darajasini ifodalab beruvchi omillar yig'indisi.

Investorlar – barcha turdagi mulklarni sarflash haqida qaror qbul qiluvchi, hamda ularni amalgam oshiruvchi subyektlar. Ularning tarkibiga davlatlar, korxonalar, kompaniyalar, tashkilotlar hamda jismoniy shahslar kiradi.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi – ma'lum bir vaqtda investitsiya qilgan mablag' evaziga olingan sof foyda.

Investitsiyaning qoplanish muddati – investitsiya qilinayotgan mablag'ning shuni evaziga olingan sof foyda summasiga nisbati bilan hisoblanadi.

Innovatsion investitsiya – texnika va texnologiyalarning yangi navlarini yaratish va o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan mablag' sarfi.

Intensiv yo'l (usul) – fan-texnika yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun qo'shimcha mehnat, mablag' sarflab, investitsiyalarni jalb etish mahsulot ishlab chiqarish xajmini, uning sifatini yaxshilash, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirishdir.

Ixtisoslashtirish – tabiiy, iqtisodiy sharoitlarni hamda talabni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jalik sub'ektlarini bir yoki ikki turdagi mahsulot yetishtirishga moslashtirish.

Ishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan mehnat, mablag', material, xarajatlar yig'indisi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni (qishloq xo'jalik) zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy yangilash, tarkibiy texnik hamda texnologik qayta tuzish chora-tadbirlarini o'z ichiga oluvchi jarayon.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari:

-tarmoqdan, korxonalarda jismonan, ma'nan eskirgan barcha turdagi vositalarni chiqarish, ularni zamonaviy, samarali texnikalar hamda ilg'or texnologiyalar bilan almashtirish;

-innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish;

-barcha turdagi resurslarni tejash va harajatlarni tejash;

-o`simliklarning tezlash, kam suv talab etadigan, kasalliklarga chidamli serhosil navlarini ishlab chiqarishga joriy etish;

-naslli, sermahsul chorva hayvonlarini ko`paytirish tadbirlari va boshqalar.

Ishning mexanizatsiyalashganligi – qishloq xo`jaligida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, ish bajarish jarayonida bajariladigan ishlarni mashina va mexanizmlar yordamida bajarilganligi.

Kapital qo`yilma – asosiy vositalarni sotib olish, ta`mirlash, qurishga sarflangan resurslar, mablag`lar yig`indisi.

Korxonaning innovatsion salohiyati – korxonaning (fermer xo`jaligining) ishlab chiqarish, iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorligini yuksaltirishini ta`minlash qobiliyatiga ega bo`lgan barcha turdagi yangiliklarni joriy etish qobiliyati.

Lalmi yer - sug`orilmasdan qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtiradigan maydon (yer), sug`orish tizimlari mavjud bo`lmagan, suv manbaalari bilan doimiy bog`lanmagan, lekin yog`ingarchilik natijasida sug`orilishi mumkin bo`lgan yer.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – yetishtirilgan bir birlikdagi mahsulotga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarining summasi.

Melioratsiya – sug`oriladigan yerlardagi tuproq unumdorligiga salbiy ta`sir etuvchi, ortiqcha hisoblangan zax suvlarini shu hududlardan oqizib chiqarib yuborish qobiliyatiga ega bo`lgan kollektor-drenaj, zovurlar tizimini barpo etuvchi tadbirlar majmuasi.

Mehnat resursi – qonunlarda belgilangan yoshga ega bo`lib qishloq xo`jalik sub'ekti hududida yashab, mehnat qobiliyatiga ega bo`lgan inson.

Mehnat unumdorligi - mehnat qilish qobiliyatiga ega bo`lgan insonning ma'lum bir vaqt ichida bajaradigan ishining, ko`rsatadigan xizmatining, ishlab chiqaradigan mahsulotining miqdori (qiymati).

Mehnatning fond bilan qurollanganligi – qishloq xo`jalik sub'ektining bir birlikdagi mehnat resursiga to`g`ri keladigan energetik resurslar quvvati miqdori.

Moliyaviy xarajatlar – soliqlar, to`lovlar va boshqa moliyaviy xarajatlar summasi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – davlat mulkiga asoslangan davlat korxonalarini va tashkilotlarini nodavlat mulkchiligiga asoslangan shirkatlarga, fermer va ijara korxonalariga hamda davlatga qarishli mulk bo`lmaydigan boshqa sub'ektlarga aylantirishdir.

Pul daromadi – qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish oqibatida olinadigan pul tushumlaridir.

Pul tushumlari oqimi – tayyor mahsulotlarni sotish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish natijasida oylar, choraklar bo`yicha tushadigan pullar summasi.

Real investitsiya – moddiylashgan asosiy va aylanma vosita (kapital) barpo etishga sarflanadigan mablag`.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Rentabellik – korxonaning faoliyatining foydalilik darajasi.

Servis – tarmoqni korxonalarini jismoniy shahslarga serqirrali faoliyatlarini siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatlarini samaraliligini ta`minlovchi chora-tadbirlar majmuasi.

Sof kapital qo'yilma – mablag` sarflash natijasida ishga tushirilgan ob'ektning yoki asosiy kapitalning qiymati.

Sof foyda - barcha pul tushumlaridan ishlab chiqarish, davr, moliyaviy va favqulodda xarajatlarni chegirgandan so'ngi summa.

Sug'oriladigan yerlar – qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerni sug'orilishini ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan yerlardir.

Tadbirkorlik – mulkchilik sub'ektlarining amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish natijasida daromad hamda foyda olishga qaratilgan faoliyatidir.

Tannarh – bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan o'rtacha harajat.

Tayyor mahsulot - qishloq xo'jalik sub'ektlarida ishlab chiqarilib, sotishga, ayirboshlashga mo'ljallagan mahsulot.

Tovar mahsuloti - qishloq xo'jalik sub'ektlari tomonidan iste'mol talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot. Ya'ni sotilgan mahsulot.

Tuproqning unumdorligi – tuproq tarkibida mavjud bo'lgan turli xildagi mikro va makro elementlarning mahsulot yetishtirish maqsadida amalga oshiriladigan agro-texnik hamda texnologik tadbir yordamida mahsulot yetishtirib berish qobiliyatidir.

O'simlikchilik yalpi mahsuloti - o'simliklarga ishlov berish, parvarish qilish natijasida yetishtirilgan mahsulot miqdori.

Fermer xo'jaligi – o'ziga uzoq (30 yildan 50 yilgacha) muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Foydalilikni qishloq xo'jalik sub'ektlari tomonidan sarflangan barcha xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasini ifodalaydi.

Fond bilan ta'minlanish – qishloq xo'jalik sub'ektlarining bir birlikdagi yer maydoniga to'g'ri keladigan fondlar qiymati.

Xususiylashtirish – davlat mulkchiligiga asoslangan davlat aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalarini amaldagi qonun talablari asosida sotib olish nodavlat mulkiga aylantirishdir.

Chorvachilik yalpi mahsuloti - chorva hayvonlarini parvarish etish, boqish natijasida yetishtirilgan mahsulot miqdori.

Shirkat daromad – jismoniy shahsning turlicha faoliyat ko'rsatishi natijasida soliqlar to'langunigacha bo'lgan daromad.

Shirkat xo'jaligi - qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida fuqarolarning poychilikka asosan oilaviy pudrat asosida uyushib, yerkain, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yuritish sub'ektidir.

Ekinlar hosildorligi - tadbirkorlik bilan amalga oshiriladigan barcha irrigatsion, meliorativ, agro-texnik, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar natijasida ma'lum bir yer maydonidan yetishtirib olgan mahsulot miqdori.

Ekstensiv yo'l (usul) – mehnat va mablag` sarflab, mavjud vositalar dan foydalanib ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish evaziga mahsulot ishlab chiqarish xajmini ko'paytirishdir.

Yalpi kapital qo'yilma – asosiy kapitalga sarflangan asosiy jami mablag`.

Yalpi foyda – barcha pul tushumidan ishlab chiqarish harajatlari ayrilganidan so'ng qolgan foyda summasi.

Qishloq xo'jalik yerlari – qishloq xo'jalik sub'ektlariga turli xildagi tayyor mahsulotlarni, ishlab chiqarish maqsadida ma'lum muddat davomida foydalanish uchun berilgan haydalaniladigan yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, ko'p yillik daraxtlar maydoni yig`indisi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining haqiqiy qiymati – bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlarning haqiqiy baholardagi qiymati.

Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti miqdori– bozor iqtisodi sub'ektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. Toshkent, «Adolat», 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi». «Aholini ish bilan tam'inlash to'g'risida» gi qonun. Toshkent, «Sharq», 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. (I–II qism). Toshkent. «Sharq», 1998.
4. O'zbekiston Respublikasining «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston yangi qonunlari. Toshkent, «Adolat», 1993.
5. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuni. Toshkent, «Adolat», №2, 1992.
6. O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism., Toshkent, «Sharq», 1998.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ferma xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi», 1998 yil, 6 iyun.
8. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi», 1998 yil, 6 iyun.
9. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi», 1998 yil, 6 iyun.
10. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», №2, 1999 yil.
11. O'zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi», 1996 yil, 29 dekabr.
12. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni. Toshkent, «Adolat», 1992.
13. O'zbekiston Respublikasining «Er Kodeksi». O'zbekiston Respublikasi «Er kodeksi» va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari, Toshkent, «Adolat», 1999.
14. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism, Toshkent, «Sharq», 1998.
15. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi». Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 2-qism., Toshkent, «Sharq», 1998.
16. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 2-qism., Toshkent, «Sharq», 1998.
17. O'zbekiston Respublikasining «Kooperatsiya to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», №1, 1999 yil.

18.O`zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to`g`risida»gi qonuni. «Xalq so`zi», 1995 yil, 23 dekabr.

19.O`zbekiston Respublikasining «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida»gi qonuni. «Xalq so`zi», 1996 yil, 26 aprel.

20.O`zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to`g`risida»gi qonuni. O`zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to`g`risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», №1, 1999 yil.

21.O`zbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralari to`g`risida»gi qonuni. O`zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to`g`risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», №1, 1999 yil.

22.O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolik Kodeksi», “Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to`plami”, T.: “Sharq”, 2002

23. O`zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», T.: «Adolat», 1996

24.O`zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi Kodeksi», T.: «Adolat», 1995

25.O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2004 yil 26 avgustdagi «Fermer xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni, «Xalq so`zi» gazetasi, 2004 yil 15 oktyabr

26. O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonuni, «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami», T.: «O`zbekiston», 2002 y.

27.O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida»gi Qonuni, «O`zbekiston Respublikasining Er Kodeksi va qishloq xo`jaligiga oid qonun hujjatlari», T.: «Adolat», 1999 y.

28.O`zbekiston Respublikasining «Aktsiyadorlar jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida»gi Qonuni, «Xalq so`zi», 1996 yil 26 aprel

29.O`zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda «Xususiy korxonalar to`g`risida»gi Qonuni, "O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2004 yil, 3-son, 28-modda

30.O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 28 avgustdagi «Davlat Er Kadastrini to`g`risida»gi Qonuni, «O`zbekiston Respublikasining Er Kodeksi va qishloq xo`jaligiga oid qonun hujjatlari», T.: «Adolat», 1999 y.

31.O`zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida»gi Qonuni, «O`zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o`rta biznesni qo`llab-quvvatlash bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami», T.: «O`zbekiston», 2002 y.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari:

32.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2002 yil 28 avgustdagi Farmoni, Xalq so`zi, 2002 yil 30 avgust

33.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.Shaxsiy yordamchi,dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.2006 yil 23 martdagi,308 sonli qarori

34.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.2008 yil 20 oktyabr,PF-4041 sonli farmoni

35.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.2007 yil 29 oktyabr,PF-3932 sonli farmoni

36.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida.2006 yil 9 yanvar,PF-3709 sonli farmoni

37.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.2005 yil 14 iyundagi,PF-3618 sonli farmoni

38.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.2005 yil 18 noyabr,PF-3619 sonli farmoni

39.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.2008 yil 18 noyabr,PΦ-4053 son

40.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.2008 yil 28 noyabr, PΦ-4057 son

41.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash,ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida.2008 yil 28 noyabr,PΦ-4058 son

42.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.2009 yil 20 yanvar,PK-1041 son

43.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori."Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturini kuchga kiritish.2009 yil 26 yanvar,PK-1046 son

44.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.2009 yil 26 yanvar,PK-1047 son

45.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi», 2003 yil 25 mart

46.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 4 noyabrdagi «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar

tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 2004 yil 5 noyabr

47. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 2003 yil 28 oktyabr

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari:

48. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarni xamda kichik va o'rta biznes boshqa sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi 2000 yil 4 martdagi 75-sonli Qarori, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: «O'zbekiston», 2002 y.

49. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2001 yil 10 sentyabrdagi 366-sonli Qarori, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: «O'zbekiston», 2002 y.

50. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi 357 - sonli qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida NIZOM»

51. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476-sonli Qarori.

52. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi «Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 486-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

53. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir.»-Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maruzasi //Xalq so'zi 2011 yil 30 yanvar.

54. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir.»- Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi //Xalq so'zi 2011 yil 28 yanvar.

55. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»/T: O'zbekiston, 2009..

56. Karimov I.A. «Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish.»-Karimov I.A.-T.: O'zbekiston, 2009.

57. Karimov I.A. “O‘zbekiston Konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustaxkam poydevordir.”- Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi maruzasi//Xalq so‘zi 2009 yil 6 dekabr.

58. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: «O‘zbekiston», 1995.

59. Karimov I.A. Qishloq xo‘jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish. – T.: «O‘zbekiston», 1995.

60. Karimov I.A. Davlatimiz mulkini xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirish. – T.: «O‘zbekiston», 1995.

61. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti–farovonlik manbai. Toshkent, «O‘zbekiston», 1993.

62. Karimov I.A., «O‘zbekiston–bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li», T.: «O‘zbekiston», 1996 y.

63. Karimov I.A. «Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti to‘kis hayot manbai - T.: 1998.

64. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: 1999.

65. Karimov I.A. Iqtisodni erkinlashtirish–farovonlik manbai, Saylanma asarlar. T.: - O‘zbekiston, I Tom 2001.

66. Karimov I.A. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi tadbirlari. Saylanma asarlar, 9-tom. T.: 2001.

67. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – taraqqiyot garovi. Saylanma asarlar. 9-tom. T-2001.

O‘zbekiston Respublikasidagi nizom va yo‘riqnomalari:

68. «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni utkazish to‘g‘risidagi 1999 yil 20 iyuldagi 776-sonli Nizom», «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami», T.: O‘zbekiston, 2002.

69. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash to‘g‘risidagi 2000 yil 29 fevraldagi 902-sonli Tartib», «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami», T.: O‘zbekiston, 2002.

70. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs makomini olib faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklari va kichik biznesning boshqa sub'ektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash to‘g‘risidagi 903-sonli Tartib», «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami», T.: O‘zbekiston, 2002.

71. «Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklarini kichik va o‘rta biznes sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash to‘g‘risidagi 907-sonli Tartib», «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami», T.: O‘zbekiston, 2002.

72. «Tijorat banklari tomonida yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashqari jamg‘armalarning kredit liniyalari

hisobidan kreditlash to'g'risida yangi taxrirdagi 1074-sonli Tartib», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: O'zbekiston, 2002.

73.«Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitobni amalga oshiruvchi Jamg'arma to'g'risidagi Nizom», № 612-1, 25 fevral 2000.

74.O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2004 yil 6 yanvar 1295- son bilan ro'yxatga olingan «Fermer xujaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom»

75.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom (qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan birga).

76.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasi korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini lizingga olish tartibi.

77.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) tomonidan er uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

78.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning Namunaviy Ustavi».

79.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligi tomonidan er uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

80.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligining Namunaviy Ustavi».

81.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligi xodimlarini yollash to'g'risida namunaviy shartnoma».

82.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi».

83.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moddiy-texnika resurslari etkazib berishga namunaviy shartnoma».

84.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xizmat ko'rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma».

85.O'zbekiston Respublikasi «O'zagrosug'urta» DASKning 2003 yil 31 yanvardagi 03/59 -sonli «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi

xo`jaliklarning ekinlardan kam hosil olish natijasida ko`rilgan moliyaviy zararni ixtiyoriy sug`urta qilish Qoidalari»

86.O`zbekiston Respublikasi «O`zagrosug`urta» DASKning 2003 yil 28 fevraldagi 03/97-sonli «Qishloq xo`jaligi hayvonlarini tabiiy ofatlar, kasalliklar va boshqa voqealar natijasida nobud bo`lishidan yoki majburiy so`yilishidan ixtiyoriy sug`urta qilish Qoidalari»

ASOSIY ADABIYOTLAR.

Darsliklar.

O`zbekiston Respublikasida chiqarilgan adabiyotlar:

1. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A.A., «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti», T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi», 2006

2. Hamdamov Q.S. «Qishloq xo`jaligi korxonalarini faoliyatini boshqarish», T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi nashriyoti», 2004

3. Vahobov A., Ibragimov A., «Moliyaviy tahlil». T.: Sharq, 2002.

4. Salimov B.T. va boshq., «Dehqon va fermer xo`jaliklari iqtisodi», T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi», 2004

5. Murtazoyev O. Agrosanoat majmuasi iqtisodiy samaradorligi. T. Fan-2007, 275 b.

6. Oripov M.A. O`zbekiston dehqonchiligida infratuzilma xizmatlari ko`rsatishni rivojlantirish. T. Fan. 2007 y, 192 b

7. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli asarini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma. T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.

7. O`zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo`lida. (Bekmurodov A.Sh, G`afurov U.V) T.: Iqtisodiyot, 2008.-126 b. (electron versiyasi bilan)

8. Hakimov R. va boshq., «Agrosanoat majmui iqtisodi», T.: «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg`armasi», 2004

9. Husanov R.H., M.Qosimov, «Dehqon xo`jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari», T.: Cho`lpon, 2000

10. B.Xodiev va boshq., «Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari», T.: Konsauditinformnashr, 2004

11. Choriev Q., Berkinov B., Dehqon va fermer xo`jaliklarini tashkil etish va yuritishning xuquqiy – me`yoriy asoslari, T.: Sharq, 2002.

Rossiyada chiqarilgan adabiyotlar:

12. Korolev Yu.B. i dr., «Menedjment v APK», M.: Kolos, 2002

13. Petranova G.A., «Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve», M.: Akademiya, 2003

14. Alan Vest, «Biznes – plan: uchebno- prakticheskoe posobie» Perevod s angliyskogo N.I.almazovoy i Bulinoy I.Yu. - M.: «Prospekt», 2004

15. Blank I.A. «Osnova finansovogo menedjmenta». 2-x tom, K.: «Nika-sentr» «Elga», 1999.

16. Barns L.B. i dr., «Prepodavanie i metod konkretno`x situatsiy» – M., 2000

17. Bogatin Yu.V., Shvandar V.A., «Investitsionno`y analiz. uchebnoe posobie», - M.: YuNITI, 2001
 18. Bakanova M.N., Sheremetova A.D., «Ekonomicheskiy analiz: situatsii, testo`, primero`, zadachi, vo`bor optimalno`x resheniy, finansovoe prognozirovaniye», - M.: Finansi i statistika, 2004
 19. Goremikin V.A., «Lizing», M.: Kolos, 2003
 20. Endovskiy D.L. i dr., «Praktikum po investitsionnomu analizu»- M.: FiS, 2003
 21. Ilina Z.M., Mirovitskaya I.V., «Ro`nki selkoxozyaystvennogo so`rya i prodovolstviya», Minsk, BGEU, 2001
 22. Ivanov L.N, Ivanov A.L., «Metodo` prinyatiya resheniy biznes – plana» - M.: Prior - izdat, 2004
 23. Kovalev V.V., «Praktikum po finansovomu menedjmentu. Konspekt lektsiy s zadachami», - M: Finansi i statistika, 2004
 24. Kolensnikovoy N.A., Mironova A.D., «Biznes–plan. Metodicheskie materialo`», - M.: Finansi i statistika, 2004
 25. Lehenko M.I., «Osnovi lizinga: Uchebnoe posobie», - M.: Finansi i statistika, 2004
 26. Minakov I., «Ekonomika selkoxozyaystvennogo predpriyatiya», Uchebnik, M.: Kolos, 2004.
 27. Makavets L.I., Makavets M.N., «Ekonomika proizvodstva selkoxozyaystvennogo proizvodstva», Sankt_Peterburg, 2002
 28. Mazurina T.Yu., Skamay L.G., «Finansi firmi», Praktikum: Ucheb. posobie. - M.: INFRA-M, 2004
 29. I.A. Napetova, «Analiz finansovo xozyaystvennoy deyatelnosti», - M.: Forum-Infra-M, 2004
 30. Niklyayev V.S., «Osnovo` texnologii selkoxozyaystvennogo proizvodstva: zemledelie i rasteniyevodstvo», M.: Bo`lina, 2000
 31. Popov N.A., «Ekonomika selkogo xozyaystva», M.: Delo i servis, 2002
 32. Serova E.V «Agrarnaya ekonomika», M.: Gosudarstvenno`y universitet Vo`sshaya shkola ekonomiki, 1999
 33. Savitskaya G.V., «Analiz proizvodstvenno-finansovoy deyatelnosti selkoxozyaystvenno`x predpriyatii», M.: INFRA, 2003
 34. Suxova L.F., Chernova N.A., Praktikum po razrabotke biznes-plana i finansovomu analizu predpriyatiya» - M.: Finansi i statistika, 2002.
 35. Utkin E. A., Frolov D. A. Upravlenie riskami predpriyatiya. - M.: TEIS, 2003
 36. Tsipkin Yu.A. i dr., «Agromarketing i konsalting», M.: YUNITI-DANA, 2002
- Ilmiy maqolalar:
37. Abdug`aniev A. Qishloq xo`jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. «Iqtisod va hisobot» jurnali, 1997 yil 3-son.
 38. Abdug`aniev A. Fermer xo`jaliklarini rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish yo`llari. «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali, №4, 2002.

39. Abdug`aniev A. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning ayrim masalalari. «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali, №1, 2002.

40. Abdug`aniev A. Kadrlar – hal qiluvchi kuch. «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali, №2, 2002.

41. Abdug`aniev A. Tadbirkorlikda xarajatlarni rejalashtirish. «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali, №6, 2001.

42. Abdug`aniev A. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi nimalarga bog`liq? «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali, №1, 2001.

Nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari.

43. Maturdiev G. Problemi upravleniya i modelirovaniya ekonomicheskix protsessov agrarnogo ro`nka (v usloviyax Kirgizskoy Respubliki). Ekonomika i upravleniya narodnom xozyaystvom. Avtoreferat disser. Doktora ekon.nauk. SEY KR, Bishkek, 2000.

Ilmiy-amaliy anjumanlar ma`ruzalari to`plami:

44. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O`zbekiston Respublikasi korhonalari va tashkilotlarida resurslardan samarali foydalanish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallar tezisi (noyabr, 2005.). Toshkent, TDIU, 2005.

45. Mintaqa tabiiy resurslaridan foydalanishning bozor mexanizmi va uni takomillashtirish muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ma`ruzalar tezisi (fevral, 2005). Toshkent, TDIU, 2005.

Bitiruv malakaviy ishlar:

46. Sug`oriladigan yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 2005.

Gazeta va jurnallar:

47. «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali

Statistik ma`lumotlar to`plamlari:

48. Sel'skoe xozyaystvo Respubliki Uzbekistan 2004. , Tashkent, 2005.

Internet saytlari:

1. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. www.tsue.uz

2. www.uhh.hawaii.edu University of Hawaii at Hilo – Agroecology and Environmental Quality Program.

3. www.ecfak.timacad.ru Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya.

4. www.admin.ru Institut Agroekonomiki i Biznesa Priamurskiy.

5. Mardonova A.T., Ishoqova S.A. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni ro'yobga chiqarishning dolzarb uslublari. www.ski.ilm.uz

6. Saratovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.tstu.ru

7. Rozvoj integratsiya i infrastruktura. www.deloitte.com

8. Ikkinchi asosiy faktor esa infrastruktura va soliq yuki. www.forum.uz

9. LBR – selskoxozyaystvennaya texnika, kombayno`, kosilki, seyalki, zapchasti k selxoztexniki www.lbr.ru

10. Radio Tashkent International. http://info.uzpak.uz/uzb/econom_uzb/

11. Recently Published Books. www.eastview.com

- 12 Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.ecfak.timacad.ru
13. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru
14. Petraneva G.A. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003. <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
15. Popov N.A. «Osnovo` ro`nochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M.: Tandem, 2002, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
16. Popov N.A. Ekonomka otrasley APK. Kurs lektsii, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.htm>
17. Kovalenko N.Ya. Ekonomika selskogo xozyaystva, M. «Yurkniga». 2004 <http://shopper.h1.ru/books.shtml?o`topic=935&page=1>
18. Korolev Yu.B. i dr. Menedjment v APK, 2002, uchebnik, a. <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?o`page=4&book=88899>
19. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, 2003, <http://psbatishev.narod.ru/library/03762.htm>
20. <http://www.bookler.ru/bookisbn/5-7695-1158-3.shtml>

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I BOB. QISHLOQ XO`JALIGINING RESPUBLIKA IQTISODIYOTIDAGI O`RNI, AHAMIYATI. «QISHLOQ XO`JALIGI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, TADQIQOT USULLARI.....	7
1.1. Qishloq xo`jaligining respublika iqtisodiyotidagi o`rni va ahamiyati.	7
1.2. Agrar islohotlar, ularning ustuvor yo`nalishlari.....	9
1.3. «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanning predmeti hamda vazifalari, ularni tadqiq qilish, o`rganish usullari.....	12
1.4. «Qishloq xo`jalik iqtisodiyoti» fanining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.	14
Tayanch iboralar.....	15
Qisqacha xulosalar.....	15
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	16
Asosiy adabiyotlar.....	16
Internet saytlari.....	16
II BOB. O`ZBEKISTON AGROSANOAT MAJMUASI VA UNING RIVOJLANISHI.....	17
2.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi....	17
2.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o`rtasidagi munosabatlar	24
2.3. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi, ularni rivojlantirilishi.....	28
2.4. Oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari majmuasi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi.....	34
Tayanch iboralar.....	36

Qisqacha xulosalar.....	36
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	36
Asosiy adabiyotlar.....	37
Internet saytlari.....	37
III BOB. BOZOR IQTISODIGA O'TISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA DAVLAT RAHBARLIGI VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN AGRAR- IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	38
3.1. O'tish davrida qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligi.....	38
3.2. Respublika agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning yo`nalishlari.....	41
3.3. Yer islohoti, uning amalga oshirilishi.....	43
3.4. Qishloq xo'jaligida mulk islohatlari.....	46
3.5. Moliya, kredit, soliq va baholar islohoti.....	48
Tayanch iboralar	51
Qisqacha xulosalar.....	51
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	51
Asosiy adabiyotlar.....	52
Internet saytlari.....	52
IV BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA MULK VA TADBIRKORLIK SHAKLLARI.....	53
Mulk va tadbirkorlik haqida tushuncha, uning iqtisodiy negizi, shakllari.....	53
4.2. Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalarini, ularning rivojlanishi.....	56
4.3. Jamoa va shirkat xo'jaliklari, ularning hozirgi holati.....	57
4.4. Fermer xo'jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.....	67
Fermer xo'jagining huquqiy, iqtisodiy asoslari, ularni tashkil etish tartibi.....	69
Respublikada fermer xo'jaliklarining rivojlanishi.....	71
Dehqon va oila tamorqa xo'jaliklari.....	78
Qishloq xo'jaligidagi qo'shma korxonalar.....	81
Tayanch iboralar.....	83
Qisqacha xulosalar.....	83
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	83
Asosiy adabiyotlar.....	84
Internet saytlari.....	84
V BOB. YER-SUV RESURSLARI, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	85
5.1. O'zbekistonning yer – suv fondi. Ularni foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi.....	85
5.2. Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, ularning maydoni, tarkibi, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi....	88
5.3. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.....	91

5.4.Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligi, uni oshirish yo'llari.....	94
5.5.Yer monitoringi va davlat yer kadastrini.....	101
Tayanch iboralar.....	106
Qisqacha xulosalar.....	106
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	107
Asosiy adabiyotlar.....	107
Internet saytlari.....	107
VI BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI, FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI, ILG'OR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	108
6.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi.....	108
6.2. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo'nalishlari, samarali innovatsion texnologiyalar.....	112
6.3. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.....	115
6.4. Bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini shakllantirish, ularning bozori, texnika taraqqiyotini joriy etish, ulardan samarali foydalanish.....	119
Tayanch iboralar.....	128
Qisqacha xulosalar.....	128
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	129
Asosiy adabiyotlar.....	129
Internet saytlari.....	130
VII BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY VA AYLANMA FONDLARI, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	131
7.1. Asosiy va aylanma fondlar (vositalar) haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi.....	131
7.2. Asosiy fondlari (vositalar) va ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.....	134
7.3. Aylanma fondlar (vositalar), ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.....	138
7.4. Asosiy va aylanma vositalarning, fondlarning shakllantirilishi, barpo etilishi.....	142
7.5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy va aylanma fondlar (vositalar) dan samarali foydalanish va ularning yuksalishini ta'minlash yo'llari.	144
Tayanch iboralar.....	147
Qisqacha xulosalar.....	147
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	148
Asosiy adabiyotlar.....	148
Internet saytlari.....	148
VIII BOB. MEHNAT RESURSLARI, BOZORI, ULARDAN FOYDALANISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI.....	150

8.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	150
8.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.....	152
8.3. Qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslari, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi.....	155
8.4. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori va uni rivojlantirish masalalari.	159
8.5. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.....	164
Tayanch iboralar.....	166
Qisqacha xulosalar.....	166
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	166
Asosiy adabiyotlar.....	167
Internet saytlari.....	167
IX BOB. INVESTITSİYALAR (KAPITAL QO`YILMALAR), ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	168
9.1. Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati.....	168
9.2. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning manbalari, ularning sarflanish yo'nalishlari.....	171
9.3. Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.....	175
9.4. Investitsiya (kapital qo'yilma) lar darajasi, dinamikasi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi.....	178
9.5. Investitsiya (kapital qo'yilma) lar ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo'llari.....	182
Tayanch iboralar.....	191
Qisqacha xulosalar.....	191
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	192
Asosiy adabiyotlar.....	192
Internet saytlari.....	193
X BOB: QISHLOQ XO`JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, UNING TAQSIMLANISHI VA KO`PAYTIRISH YO`LLARI.....	194
10.1. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati.....	194
10.2. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti tarkibi dinamikasi (o'zgarishi).	197
10.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash va sotish.....	203
10.4. Sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning xududiy asosi, turlari, mazmun va mohiyati.....	208
10.5. Qishloq xo'jalik sub'ektlaridagi ichki shartnomaviy munosabatlar.....	214
10.6. Yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari.....	215
10.7. Shartnomalar bajarilish monitoringi.....	218
Tayanch iboralar.....	218

Qisqacha xulosalar.....	219
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	219
Asosiy adabiyotlar.....	219
Internet saytlari.....	220
XI BOB. QISHLOQ XO`JALIGIDA SERVIS TIZIMI, UNI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI.....	221
11.1. Qishloq xo`jaligida servis tizimi, uning mohiyati, zarurligi va ahamiyati....	221
11.2. Qishloq xo`jaligida servisni ta`minlaydigan infratuzilma tizimi va uning tarkibi.....	223
11.3. Tarmoqdagi infratuzilmani rivojlanishini va samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash tartibi.....	226
11.4. Infratuzilma subyektlari ularning faoliyatini hozirgi holati.....	231
11.5. Qishloq xo`jaligida infratuzilma subyektlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo`llari.....	238
11.6. Chet el davlatlarida agroservis subyektlarini tashkil etilishi va faoliyati.....	239
Tayanch iboralar.....	242
Qisqacha xulosalar.....	242
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	242
Asosiy adabiyotlar.....	243
Internet saytlari.....	243
XII BOB. QISHLOQ XO`JALIGIDAGI (JORIY VA O`RTACHA) XARAJATLAR, ULARNI KAMAYTIRISH YO`LLARI.....	244
12.1. Qishloq xo`jaligidagi xarajatlar ularning ahamiyati.....	244
12.2. Xarajatlar tarkibi ularning turkumlashtirilishi.....	246
12.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o`rtacha xarajatlar) uning turlari va aniqlanish tartibi.....	255
12.4. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining tannarx darajasi, dinamikasi va xarajatlarni qisqartirish, mahsulotlar tannarxlarini pasaytirish yo`llari....	260
Tayanch iboralar.....	265
Qisqacha xulosalar.....	265
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	265
Asosiy adabiyotlar.....	266
Internet saytlari.....	266
XIII BOB QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINING BAHOLARI, ULARNING TAKOMILLASH TIRILISHI.....	267
13.1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funksiyalari.....	267
13.2. Qishloq xo`jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi...	270
13.3.Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari...	275
Tayanch iboralar.....	277
Qisqacha xulosalar.....	277
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	277
Asosiy adabiyotlar.....	277
Internet saytlari.. ..	278

XIV BOB. KORXONALARNING DAROMADLARI, FOYDALARI, ULARNING TAQSIMLANISHI. ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	279
14.1. Qishloq xo`jalik korxonalarining daromad va foydalari, iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati.....	279
14.2. Daromadni, foydani, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash tartibi....	280
14.3. Qishloq xo`jaligi daromadlari, yalpi va sof foydasining o`zgarishi....	283
14.4. Qishloq xo`jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko`paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo`llari.....	286
Tayanch iboralar.....	287
Qisqacha xulosalar.....	288
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	288
Asosiy adabiyotlar.....	288
Internet saytlari.....	289
XVBOB. O`SIMLIKCHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI.....	290
15.1. O`simlikchilik tarmoqlarining ahamiyati.....	290
15.2. O`simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotining hozirgi holati.....	291
15.3. O`simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari.....	299
Tayanch iboralar.....	301
Qisqacha xulosalar.....	301
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	302
Asosiy adabiyotlar.....	302
Internet saytlari.....	302
XVIBOB. CHORVACHILIK (QORAMOLCHILIK, QO`YCHILIK, ECHKICHILIK) TARMOQLARI IQTISODIYOTI.....	303
16.1. Chorvachilik tarmoqlari mahsulotlarining ahamiyati.....	303
16.2. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtiriladigan mahsulotlar darajasi va samaradorligi.....	304
16.3. Chorvachilik tarmoqlarini, ularda mahsulot etishtirishni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo`llari.....	312
Tayanch iboralar.....	314
Qisqacha xulosalar.....	314
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	315
Asosiy adabiyotlar.....	315
Internet saytlari.....	315
GLOSSARIY.....	316
ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	321
MUNDARIJA.....	331

CONTENTS	5
INTRODUCTION.....	5
CHAPTER 1. ROLE AND IMPORTANCE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY. SUBJECT, METHODS OF RESEARCH OF THE COURSE	7
1.1. Role and importance of agriculture in the economy of the country.....	7
1.2. Priority directions in agricultural reforms	9
1.3. Methods of researching the subject and aim of the course.....	12
1.4. Relations of the subject “Economy of agriculture” with other courses.....	14
Key words.....	15
Brief conclusions.....	15
Questions for discussion and control.....	16
Main literature.....	16
Web sites.....	16
CHAPTER 2. AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX OF UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT.....	17
2.1. Necessity, tasks and structure of the agro-industrial complex.....	17
2.2. Interrelations of the agro-industrial complex with other branches.....	24
2.3. Status of the agro-industrial complex, level of economic and social efficiency.....	28
2.4. Complex of food and the goods of national consume. Food safety of the state.....	34
Key words.....	36
Brief conclusions.....	36
Questions for discussion and control.....	36
Main literature.....	37
Web sites.....	37
CHAPTER 3. GOVERNMENT LEADERSHIP IN TRANSITION TO MARKET ECONOMY AND AGRICULTURAL–ECONOMIC REFORMS CARRIED OUT.....	38
3.1. Governmental leadership in agriculture in the period of transition.....	38
3.2. Land reform and its performance.....	41
3.3. Privatization of the property.....	43
3.4. Reforms of finance, tax and price.....	46
Key words.....	48
Brief conclusions.....	51
Questions for discussion and control.....	51
Main literature.....	51
Web sites.....	52
CHAPTER 4. FORMS OF PROPERTY AND ENTREPRENURSHIP IN AGRICULTURE.	53
4.1. Concept of property and entrepreneurship, its economic base and forms.....	53
4.2. State enterprises in agriculture.....	56
4.3. Shirkats and collective farms, their development.....	57
4.4. Concept of farms, their objectives and tasks.....	67
4.5. Legal and economic foundation of farms, procedures to set – up farms	69
4.6. Development of farms in Uzbekistan and their effections	71
4.7. Development perspectives of farms in Uzbekistan	78
4.8. Joint ventures in agriculture.....	81
Key words.....	83

Brief conclusions.....	83
Questions for discussion and control.....	83
Main literature.....	84
Web sites.....	84
CHAPTER 5. WATER AND LAND RESOURCES AND THEIR EFFECTIVE USAGE...	85
5.1. Role of land and water resources in agriculture and their features, structure of its area, its distribution among users	85
5.2. Parameters indicating the efficiency of using land and water, order of their calculation...	88
5.3. Ways of increasing efficiency of using of land and water.....	91
5.4. Monitoring of land and state cadaster of land.....	94
Key words.....	101
Brief conclusions	106
Questions for discussion and control.....	106
Main literature.....	107
Web sites.....	107
CHAPTER 6. MATERIAL AND TECHNICAL RESOURCES OF AGRICULTURE, SCIENTIFIC AND TECHNICAL PROGRESS, HIGH TECHNOLOGIES AND THEIR USAGE.....	108
6.1. Concept of material and technical resources, their essence, features and classification.....	108
6.2. Scientific and technical progress, its directions, effective technologies.....	112
6.3. Parameters indicating the level of provision with material and technical resources and their usage, order of their calculation.....	115
6.4. Formation of material and technical resources of agriculture in the conditions of market economy, performance the technical progress, their effective usage in market.....	119
Key words.....	128
Brief conclusions.....	128
Questions for discussion and control.....	129
Main literature.....	129
Web sites.....	130
CHAPTER 7. FIXED AND CIRCULATION FUND OF AGRICULTURE, THEIR EFFECTIVE USAGE.....	131
7.1. Concept of fixed and circulation funds (tools), their essence and classification.....	131
7.2. Fixed and circulation funds (tools) and parameters indicating the level of using them, their prediction.....	134
7.3. Circulation funds (tools), parameters indicating their efficiency, their them, their prediction.....	138
7.4. Formation, creation of fixed and circulation tools, funds.....	142
7.5. Effective utilization of fixed and circulation funds (tools) in conditions of market economy and the ways maintenance of its increase.....	144
Key words.....	147
Brief conclusions	147
Questions for discussion and control.....	148
Main literature.....	148
Web sites.....	148
CHAPTER 8. MANPOWER, LABOR MARKET, THEIR USAGE AND LABOR EFFICIENCY.....	150

8.1. Essence of manpower and its efficiency in agriculture.....	150
8.2. Usage of manpower and parameters reflecting its efficiency, order of their calculation.....	152
8.3. Manpower of the agriculture, their usage and level of its efficiency.....	155
8.4. Labor market in agriculture and problems of its development.....	159
8.5. Ways of increasing the labor efficiency, improvement of the usage of manpower.....	164
Key words.....	166
Brief conclusions.....	166
Questions for discussion and control.....	166
Main literature.....	167
Web sites.....	167
CHAPTER 9. INVESTMENTS (CAPITAL INVESTMENTS), THEIR ECONOMIC EFFICIENCY.....	168
9.1. Concept of investments (capital investments), its economic and social necessity and importance.....	168
9.2. Source of investments (capital investments) spent to agriculture, their directions.....	171
9.3. Parameters reflecting economic efficiency of investments (capital investments), their calculation.....	175
9.4. Level, dynamics of investments (capital investments) and their social and economic efficiency.....	178
9.5. Increasing the volume of investments (capital investments) and ways of increasing their efficiency.....	182
Key words.....	191
Brief conclusions.....	191
Questions for discussion and control.....	192
Main literature.....	192
Web sites.....	193
CHAPTER 10. GROSS AND COMMODITY PRODUCTION IN AGRICULTURE, WAY OF THEIR DISTRIBUTION AND INCREASE.....	194
10.1. Concept of gross and commodity production in agriculture, their essence.....	194
10.2. Distribution, realization of agricultural products and level of marketability.....	197
10.3. Allocation of agricultural products, level of their marketability.....	203
10.4. Internal contractive relationships in agricultural entities.....	208
10.5. Legal basis of relationships among entities, their types, essence and necessity.....	214
10.6. Increasing gross production, ways of increasing their quality.....	215
Key words.....	218
Brief conclusions.....	218
Questions for discussion and control.....	219
Main literature.....	219
Web sites.....	219
CHAPTER 11. SERVICE SECTOR IN AGRICULTURE, WAY OF ITS IMPROVEMENT.....	221
11.1. Service sector in agriculture, its importance, necessity and essence.....	221
11.2. Infrastructure and its content in the service sector of agriculture.....	223

11.3. Parameters indicating development and efficiency of infrastructure in the sector and the way their identification	226
11.4. Infrastructural entities and current position of their activity.....	231
11.5. Development and increasing efficiency of infrastructural entities in agriculture.....	238
11.6. Creation and activity of agro service entities abroad.....	239
Key words.....	242
Brief conclusions.....	242
Questions for discussion and control.....	242
Main literature.....	243
Web sites.....	243
CHAPTER 12. EXPENSES (CURRENT AND AVERAGE) IN AN AGRICULTURE, WAYS OF THEIR REDUCTION.....	244
12.1. Expenses in agriculture, their essence.....	244
12.2. Composition of expenses, their classification.....	246
12.3. Concept of cost price (average costs), their types and order of their calculation.....	255
12.4. Level, dynamics of cost price of agricultural products and ways of reduction expenses and cost price of products.....	260
Key words.....	265
Brief conclusions.....	265
Questions for discussion and control.....	265
Main literature.....	266
Web sites.....	266
CHAPTER 13. PRICE OF AGRICULTURAL PRODUCTS, THEIR PERFECTION...	267
13.1. Economic meaning of price, its essence and functions.....	267
13.2. System of prices of agriculture, their level and dynamics.....	270
13.3. Problems of improving the prices in conditions of market economy.....	275
Key words.....	277
Brief conclusions.....	277
Questions for discussion and control.....	277
Main literature.....	277
Web sites.....	278
CHAPTER 14. INCOME, PROFIT OF AGRICULTURE, ITS DISTRIBUTION, ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION....	279
14.1. Income, profit of agricultural firms, concept of economic efficiency, their essence.....	279
14.2. Order of calculation of income, profit, economic efficiency	280
14.3. Elasticity of income, total and profit of agriculture.....	283
14.4. Increasing the monetary income, total and net profit of agriculture, ways of increasing the economic efficiency.....	286
Key words.....	287
Brief conclusions.....	288
Questions for discussion and control.....	288
Main literature.....	288
Web sites.....	289
CHAPTER 15. ECONOMY PLANT-GROWING BRANCHES.....	290

15.1. Importance plant-growing branches.....	290
15.2. Present condition of economy of plant-growing branches.....	291
15.3. Problems of development of economy plant-growing branches...	299
Key words.....	301
Brief conclusions.....	301
Questions for discussion and control.....	302
Main literature.....	302
Web sites.....	302
CHAPTER 16. ECONOMY OF ANIMAL HUSBANDRY (CATTLE BREEDING, SHEEP RISING, GOAT BREEDING) BRANCHES...	303
16.1. Importance of products of animal husbandry branches.....	303
16.2. Level and efficiency of products of animal husbandry branches...	304
16.3. Improving ways of animal husbandry branches and their products and increasing their efficiency.....	312
Key words.....	314
Brief conclusions.....	314
Questions for discussion and control.....	315
Main literature.....	315
Web sites.....	315
GLOSSARY.....	316
LIST OF BIBLIOGRAPHY.....	321
CONTENTS	331



Abdug'aniyev Abdulatif iqtisod fanlari doktori, "Tarmoqlar iqtisodi" kafedrasining professori. U 3 ta monografiya, 2 ta darslik, 5 risola, 6 oquv qo'llanma, 4 ma'ruzalar matni va 190 tadan ortiq ilmiy-amaliy maqolalar muallifi. Ulardan 20 tadan ortig'i Rossiya Federatsiyasida, Ukraina va Belorussiya Respublikalarida hamda Ispaniyada chop etilgan. Ilmiy ishlari agrosanoat majmuasi hamda qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirish, ularing samaradorligini yuksaltirishga bag'ishlangan.

Domlaning rahbarligida 4 ta fan doktori, 18 ta fan nomzodlari tayyorlangan.

Abdug'aniyev Abduqahhor Abdulatifovich iqtisod fanlari doktori. U AQShda 2 tomlik "Boshqaruv hisobi metodologiyasi" o'quv qo'llanma, 4 ta o'quv uslubiy qo'llanma hamda 40 dan ortiq ilmiy-amaliy maqolalarni chop etgan. Ulardan 8 tasi AQShda va Rossiya Federatsiyasida chop etilgan. Ilmiy ishlari boshqaruv hisobi va moliyaviy hamda boshqaruv tahlilini rivojlantirishga baq'ishlangan. U Xalqaro dasturlar g'olibi sifatida AQSh, Gollandiya, Angliya, Rossiya Federatsiyasi, Italiya davlatlarida bir necha bor o'z malakasini oshirgan.